

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

R.SAYFULLAYEVA, B.MENGLIYEV, G.BOQIYEVA,
M.QURBONOVA, Z.YUNUSOVA, M.ABUZALOVA

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

20611/4

TOSHKENT – 2009

Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T., «Fan va texnologiya», 2009. – 416 b.

O'quv qo'llanma – 5A220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) bakalavri yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlangan.

Qo'llanma uzluksiz ta'lim tizimida 1999-yilning 16-avgustida tasdiqlanib, umumiy o'rta ta'limda joriy etilgan «Ona tili» (qar.: Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti». 1999, 1-maxsus son), 2000-yilning 10-avgustida ma'qullanib, akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar va filologiya yo'nalishida 2000–2001 o'quv yilida tatbiq qilingan «Hozirgi o'zbek tili» o'quv dasturining (tuzuvchilar A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, N.Qosimova) bevosita davomi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash prezidiumida muhokama etilgan va tasdiqlangan (2002-yil 15-iyun, 27-bayonnoma) 5A220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) bakalavri yo'nalishi uchun namunaviy o'quv dasturi (tuzuvchilar H.Ne'matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva., M.Qurbonova, Toshkent, O'zMU, 2008) asosida yozilgan.

Qo'llanma 1993–2006-yillar chop etilib, sinovdan o'tkazilgan bir necha o'quv qo'llanmalari asosida yaratildi. Tajriba-sinov davomida akademik A.Hojiyev, professorlar A.Nurmonov, N.Mahmudovlar tomonidan bildirilgan tegishli taklif-mulohazalar ushbu nashrda inobatga olindi.

O'quv qo'llanmani yaratishda o'zbek tilini substansial tadqiq qilish natijasida erishilgan yutuqlarga tayanilgan.

Mas'ul muharrir: **H.NE'MATOV** – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: **R.RASULOV** – filologiya fanlari doktori, professor; **V.KARIMJONOVA** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978–9943–10–208–8

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009.

«DAVLAT TILI HAQIDA»GI QONUNNING
20 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI

MAS'UL MUHARRIRDAN

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari uchun O'zR Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-Qarori asosida O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2002-yilning 18-iyunida tasdiqlanib, BM-343-52201-131-raqami bilan qayd etilgan, O'zMU, SamDU, BuxDU, QarDUda sinovdan o'tgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» namunaviy dasturi (tuzuvchilar H.Ne'matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova) asosida yozilgan, unda hozirgi o'zbek tilining asosiy sathlari tizimlarining lisoniy holati talqini va nutqiy voqelanishi yoritildi.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quv fanining nomi («Hozirgi o'zbek adabiy tili») XX asrning ikkinchi yarmida yetakchilik qilgan **o'zbek formal tilshunosligi** ta'siri ostida shakllangan va an'ana sifatida o'quv rejasidan o'quv rejasiga ko'chib kelmoqda. Shuning uchun bu muqaddimada fanimizda mavjud bo'lgan ikki ilmiy yo'nalish – **formal tahlil** va **substansial tahlil** haqida qisqa ma'lumot berish zarur.

Tilshunoslikda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida **formal yo'nalish** ijtimoiy ehtiyoj natijasida shakllangan va o'z oldiga, asosan:

– ommaviy savodxonlikni ta'minlash;
– zamonaviy adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish;
– adabiy til me'yorlarini ommalashtirish

kabi o'z davri uchun o'ta zarur masalalar yechimini maqsad qilib qo'ygan, tilshunoslik nazariyasi ham, ona tili ta'limi ham mana shunga xizmat qilar edi. Jamiyat oldida ommaviy savodxonlikni ta'minlash, shevalararo farqlarni yo'qotish, adabiy tilni ommalashtirish, til va xalqning tarixiy yozma yodgorliklarini nashr etish va yoyish, ta'limni zamonaviy usullarda yo'lga qo'yish kabi amaliy vazifalar turgan paytda eng samarali va eng qulay lingvistik tavsif va ta'lim yo'li mana shu formal usuldir. Shuning uchun jahonning barcha ilg'or davlatlari tilshunosligida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu ilmiy yo'nalish keng ommalashdi. O'zbek tilshunosligida ham bunday yo'nalishning tamal toshlarini Abdurauf Fitrat, Elbek, Qayum Ramazon kabilar

qo'ygan bo'lsalar-da, uning keng va izchil ommalashishi professor Ayub G'ulomov nomi va faoliyati bilan bog'liq.

XX asrning boshi va o'rtalarida o'zbek madaniyati va fani uchun juda zarur bo'lgan formal tilshunoslik ta'siri ostida oily o'quv yurtlarining filologik yo'nalishlarida asosiy maqsad o'zbek adabiy tili me'yorlarini ommalshtirish bo'lganligi sababli o'quv fani ham shunday nomlangan. Davr, maqsad va vazifalar tamoman o'zgargan, tilshunoslik zamon talabi bilan uzviy bog'liqlikda boshqa tahlil usullariga o'tib ketgan bo'lsa ham, o'quv fanining nomlanishi saqlanib qolmoqda.

Qo'llanma o'zbek formal tilshunosligi yutuqlariga tayanib, funksional-struktural (Praga strukturalizmi) tahlil usullarini ongli, izchil, dialektik tamoyillar bilan to'ldirib, tilga tafakkurni shakllantiruvchi va rivojlantiriruvchi, nutqiy muloqotda son-sanoqsiz shakll va ko'rinishlarda voqelanadigan, har bir voqelanish ko'rinishi o'ziga xos maqsad va vazifaga ega bo'lgan *imkoniyatlar xazinasi* sifatida yondashadigan **o'zbek substansial tilshunosligi** talqinlarini o'z ichiga oladi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» yosh avlodning mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur ko'nikmalariga ega bo'lishini talab qiladi. Bunday ko'nikma va malakalarni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri esa tarbiyalanuvchilarga o'zbek tili imkoniyatlari xazinasini ochish, undan ijodiy va unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Bunday ehtiyoj hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida shakllangan va tilimizning asosiy sathlari birliklarining nisbatan yaxlit tavsifini bergan ilmiy yo'nalishlardan substansial tahlil usullari bilan qondirilishi mumkin. Shuning uchun davr va oliy ta'lim DTSlari talablariga mos mazkur dastur asosida tuzilgan bu qo'llanmada asosiy e'tibor, *adabiy til me'yorlarini ommalashtirishga* emas, balki **lisoniy imkoniyatlar xazinasini ochish va boyitish, bu xazinadan nutqning turli ko'rinishlarida ijodiy, unumli va samarali foydalanish malakalarini hosil qilishga** qaratilgan. Substansial tahlil nuqtayi nazaridan esa «*Hozirgi o'zbek adabiy tili*» tushunchasi va atamasi *hozirgi o'zbek tili* (hozirgi o'zbek tili lisoniy imkoniyatlari)ning muayyan bir voqelanish ko'rinishi, ya'ni tom ma'noda nutqiy ko'rinishlardan birining nomi. Shuning uchun o'quv qo'llanmasining sarlavhasi ham uning tanlovda g'olib chiqqan ilk nashridagidek — «*Hozirgi o'zbek tili*» bo'lishi lozim edi. Lekin o'quv rejalarida fanining *adabiy til* deb nomlanishi bunga monelik qildi. Kitobxon shuni yaxshi bilishi kerakki, adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish, o'rganish va ommalashtirish formal

tilshunoslik, til (jumladan, ona tili)ning ichki imkoniyatlarini va ularning voqelanish usullarini o'rganish va o'rgatish esa substansial tilshunoslik oldida turgan ijtimoiy buyurtma — vazifa. Shu bilan *substansial tilshunoslik*, bir tomondan, *formal tilshunoslik*dan, ikkinchi tomondan, sof *struktural-funksional* tahlil (Praga strukturalizmi) dan tubdan farq qiladi va fanda *yangi bir ilmiy yo'nalish* mavqeni kasb etadi.

Qo'llanma o'quv-metodik maqsadlarni ko'zlayotganligi va o'zbek tilshunosligining ma'lum bir bosqichini (jumladan, formal-funksional, substansial yo'nalishdagi tadqiqotlarni) yakunlovchi ish bo'lganligi sababli unda A.Abduazizov, M.Abuzalova, Sh.Akramov, T.Asadov, B.Badriddinova, E.Begmatov, Sh.Bobojonov, O.Bozorov, M.Boshmonov, I.Madrahimov, N.Mahmudov, B.Mengliyev, S.Muhammadjonova, N.Musulmonova, D.Nabiyeva, M.Narziyeva, S.Nazarova, G.Ne'matova, L.Ne'matova, A.Nurmonov, D.Nurmonova, Sh.Orifjonova, R.Rasulov, Sh.Rahmatullayev, R.Sayfullayeva, R.Safarova, H.Saidova, H.Usmonova, B.Yorov, L.Raupova, B.Qilichev, S.G'iyosov, Sh.Shahobiddinova, N.Shirinova, O.Shukurov, M.Qurbonova, Z.Yunusova, N.Yo'ldosheva, N.Vohidova, G.Toirova kabi tilshunoslarning ishlaridan ham unumli foydalanildi va ayrim o'rinlarda qo'llanmaning ma'lum bir band yoki bo'limi shu sohani maxsus tadqiq qilgan dissertatsion va monografik tadqiqotlar asosida talqin qilindi. Ishlardan aynan olingan o'rinlargina qo'llanmada manbalari ko'rsatilgan holda berildi. Aynan olinmagan, lekin monografik tadqiqotlarda batafsil yoritilgan mavzular (chunonchi, o'zbek tili fonemalarining oppozitiv siralari va turlari, fonetik hodisalar, so'zlararo ma'noviy va shakliy munosabatlar) bayoni shu mavzu va yo'nalishda yaratilgan tadqiqotlar asosida yoritilgan bo'lsa-da, bu monografik tadqiqotlar:

— keng jamoatchilikka ma'lum bo'lganligi (chunonchi: A.Abduazizovning «O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi», M.Mirtojiyevning «O'zbek tilida polisemiya» va b.);

— o'quv fanining mazkur namunaviy dasturida hamda ushbu qo'llanmaning so'ngida ilova qilinadigan ilmiy adabiyotlar va manbalar sirasida keltirilganligi;

— bu «So'zboshi»da ta'kidlanayotganligi sabablariga ko'ra alohida ajratilmadi.

O'zbek substansial tilshunosligi asoschilari A.Fitrat, A.G'ulomov, yetuk namoyandalari F.Abdullayev, G.Abdurahmonov, M.Asqarova, O.Azizov, A.Borovkov, A.Hojiyev, S.Ibrohi-

mov, F.Kamolov, A.Kononov, M.Mirzayev, A.Muxtorov, I.Rasulov, V.V.Reshetov, A.Rustamov, U.Tursunov, X.Xoliyorov, R.Qo'ng'urov, Sh.Shoabdurahmonov, S.Usmonov kabilar bo'lgan o'zbek formal tilshunosligining[1] bevosita davomi va unga tayanishi sababli reallik, obyektivlik – lisoniy birliklarning nutqiy voqelanish ko'rinishlari va xususiyatlari tavsifida 1950–80-yillarda amalda bo'lgan darslik va qo'llanmalariga tayanildi.

Shu sababdan bu qo'llanmada 1950–54-yillarda O'zFA TAI tomonidan turli mualliflar tomonidan e'lon qilingan «Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar» risolalar sirasidan boshlab, oxirgi nashri 1992-yilda amalga oshirilgan U.Tursunov, Sh.Rahmatullayev, A.Muxtorovlarning «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligigacha berilgan tavsiflardan unumli foydalanildi.

Shu bilan bog'liq ravishda eslatib o'tish joizki, qo'llanmaning «Kirish» qismida o'zbek xalqi va tilining shakllanish tarixi, shevalarga munosabati, o'rganish tarixi va bosqichlari kabi mavzular F.Abdullayev, G'.Abdurahmonov, A.Aliyev, A.Borovkov, E.Fozilov, S.Ibrohimov, F.Kamolov, A.Kononov, M.Mirzayev, A.Nurmonov, V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shcherbak, Sh.Shukurov, B.O'rinboyev, A.G'ulomov kabi tilshunoslarning, B.Ahmedov, A.Asqarov, A.Muhamadjonov kabi tarixchi olimlarning, V.Abdullayev, E.Karimov, N.Karimov, N.Mallayev, A.Qayumov, B.Qosimov, B.Valixo'jayev kabi adabiyotshunoslarning ishlariga asoslanilgan.

Qo'llanma bakalavriat bosqichidagi talabalar uchun mo'ljallanganligi bois unda fanimizning hali yechimini topmagan munozarali nazariy masalalari alohida tahlil etilmadi.

Qo'llanmaning maqsadi o'zbek tili subtansial (formal-funksional) tabiatining ma'lum bir qirralarining hozirgi holatini lison va nutq farqlanishi nuqtayi nazaridan asoslab berishdan iborat.

Substansial tahlilning bosh tamoyili asosida tilimiz qurilishini yoritishda lisoniy birliklarga *umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab* **(UMIS)** va ularning voqelanishi natijasida hosil bo'lgan nutqiy birliklarga *alohidalik* (*yakkalik*), *hodisa, voqeylik, oqibat* **(AHVO)**

---

[1] Bu yo'nalish namoyandalari va ularning fan taraqqiyotidagi xizmatlari. Шукуров Ш., Бозорова Д. Узбекское советское языкознание. Отв.ред. Ш.Ш.Шаабдурахманов. – Т.: «Фан», 1986. – 232 с.; Uzoqov H. O'zbek tilshunoslari. – T.: «O'qituvchi», 1972. – 268-b.; Nurmonov. A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – T.: «O'zbekiston», 2002. – 250-b.

sifatida munosabatda bo'lindi. Bu UMIS va AHVO tushunchalari sun'iy, «o'ylab chiqilgan uydirma»[2] emas, balki o'ta muhim ilmiy falsafiy va metodologik umumiylik, ta'lim oluvchini ashyoviy fikrlashdan uzib, unda relyativ tafakkur malakalarini hosil qildirishning muhim vositalaridan. Gnoseologiya (bilish umumiy nazariyasi)dan ma'lumki, xususiylik umumiylikka (demak, hodisa – mohiyatga, imkoniyat – voqelikka, sabab–oqibatga) nisbat berilmaguncha, u ta'riflangan, tavsiflangan, o'rganilgan deb sanalishi mumkin emas. Shuning uchun **lisoniy imkoniyatlar tilshunosligi** bo'lgan substansial tahlilda bular yuksak umumiylikka ega bo'lgan kategorial tushuncha sifatida juda muhim va ishning maxsus bo'limi ayni shu masala sharhiga bag'ishlanadi.

Mualliflar ushbu kitob «Hozirgi o'zbek adabiy tili» namunaviy dasturi asosida yaratilgan ilk qo'llanma bo'lganligi bois u kamchiliklarga ega ekanligini to'la tan oladi va uni mukammallashtirishga ko'maklashadigan barcha fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi, uni davom ettiruvchilarga xayrixoh ekanligini bildiradi.

So'zning yakunida qadimiy yunon va arablarda mashhur bo'lgan, akademik A.N.Kononov hamisha takrorlaydigan «*Men qo'limdan kelganicha qildim, mukammalroq qilguvchiga yo'l keng, omad yor bo'lsin!*» degan hikmatini keltirish lozim topildi.

Hamid Ne'matov,
filologiya fanlari doktori, professor

[2] Qiyos. Mahmudov N. Kesimning gapdagi maqomi // O'zbek tili va adabiyoti, 2009. -№1. 53-b.

KIRISH

Qo'llanmaning bu bo'limi ikki qismdan iborat. Birinchisida o'zbek xalqi va tili tarixining shu o'quv fanini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim zarur tushuncha va atamalari izohlanadi. Bu tushuncha va ular bilan aloqador masalalar bakalavriat o'quv rejasidagi «O'zbekiston tarixi», «O'zbek tili tarixi», «O'zbek shevashunosligi», «O'zbek tilshunosligi tarixi», «O'zbek tili uslubiyati» va boshqa o'quv fanlarida mufassal o'rganilishi bois bu erda ular shu — «Hozirgi o'zbek tili» — o'quv fani ehtiyojiga zarur shakl va mazmunda (asosan atamalar bilan tanishtirish maqsadida) bayon qilinadi.

Bo'limning ikkinchi qismi til, lison, me'yor, nutq munosabati masalasiga bag'ishlanadi. Chunki hozirgi kunda talabalar «Tilshunoslikka kirish» o'quv fanidan bu masalaga doir «Hozirgi o'zbek tili» o'quv fanining amaldagi namunaviy dasturi talab qiladigan hajmda bilim, malaka va ko'nikma hosil qilmaydi. Shuning uchun o'z tavsifida lison-nutq dixotomiyasiga izchil amal qilishni maqsad qilib qo'ygan ushbu qo'llanma uchun bunday kirish zaruriy deb topildi.

I QISM
O'ZBEK XALQI VA TILI TARIXIDAN

O'zbek xalqining shakllanish va nomlanish tarixidan

Har qanday xalqning shakllanish va nomlanish tarixi juda chigal masala, u ko'pincha har xil bahs-u munozaraga sabab bo'ladi. Barcha xalq tarixini o'rganishda bo'lgan bu murakkablik o'zbek xalqi tarixiga ham oid. Chunki har bir xalq o'z shakllanish tarixida boshqa turli-tuman xalq, til, madaniyat bilan uzoq-yaqin munosabatda bo'ladi, elat, xalq, millat darajasiga ko'tarilguncha uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Biror xalq yoki millat, shubhasiz, o'zaro til, madaniyat, mintaqa jihatidan yaqin bo'lgan qavm-u qabilalarning birlashishi, oralaridagi farqning asta-sekin yo'qola borishi, ularning til, madaniyat (jumladan, rasm-rusum, odat, adabiyot, san'at v.h.), mintaqa, iqtisodiy va ijtimoiy munosabat asosida yaqinlashishi zaminida shakllanadi. Xalqning, millatning shakllanishida ishtirok etgan qavm-u qabila, har xil katta-kichik etnik uyushma o'z davrida har xil nom bilan atalib kelgan. Shuning uchun ayni bir xalq turli davrda turli nomlangan. Istagan xalq yoki millatning hozirgi nomidan ko'ra uning etnik jihatdan shakllanishi ancha qadimiy. Bu hodisani hozirgi rus, ingliz, nemis, fransuz kabi xalqlar tarixida ham ko'rish mumkin. O'zbek xalqining shakllanish va nomlanish tarixi masalasi ham xuddi shunday. Millat sifatida mavjud nom — *o'zbek* etnonimini xalqimiz rasmiy ravishda XX asrning boshlarida olgan bo'lsa-da, hozirgi O'zbekiston hududida o'zbek millati etnik asosining shakllanishi uzoq asrlarga borib taqaladi. Shoir Erkin Vohidov:

Tarixingdur ming asrlar ichra pinhon, o'zbegim,
Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon, o'zbegim

deb yozganida mubolag'a yo'q — o'zbek xalqi asosining O'zbekiston (va unga yaqin) hududlarda shakllanishi IX va undan oldingi asrlarga mansub. Buning yorqin dalili ushbu davr yozma yodgorliklarda qayd etilgan toponim (joy nomlari) va antroponimlar (kishi nomlari)dir. Jumladan, O'zbekistonda [*budun*] tarkibiy qismiga ega bo'lgan toponimlarni ko'plab

uchratish mumkin: [*Shirbudun*], [*Qusbudun*], [*Quzbudun*]. Bu toponim tarkibidagi *budun* so'zi qadimgi turkiy tilda, X–XI asrlarda, «xalq, el, ulus» ma'nosida juda keng qo'llangan. Demak, [*Shirbudun*] – shir xalqi, shir elati ma'nosini anglatadi. [*Shir*], [*sir*], [*chir*] nomi bilan esa qadimgi turkiy xalqlardan biri nomlangan. *Sir budun* – «sir xalqi», «sir qavmi» ma'nosida Kultagin yodgorligida (732-yil) keng qo'llaniladi. Demak, Buxoro shahridan 5 km sharqda joylashgan va Buxoro amirlarining istirohatgohlaridan biri bo'lgan Shirbudun qishlog'i nomi tarkibida saqlangan [*budun*] so'zi bu toponimning shu so'z qo'llanilgan davrga (ya'ni X–XI asrlarga) mansubligidan, shu vaqtlarda Buxoroning qoq markazida butun boshli bir maskanda turkiy xalqlarga mansub shir (sir, chir) qavmi muqim bo'lganligidan dalolat beradi. Chunki ko'p hollarda qishloq shu qishloqda yashagan aholi – urug' (qavm, elat) nomi bilan atalib kelgan. Chunonchi, [*Mang'it*], [*Qipchoq*], [*Qarluq*], [*Jaloyir*], [*Sayot*], [*Olot*], [*Arabon*], [*Arabxona*], [*O'zbekon*], [*O'g'uzrabot*] v.h. [*Shirbudun*] tarkibidagi *shir, sir, chir* qismini [*Sirdaryo*] va [*Chirchiq*] gidronimida ham ko'rish mumkin. [*Chirchiq*] atamasi VII asr obidalarida ham, *Chir suyi, Chir suvi* shaklida undan keyingi davrlarda qo'llanilgan. [*Budun*] va *sir-shir-chir* tarkibiy qismiga ega bo'lgan onomastik leksikani butun O'zbekiston hududidan topish mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki, turkiy toifaga mansub xalqlar hozirgi O'zbekiston hududida qadim zamondan beri muqim bo'lib kelgan. Manbalarning xabar berishicha, bu mintaqada V–VI asrlarda hukmronlik qilgan eftalitlar turkiy xalqlarga mansub bo'lgan. O'zbekiston hududida qadim davrlardan boshlab turkiy va eroniy xalqlar (hozirgi kundagidek) yonma-yon va ittifoq yashab kelgan. O'zbek xalqining tarixiy ildizi ham mana shu qadimgi davrlarga borib taqaladi. Lekin bu asosni faqat o'zbek xalqiga nisbat berish mumkin emas. Turkiy-eroniy qorishma – Markaziy Osiyoning barcha xalqlari uchun umumiy asos. Shuning uchun bevosita o'zbek xalqi, hozirgi o'zbek millati asosini O'zbekiston hududida turkiy xalqlarning qarluq toifasiga mansub bo'lgan Ilikxon (Qoraxoniylar) davlatining o'rnatilishi, bu davlatda rasmiy saroy tili sifatida, Mahmud Koshg'ariy ta'biricha, «turkiy xoqoniy»ning ommalashish davrida ko'rish mumkin. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida turkiy xoqoniy tilining berilgan leksik-grammatik xususiyatini Yusuf Xos Hojibning qariyb 15000 misralik «Qutadg'u bilig» asari til xususiyati bilan qiyoslash Mahmud Koshg'ariyning «turkiy xoqoniy»i, Xos Hojibning

«turkcha»si va Ahmad Yugnakiyning «turkiy»si ayni bir til ekanligini ko'rsatadi. Bu til – Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Xo'jandiyning «Latofatnoma» asarlarida o'z aksini topgan, Sayfi Saroyi, Yusuf Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlarida sayqallangan, Alisher Navoiy asarlarida kamolot bosqichiga ko'tarilgan eski o'zbek tilining ilk taraqqiyot bosqichi. Shuning uchun Mahmud Koshg'ariy Qoraxoniylar davlati xalqini turk (turklar) deb atagan, ularni shu mintaqada yashayotgan o'g'uz, turkman va uyg'urlardan farqlagan. Qarluq toifasiga mansub bo'lgan xalq hozirgi o'zbek millatining asosini tashkil etgan va IX asrlardan boshlab etnik asos *turk, turklar*, til esa *turkiy* deb nomlangan deb ayta olamiz. Til xususiyati shundan dalolat berib turibdi. IX–XVI asrlarda bu turklar o'zlari bilan yondosh yashagan o'g'uz, uyg'ur qavmini, IX asrdan boshlab boy va obod, yuksak madaniyatli o'lkaga ko'plab ko'chib kelgan va o'troqlashgan arablarni, XI–XIV asrlarda Chingiz, Botu, Chig'atoy, Jo'ji kabi mo'g'ul sarkardalari qo'shini tarkibida kelgan har xil mo'g'ul va o'sha davr janubiy Sharqiy Sibir, Shimoliy Xitoy (Mochin), hozirgi Mo'g'uliston, Oltoy mintaqalarida yashagan qirg'iz va uyg'ur toifalariga mansub turkiy urug' va qavmlarni, XIV–XV asrlarda eronzamin, arabzamin, Rum (Sharqiy Rim imperiyasi, Vizantiya – hozirgi Turkiyaning Anadolusi), Kavkaz, Volgabo'yi o'lkalaridan ko'chirib keltirilgan turkiy va noturkiy elatlar vakillarini o'z tarkibiga singdirib, o'zi ham, tili ham shu nom bilan atalib keldi. Alisher Navoiy ham bu xalq va tilni shu nom bilan – turklar va turkiy deb ataydi va u turli qavm va urug'larga bo'linishidan qat'i nazar, til (jumladan, adabiy) va madaniyat jihatdan bir deb bilib, g'urur bilan:

Agar bir qavm, va gar yuz, yo'qsa, mingdur –
Muqarrar turk ulusi xud meningdur.
Olibmen taxti farmonimg'a oson
Cherik tortmay Xitodin to Xuroson.
Ko'ngul bermish so'zimga turk jon ham,
Na yolg'iz turk, balkim turkmon ham.

(«Farhod va Shirin»dan)

Turk nazmida chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

(«Lisonut tayr»dan)

Va, hatto, «turk sortdin tezfahmroqdur» («Muhokamatul lug'atayn») deb yozadi.

[*Turk*] so'zi turkiy tillarda (jumladan, o'zbek tilida) — keng va tor ma'noga ega. Keng ma'noda o'z ichida bir necha ichki guruhlarga bo'linadigan o'zaro qarindosh (kelib chiqish, leksik va grammatik vositalari bilan o'zaro o'xshash bo'lgan) tillar (turkiy tillar shaklida) va shu tillarda so'zlovchi xalq va ular ajdodlarining umumiy, barchasi uchun xos bo'lgan nomi sifatida qo'llaniladi. Tarixiy manbalar va hozirgi ilmiy adabiyotlarda turkiy tillarning o'zaro yaqinlik darajasiga ko'ra ikki tarmog'i — G'arbiy xun, Sharqiy xun tarmoqlari, har bir tarmoqning bir necha guruhi ajratiladi. Turkiy tillarning G'arbiy xun tarmog'i quyidagi asosiy ichki guruhlarga bo'linadi.

1) qarluq guruhi (hozirgi o'zbek, uyg'ur tillari);

2) qipchoq guruhi (qoraqalpoq, qozoq, tatar, boshqird, no'g'oy tillari);

3) o'g'uz guruhi (turkman, ozarbayjon, turk, Turkiya turkchasi, gagauz tillari);

4) bulg'or guruhi tillari (chuvash tili) guruhlardan iborat bo'lsa, sharqiy xun tarmog'i quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1) uyg'ur-o'g'uz guruhi (qadimgi turkiy til, yoqut, xakas, tuva tili, to'falar tili);

2) qirg'iz-qipchoq guruhi (qirg'iz, oltoy tillari) .

[*Turk*] so'zi keng ma'noda shu tillar va xalqlarning umumiy nomi sifatida qo'llaniladi va turkiy til hamda xalqlarni noturkiy (chunonchi, arab, fors, tojik, mo'g'ul, slavyan v.b.) til va xalqlardan ajratadi.

Tor ma'noda [*turk*] so'zining ma'nosi va qaysi til va xalqqa nisbatan ishlatilayotganligi bu so'zning muayyan ishlatilish o'rni (hududi) va davri bilan uzviy bog'liq ravishda o'zgaradi. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy X—XII asrlarda [*turk*] so'zini tor ma'noda «Qoraxoniylar davlatida yetakchi mavqega ega bo'lgan, boshqa yondosh turkiyzabonlardan (o'g'uz, turkman, uyg'ur, qipchoqlardan) til jihatidan ma'lum darajada farqlangan toifa» ma'nosida qo'llaydi. Alisher Navoiyda keltirilgan parchada [*turk*] va [*turkman*] so'zlari zidlanishidan anglashilib turganidek, [*turk*] so'zi keng ma'noda ham, tor ma'noda ham ishlatilgan. Tor ma'noda [*turk*] so'zi bilan Mahmud Koshg'ariy kabi qarluq toifasiga mansub, o'zbek xalqining shakllanishiga tayanch asos bo'lgan o'troq aholini nomlagan.

Kavkaz, Turkiya, Oltoy, Volgabo'yi, Boltiqbo'yi, Sharqiy Yevropa hududida qo'llanilgan [*turk*] so'zining tor ma'nosi (qaysi xalq yoki etnik guruhni atab kelayotganligi) davri va mintaqasi

shart-sharoitiga mos aniqlanadi hamda har bir davru hudud uchun o'ziga xos.

XVI asrda hozirgi O'zbekiston aholisi tarkibida katta o'zgarish sodir bo'ldi: Temuriylar davlati Dashti Qipchoqdagi (Sirdaryoning o'ng qirg'og'idan shimol-sharqda joylashgan Qozog'iston cho'llarida) Muhammad Shayboniyxon boshchiligida qipchoq toifasiga mansub ko'chmanchi o'zbeklar tomonidan bosib olinadi va 92 urug'ga mansub bo'lgan ko'chmanchi o'zbek toifasi vakillari bu hududga ko'plab kelib joylasha boshladi. Ko'chmanchilar o'troq aholini sort deb ataganlari sababli ko'chmanchi o'zbeklar o'zlari bosib olgan va o'zini turk deb nomlagan o'troq (juda ko'p hollarda zullisonayn, shaharda istiqomat qiluvchi yoki sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi) aholini, odatiga ko'ra, sort deb atadi. Natijada XVI asr va undan keyingi davrda hozirgi O'zbekistonda (Shayboniylar davlati hududida) aholini sort-o'zbekka ajratish ommalashdi. [*Sort*] atamasi bilan Qoraxoniy-Chingiziy-Temuriylar davlatida turk deb atalgan, qarluq toifasiga mansub turkiyzabon (va zullisonayn) o'troq aholining (ularga singib ketgan boshqa elatlarning) avlodlari, o'zbek nomi bilan qipchoq toifasiga mansub Shayboniyxon bilan kelgan ko'chmanchi chorvachilik yoki lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilar atalgan. XVII–XIX asrlarda badiiy adabiyotda [*sort*] va [*o'zbek*] atamalarining qo'llanilishi shu farqlanish bilan bog'liq. Turdi Farog'iy she'riyatida, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon» asarlarida buning yorqin namunasini ko'rish mumkin. Chunonchi, Turdi g'azallaridan birida shunday baytlar mavjud:

O'zbak o'g'li o'qisa tafsir ila mishkotni,
Ro'z savm-u shab qiyom afzun etib tootni,
Etsa toroji havodis, jam' o'lub avbosha der:
«Sahmgin solib suron ur, molin olg'il sortni».

[*O'zbek*] so'zining bugungi kunda tilimizda ba'zan voqelantiradigan «sodda», «oq ko'ngil», «to'g'ri» kabi ma'nolari ham shu farq bilan bog'liq:

Sevsam, sevibman-da, o'zbekman, sodda. (G'.G'ulom)

Rus istilosi davrida ham IX–X asrdagi turklarning avlodi bo'lgan aholi [*sort*], [*sart*] nomi bilan yuritilardi. Shuning uchun XIX asr oxirlarida o'zbek tilining rus harbiylari tomonidan o'rganilishi uchun N.P.Ostroumov, M.S.Andreyev, L.A.Zimin kabilar tomonidan tuzilgan ilk qo'llanmalarda u shu nom bilan atalgan.

XX asr boshlarida bugungi o'zbek millatining rasmiy nomlanishi ancha bahs-u munozaraga sabab bo'ldi. Asosiy bahs [*turk*] – [*turkistonlik*] – [*sort*] – [*o'zbek*] atamasidan biri ustida bordi. Shu davrda ilg'or adiblar ko'proq [*o'zbek*] atamasini ma'qullashdi.

[*O'zbek*] so'zi etnonim (xalq nomi) sifatida qadimgi davrdan qo'llanilib kelgan. IX asr arab manbalarida o'zbeklar, ularning botirlik va qo'rqmasliklari, shuning uchun xalifa sardorlari ulardan o'zlari uchun qo'riqchilar yollaganligi haqida ma'lumot bor. Lekin fanimizda rus va sovet davrida bir fikr – o'zbek so'zi Oltin O'rdada 1313–1342-yillarda xonlik qilgan Sulton Muhammad O'zbekxon nomidan olingan degan talqin targ'ib etilgan. Bu – xato talqin. Zero, bu so'z etnonim sifatida, aytib o'tilganidek, XIV asrdan ancha oldin ham qo'llangan. Aksincha, Sulton Muhammadga bu antroponim (kishi nomi) [*o'zbek*] etnonimi asosida berilgan.

G'arbiy Yevropa o'zbek tili va madaniyati bilan XVII–XVIII asrlardan boshlab yaqindan tanisha boshladi va tilimiz G'arbiy Yevropada *chig'atoy tili* nomi bilan mashhur bo'ldi. Bu nom haqiqatan ham chingiziy Chig'atoy ibn Chingiz (vafoti 1242-y.) bilan bog'liq. Bunga sabab shuki, XVII va undan keyingi asrlarda mumtoz adiblar hududimizga XIII–XIV asrlarda kirgan Chig'atoy ulusi nomi asosida til va adabiyotimizni ham shu nom bilan atagan. Yevropada bu nomning keng ommalashishida Herman Vamberining XIX asr o'rtalarida mintaqada keng yoyilgan «Chagatayishe sprachstadium» («Chig'atoy tili darsligi») darsligining xizmati katta.

Yevropada o'zbek tili, bundan tashqari, (*qoraxoniy*), (*sharqiy turk*), (*sharqiy turkcha*), (*sharqiy Turkiston tili*), (*islomoy sharqiy turkiy*), (*chigiliy*), (*turkiy turoniy*), (*Navoiy turkiysi*) va boshqa nomlar bilan ma'lum. Bu atamadan har birining o'ziga xos ilmiy-tarixiy asosi bor.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tili va xalqining ildizi qadim-qadimdan boshlangan va qarluq qavmlari hamda lahjalari turli davrlarda o'g'uz, uyg'ur, qipchoq kabi turkiy qavmlarini, shuningdek, eroniy, arabiy, mo'g'ul kabi noturkiy qavm vakillari lahjalarini o'ziga singdirgan, IX–X asrdan boshlab hozirgacha uzluksiz ijtimoiy-madaniy taraqqiyot natijasida millat va milliy til sifatida shakllangan. Bu murakkab tarixiy jarayon ta'siri tilimizning shevaviy bo'linishida (o'zbek umumxalq tilining uch katta lahjaga ajralishida), leksik-grammatik xususiyatida (chunonchi, qaratqich kelishigining qarluqcha [*-ning*] qo'shimchasi bilan *men, sen*

olmoshlarida o'g'uzcha [-*ing*] ko'rinishining saqlanishi, *ilon* so'zining shu o'g'uzcha shaklda tilda me'yorlashishi, uning qarluqcha *yilon* shaklining eskirishi va qipchoqcha shevaviy *jilan* ko'rinishining mavjudligi, tilimizda katta miqdordagi tarixan arabiy, forsiy, qisman mo'g'ulcha bo'lgan so'zlarning borligi v.h.) o'z aksini topgan. Shuning uchun «nomi o'zidan, o'zi nomidan qadimiyroq» iborasi o'zbek tili va millati tarixiga ham daxldor.

O'zbek tili tarixini davrlashtirish

Adabiy til (aniqrog'i, adabiy nutq) – umumxalq tilining ishlov berilgan, sayqallangan va ma'lum bir me'yorga solingan shakli. Shuning uchun tilning bunday ko'rinish shakliga tilshunos Mustaqim Mirzayev: «Adabiy til – umumxalq tilidan yasalgan guldasta», - deb baho bergan edi. Demak, o'zbek adabiy tili sheva va lahjalar bir butunligidan iborat bo'lgan o'zbek milliy tilidan farqlanadi. O'zbek adabiy tili o'zbek millatiga tegishli bo'lgan milliy tilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy til bilan adabiy til (nutq) orasidagi aloqa butun-qism, umumiylik-xususiylik munosabatidek bo'ladi. Adabiy til (nutq) me'yorlashgan. U xalq shevalaridan ustun turadi va uning me'yorlariga qat'iy rioya qilish shu tilda (xalqqa) so'zlovchilar, turli sheva va lahja vakillari orasida rasmiy muloqot uchun shart. Adabiy til (nutq) umumxalq madaniyati saviyasining bir ko'zgusi. Yozma va og'zaki nutqda adabiy me'yorga rioya qilish so'zlovchi (yozuvchi) madaniy saviyasini belgilaydi.

Ko'pgina xalqlar adabiy til (nutq) me'yoriga XIX–XX asrlarda ega bo'lgan bo'lsa, o'zbek xalqida adabiy til (nutq) an'anasi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bevosita o'zbek xalqi tarixiga mansub bo'lgan adabiy nutq me'yoriga rioya qilib yozilgan yozma yodgorlikdan katta va eng qadimiysi – Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari, Mahmud Koshg'ariyning arab tilida yozilgan «Devonu lug'otit turk» qomusida berilgan IX–XI asrlar adabiy tili fonetik-leksik-grammatik me'yorining tavsifi XI asrga mansub. Mashhur turkiyshunos olimlar akademik V.Radlov va akademik A.Kononov (Rossiya), Mahmed Fuad Ko'prulu, Ahmad Arat, Besim Atalay (Turkiya), Kari Brokkelman, Anna Mari fon Gaben (Olmoniya), Yiliy Nemet (Mojoriston), Karl Menges, Omelyan Pritsak (AQSh) kabilarning umumiy fikriga ko'ra, adabiy-badiiy nutq «Qutadg'u bilig» yoki «Devonu lug'otit turk»da keltirilgan turkiy she'riy parchalarda aks ettirilgan holatga kelish

uchun kamida 300–500 yillik badiiy ishlov an'anasiga ega bo'lmog'i kerak edi. Shuning uchun o'zbek xalqi uzluksiz ming yillik adabiy til an'anasi bilan to'la ma'noda faxrlansa, arziydi.

O'zbek tili tarixini quyidagi asosiy taraqqiyot bosqichlariga ajratamiz:

1-jadval

№	Asrlar	Davrning nomlanishi	Manbalarda tilning turlicha nomlanishi	Asosiy adiblari va yozma yodgorliklari
1.	X–XIV	O'zbek tilining ilk taraqqiyot davri	turkiy, eski turkiy til, turkiy, turkiy xoqoniy, sharqiy turkiy, chig'atoy tili	Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Balasog'uniy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Durbek, Qutb Xorazmiy asarlari
2.	XIV–XIX	O'zbek tilining takomillashish davri	eski o'zbek tili, turkiy til, chig'atoy tili, O'rta Osiyo turkchasi, Navoiy turkchasi, sharqiy turkcha	Xorazmiy «Muhabbatnoma»si (1353-y.)dan boshlab Niyoz-Muhammad (Komil) Xorazmiygacha (XIX asr ikkinchi yarmi)
3.	XIX–XX	Milliy adabiy tilning shakllana boshlashi	yangi o'zbek tili, turkiy til, sort tili	Muqimiy, Furqat asarlaridan boshlab o'zbek jadid adabiyoti ilk namunalarigacha
4.	XX–XXI	O'zbek milliy adabiy tili	hozirgi o'zbek tili	Abdulla Qodiriy, Hamza, Ayniy, Oybeklardan muosir adiblargacha

HOZIRGI O'ZBEK TILI VA UNING SHEVALARGA MUNOSABATI

O'zbek tili ko'p dialektli. Bu uning murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi, bugungi o'zbek millati o'tmishda xilma-xil etnik tarkibga ega bo'lganligi bilan belgilanadi.

O‘zbek milliy tilini tashkil etuvchi turli-tuman shevalarni uch lahjaga birlashtirish mumkin. Bular: 1) qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi; 2) qipchoq lahjasi; 3) o‘g‘uz lahjasi.

Lahjalar o‘zaro farqli xususiyatga ega. Bu farqlar, aytilganidek, lahjalarning har biri dastlab har xil qabila yoki qabila birlashmalarining tili bo‘lganligi bilan bog‘liq. Bu tarixiy jarayonni har tomonlama to‘g‘ri anglagan E.Polivanov o‘zbek tilining ko‘p dialektli til ekanligini nazarda tutib: «O‘zbek milliy tili (o‘zbek lahjalarining bir butunligi, yaxlitligi sifatida) yagona tizimning, aslida hech qachon amalda bo‘lmagan o‘zbek bobo tilining dialektologik parchalanish yo‘li bilan emas, balki farqlanuvchi til tizimlarining birlashuvi yo‘li bilan paydo bo‘lgan», - degan edi. O‘zbek xalqining shakllanish tarixi bilan yuzaki tanishishdan ham shunday xulosaga kelish mumkin.

O‘zbek milliy tilining lahjalari orasida, odatda, qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi hozirgi o‘zbek milliy adabiy tilining me’yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan deb, odatda, alohida ajratiladi. Buning boisi shundaki, o‘zbek xalqining shakllanishida qarluq etnik tarkibi Qoraxoniylar davridan boshlab alohida mavqega ega edi.

O‘zbek tili bu lahjasining nomlanishida (qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi) bir muncha anglashilmovchilik mavjud. Birinchidan, bu atamadagi [*chigil*] so‘zi ortiqcha, chunki chigillar qarluqlarning bir bo‘g‘ini, xolos. Bu bo‘g‘in qanchalik katta va, Koshg‘ariy so‘ziga ko‘ra, ahamiyatli bo‘lmasin, qarluq toifasiga mansub.

Ikkinchidan, atama tarkibidagi [*uyg‘ur*] so‘zining ham qadimgi uyg‘urlarga hech qanday aloqasi yo‘q. Bu atama o‘zbek tili bilan birgalikda turkiy tillar g‘arbiy xun tarmog‘ining qarluq guruhiga mansub bo‘lgan hozirgi uyg‘ur tiliga ishora qiladi, xolos. Shuning uchun hozirgi o‘zbek milliy adabiy tili me’yorlarining bu lahja xususiyati bilan yaqinligi bejiz emas. Lahjaning qayta nomlanishida tarixchi va shevashunoslarning xulosasi zarur.

A.K.Borovkov qayd qilib o‘tganidek, o‘zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga har jihatdan asos bo‘lgan deb aytib bo‘lmaydi. Buning bosh sababi shundaki, hozirgi o‘zbek milliy adabiy tili uzoq adabiy ishlov an’anasining (jumladan, eski turkiy, eski o‘zbek, yangi o‘zbek adabiy tillarining) bevosita davomi va XX asrda u (yozuv va adabiy ishlov an’anasiga ega bo‘lmagan xalqlarda bo‘lganidek) tamoman yangi bir hodisa sifatida yuzaga kelmagan: milliy adabiy til kamida ming yillik adabiy ishlov mahsuli. Ikkinchidan, o‘zbek tilining barcha lahjalari o‘zbek tilining

20611/4

taraqqiyotiga ma'lum bir darajada hissa qo'shgan. Birining adabiy tilga ta'siri bir sohada kuchliroq bo'lsa, boshqa sohada o'zga bir shevalar guruhining ta'siri ko'proq seziladi. Masalan, Andijon, Farg'ona shevalari o'zbek tiliga xos eng ko'p tarqalgan grammatik shakllardan birini – hozirgi zamon fe'lining [*-yap*] affiksi vositasida yasaluvchi shaklini bergan deyiladi. Lekin bu shakl qipchoq lahjalarida ham aynan shunday qo'llanadi. Shunisi xarakterliki, bir qarashda adabiy tildan birmuncha uzoqroq deb tasavvur qilinadigan qipchoq lahjasi morfologiyasi singarmonizmdan, ya'ni fonetik o'ziga xoslikdan xoli olinsa, adabiy til morfologiyasi bilan qariyb bir xil. Yoki adabiy tilga fonetik jihatdan asos deyilgan Toshkent shevasida [*x*] va [*h*] tovushlari, qaratqich va tushum kelishiklari shakllari farqlanmaydi. Qipchoq shevalarida esa ular qat'iy ajratiladi. Qipchoq shevalarining adabiy til lug'atini, xususan, uning chorvachilik atamalari tizimini rivojlantirishda, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlarini boyitishda katta hissasi bor. Masalan, [*qirqim*], [*o'tov*], [*to'l*], [*sarimoy*], [*chakki*], [*chalop*], [*uloq*], [*sovliq*] kabi umumiy va chorvachilik atamalari, [*quyruq*], [*bovur*], [*patir*], [*tovoq*], [*kulchatoy*], [*lochira*] singari pazandachilik atamalari adabiy tilga qipchoq shevalaridan kirib kelgan.

Adabiy tilning rivojlanishiga o'zbek tilining o'g'uz lahjasi ham ma'lum darajada hissa qo'shgan. Buning uchun adabiy tildagi [*yoshulli*], [*o'g'lon*], [*buyon*], [*qaydin*], [*qorago'z*] kabi qator so'zlarni misol sifatida keltirish kifoya.

Demak, o'zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida tayanch manba bo'lgan tarixiy an'ana bilan bir qatorda barcha lahja hamda shevalarning o'ziga xos o'rni bor.

O'zbek tilining o'rganilish tarixi va bosqichlari

O'zbek tilining o'rganilish tarixini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

I. XI–XIV asrlar (Qadimgi turkiy tilshunoslik).

II. XV–XIX asrlar (Eski turkiy tilshunoslik).

III. XX asrning boshidan XX asr 80-yillargacha (formal o'zbek tilshunosligi).

IV. XX asrning 80-yillaridan bugungi kungacha (substansial o'zbek tilshunosligi).

I. bosqich. O'zbek tilshunosligi fani Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari bilan boshlanadi. Bu asar 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan.

«Devonu lug'otit turk» uch tomdan iborat bo'lib, 1915–17-yillarda Istanbul shahrida nashr etilgan. Shu nashr asosida K.Brokkelman bu asarni 1928-yilda nemischa tarjimada nashr qildi. 1939-yilda Anqarada Besim Atalay tarjimasida turk tilida bosildi. Olim S.Mutallibov devon tarjimasi ustida samarali ishlab, 1960–63-yillar davomida uch tomda o'zbek tilida nashr qildi.

Mahmud Koshg'ariyning asari kirish va lug'at qismidan iborat. Kirish qismida muallif «Devon»ning yaratilish sabablari, o'z ish uslubi, asarning tuzilishi, turkcha so'zlarning tuzilishida qo'llaniladigan harflar, kitobda aytilgan va aytilmagan narsalar, turkiy tabaqalar va qabilalarning bayoni, turk tilining xususiyatlari, tilda va lahjalarda bo'ladigan farqlar haqida fikr yuritadi.

Asarning lug'at qismida 7500 so'z sakkiz bo'limda izohlanadi. Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo'lib qoldi.

Ilmiy fan xazinasiga bebaho durdonalar qo'shgan Mahmud az-Zamaxshariyning qadimgi turkiy tilshunoslikda ham o'ziga xos o'rni bor. Zamaxshariy – yirik tilshunos sifatida arab tilshunosligining rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim. Biroq uning lug'atlarida turkiy so'zlarga ham alohida e'tibor berilib, ularda XII–XIII asrlar Markaziy Osiyo turkiy adabiy tilining leksikasi o'z aksini topgan.

XIII–XIV asrlarda yashab ijod etgan Abu Hayyon al-Andalusiyning qadimgi turkiy tilshunoslikda tutgan o'rni o'ziga xos. U turkiy va arab til muqoyasasiga doir ko'plab asarlar yaratgan bo'lib, ulardan xarakterlisi «Kitob al-idrok li lisonal-atrok» lug'atidir. Asar 1312-yilda Qohirada bitilgan bo'lib, lug'at va grammatikadan iborat. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asarda qipchoq unsurlari juda kuchli bo'lib, shu bilan birga, o'g'uz unsurlari ham uchrab turadi.

Qadimgi turkiy tilshunoslik taraqqiyotida tilshunos Jamoliddin Muhammad Abdulloh Turkiyning ham o'ziga xos o'rni bor. Uning taxminan XIII–XIV asrlarda yozilgan «Kitobu-lug'at al-mushtoq fi lug'at -it turk vo-l-qafchoq» («Turk va qipchoq tillariga mushtoqlarni qiziqtiruvchi kitob») asari arab, fors, turk, mo'g'ul tillari qiyosiga bag'ishlangan, u turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

II bosqich. Eski o'zbek tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyotida buyuk mutaffakkir shoir Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Aloyi Binni Muhibiy, Mirzo Mehdixon kabilarning lingvistik qarashlari va asarlari muhim ahamiyatga ega.

XIX asrning oxiriga kelib, o'zbek tilshunosligida rus bosqinchilarining mahalliy xalq madaniyati, urf-odati va tilini o'rganish ehtiyoji natijasida bir qancha amaliy ahamiyatga ega grammatikalar vujudga keldi. M.A.Terentevning «Turk, fors, qirg'iz va o'zbek tili grammatikasi» (1875), A.Starlevskiyning «Rus kishisining O'rta Osiyodagi yo'ldoshi» (1878), Z.A.Alekseev va V.Vishnegorskiyning «Сорт тили самоучители» (1884), M.Andreyevning «Sort tilini birinchi bor o'rganuvchilar uchun qo'llanma»si (1896), F.Mashkovsevning «Sort tili darslari» (1899), V.P.Nalivkinning «Sort tilini amaliy o'rganish uchun qo'llanma»si (1898), N.Budzinskiyning «Sort tili darsligi» (1910) kabilar bunga misol.

III bosqich. Tom ma'nodagi fan sifatida o'zbek tilshunosligi XX asrning 20—30-yillarida shakllana boshladi va shu asrning oxirlariga kelib o'zining yuqori cho'qqilaridan biriga erishdi.

XX asr o'zbek tilshunosligining shakllanishida Abdurauf Fitrat, G'ozi Olim Yunusov, Ulug' Tursunov, E.D.Polivanov, Qayum Ramazon, Faxri Kamolov va Ayub G'ulomovlarning xizmatlari katta.

Bu davrda o'zbek tilining ichki qurilishi zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida ishlab chiqildi va o'zbek tilshunosligi zamonaviy jahon tilshunosligining bir bo'lagi sifatida shakllandi. Imlo qoidalari yaratilib, o'rta, o'rta maxsus va oliy maktab uchun bu tildan me'yoriy darslik, qo'llanma va ilmiy grammatikalar yaratildi. Tilshunoslikning bugungi mavjud barcha bo'limlari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishi vujudga keldi.

Lug'atshunoslik bo'yicha olib borilgan ishlar nihoyatda samarali bo'ldi. Bir tilli, ko'p tilli va turli sohaviy lug'atlar yaratilib, leksikografiya tilshunoslikning alohida, yetuk sohasi sifatida namoyon bo'ldi.

O'zbek tilshunosligi zamonaviy fan sifatida to'liq shakllandi. O'zbek tilini o'rganish bo'yicha qilinayotgan barcha ishlar bir asosiy maqsadga — hozirgi o'zbek tilining taraqqiyot qonuniyatlarini va shu asosda uning barcha tarmoqlari bo'yicha me'yorlarini belgilashga qaratildi. O'zbek tilshunosligining taraqqiyot yo'li va darajasi ham xuddi shu maqsadga erishish, shu yo'ldagi harakatning natijalari bilan belgilanadi. Shu maqsadda o'zbek tilshunosligi quyidagi bo'limlar bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqda:

1. Fonetika.
2. Leksika.

3. Leksikografiya.
4. Derivatsiya.
5. Grammatika.
6. Punktuatsiya.
7. Dialektologiya.
9. Uslubiyat.
10. Til tarixi.

Bu sohalarning barchasi bo'yicha O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, universitetlar va pedagogika institutlarining tilshunos olimlari samarali mehnat qilishdi.

Avvalo, o'zbek tilining fonetik va grammatik qurilishi sohasida olib borilgan keng qamrovli ishlarni alohida ta'kidlamoq lozim. Bu borada, ayniqsa, A.N.Kononov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, U.Tursunov, A.G'ulomov, Sh.Shoabdurahmonov, G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, Sh.Rahmatullayev, F.Abdullayev, S.Usmonov, M.Mirzayev kabilarning xizmatlari katta. Undan keyingi avlod sifatida A.Safoyev, J.Muxtorov, I.Qo'chqortoyev, A.Hojiyevlarning ham alohida hissasi bor. O'zbek tili grammatikasi bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli ishlarning yakuni va umumlashmasi sifatida 1975–76-yillarda yaratilgan ikki tomli «O'zbek tili grammatikasi»ni ko'rsatish mumkin.

So'nggi yillarda eksperimental fonetikaning yuzaga kelishi – o'zbek tilshunosligi taraqqiyotining qonuniy natijasi. O'zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi ham alohida soha sifatida shakllandi. O'zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasining rivojlanishida S.Ibrohimov, F.Kamolov, O.Usmonov, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev kabi tilshunos-larning xizmati katta. 1980-yilda nashr qilingan «O'zbek tili leksikologiyasi» nomli asar bu boradagi so'nggi yutuqlarni umumlashtirdi.

O'zbek tili leksikografiyasi ham katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ko'p tomli «O'zbek sovet ensiklopediyasi», «O'zbek tilining izohli lug'at»lari o'zbek tili frazeologiyasi, terminologiyasi, kasb-hunar leksikasi, Navoiy asarlari tili va boshqa sohalar bo'yicha ham qator lug'atlar yuzaga keldi. «O'zbek tilining morfem lug'ati» yangi turdagi lug'at sifatida yaratildi. O'zbek lug'atchiligining rivojlanishida, ayniqsa, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, V.V.Reshetov, O.Usmonov, R.Doniyorov, Z.Ma'rufov, Sh.Rahmatullayev, S.Akobirov, G.Mixaylov kabi olimlar samarali mehnat qilishdi.

Derivatsiya o'zbek tilshunosligining alohida sohasi sifatida ajralib chiqdi.

O‘zbek tilshunosligi sohalaridan biri dialektologiyadir. O‘zbek dialektologiyasining fan sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishida E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, G‘ozi Olim Yunusov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, U.Tursunov, M.Mirzayev va ular izdoshlarining xizmatlari beqiyos. A.Aliyev, B.Jo‘raev, A.Shermatov, A.Jo‘rayevlar ularning bu boradagi ishlarini munosib davom ettirdilar. O‘zbek dialektologiyasi o‘zining so‘nggi yutuqlari bilan areal tilshunoslik, sotsiolingvistika fani bilan omixtalashib ketdi.

O‘zbek tili tarixini o‘rganish tilshunosligimizning ilg‘or sohasidan biriga aylandi. Bu sohada A.N.Kononov, A.K.Borovkov, G‘.Abdurahmonov, S.N.Ivanov, S.Mutallibov, U.Tursunov, J.Muxtorov, F.Abdullayev, P.Shamsiyev, A.Rustamov, Sh.Shukurov, H.Ne’matovlarning ilmiy tadqiqotlari alohida diqqatga molik.

Bu davr o‘zbek tilshunosligining mumtoz davri hisoblansa-da, unda hukmron mafkuraga, sobiq kommunistik mafkuraning millatlarning birlashib, yagona sovet xalqi vujudga kelishi haqidagi g‘oyasi qoliplariga tushirishga bo‘lgan tazyiqlar natijasida o‘zbek tilining lisoniy universaliyalarga muvofiq jihatlarini ko‘proq ochish, uning tabiatini hukmron til bo‘lgan rus tili qoliplari asosida ko‘rishga intilish, uni ilmiy tadqiqotlarda zo‘rma-zo‘rakilik bilan yoritishga urinish hollari kuchaydi. Masalan, fonetikadagi urg‘u masalasini olaylik. Rus va boshqa Yevropa tillarida urg‘uning roli katta. Biroq bu o‘zining barqaror belgisi bo‘lmagan o‘zbek tiliga ham shundayligicha olib o‘tildi va asosiy fonetik belgisi sifatida alohida e’tiborga olindi. Yoki o‘zbek tilida ham [*ts*], lab-tish [*v*] undoshi borligi uqtirib kelindi. Tovushlar orfoepiyasini rus tili talaffuz me’yorlariga yaqinlashtirishga urinishlar davom etib keldi.

O‘zbek tili grammatikasi talqinida ham rus tili qoidalariga o‘zbek tili dalillarini tiqishtirish hollari yuz berdi. Bu, masalan, morfologiyada so‘z turkumlari tasnifi va tartibida, grammatik qo‘shimchalar tasnifida, so‘zlarning birikuv omillari va vositalari talqinida, gap mohiyatini belgilashda, qo‘shma gaplar tasnifida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Lug‘atchilikda ham rus tili lug‘atlari shablon vazifasini o‘tadi. Masalan, «yangi tipdagi» o‘zbek tilining morfem lug‘atida o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlarni morfemalarga ajratish, so‘z borayotgan tillarnikidagidek amalga oshirildi: *axborot — axbor-ot, traktorist — traktor-ist* kabi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da ham shunday yo‘l tutilgan holatlar ko‘zga tashlanadi.

O'zbek tilshunosligi, umuman olganda, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishi bilan birgalikda, davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ta'siri unda o'z izini qoldirmasligi mumkin emas edi.

XX asrning 80-yillariga kelib o'zbek tilshunosligining (amaliy, faktografik) bosqichi tugallangan va to'plangan boy daliliy ashyoni dialektik metodologiya asosida o'rganishga kuchli zamin tayyorlab, o'zi esa turg'unlik holatini boshdan kechirmoqda edi. Shu boisdan butun sobiq sho'ro davlati hududida olib borilayotgan oshkoralik va qayta qurish siyosati o'zbek tilshunosligi fanini ham chetlab o'tmadi. O'zbek tilshunosligining yangi avlodlari H.Ne'matov, E.Begmatov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva kabi olimlar qayta qurish sharoitida o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari bo'yicha respublika va ittifoq matbuotida chiqish qildilar. Ko'tarilgan masalalarni mohiyatan ikkiga bo'lish mumkin:

1) o'zbek tilshunosligi oldiga 30—40-yillarda qo'yilgan vazifani — o'zbek tili turli sath birliklarining zamonaviy tahlil usullaridagi mukammal tavsifini berish; adabiy til me'yorlarini belgilash, ta'limning turli bosqichi uchun zarur bo'lgan o'quv qo'llanmalari, darslik hamda lug'atlar yaratish va ommalashtirishni muvaffaqiyat bilan bajardi va yig'ilgan hodisalar tavsifi asosida ilmiy tushunchalar hosil qilish xususiyliklarda umumiylikni, hodisalarda mohiyatni, oqibatlarda sababni, voqeliklarda imkoniyatni ochish darajasiga ko'tarildi;

2) uzoq yillar davomida o'zbek tili ittifoqdagi turkiy, qolaversa, boshqa tillar kabi rus va Yevropa tillari qoliplari asosida o'rganib kelindi. Uni o'z ichki tabiatidan kelib chiqqan holda alohida yaxlitlik sifatida o'rganish uchun shart-sharoit vujudga keldi. Qayta qurish, oshkoralik va istiqlol natijasi o'laroq, milliy tilshunosliklar boshqa milliy fanlar kabi kommunistik mafkura kishanlaridan xalos bo'ldi. O'zbek tilining barcha sohalari bo'yicha qator yangicha talqinlar yuzaga keldi. Bu borada H.Ne'matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, G'.Zikrillayev, R.Sayfullayeva, O.Bozorov, B.Mengliyev, Sh.Shahobiddinova va M.Qurbonova kabi nazariyotchi tilshunoslarning ishlari alohida e'tiborga molik. Ular o'z tadqiqotlarida o'zbek tilining asl tabiatini ochib berishni maqsad qilib qo'ydilar. Shu tarzda o'zbek substansial tilshunosligi shakllandi va qisqa muddatda jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ular asosida o'rta maktab ona tili darsliklari butunlay yangilandi. Bu yutuqlar nimalarda ko'zga tashlandi?

Birinchidan, lison va nutq farqlanmasligi natijasida tilshunosligimizda *fonema* va *tovush*, *morfema* va *qo'shimcha*,

leksema va *so'z* kabi atamalar mohiyatidan kelib chiqilmagan holda, muqobil atamalar sifatida ishlatilar edi. Lison va nutqning farqlanuvi ularni qat'iy tartiblashtirdi.

Ikkinchidan, lison va nutqni farqlash grammatikada umumiy va xususiy ma'noni farqlash talabini qo'ydi. Shunga ko'ra, falsafaning umumiylik va xususiylik dialektikasi asosida o'zbek tili grammatik kategoriyalari tadqiq qilindi.

Uchinchidan, so'z turkumlari tasnifi tilshunosligimizdagi eng chigal masalalardan biri edi. Masalan, o'zbek tilida olmosh barcha mustaqil so'z turkumini, qolaversa, gap va matnni ham almashtira olsa-da, u rus tilidagidek ot, sifat, son turkumiga xos so'zlar almashtiruvchisi sifatida talqin qilinar edi. Bu nuqsonning asossizligi ilmiy isbotini topdi.

To'rtinchidan, taqlidlarning so'z turkumlari sirasida tutgan o'rni ham o'zbek tili tabiatiga yot edi. Unga chuqur ilmiy tahlillar asosida mustaqil so'zlar sirasidan o'rin berildi.

Beshinchidan, grammatik qo'shimchalar mohiyati ham, ularning nomlanishi ham o'zbek tilining tabiatiga yot edi. Shu boisdan *so'z o'zgartiruvchi* va *shakl yasovchi* atamalari ostida o'rganiluvchi hodisalar qayta ko'rib chiqildi va *sintaktik shakl hosil qiluvchilar* hamda *lug'aviy shakl hosil qiluvchilar* atamasi ostida qayta tasniflandi.

Oltinchidan, gap markazi tushunchasi fanga kiritilib, u asosda o'zbek tilining gap qurilishiga xos substansial mohiyati ochildi va o'zbek tilida gapning eng kichik qurilishi **[kesim]** qolipiga ega ekanligi tan olinib, uning **[ega-kesim]** qolipli rus va boshqa tillardan farqi asoslandi.

Yettinchidan, qo'shma gap tasnifi va tarkibini belgilashda ham o'ziga xos va yangicha ish tutildi. Bunda gap markazi tushunchasiga, turkiy xususiyat – o'zbek tilida rivojlangan kesimlik shakllariga va qo'shma gap tarkibida sodda gaplarni bir-biriga bog'lovchi vositalarga, tobe gapning hokim gap valentligi silsilasida tutgan o'rniga asoslanildi.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi «nutq-lison» tamoyilidan «lison-nutq» tamoyili asosida ish ko'rishga jadal o'tmoqda. Boshqacha aytganda, o'zbek substansial tilshunosligi aniqlagan lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqelanishini tekshirishga jiddiy kirishmoqda. Lisonning amaliy voqelanishi, undan amaliy foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi quyidagi zamonaviy yo'nalishlar ish boshlamoqda:

1. Sotsiolingvistika.

2. Psixolingvistika.
3. Pragmalingvistika.
4. Lingvokognitologiya.
5. Lingvokulturologiya.
6. Neyrolingvistika.
7. Kompyuter lingvistikasi.
8. Korpus lingvistikasi.

Tilshunoslikning bu yo'nalishlari o'zbek formal va substansial yo'nalishlari oldiga to'siq qo'ymaydi, albatta. Avvalo, formal, so'ngra substansial yo'nalish oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmani bajarib bo'lgan bo'lsa-da, o'z tadqiq tamoyillari asosida sohaning yechilmagan ayrim masalalari bilan shug'ullanishni davom ettiraveradi.

II QISM
TIL, LISON, ME'YOR VA NUTQ MUNOSABATI. TIL SATHLARI VA BIRLIKLARI

Ilmiy bilish va uning bosqichlari

Ilmiy bilish – ilmiy tadqiqot yo'li bilan izlanish natijasida borliq haqida yangi bilim hosil qilish. Tabiat va jamiyatdagi murakkab, xilma-xil va rang-barang hodisalar mohiyatini, rivojlanish qonunlarini ilmiy bilishning aniq usullari mavjud bo'lib, ilmiy tadqiqot va izlanishlarning yo'nalishini ifodalaydi. Falsafa va fanda ilmiy bilishning ikki bosqichi farqlanadi:

a) fahmiy (empirik, amaliy) bilish;

b) nazariy (idrokiy, mantiqiy) bilish.

Birinchi bosqichda o'rganilayotgan manba, uning bo'limlari va tarkibiy qismlari, belgi-xususiyatini aniqlash, saralash, izchillashtirish va tasvirlash ishlari amalga oshiriladi. Bunda asosiy e'tibor o'rganish manbaining tashqi, zohiriy xossalarini aniqlashga qaratiladi. Aslida bu hali tom ma'nodagi tahlil emas, lekin ilmiy o'rganishning zaruriy, tarkibiy qismi, bosqichi. Buni Alisher Navoiy «Lisonut tayr» dostonidagi «Ko'rlar va fil hikoyati»da ko'rlarning fil haqida tasavvur hosil qilishi misolida tasvirlaydi.

Nazariy bilish empirik, ya'ni fahmiy bilishsiz amalga oshmaydi. Amaliy bilish jarayonida to'plangan faktik material nazariy bilish jarayonida aqliy tafakkur yo'li bilan umumlashtirilib, ularning mohiyati ochiladi. Bu bosqichda Navoiyning mazkur asarida orifning fil haqida nazariy bilim hosil qilishi misolida bayon etiladi.

Manbani o'rganishning har ikki bosqichi ham birday muhim bo'lib, ikkinchisini birinchisisiz, birinchisini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularni bir-biridan uzish, qarama-qarshi qo'yish, bilishning ikki qutbi sifatida munosabatda bo'lish mumkin emas. Bilishning ikki zaruriy bosqichi ham o'z-o'zicha cheklanganlik xususiyatiga ega. Masalan, Navoiy fahmiy bilish haqida:

Qosir etti fahmdin idrokni

deya uning cheklanganligiga ishora qilsa, nemis shoiri Geyote:

Nazariya quruq yog'ochdir

deb nazariy bilishning hodisalardan uzilganligini uqtiradi.

Xo'sh, bilishning ikki zaruriy bosqichi nuqtayi nazaridan o'zbek tilshunosligi taraqqiyotini qanday baholash mumkin?

O'zbek tilshunosligi o'zining (XX asrning 20-yillaridan 90-yillari-gacha) amaliy bosqichni bosib o'tdi. Bu davrda amalga oshirilgan ishlar quyidagilardan iborat edi:

1) tilning bo'limlari aniqlandi;

2) har bir bo'limga doir birliklar chegaralandi;

3) birliklarning zohiriy alomatlari yoritildi. Masalan, fonetika sohasida hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli, 24 ta undosh borligi aniqlanib, ularning bevosita sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi xossalari o'rganildi. Unlilardagi lablanganlik-lablanmaganlik, til orqa, til o'rta, til oldi, yuqori torlik, quyi va o'rta kenglik belgilari shular jumlasidandir. Biroq har bir unlining mohiyati-substantsiyasiga bu zohiriy belgilar qay darajada daxldor degan muammo nazariy o'rganish jarayonida fonemalarning variant-invariantlik muammosi ostida tadqiq qilindi. Har bir unlining (undoshlarning ham) mohiyati nazariy usullarda ochib berildi. Shunday holatni morfologiyada ham kuzatish mumkin. Bunda so'z turkumlari, har bir turkumga xos grammatik shakllar aniqlandi. Grammatik shaklning zohiriy belgilari – nutqiy xususiyati tadqiq qilindi. Masalan, har bir kelishikning 20 dan 50–60 tagacha ma'nosi ajratilib, tavsiflandi. Bu ma'nolarni yanada ko'paytirish mumkin edi. Zero hodisalar cheksiz bo'lib, ular qanchalik ko'paysa, manba mohiyatini shuncha qorong'ilashtiradi, to'sib qo'yadi. Quyidagi misollarga diqqat qiling:

Gulnoraning kitobi
Gulnoraning opasi
Gulnoraning uyi
Gulnoraning yig'isi

Bunda empirik yondashuv qaratqich kelishigining «qarashlilik», «mansublik», «egalik», «subyekt-harakat» kabi to'rtta ma'nosini farqlashni taqozo qiladi (qatorni yana davom ettirish va ma'nolar sonini ko'paytirish mumkin). Bu – zohiriy ma'no, nutqiy hodisa. Empirik tilshunosdan mohiyatga tomon bundan chuqurroq borish talab qilinmaydi. Nazariyotchi kelishikning har bir qo'llanishidagi farqdan «ko'z yumib», umumiy jihatni qidiradi. Farqlarning (kitob), (opa), (uy), (yig'i) va boshqa so'zlar ta'sirida ekanligini nazariy yo'l bilan aniqlaydi va shu asosda qaratqich kelishigining mohiyatini ochadi.

Nazariy o'rganish jarayonida til hodisalarida zohiriy (nutqiy) va botiniy (lisoniy) jihat farqlanadi. Har bir birlik yondoshlari bilan o'zaro munosabatda o'rganiladi, ularga tizimiy yondashiladi. Masalan, yuqoridagi misolning birinchisida (*Gulnoraning kitobi*) qaratqich kelishigining «qarashlilik», ikkinchisida (*Gulnoraning opasi*) «mansublik» nutqiy (xususiy) ma'nolari voqelangan. Biroq qaratqich kelishigi shaklining barcha qo'llanishi uchun umumiy jihat — «oldingi ismni keyingi ismga tobelash» ma'nosi bevosita kuzatishda berilmagan va lisoniy ahamiyatga ega. Bu umumiylik yuqoridagi misollarda «*Gulnora* so'zining *opa* so'ziga qaratuvchilik munosabatini ifodalash», ikkinchisi « *Gulnora* so'zining *kitob* so'ziga qaratuvchilik munosabatini ifodalash» tarzida bevosita kuzatishga chiqqan, sezgi a'zosi bilan his qilinadigan qiymat kasb etib xususiylashgan. Empirik tilshunos har bir birlikni alohida-alohida tekshiradi. Masalan, [*a*] unlisini boshqa unlisiz, biror zamon yoki kelishik shaklini boshqasidan ajratib, uzib o'rganadi. Nazariy o'rganish bosqichida esa ular o'z tizimdoshi bilan yaxlitlikda tahlil etiladi. Har bir birlikning, deylik, unlining, boshqa tizimdoshi bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladigan belgisi nazariyotchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Til hodisalarini bu tarzda o'rganish tizimiy yondashish deyiladi. Nazariy tilshunoslik har qanday birlikning mohiyati uning munosabatini chuqur tahlil qilish bilan ochiladi, degan g'oyaga tayanib ish ko'radi.

Falsafiy UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi

Dialektika har qanday o'rganish manbaida, borliqdagi har bir narsada ikki jihat borligini ta'kidlaydi va uni quyidagi ikki tomonli kategoriyalar asosida sistemalashtiradi:

Umumiylik — alohidalik;
Mohiyat — hodisa;
Imkoniyat — voqelik;
Sabab — oqibat.

Birinchi jihat (uni tegishli kategoriyalarning bosh harflari asosida qisqacha UMIS deb ataymiz) narsalarning bevosita kuzatishda berilmagan substansiyasi bo'lib, aqliy, idrokiy usul bilan anglanadi.

Ikkinchi jihat esa (AHVO — alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat) UMIS ning voqelanishi bo'lib, uni tadqiqotchi, o'rganuvchi kishi sezgi a'zolari yordamida his qila oladi.

Har bir narsada UMIS turlari (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) yaxlit holda mavjud bo'ladi va AHVO turlari birgalikda (alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat) yaxlit holda voqelanadi. Masala mohiyatini yaqqolroq tasavvur qilish uchun hammaga tushunarli bo'lgan hayotiy bir dalilga murojaat qilamiz.

Hovlida beshta har xil o'rik daraxti bo'lib, ular bevosita kuzatishda berilgan, sezgi a'zolari yordamida ularni his qila olamiz. Lekin ongimizda yaxlit o'rik tushunchasi mavjud. U bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, aqliy yo'l bilan tiklangan. Falsafada ana shu «umuman o'rik»ka nisbatan UMIS, muayyan, ko'z oldimizda turgan o'rikka nisbatan AHVO atamasini qo'llash mumkin. Bevosita kuzatishda berilmagan UMIS va sezgilar yordamida his qilish mumkin bo'lgan AHVOning biri ikkinchisisiz bo'lmaydi. Masalan, «umuman o'rik» tushunchasi xususiy, yakka, alohida o'riklar haqidagi tasavvurlardan tiklansa, yakka o'rik «umuman o'rik»ning voqelanishi, muayyanlashuvi. UMIS va AHVOni farqli belgilari asosida quyidagicha tasavvur qilishi mumkin (1-jadval):

1-jadval

UMIS	AHVO
Moddiylikdan xoli	Moddiylikka ega
Takrorlanuvchan	Betakror
Cheklangan	Cheksiz

va h.

Buni quyidagicha sharhlash mumkin:

1. «Umuman o'rik» UMIS sifatida ong orqali idrok etiladi. U o'zida yakka, alohida o'riklarning barcha umumiy belgilarini mujassamlashtirib, farqli jihatini chetda qoldiradi. Masalan, bir o'rik – daraxti erta, ikkinchisi esa kech pishadi, uchinchisi achchiq danakli, to'rtinchisi esa kam hosillidir. Bu farqli jihatlar «o'rik» UMISida aks etmaydi. Ular AHVOlarda namoyon bo'ladi. AHVO moddiy tarzda bo'lib, sezgi uzvlariga ta'sir qiladi.

2. «Umuman o'rik» UMISi har bir o'rik AHVOsida takrorlanadi. Borliqda qancha AHVO bo'lsa ham, har birida UMIS o'zining bir qirrasini namoyon qilaveradi. Lekin AHVO sifatidagi muayyan o'riklar takrorlanmaydi. Kesilgan bir o'rikni qayta ekishning iloji yo'q. Ammo qancha o'rik kesilgani-yu ekilgani bilan umuman, o'rik UMISi o'zgarmasdan turaveradi. UMIS barqaror, AHVO o'tkinchidir.

3. UMIS sifatida «umuman o'rik» bitta. Ammo o'rik AHVOlari cheksiz. Shu kungacha mavjud bo'lgan va kelajakda

ekib, o'stiriladigan o'riklar sonini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo UMIS bittaligicha turaveradi.

UMIS va AHVO munosabati falsafada substansiya va aksidensiya, tasavvufda *zot* va *tajalli* sifatida qaraladi.

Xo'sh, falsafiy UMIS va AHVO til hodisalarga nisbatan qanday tatbiq etiladi?

(*Qalin*), (*qora*), (*katta*) so'zlaridagi [*a*] tovushlarini talaffuz qilaylik. Sezgilarimiz 6 ta [*a*] unli tovushni his qiladi. Bundagi birorta (*a*) tovushini qayta talaffuz qilib bo'lmaydi. Qayta aytilgani esa endi yettinchi (*a*) tovushi bo'ladi. Talaffuz qilingan (*a*) tovushini (boshqa tovushlarni ham) qayta talaffuz qilish mumkin emas va har bir qayta aytilgan tovush yangi ekan, demak, nutqimizdagi (*a*) tovushlari cheksiz bo'lib, hech qachon takrorlanmaydi va sezgi a'zolari yordamida his qilinadi (aytilganda eshitiladi, yozilganda o'qiladi). (*a*) tovushi AHVO bo'lib, u yuqorida zikr etilgan «alohida o'rik»ka monand.

AHVOlar qanchalik ko'p, rang-barang bo'lishiga qaramay, ongimizda ularning umumlashmasi sifatidagi yakka [*a*] UMISi bor. Bu [*a*] yuqorida aytilgan «umuman o'rik» kabi moddiylikka ega emaslik (ongda psixofizik holatda mavjudlik), barcha (*a*) AHVOlarida takrorlanuvchanlik, miqdoran cheklilik (ya'ni bittalik) xossalariga ega. Fonetik AHVO *tovush* va fonologik UMIS *fonema* deb yuritiladi.

Falsafiy UMIS va AHVOning leksikada voqelanishiga diqqat qilamiz. Misollar: *Men kitob o'qishni boshladim. Bu kitobni Halim nega keltirdi? Kitob qiziqarliligi bilan meni tezda o'ziga rom qildi* gaplarida uchta (*kitob*) so'zi mavjud. Bu so'zning ham har biri «muayyan o'rik», «muayyan (*a*) tovushi» kabi moddiy voqelanganlik, takrorlanmaslik belgilariga ega va ular qatorini yana cheksiz davom ettirish mumkin bo'lganligi sababli miqdoran cheklanmaganlik kabi AHVOlarning barchasiga xos belgilarni o'zida mujassamlashtirgan. Cheksiz (*kitob*) so'zlarining zamirida esa «umuman kitob» UMISi yashiringan. U nutqqa chiqadigan barcha (*kitob*) so'zlari uchun doimiy asos sifatida yashaydi. Chunki ikkinchi (*kitob*) so'zi birinchisining takrori emas. U – yangi so'z. Uchinchisi va qolgan barcha so'zlar uchun shunday fikrni aytish mumkin.

Shuningdek, morfologiyada [*-ni*] tushum kelishigi shaklining turli nutqiy qo'llanishlari morfologik AHVOlar bo'lib, bu qo'shimchalar ongdagi [*-ni*] UMISi (morfemasi) asosida voqelangan.

Sintaksisda UMIS va AHVO munosabati quyidagi tarzda namoyon bo'ladi. Masalan,

Kitobning varag'i
Uyning eshigi
Halimning savoli
Qog'ozning qalinligi
Ruchkaning qopqog'i

kabi so'z birikmalari alohida-alohida AHVO bo'lib, ularning umumiy **[qaratqich kelishigidagi mustaqil so'z + egalik shaklidagi mustaqil so'z=qaratuvchi va qaralmishning turli munosabatlari]** qolipi – UMISining (mustaqil so'z atamasi uchun qulaylik maqsadida tilshunoslar tomonidan qabul qilingan inglizcha *word* so'zining bosh harfi bo'lgan W shartli belgisidan foydalanamiz: **[W$^{qaratqich\ kelishigi}$ - W$_{egalik\ qo'shimchasi}$]** tarzida) voqelanishi. O'zbek tilida barcha gaplar esa AHVOlar sifatida [kesimlik qo'shimchalari bilan shakllangan atov birligi], ya'ni **[WPm]** (bunda **(W)** – yuqoridagidek mustaqil so'z, atov birligi, **(Pm)** esa kesimlik ko'rsatkichi bo'lib, *predikat, marker* so'zlarining bosh harflaridan iborat) UMISining yuzaga chiqishi.

Esda tutish kerakki, UMIS hech qachon muayyan bir AHVOda to'la-to'kis voqelana olmaydi, unda o'zining ma'lum bir qisminigina yuzaga chiqaradi. Masalan, [WPm] UMISi *Men keldim* gapida boshqa, *Ketadimi?* gapida boshqa bir qirrasini namoyon qilgan. Gapning darak va so'roq belgilari bir butun holda birdaniga voqelana olmaydi. Biroq AHVO UMISdan tashqarida ham bo'la olmaydi. Har qanday sodda gap baribir **[WPm]** UMISi doirasidan tashqariga chiqa olmaydi. Buni So'fi Olloyor HAQ (UMIS) va sifat (tajalli, AHVO) munosabati misolida mahorat bilan tasvirlaydi:

Subutiydir aning (ya'ni HAQning) sakkiz sifoti,
Sifot zoti emas, na g'ayri zoti.

Mazmuni: HAQning sakkizta sifati barqarordir, biroq ulardan birortasi (o'z-o'zicha, yakka holda) uning zoti (UMIS)ni tashkil eta olmaydi.

Til, lison, me'yor va nutq munosabati

UMIS va AHVO munosabati dialektikaning (ya'ni butun borliq – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosiy yashash) qonuniyatidan biri bo'lganligi sababli, u har bir fanda o'ziga xos

tarzda xususiylashadi. UMISning tildagi tajallisi *lison*, AHVOniki esa *nutq* deb yuritiladi. Lison va nutqning majmui *til* deyiladi.

Tilshunoslikda lisoniy va nutqiy jihatni farqlashga intilish ushbu fan bilan tengdosh. Chunki har qanday fan cheksiz hodisalarni umumlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Xususiy hodisalar zamiridagi umumiylikni ko'rishga intilish bilishning har ikkala bosqichi (fahmiy va idrokiy)da ham mavjud. Shu boisdan aytish mumkinki, bilishning fahmiy bosqichi mutlaq xususiylik bilan o'ralashib qolmaganligi kabi, idrokiy bosqich ham mutlaq umumiylikni — UMISni tiklay olmaydi. Biroq har bosqich o'z vazifasiga ega. Chunki har bir davr o'z fani oldiga muayyan maqsad va aniq talablarni qo'yadi. «Fanlarning taraqqiyoti shu davrning ilg'or falsafiy fikri, davr uchun yetakchi bo'lgan fan sohalarining yutuqlari bilan uzviy bog'liq. Turli fanlarning manbalari ko'p qirrali bo'lganligi sababli, davrning yetakchi falsafiy fikri aniq fanlardan o'rganish manbaining qaysi tomonlariga alohida e'tibor berish lozimligini, borliqdagi mavjud qonuniyatlarni mantiqiy kategoriyalarda qay usulda aks ettirish yo'llarini belgilab beradi» (H.Ne'matov). Shu asosda aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek tilshunosligining birinchi bosqichi, dialektika nuqtayi nazaridan, tildagi UMIS va AHVOni bir-biridan farqlamay tasnif etish bosqichi. Tilshunoslikda lison va nutqni izchil farqlab o'rganish avvalo, tilshunoslar V.fon Humboldt, B.de Kurtene va F.de Sossyur nomi bilan bog'liq. Lison va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida tub burilish sifatida baholanadi. Chunki u mavjud qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi.

Tilga, xususan, o'zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabki yillarida *lison* o'rnida *til* atamasi qo'llanilib, u ko'p ma'nolilik tabiatiga ega bo'lganligi sababli ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarar edi. Chunonchi, insonning nutq so'zlash qobiliyati ham, nutqi ham ushbu atama bilan yuritilar edi. Shu boisdan nazariyotchi tilshunoslar UMISning tildagi voqelanishiga nisbatan *lison* atamasini qabul qildilar. Natijada, *til, lison, nutq* munosabati quyidagicha tushunildi (2-jadval):

2-jadval

TIL		
LISON	ME'YOR	NUTQ

Yuqorida UMIS va AHVOning tildagi tajallisi misolida lison va nutqning o'zaro munosabati haqida kirish xarakterida so'z yuritildi. Endi unga batafsil to'xtalinadi.

Til – sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat. U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat'iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi. Tilda bosh ichki ziddiyat – atash (nominativ) va ifodalash (ekspresiv) vazifalarining dialektik birligi.

Lison – UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko'p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta'siriga o'ta sezgir, o'zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o'z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik sistemasidir. Lison deyilganda, ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy, fikrni ifodalash va boshqa maqsad uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikish qonuniyatlari yig'indisi tushuniladi.

Me'yor – lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo'lib, lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqelanish o'rni va xususiyatini belgilaydi.

Nutq – lisonning me'yor elagidan o'tgan muayyan moddiy (yozma, og'zaki, tasviriy/imo-ishora, signal, va h.k.) shakllaridan birida voqelanishidir.

Demak, lisonda birlik va birikish qonuniyati farqlanadi.

Har qanday lisoniy birlik psixofizik tabiatli bo'ladi. Shu bilan birga ular ikki tomonning bir butunligidan iborat:

a) lisoniy birlikning shakliy, tashqi tomoni;

b) lisoniy birlikning ma'lum bir vazifasi, ma'noviy qiymati.

Lisoniy birlik UMIS sifatida mavjud ekan, u moddiylikdan xoli bo'lmog'i lozim. Bunda «lisoniy birlikning tashqi tomoni» ko'rinishga, moddiylikka ishora qilmaydimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. To'g'ri, lisoniy birlik moddiy qiyofadan xoli. Biroq ular ongda qandaydir tarh, ramz sifatida saqlanadi. Masalan, [*a*] fonemasining talaffuz xususiyati haqida umumlashma tasavvur o'zbek tilida so'zlashuvchi barcha jamiyat a'zolari tilida birdir. Bu [*a*] fonemasining shakli, tashqi tomoni bo'lsa, uning ma'no farqlash, chegaralash tomoni ichki jihati sanaladi. [*a*] fonemasi xususiyatlari va ma'no farqlashning o'ziga xos birligi, yaxlitligi

sifatida ongda mavjud bo'ladi. Har bir fonemaning ma'no farqlash va talaffuz xususiyatlari umumlashmasi o'ziga xos bo'lib, biriniki ikkinchisinikidan farqlanadi va mustaqil fonemaga qo'yilgan talab uning aynan o'xshash bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Lisoniy birliklarning bu tashqi va ichki tomonini bir-biridan ajratish, ulardan birini mutlaqlashtirish mumkin emas. Ichki va tashqi tomon bir varaqning ikki betiga o'xshaydi va ajratish mumkin emas. Nutq esa yuqorida ta'riflangan so'zlashish qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan ma'lum bir xabar berish maqsadi uchun ishga solinishi yoki qo'llanishi natijasi.

Bir-birini shartlovchi, bir-biriga bog'liq bo'lgan «lison – nutq qobiliyati – nutq» zanjirida faqat nutqqina tashqi (moddiy) shaklda (og'zaki, yozma) namoyon bo'ladi va sezgi a'zolarimizga ta'sir qiladi.

F.de Sossyur lison-nutq munosabatini shatranj o'yini qoidalari asosida tushuntirib berishga harakat qilgan.

Shaxmat donalari va har bir donaning yurish qoidasi ongdagi lisoniy birliklar va ularning birikish imkoniyatiga o'xshaydi. O'yinchi bamisoli so'zlovchi bo'lib, shaxmat o'yinini bilishi esa so'zlovchining nutq qobiliyatiga o'xshaydi. Donalarning harakatlantirilishini nutqqa qiyoslash mumkin. Qiyoslang:

shaxmat – o'ynash qobiliyati – o'yin

lison – nutq qobiliyati – nutq

Shaxmat donalari va ularning yurish imkoniyati o'ynovchining barchasi uchun umumiy bo'lganligi kabi lisondan foydalanishda ham shu tilda so'zlashuvchilar teng huquqli.

Lison va shatranj qurilmalari o'zaro qiyoslanadigan bo'lsa, avvalo, ularning birliklari orasida umumiy o'xshashliklar borligini ta'kidlash lozim. Har ikkala qurilma ham birliklar sistemasi (tizimi) va bu birliklarning o'ziga xos vazifalari bilan ish ko'radi. Bunda ma'lum qoida va qonuniyatlarga tayaniladi. Har ikkala holatning ishtirokchisi inson bo'lib, ular har ikkala faoliyatda ham ma'lum bir imkoniyatni ishga soluvchilar. Shu boisdan shaxmat taxtasi, uning donalari, ya'ni shaxmat o'yinining tashqi, moddiy tomonini lisoniy birlikning tashqi tomoniga, shaxmat o'yini qoidalari – donalarining joylashuvi, harakat qoidalari, ya'ni shatranj o'yinining ichki tomoni haqidagi tasavvurlarni lisoniy birliklarning mazmun mundarijasiga qiyoslash mumkin.

Lison va nutq munosabatiga dialektika kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashilsa, u haqdagi tasavvur va bilim to'laqonli bo'ladi (3-jadval):

3-jadval

BORLIQ		
TIL		
LISON	ME'YOR	NUTQ
Umumiylik		Alohidalik
Mohiyat		Hodisa
Imkoniyat		Voqelik
Sabab		Oqibat

Lison bilan nutqning o'zaro munosabatini teran anglamoq uchun, avvalo, lisonning o'zini, uning qanday qurilma ekanligini aniq tasavvur etmoq lozim bo'ladi.

Lison bo'linuvchan birliklarning majmui yoki turg'un xususiy birliklarning o'zaro barqaror, doimiy bog'lanish munosabati asosida tashkil topgan yangi bir butunlik. Masalan, gap so'z va qo'shimchaga, ular esa tovushga bo'linadi. Shu nuqtayi nazardan lisoniy birliklarni avvalo, ikki guruhga ajratish mumkin:

a) tashkil etuvchi eng kichik lisoniy birlik;

b) eng kichik tashkil etuvchilar asosida vujudga kelgan hosila lisoniy birlik.

Tashkil etuvchi deyilganda, hosilalari o'zaro birikib, yirikroq lisoniy birlikni hosil qiluvchi birlik tushuniladi. Masalan, ABC uchburchagi hosila birlik:



Bu hosila birlik AB, BC, CA tomonlar va shu chiziqlar asosida vujudga kelgan burchaklardan iborat. Tashkil etuvchidan birortasi o'zgarsa, butunlik ham o'z mohiyatini o'zgartiradi. Masalan, [*uka*] lisoniy birligi uch fonema ko'rinishining muvofiqligi asosida tashkil topgan. Bulardan birortasi almashtirilsa, boshqa lisoniy birlik vujudga keladi. Masalan, [aka].

Tashkil etuvchi va hosila birlik orasida pog'onali munosabat mavjud bo'ladi. Pog'onali munosabat lisoniy birliklarning sathma-sath qatlamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qatlamlanish quyidagi tartibda bo'ladi:

fonema;
morfema;
leksema;
qolip.

O'zbek tilidagi fonemalar ma'lum bir butunlikni, bir sath (fonologik sath)ni tashkil etadi. Bu sath esa unlilar va undoshlar tizimidan tashkil topadi. Deylik, unlilar tizimi yana ikkiga – lablanmagan unli ([*i*]-[*e*]-[*a*]) va lablangan unli ([*u*]-[*o'*]-[*o*]) tizimchasidan tashkil topgan. Ko'rinadiki, tashkil etuvchining o'zi ham tashkil etuvchidan iborat. Demak, tashkil etuvchilik – nisbiy tushuncha. Bunda minimal tashkil etuvchigina boshqa bo'laklarga bo'linmasligi mumkin.

Minimal tashkil etuvchi nafaqat birliklarni, shu bilan birgalikda, birliklarning o'zaro munosabatini ham o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, eng kichik (minimal) tashkil etuvchi bo'lgan fonema yana ichki va tashqi jihatga ajraladi.

Aytilganlar asosida, lison hamda nutq birliklari sifatida quyidagilar ajratiladi. Lison va nutq birliklari ham lison va nutqning o'zi kabi UMIS va AHVO munosabatida bo'ladi (4-jadval):

4-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
Fonema	Tovush
Morfema	Qo'shimcha
Leksema	So'z
Qolip	yasama so'z, so'z birikmasi, gap

Lisoniy va nutqiy birlik

1. Fonema va tovush. Eng kichik bir yoqlama (ya'ni faqat shakliy tomondan iborat) lisoniy birlik – fonema. Fonema muayyan til egalarining ma'lum tovush tipi haqidagi umumiy tasavvuri. Har bir fonema so'zlovchi ongida o'z tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus «akustik-artikulyatsion portret» yoki «tovush obrazi» sifatida saqlanadi. Muayyan fonemaning farqlovchi belgilari uning artikulyatsion va akustik xususiyati asosida shakllanadi. Artikulyatsion belgi muayyan tovushni talaffuz qilish uchun nutq a'zolarining bir xil harakatga moslashgan avtomatik, standart holati haqidagi tasavvur bo'lsa,

akustik belgi sifatida bir turdagi tovushga xos talaffuz sifati va miqdori tushuniladi.

O'zbek tilida so'zlovchi shaxsning ongida hozirgi o'zbek tilidagi 30 ta tovush tipi — fonema haqida ma'lumot bor. Bu ma'lumot kishi ongida uning til o'rganishi, o'zgalar va o'zining nutqini kuzatish natijalari sifatida hosil bo'ladi. Masalan, o'zbek tili sohibi o'zining eshitish va so'zlash a'zolari faoliyatini kuzatish natijasida [*a*] fonemasining unlilik, kenglik, lablanmaganlik, [*u*] fonemasining unlilik, torlik, lablanganlik, [*p*] fonemasining undoshlik, shovqinlilik, jarangsizlik, portlovchilik, lab-lablik kabi belgilarga ega ekanligi haqidagi «tabiiy» (go'yoki o'zi hosil qilingan) bilimga ega bo'ladi. Nutq so'zlaganda, ana shu umumiy belgini jonlantirishga, ongidagi imkoniyatni voqelantirishga, fonetik umumiylikni xususiylashtirishga harakat qiladi.

Lisoniy birliklar nutqiy birliklarga nisbatan miqdoran cheklangan bo'lsa-da, ammo ularning soni ham sanoqli emas. Shu boisdan ularning xotirada saqlanish mexanizmini bilish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, inson narsani uning umumlashtiruvchi va farqlovchi belgilari asosida xotirada saqlaydi. Xotirada saqlanishi lozim bo'lgan narsa miqdor jihatdan ko'p bo'lsa, eslab qolishning asosiy yo'li — tasniflash, ya'ni guruhga ajratish. Tasnif esa o'xshash va noo'xshash, umumiy va farqlovchi belgilarini aniqlash asosida kechadi. Bu tamoyil barcha lisoniy birliklar, xususan, fonemalar tasnifida ham to'la amal qiladi.

Hozirgi o'zbek tilida 30 ta fonema so'zlovchi ongida, avvalo, ikki guruh — unli va undoshga bo'lingan holda mavjud bo'ladi. Bu guruhlar tovush talaffuzidagi ovoz va shovqinning ishtiroki darajasiga qarab belgilanadi. Bo'linish shu tarzda alohida fonemagacha davom etib boradi. Unli ham, undosh ham qarama-qarshi belgilari asosida kichik guruhchalarga bo'linib boraveradi. Masalan, o'zbek tilidagi 6 ta unli bir tizim bo'lib, ular shovqinsizligi bilan undoshdan ajraladi. Biroq bu tizimchaning o'zi ham unsurlarning qarama-qarshi belgilari asosida bo'linadi. Unlilarning qarama-qarshi qo'yilishi quyidagicha (5-jadval):

5-jadval

I	U
E	O'
A	O

Umuman olganda, minimal lisoniy birlik bo'lgan fonema inson nutq a'zosi yordamida vujudga kelgan tovush ko'rinishlarining umumiy andozasi bo'lib, cheksiz tovushning umumlashmalari qatori sifatida ongda yashaydi. So'zlovchi ushbu psixo-akustik obraz asosida nutq a'zolarini harakatga keltirib, tovush hosil qiladi. Yoki tinglovchi o'zga tomonidan hosil qilingan tovushni eshitish orqali ongidagi andozaga solishtirib ko'radi.

Fonemaning ma'no farqlash xossasi mavjud bo'lib, bir fonemaning turli ko'rinishi bo'lgan tovushlarda bu hodisa kuzatilmaydi. Bir fonemaning nutqiy varianti bo'lgan tovush boshqa fonemaning varianti bo'lgan tovush bilan almashtirilsa, so'z ma'nosi yangilanadi, ya'ni boshqa so'zga aylanadi. Qiyoslang: [*qora*] va [*qara*], [*ota*] va [*ata*], [*ona*] va [*ana*]. Shu boisdan ham fonemaga tilning ma'no farqlovchi eng kichik birligi deb ta'rif berildi. Bir fonemaning turli varianti ma'no farqlamaydi. Masalan, til oldi va til orqa (*o'*) unlilari quyida ma'no farqlamagan: *o'l-o'l.*

2. Leksema va so'z. Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi — leksema. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisisiz mavjud bo'la olmaydigan ikkita psixofizik tomon — akustik struktura (tovush qobig'i), ya'ni nomema hamda ma'lum bir tushuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya'ni sememaning birligidan iborat.

Lisoniy birlik sifatidagi leksemaning tovush strukturasi fonetik birlik ko'rinish (variant)larining turlicha kombinatsiyalari asosida vujudga kelgan. O'zbek tilida mavjud barcha leksemaning shakliy tomoni tilimizda mavjud 30 ta fonema asosida, xolos. Shu boisdan tashqi fonetik strukturasi asosida leksemalarni kuchli va kuchsiz ziddiyatga qo'yish mumkin. Kuchli oppozitsiya bittadan (*u* — olmosh, *e* – undash), ikkitadan (*ot* — ish), uchtadan (*bor – kel*), to'rttadan (*qunt–band*) fonema variantining zidlanishi asosida hosil bo'lgan bo'lsa, kuchsiz ziddiyat leksemaning tarkibidagi ayrim fonema variantlari asosida bo'ladi (*tub-tup, bob-bop*).

Har bir leksema lisoniy birlik sifatida mazmun mundarijasiga ham ega. Leksemaning mazmun mundarijasi denotat yoki referent deb ataladigan borliqdagi narsa, harakat, belgi, miqdor kabini ifodalaydigan tushunchalarni anglatadi. Masalan, borliqda [*yuz*] deb ataluvchi kishi burni ikki tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismi mavjud. Shu asosda kishi ongida «yuz» tushunchasi vujudga kelgan. Mazkur tushuncha asosida esa semema (leksema ma'nosi) shakllanadi. Tushuncha bilan ma'no bitta narsa emas,

ular farqli xususiyatga ega. Masalan, ingliz, rus, nemis tilida so'zlashuvchi kishilarning ongida «aka» va «uka» tushunchalari mavjud. Biroq bu tushunchalar [*brother*] (ingliz), [*brat*] (*rus*) va [*bruder*] (nemis) leksemalarida bitta ma'no (semema)da birlashgan. Yoki [*yuz*], [*bet*], [*bashara*], [*chehra*], [*oraz*]· leksemalari bitta tushunchani ifodalaydi, lekin ma'nolari o'zaro farqlanadi.

Leksemaning mazmun silsilasi bo'lgan sememani tashkil etuvchi a'zo – sema. Nomema tovushlarning turlicha kombinatsiyalari asosida tashkil topganligi kabi, ana shu semalarning turlicha birikuvi va ba'zilarining o'rin almashinuvi asosida turli mazmundagi semema vujudga keladi. Bu sememalarning semik tarkibi quyidagicha:

[*yuz*] – «odamga xos», «boshning old qismi», «burunning ikki tomoni», «peshonadan iyakkacha», «burundan quloqqacha», «qo'llanilishi chegaralanmagan», «uslubiy betaraf», «turkiy qatlamga oid», «umumiste'mol»;

[*jamol*] – «odamga xos», «boshning old qismi», «burunning ikki tomoni», «peshonadan iyakkacha», «burundan quloqqacha», «qo'llanilishi chegaralangan», «badiiy uslubga xos», «arabiy qatlamga xos».

Har ikkala leksema ham bir tushunchani ifodalaydi. Ularning mazmun mundarijasi – sememalarining semik tarkibi farqlanadi. Leksemalar sememalarining atash semalari denotatning in'ikosi – tushunchani ifodalaydi. Har bir leksema sememasi o'xshash va farqlovchi semaga ega. O'xshash sema ularni guruhlarga birlashtirishga, farqli sema esa ajratishga xizmat qiladi.

Leksemaning nutqiy qo'llanilishidagi varianti so'z bo'lib, ular turlicha matniy qurshov asosida har xil xususiyat kasb etadi.

Leksema tub yoki yasama bo'lishi mumkin. Masalan, [*kitob*], [*savdogar*], (*nonchi*) birliklarini olaylik. Qatordagi [*kitob*] va [*savdogar*] birliklari tayyorlik, umumiylik, ijtimoiylik xossalariga ega. Biroq tilimizda (*nonchi*) degan lisoniy birlik yo'q. U nutq jarayonidagina hosil qilinishi mumkin va yuqoridagi birliklar ega bo'lgan xususiyatdan xoli. [*nonchi*] birligining nutq jarayonigagina xosligi uning tayyorlik belgisiga ega emasligini ko'rsatadi.

3. Morfema va qo'shimcha. Morfema leksemadan ajralgan holda o'z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo'lmagan mazmunning birligidan iborat bo'lgan kichik lisoniy birlik. Qo'shimcha ana shu psixofizik mohiyatning nutqda namoyon bo'lishi. Morfema ham tashqi (moddiy) va ichki (ma'no, vazifa) jihat yaxlitligidan iborat. Atov mustaqilligiga, nustaqil

sintaktik mavqega ega bo'lmagan bu birliklar o'zida leksik va grammatik mohiyatni uyg'unlashtirgan:

a) yangi so'zlar hosil qiladi;

b) so'zlarga qo'shimcha leksik-semantik qiymat beradi.

Bir tilga xos birlik boshqa tillarnikidan farqlanadi. Masalan, amorf, agglyutinativ va flektiv tillardagi leksema mohiyatan o'ziga xos.

4. Qolip va hosila. Lisoniy birlikning navbatdagi turi—qurilma—qolip. Qolip deganda yasama so'z, so'z birikmasi va gaplar hosil qilish sxemalari tushuniladi. Qoliplar ikki xil bo'ladi:

a) so'z yasash qolipi;

b) sintaktik (so'z birikmasi va gap) qolip.

Qolip ham boshqa lisoniy birlik kabi UMIS tabiatli bo'ladi. Masalan, nutqdagi cheksiz yasama so'z (masalan, (sutchi), (nisholdachi) kabi bitta bevosita kuzatishda berilmagan lisoniy birlik (masalan, **[narsa/buyum oti+chi=shu narsa/buyum bilan shug'ullanuvchi kishi]**, ya'ni so'z yasash qolipining nutqiy hosilasi. *Kitobni o'qimoq* nutqiy hosilasi boshqa o'ziga o'xshash cheksiz so'z birikmalari (*qog'ozni yirtmoq, uyni sotmoq* va h.k.) bilan birgalikda **[Ot$^{\text{tushum kelishigi}}$+ Fe'l]=vositasiz to'ldiruvchili fe'lli birikma]** lisoniy sintaktik qolipidan chiqqan nutqiy birlik.

Qolip miqdoran cheklangan. Masalan, o'zbek tilida so'z birikmasi hosil qilishning 18 ta ustuvor qolipi ajratilgan va nutqimizda ulardan son-sanoqsiz so'z birikmasi hosil qilinadi.

Qolip ham boshqa lisoniy birlik kabi shakl va mazmun yaxlitligidan iborat. Yuqorida keltirilgan qoliplarning tenglikdan chap qismi shakliy, o'ng qismi esa mazmun tomoni deb yuritiladi. Qolipning **[sifat+ot]** tarzida mazmuniy tomonsiz berilishi ham xato emas. Chunki, masalan, [*-mi*] morfemasi misol sifatida olinganda, uning grammatik ma'nosi, [*kitob*] leksemasi haqida fikr yuritilganda, har doim uning sememasi ham berilishi [masalan, [*-chi=so'roq, taajjub bildiruvchi morfema*], [*kitob=varaqlaridan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi o'qish quroli*] shart emas. Shu boisdan qolip haqida gap ketganda, uning shakl tomonini qayd etish yetarli.

Shunday qilib, fonema, morfema, leksema va qolip lisoniy, tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap esa nutqiy birlik. Ularning o'zaro munosabati va o'ziga xos belgilariga doir fikrni jadvalda quyidagicha xulosalash mumkin (6-jadval):

6-jadval

BORLIQ		
TIL		
LISON	ME'YOR	NUTQ
Fonema		Tovush
Morfema		Qo'shimcha
Leksema		So'z
Qolip		yasama so'z, so'z birikmasi, gap

Demak, lisoniy va nutqiy birlik o'zaro quyidagi dialektik munosabatda bo'lsa (7-jadval):

7-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
Umumiylik	Xususiylik
Mohiyat	Hodisa
Imkoniyat	Voqelik
Sabab	Oqibat

bir vaqtning o'zida quyidagi qarama-qarshi belgilarga ega bo'ladi (8-jadval):

8-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
Moddiylikdan xoli	Moddiylikka ega
Cheklangan	Cheksiz
Ijtimoiy	Individual
Barqaror	O'tkinchi

Lisoniy paradigma va uning turlari

Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xossasiga ega. Shu boisdan ular jamiyat a'zolari ongida bir tizimga birlashgan holda yashaydi. Masalan, [*a*] fonemasi [*o*] fonemasini, [*u*] fonemasi [*o'*] fonemasini, [*i*] fonemasi [*e*] fonemasini eslatadi. Lekin [*a*] fonemasi [q] yoki [*h*] fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki tizim – unli va undosh tizimiga kiradi. Unlilar bir-birini unlilar tizimida, undoshlar bir-birini undoshlar tizimida eslata oladi. Hatto [*u*] fonemasining [*a*]ni eslatishi o'z tizimdoshi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Masalan, [*a*], [*o*] fonemalari kichik, ichki tizim hosil qilib, birgalikda qolgan fonema juftliklarini eslatadi. Eslatish ikki tomonlama bo'lishi ham mumkin. Masalan, [*yuz*] leksemasi, bir tomondan [*bet*], [*chehra*], [*jamol*], [*oraz*] kabi birliklarni, ikkinchi

tomondan, [*burun*], [*ko'z*], [*quloq*], [*qosh*], [*lab*] leksemalarini eslatadi va bunda u ikki tizimning a'zosi hisoblanadi.

Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy, o'xshash belgi-xususiyatga ega bo'ladi. Ana shu o'xshashlik va umumiylik ularni birlashtiruvchi, bir tizimda ushlab turuvchi belgilari sanaladi. Masalan, unlilar «sof ovozga egalik» umumiy belgisi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgiga ham ega bo'lishi shart. Masalan, [*a*] «lablanmaganlik», [*o*] «lablanganlik» farqlovchi belgisiga ega, «kenglik» belgisi esa ularni birlashtiradi.

Umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi *paradigma* deyiladi (*paradigma* grekcha *paradeigma - misol, namuna* degan ma'noni bildiradi). Paradigmani tashkil etuvchi birlik *paradigma a'zosi* deb yuritiladi. Paradigmada kamida ikkita a'zo bo'lib, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo'ladi. Bir paradigma a'zolari orasidagi o'zaro munosabat *paradigmatik munosabat* deyiladi.

F.de Sossyur lisoniy mikrosistema va, umuman, lisoniy birlik orasidagi paradigmatik (assotsiativ, bir-birini eslatib turish, o'xshashlik) munosabatini lisoniy birlik uchun eng asosiy munosabat sifatida baholagan.

Bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Paradigmadagi bitta birlik eslanganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa a'zo ham xotirlanishi (esga olinishi) zarur.

2. Muayyan nutq sharoiti uchun o'zaro paradigmatik munosabatda turgan birlikdan, ya'ni paradigma a'zolaridan bittasi tanlanishi lozim.

3. Bir paradigmaning a'zolari o'zaro o'xshashlik bilan birga, har bir a'zo ikkinchisidan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishadi.

4. Paradigma a'zolari nutqda bir pozitsiyada (mavqeda) kelib, bir-birini ma'lum holatda almashtira olishi, o'rnini egallashi mumkin.

Lisoniy paradigma va uning a'zolariga nisbatan F.de Sossyur tomonidan qo'yilgan bu talab qariyb yuz yildan beri deyarli o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda.

Paradigma, qamroviga ko'ra, katta va kichik yoki tashqi va ichki paradigmaga bo'linadi. Bu paradigmalar bir-biriga nisbatan olinadi. Masalan, undoshlar jarangli va jarangsizga bo'linadi.

Paradigmatik munosabat atamasining muqobillari sifatida *o'xshashlik munosabati, assotsiativ munosabat* atamalari ham ishlatiladi. *Tizim* so'zi ham ko'p hollarda *paradigma* atamasi o'rnida ishlatiladi: *unlilar tizimi, kelishik tizimi* kabi. Jarangli va jarangsizlar alohida kichik yoki ichki paradigma bo'lib, undosh tizimi bir butun holda ularga nisbatan katta yoki tashqi paradigma deyiladi.

Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga ko'ra, *fonetik, leksik, morfologik, sintaktik paradigma* farqlanadi.

Aytilganidek, fonema tizimi va ularning ichki bo'linishi *fonologik paradigma* deyiladi. Fonologik paradigmaning xususiyati, uni tashkil etuvchi birlikning paradigmatik munosabati xususida «Fonetika-fonologiya» bo'limida bahs yuritiladi.

Semantik-grammatik umumiylikka ega bo'lgan leksik birliklar lug'aviy paradigmani tashkil etadi. Sinonimik, partonimik, giponimik, ierarxionimik, graduonimik, funksionimik qatorga birlashgan leksemalar tizimi, alohida lug'aviy guruh, lug'aviy-mavzuviy to'da, lug'aviy-mazmuniy maydon, so'z turkumi ham yirik (makro) paradigmani tashkil etadi. Leksik paradigma va ularda amal qiluvchi paradigmatik munosabat haqida «Leksikologiya-semasiologiya» bo'limida bahs yuritiladi.

Morfologik kategoriya (morfologik shakllar tizimi) — morfologik paradigmadir. Morfologik shakllarning paradigmatik munosabati haqida «Morfologiya-morfemika» bo'limida batafsil to'xtalinadi.

Sintaktik qoliplar tizimi sintaktik paradigmani tashkil etadi. Sintaktik paradigma ikkiga — gap paradigmasi va so'z birikmasi paradigmasiga bo'linadi. Gap paradigmasining o'zi ikki — sodda gap qolipi va qo'shma gap qolipi kabi ichki (mikro) paradigmaga bo'linadi. Bu bilan «Sintaksis» bo'limida tanishasiz.

Lisoniy munosabat va uning turlari

Munosabat keng qamrovli tushuncha, bir butunlikning tarkibiy qismi—birliklari orasidagi o'zaro aloqa va bog'lanishni anglatadi. Bunday aloqa turlicha bo'lishi mumkin. Quyidagi gapga diqqat qiling: *Ularning ismi — Salim va Halim.* Bundagi nutqiy birliklar turli munosabat bilan bog'langan. (*Ular*) so'zi (*ism*) so'zi bilan, (*u*) olmoshi (*-lar*) qo'shimchasi bilan ketma-ket, zanjirsimon aloqada. Yoki (*ism*) so'zi uchta tovushning ketma-ketligidan iborat. Bunday chiziqsimon, liniyaviy ketma-ketlik aloqasi *sintagmatik aloqa*

deyiladi. Sintagmatik aloqa lisonda ham, nutqda ham mavjud bo'ladi. Masalan, [*kitob*] leksemasi beshta tovushning birikuvidan iborat nomemaga ega bo'lib, u lisoniy birlik sanaladi. Shuningdek, yasama so'z ((*suvchi*), (*ertapishar*)), so'z birikmasi (*kitobni o'qimoq*)da ham birikuvchi a'zolar sintagmatik aloqada bo'ladi.

Sintagmatik aloqani sintaktik aloqadan farqlash lozim. Sintagmatik aloqa barcha til birliklariga xos ketma-ket bog'lanish bo'lsa, sintaktik aloqa so'z va gaplarning hokim-tobelik munosabati. Demak, sintagmatik aloqa va sintaktik aloqani butunlay boshqa-boshqa hodisalar ham, shuningdek, ularni bir-biriga aynan tenglashtirish, bir-birini qoplovchi tushuncha sifatida qarash ham mumkin emas. Sintagmatik va sintaktik aloqa butun-bo'lak munosabatida. Boshqacha aytganda, sintaktik aloqa sintagmatik aloqaning bir ko'rinishi.

Ko'pincha sintagmatik aloqani nutqqagina xos deb tushunish ham uchraydi. Bu — hodisani tor ma'noda tushunish. Yuqoridagi gapda ishtirok etayotgan birliklar orasida pog'onali munosabat ham mavjud. Pog'onali munosabat deganda birlikning boshqasi tomonidan qamrab olinishi tushuniladi. Masalan, (*Halim*) va (*Karim*) so'zlari erkak kishining ismi bo'lib, ayolning ismi bo'lgan (*Halima*) so'ziga qarama-qarshi turadi. Lekin ularning barchasini [*ism*] leksemasi qamrab oladi. [*ism*] leksemasi esa, [*nom*] leksemasi bilan birgalikda, [*ot*] leksemasi tomonidan qamrab olinadi. Uni shartli ravishda quyidagicha tasavvur qilish mumkin (9-jadval):

9-jadval

Ot					
Ism				nom	
Halim	*Salim*	*Gulnora*	*Lola*	*qo'y*	*kitob*

Bu pog'ona yuqoriga va quyiga qarab yana davom ettirilishi mumkin. Demak, [*Salim*], [*ism*], [*ot*] leksemalari pog'onali munosabatga kirishgan. Lisoniy birliklarning pog'onali munosabati ikki xil. Masalan, [*daraxt*] va [*tana*], [*ildiz*], [*barg*], [*shox*] birliklarining o'zaro munosabati [*daraxt*] va [*olma*], [*o'rik*], [*nok*], [*gilos*] leksemalarining o'zaro munosabatidan farq qiladi.

Avvalgi pog'onali munosabatda [*daraxt*] butunni va qolganlari qismni ifodalasa, keyingisida [*daraxt*] turni ifodalab, mevaning muayyan nomini ifodalovchi birliklar turning ko'rinishi — jins sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi munosabatdagi birliklar [*daraxt*] leksemasining xususiy ko'rinishi — juz'iylashishi. Birinchisida esa bunday munosabat mavjud emas. Shu boisdan «*Gilos daraxtdir*»

tarzidagi hukmni aytish mantiqiy. Biroq «*Ildiz daraxtdir*» deyish mumkin emas.

Tilshunoslikda lisoniy birlikning butun-bo'lak munosabati *partonimik* (*part* — qism, bo'lak), tur-jins munosabati *giponimik munosabat* deyiladi. Partonimik munosabatga kirishuvchi qismni ifodalovchi birliklar *partonim*, giponimik munosabatga kirishuvchi jins nomlari *giponim* deyiladi. Butunlik *totonim* va tur nomi *giperonim* deyiladi.

O'xshashlik (paradigmatik) munosabati o'zaro teng (pog'onali munosabatdagi [*daraxt*] va [*tana*], [*daraxt*] va [*gilos*] birliklari semantik qamrovi jihatdan teng emas edi), bir umumiy belgi asosida birlashib, qator hosil qiluvchi, ammo o'ziga xos belgilarga ko'ra farqlanib turuvchi birliklarning o'zaro aloqasini ifodalaydi.

Yuqorida aytilganidek, paradigma a'zolari o'zaro teng bo'lib, nutqda bir xil o'rinni egallaydi va bir xil xususiyatga ega bo'ladi. Berilgan misoldagi [*Halim*], [*Karim*], [*Halima*] so'zlari o'zaro teng, bir xil o'rinda kela oladi, biroq o'zaro farqlarga ham ega.

O'zaro o'xshashlik munosabatida bo'lgan birliklarning bir-biri bilan farqli xususiyati asosida qarama-qarshi qo'yilishi *ziddiyat (oppozitsiya)*, ziddiyatga kirishayotgan paradigma a'zolari *ziddiyat a'zosi* deyiladi. Ziddiyatdagi birliklar o'zaro ma'lum bir belgi asosida qarama-qarshi qo'yiladi. Bu belgi *ziddiyat belgisi* deyiladi.

Navbatdagi mavzuda ziddiyat turi va mohiyati haqida so'z yuritiladi.

Lisoniy ziddiyat va uning turlari

Ziddiyat (ar.*qarama-qarshilik*: var.*oppozitsiya*. lat.*oppositio-qarama-qarshi qo'yish*) — lisoniy birliklarning ifodalanishmidagi farqlarga muvofiq ifodalovchilarining va, aksincha, ifodalovchilardagi farqlarga muvofiq ifodalanmishlarining muhim lisoniy farqlanishi. Masalan, [*b*] va *[t]* fonemalari orasida ziddiyat mavjud bo'lib, shunga muvofiq, (*bosh*) va (*tosh*) birliklari orasida shakliy-mazmuniy qarama-qarshilik munosabati amal qiladi. Yoki «birlik son», «ko'plik son» orasidagi semantik ziddiyat (*kitob*) va (*kitoblar*) birliklarida ham shakliy (formal), ham mazmuniy (semantik) farqni keltirib chiqaradi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurdagi mavjudlik va taraqqiyotning asosiy omili qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni bo'lganligi kabi lisoniy paradigmada birliklarni bir-biriga bog'lab turuvchi, paradigmaning yashovchanligini ta'minlovchi omil lisoniy

ziddiyatdir. Demak, lisoniy ziddiyat falsafiy qarama-qarshilik birligi va kurashi qonunning tildagi xususiylashmasi, voqelanishi.

Lisoniy ziddiyatni aniqlash yoki lisoniy ziddiyatga bunday yondashish ziddiyatli va ziddiyatsiz munosabatni farqlashni taqozo qiladi. Chunki turli lisoniy birlik va bir birlikning turli varianti orasidagi munosabat har xil tabiatli unsurlar, a'zolar orasidagi munosabatlar sifatida muayyanlashtirilmog'i lozim. Masalan, shaxs-son shakli bo'lgan [*-miz*] va [*-siz*] (*o'qiymiz-o'qiysiz*) har xil lisoniy morfologik birlik bo'lib, bir paradigmaning turli a'zolari sifatida ziddiyatli munosabatda bo'ladi. Biroq turli farqli xossaga ega bo'lgan til oldi va til orqa (*o'*) unlilari bitta (*o'*) fonemasining variantlari sifatida fonetik jihatdan farqlansa-da, funksional jihatdan tafovutga ega emas. Chunki o'zbek tilida bitta [*o'*] fonemasi mavjud bo'lib, uning variantlari ma'no farqlash tabiatiga ega emas. Ba'zilar [*o'y*] so'zini aytganda, (*o'*) ni til oldi, boshqalar esa til orqa unlisi sifatida talaffuz qiladi. Baribir, bu so'z (*o'*) tovushlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, «fikr», «xayol» ma'nolarini beradi. Lisoniy birlikning varianti orasidagi bunday munosabat ziddiyatsiz munosabat deyiladi.

Ziddiyat paradigmatik munosabatning xos ko'rinishi va xossasi sifatida sintagmatik munosabatga qarama-qarshi qo'yiladi .

Ma'lum bir lisoniy birlik mansub ziddiyatlar majmui bu birlikning paradigmatik sifatini aniqlashda, paradigmatik muayyanlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Paradigmatik muayyanlashtirish birlikning boshqa birlikdan farqlanuvchi substansial tabiatini oydinlashtirish demakdir.

Tilshunoslar lisoniy ziddiyatni bir necha tomondan tasniflaydilar:

1. Ziddiyat tizimida tutgan o'rniga ko'ra.
2. Ziddiyat a'zolarining o'zaro munosabatiga ko'ra.
3. Turli vaziyatda ziddiyatning amal qilishiga ko'ra.

Lisoniy ziddiyat, ziddiyat tizimiga munosabatiga ko'ra, o'lchami va uchrovchanlik belgilari bilan farqlanadi.

Lisoniy ziddiyat o'lchoviga ko'ra, bir o'lchamli va ko'p o'lchamli turga bo'linadi.

Agar belgilar majmui tizimda zidlanuvchi ikki a'zo uchungina amal qilib, boshqa a'zoga tegishli bo'lmasa, bir o'lchamli ziddiyat deyiladi. Masalan, o'zbek tilidagi [*l*] va [*h*] fonemalari hosil bo'lish o'rniga ko'ra «yon» va «bo'g'iz» belgilari asosida zidlanib, bu belgi undoshlar tizimining boshqa a'zolarida uchramaydi. Chunki bu

undoshlar o'zbek tili fonologik tizimida yagona yon va yagona bo'g'iz undoshlaridir.

Ko'p o'lchamli ziddiyatda zidlanuvchi birlikdagi belgi boshqa a'zoda ham uchraydi. Masalan, til oldi undoshlari bo'lgan [*m*] – [*d*] zidlanar ekan, [*m*]dagi «til oldi»lik belgisi [*d*] fonemasida ham mavjud. Bunda a'zolar boshqa belgi asosida zidlanadi.

«Uchrovchanlik» belgisiga ko'ra ziddiyat ajralgan va muntazam ziddiyatga bo'linadi. Ajralgan ziddiyatda shunday belgi asos qilib olinadiki, bu belgi boshqa ziddiyatga asos bo'la olmaydi. Masalan, unlilarning lablangan-lablanmaganlik belgisi faqat teng qiymatli ziddiyat uchun asos bo'ladi. Bunday ziddiyat «ajralgan» ziddiyat deyiladi. Lekin tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra belgisi teng qiymatli ziddiyatga ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir belgi turli a'zoni juftlab zidlash uchun xizmat qilsa, muntazam ziddiyat deyiladi. Masalan, erlik, ayollik jinsi asosidagi ziddiyat [*ota*]-[*ona*], [*o'g'il*]-[*qiz*], [*aka*]-[*singil*], [*chol*]-[*kampir*] ziddiyatida uchrayveradi.

A'zolari orasidagi munosabatga ko'ra ziddiyat:

A) noto'liq (privativ);

B) darajali (gradual) ;

D) teng qiymatli (ekvipolent)

kabi turga bo'linadi.

Noto'liq ziddiyatda qarshilanuvchi a'zodan biri ziddiyat belgisiga ijobiy, boshqasi esa betaraf munosabatda bo'ladi. Masalan, [*bola*] va [*o'g'il*] leksemalarini olaylik. Ular «erkak jinsli» deb atalgan ziddiyat belgisiga ikki xil munosabat bildiradi. Bu belgi [*o'g'il*] leksemasi semantik tarkibida aniq berilgan, shu boisdan uning munosabati ijobiy yoki belgilangan deyiladi va shartli ravishda [+] belgisi bilan beriladi. [*bola*] leksemasida esa jins belgisi aniq emas. Chunki uning semantik tarkibida «er» yoki «ayol» (ya'ni jins) semasi yo'q. Boshqacha aytganda, bola o'g'il ham, qiz ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu leksemaning ziddiyat ko'rsatkichiga ishorasi belgilanmagan (noma'lum, majhul) deyiladi va shartli ravishda +/- yoki O (nol) belgisi bilan beriladi. Bu chizmada quyidagicha beriladı (10-jadval):

10-jadval

«erkak»	
[*o'g'il*] (+)	[*bola*] (0)

Noto'liq ziddiyat tilning barcha sathida amal qiluvchi muhim qonuniyatdir. Masalan, morfologiyada leksemalarni umumiy grammatik ma'nosiga ko'ra mustaqil va nomustaqil leksemaga

bo'lish privativlik asosida amalga oshiriladi. Bunda «lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik» noto'liq ziddiyatning belgisi bo'lib, ziddiyatda mustaqil leksema belgilanmagan, kuchsiz a'zo bo'lsa, nomustaqil leksema belgili, kuchli a'zo sifatida namoyon bo'ladi (11-jadval):

11-jadval

«lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik»	
[nomustaqil leksemalar] (+)	[mustaqil leksemalar] (0)

Chunki mustaqil leksema lug'aviy ma'no ifodalashi ham, nomustaqil leksema vazifasida kelishi ham mumkin. Masalan, ot ko'makchi, fe'l ko'makchi, ko'makchi fe'l va h.lar nomustaqil leksema kabi lug'aviy ma'noga ega bo'la olmaydi.

Noto'liq ziddiyatda belgi tanlash ixtiyoriy emas. Masalan, bir qarashda yuqoridagi ziddiyatda belgini «lug'aviy ma'no ifodalash» deb ham, «lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik» deb ham qo'yish mumkindek tuyuladi. Keling, ziddiyat belgisini yuqorida qo'yilganidek emas, balki «lug'aviy ma'no ifodalay olish» deb o'zgartirib ko'raylik (12-jadval):

12-jadval

«lug'aviy ma'no ifodalay olish»	
[mustaqil leksemalar] (+)	[nomustaqil leksemalar] (0)

Bu to'g'rimi? Birinchidan, noto'liq ziddiyatda qaysidir bir a'zo O (nol) belgisini olishi kerak. Oldingi ziddiyatda mustaqil leksemalar ushbu belgiga ega edi. Bunda endi nomustaqil leksemalar olishi kerakka o'xshaydi. Yo'q, bunday emas. Chunki nomustaqil leksema goh lug'aviy ma'no ifodalash, goh ifodalamaslik xossasiga ega emas. Ziddiyatning ikkinchi a'zosi [+] belgisiga egami? U (ya'ni mustaqil leksemalar) h a m i sh a «lug'aviy ma'no ifodalay olish» belgisiga ega bo'lib, boshqa xil vazifada qo'llanila olmaydimi? Yo'q, u bunday xususiyatga ega emas; oldingi ziddiyatda ko'rib o'tganimizdek, mustaqil leksema «lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik» belgisiga ega bo'la oladi. [-] belgisiga ham ega. Demak, keyingi «ziddiyat» ziddiyat emas. Ziddiyat lisoniy birlikning mohiyatini, substansial tabiatini o'zida aks ettirmog'i lozim. Aks holda «sun'iy» ziddiyat kelib chiqadi. Boshqa ziddiyat kabi noto'liq ziddiyat ham obyektiv va xohish-irodamizga bog'liq emas.

Darajali ziddiyat a'zolari kamida uchta bo'lib, bir belgi (ziddiyat belgisi) ning o'sib borishiga ko'ra a'zolar qator hosil qiladi. Masalan, tilning ko'tarilishiga ko'ra unli fonemalar

darajalanishi quyidagicha: [*a*] - [*e*] - [*i*] yoki [*o*] – [*o'*] – [*u*]. Bunda belgi birinchi a'zoda kuchsiz, ikkinchi a'zoda o'rtacha va keyingi a'zoda kuchli yoki aksincha, bo'lishi mumkin. Darajali ziddiyat ham barcha sath birliklarida uchraydi. Masalan, leksikada [*ninni*]-[*chaqaloq*]-[*go'dak*]-[*bola*]..., [*turq*]-[*bashara*]-[*bet*]-[*yuz*] [*cheh-ra*]..., morfologiyada [harakat nomi]-[sifatdosh]-[ravishdosh] («fe'lni o'zgalash darajasiga ko'ra» belgisi asosida) kabi.

Ekvipolent (teng qiymatli) ziddiyatda ikki a'zo qarshilantirilib, har biri o'ziga xos, ikkinchisiga xos bo'lmagan belgiga ega bo'ladi. Masalan, ovoz va shovqinga ko'ra jarangli va jarangsiz undosh teng qiymatli (o'ziga xos belgiga ega bo'lgan a'zoli) ziddiyatni hosil qiladi.

Muntazam (proporsional) ziddiyatda bir ziddiyat belgisi juftlangan turli birliklar uchun oppozitiv ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. «jins» belgisi [*ota*]-[*ona*], [*aka*]-[*opa*], [*singil*]-[*uka*], [*tog'a*]-[*xola*] lug'aviy zidlanishlari uchun umumiy.

Ziddiyat a'zolari miqdoriga ko'ra ziddiyat ikki a'zoli (binar) va ko'p a'zoli ziddiyatga bo'linadi.

Uchinchi belgisiga ko'ra ziddiyat doimiy va mo'tadillashgan ziddiyatga bo'linadi.

Mo'tadillashish jarayonida munosabatga kirishayotgan birliklar o'rtasidagi ziddiyat kuchsizlanadi. Masalan, [*yot*]-[*yod*] zidlanishda so'z oxiridagi [*t*], [*d*] tovushlari jarangli-jarangsizlik bilan farqlanmaydi. [*d*] fonemasining nutqdagi vaziyatidan kelib chiqqan holda unda jarangsizlik belgisi kuchsizlanadi. Ammo bu sof nutqiy hodisa. Mo'tadillashish lisoniy birlikning nutqiy voqelanishida yuz beradi. Leksema va morfema ham nutqiy voqelanganda, ularning lisonda boshqa birliklar bilan ziddiyatli munosabatini belgilaydigan xossasi, belgisi kuchsizlanishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan [*t*] va [*d*] undoshlarining jarangli-jarangsizlilik belgisiga ko'ra zidlanishini yorqin namoyon qiladigan vaziyat [*d*] fonemasining so'z boshi va so'z o'rtasida voqelanishi. Ziddiyatni voqelantiradigan pozitsiya kuchli va uni so'ndiradigan nutqiy holat kuchsiz pozitsiya deyiladi.

Lisoniy tasnif va uning turlari haqida tushuncha

Tasnif (arabcha «saralash», «tartibga solish») narsa va predmetni aniq va doimiy o'ringa ega bo'lgan guruh (sinf)ga bo'lish. Agar tasnif ilmiy asosga ega bo'lsa, u uzoq davr mobaynida amal qiladi. Masalan, kimyoviy unsurlak tasnifi bugungi kunda ular

soni 200 dan oshib ketayotgan bo'lsa-da, o'zgarmasdan amal qilmoqda.

Tasniflash bo'lishdan barqaror tabiatliligi bilan ajralib turadi. To'g'ri, tasniflashda ham oddiy bo'lishda amal qiladigan barcha tamoyillar asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni tasnifda ham bo'lishdagi kabi:

1) tasniflangan bo'laklar hajmi tasniflanayotgan butunlik hajmiga teng bo'lishi;

2) tasnif bir asosda amalga oshirilishi;

3) tasnif (tasniflangan) guruhlari bir-birini inkor qilishi;

4) tasnif uzluksiz bo'lishi, ya'ni unda «sakrash» bo'lmasligi lozim.

Bu qoidalarni qisqacha sharhlaymiz.

1. Tasniflangan guruh hajman tasniflanuvchi butunlikka mos kelishi. Masalan, fonema unli va undoshga, leksemalar mustaqil va nomustaqil leksemaga, qo'shimcha so'z yasovchi va grammatik qo'shimchaga ajraladi. Agar tasniflangan guruh soni ancha ko'p bo'lsa, «va boshqalar», «va hokazo» tarzida sanashni tugatish ham mumkin. Masalan, «fe'lning mavzuiy guruhlari «harakat fe'li», «nutq fe'li», «tafakkur fe'li», «yurish fe'li» va hokazo» kabi.

Bu qoidaning buzilishi quyidagi xatolarga olib keladi:

a) **noto'liq tasnif**da turning barcha jinslari to'liq sanalmaydi. Masalan, «So'z yasovchi ot yasovchilar va fe'l yasovchilarga bo'linadi» kabi. Chunki so'z yasovchilar aytilganlardangina iborat emas;

b) **ortiqcha a'zoli tasniflar** tasniflangan guruhlar hajman tasniflanuvchi butunlikdan katta bo'ladi. Masalan, «unlilar lablangan, lablanmagan va bo'g'iz turlariga ega».

2. Tasnifning bir asosda amalga oshirilishi lozimligi. Tasniflanuvchi butunlikni guruhlarga bo'lish bir belgi, asos, mezon asosidagina amalga oshirilmog'i lozim. Masalan, so'z turkumlari uch – morfologik, semantik va sintaktik belgi asosida tasniflanishi mumkin. Lekin har bir tasnifda ularning birigagina tayaniladi. Tasnifda bunga rioya qilmaslik ikki xil xatoga olib keladi:

a) **tasnifni amalga oshira olmaslikni keltirib chiqaradi.** Masalan, so'zlar morfologik jihatdan o'zgaruvchi va o'zgarmas, semantik jihatdan avtosemantik (mustaqil ma'noli) va sinsemantik (nomustaqil ma'noli) so'zlarga bo'linadi. Lekin ularni bir paytning o'zida morfologik va semantik tasnif qilib bo'lmaydi. Chunki o'zgarmas so'z avtosemantik ham, sinsemantik ham bo'lishi

mumkin. Masalan, ko'makchi o'zgarmas, sinsemantik, ravishlar o'zgarmas, avtosemantik so'z;

b) **tasnifning bir bosqichining o'zida goh u, goh bu asosni qo'llash yoki biridan ikkinchisiga o'tish tasnif izchilligiga putur etkazadi.** Masalan, ergashgan qo'shma gapning an'anaviy tasnifida tasnif dastlab sintaktik belgi asosida (ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, aniqlovchi ergash gap) boshlanib, semantik asos bilan davom etar va tugar edi: payt ergash gap, shart ergash gap, o'rin ergash gap, to'siqsiz ergash gap, natija ergash gap va h. An'anaviy usulda tasnif dastlab sintaktik belgi asosida amalga oshirilib, ikkinchi bosqichda semantik tasnif amalga oshirilsa, to'g'ri bo'lar edi. Masalan (13-jadval):

13-jadval

<table>
<tr><td colspan="8">Ergash gap</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ega ergash gap</td><td colspan="2">Kesim ergash gap</td><td colspan="2">Aniqlovchi ergash gap</td><td colspan="2">To'ldiruvchi ergash gap</td><td>Hol ergash gap</td></tr>
<tr><td colspan="8">Hol ergash gap</td></tr>
<tr><td>Sabab ergash gap</td><td>O'rin ergash gap</td><td>Payt ergash gap</td><td>Shart ergash gap</td><td>Natija ergash gap</td><td>To'siqsiz ergash gap</td><td>Maqsad ergash gap</td><td>Darajamiqdor ergash gap</td></tr>
</table>

3. Tasnif a'zolari (guruhlari) bir-birini inkor etishi lozim. Masalan, undoshlar til oldi, til o'rta, til orqa, bo'g'iz, jarangli, jarangsiz turlardan iborat deyilgan tasnifda a'zolarning ayrimlari boshqalarini inkor eta olmaydi. Ya'ni jarangli undosh til oldi undoshi bilan zidlana olmaydi, til oldi va til o'rta undoshlari bir-birini inkor etish xossasiga ega.

4. Tasnifda sakrash bo'lmasligi lozim. Agar «kesim sodda kesim, murakkab fe'l kesim, murakkab ot kesimga bo'linadi» tasnifini amalga oshirsak, xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki dastlab kesimni sodda va murakkabga, so'ngra fe'l va ot kesimga bo'lish to'g'ri va izchil tasnifni beradi.

Tasnifning bo'lishdan farqi shundaki, bo'lishda a'zolar guruhlanishi shart emas. Masalan, «lablanmagan unlilar [*i*], [*e*], [*a*] dir» deyish tasnif emas, balki bo'lishdir. Tasnif xarakteriga ega bo'lish uchun *i* yoki *a* guruh (sinf) bo'lib, o'z navbatida, yana bo'linib ketishi lozim edi. Unlilarni lablangan va lablanmagan

unliga bo'lish tasnif bo'lib, lablanmagan yoki lablangan unlini bo'lish oddiy bo'lish bo'lsa-da, tasnif maqomida emas.

Tasnif dixotomik, politomik yoki dixopolitomik bo'lishi mumkin.

Dixotomik tasnifda birliklar ikki guruhga ajratiladi: «fonemalar unli va undoshga ajraladi» kabi. Politomik tasnifda guruh soni ikkidan ortiq bo'ladi: «Grammatik qo'shimcha lug'aviy shakl hosil qiluvchi, sintaktik shakl hosil qiluvchi va lug'aviy sintaktik shakl hosil qiluvchiga bo'linadi» yoki «fe'llar nutq fe'llari, ruhiy-holat fe'llari va h.k.» kabi.

Dixopolitomik tasnifda tasniflanuvchi butunlik dastlabki bosqichda ikkiga, keyingi bosqichda ikkidan ortiq sinfga ajraladi. Masalan (14-jadval):

14-jadval

Fonema					
Unli			Undosh		
Yuqori tor	O'rta keng	Quyi keng	Lab	Til	Bo'g'iz

kabi.

Tasnif asosini tanlash muhim. Chunki biror tizimni turli asosda tasnif qilish har xil natija beradi. Masalan, undosh fonemani ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra jarangli va jarangsizga, hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab, til, bo'g'iz undoshiga ajratish mumkin.

Lisoniy tasnif tasniflanayotgan birliklarning ichki, substansial belgilariga ko'ra yoki muhim bo'lmagan zohiriy xossasiga asoslangan bo'lishi mumkin. Shu boisdan tabiiy yoki yordamchi tasnif farqlanadi. Tabiiy tasnifda lisoniy birlikning ichki, barqaror belgilariga asoslaniladi. Yuqorida tabiiy tasnifga misollar keltirildi.

Yordamchi tasnifda birlikning ontologik bo'lmagan xossasini bildiruvchi belgilariga tayaniladi. Masalan, «so'zlarning bo'g'in sonlariga ko'ra tasnifi (bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlar)», «unlilarning tilning gorizontal holatiga ko'ra tasnifi» va h.

Tasnif izchilligi — substansial yondashuvning asosiy talablaridan biridir.

FONETIKA-FONOLOGIYA

Fonetika va fonologiyaning o'rganish manbai, predmeti, maqsad va vazifalari

Tilning fonetik sathi xususida. Lisoniy sath sirasida fonetika eng kichik tashkil etuvchi va boshqa sathlar birliklari uchun moddiy asos bo'luvchi birlikni beradigan sath sifatida ajralib turadi.

Insonning nutq faoliyati sezgi a'zolari asosida his qilinuvchi nutq birliklari - tovush yoki tovushlar tizimi vositasida ro'yobga chiqadi. Nutq tovushi o'zida uch jihatni birlashtirgan murakkab nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ular quyidagilar:

a) talaffuz a'zolari bilan boshqariladigan markaziy nerv sistemasi mahsuli (fiziologik jihat);

b) tabiatdagi har qanday tovush kabi akustik tabiatga ega (fizik, akustik jihat);

d) kishilarning axborot uzatish, kommunikatsiya vositasi (funksional, sotsial, lisoniy jihat).

Nutq tovushining haqiqiy va muhim jihati – uning funksional aspekti. Tilshunoslikda aytilgan uch jihatni yaxlitlikda o'rganish yoki ajratgan holda tadqiq qilish masalasida bir xillik yo'q. Ba'zi mutaxassislar nutq tovushining fiziologik tomoni biologiya, akustik jihati fizika fanining o'rganish predmeti bo'lib, tilshunos uning faqat funksional tomoninigina tekshirishi lozim degan fikrni ilgari sursa, ayrimi har uchala jihat bir-biridan ajralmas, ularni yaxlitlikda o'rganmoq kerak degan aqidaga tayanadi. Ana shu ikki qarash kurashi natijasida tilshunoslikda ikki – fonetika va fonologiya sohalari ajraldi. Pirovard natijada fonetika nutqiy variant (xususiylik)ni, fonologiya esa lisoniy invariant (umumiylik)ni tadqiq qilish bilan mashg'ul bo'ladigan bo'ldi.

Fonetika va uning birligi. Fonetika deganda eng quyi lisoniy sath ham, tilshunoslikning shu sathni o'rganadigan sohasi ham tushuniladi. Fonetika (gr.*phonetikos* – tovushga, ovozga xos) tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, nafaqat o'rganish manbaining funksional tomonini, balki nutq tovushini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik xossasini va til egalari tomonidan qabul qilinish jihatlarini ham tekshiradi. Fonetikada tilshunoslikning boshqa fan sohalari, adabiyotshunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqasi yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bu fanlardan farqli

o'laroq, fonetika tovushga so'z, qo'shimcha va gapga moddiy qiyofa beruvchi til tizimi unsuri sifatida qaraydi.

Fonetika nutqdagi tovush o'zgarishlari va almashinishini, urg'u va uning turini ham o'rganadi.

Fonetikani o'rganish imlo (orfografiya), to'g'ri talaffuz (orfoepiya) me'yorini yaxshi o'zlashtirib olishda, adabiy va dialektal talaffuz farqlarini aniqlashda, logopediya va surdopedagogikada nutqiy nuqson diagnostikasi va uni bartaraf etishda katta ahamiyatga ega. Fonetika yutuqlari aloqa vositalarini tekshirish va ular samaradorligini oshirishda hamda nutqni avtomatik aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Fonetikaning turlari. Fonetika, avvalo, umumiy, xususiy va qiyosiy fonetikaga ajraladi.

Umumiy fonetika. Inson talaffuz apparatining imkoniyatidan kelib chiqqan holda nutq tovushi hosil qilishning umumiy shartlari (masalan, hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab, til, bo'g'iz undoshlarining farqlanishi, hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi, portlovchi-sirg'aluvchi tovush xossalarining aniqlanishi kabilar), shuningdek, tovushning umumiy akustik xossalari o'rganiladi. Qisman artikulyatsion, qisman akustik belgiga tayangan holda nutq tovushining universal, shuningdek, farqlovchi belgilariga tayanadigan ichki tasnifini berish bilan ham shug'ullanadi. Umumiy fonetika tovushning birikish qonuniyatlari, bir tovushning ikkinchisiga ta'siri xususiyatini (akkomodatsiya va assimilatsiyaning turli ko'rinishlari), bo'g'inning tabiati, bo'g'inda tovushning birikish qonuniyati, bo'g'inga bo'linish shartlari, so'zlarning fonetik tuzilishi, qisman urg'u va singarmonizm masalalarini ham tekshiradi. Umumiy fonetika intonatsiya uchun qo'llaniladigan vosita (tovush balandligi, kuchi (intensivligi), cho'ziqligi, tezligi (tempi), pauza, tembr kabi masalalarni ham tekshiradi.

Xususiy fonetikada yuqorida aytilgan masalalar muayyan tillar misolida tekshiriladi. Xususiy fonetika tarixiy va muosir, sinxron va diaxron, tasviriy va eksperimental kabi ko'rinishlarda ish yuritadi.

Qiyosiy fonetika bir nechta qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tilning yoxud bir qancha dialekt va shevaning unli va undosh tovushlari, ulardagi fonetik o'zgarish va boshqa hodisalarni qiyosiy aspektda tekshiradi.

Qiyosiy fonetika umumiy va xususiy fonetika oralig'idagi vaziyatni egallaydi.

Fonologiya. Fonologiya (gr. *rhone* — tovush, *logos* — ta'limot) termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushining fiziologik-

akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funksional qonuniyatini o'rganuvchi soha, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektda o'rganadigan fonetikadan farqlanadi.

Fonetikaning birligi bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushi bo'lganligi kabi, fonologiyaning birligi — so'zlovchilarning ana shu bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushi asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvuri. Har bir fonema kishi ongida umumiy farqlovchi xususiyati asosida vujudga kelgan maxsus «akustik portret» yoki «tovush obrazi» sifatida yashaydi. Bu farqlovchi belgi tovushning artikulyatsion va akustik belgisi asosida vujudga keladi va barqarorlashadi.

Boshqa lisoniy birlik kabi fonema ham paradigmatik va sintagmatik munosabatda yashaydi. Bu *fonologik paradigmatika* va *fonologik sintagmatika* deyiladi.

O'zaro qarama-qarshi belgiga ega bo'lgan, biroq umumiy, integral belgilari asosida birlashgan bir tipdagi fonemalar sirasi *fonologik paradigma*, fonemalarning o'zaro munosabati *fonologik paradigmatik munosabat* deyiladi.

Fonologik paradigmaning markazida fonologik ziddiyat turadi. Fonologik ziddiyat (oppozitsiya) fonemaning farqli belgilarini o'zida ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilidagi unli fonemalar bir umumiy belgi — «o'pkadan kelayotgan havoning tovush paychalariga urilish natijasida hosil bo'lgan ovozning og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramay chiqishidan vujudga keladigan tovush tipi» invariant xossasiga ega. Bu mohiyat 6 ta unli fonema uchun ham amal qiladi. Biroq bu mohiyat ostida birlashgan fonemalar o'zaro zidlanib, kichik guruhlar hosil qiladi. [*i*] va [*u*] «yuqori tor» belgisi bilan «o'rta keng» xossasiga ega [*e*] va [*o'*] hamda «quyi keng» xossasiga ega [*a*] va [*o*] fonemalar guruhlariga qarama-qarshi turadi. Yoki «lablanmagan» belgisiga ega [*i*], [*e*], [*a*] fonemalari guruhi «lablangan» belgisiga ega [*u*], [*o'*], [*o*] guruhiga qarama-qarshi turadi. O'z navbatida [*i*], [*e*], [*e*] guruhi a'zolari o'ziga xos belgilari asosida o'zaro zidlanadi.

Tilshunoslikda fonologik ziddiyatning har xil tur va ko'rinishlari farqlanadi. N.S.Trubetskoy «Fonologiya asoslari» asarida fonologik ziddiyatni uch asosga ko'ra tasniflaydi:

1. Fonologik ziddiyatning ziddiyat tizimiga munosabatiga ko'ra tasnifi. Bunda ziddiyat bir o'lchovli va ko'p o'lchovli, muntazam va ajralgan ziddiyatga bo'linadi. Bir o'lchovli ziddiyatda fonemalar

bir belgi asosida zidlanadi. Masalan, [*i*] va [*u*] fonemalaridan biri lablanmagan va ikkinchisi lablangan bo'lib, bunda ular bir belgi — «lablangan»lik xossasiga ko'ra qarama-qarshi turadi.

Ko'p o'lchovli ziddiyatda ziddiyat a'zolari birdan ortiq belgi asosida qarama-qarshi qo'yiladi: [*i*]~[*o*] ziddiyatida [*i*] yopiq va lablanmagan bo'lsa, [*o*] yarim yopiq, lablangan.

Muntazam ziddiyatda zidlanuvchi a'zolar o'zaro o'ziga xos belgilar asosida qarama-qarshi qo'yiladi: «[*i*]-tor~ [*o*]-keng» zidlanishi muntazam zidlanish. Bunda [*i*] fonemasi «tor»lik, [*o*] fonemasi «keng»lik belgisiga ega. «[*i*] (tor)~[*o*] (tor emas)» zidlanishi esa muntazam emas. Chunki birinchi a'zoda ziddiyat belgisi aniq, ikkinchi a'zoda aniq emas. Agar ikkinchi a'zoning ziddiyatdagi belgisi «keng» bo'lganda edi, ziddiyatni muntazam ziddiyat deyish mumkin bo'lur edi.

Bir belgining bo'linishlari asosida zidlanish ajralgan zidlanish deyiladi. Quyidagi ikki zidlanishga diqqat qiling:



Birinchi zidlanishda ziddiyat belgisi bo'lingan, ajralgan, ikkinchida esa bunday hol mavjud emas.

2. A'zolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra ziddiyat tasnifi. Bunga ko'ra, privativ (noto'liq), gradual (darajali), teng qiymatli ziddiyatlar ajratiladi.

Birinchi tasnifda ziddiyat belgisi xarakteriga ko'ra ziddiyat turlari ajratilgan bo'lsa, ikkinchi tasnifda fonemalarning ziddiyat a'zolariga munosabatiga ko'ra tasnifi amalga oshiriladi.

3. Barqarorlik darajasiga ko'ra zidlanish barqaror va barqaror bo'lmagan turga bo'linadi. Barqaror zidlanishda fonemalar qanday nutqiy vaziyatda bo'lishidan qat'i nazar, ulardagi ziddiyat saqlanib qoladi. Masalan, til oldi unlisi til orqa undoshi bilan kelgan vaziyatda til orqa unlisi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda [*a*] unlisi bilan til orqa [*u*] unlisi orasidagi ziddiyat kuchsizlanadi.

Barqaror bo'lmagan ziddiyatning neytrallashmagan holatini ta'minlovchi fonetik pozitsiya — *kuchli pozitsiya*. Masalan, [*b*] fonemasi so'z boshida jarangsizlashmaydi va bu pozitsiyada uning [*p*] fonemasiga zidligi saqlanadi. Bu kuchli pozitsiyadir.

Neytrallanish, so'nishga olib keluvchi pozitsiya kuchsiz pozitsiyadir. Demak, bunday pozitsiyadagi ziddiyat barqaror bo'lmagan ziddiyat deyiladi. Unli va undosh orasidagi qarama-qarshilik barqaror ziddiyatga misol bo'la oladi. Yoki undoshning paydo bo'lish o'rniga ko'ra, unlilarning tor-kenglik xossalariga ko'ra zidlanishi ham barqaror ziddiyat. Lablanish belgisiga ko'ra [*o'*]-[*e*] tizimchasi ham barqaror ziddiyat asosiga qurilgan.

Demak, o'zbek tilining fonetik paradigmasi deganda, har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan barqaror bir umumiy belgi ostida birlashadigan fonetik unsurlardan tashkil topgan tizim tushuniladi. Bu butunlik yoki paradigma o'z ichida ayrim belgilari bilan umumiylikni tashkil etgan va shu umumiylik uchun asos bo'lgan belgilari bilan boshqa shunday umumiylikdan farq qiladigan kichik butunlik, ichki paradigmalardan tashkil topadi. Bu tizimchalar unli va undosh fonemalar paradigmalari. Paradigma a'zolarining umumiy belgisi ularning shu tizimni tashkil etishini ta'minlasa, farqlovchi belgisi bu ichki paradigmaning yana kichik bo'laklarga bo'linib ketishiga olib keladi. Jarangli undoshlar paradigmasi, jarangsiz undoshlar paradigmasi kabi.

Unli fonemalar paradigmasi

Tilning ko'tarilish darajasi (yuqori, o'rta, quyi) va lablanish-lablanmaslik — kuchli pozitsiyadagi unli fonemalarning asosiy, sistema hosil qiluvchi belgisi. Unlilarning til gorizontal holatiga ko'ra (old qator, o'rta qator va orqa qator) belgilari asosiy hisoblanmaydi. Chunki bu belgilar ularga nutqiy yondosh tovush ta'sirida o'zgarib turadi. Masalan, [*q*] undoshi bilan qo'shnichilik munosabatida [*a*] unlisi til orqalik xossasiga ega bo'lsa, [*k*] undoshi qurshovida o'z holatini saqlaydi.

Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko'ra tasnifi quyidagicha (15-jadval):

15-jadval

Unli fonemalar	Asosiy belgilari				
	Tilning ko'tarilish darajasi			Lablanish belgisi bor-yo'qligi	
	Yuqori	O'rta	Quyi	Lablangan	Lablan-magan
[*i*]	+				+
[*u*]	+			+	

[o']		+		+	
[o]			+	+	
[e]		+			+
[a]			+		+

Jadvaldan ko'rinadiki, tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra unli fonemalar uch pog'onali, lablanish belgisiga ko'ra ikki pog'onali sistemani hosil qiladi.

Unli fonema yaxlit tizimni tashkil etib, bu tizim ham o'z navbatida tizimchalarga bo'linadi. [*i*] va [*u*] fonemalari «yuqori tor» belgisi ostida birlashib, bunday belgiga ega bo'lmagan fonemalardan ajraladi. Biroq [*i*] va [*u*] kichik paradigmasi a'zolari farqlovchi belgilari ([*i*]-lablanmaganlik va [*u*]-lablanganlik belgilari) asosida o'z mustaqilliklarini saqlab qoladi va ziddiyatda turadi. [*e*]-[*o'*] tizimchasi «o'rta keng» belgisiga ko'ra [*i*]-[*u*] tizimchasidan ham, [*e*]-[*o*] tizimchasidan ham farqlanadi.

Demak, unli fonemaning har biri ikki belgidan iborat:

[*i*]-yuqori, lablanmagan
[*u*]-yuqori, lablangan
[*e*]-o'rta, lablanmagan
[*o'*]-o'rta, lablangan
[*a*]-quyi, lablanmagan
[*o*]-quyi, lablangan.

Tilning ko'tarilish darajasi birlashtiruvchi belgi bo'lganda (masalan, [*i*], [*u*] unlilari «torlik» belgisi ostida birlashadi) lablanganlik-lablanmaganlik farqlovchi belgi sanaladi: (*i*)-lablanmagan, [*u*]-lablangan. «Lablanganlik» birlashtiruvchi belgi bo'lganda, tilning ko'tarilish darajasi farqlovchi belgi sanaladi. Masalan, [*i*], [*e*], [*a*] unlilari «lablanmaganlik» umumiy birlashtiruvchi belgisiga ega, biroq «yuqori» ([*i*]), «o'rta» ([*e*]), «quyi» ([*a*]) lik belgilari bu fonemalarning farqlovchi belgilari sanaladi.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida unli fonemalar bir belgi asosida uch (tor, o'rta, keng) va ikki a'zoli ziddiyatni (lablangan, lablanmagan), ikki belgi («tilning ko'tarilish darajasi» va «lablanganlik-lablanmaganlik») asosida olti a'zoli ziddiyatni hosil qiladi.

Undosh fonemalar paradigmasi

Kuchli ziddiyatdagi undosh fonemalarni farqlovchi asosiy belgi quyidagilar hisoblanadi:

a) hosil bo'lish o'rniga ko'ra;
b) hosil bo'lish usuliga ko'ra;
d) ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra.

Hozirgi o'zbek tilida 24 ta undosh fonema bo'lib, ularni yuqorida sanab o'tilgan belgilari bilan quyidagicha ko'rsatish mumkin: (2-jadvalga qarang).

Boshqa sath birliklarida bo'lgani kabi, fonemalarning asosiy belgilari korrelyativ va korrelyativ bo'lmaganlarga ajraladi. Ziddiyatda turgan fonemaning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo'lmagan belgi — *korrelyativ belgi.* Masalan, [b]-[p] zidlanishda jarangli-jarangsizlik korrelyativ belgidir. Ammo til oldi va portlovchilik belgisi har ikkala fonema uchun ham xos bo'lganligi sababli korrelyativ bo'lmagan belgi deyiladi. Shuningdek, [h] undoshda jarangsizlik belgisi mavjud. Ammo shu belgi asosida uni boshqa fonema bilan zid qo'yib bo'lmaydi. Chunki [p] fonemasining jarangli jufti [b] fonemasi. [h] fonemasining esa jarangli jufti o'zbek tili fonologik tizimida mavjud emas.

O'zbek tilidagi 8 ta fonema uchun «jarangli-jarangsizlik» korrelyativ belgi hisoblanadi:

[*b*]-[*p*], [*d*]-[*t*], [*k*]-[*g*], [*s*]-[*z*] [*j*]-[*ch*], [*j*]-[*sh*], [*g'*]-[*q*], [*v*]-[*f*]

«Jarangli-jarangsizlik» belgisi asosida korrelyativ munosabatga kirishmaydigan fonemalarning jarangli yoki jarangsiz jufti bo'lmaydi. Masalan: [*s*], [*l*], [*m*], [*y*], [*x*], [*h*], [*n*], [*r*], [*ng*].

Undosh fonemalar tizimini jadvalda quyidagicha berish mumkin (16-jadval):

16-jadval

	FONEMALAR																																		
	p	b	f	v	t	d	s	z	ch	j	sh	j	k	g	g'	q	x	h	m	n	ng	y	l	r										
Shovq	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+													
Son																			+	+	+		+	+											
Jaran		+		+		+		+		+		+		+	+	+			+	+	+	+	+	+										
Jarang	+		+		+		+		+		+		+		+	+	+	+																
Portlo	+	+			+	+			+			+	+	+		+																		
sirg,alu			+	+		+	+	+		+	+	+						+			+	+	+											
Affri									+	+																								
Titr																								+										
Bur																				+	+													

jadvalning davomi

Yo																							+	
Lab	+	+	+	+																				
til					+	+	+	+	+	+	+									+			+	+
til																						+		
til												+	+								+			
Bo'g'chuqur														+	+	+								
																		+						

Nutqda lisoniy ziddiyatlar so'nishi mumkin.

Fonemaning asosiy korrelyativ belgilari farqlovchi belgi hisoblanadi. Masalan, [*s*] fonemasining jarangsizlik, [*z*] fonemasining jaranglilik belgisi farqlovchi belgidir.

Undosh fonemada ham asosiy belgi farqlovchilik darajasida bo'lmasligi mumkin. Masalan, [*m*] fonemasining jaranglilik belgisi farqlovchi belgi sanaladi. Chunki fonema xuddi shu belgisi asosida boshqa fonema bilan ziddiyatli juftlik hosil qila olmaydi.

Undosh fonemalar artikulyatsion o'rniga ko'ra quyidagi binar ziddiyatli munosabatlarga kirishadi:

a) «lab-lab - til oldi»: [*p*]-[*t*]; [*b*]-[*d*]; [*m*]-[*n*]; [*f*]-[*s*]; [*v*]-[*z*]; [*f*]-[*sh*]; [*v*]-[*l*]; [*v*]-[*r*];

b) «lab-lab - til o'rta»: [*f*]-[*y*]; [*v*]-[*y*];

d) «lab-lab - til orqa»: [*p*]-[*k*]; [*b*]-[*k*]; [*f*]-[*x*]; [*v*]-[*g*];

e) «lab-lab - bo'g'iz»: [*f*]-[*h*]; [*v*]-[*h*];

f) «til oldi - til orqa»: [*t*]-[*k*];[*t*]-[*q*]; [*d*]-[*g*];[*s*]-[*x*]; [*z*]-[*g*]; [*n*]-[*g*].

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undosh fonemalar quyidagi ziddiyatli munosabatda bo'ladi:

a) «portlovchi-sirg'aluvchi»: [*p*]-[*f*]; [*b*]-[*v*]; [*t*]-[*s*]; [*d*]-[*z*]; [*t*]-[*sh*];[*k*]-[*x*].

Ayrim fonemalar affrikat fonemalar bilan teng qiymatli ziddiyatda bo'ladi: [*t*]-[*ng*], [*d*]-[*dj*].

Sirg'aluvchi fonemalar ham affrikat fonemalar bilan teng qiymatli ziddiyat hosil qiladi: [*sh*]-[*ch*], [*j*]-[*dj*].

Yana quyidagi ziddiyatli juftliklar mavjud:

a) «portlovchi-shovqinli — burun sonanti»: [*b*]-[*m*] [*d*]-[*n*] [*g*]-[*n*];

b) «sirg'aluvchi — sonant»: [*z*]-[*l*]; [*j*]-[*r*];

d) «shovqinli sonant-burun sonant»: [*l*]-[*n*]; [*r*]-[*n*];

e) «yon sonant-titroq sonant»: [*l*]-[*r*];

f) «titroq sonant -til o'rta sonant»: [*f*]-[*y*].

Fonemaning variantlashuvi

Fonema va tovush munosabati invariant-variant dialektikasini o'zida aks ettiradi. Nutqiy variantlanishda fonema turli-tuman tovush sifatida yuzaga chiqadi va ularni shartli ravishda, masalan, (b1), (b2), (b3), (b4), (b5), (b6), ...(bn) tarzida belgilash mumkin. Nutqda voqelangan barcha (b) larni bitta [*b*] fonemasiga birlashtirishda ularning umumiy xossalari «yig'iladi». Bunday

umumiy xossa — fizik (akustik) va fiziologik (artikulyatsion) o'xshashlik. Turli talaffuz sharoitida bu umumiy belgi o'zgarishga uchrashi mumkin. Lekin bu o'zgarish miqdor o'zgarishi darajasida bo'lib, sifat o'zgarishi bosqichiga etmaydi. Aks holda, u boshqa fonemaning variantiga aylanib ketgan bo'lur edi. Masalan, [*a*] fonemasi «quyi keng» va «lablanmagan»lik mohiyatiga ega. Shu boisdan u nutqiy voqelanganda, qanchalik o'zgarishga uchramasin, baribir, tovush bu fonemaning varianti hisoblanishi uchun mazkur mohiyat chegarasidan chiqmasligi lozim. *Qalam* va *katta* so'zida 4 ta (a) tovushi mavjud bo'lib, buning barchasi yuqorida aytilgan «quyi keng», «lablanmaganlik» umumiy belgisiga ega. Shu boisdan [*a*] fonemasining varianti hisoblanadi. Biroq (*a*) tovushlari yumshoq-qattiqligi va til oldi-til orqaligi bilan farqlanadi. *Qalam* so'zidagi [*a*] tovushlari til orqa va qattiq unlilar bo'lsa, *katta* so'zidagi [a] lar til oldi va yumshoq. Bu belgilar [*a*] fonemasi mohiyatida mavjud bo'lmay, balki [*a*] tovushining talaffuzi jarayonida boshqa ((*q*) va (*k*)) tovushlar ta'sirida yuzaga kelgan hodisa. Boshqacha aytganda, (a) tovushlari mohiyatiga daxldor bo'lmagan, o'zga, begona mohiyat zarralarining [*a*] fonemasi ko'rinishiga yopishgan tajallidir. Bu tajallilar bir qarashda [*a*] tovushi mohiyatiga daxldordek tuyuladi. Shu boisdan darslik va qo'llanmalarda [*a*] fonemasining substansial belgisidan biri sifatida mazkur xossa ham ajratiladi. Bir fonema ham tor, ham keng yoki ham jarangli, ham jarangsiz bo'la olmaganligi kabi [*a*] fonemasi ham til oldi, ham til orqa tovushi sifatida voqelana olmaydi.

Demak, umumiylik va xususiylik metodologiyasi bilan qurollangan tilshunos tovushlardagi mohiyatga daxldor va daxldor bo'lmagan jihatlarni boshqalardan ko'ra tezroq va aniqroq ilg'aydi.

Fonemaning mohiyati doirasidan chiqqan tovush uning varianti sanalmaydi. Masalan, [*b*] fonemasi jarangli undosh fonema. Talaffuzda u jarangli bo'lsagina, [*b*] fonemasining varianti sanaladi. *Kitob* so'zi *kitop* tarzida talaffuz etilsa, voqelangan (*p*) tovushi [*b*] fonemasining nutqiy varianti hisoblanmaydi. Chunki jarangsizlashuv hodisasidagi miqdor o'zgarishi me'yor chizig'idan o'tib, sifat o'zgarishi darajasigacha yetgan va [*p*] fonemasi mohiyati chegarasiga kirgan. Xuddi shunday [*a*] fonemasi voqelanishida ham «torlik» belgisining kenglik chegarasiga etishi bilan variant [*i*] fonemasi mohiyati chegarasiga kirib ketadi.

Tovush (variant)larning bir fonemaga birlashishi uchun ularning barchasida o'zgarishsiz saqlanadigan muhim bir xossa e'tiborga olinishi lozim. Bu bir guruhga kiruvchi barcha variantning

ushbu guruhga kirmaydigan boshqa variantga bir xil qarama-qarshi turishi (bunday belgi, odatda, fonologik farqlovchi belgi ham deyiladi) va bir xil ma'no farqlashidir. Boshqacha aytganda, tovush (variant)lar bir fonemaga birlashishi uchun ular funksional umumiylikka ham ega bo'lishi lozim. Ma'no farqlash xossasi ana shunday funksional umumiylik. Fonema ma'no farqlash xossasiga ega. Lekin tovushning barchasi ham har doim ma'no farqlayvermaydi. Bir fonemaning nutqiy varianti o'rnini ikkinchi fonemaning nutqiy varianti egallasa, so'z o'zgarib ketadi: *bosh-bot, bosh-besh* kabi. Lekin bir fonemaning bir varianti o'rnini uning ikkinchi bir varianti bilan almashtirilsa, ma'no farqlash amalga oshmaydi. *O't* (o'simlik) so'zidagi (*o'*) unlisini bir kishi til oldi, boshqasi esa, shevaning fonetik xususiyatidan kelib chiqqan holda, til orqa tovushi sifatida talaffuz etadi. Lekin ular bir fonema varianti bo'lganligi sababli o'zaro ma'no farqlash qobiliyatiga ega emas.

Demak, fonema deganda uning fizik-fiziologik xossalari majmuidan iborat ma'lumotnigina tushunmaslik kerak. Masalan, fizik-fiziologik umumiylik bo'lgan [*b*] balki barcha tillarda bo'lishi mumkin. Fonema esa har bir tilda o'ziga xos. Chunki fonema o'zining ijtimoiy xossasini ma'lum bir tildagina bajaradi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, mavhum (lisoniy) [*b*] ning qarama-qarshiliklar tizimi, ma'no farqlash vazifasi faqat ma'lum bir til uchungina xos. Boshqacha aytganda, tovushlarning ularni bir guruhga kirituvchi funksional xususiyatlari (akustik-fiziologik xossalari bilan birgalikda) faqat bir til doirasidagina amal qiladi.

Fonema funksional qo'llanishdan tashqarida amal qiladigan, muayyan tovushlar guruhidan umumlashtiriladigan mavhum tovush tipi emas. U muayyan funksiya bajaradigan tovushlar umumlashmasi. Biroq fonemani «sof funksiya» bilan ham chegaralab qo'ymaslik lozim. Chunki u eshitish a'zosiga ta'sir qiladigan va funksiya bajaradigan birlik. Biroq har ikkala xossasini ham varianti — tovush orqali namoyon qiladi.

Fonema va uning varianti bo'lgan nutq tovushi qanday munosabatda bo'lsa, yozma nutqda fonemaning grafik ifodasi va yozma tovush shunday munosabatda bo'ladi.

Fonemani talaffuz qilib va eshitib bo'lmaganligi kabi, fonemaning grafik ifodasi ham ongda shartli ravishda o'rinlashgan. Talaffuz qilgan birligimiz fonema emas, balki tovush bo'lganligi kabi, (*b*) tarzida qog'ozga yozganimiz ham grafema (fonema ifodasi) emas, balki harf (tovush ifodasi)dir. Ongimizdagi (*b*)

grafemasi barcha (*b*) harflari uchun invariant ekan, birorta harf ham grafemaning barcha xossalarini birdaniga va umuman namoyon qila olmaydi. Har qanday harf individual, variant xossani o'zida mujassamlashtiradi.

Harf grafema varianti bo'lganligi kabi, bir vaqtning o'zida fonema variantining ifodasi. Har qanday tovush fonema varianti, har qanday harf grafema varianti.

Fonemani tiklash «nutq-lison», ya'ni xususiylik – umumiylik tarzida, uning voqelanishi esa «lison-nutq», ya'ni umumiylik-xususiylik yo'nalishida kechadi. Demak, boshqa sath birliklarida bo'lgani kabi, fonemaning voqelanishi va uning tiklanishi bir-biriga qarama-qarshi turadi. Bu holat grafema va harf dialektikasida ham aks etadi.

Fonetik jarayon

Fonema nutqda voqelanar ekan, uning varianti nutqiy sharoit (yonma-yon kelgan tovushlar yoki qo'shimchalar ta'siriga uchrashi) tufayli turlicha namoyon bo'ladi. Natijada, tovush so'z mohiyatida bo'lmagan xossalarga ega bo'ladi. Ayrim tovush yondosh tovushga moslashadi, ayrimida o'zgarish kuchayib, boshqa tovushga almashib ketadi. Nutqda sodir bo'ladigan o'zgarish tovushning *kombinator-pozitsion o'zgarishi* deyiladi. Quyida uning turlari haqida so'z boradi.

Singarmonizm. Unli va undoshning o'zgarishi farqlanadi. Unlining nutq jarayonida o'zgarishi *singarmonizm* deyiladi. Singarmonizm unlilarning moslashishi, uyg'unligi demakdir. U asosan turkiy tillarga xos.

Singarmonizmning ikki asosiy ko'rinishi mavjud:

a) til garmoniyasi;

b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovush yumshoqlik yoki qattiqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Singarmonizmning til garmoniyasi qonuniyatiga ko'ra so'zning boshida til oldi unlisi kelsa, so'z o'rtasi va oxirida ham til oldi unlisi keladi. Boshqacha aytganda, so'zning boshida undoshning artikulyatsion o'rniga bog'liq ravishda unli tovushda yuz bergan o'zgarish so'zning keyingi bo'g'inlaridagi unlida ham yuz beradi. Bu hol so'zning talaffuzida artikulyatsion qulaylikka olib keladi. Masalan, (*qalam*) so'zidagi (*q*) undoshi chuqur til orqa undoshi bo'lganligi bois, birinchi bo'g'inda (*a*) unlisi ham til orqalik

xususiyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida esa keyingi bo'g'indan (*a*) tovushi ham til orqa unlisi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, birinchi (*a*) unlisi (*q*) undoshiga, keyingi bo'g'indagi (*a*) esa oldingi bo'g'indagi (*a*) unlisiga moslashadi.

Lab garmoniyasida unlining moslashishi, ikki tomonlama bo'ladi. Bunda unli ham til oldi — til orqalik jihatidan, ham lablanganlik-lablanmaganlik jihatidan o'zaro va undoshlarga moslashadi. Bunga ko'ra, so'z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo'lsa, so'z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So'z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi bo'lsa, so'z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo'ladi. Masalan, (*boshqird*), (*sog'in*), (*bo'g'in*) so'zidagi kabi.

Assimilatsiya. Nutq tovushi qator kelganda ba'zan bir-biriga ta'sir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi. Bunday hodisa *assimilatsiya* deyiladi. Assimilatsiya ikki xil bo'ladi: progressiv va regressiv assimilatsiya. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, progressiv assimilatsiya yuz beradi: *ket-di–ketti, ayt-di–aytti, ot-dan–ottan, yurak-ga–yurakka.*

Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilatsiya yuz beradi: *yigit-cha–yigichcha, bir–bitta, uch-so'm–usso'm.*

Regressiv assimilatsiya, odatda, progressiv assimilatsiyaga nisbatan nutqda kamroq uchraydi. Chunki assimilatsiyaning bu turida keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga moslashtiradi. Demak, talaffuz jarayoni boshlanmasdan burun so'zning talaffuz texnologiyasi haqidagi tasavvur ham hosil bo'lmog'i lozim.

Assimilatsiya to'liq va qisman bo'lishi mumkin.

To'liq assimilatsiyada bir tovush ikkinchi tovushga aynan moslashadi va to'lig'icha uning tusiga kiradi. Yuqorida keltirilgan so'zning hammasi to'liq assimilatsiyaga misol bo'ladi.

Qisman assimilatsiyada nutq tovushidan biri ikkinchisini biron tomondan qisman o'xshatadi (moslashtiradi): *Osh-ga–oshka, ish-ga–ishka,* so'zlarida jo'nalish kelishigidagi (*g*) tovushi oldingi (*sh*) tovushining ta'sirida (*k*) tovushiga aylanmoqda. Bu so'zda qisman assimilatsiya yuzaga kelmoqda, ya'ni (*g*) jarangli tovushi o'zidan oldingi (*sh*) tovushiga faqat bir tomonlama — jarangsizlanish tomonidan o'xshamoqda, xolos, lekin to'liq uning tusiga kirgan emas. [*Uchta*] leksemasining (*ushta*), [*pochta*] leksemasining (*poshta*) deb talaffuz qilinishi ham shu hodisaga misol bo'la oladi.

Dissimilyatsiya. Og'zaki nutqda tovushlar doimo bir-biriga o'xshayvermasdan, ba'zan uning aksi bo'ladi. Ayrim paytda

talaffuzda ikki o'xshash tovush bir joyda yoki bir so'zda kelgan vaqtda biri noo'xshash tovushga aylanib ham qoladi. Bunday hodisa dissimilyatsiya kabi progressiv va regressiv bo'ladi.

Keyingi tovush noo'xshash tovushga aylansa, progressiv dissimilyatsiya: *zarar–zaral, zarur–zaril, birorta–bironta, muyassar–muyastar, kissa–kista* kabi. Oldingi tovush o'zgarsa, regressiv dissimilyatsiya yuz beradi: *koridor–kalidor, ittifoq–intifoq* kabi yuz beradi.

Dissimilyatsiya hodisasi oz uchraydi. Hatto assimilatsiyaning regressiv turiga nisbatan ham kam yuz beradi.

Metateza – og'zaki nutqda ba'zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o'rni almashishi mumkin. Bunday jarayon **metateza** deyiladi: **r-y:** *daryo–dayro*: **m-g'**: *yomg'ir–yog'mir,* **b-r**: *tebratmoq–terbatmoq:* **m-l**: *yamlamoq-yalmamoq:* **h-v:** *ahvol–avhol:* **p-r**: *tuproq–turpoq,* **r-g**: *o'rganmoq–o'granmoq:* **g'-r**: *to'g'ramoq–to'rg'amoq,* **n-m**: *aylanmoq–aynalmoq* va boshqalar.

Proteza – so'z boshida bitta unlining orttirilishi **proteza** hodisasi sanaladi. Odatda, aksariyat sonor *r* tovushidan oldin *o'* va *o'* unlilari orttiriladi: *ro'mol–o'ramol, ro'za–o'raza, rayhon–o'rahon, rozi–o'rozi, rais–o'rais, rang–o'rang, ro'zg'or–o'razg'or* kabi.

Ayrim holatda so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda *i* unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf, spravka-ispravka, stol–istol, stul–istul, shtraf–ishtaraf, stansiya–istansa.*

Epenteza – so'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida (*i*), ba'zan (*u*) va (*a*) unlisi orttiriladi: *fikr-fikir, hukm-hukum, doklad-dakalad, klass- kilass.*

Epiteza – so'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'ng (*a*) tovushining qo'shilish hodisasi: *disk-diska, bank-banka, tank-tanka, kios-kioska, otpusk-otpuska* kabi.

Prokopa – bunda so'z boshida ba'zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi : *yiroq-iroq, yigna-igna, yig'ach- ag'ach, yirik-iri, yuz-uz.*

Sinkopa – hodisasiga binoan so'z o'rtasidagi va oxiridagi keng unli tor unli kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatda tushib qoladi: *valochka-valichka, traktor-traktir, avtor-avtir, direktor-direktir, generator-generatir* kabi.

Apakopa – so'z o'zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *do'st-do's, xursand-xursan, gazeta-gazit, smena-smen* va hokazo.

Sinerezis – hodisasiga ko'ra so'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinchi unli fonema esa cho'ziq talaffuz etiladi: *maorif- mo:rif, saodat-so:dat, qiroat-qiro:t, jamoat-jamo:t.* Bu hodisa asl o'zbekcha so'zlarga xos emas.

Reduksiya – so'zning birinchi bo'g'inida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir, bil, til* so'zlari bir bo'g'inli bo'lganligi va urg'u shu so'zdagi (*i*) unlisiga tushganligi tufayli bu so'zlardagi (*i*) unlisi me'yordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu so'zlarning oxiriga ikkinchi bir bo'g'in qo'shilishi bilan, urg'u ham ikkinchi bo'g'inga ko'chadi. Natijada, birinchi bo'g'inidagi (*i*) unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: (*bilak*), (*tilak*), (*biroq*). Birinchi bo'g'indagi urg'uning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga misol bo'la oladi (*reduksiya* so'zining lug'aviy ma'nosi «kuchsizlanish», «orqaga qaytish», «pastga tushish» demakdir). Reduksiyaga quyidagi so'zlarning birinchi bo'g'inida kelgan (*i*)ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol bo'la oladi: (*pishiq*), (*shira*), (*pishak*), (*qiliq*), (*ichak*) kabi. Reduktsiyaning ikkinchi bo'g'inda kelishi ham uchrab turadi. Bu hodisa so'zga uchinchi bo'g'in qo'shilganda sodir bo'ladi – ikkinchi bo'g'indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun-burni, bo'yin-bo'yni, egin-egni, keyin- keyni* singari.

Eliziya – unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so'zning qo'shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasi. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi so'z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi, qora ot-qorot.* b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so'zning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan – borarkan, borar emish-borarmish, yozgan ekan – yozgankan* kabi: d) Abdusalom so'zining *Absalom, Abdujabbor* so'zining *Abjabbor, olib kel* so'zining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan ko'rinishi hisoblanadi. Bunday holda so'zlarning qisqargan shakli hosil bo'ladi.

Morfonologiya

Ma'lumki, fonema varianti so'z va morfema tarkibida uni tashkil etuvchi sifatida ishtirok etar ekan, boshqa tovush bilan kombinatsiya hosil qilish jarayonida va pozitsion omil ta'sirida turli o'zgarishlarga uchraydi – har xil morfem variant vujudga kelishiga

sabab bo'ladi. Substansial yondashuvda esa variantlashuv va nutq sharoitiga mos variantning tanlanishi tilning tarkibiy qismi bo'lgan me'yorga daxldorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

So'z invariant — allovariant — variant munosabati xususida ketar ekan, morfema variantlashuvining:

a) sof fonetik (orttirma nisbat shakllari: [*-dir*]—[*-tir*], [*-kaz*—[*-qaz*]; o'zlik va majhul nisbat shakllari: [*-in*] —[*-l*] , [*-in*]—[*-n*];

b) morfologik (kesimlik shakllari: [*-man*], [*-m*]; [*-miz*], [*-k*]; [*edi*], [*di*]);

d) funksional-sintaktik (orttirma nisbat shakllari: [*-kaz*]- [*-dir*], [*-sat*] - [*-r*];

e) leksik (kichraytirish shakli: [*-choq*], [*-chak*]) kabi turlari mavjud bo'lib, bu variantlarni ikki:

a) asemantik (sof fonetik);

d) semantik (morfologik, funksional-sintaktik, leksik) turga ajratish mumkin.

So'z va morfema tarkibidagi har qanday tovush almashinuvi, avvalo, fonetik-fonologik tabiatli, semantik qiymatga ega emas. Morfonologiya morfemik-morfologik variantning ana shu ko'rinishlari voqelanishining me'yoriy jihatini tekshiradi. Bu esa bugungi kunda til strukturasining fonetik, leksik va morfemik sathlari oralig'ida ajratilayotgan morfonologiyaning aslida fonetika-fonologiya doirasida qaralishi lozimligini ko'rsatadi.

Demak, ma'lum bo'ladiki, o'zbek substansial tilshunosligi tilning lison-nutq bo'linishida morfonologiyani me'yorda, sathdagi o'rnini esa fonologiyada ko'radi.

Morfonema haqida. Ma'lumki, fonema variantlari so'z va morfemalar tarkibida uni tashkil etuvchi sifatida ishtirok etar ekan, boshqa tovush bilan kombinatsiyalar hosil qilish jarayonida turli o'zgarishga uchraydi.

Aksariyat tilshunoslik atamalari kabi *morfonologiya* ham ikki ma'noli:

1) ma'lum bir qurshovdagi leksema va morfema nutqiy varianti tarkibidagi fonetik o'zgarish sistemasi;

2) tilshunoslikning shu o'zgarishni o'rganuvchi sohasi.

Morfema nolug'aviy ma'no ifodalovchi eng kichik lisoniy birlik. Fonemaning so'zning so'z yoki qo'shimcha bilan, shuningdek, qo'shimchaning qo'shimcha bilan birikuvi natijasida yuz beradigan fonetik o'zgarish natijasidagi varianti ham mavjud. Masalan, [*ong*], [*ot*], [*son*] kabi so'zlarga fe'l yasovchi qo shimcha

qo'shilganda, o'zak tarkibidagi (*o*) tovushi (*a*) tovushiga aylanadi. Demak, (*o*) va (*a*) tovushi kompleksi bir morfonema, ya'ni «[*o-a*]» morfonemasi. Ammo bu fonetika obyekti sifatida ikki fonemaning varianti.

Tilshunoslikda morfonologiya va uning birligi masalasi atrofidagi munozara davom etmoqda.

Morfonologiyada quyidagi masalalar o'rganilishi tavsiya etiladi:

– so'z va bo'g'inning fonetik strukturasi;

– so'z va qo'shimchaning ma'lum qurshovdagi fonetik varianti.

So'z va bo'g'in tuzilishi. Turkiy tillarda so'zlar o'zakning bir bo'g'inli ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu bo'g'in to'rt xil fonetik strukturaga egadir:

1) CVC;
2) CV;
3) VC;
4) V.

Hozirgi o'zbek tilida CVC tipidagi o'zak boshida (*dj*), (*ng*) dan boshqa barcha undosh kela oladi: [*bor*], [*tor*], [*zor*], [*nor*], [*kor*], [*yor*], [*sol*], [*xoll*], [*lol*], [*rol*], [*mol*], [*pol*], [*shol*], [*fol*], [*val*], [*jar*] kabi.

Turkiy o'zak boshida (SCVC tarzida ([*traktor*], [*trassa*] kabi)) undoshlar qavatlanib kelmaydi.

Morfemalarning fonetik strukturasi quyidagicha:

1) CVC (***-kaz*** – *o'tkaz,ketkiz*);
2) CV (***-qi*** – *chopqi,* ***gi*** – *kuzgi*);
3) VC (***-im*** – *kitobim, uyim*);
4) V (***-a*** – *tuna, ata, sana*);
5) S (***-k*** – *kurak, tilak*).

So'z va morfema variatsiyasi. Agglutinativ morfonema. Turkiy tillar garchi ustuvor agglutinatsiyaga ega bo'lsa-da, baribir ularda ham kombinatsion o'zgarish sodir bo'lib turadi. Morfemaning o'zakka, o'zakning o'zakka qo'shilishi natijasidagi o'zgarishlar turkiy tillarda fuziya unsuri mavjudligidan dalolat beradi. Bu esa agglyutinativlik, flektivlik yoki amorflik muayyan tillar uchun mutlaq hodisa emasligidan kelib chiqadi. O'zbek tilida agglutinatsiya jarayonidagi quyidagi morfonologik holatlar e'tiborli.

1. Unlilar almashinuvi:

a) [*o*]-[*a*]: *ong -angla, ot- ata, son – sana, yosh - yasha*;

b) [*a*]-[*o*]: *tarqa - tarqoq, yara - yaroq, chanqa - chanqoq, so'ra - so'roq, alda - aldoq, tara -taroq;*

d) [*i*]-[*u*]: *sovi - sovuq, qovi - qovuq, quri - quruq*;

2. Undoshlar almashinuvi:

a) [*q*]-[*g'*]: *qiliq - qilig'i, bo'liq - bo'lig'i, qiziq - qizig'i;*

b) [*k*]-[*g*]: *bilak - bilagi, tilak - tilagi, kichik - kichigi;*

d) [*g*]-[*k*]: *bargga - barkka, eggan - ekkan, teggan - tekkan;*

e) [*n*]-[*z*]: *bizni - bizzi, sizni - sizzi, qizni - qizzi;*

f) [*n*]-[*t*]: *otni - otti, o'tni - o'tti, toshni - toshti;*

j) [*n*]-[*r*]: *qorni - qorri, shaharni - shaharri:*

k) [*n*]-[*p*]: *gapni - gappi, qopni - qoppi.*

Bunday misolni ko'plab keltirish mumkin.

Kompozitsion derivatsiya va analitik shakl yasalishidagi morfonema. Kompozitsion derivatsiya va analitik shakl yasalishi jarayonida so'zga fonetik-intonatsion yaxlitlik berish uchun qator fonetik va morfonologik hodisa (urg'u, tovushlar almashinuvi, fonetik qayta bo'linish) ishtirok etadi.

Qo'shma so'z va analitik so'zshakllarni hosil qilishdagi morfonologik o'zgarishda urg'uning roli juda katta.

Bu turdagi morfonologik o'zgarishning ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

1. Har ikki a'zo yopiq bo'g'inli bo'lganda:

a) [*n*]-[*m*]: *o'n besh - o'm besh*;

b) [*b*]-[*v*]: *belbog' - belvog'*;

d) [ch]-[*s*]: *uch so'm - us so'm*;

e) [*b*]-[*p*]: *ichib qo'y - ichip qo'y*;

j) [*n*]-[*m*]: *o'n bir - o'm bir.*

2. Birinchi a'zo ochiq bo'g'in bilan tugab, ikkinchi bo'g'in yopiq bo'g'in bilan boshlanganda:

a) [*b*]-[*v*]: *bora berdi - boraverdi*;

b) [*k*]-[*g*]: *bu kun - bugun.*

3. Birinchi a'zo yopiq bo'g'in bilan tugab, keyingi bo'g'in ochiq bo'g'in bilan boshlanganda ham uzvlar yaxlitligini ta'minlash uchun morfonologik hodisa (tovush tushishi) yuz beradi:

a) (*e*) tushishi: *kelar emish - kelarmish*;

b) [*b*]-[*v*] va (*i*) tushishi: *bosib oldi - bosvoldi.*

4. Fonetik qayta bo'linish:

qayn ona — qaynona — qayna

qayn ota — qaynota — qaynata

qayn ini — qaynini — qayni.

Reduplikatsiya jarayonidagi o'zgarish. Juft so'zning ko'pchiligida uzvlarning biri ikkinchisining fonetik o'zgarishi

asosida bo'ladi. Bu ham morfonologik hodisaning yorqin ko'rinishi. Misollar:

1. Birinchi uzvi o'zgaradi:
a) [*t*]-[*s*]: *butun –bus-butun*;
b) [*t*]-[*p*]: *katta – kap-katta*;
d) [*k*]-[*m*]: *ko'm-ko'k*;
e) [*q*]-[*r*]: *qop-qora.*
2. Ikkinchi uzvi o'zgaradi:
a) [*y*]-[*p*]: *yog'och - yog'och -pog'och*;
b) [*m*]-[*s*]: *mol – mol - sol*;
d) [*m*]-[*p*]: *mol – mol - pol*;
e) [*t*]-[*m*]: *tugun – tugun-mugun*;
f) [*t*]-[*p*]: *tugun – tugun-pugun.*

Demak, ma'lum bo'ladiki, bir leksema yoki morfemaning variantini yuzaga chiqaruvchi almashinuvchi tovush juftligi *morfonema* deyiladi.

O'zbekcha talaffuz me'yori

Nutq tovushi talaffuzni belgilashda tovushning to'g'ri aytilishi asosiy rol o'ynaydi. O'zbek tili talaffuzi me'yorini o'rganishda ayrim tovushlarni talaffuz qilish qonuniyatini bilish zarur. Ulardan asosiylari quyidagilar:

1. (*b*) undoshi bilan tugaydigan (*sarob*), (*xitob*), (*adab*), (*maktab*), (*tilab*) kabi so'zlarning oxiri o'zbek tilining deyarli hamma shevasida (*p*) tarzda talaffuz qilinadi va bu hol talaffuz uchun me'yoriy hodisa hisoblanadi. Lekin bu so'zlarning oxiriga affiks yoki bir unli tovush qo'shilishi bilan (*p*) tovush yana (*b*) tarzida talaffuz qilinadi: (*kitobi*), (*maktabi*). Xuddi shunga o'xshash *b* tovushining so'z oxirida (*p*) tarzida talaffuz qilinishi (*borib*), (*kelib*), (*aytib*) singari fe'llarda ham mavjud.

2. Og'zaki nutqda va deyarli barcha o'zbek shevasida [*uchta*] so'zi - (*ushta*), (*uch so'm*) so'zi – (*usso'm*), (*besh so'm*) so'zi – (*bessum*), (*quchdi*) so'zi – (*qushdi*), (*echdi*) so'zi – (*eshdi*), (*izsiz*) so'zi – (*issiz*), (*yuzsiz*) so'zi – (*yussiz*) tarzda talaffuz qilinadi va bunday talaffuz qilish adabiy talaffuz me'yoriga muvofiq. Lekin (*toshni*) o'rnida (*toshshi*), (*tishni*) o'rnida (*tishshi*), (*so'zni*) o'rnida (*so'zzi*), (*qorni*) o'rnida (*qorri*), (*kimni*) o'rniga (*kimmi*) tipidagi ayrim talaffuzlar va (*o'rda*), (*sho'rda*), (*o'tta*), (*sho'tta*), (*aqqa*), (*baqqa*) kabi shakllar adabiy talaffuz me'yoriga mos emas. Chunki bunday qo'llash ko'pchilik shevaga emas, balki bir yoki bir tipli

shevalarga xos bo'lganligi uchun umumxalq tilining talaffuzini aks ettirmaydi. Ikkinchidan, ular og'zaki nutqda har xillikni ko'paytiradi.

3. [*Maroqand*], [*dardmand*], [*qand*], [*band*], [*po'st*] kabi birliklar so'ngidagi (*d*) tovushining nutqda (*t*) tarzda talaffuz qilinishini yoki shu turdagi so'zning ba'zilarida so'z oxiridagi (*d*) yoki (*t*) undoshining og'zaki nutqda tushib qolishini ((*xursan*), (*Samarqan*), (*go'sh*), (*pas*) singari) ixchamlikka intilish nuqtayi nazaridan, tilimiz tabiatini hisobga olgan holda va an'ana bo'lib qolganligidan talaffuz me'yoriga muvofiq kelishini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

4. Og'zaki nutqda (*olsa*), (*solsa*), (*olgan*) singari so'zlar talaffuzida (*l*) tovushini ko'p hollarda tushirib qoldirish ham bugungi kunda adabiy talaffuz me'yoriga aylanib qolgan. (*Sopti*), (*qipti*), (*qopti*), (*ketarkan*), (*sovor*), (*ayt*) kabi so'zlarning og'zaki nutqdagi talaffuzi ham shu hodisaga kiradi.

5. (*Buncha*)-(*muncha*), (*bundan*)-(*mundan*) tipidagi so'zning adabiy nutqimizda baravar ishlatilishi ham adabiy talaffuz me'yoriga zid emas. (*Tanbur*) so'zining (*tambur*) tarzida, (*sunbula*) so'zining (*sumbula*) tarzida talaffuz qilinishi ham talaffuz me'yoridan chetga chiqish bo'lmaydi.

6. (*Chiroq*), (*oyoq*), (*yonoq*), (*yaproq*) tipidagi so'zlarning oxiridagi (*q*) tovushini (*g'*) tarzida aytish nutqimizdagi shu so'zlarning asli holatiga to'g'ri kelmaganidek, o'zbek tilining tabiatiga ham mos emas. Shuning uchun ham yuqoridagi so'zlar oxiridagi (*q*) tovushini o'zining orfografik holatini saqlagan holda og'zaki nutqda ham (*q*) tarzida talaffuz qilish maqsadga muvofiq. Ayni vaqtda bu talaffuz bilan imlo muvofiqligini ta'minlaydi.

7. Hozirgi yozuvimizda bir xil yoziluvchi ayrim so'zlar ham borki, ularning og'zaki talaffuzi farq qiladi va bu farqni nutqda aralashtirish yaramaydi. Masalan, (*ravshan*) va (*tavsiya*) so'zlaridagi (*v*) tovushi og'zaki nutqda (*u*) ga moyil qilib lab-lab (*v*) tarzda talaffuz etilmog'i lozim. Bu so'zlardagi (*v*) ni (*f*) tarzida talaffuz qilish hozirgi talaffuz me'yoridan chekinishdir.

8. Og'zaki nutqda bir tovush bilan boshqa bir tovush almashinib qo'llanilishi mumkin. Masalan, (*ketdi*) so'zini (*ketti*), (*boramiz*) so'zini (*boramis*), (*baland*) so'zini (*balan*) kabi. Bu qoida ko'proq undoshga xos. Lekin u ba'zan unliga ham joriy qilinishi mumkin. Masalan, (*shu erda*) birikmasi xalq shevasining deyarli ko'pchiligida (*shierda*) deb talaffuz qilinadi va bu hol adabiy talaffuz me'yoridan chetga chiqish bo'lmaydi. Biroq unlini

almashtirib talaffuz qilish undoshni almashtirib talaffuz qilishga nisbatan amalda kam uchraydi. Chunki unlini almashtirib talaffuz qilish ko'pincha so'z ma'nosining buzilishiga olib keladi. Masalan: *kir-ker-kar-kor-ko'r; sil-sel-sal-sol-so'l.*

9. Undoshlarning talaffuzi ham muhim ahamiyat kasb etadi va ularni noto'g'ri talaffuz qilish qo'pol xatolarga olib kelishi mumkin. Masalan, ba'zan (*ng*) tovushi yozilishiga qarab *n+g* tarzida (*borin-giz, kelin-giz, o'zin-giz* kabi) talaffuz qilinmoqda. Holbuki (*ng*) tovushi aslida (*n*) tovushiga o'xshash sodda bir tovush bo'lib, unda burun rezonansi kuchliroqdir. Alfavitda bu tovush o'zining alohida grafik belgisiga ega bo'lmay, qo'shimcha (*g*) tovushi yordamida ikki harf bilan berilganligi tufayli alifbodagi bu kamchilik imlo orqali talaffuzga salbiy ta'sir etib, ba'zi so'zlarni buzib talaffuz qilishga sabab bo'ladi. Demak, unli va undosh tovushni to'g'ri talaffuz etmaslik jiddiy chalkashlik va nuqson tug'dirishi mumkin.

10. O'zbek tiliga o'zlashgan baynalmilal so'zning deyarli hammasi aslida qanday qo'llangan bo'lsa, og'zaki adabiy nutqda ham asosan asliga mos ravishda talaffuz qilinadi. Bunga (*fabrika*) so'zining (*pabrika*) emas, asl holicha (*fabrika*) tarzida talaffuz etilishi misol bo'la oladi. Shuningdek, (*avtomobil*) so'zini (*aftamabil*), familiyalarning oxiridagi (*-ov*) affiksini (*-of*) tarzida, xotin-qizlar familiyasidagi (*-v*) ni esa lab-lab (*-v*) tarzida (*u*) unlisiga yaqin talaffuz qilish ham talaffuz me'yoridan chekinish hisoblanmaydi.

GRAFIKA

Grafika haqida tushuncha

Grafika asli grekcha *graphikos* so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslikda «yozuv» degan ma'noni anglatadi.

Yozuv, umuman olganda, harf yoki chiziq vositasida aks ettiriladigan shartli belgilarning muayyan sistemasi. Tilshunoslikda yozuvning piktografik, ideografik va fonografik kabi turlari o'rganilgan.

O'zbek yozuvi hozirgi holga kelganga qadar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, juda ko'p o'zgarishga uchradi.

Til va yozuvning o'zaro munosabati. Yozuv ijtimoiy talab asosida jamiyatning muayyan taraqqiyot davrida paydo bo'lgan va uning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda mukammallasha borgan. U tildan keyin jamiyat tomonidan qo'lga kiritilgan eng katta madaniy

yutuqlardan biri va tilning ifodasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi. Yozuv bilan til o'zaro uzviy aloqador. Shuning uchun ham til bilan yozuv o'rtasida juda ko'p umumiy tomon mavjud. Yozuv ko'p holda tilning o'rnini bosadi. Ba'zi hollarda esa tilda bo'lmagan imkoniyat yozuv orqali yuzaga chiqadi. Masalan, yozuv tufayli kishilarning uzoq masofadan ham bir-birlari bilan, hatto avlodlar bilan ham aloqa bog'lash imkoniyati mavjud. Biroq yozuvning tilga nisbatan o'ziga xos kamchiliklari ham bor. *Birinchidan,* u tilning to'liq aksi emas, balki yozuvdagi shartli va sun'iy aksi. Shuning uchun ham tilning xizmat doirasiga zid ravishda yozuvning xizmat doirasi chegaralangan. *Ikkinchidan,* yozuv orqali ish ko'rilganda vaqtdan yutqaziladi. *Uchinchidan,* yozuv maxsus vositasiz, ya'ni yozuv asbobisiz amalga oshmaydi. *To'rtinchidan,* yozuv savodi yo'q kishi uchun, shuningdek, tegishli sharoit bo'lmagan taqdirda (masalan, qorong'ida) ahamiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari, til jamiyatning barcha a'zolariga baravar xizmat qilganidek, jamiyat taraqqiyoti davomida o'z shaklini keskin o'zgartirmagan holda o'sib, mukammallashib boradi. Yozuv esa, bir tomondan, tilga nisbatan kam o'zgaradi, ikkinchidan, u aloqa vositasining shartli shakli sifatida o'z tusini yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarish yoki jamiyatning talabiga muvofiq nisbatan tezroq yoki butunlay o'zgartirishi ham mumkin. Qisqasi, yozuv ko'p jihatdan tilga yaqin bo'lib, ba'zi holda uning o'rnini bosa olsa ham, lekin funksiyasi jihatdan unga nisbatan ancha chegaralangandir. Shuning uchun ham u jamiyatda aloqa vositasi sifatida til bilan teng huquqli bo'la olmaydi.

Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning shakllanishida asosiy rol o'ynovchi eng muhim omildan biri. Shunga ko'ra, tilsiz jamiyatning bo'lishi mumkin emas. Lekin yozuvsiz jamiyat bo'lgan. Jamiyatning kelgusi taraqqiyotida radio va televizion aloqa vositalari kabi yozuvdan ustunroq bo'lgan yangi vositalar ham yuzaga kelishi mumkin.

Og'zaki nutq va tovush tili aloqa vositasi sifatida kishilarning ehtiyojini yuqori darajada qondirsa ham, hozirgi davr texnik taraqqiyoti nuqtayi nazaridan uning ikkita juz'iy kamchiligi bor:

1) u bir individ (shaxs)ning tili sifatida yaqin masofada turgan suhbatdoshiga eshitiladi, xolos;

2) og'zaki nutq zamonda chegaralangan, ya'ni u aytilayotgan paytdagina qabul qilinadi.

Yozuvning asosiy xususiyatidan yana biri uning grafik belgi bo'lib xizmat qilishi. Yozuv uchun grafik belgi qabul qilinganga

qadar kishilar har xil jonli va jonsiz predmetdan simvolik tarzda foydalanar edi. (Masalan, olov yoqib, toshlarni har xil shaklda qo'yib, daraxtlarni o'yib va ularga belgi qo'yib, qushlar yoki itlar orqali xabarlashish va boshqalar).

Yozuv o'z-o'zidan paydo bo'lmay, balki ma'lum bir ehtiyoj va zarurat asosida-fikrni uzoq masofaga yetkazish talabi bilan yaratilgan. Shu bilan birga, tovush tildan farqli o'laroq, yozuvning o'ziga xos xarakterli belgilari bor.

Birinchidan, yozuv mustaqil va asosiy aloqa vositasi bo'lolmaydi. U asosiy aloqa vositasi bo'lgan til uchun yordamchi hisoblanadi. Shuning uchun ham yozuv jamiyat taraqqiyotining keyingi davrida paydo bo'lgan. Buning ustiga yozuv o'tmishda jamiyat a'zolarining barchasiga emas, balki uning faqat bir qismigagina xizmat qilar edi. Shuning uchun ham yozuv mustaqil aloqa vositasi bo'lolmaydi. Ikkinchidan, yozuvning asosiy vazifasi nutqni uzoq masofaga etkazish va keyingi davrlarga qoldirish uchun xizmat qilishdan iborat. Uchinchidan, ko'z bilan qabul qilinadigan grafik belgi yozuvning asosiy quroli bo'lib hisoblanadi.

Demak, yozuv ko'z bilan ko'radigan va kishilar o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan grafik belgilar sistemasi bo'lib, uning jamiyatda o'ziga xos katta o'rni va xizmati bor, ya'ni yozuv ma'lum bir masofa bilan ajralgan odamlar orasidagi aloqani yaxshilashda, yozma adabiyotni va yozma adabiy tilni yuzaga keltirishda, ma'lum bir davrda yaratilgan madaniy-adabiy yodgorlikni keyingi davrda etkazib berishda nihoyat darajada muhim rol o'ynaydi.

Og'zaki nutq va yozma nutq. Nutq ham til va yozuv kabi ikki xil shaklga ega: a) og'zaki nutq; b) yozma nutq. Og'zaki nutq tilning (nutqning) tabiiy holda ko'rinishi. Yozma nutq esa shu tabiiy nutqning yozuvdagi ifodasi. Shunga ko'ra, og'zaki nutq o'zining tabiiyligi, ta'sir doirasi va talaffuz xususiyatiga ko'ra, yozma nutqdan jiddiy farq qiladi. Og'zaki nutq — fikrni ifodalashning asosiy vositasi. Unda tovush kompleksi, ba'zan ayrim tovush vositalari bilan fikr bayon etiladi. Nutq organi vositasi bilan fikrni ro'yobga chiqarish va eshitish organi orqali uni uqib, idrok qilish — og'zaki nutqning asosiy xususiyatidan biri.

Nutqning yozma shakli uning tabiiy shakli kabi nutq organi yordamida ifodalanmaydi. Yozma nutqda esa kishilar o'z fikrini turli shartli belgilar sistemasi vositasi bilan ifoda qiladi. Shunga ko'ra, yozma nutq tabiiy nutqning shartli ko'rinishi bo'lib, fikrni ifodalash vositasi sifatida u ma'lum darajada chegaralanganligi bilan

xarakterlanadi. Shuning uchun ham nutqning yozma shakli qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lmasin, u tabiiy nutqning o'rnini bosa olmaydi, balki yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi, xolos.

Yozuvning tarixiy ahamiyati

Yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan, uning madaniyatining yuqori saviyaga ko'tarilishi, shuningdek, siyosiy-huquqiy, estetik va shu kabi fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrga qoldirishga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan bog'liq. Demak, yozuv jamiyatning eng buyuk madaniy kashfiyotidan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta roli va o'ziga xos ahamiyati bor.

Xalqlarning qadimiy yozuvini o'rganish juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Yozuvni o'rganish va ilgarigi davrda yaratilgan yozma yodgorlikni o'qish qadimda amal qilgan tilning leksik-grammatik xususiyatini, o'sha yodgorlik egasi bo'lgan xalqning tarixiy urf-odati va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

Agar yozuv bo'lmaganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari etib kelmagan bo'lar edi. Homer, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Nizomiy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Pushkin kabi buyuk siymolarning ajoyib fikrlaridan bahramand bo'la olmas edik.

Jamiyatda kitob, gazeta, jurnal va umuman matbuotning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati yuksak darajaga ko'tarila borayotgan hozirgi paytda yozuvning, yozma nutqning roli ham o'sib, ta'sir doirasi kengayib bormoqda.

O'zbek yozuvi tarixidan qisqacha ma'lumot

Markaziy Osiyoda eng qadimgi davrda yashagan qabilalar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar grek, eron, xitoy tarixchilari va yozuvchilari asarlarida, toshlarda bitib qoldirilgan yozuv va boshqa materiallarda bayon qilingan.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi qadimda turli yozuv sistemasidan foydalanib kelgan. O'zbek yozuvlari tarixida amalda ishlatib kelingan asosiy yozuv sistemasini fonografik, ya'ni tovush yozuvi, harfiy yozuv yoki alfavit tashkil etgan. O'zbek xalqi Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari singari oromiy, yunon,

karoshta, sug'd, xorazm, qo'shan, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uyg'ur, arab yozuvi kabi bir qancha yozuvdan foydalangan. O'rxun-runik yozuvini boshqa turkiy xalqlar bilan birgalikda ijod qilgan.

Sobiq sho'ro davrida boshqa Sharq xalqlari bilan bir qatorda avval lotin, keyinchalik esa rus grafikasiga asoslangan yozuvni qabul qilish o'zbek xalqi hayotida o'ziga xos hodisa bo'ldi.

Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Markaziy Osiyoning Eronga yaqin hududida rasmiy yozuv sifatida klinopis, ya'ni mix yozuvi ishlatilar, ayrim joylarda esa xalqaro diplomatik muomalada oromiy yozuvi qo'llanilib, klinopisdan birmuncha oddiy va qulay edi. Turli yodgorliklarda qayd etilishicha, eramizdan oidingi III-I asrlarda oromiy yozuvi bilan bir qatorda yunon va karoshta yozuvi ham ishlatilgan.

Hozirgi eramizdan boshlab so'g'd yozuvi qo'llanila boshladi. Bu yozuv taxminan VI asrgacha davom etdi. II asrning oxiri va III asrning boshida Xorazm shohi chiqargan pullarda xorazm yozuvi uchraydi. Bu yozuv Markaziy Osiyoda ancha keng tarqalgan bo'lib, oromiy yozuviga yaqin edi.

V—VIII asrlar davomida turkiy xalqlar O'rxun-Enisey nomli yozuvdan keng foydalangan. Bu yozuv ba'zan runik yozuv deb ham yuritiladi. Enisey daryosi havzasidan topilgan O'rxun yozuvi yodgorliklari haqida dastlab XVIII asrning boshida rus xizmatchisi Remezov xabar berdi. Keyinroq shved ofitseri Iogann Stralenberg shu daryo havzasida noma'lum yozuvli tosh borligini qayd etadi. Bu haqda olim Messershmidt ham o'z asarlarida ma'lumot berib o'tadi. Ammo uzoq vaqt davomida olimlar bu yodgorliklarni o'qishga, uning qaysi xalqqa tegishli ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'la olmadilar.

XIX asrning birinchi choragida «Sibirskiy vestnik» («Sibir axboroti») jurnalida Grigoriy Spasskiyning Enisey yodgorliklari haqida maqolasi bosildi. Bu maqola lotin tiliga tarjima qilinib, ko'p mamlakatlarning olimlariga ma'lum bo'ldi. Lekin turli mamlakat olimlari uni turlicha talqin qila boshladilar.

1890-yilda Fin-Ugor ilmiy jamiyati O'rxun daryosiga arxeologik ekspeditsiya uyushtirdi. 1891-yil esa Rossiya Fanlar akademiyasi akademik V.V.Radlov boshchiligida O'rxunga katta ekspeditsiya yubordi. 1892-yilda bu ekspeditsiyaning ish natijalari ikkita atlas holida nashr qilinib, ularda noma'lum yozuv yodgorliklarining surati, ular topilgan joylarning plani, xaritasi va boshqa ma'lumotlar berilgan edi. Yodgorliklarni birinchi bo'lib

daniyalik Vilgelm Tomsen o'qishga muvaffaq bo'ldi. U o'qishda turli alfavitlarga tayanmay, ishni harflarning o'zaro nisbati va o'xshashliklarini aniqlashdan boshladi. Turkiy tillardagi ba'zi bir tovushlarning qator kelish yoki kelmaslik holatini aniqlab, uni yodgorlikka solishtirib ko'rdi. Yodgorlik yozuvini chapdan-o'ngga qarab emas, balki o'ngdan chapga qarab o'qish kerakligini aniqladi. V.Tomsen birinchi bo'lib (turc-turk) so'zini o'qib, mazkur yodgorlik turkiy xalqlarga tegishli degan xulosaga keldi. 1893-yilning 25-noyabrida deyarli barcha harflarni aniqlab yodgorliklarning «siri»ni ochdi. Bu orada akademik V.V.Radlov ham 15 ga yaqin harfni aniqlab ulgurgan edi.

V.V.Radlov o'zining va V.Tomsenning kashfiyotiga tayanib, O'rxun daryosi atrofidan topilgan bir necha yodgorliklar matnini birinchi bo'lib tarjima qildi.

Shunday qilib, V.Tomsen ikki so'zni oldin o'qigan bo'lsa-da, ayni bir vaqtda rus olimi V.V.Radlovning ham bu yozuvni o'qishda xizmati kattadir. Shunga ko'ra, ushbu yozuvni birinchi bo'lib o'qish va izohlab berishda har ikki olimning xizmatlari ham bir xil baholanadi.

Keyinchalik O'rxun-Enisey yozuvining yangi-yangi yodgorliklari topildi, o'rganildi va aniqlandi.

Umuman, O'rxun-Enisey yodgorliklarini tekshirish va o'rganishda V.Tomsen, V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, A.Geykel, S.E.Malov kabilarning xizmatlari juda katta. Hozirgi vaqtda ularning ishini yangidan yetishib chiqqan rus va milliy respublika olimlari muvaffaqiyat bilan davom ettirmoqda.

O'rxun-Enisey yodgorliklariga xos ayrim leksik birlik va grammatik shaklni hozirgi o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, tatar, boshqird, qorachoy, bolqar va boshqa turkiy tillarda uchratish mumkin. Shunga ko'ra, S.E.Malov ta'kidlaganidek, bu yodgorliklar ko'pchilik turkiy tillar tarixini o'rganishda mushtarak bir manba sifatida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Qisqasi, O'rxun-Enisey yozuvi turkiy xalqlarning eng katta madaniy yodgorliklaridan. Ayni vaqtda ushbu yozuv turkiy xalqlarning jahon xalqlari orasida eng qadimiy va yetuk madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Ma'lum bo'ladiki, bu yozuvning ham tarixiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan beqiyos darajada katta ahamiyati bor.

VI—VII asrdan boshlab turkiy xalqlar va mo'g'ullarda uyg'ur alfaviti qo'llangan. Akademik V.V.Radlovning ta'kidlashicha, bu

alfavit turkiy xalqlar orasida ancha keng ishlatilgan. XIV–XV asrlarda yaratilgan «Baxtiyornoma», «Me'rojnoma», «Tazkirai avliyo» kabi asarlar uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. Hatto 1469-yilda tuzilgan Umar Shayx yorlig'i uyg'urcha yozilgan.

Qadimgi uyg'ur yozuvi bilan ish ko'rish ayrim yozma adabiy tillarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi va sezilarli iz qoldirdi. Masalan, qadimgi uyg'ur tiliga xos bo'lgan bir qancha morfologik, leksik, fonetik unsurni Navoiygacha yaratilgan hamma yodgorlikda uchratamiz.

VII–VIII asrlarda O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinadi va shundan keyin o'zbek xalqi ham arab yozuvi bilan ish ko'ra boshlaydi. Shuning uchun bu davrdan boshlab, o'zbek olimlarining deyarli barcha asarlari asosan arab alifbosida yozilgan.

Arab yozuvi o'zbek tili xususiyatlariga ko'p jihatdan muvofiq kelmas edi. Arab alifbosi, yozilishi jihatidan murakkab bo'lishi bilan birga, u o'zbek tilining maxsus tovushlarini ifoda eta olmas edi. Uning bu jihatini sezgan ayrim mutaxassislar o'z munosabatlarini bildirdilar. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Xatti Bobur» yozuvini yaratdi, lekin bunday ilg'or tadbirlar, o'sha zamonda amalga oshmay, e'tiborsiz qolib ketdi.

Arab yozuvi oktabr to'ntarishidan keyin ham bir necha yillar davomida amalda bo'ldi. Biroq arab yozuvi, ayniqsa, madaniyatning talablariga to'la javob bera olmay qoldi. Xalqni tez orada yoppasiga savodli qilish, ilmiy, badiiy, siyosiy adabiyotlarni ko'plab bostirish, gazeta, jurnallarni xalq orasiga tezda tarqatish ishiga to'sqinlik qila boshladi. Shuning uchun ham 1929-yildan boshlab o'zbek yozuvi lotinlashtirilgan alfavitga ko'chirildi. Bu hodisa o'sha davrda juda katta ijtimoiy-siyosiy va madaniy hodisa bo'lib maydonga keldi. Bu yozuv turkiy tillardagi tovushlar xususiyatini, xususan, ularga xos fonetik hodisalarni berishda arab yozuviga nisbatan juda katta qulayliklarga ega edi. Lotin alfaviti to 1940-yilgacha amalda ishlatilib, o'z vaqtida Sharq xalqlarining yozuvi tarixida muhim rol o'ynadi. Umuman olganda, Sharq respublikalarining lotinlashtirilgan alfavitga ko'chishi o'sha davrda juda katta ijtimoiy-siyosiy va madaniy hodisa bo'ldi. Biroq 1940-yilda sobiq sho'ro hududida yoppasiga kirill alifbosiga o'tishga qaror qilindi va bu yozuv 1991-yilgacha o'zbek xalqining ham «milliy» yozuvi sifatida amal qildi.

1993-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi lotin alifbosini milliy yozuv sifatida qabul qilishga va bu yozuvga o'tishga qaror

qildi. Lotin alifbosi o'zbek xalqi mustaqilligining bir belgisi sifatida namoyon bo'ldi.

IMLO

O'zbek imlosining asosiy tamoyillari

Bugungi o'zbek imlosi fonetik, morfologik, tarixiy-an'anaviy, farqlovchi (differensial) va shakliy(grafik) yozuv tamoyillariga tayanadi. Sheva va ayrim shaxslarning nutqidagi xilma-xillikni hisobga olmaganda ham og'zaki nutq tovushining bir-biriga ta'sir qilishi natijasida so'z tarkibida, turli xarakterdagi juda ko'p o'zgarish sodir bo'ladi. Bu xilma-xillikning hammasi ham orfografiyada o'z aksini topaverganda, yozuvda bir xillikni ta'minlab bo'lmas edi. Yozuvda bunday nuqsonlarga barham berish uchun orfografiyaning yuqorida sanalgan qoidalari ishlab chiqilgan.

Fonetik yozuv. Bu yozuvga asosan so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida yuz bergan fonetik o'zgarish nutq jarayonida qanday eshitilsa, shunday yoziladi.

So'z tarkibidagi o'zak va qo'shimchaning yozuvda eshitilishiga qarab me'yorlashtirilishi *fonetik yozuv* deb yuritiladi. Masalan, adabiy talaffuzda jo'nalish kelishigining asosiy shakli sifatida *–ga* qabul qilingan. Ba'zan bu shakl (*k*) va (*q*) tovushidan keyin (*–ka*), (*-qa*) tarzida talaffuz etiladi va shu tarzda yoziladi: *terakka, buloqqa.*

Tilimizda ko'pgina morfemalar fonetik variantining mavjudligi ularning fonetik yozuv asosida yozilishidan darak beradi: [*-gan/-qan/-kan*] sifatdoshlari; [*-guncha/-kuncha/-quncha*]; [*-gach/-kach/-qach*] ravish-doshlari; [*-dir/tir*]; [*-kaz/-gaz/-giz/-qaz/-qiz*] kabi nisbat shakllari va h.

Hozirgi o'zbek orfografiyasida barcha o'zak va qo'shimchani yozishda ham fonetik tamoyilga amal qilinavermaydi.

Morfologik yozuv. Fonetik yozuvdan farqli ravishda morfologik yozuvga ko'ra tildagi morfemalar nutqda qanday aytilsa yoki eshitilsa, shunday emas, balki asl holicha yozilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, so'z o'zagiga qo'shiluvchi morfemaning yozuvda to'liq yoki qisman bir sistema asosida aks ettirilishi yoki ularning variantlaridan birining tanlab olib yozilishi asosida bir xillikka erishish *morfologik yozuv* deyiladi.

Hozirgi o'zbek orfografiyasida morfologik tamoyil asosiy va yetakchi tamoyildan bo'lib, yozuvda keng qo'llanadi. Masalan,

(*aytdi*) so'zidagi (*-di*) shakli (*–ti*) tarzida eshitiladi *(aytti), aytgan* so'zidagi (*-gan*) shakli (*–kan*) tarzida eshitiladi *(aytkan), aytgin* so'zidagi (*-gin*) shakli (*–kin*) tarzida eshitiladi *(aytkin).*

Tarixiy-an'anaviy yozuv. O'zbek xalqining yozuvi tarixida ko'pgina so'z va iboralar borki, og'zaki nutqda qay tarzda talaffuz etilishidan qat'i nazar, ularning yozilishida ma'lum an'anaga amal qilinadi. So'z yoki morfemaning hozirgi talaffuz me'yoriga mos kelmaydigan, tarixiy shaklida yozilishi tarixiy-an'anaviy yozuv qoidasi asosida. Masalan, hozirgi o'zbek tilida:

-buyruq-istak maylining [*–gin*] shakli o'rnida [*–gil*], [*-g'il*] shakllari: *aytgil, urmagil;*

[*-gani*] maqsad ravishdoshining [*–gali*], [*-kali*], [*-qali*], [*-g'ali*] shakllari: *aytgali, kuydirgali;*

[*-dan*] chiqish kelishigi o'rnida [*–din*], [*-mi*] yuklamasining [*–mu*], [*-dir*] shaklining [*–dur*] tarzida ishlatilishi bunga misol bo'ladi.

Farqlash tamoyili nutqimizdagi shakli va talaffuzi bir-biriga yaqin so'z va morfemalarni yozuvda farqlashni talab etadigan yozuv qoidasi. Masalan: *otli-otlik, to'nli-to'nlik, paltoli-paltolik, yondosh-yondash, qism-qisim, rosa-raso, tanbur-tambur* va h.k.

Shakliy yozuv. So'zlarni shakliy yozuv asosida yozish - qaysi xalqning tili yoki grafikasidan olingan bo'lsa, o'sha etimologik yoki grafik holatini saqlab qolish. O'zbek tili leksikasida arab, fors-tojik, rus, ingliz tilidan o'zlashgan qator so'zlar mavjud bo'lib, o'zbek xalqi talaffuzida ular o'ziga xos tarzda qo'llanilishi mumkin. Ammo shakliy yozuv qoidasiga muvofiq ularning o'zlari mansub tildagi etimologiyasi saqlab qolgan holda yoziladi. Masalan, *muallim-ma:lim, maorif-mo:rif, Saodat-So:dat, Muhiddin-Mo'ydin, go'sht-go'sh, baxt-bax, fikr-fikir, hukm-hukum, stol-ustal, stansiya-istansa* va h.k.

Orfografiyaning ko'rib o'tilgan yozuv qoidalaridan fonetik va morfologik tamoyil o'zbek tilidagi va so'z qo'shimcha birikuvi natijasidagi fonetik hodisalarni, tarixiy-an'anaviy va farqlash tamoyillari ba'zi so'zni va qo'shimchani qanday yozishni me'yorlashtirsa, shakliy yozuv faqat boshqa tillardan o'zlashgan so'zni qanday yozishni o'rgatadi. Lekin ayni vaqtda ko'rib o'tilgan yozuv qoidalarining o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, ular bir-birini to'ldirish uchun xizmat qiladi.

LEKSIKOLOGIYA

Leksikologiya haqida tushuncha

Leksikologiya (ot. grek. *lexikos* – so'zga oid va *logos* – ta'limot) tilning lug'at tarkibini, leksikasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Leksikologiyaning o'rganish manbai so'z bo'lsa, o'rganish predmeti uning quyidagi jihatlari:

a) lisonning asosiy lug'aviy birligi sifatidagi leksema muammosi, leksik birlik tiplari;

b) til lug'at tarkibi strukturasi;

d) lug'aviy birliklarning qo'llanilishi;

e) lug'at tarkibining boyishi va taraqqiyoti;

f) leksik birliklarning tildan tashqaridagi borliq bilan o'zaro munosabati.

So'z umumlingvistik muammo, shu boisdan u umumiy so'z nazariyasi doirasida ham o'rganiladi. Leksik birlik doirasiga nafaqat alohida so'z (tugal shakllangan birliklar), balki so'zga teng barqaror birlik, murakkab, tarkibli so'z ham kiritiladi. Lekin so'z asosiy lug'aviy birlik sanaladi.

Shakl va mazmun birligidan iborat so'z til birligi sifatida uch yo'nalishda o'rganiladi:

a) struktur jihatdan (so'zning qurilish xususiyatlari);

b) semantik jihatdan (so'zning lug'aviy ma'nosi);

d) funksional jihatdan (so'zning lison va nutq strukturasida tutgan o'rni).

Struktur yondashuvda so'z leksikologik nazariyasining asosiy vazifasi uning alohidaligi va o'ziga xosligi mezonini tiklashdir. Birinchi holatda so'z so'z birikmasi bilan qiyoslanib, uning tugal shakllanganlik va alohidalik belgilari ochiladi. So'zning nutqdagi analitik shaklining lisoniy asosi yoritiladi. Ikkinchi holatda so'zning turli grammatik shaklidan hosil qilingan lisoniy invariantini tiklash xususida so'z boradi. Shu munosabat bilan grammatik shakl olgan leksema – so'zshakl tushunchasi muayyanlashtiriladi. Shuningdek, leksemaning turli nutqiy – fonetik, morfologik, leksik-semantik variantlari o'rganiladi.

Lug'aviy birlikning semantik tahlilida, ular (lug'aviy birliklar) leksik semantika – semasiologiya tadqiq manbaiga aylanadi. Bunda so'zning tushuncha (signifikat) va borliqdagi atalmish (denotat)ga munosabati o'rganiladi. Semasiologiyada so'zning semantik xususiyati – bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, umumiy va xususiy,

mavhum va muayyan, bosh va hosila, to'g'ri va ko'chma ma'nolari tekshiriladi. Bunda asosiy e'tibor so'zning semantik strukturasiga, so'z ma'nolari tipi va ularni ajratish mezoniga, so'z ma'nolarining o'zgarishi va taraqqiyoti, so'zning ma'nosini yo'qotishi va grammatik formantga aylanishi — desemantizatsiya hodisasiga qaratiladi.

Funksional yondashuvda so'zning nutqda voqelanish jarayonidagi roli, shuningdek, boshqa lisoniy sath birliklari voqelanishiga, ular umumiy ma'nolarining parchalanishiga qo'shgan «hissasi» tekshiriladi. Masalan, (*odamcha*) so'zida [*odam*] leksemasi (*-cha*) morfemasining «kichraytirish-kamsitish» ma'nosini (*qizcha*) so'zidagi «kichraytirish-erkalash» ma'nosidan farqlagan, morfologik sath birligi bo'lgan [*-cha*] morfemasining «kichraytirish» umumiy ma'nosini parchalab, uning birini ikkinchisidan ajratgan.

Leksikologiya leksikaga til tizimidagi ichki sistema sifatida qaraydi. Shuningdek, o'zaro ma'noviy umumiylikka ega bo'lgan lug'aviy birlik yanada kichik, ichki tizimcha sifatida qaraladi. Shu asosda katta va kichik, ichki tizimlarning pog'onali, bir-birini tashkil etuvchilik munosabati ochiladi. Masalan, [*olma*], [*o'rik*], [*nok*] kabi ho'l meva nomi bir tizimni tashkil etadi. Sabzavot nomi boshqa bir tizimni tashkil qiladi. Ular yuqoriroqda yana birlashadi — kichik tizimchalardan tashkil topgan «meva-sabzavot nomi» tizimini tashkil qiladi va umumlashtirish yuqoriga qarab davom etaveradi.

Tilning lug'aviy tarkibi bir xil emas. So'zlar turli asosga ko'ra ko'plab turlarga ajratiladi. Masalan, qo'llanish darajasiga ko'ra umumiy iste'mol va chegaralangan (yoki xususiy) leksika, qo'llanish davriga ko'ra eskirgan so'z, zamonaviy so'z va neologizm, qo'llanish doirasiga ko'ra dialektizm, professionalizm, jargon kabi turlarga bo'linadi.

Leksikologiya til lug'at tarkibining boyishini o'rganganda uning 3 tipini ajratadi. Bulardan 2 tasi (yangi so'z yasash, so'zni yangi ma'noda qo'llash) ichki boyish imkoniyati bo'lsa, bittasi tashqi (so'z o'zlashtirisn) imkoniyatdir.

Lug'aviy birlikning borliqqa munosabatini o'rganish — leksikologiyaning muhim aspektidan biri. Bunda ularning kishi hayotiga, amal qilayotgan davrga munosabati ochiladi. Masalan, yaqin o'tmishda [*savdogar*] so'zida salbiy ottenka bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ijobiy bo'yoqli so'z sifatida keng iste'molda.

Leksikologiyaning umumiy, xususiy, tarixiy, qiyosiy, nazariy, amaliy leksikologiya kabi turi mavjud.

Umumiy leksikologiya leksikaning qurilish, amal qilish va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatini ochsa, xususiy leksikologiya ma'lum bir tilning lug'at tarkibini o'rganadi.

Tarixiy leksikologiya so'zning tarixiy shakliy va ma'noviy holatini, taraqqiyotini tekshiradi.

Qiyosiy leksikologiya qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarning leksik birliklarini taqqoslash bilan shug'ullanadi. Masalan, *qalqimoq* so'zi o'zbek tilida narsalarning yuzaga chiqishini ifodalaydi va uning turk tilidagi varianti ma'nosi («kishining o'rnidan turishi») farqlanadi (Saat kachda kalkiyursunuz? — Qachon uyqudan turasiz?) Yoki qarindosh bo'lmagan o'zbek va rus tillaridagi [*yabloko*] (meva) va [*olma*] (meva va daraxt) leksemalarining lisoniy qiymatlari har xil.

Amaliy leksikologiya leksikografiya (lug'atchilik), tarjima, lingvo-poetika va nutq madaniyatini o'z ichiga oladi. Ularning har biri leksikologik nazariyani boyitadi. Masalan, tarjima qiyosiy leksikologiya uchun qimmatli materiallar beradi.

Nazariy leksikologiya leksikada lisoniy va nutqiy jihatlarni farqlab, ularning tizimiy munosabatlarini tadqiq qiladi.

Leksikologiya o'z o'rganish predmeti tadqiqida umumlingvistik tadqiq usul — distributiv (so'zning chegarasini belgilash, morfologik strukturasini aniqlash), substitutsiya (so'zlar ma'noviy xususiyatlarini tahlil etish), komponent tahlil (leksema va so'zlar ma'noviy tarkibini aniqlash), transformatsion va statistik metodlaridan foydalanadi.

Leksema va so'z

Nazariy yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda *leksema* atamasi bilan nomlanadi. Leksema tilshunoslikning eng muhim va markaziy tushunchasidan biri bo'lsa ham, uning mazmun va chegarasi hozirgacha aniq belgilangan, deb bo'lmaydi.

Tilshunoslikda leksema va uning lisoniy tizimda tutgan o'rni masalasidagi murakkab va chigal muammodan biri — leksemaning til struktur birligi bo'la olish-olmasligi. Ko'plab tilshunoslar tilning struktur birliklarini sanar ekan, fonema, morfema va konstruksiya bilan cheklanib, leksemani tilning alohida qurilish birligi emas, balki morfemaning bir ko'rinishi sifatida qaraydi. O'zbek tilshunosligida leksikani tizim sifatida tadqiq etish natijalarini

umumlashtiruvchi o'quv qo'llanmasida (H.Ne'matov, R.Rasulov. O'zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari) ham leksema «jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemani o'ziga biriktira oladigan morfema turi» tarzida morfemaning bir ko'rinishi sifatida ta'riflanadi. Leksemani morfema orqali ta'riflash, o'z-o'zidan, lisoniy qurilishda uning alohida, mustaqil o'rni yo'qligiga ishora qiladi. Holbuki, leksema ko'p hollarda, jumladan, V.V.Vinogradov ta'kidlanganidek, leksika va grammatikaning asosiy birligi sifatida qaraladi. Agar leksemaga shunday yondashilsa, tilning asosiy yarusi-leksik sath ham o'z mustaqilligidan mahrum bo'lib, morfemik sathning tarkibiy qismi mavqeida bo'la oladi, xolos. Bu kabi holatlar tilshunoslar oldiga leksemaning til tizimida tutgan o'rnini belgilash va asoslash vazifasini qo'ymoqda.

Yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta'rif berilib, u «kornevaya morfema» (o'zak morfema) sifatida qaraladi. O'zbek tilshunosligida ham leksema morfemaning bir ko'rinishi sifatida e'tirof etiladi. Biroq turli qurilishli tillarda leksema va morfema munosabatida farqli holatlar mavjud. Ma'lumki, agglyutinativ va flektiv tillardagi o'zakning keskin farqlanishi tilshunoslikka kirish kursiga doir barcha darslik va qo'llanmalarda mufassal sharhlangan. Ularda ta'kidlanishicha, agglyutinativ (masalan, rus, arab) tillardagi o'zak har doim so'z yasovchi yoki grammatik shakldan xoli tasavvur qilinmaydi va ma'no anglatmaydi. Shuning uchun mazkur tillarga o'zakni morfemalarning bir turi sifatida qarash va shu asosda faqat o'zakdan iborat, tarixiy yasamaligini yo'qotgan o'zak leksemalarni mustaqil qo'llanishga ega bo'lmagan morfemaning bir ko'rinishi sifatida baholash xos va shu xususiyat bilan flektiv til agglyutinativ tildan farqlanib turadi.

O'zak va morfema turkiy tillar uchun bir-birini qoplovchi, ma'nodosh tushuncha emas. To'g'ri, uning ikkalasi ham tilning eng kichik ma'noli bo'laklari. Bu jihatdan fonema bilan ziddiyatda turadi. Shuningdek, o'zak ham, morfema ham, yaxlitlik (цельнооформленность), umumiylik, tayyorlik, majburiylik va takrorlanuvchanlik xossalariga ega. Biroq ulardan biri kishi ongida aniq denotativ ma'noga ega bo'lib, borliqning biror bo'lagi bilan aloqador holda idrok qilinadi. Boshqasi esa mustaqil denotativ emas, nisbiy ma'noviy mustaqillikka ega bo'lib, bog'lanishlarsiz

aniq ma'no kasb etmaydi. Bayon qilingan fikrlarni dalillash uchun quyidagi ruscha *ch, pis*, arabcha *qr', ktb* va o'zbekcha *o'qi, yoz* o'zaklarini qo'llanish va ma'no anglatish xususiyatiga ko'ra qiyoslash etarli. Mustaqil va alohida ajratilgan holatda *ch* ning o'zak ekanligini mutlaqo anglab bo'lmaydi (*читать, учёба, учение),* biroq mulohaza yuritish natijasidagina *pis*ning *нашу, письмо* so'zlari bilan aloqadorligi seziladi. Arabcha *ktb, qr'* o'zaklari haqida esa bir qarashda ularning o'qish va u bilan aloqador til unsurlari ekanligi, biroq mustaqil qo'llana olmasligi xususiyatini aytish mumkin. O'zbekcha [*o'qi*] va [*yoz*] o'zaklarini sharhlashda bu til egasi qiyinchilik sezmaydi. Bunda mulohaza [*o'qi*] va [*yoz*] so'zlarining qanday ma'no tashiyotganligi (*o'qi — read, o'qi — study, yoz — write, yoz — summer*) doirasida bo'lib, omonimik bog'lanishlarni oydinlashtirish masalasiga yo'naltiriladi. Ko'rinadiki, o'zbek tilida lisoniy sath birligi sifatida eng kichik ma'noli birlikning ikki alohida turi — leksema va morfemani qat'iy chegaralash uchun yetarli ilmiy asos mavjud. Demak, turkiy tillarda leksemani morfema orqali emas, balki lisoniy sathning morfemadan yuqoriroqda turgan va til egasi ongida borliqdagi ma'lum bir voqelik bilan bevosita aloqada bo'lgan lisoniy birlik sifatida qarash lozim.

Tahlildan ko'rinadiki, o'zbek tili uchun tilning qurilish birliklari sifatida *fonema-morfema-leksema-qolip* tizmasi namoyon bo'ladi. Bularda iyerarxik bog'lanish ham mavjud bo'lib, eng kichik morfema bir fonemaga, eng katta morfema bir leksemaga va eng kichik leksema bir morfemaga, eng katta leksema qolip mahsuliga teng keladi.

Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlik. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega.

Leksemaning tayyorligi va so'zning tayyor emasligini dalillovchi asosiy belgidan biri uning nutqda namoyon bo'lishi uchun har doim tayyor turishi, so'zlovchi uni faqat ishga solishi. Ko'rinadiki, leksema ma'lum bir tilda so'zlashuvchi ongida shakl va mazmunning yaxlitligi sifatida nutqqa chiqishga shay bo'lib turadi, ma'lum bir qonuniyat asosida, so'z yasash qolipi asosida nutq jarayonida hosil qilinmaydi. Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ongida, deylik [*stol*], [*ona*], [*ruchka*], [*bormoq*], [*qizil*], [*o'n*] leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet,

harakat, miqdor, belgi kabini ifodalovchi ongdagi tushunchaning in'ikosi sifatidagi ma'nolari bilan tayyor holda, so'zlovchining «buyrug'i»ni kutgan holda turadi. So'zlovchiga u ajdodlar tomonidan shakliy va mazmuniy yaxlitlik sifatida «meros qilib qoldirilgan». So'zlovchi uning na shakl, na ma'no tomonini hamma uchun umumiy qilib o'zgartira oladi. Ularni nutq jarayonida boshqa bir ma'noda qo'llashi mumkin. Lekin til jamiyati ongida mazkur shakl bu ma'noni ifodalashga xoslanmaganligi uchun u umumiylik va barqarorlik xossasiga ega bo'la oladi. Masalan, so'zlovchi [*haykal*] leksemasini «asar» ma'nosida qo'llashi mumkin: *Mening* ***haykalim*** *bitdi* kabi. Ammo mazkur shaklga «asar» ma'nosi vaqtincha birikib turadi va bu birikish omonat bo'lganligi tufayli yashovchanlik kasb eta olmaydi. Demak, so'zlovchi leksemaning na shakliy tomonini, na mazmuniy tomonini o'zgartira oladi.

So'z esa til jamiyati a'zolari ongidagi leksemaning so'zlovchi tomonidan nutq sharoitiga mos ravishda qo'llanilishi. Leksema so'z sifatida voqelanganda, o'zining bir qirrasinigina olib chiqadi. So'zlovchi leksemani so'z sifatida nutqqa chiqarganda, unga morfologik, sintaktik, uslubiy jihatdan ishlov beradi. So'z so'zlovchi tomonidan leksema asosida uning nutq maqsadiga mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, *Men qiziq, sarguzasht kitoblarni sevaman* gapidagi *kitoblarni* so'zini olaylik. Undagi nutqiy lug'aviy ma'no uchun [*kitob*] leksemasi asos bo'lgan. Biroq leksemaning fonetik qiyofasi (ya'ni tovushlar), morfologik belgilari (ko'plik, tushum kelishigi), sintaktik vazifasi (so'z kengaytiruvchisi, tobe a'zo, to'ldiruvchi ekanligi) kabilar so'zlovchining individual sa'y-harakati asosida yuzaga keltirildi. [*kitob*] leksemasi ongimizda «varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi, davriy bo'lmagan o'quv quroli» va «yirik hajmli asarning qismi» kabi ikkita sememasi bilan tayyor va barqaror holatda turadi. Yuqoridagi gapda (nutqda) uning bir sememasi yuzaga chiqqan. Ushbu leksemaning ongimizda birikuv imkoniyatlari juda kengdir. Bu gapda u *qiziq, sarguzasht* so'zlarinigina biriktirgan. Boshqa valentlik o'rinlari bo'sh qolgan. Shuningdek, sememadagi «bosma» semasigina yuzaga chiqqan bo'lib, «qo'lyozma holdagi» semasi voqelanmagan. Leksemaning semantik imkoniyatida kitobning qandayligi, masalan, badiiyligi yoki ilmiyligi belgilanmaydi. Lekin u badiiy yoki ilmiy bo'lishi mumkin. So'zlovchi esa yuqoridagi so'zda uning badiiyligini bo'rttirgan. Demak, leksema keng ma'noli bo'lib, so'zlovchi so'zda uning

ma'lum bir qirrasinigina yuzaga chiqaradi. Lekin so'z so'zlovchi tomonidan boshqa jihatdan boyitiladi. Ya'ni aytilganidek, u fonetik, morfemik, sintaktik, uslubiy tomondan «to'yintiriladi».

Leksema so'zshakl, yasama so'z sifatida nutqda yuzaga chiqadi. Leksemani grammatik shakllantirish uni so'zshakl qiyofasiga kiritish (*so'z* va *so'zshakl* sinonim atama, chunki nutqda grammatik shakllanmagan, so'zshaklga aylanmagan so'z yo'q) va undan nutqiy maqsad uchun ma'lum qoliplar asosida yasama **so'zlar hosil qilish so'zlovchining «so'z tayyorlashi»dir.**

Ma'lumki, yasama so'zning ayrimlari nutq jarayonida yasaladi, ayrimlari esa bir vaqtlar yasalgan, bugungi kunda hammamiz uchun tayyor holga kelib, tub leksema qatoriga chiqib olgan. Quyidagi uchta birlikni qiyoslang:

– *kitob*
– *kitobxon*
– *kitobchi*

Bu birlikdan ikkitasi [*kitob*] va [*kitobxon*] ongimizda tayyor. [*Kitobxon*] leksemasi aslida yasama, ammo bugungi kunda u ongimizda leksema holida mavjud. Ammo (*kitobchi*) so'zi qandaydir g'ayrioddiylikka ega. Chunki u nutqiy yasama so'z bo'lib, leksema sirasiga o'tmagan. (*Kitobchi*) so'zi ham, [*ishchi*] (worker, rabochiy) so'zi ham aslida **[ot+ chi = ot anglatmishi bilan shug'ullanuvchi shaxs oti]** qolipi hosilasi. Ammo [*ishchi*] leksemasi bu qolipdan uzoqlashib, undagi o'zak va qo'shimcha qotgan holga kelgan, ya'ni bu leksema hozir yuz berayotgan nutqiy jarayonda yasalmagan. (*Kitobchi*) so'zi esa mazkur qolip asosidagi, undan nutq jarayonida hosil bo'lgan nutqiy hosila. Demak, ayrim yasama so'z qolipdan chiqib, davr o'tishi bilan leksemalashib, tayyor holga kelib qoladi.

Leksemaning ongda paradigmatik va sintagmatik munosabat asosida yashashi. Leksema til jamiyati a'zolari ongida boshqa leksema bilan o'xshashlik qatori (paradigmalar) hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Masalan, [*o'g'il*] leksemasi bir tomondan [*ota*], [*ona*] leksemalari bilan, ikkinchi tomondan [*qiz*] leksemasi bilan paradigma hosil qilib yashaydi. Paradigmadagi bir a'zoning mohiyati unga paradigmadosh boshqa a'zoning mohiyatiga qiyosan olinadi, unga munosabatda bo'ladi. Masalan, [*aka*] leksemasi [*uka*], [*singil*], [*opa*] leksemalari bilan paradigma hosil qilar ekan, bunda ularning umumiy belgisi bu leksemalarni bir paradigmaga solsa, farqli belgilari mustaqilliklarini ta'minlaydi. Lisoniy birliklar orasidagi bunday bir-biriga ishora qilib, eslatib turuvchi belgilar,

munosabatlar assotsiativ munosabat ham deyiladi. [*aka*] leksemasining mohiyati [*uka*] leksemasining mohiyatiga qiyosan belgilanadi. Qiyos esa eslatish, eslash, yonma-yon qo'yish munosabatidir.

Leksemalar mohiyatida sintagmatik munosabat ham mujassam. Masalan, [*daftar*] leksemasi nutqda [*yirtmoq*], [*yozmoq*] leksemalari bilan bir tomondan, morfologik shakl va so'z yasovchi qo'shimcha bilan ikkinchi tomondan birikuv hosil qiladi. Bu voqelanish leksemada imkoniyat sifatida mavjud. Aytilgan birlik bilan yuz bergan aloqa leksema mohiyatida imkoniyat sifatida yashirin.

So'zlovchi nutq jarayonida zarur bo'lgan birlikni o'xshash va farqli belgilari asosida paradigmadan tanlab, sintagmatik imkoniyati doirasida nutqda turli-tuman kombinatsiya hosil qiladi. Nutqda leksemaning mohiyati hech qachon to'la-to'kis voqelanmaganligi kabi sintagmatik imkoniyatning ham faqat zaruri voqelikka aylanadi. Zero, dialektika uqtirganidek, mohiyat bir hodisada bus-butun yuzaga chiqmaydi, imkoniyat to'la voqelanmaydi. Nutqiy voqelanish uning bir zarrasi, xolos.

Leksema so'zdan boyroq va kengroq. Biroq so'z nutqda turli «begona» — bevosita leksemaga aloqador bo'lgan lisoniy va aloqador bo'lmagan kontekstual hodisalar bilan «boyitilgan», nutqda voqelanish uchun shakllantirilgan bo'ladi. Leksemaning «boy»ligi «o'ziniki»dir. So'z esa, aytilganidek, o'z asosidagi leksemaga tegishli bo'lmagan boshqa nolug'aviy omillar — fonetik, morfologik, sintaktik uslubiy mohiyatlar hamda nolisoniy hodisa zarralarini biriktirib, o'ziga tegishli bo'lmagan hodisalar hisobiga «boyiydi».

Aytilganlar asosida leksema va so'zga shunday ta'rif berish mumkin. *Leksema — ma'lum bir til jamiyati a'zolari ongida tayyor, umumiy va majburiy, shakl va ma'no birligidan iborat, yaxlitlangan, borliqdagi harakat, narsa-predmet, belgi, miqdor kabilarni bildiruvchi tushunchalar va munosabatlarni ifodalaydigan, nutqda so'zlarni va grammatik morfemalarni biriktiradigan lisoniy birlik. Leksema va so'z yasash qoliplarining nutqda reallashgan aniq shakl va ma'noga ega bo'lgan muayyan ko'rinishi — so'z.*

Bir sememali va ko'p sememali leksemalar

Formal tilshunoslik bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zni farqlaganligi kabi nazariy leksikologiyada bir sememali va ko'p sememali leksema farqlanadi. Nazariy leksikologiya nuqtayi

nazaridan nutqda qo'llangan so'z har doim bir ma'noli. Chunki so'z leksemaning bir martalik ko'rinishi bo'lib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega.

Leksema bir tushunchani ifodalasa, u bir sememali leksema deyiladi. Masalan, [*qalam*] leksemasi bir tushunchani ifodalaydi va shu sababli bir sememali leksema hisoblanadi. Ammo nutqda leksema ko'chma qo'llanishda har xil tushunchalarni ifodalayverishi mumkin. Lekin ma'no va tushuncha orasidagi munosabat ijtimoiy shartlanganlik va barqarorlik kasb etmasa, leksemaning ko'p sememaliligi haqida hukm chiqarib bo'lmaydi. Masalan, *Qashqirlar tog'-toshlar aro izg'ishardi* gapidagi (*qashqir*) so'zi jangari to'dani tashkil etgan kishilarni ifodalamoqda. Ushbu qo'llanishda (*qashqir*) so'zi «tog'da yashovchi o'ta yirtqich bo'ri» ma'nosini emas, balki «tog'da uya qurgan yirtqich kishilar» ma'nosini ifodalamoqda va leksema ongimizda ushbu ma'no bilan emas, balki oldingisi bilan yashaydi. Demak, bu ma'no nutqiy bo'lib, tushuncha bilan vaqtinchalik bog'lanishga ega.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan nutqiy hosila ma'no vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, bora-bora barqarorlashib boradi va hosila nutqiy ma'no lisoniylashadi. Natijada bir sememali leksema birdan ortiq sememali leksemalarga aylanib boradi.

Leksema ko'p sememali bo'lsa, har bir sememada boshqa-boshqa tushuncha aks etgan, sememalarda farqli semalar mavjud, har bir sememaning nutqiy voqelanishidagi qurshovi o'ziga xos, har bir sememasi asosida bog'lanuvchi birliklar paradigmasi turlicha bo'ladi. Quyida bir leksemaning lisoniy mohiyati — sememalari tiklanishiga diqqat qilamiz.

[*qoyil*] leksemasi ikki xil qurshovda kelish imkoniyatiga ega. Birinchi qurshovda leksema atributiv vazifada keladi va narsa-predmet shaxs kabilarni ifodalovchi otlar bilan birikib, [sifat+ot] qurshovi hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. 1. ***Qoyil ish. Qoyil odam.*** 2. *Belim qisib qovurg'amni shishirdim. Do'stim sening zo'rligingga* ***qoyilman***. Shuningdek, leksema, ushbu ma'nosi bilan [*qolmoq*], [*bo'lmoq*] fe'llari bilan qo'shma fe'llar hosil qiladi. 1. *Zag'chako'z bir misol bilan hammani* ***qoyil qilmoqchi*** *bo'ldi.* 2. *Xolam ruschani ham* ***qoyil qiladilar***. 3. *Qovun so'yildi. Smirnov xuddi asalning rangiga va ta'miga o'xshash bir karchni og'ziga soldi-yu, mazasiga* ***qoyil bo'ldi***.(O'TIL).

Mustaqil qo'llanishdagi nutqiy ma'noda [*qoyil*] leksemasining «narsa-predmet yoki shaxsga oid», «belgi», «tasanno aytishga

loyiq», «ijobiy», «so'zlashuvga xos», «umumiy xususiyat», «shaxsiy baho», «me'yordan ortiq» semalari voqelanishini kuzatish mumkin. Semalar qatorida «belgi», «tasanno aytishga loyiq», «shaxsiy baho» semalari uyushtiruvchi mavqeda bo'lib, leksemaning asl mohiyati shularda parchalangan.

Leksema o'z semantik tabiatiga ko'ra [*ajoyib*], [*zo'r*] leksemalari bilan paradigmatik munosabatda bo'ladi. Bu leksemalar ham narsa-predmet yoki shaxsning biror me'yordan ortiq belgi-xususiyatga bo'lgan shaxsiy munosabatini ifodalaydi. Biroq ular shaxsiy munosabatning belgiga ko'ra darajalanishini namoyon qiladi. «Biror xususiyatning me'yordan ortiqligi» belgisining oshib borishi» darajalanish qatori

[*zo'r*] — [*ajoyib*] — [*qoyil*]

tarzida bo'ladi.

Demak, har uchala leksema ham ijobiy, umumiy belgini ifodalasa-da, ular o'rtasidagi darajali ziddiyat birliklarning tildagi o'ziga xos mavqeini saqlab turadi.

Leksema asosida hosil bo'lgan qo'shma fe'llarda ham leksemaning asosiy semalari o'z mavqeida qoladi, yordamchi fe'l uni harakat/holatga aylantiradi va hosila shaxsning ichki holatini ifodalaydi. Demak, [*qoyil*] leksemasi asosida hosil bo'lgan nutqiy hosilada [*qoyil*] va [*qilmoq*] leksemalari semalari qorishgan holda tajallilanadi. Hosila holat/belgi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

[*qoyil*] leksemasi ikkinchi sememasi bilan so'z-gap vazifasida keladi. 1. *Qoyil! Men buni hech kimdan kutmagan edim.* 2. *Qoyil! — Komil o'tirgan yerida chapak chalib ketdi.* Bu nutqiy ma'nolarda leksemaning vazifa semasi bo'rtadi va leksema mohiyatidagi ma'noviy «mag'iz»ni o'z vazifasiga moslab voqelantiradi. Shu boisdan sememadagi «so'z-gap» vazifa semasi alohida ajralib turadi. Nutqiy ma'noda oldingi semema voqelanishidan farqli o'laroq, «shaxsiy baho» semasi kuchayib, «shaxsiy munosabat» darajasiga yetadi. Shu asosda leksema sememasining bu turini «kuchli ijobiylik», «munosabat» va «so'z-gap» semalari qurshovi tarzida qabul qilamiz. Demak, leksemaning ikkala semasi o'zaro «shaxsiy baho» va «shaxsiy munosabat» semalari asosida darajali ziddiyatda tursa, vazifa semalarining o'ziga xosligi asosida ekvipolent ziddiyat hosil qiladi.

[*qoyil*] leksemasi ikkinchi semasi bilan [*tasanno*], [*ofarin*] leksemalari bilan paradigmatik munosabatda bo'ladi. Leksema bir tomondan o'z semantik ko'lami bilan ushbu leksemadan farqlansa, ikkinchi tomondan, uslubiy xoslanganligi va bo'yoqdorligi bilan

ham ajralib turadi. [*qoyil*] leksemasida uslubiy belgi «so'zlashuvga xoslik» tarzida bo'lsa, [*tasanno*], [*ofarin*] leksemalari badiiy bo'yoqdorligi va kitobiyligi bilan xarakterlanadi.

Leksemalar orasidagi yana bir muhim farq ularning semantik imkoniyati va, shu asosda, vazifa semalarida. [*qoyil*] leksemasi fe'llar bilan erkin birikuv hosil qila olmaydi. Uning fe'llar bilan bog'lanishi derivatsiya darajasida. [*qilmoq*], [*bo'lmoq*], [*qolmoq*] fe'llari bilan birikib, yuqorida aytilgandek, qo'shma fe'l hosil qiladi, xolos. [*tasanno*], [*ofarin*] leksemalari esa nutq fe'lining ba'zilari bilan erkin birikib, to'ldiruvchi vazifasida kelish imkoniyatiga ega (*tasanno aytmoq, ofarin aytmoq*). Bu esa, [*tasanno*], [*ofarin*], [*qoyil*] so'zlarining lug'aviy-grammatik xususiyati bilan belgilanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, [*qoyil*] leksemasi ikki sememali leksema bo'lib, uni jadvalda quyidagicha berish mumkin (17-jadval).

17-jadval

№	Semema	Semalar	Voqelanish qolipi	Paradigmasi
S_1	Predmet yoki shaxsning umumiy ijobiy, ofarin aytishga loyiq me'yordan ortiqlik xususiyatini ifoda etuvchi sifat	«belgi», «narsa/predmet/ shaxsga xos» «ofarin aytishga loyiq», «ijobiy» «so'zlashuvga xos» «me'yordan ortiqlik» «umumiy xususiyat» «so'z-gap»	[sifat+ot]	[*ajoyib*] [*zo'r*]
S_2	Kuchli ijobiy munosabatni ifodalovchi so'z-gap	«so'z-gap», «kuchli ijobiylik», «munosabat»	[so'z-gap]	[*ofarin*] [*tasanno*]

Har qanday leksema, xoh u bir sememali, xoh ko'p sememali bo'lsin, nutqda ko'p ma'noli bo'ladi. So'z esa hamisha bir ma'noli.

Yasama so'zning leksemalashuvi

Yasama so'zlar lisoniy ham, sof nutqiy ham bo'lishi mumkin. Misol sifatida quyidagi so'zlarga murojaat qilamiz. *Paxtakor, ishchi,*

kitobchi, aqlli, daftarchi, sharsimon, uysimon. Bu so'zlarni ikki guruhga bo'lamiz:

1) [*paxtakor*], [*ishchi*], [*aqlli*], [*sharsimon*];
2) (*kitobchi*), (*daftarchi*), (*uysimon*).

Har ikkala guruh so'zi ham yasama so'z hisoblanadi. Biroq birinchisi qulayligi, odatlanilganligi, keng iste'molliligi bilan xarakterlansa, ikkinchi guruh unchalik qulay emasligi, kam iste'molliligi, favquloddaligi bilan ajralib turadi.

Demak, birinchi guruh ijtimoiy shartlanganlik xossasiga ega va shu boisdan yuqoridagi zikr etilgan belgilar ularning barchasi uchun umumiy. Ikkinchi guruh esa nutqiy hodisa ekanligi, endigina so'z yasash qolipidan chiqqanligi bois, odatlanilmaganlik, favquloddalik kasb etgan.

Ko'rinadiki, nutqiy yasama so'zning ayrimi nutq bosqichidagina mavjud bo'lsa, ba'zilari o'zini chiqargan qolipdan uzoqlashib, bir butun holda lisoniy sathga «ko'tarilib ketadi».

Hosilasining lison va nutqqa munosabati jihatidan so'z yasash qolipi ham farqlanadi. Ularni unumsiz (tarixiy) va unumli (zamonaviy) so'z yasash qolipi sifatida farqlash lozim.

Nutqiy yasama so'zning lisoniy sathga ko'tarilishi bir necha bosqichda kechadi. Uni nutqdan lisonga siljishi, lisoniylashishi darajasiga ko'ra quyidagicha tartiblash mumkin:

1) ixtisoslashgan leksema;
2) soddalashgan leksema;
3) tublashgan leksema.

Ixtisoslashgan leksema nutqiy yasama so'z lisoniylashuvining eng quyi darajasi. Ixtisoslashgan leksema yasamaligini yo'qotmagan, ya'ni o'zida qolipning shakliy tomoni izini saqlagan, biroq ma'noviy tomondan qolipdan uzilgan, ma'nosini qolipning o'ng (mazmuniy) tomonidan keltirib chiqarish imkoni bo'lmagan, toraygan ma'noli leksema. Masalan, [*ishchi*] (worker, rabochiy) leksemasi «zavod yoki fabrikada ishlovchi, o'rta ma'lumotli mutaxassis» ma'nosiga ega bo'lib, u **[ot]+[chi]+otdan anglashilgan narsa ustida ishlovchi kishi]** qolipi hosilasi. Qolip hosilasi sifatida u qolipning chap tomoni xususiyatini o'zida mujassamlashtirgan: Chunki [*ishchi*] leksemasining shakliy tomoni, ya'ni nomemasida qolipning **[ot+chi]** umumiyligi zarrasi, ko'rinishi voqelangan. Leksema sememasi esa «shu otdan anglashilgan narsa bilan shug'ullanuvchi shaxs» mohiyati ko'rinishiga emas, balki uning toraygan, ma'lum bir ixtisosni anglatuvchi ko'rinishi holatiga ega bo'lib qolgan. [*Ishchi*] leksemasiga qiyosan olinadigan, deylik,

(*kitobchi*) so'zida so'z yasash qolipining shakliy tomonidan ham, ma'noviy tomonidan ham uzilish kuzatilmaydi. Yoki [*yozuvchi*] leksemasi va (*yozuvchi*) so'zini qiyoslaylik. Har ikkala hosila ham **[[fe'l]+[uvchi]+shu fe'ldan anglashuvchi harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs]** qolipi mahsuli. Uni gap tarkibida kuzatamiz: 1.***Yozuvchi*** *hayotni teranroq kuzatadi.* 2.*Insho* ***yozuvchi*** *ijodkorligini namoyon qilishi kerak.*

Birinchi gapda [*yozuvchi*] leksemasi kasbni anglatib, ixtisoslashgan ma'noga ega. Ikkinchi gapda esa leksema muayyan yozish harakatini bajaruvchi shaxsni ifodalagan. «Adib» ma'nosidagi [*yozuvchi*] leksemasi shaklan emas, balki ma'noviy jihatdan qolipdan uzilgan, ixtisoslashgan ma'noli leksema. Ikkinchi hosila esa ham shaklan, ham mazmunan qolipga muvofiq kelganligi bois, nutqiy yasama. Leksema hosil bo'lishining bu usuldagi boshqa ko'rinishi sifatida so'zning atamaviy ma'no kasb etishi (*qo'shish, ayirish, bo'lish* so'zlar)ni ko'rsatish mumkin.

Soddalashgan leksema yasama so'zlar lisoniylashuvining yanada yuqoriroq bosqichi. Soddalashish bu ma'lum bir so'z yasash qolipining hosilasida o'zak va qo'shimchaning o'zaro birikib ajralmas holga kelishi, so'zshakldagi grammatik vositaning qotib qolishi natijasida yangi ma'no ifodalashidir. O'zbek tilidagi [*oldin*], [*keyin*], [*tashqari*], [*ichkari*], [*yuqori*] kabi yuzlab so'z soddalashgan yasama so'z – leksema. So'z birikmalarining sintaktik qolipdan uzilish holati sifatida (**boshning og'rigi** – [*boshog'riq*], **belning bog'i** – [*belbog'*]) misollarini ko'rsatish mumkin.

Tublashgan leksema shunday leksemalashgan yasama so'zki, ularning yasalishini, tarkibini etimologik ma'lumotsiz aniqlab bo'lmaydi. Masalan, [*sin*] fe'lining o'zagi [*si*], [*tingla*] fe'lining o'zagi [*ding*], [*to'q*] so'zi o'zagining [*to'*] ekanligini til tarixi bo'yicha chuqur ma'lumotga ega bo'lmasdan bilib bo'lmaydi.

Demak, ma'lum bo'ladiki, tilda leksema yasash hodisasi yo'q. Balki yasama so'zning, nutqiy hosilaning lisoniylashuvi, leksemalashuvi mavjud.

Semema va uning tarkibiy qismlari

Narsa shakl va mazmun yaxlitligidan iborat dialektik butunlik bo'lganligi kabi leksema ham tashqi va ichki jihatdan tashkil topadi. Leksemaning tashqi qobig'i *nomema* deb ataladi. *Nomema* deganda leksemaning moddiy tomonini tashkil etgan fonemalar hosilasi – nutq tovushlari nazarda tutiladi. Masalan, [*kitob*]

leksemasining tashqi tomoni k+i+t+o+b tovushlar yig'indisi. Shu o'rinda bir narsaga alohida e'tibor qilish lozim. Ma'lumki, lisoniy birlik moddiylikdan xoli deya talqin qilinadi. Shunga ko'ra, leksema ham, boshqa lisoniy birlik kabi moddiylikka ega bo'lmasligi lozim. Demak, moddiylik so'zi bu o'rinda bevosita sezgi a'zosiga ta'sir qiladigan deya jo'nlashtirilmasligi lozim. Yoki shakl deganda moddiy ko'rinishga egalikkina tushunilmaydi. Biror narsa haqida o'ylar ekanmiz, ongimizda uning tashqi qiyofasini tasavvur qilgan holda boshqalaridan ajratamiz. Narsaning ongdagi qiyofasi ham shakl deyiladi. Nomema kishi biror leksema haqida o'ylaganda, ichki nutqda yaqqol ma'lum bo'ladi. Voqelangan tashqi nutqda bu shakl haqiqiy, real moddiy qiyofa kasb etadi. Demak, ongdagi leksemaning shakliy tomoni sezgi a'zolaridan tashqarida, unga ta'sir qilmaydigan holatda bo'lsa, leksema nutqiy voqelanganda so'zga aylanadi, moddiy bo'lmagan shakl, ya'ni nomema moddiylik kasb etadi, sezgi a'zosi bilan his qilinadigan bo'ladi.

Leksemaning ichki, mazmuniy tomoni *semema* deyiladi. Semema ongda aks etgan narsa, belgi, miqdor, harakat kabi tushunchaning leksemada mujassamlashgan ko'rinishi. Boshqacha aytganda, semema leksemaning ichki jihati.

Birorta leksemaning sememasi ikkinchi leksemaning sememasiga aynan o'xshash bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bir xil sememaga ega ikkita leksema yo'q. Bunga ikkita sinonim leksemaning sememasini qiyoslash asosida amin bo'lishimiz mumkin:

[*Yuz*] – inson boshi old tomonining peshanadan iyakkacha bo'lgan qismining uslubiy betaraf ifodasi.

[*Bet*] – inson boshi old tomonining peshanadan iyakkacha bo'lgan qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi.

Ko'rinadiki, birinchi sememadagi «uslubiy betaraf» unsuri ikkinchi sememada, ikkinchi sememadagi «so'zlashuv uslubiga xos» unsuri birinchi sememada yo'q.

Agar semema aynan bo'lib qolsa, demak, bu ular tavsifida noqislik mavjud deyishga asos bo'ladi. Semema mukammal tavsiflanganda, bu tavsifdanoq ushbu tilni eng nozik jihatlarigacha puxta bilgan kishi so'z qaysi leksema haqida ketayotganligini ravshan anglaydi.

Har qanday butunlik bo'lakdan tashkil topganligi kabi, semema ham tarkibiy qismdan iborat bo'ladi. Masalan, leksema butunlik sifatida nomema va sememadan tashkil topadi.

Nomema butunligini tovush hosil qiladi. Tilshunoslikda sememani tashkil etuvchi unsur sifatida sema ajratiladi. Masalan, [*kitob*] leksemasi ikki sememali bo'lib, uning bir sememasi «varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi davriy bo'lmagan o'quv vositasi» bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1) «varaqlardan tashkil topgan»;
2) «o'quv vositasi»;
3) «davriy bo'lmagan»;
4) «bosma yoki qo'lyozma holdagi»;
5) «muqovalangan».

Sememada bir sema almashtirilishi bilan u butunlay boshqa sememaga aylanib ketishi mumkin. Masalan, yuqoridagi «davriy bo'lmagan» semasini «davriy bo'lgan» semasiga almashtirsak, u o'z-o'zidan [*jurnal*] leksemasining sememasi bo'lib qoladi.

Leksemaning semamasini aniqlashda u paradigmadoshi bilan munosabatda tekshiriladi. Deylik, [*yuz*] leksemasi sememasi ochilayotganda, u [*bet*], [*aft*], [*chehra*], [*oraz*], [*turq*], [*bashara*] va hokazo leksema qurshovida o'rganiladi. [*Kelmoq*] leksemasi sememasini [*bormoq*], [*ketmoq*] va boshqa leksema sememalarisiz aniqlab bo'lmaydi.

Lisoniy mohiyat sifatida sememaning mantiqiy kategoriya sifatida tushunchaga munosabati masalasi murakkab. Bunda, birinchidan, semema birlamchimi yoki tushuncha, ikkinchidan, semema tushunchada qay tarzda aks etadi degan munozarada ko'zga tashlanadi. Tilshunoslikda sememaga munosabatda ikki yo'nalishni farqlash lozim bo'ladi:

a) ichdan yondashuv (ya'ni, sememadan leksemaga);
b) sirtdan yondashuv (ya'ni, leksemadan sememaga).

O'zbek tilshunosligida semema va tushuncha munosabati turlicha talqin qilinadi. Masalan, ayrim mutaxassislar semema, ko'pincha, ongimizdagi ma'lum bir tushuncha bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblaydi. Tushuncha ong, mantiq birligi, semema esa, tilga, leksemaga xos birlik. Ko'p holda bir semema bir necha tushunchani o'z ichiga oladi. Jumladan, [*o'rik*] leksemasining sememasi quyidagi tushunchalarda namoyon bo'ladi:

a) ho'l mevaning bir turi;
b) shu mevaning quritilgani;
d) shu mevani beradigan daraxt.

Shunga ko'ra, tushuncha va semema o'zaro hamma vaqt ham mos kelavermaydi. Bu hodisa, ayniqsa, ma'nodosh leksemalarda

yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'rinadiki, lingvistik belgilardagi asimmetriya hodisasi semema va tushuncha munosabatida ham ko'rinadi. Buni chizmada quyidagicha berish mumkin (18-jadval):

18-jadval

SEMEMA	Tushuncha
	Tushuncha
	Tushuncha
TUSHUNCHA	Semema
	Semema
	Semema

Bunda ayrim e'tirozli jihatlar mavjud.

Birinchidan, semema ko'pincha emas, balki har doim ham ongdagi tushuncha bilan bog'langan. Semema tushunchaning ifodasidir. Olimlar tavsifda *ko'pincha* so'zini qo'llashda sememaning har doim ham ma'lum bir tushuncha bilan bog'lanavermasligini nazarda tutadi. Ularning bu fikri quyidagicha ifodalanadi: «Shuni ham aytish kerakki, yordamchi leksema sememalarida tushuncha bilan bog'lanish yo'q. Chunki, yordamchi leksema, aytilganidek, qo'shimcha va leksema ziddiyatida oraliq uchinchi vazifasini o'taydi. Ular shaklan leksema, mazmuni (vazifasi), sememasiga ko'ra esa qo'shimcha» (H.Ne'matov, R.Rasulov. O'zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari. 57-bet).

Demak, mualliflar leksema va semema munosabatining dialektikligini «bo'rttirgan»lari bois, barcha leksemada sememani ko'radilar. Shuning uchun leksema «**jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira oladigan morfema turi**» tarzida ta'riflanadi. Biroq yuqoridagi tavsifda «yordamchi leksema, aytilganidek, qo'shimcha va leksema ziddiyatida «oraliq uchinchi vazifasini o'taydi» deyilishining o'ziyoq ularni mustaqil leksemaga zid qo'yishga intilish borligi seziladi. Zero nomustaqil leksema shaklan mustaqil leksemaga uyg'un. Ular mazmun mundarijasi asosida grammatik qo'shimcha bilan bir qatorda turadi. Shu boisdan yordamchi leksemalar mazmun mundarijasini semema emas, balki grammatik ma'no deyish maqsadga muvofiq. Mustaqil leksema, yordamchi leksema va grammatik qo'shimcha munosabatini chizmada quyidagicha berish mumkin (19-jadval):

19-jadval

Mustaqil leksema	Nomustaqil leksema	Grammatik qo'shimcha	
semema	nomema	grammatik ma'no	Grammema

Tilshunos Sh.Rahmatullayev sememaga ega birliknigina leksema sifatida baholaydi: «Biz analiz yo'liga, ya'ni nutqdan tilga borish yo'liga o'rganib ketganmiz. Albatta, konkret birlikdan (so'zformadan) abstrakt birliklarga (so'zformani tarkib toptiruvchi birliklarga) borish oson ko'chadi. Shu yo'l bilan borib, so'zforma tarkibida leksik ma'no anglatuvchi qismni ajratamiz va uni leksema deb nomlaymiz. Asli leksik ma'no anglatuvchi til birligiga *leksema* deyiladi».

Demak, olim leksema talqiniga ichdan (ma'nodan) kelib chiqqan holda munosabatda bo'lganligi tufayli nomustaqil birlikni leksema sifatida qarashni ma'qul ko'rmaydi.

Bunda shakl emas, balki ma'no (semema) yetakchilik qiladi. Ko'rinadiki, mustaqil va nomustaqil birliklarga bir xil o'lchov (mezon) bilan munosabatda bo'lish ular tabiatini xiralashtiradi. Chunki yordamchi leksema ma'nosi bilan qo'shimchaga yaqinlashsa, nomemaga egaligi asosida leksema bilan uyg'unlashadi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ma'lum bir hodisa, masalan, leksema ta'riflanar ekan, ta'rif ta'riflanayotgan hodisani to'liq qamrab olmasligini e'tiborga olish lozim.

Dialektikada ham hodisalarga berilgan har qanday ta'rif mutlaq bo'lmasligi, unda, baribir, ayrim hodisa «ta'rifga sig'may qolishi» ta'kidlanadi. Demak, leksema «o'zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma'no birligidan iborat mustaqil anglanish va qo'llanish tabiatiga ega bo'lgan lisoniy birlik» deb ta'riflanar ekan, bu ta'rifning barcha leksema uchun birday amal qilmasligini ta'kidlash lozim. Chunki denotativ xususiyatga ega bo'lmagan yordamchi leksema ta'rifdan chetda qoladi. Tushunchaga asoslanmagan leksemaning mazmun tomoni grammatik ma'no bo'lsa, denotativ tabiatli leksemalarning mazmun tomoni semema.

Bir necha tushunchani o'zida mujassamlashtirgan leksemaning mazmun mundarijasi murakkab tabiatliligi bilan xarakterlanadi.

Har qanday lisoniy birlik serqirra mohiyatli bo'lib, bu uning kamida ikki paradigmaga kirishini ta'minlaydi. Leksema birdan ortiq tushunchani qamrab olgan ekan, bunda uning serqirraligi

yanada «kuchayadi». Masalan, [*uzum*], [*o'rik*] leksemasi o'zida bir necha tushunchani saqlar ekan, bu bilan u kamida ikki lug'aviy paradigmaga kiradi (20-jadval):

20-jadval

[*uzum*]	[*uzum*]
	[*tok*]
[*o'rik*]	[*zardolu*]
	[*o'rik*]

Birinchi paradigmada [*uzum*] leksemasi bir denotati asosida meva va boshqa bir denotati asosida esa daraxt nomini ifodalovchi ot-leksema bilan uyadoshlik qatori hosil qilsa, ikkinchi paradigmada [*o'rik*] leksemasi bir ma'nosi bilan [*zardoli*], ikkinchi ma'nosi asosida [*turshak*] leksemasi bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi.

Leksema tarkibida birdan ortiq tushuncha mujassamlashganda leksema turli sintagmatik qurshovga kiradi. Masalan, yuqorida tilga olingan olma leksemasida ikkita («meva», «daraxt») tushuncha mavjud bo'lib, u har bir ifodalagan tushunchasi asosida ham boshqa-boshqa, ham umumiy qurshovga ega bo'lishi mumkin.

Olmani kesdik sintaktik qurshovida [*olma*] qaysi tushuncha, denotatni anglatayotganligi muayyanlashmaydi. Biroq, *olmani ekdik, olmani yedik* sintagmatik qurshovida atalayotgan denotat farqlanayotganligi sezilib turadi (birinchi qurshovda «daraxt», ikkinchisida «ho'l meva»). Ko'rinadiki, leksema birdan ortiq tushunchani ifodalaganda har bir tushunchaga mos sintagmatik qurshov mavjudligi ham anglashiladi.

Bular esa, semema leksema lisoniy mohiyatining alohida sinonimik va sintagmatik qurshovga ega bo'lgan turidir, degan xulosaga olib keladi.

Demak, leksema birdan ortiq tushunchani ifodalaganda har bir tushuncha uchun alohida-alohida semema to'g'ri keladi.

Sema turlari. Semema tarkibidagi sema bir xil emas. Sema mohiyatiga ko'ra uch xil bo'ladi:

1) atash semasi (denotativ sema);
2) ifoda semasi (konnotativ sema);
3) vazifa semasi (funksional sema).

Atash semasi borliq bilan, ifoda semasi so'zlovchining munosabati bilan, vazifa semasi esa leksemaning lison va nutqdagi roli bilan belgilanadi.

Atash semasi leksemaning borliqdagi harakat-holatlik, narsa-predmetlik, miqdorlik, belgilik xususiyatini atovchi, nomlovchi

semadir. Ular borliq, tushuncha va sememani bir-biriga bog'lab turadi. Masalan, yuqorida keltirilgan [*kitob*] leksemasining barcha semasi – atash semasi.

Bir xil yoki o'xshash tushunchani ifodalaganligi sababli leksemada ko'p holda atash semasi bir xil bo'ladi. Masalan, [*yaxshi*], [*tuzuk*], [*durust*], [*ajoyib*] yoki [*yuz*], [*chehra*], [*oraz*], [*turq*], [*aft*], [*bet*] ma'nodoshlik qatoridagi barcha leksemalarning atash semasi bir xil. [*Yaxshi*], [*tuzuk*], [*durust*], [*ajoyib*] leksemalarining atash semalari quyidagilar: 1) «belgi»; 2) «barqaror belgi»; 3) «sifat belgi»; 4) «shaxsiy baho»; 5) «ijobiy»; 6) «ichki-tashqi». Shu bilan birgalikda, bu leksemalarda farqlanuvchi atash semalari ham mavjud bo'lib, ular [*tuzuk*] leksemasida «me'yordan bir pog'ona pastlik», [yaxshi] leksemasida «me'yordalik», [*ajoyib*] leksemasida «me'yordan bir pog'ona yuqorilik» semalaridir. [*Yuz*], [*chehra*], [*oraz*], [*turq*], [*aft*], [*bet*] leksemalarida esa: 1) «inson boshi old tomoniga xos»; 2) «peshonadan iyakkacha bo'lgan qism» semasi atash semasi.

Aytilganidek, sememani semaga ajratishda, semaning tabiatini belgilashda leksema paradigmada o'z korrelyanti bilan tekshirilishi lozim. Aks holda leksemaning relevant (muhim) va irrelevant (muhim bo'lmagan) semasini farqlashning imkoni bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi [*brother*] leksemasining sememasi «qarindosh», «qon-qarindosh», «bevosita» atash semalariga ega. O'zbek tilidagi [*aka*] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda «mendan katta» relevant semasi ham bor. Chunki [*aka*] leksemasi shu semasi bilan [*uka*] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [*Brother*] leksemasiga shu sema bilan qarshilanuvchi birlik yo'q, shu boisdan unda noaniq tabiatli «mendan katta/mendan kichik» semasi mavjud bo'lib, u noaniq bo'lganligi sababli irrelevantdir. Rus tilidagi [*кобыла*] leksemasida «urg'ochi» semasi muhim bo'lib, u o'zbek tilidagi [*baytal*] leksemasining ham, [*biya*] leksemasining ham muqobili bo'la oladi. Biroq [*baytal*] va [*biya*] zidlanishida «urg'ochi» semasi emas, «qulunli» ([*biya*] leksemasida) va «qulunsiz» ([*baytal*] leksemasida) semasi relevant (muhim).

Ko'rinadiki, leksema sememasi tarkibida atash semalari eng muhim, belgilovchi hisoblanadi va borliq parchasiga muvofiq keladi.

Ifoda semasi deganda semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi sema tushuniladi. Atash semasi kabi ifoda semasi ham leksema sememani farqlash quvvatiga ega bo'lgan sema bo'lib,

ular ham leksik paradigmada aniqlanadi. Masalan, [*yuz*] va [*bet*] leksemasining ifoda semasi o'zaro qiyosda ochiladi:

— [*yuz*] — inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining uslubiy betaraf ifodasi.

— [*bet*] — inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi.

Bu sememalardagi «uslubiy betaraf» ([*yuz*] leksemasidagi) va «so'zlashuv uslubiga xos» ([*bet*] leksemasidagi) semalari uslubiy bo'yoqni ko'rsatuvchi ifoda semasidir.

[*Turq*] leksemasidagi «salbiy», [*jamol*] leksemasidagi «ijobiy» semasi shaxsiy munosabatni ko'rsatuvchi ifoda semasi bo'lsa, [*aeroplan*] leksemasidagi «arxaik», [*kompyuter*] leksemasidagi «neologizm», [*xarseb*] leksemasidagi «shevaga xos» semasi qo'llanish davri va doirasini ko'rsatuvchi ifoda semasi.

Ifoda semasi ham muhim yoki muhim bo'lmagan turga ajratiladi. Shu boisdan farqlovchi, muhim ifoda semalari *ingerent konnotativ sema* va muhim bo'lmagan ifoda semalari *adgerent konnotativ sema* deyiladi.

Vazifa semasi leksemaning birikuv-biriktiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipda qanday o'rinni egallashini bildiruvchi semadir. Masalan, [*kitob*], [*daftar*], [*maktab*], [*bormoq*] kabi leksemalarning valentlik imkoniyati o'ta keng va shu boisdan gapda turli gap bo'laklari vazifasida keladi. [*Qat'iy*], [*keskin*], [*moviy*], [*qizg'ish*] leksemalarining vazifa semasi tor va shu boisdan aniq. Ular ayrim so'zlar bilan birika oladi, xolos.

Semema semalari o'zaro dialektik munosabatda va teskari mutanosiblikka ega. Sememani uchburchakka qiyoslasak, har bir turga mansub sema uning bir burchagini tashkil qiladi. Uchburchakda bir burchakning kattalashishi boshqalarining kichrayishi hisobiga yuz berganligi kabi sememadagi bir semaning kuchayishi boshqa semaning kuchsizlanishi evaziga sodir bo'ladi. Masalan, mustaqil leksemada atash semasi kuchaysa, ifoda semasi kuchsizlashadi. Ifoda semasi kuchaysa, atash semasi kuchsizlanadi. Masalan, ko'chma ma'noli leksemada atash semasi kuchsizlanib, ifoda semasi kuchaygan. Leksema nutqda voqelanganda ham uning atash semasi o'z o'rnini ma'lum darajada ifoda semasi voqelanishiga bo'shatib beradi. Masalan, [*bo'ri*] leksemasi odamga nisbatan qo'llanganda undagi «hayvon», «itsimonlar oilasiga mansub», «yovvoyi» atash semalari kuchsizlanib, «yirtqich», «vahshiy», «qonxo'r» ifoda semalari kuchaygan holda yuzaga chiqadi.

Mustaqil leksema yordamchi so'z vazifasida qo'llanganda undagi atash va ifoda semasi kuchsizlanib, vazifa semasi esa kuchayib voqelanadi.

Semaning darajasiga ko'ra turi. Sema darajasiga ko'ra birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differensial) semaga ajratiladi. Birlashtiruvchi sema birdan ortiq leksemadagi o'xshash, bir xil semadir. Farqlovchi sema esa o'xshash, ma'noviy yaqin leksemalardagi farqlanuvchi semalardir. Masalan, [*ota*], [*ona*], [*aka*], [*opa*], [*uka*], [*singil*] leksemasidagi «qarindosh», «qon-qarindosh», «bevosita» semasi integral sema bo'lsa, «mendan katta» semasi [*ota*], [*ona*], [*aka*], [*opa*] leksemalarini o'zaro birlashtiruvchi, ammo [*uka*], [*singil*] leksemalaridan farqlovchi semalardir. «mendan kichik» semasi [*uka*] va [*singil*] leksemasini o'zaro birlashtiruvchi, biroq oldingi leksemadan farqlovchi sema. Ko'rinadiki, bir sema leksemani bir vaqtning o'zida nima bilandir birlashtiruvchi, nima bilandir farqlovchi qarama-qarshi tabiatli mohiyatga ega. Birlashtiruvchi sema sistema hosil qiluvchanlik, sistemaga asos bo'luvchi, farqlovchi sema esa sistemada tug'iluvchi, paydo bo'luvchanlik xossasiga ega.

Semema semasini tartiblashda qator umumiy, birlashtiruvchi semadan boshlanib, xususiy, farqlovchi semaga qarab boradi. Masalan, [*ota*] leksemasining sememasi tarkibi quyidagicha beriladi:

1) «shaxs»;
2) «qarindosh»;
3) «qon-qarindosh»;
4) «bevosita»;
5) «1-avlod»;
6) «men»dan katta»;
7) «erkak»;
8) «umumuslubiy».

Chunki predmet shaxs va shaxs emasga, shaxs qarindosh va qarindosh emasga, qarindosh qon-qarindosh va nikoh qarindoshga, qon-qarindosh bevosita yoki bilvositaga, bevosita 1-avlodga yoki 2-avlodga, 1-avlod mendan kattaga yoki mendan kichikka, mendan katta erkak yoki ayolga bo'linadi.

Leksemani semaga ajratish tilshunoslikda komponent yoki uzvli tahlil yoxud semik tahlil deb yuritiladi. Sememani semaga ajratish moddani atomga ajratishga, boshqacha aytganda, sema ximiyaviy elementga o'xshaydi. Borliqda ximiyaviy element turi sanoqli bo'lganligi va ularning har xil kombinatsiyasidan behad

ko‘p modda hosil qilinganligi kabi, cheklangan miqdordagi semaning turli xil kombinatsiyasidan ham ko‘plab semema vujudga keladi.

Semema va nutqiy ma’no

Sememaning nutqiy lug‘aviy ma’no sifatida voqelanishi. Semema va nutqiy ma’no munosabati, albatta, boshqa lisoniy birlikda bo‘lgani kabi, dialektikaning umumiylik-xususiylik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, sabab va oqibat, umuman olganda, zot va tajalli dialektikasini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, barcha lisoniy birlik va ularning nutqiy voqelanishida kuzatilgan tayyor – tayyor emas, ijtimoiy – individual, cheklangan – cheksiz, barqaror–beqaror, takror – betakror umumnisbatli belgisi semema va nutqiy ma’no munosabatida o‘ziga xos tarzda tajallilanadi.

Sememaning tayyor va nutqiy ma’noning tayyor emasligi. Sememaning asosiy xususiyati – uning til jamiyati a’zolari ongida tayyor holda ekanligi. Demak, semema ma’lum bir qonuniyat yoki qolipning mahsuli yoki hosilasi emas. Masalan, [*kitob*] leksemasiga xos «varaqlardan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo‘lyozma holdagi davriy bo‘lmagan o‘quv quroli», [*shod*] leksemasining «jonli predmet emotsional holatining ijobiy darajasini ifodalovchi baho sifati», [*o‘qimoq*] leksemasining «harflarni urishtirib, ma’nosini o‘qishga intilish harakatini ifodalovchi fe’l» sememalari kishi ongida nutqiy ma’no sifatida namoyon bo‘lish uchun tayyor turadi. So‘zlovchi hech qachon semema yaratmaydi. Nutqiy ma’no esa muayyan sintaktik qurshovda nutq sharoiti va so‘zlovchining kommunikativ niyatiga mos ravishda yuzaga chiqadi. Masalan, *U birinchi sinfda bo‘lsa-da, matnni tez va ravon o‘qiydi* gapida [*o‘qimoq*] leksemasining sememasi ushbu holat uchun moslashib namoyon bo‘ladi. Bunda voqelangan nutqiy ma’no sememadan harakatning kimgadir tegishliligi, «tez va ravon ekanligi», «harakatning matn ustida amalga oshayotganligi» kabi xususiy belgisi bilan farqlanadi. Bu belgi sememada aks etmagan bo‘lib, nutq jarayonida hosil qilingan. Nutqiy ma’noning tayyor emasligi, ayniqsa, sememaning nutqiy ma’nosi so‘zda ko‘chma ma’no sifatida voqelanishlarida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. *U paxta termas, hasharchilarga suvchi edi* gapidagi [*suvchi*] so‘zining ma’nosi nutqiy bo‘lib, uni «suv tashish va yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi kishi» deya bayon qilish mumkin. Bu nutqiy ma’no (*suv*) so‘ziga (*-chi*) qo‘shimchasini qo‘shish asosida [*suv*] leksemasi

sememasini juz'iylashtirib hosil qilingan mazkur ma'no nutq jarayoni mahsuli.

Sememaning ko'chma ma'no sifatida qo'llanishida nutqiy ma'noning tayyor emasligi belgisi aniqroq ko'zga tashlanadi. *Qush edim, qanotimni qayirdilar* gapidagi (*qanot*) so'zida semema shu tarzda juz'iylashganki, uning atash semalari so'nib, semema butunlay sifat o'zgarishiga uchragan. Bu «o'zgargan» holat ham sof nutqiy jarayon mahsuli.

Sememaning takrorlanuvchanligi va nutqiy ma'noning betakrorligi. Semema o'zining barcha nutqiy ko'rinishi uchun asos bo'lib, har bir qo'llanishida, uning juz'iylashgan va matn, nutq sharoiti, so'zlovchining maqsadiga bo'ysungan holati kuzatiladi. [*O'qimoq*] leksemasining zikr etilgan sememasidagi «harflarni urishtirib ma'nosini tushunishga intilish» boshqa nolug'aviy vositalar tajallilari bilan «to'yingan» holda takrorlanaveradi. Biroq uning nutqiy ko'rinishi har bir qo'llanishda o'ziga xos. Chunki nutqiy ma'no ma'lum qo'llanishda boshqa morfologik, sintaktik va uslubiy vosita bilan yaxlitlik kasb etib, aniq makon va zamonda namoyon bo'ladi, bu yaxlitlik aynan shu nolug'aviy vosita bilan butunlikda boshqa o'rindagi qo'llanishda hech bo'lmaganda makon va zamon bilan farqlanishi uning betakrorligini ko'rsatadi.

Sememaning barqarorligi va nutqiy ma'noning o'tkinchi (vaqtincha)ligi. Semema va nutqiy ma'no munosabatining yuqoridagi tavsifidan ularning barqarorlik – beqarorlik belgisi kelib chiqadi. Semema barqaror va o'zgarmas, uning ko'rinishi bo'lgan nutqiy ma'no o'zgaruvchan va o'tkinchi.

Sememaning cheklanganligi va nutqiy ma'noning cheksizligi. Monosemantik leksemaning bir va polisemantik leksemaning bir nechta (bu ham sanoqli) sememasi bo'lib, u nutqiy voqelanganda cheksizlik kasb etadi. Har bir qo'llanishdagi nutqiy ma'no o'ziga xos va qaytarilmas alohidalik.

Nutqiy ma'no qanchalik cheksizlik kasb etmasin, uning asosidagi semema bittaligicha qolaveradi.

Sememaning ijtimoiyligi va nutqiy ma'noning individualligi. Semema ijtimoiy shartlangan bo'lib, u til jamiyati a'zolarining «umum-mehnati» mahsuli va shu til jamiyati a'zolari uchun birday umumiy. Nutqiy ma'no esa har bir so'zlovchi uchun o'ziga xos – individual.

Sememaning grammatik ma'no sifatida voqelanishi. Ayrim leksemaning nomustaqil so'z sifatida voqelanishida sememaning o'z muayyanligini kuchsizlantirishini, grammatik ma'no sifatida

voqelanishini ko'rish mumkin. Quyida [*qaramoq*] leksemasining ikki ma'nosini qiyoslashga harakat qilamiz. *1. Hamdam dadasiga* ***qaragancha*** *uzoq tikilib qoldi (*A.Qah.*). 2. Menga* ***qara,*** *xotin, - dedi Hoji jiddiy tusda. O'zbek oyim* ***qaradi*** (A.Qod.*). 3. Bu juvon menga* ***qarab*** *kelar edi.* (G'.G'ul.). *4. Dehqonlar to'dasi qishloqqa* ***qarab*** *yurdi* (S.Ahm.*). 5. Yashirin xabarlarga va ba'zi alomatlarga* ***qaraganda,*** *Badiuzzamon Astrobodda isyon ko'tarish fikrlari bilan ovora bo'layotgani haqida gapirdi (*Oyb.*).*

1-, 2- gaplarda [*qaramoq*] leksemasining «ko'rish uchun ko'zni biror tomonga, narsa yoki kimsaga yo'naltirmoq» sememasining nutqiy lug'aviy ma'no sifatidagi voqelanishi kuzatiladi. Bu semema keyingi gaplarda o'zining «ko'rish uchun» semasini 0 (nol) darajagacha kuchsizlantiradi va qolgan semalar ma'lum darajada susayib, «harakat yo'nalgan tomon»: (4-gap)» «ayirib ko'rsatmoq», «ta'kidlash», shuningdek, «qiyoslash», «solishtirish» ma'nolarini bildiradi. [*qaramoq*] leksemasi [*ko'rmoq*] leksemasi bilan ma'nodosh bo'lganligi bois, ular sememalarining grammatik ma'noga aylangan ko'rinishlarida ham mazkur ma'nodoshlik ma'lum darajada saqlangan bo'ladi. Qiyoslang: «*Olmaga qaraganda nok shirin — olmadan ko'ra nok shirin*». Ko'rinadiki, [*qaramoq*] leksemasi ko'makchi vazifasida qo'llanganda uning sememasi tarkibidagi «yo'naltirmoq» semasi lisoniy va nutqiy hodisani bog'lash vazifasini o'taydi. Boshqacha aytganda, [*qaramoq*] ko'makchisining [*qaramoq*] leksemasi hosilasi ekanligiga ishora qilib turadi.

Mustaqil leksemaning nomustaqil so'z sifatida qo'llanishlarida nutqiy ma'noning o'zi mansub semalar bilan bog'lanishlari kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Bu, ayniqsa, ko'makchi fe'l vazifasida kelgan leksemada yaqqol ko'zga tashlanadi. Qiyoslang: *1. Elmurod dunyo xabarlaridan o'qib bera* ***boshladi*** *(*P.Turs.*) 2. May oyining hayotbaxsh quyoshi o'zining erkalovchi, zarrin nurlarini alanga sochib* ***yotibdi*** (X.Ziyo.*). 3. Siz o'qishga ketayotganingizda daraxtlarga o'zim* ***qarab tursam*** (Sh.Rash.*). 4. To'y qiziganda yana bir baloni boshlab* ***yurma,*** *-deb To'lagan mo'ylov Qo'chqorga qo'l cho'zdi. 5. Hali u yerda, hali bu yerda yangi tug'ilayotgan qo'zilar cho'ponlarni shoshirib* ***qo'ygan,*** *ularda tinim yo'q* (Ch.Ayt.*). 6. Sen mendan har qancha xafa bo'lsang ham, ko'nglimga tugib qo'yganimni endi aytib* ***solmasam,*** *iloji yo'q* (A.Qah.*).* Ko'rinib turibdiki, ayrim qo'llanishlarda (1-, 2-, 3-, 4) so'zning grammatik ma'nosi leksemaning sememasi bilan semantik bog'lanishga ega. Ba'zilarida esa (5-, 6) ko'makchi fe'l (*qo'ygan, solmasam*) o'z grammatik

ma'nosidan qariyb uzilgan. Asos leksema sememasining grammatik ma'noda qoldirgan «iz»i sezilarsiz darajada.

Sememaning nutqiy grammatik ma'no sifatida yuzaga chiqishdagi grammatikalizatsiyalashuvi hodisasini o'rganish fanimiz oldida turgan vazifalaridan.

Demak, sememaning nutqiy voqelanishi deganda uning nafaqat nutqiy lug'aviy ma'no, balki nutqiy grammatik ma'no sifatida voqelanishi ham nazarda tutilishi lozim.

Sememaning nutqqa xoslanishi

Semema nutqda uni ushbu qo'llanishga xoslovchi turli vosita ta'siriga berilgan va juz'iylashgan holda «ko'rinish» beradi. Sememaning nutqiy ko'rinishida uni nutqqa xoslagan nolug'aviy vositaning ta'sir darajasi turlicha bo'ladi.

Sememaning nolug'aviy tajallilar ta'siridagi o'zgarishga uchrashi natijasida vujudga keladigan sifat o'zgarishi ham unga ta'sir qiluvchi omillar darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi.

Semema so'z yasash qolipi asosida nutqiy yasama so'z ma'nosi sifatida namoyon bo'lar ekan, bunda bu nutqiy ma'noning tarkibida sema ko'rinishi maqomini oladi. Masalan, **[[fe'l] + [uvchi] = (fe'l anglatgan harakatning bajaruvchisini anglatuvchi shaxs oti]** lisoniy so'z yasash qolipi hosilalarida ((*ichuvchi*), (*kesuvchi*), (*yozuvchi*), (*xohlovchi*) va b.) bu so'zning asosida yotgan [*ich*], [*kes*], [*yoz*], [*xohla*] leksemalarining sememasi yasama so'zlarda nutqiy ma'noning bo'lakchasi sifatida yuzaga chiqadi. Deylik, [*ichmoq*] leksemasining sememasi «biror suyuqlikni iste'mol qilmoq» bo'lib, u (ichuvchi) nutqiy hosilasida «ichish bilan shug'ullanuvchi kishi» nutqiy ma'nosining «ichish» uzvida mujassamlashgandir. Bunda ma'lum bir butunlikning «kichrayib», nutqiy bir butunlikning tarkibiy qismiga aylanganini ko'ramiz. Bu esa sememada sifat o'zgarishi yuz berganligini ko'rsatadi. Demak, nutqiy yasama so'z lisoniy butunlikning nutqiy qismga aylanishi hodisasi yuz beradi. Buni shartli ravishda «sememaning nutqiy ma'no bo'lakchasiga aylanishi» deb ataymiz.

Sememaning mazkur hodisadan quyiroq darajada o'zgarishi uslubiy omil va ayrim lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchining ta'siri natijasida yuz beradi.

Leksema ko'chma ma'noda qo'llanar ekan, uning sememasi tarkibidagi atash semasi so'nib, nutqiy voqelikka mos ravishda ifoda va vazifa semasi kuchayadi. Masalan, *oltin yoshlik* birikuvida

voqelangan [*oltin*] leksemasining «sariq tusli qimmatbaho noyob metallni ifodalovchi ot» sememasidagi «sariq tusli», «metall», «ot» semasi butkul so'ngan bo'lib, «kamyob», «qimmatbaho» semasi kuchaygan va «ot» vazifa semasi «sifat» ma'no bo'lakchasiga aylangan holda namoyon bo'lgan. Biroq bundagi vazifa semasining o'zgarishi nutqiy hodisa bo'lganligi sababli u sememaning ikkinchi turkumga ham xosligini ko'rsatmaydi, balki boshqa turkumga xos vazifasini bajarishi deb tushunmoq lozim. Demak, leksemaning ko'chma ma'noda qo'llanilishidagi ma'noviy modifikatsiyasini «semema semasining o'zgarishi» deb baholash mumkin.

Semema vazifa semasining o'zgarib voqelanishini fe'l leksemaning sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi shaklini olib qo'llanishida yaqqol kuzatish mumkin. Masalan, ravishdosh shaklini olgan fe'l leksema sema asosida fe'lning ma'nosi kuchsizlanib ravishga xos belgi kuchayadi. Qiyoslang: U shoshildi – U shoshilib gapirdi.

Ayrim lug'aviy shakl hosil qiluvchi fe'lning atash semasini modifikatsiya qiladi. Masalan, [kitob] leksemasi sememasidagi belgilanmagan miqdor semasi nutqda voqelangan (*kitoblar*) so'zida, **[son+ot]** qolipli sintaktik qurilmada muayyanlashadi. Bu esa uni shartli ravishda «sememaning atash semasi o'zgarishi» deb talqin qilish imkonini beradi.

Aytilganlar asosida sememaning nutqiy xoslanishini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1) sememaning so'z ma'no bo'lakchasi sifatida voqelanishi;

2) sememaning atash semasi so'nishi natijasida vazifa semasi kuchayishi va ifoda semasi o'zgarishi sifatida voqelanishi;

3) sememaning atash semasi o'zgarib voqelanishi.

Hosila sememaning vujudga kelish yo'llari

Hosila ma'no bir necha yo'l bilan vujudga keladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabi. Hosila ma'nolar to'g'ri, bosh ma'no asosida paydo bo'ladi.

Metafora (gr. metaphora – ko'chirish) – nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishatilishi.

Metaforik ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagidan biri sabab bo'ladi:

1) bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llaniladi;

2) biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llanadi.

Demak, birinchi holda ko'chirilayotgan so'z denotatning ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, (*quyi*) so'zi anglatadigan ma'noni (*etak*) so'zi qulayroq va to'laroq ifodalaganligi bois tog'ning quyi tomoniga nisbatan (*etak*) so'zi ishlatilgan. O'zbek tilida dengizdagi o'ziga xos jo'g'rofiy o'rinning nomi bo'lmaganligi bois (*qo'ltiq*) so'zi unga nisbatan ham qo'llanadi.

Metafora hodisasi asosan, ot turkumi doirasida, qisman fe'lda uchraydi: *Qush uchdi. Samolyot uchdi* qurilmalarining ikkinchisida (*uchmoq*) fe'li ifodalagan harakat qushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvoziga o'xshaydi. Shu boisdan (*uchmoq*) fe'li ifodalagan keyingi ma'no metaforik ma'no.

Metafora hosila ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi.

Metaforik hosila ma'no nutqda juda ko'p uchraydi. Ammo ularning lisoniylashgani – sememaga aylangani nisbatan kam. [*Qanot*] (samolyot), [*uchmoq*], [*og'iz*] (qop) kabi leksemalarning ushbu hosila ma'nosi metaforik semema.

Metaforik yo'l bilan hosil bo'lgan semema davrlar o'tishi bilan o'ziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil holga kelishi, omonimik tabiatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, adabiyotshunoslik termini sifatidagi (*fojia*) umumiste'mol qo'llanishdagi (*fojia*) so'zidan ma'noviy jihatdan uzilib, ularning nomemalari omonimik munosabatga ega bo'lgan. Shuningdek, jo'g'rofiy termin bo'lgan [*qo'ltiq*] umumiste'moldagi [*qo'ltiq*] leksemasining omonimiga aylangan.

Sinekdoxa yo'li bilan hosil qilingan ko'chma ma'no deganda, biror narsaning nomi bilan uning biror qismini atash va, aksincha, biror narsaning qismi bilan u mansub butunni atash tushuniladi: 1.*Besh* ***qo'lini*** *og'ziga tiqadi. 2.Ochildiboy* ***tirnoqqa*** *zor edi.* Sinekdoxik yo'l bilan hosil qilingan ma'noni ham lisoniy va nutqiy ma'noga bo'lish mumkin. Masalan, keltirilgan [*qo'l*], [*tirnoq*] leksemalarining sinekdoxik ma'nosi sememalashgan. ***Stol*** *sindi,* ***eshik*** *buzildi* gaplaridagi [*stol*] so'zining «***oyoq***» (stolning oyog'i), [*eshik*] *so'zining* «***qulf***» (eshikning qulfi) hosila ma'nolari nutqiy

sinekdoxik ma'noga misol. Ammo har qanday butunlik nomi bilan qismni, qismning nomi bilan butunni atab bo'lmaydi. Masalan, daraxt va shox, barg, tana, ildiz, meva butun va qismdir. Lekin (*barg*) deganda hech qachon daraxt anglashilmaydi. Ammo (*meva*) (masalan, olma) atamasi orqali daraxt ham ifodalanadi.

Metonimiya (grekcha: *metonymia* — qayta nomlash) ifodalanmishlarining o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi asosida bir ifodalovchining boshqa ifodalovchi uchun ishlatilishi.

Metonimiya ham yangi ma'no hosil qilish jarayoni va bu jarayon natijasining barqarorligiga ko'ra lison va nutqqa daxldor hodisa. Boshqacha aytganda, metonimik hosila ma'no sof nutqiy yoki lisoniy(lashgan) bo'lishi mumkin.

Metonimik ma'nolarning asosiy ko'rinishlariga misol keltiramiz:

1) bir narsa predmetning nomi bilan shu predmetdagi boshqa bir narsa ataladi:

a) [*stakan*] — **1**-ichimliklar uchun ishlatiladigan silindr ko'rinishdagi shisha idish;

2-bir stakan hajmiga teng suyuqlik miqdori (bir stakan suv);

b) [dasturxon] — **1**-o'rtaga yozilib ustiga oziq-ovqat qo'yiladigan mato materialli ro'zg'or buyumi;

2-yeyish uchun o'rtaga qo'yilgan oziq-ovqat.

2) materialning nomi shu materialdan yasalgan mahsulotga o'tadi:

a) [kumush] — **1**-oq-ko'kish rangli yaltiroq tusli asl metall;

2-kumushdan zarb qilingan pul, tanga;

b) [qog'oz] — **1**-yozish, chizish, kitob, gazeta, jurnal boshqa hamda boshqa shunga o'xshash maqsadda ishlatiladigan yog'och, eski latta-putta va shular kabidan tayyorlangan yupqa material;

2-varaq, bet.

3) joy nomi bilan shu joyda yashovchi kishilar ataladi:

a) [*qishloq*] — **1**-aholisi ko'proq qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi punkti;

[qishloq] — **2**-qishloqda yashovchi kishilar (*Qishloq nima deydi?*).

3) harakat ifodalovchisi bilan uning natijasi yoki unga aloqador bo'lgan jarayon nomlanadi:

[*to'y*] — **1**-yeb-ichish natijasida nafsni qondirmoq;

[to'y] — **2**-bazm-tomosha bilan ziyofat berib o'tkaziladigan marosim.

4) predmetning nomi bilan shu predmet hosilasi ataladi:

a) [*til*] – **1**-og'iz bo'shlig'ida harakatlanuvchi nutq a'zosi;
[*til*] – **2**-shu nutq a'zosi harakati natijasida hosil bo'lgan nutq;
b) [*Navoiy*] – **1** o'zbek mutafakkir shoiri;
2-Alisher Navoiy asari.

Ko'rinadiki, metonimik hosila ma'noning ayrimi sof lisoniy mohiyat kasb etgan bo'lsa, ayrimi nutqiy sathdagina mavjud. Masalan, *Navoiyni o'qidim* gapidagi (*Navoiy*) so'zi ellipsis natijasida tushib qolgan *asar* so'zining ma'nosini ifodalamoqda va u sof nutqiy xarakterga ega. Ammo keltirilgan [*dasturxon*] 2, [*to'y*] 2, [*qog'oz*] 2, [*kumush*] 2 ma'nolari lisoniylashgan, sememaga aylangan metonimik ma'no.

Metonimik hosila ma'noning vujudga kelishi, asosan, lisoniy bog'lanish emas, balki obyektiv borliq hodisalari orasidagi nolisoniy aloqadorlik bilan bog'langan.

Vazifadoshlik semema vujudga kelishining asosiy yo'llaridan biri. Vazifadoshlik asosida semema vujudga kelishi ham, metaforada bo'lgani kabi, o'xshashlikka asoslanadi. Biroq metoforada tashqi ko'rinishdagi o'xshashlikka asoslanilsa, vazifadoshlikda bajariladigan vazifaning o'xshashligi asosida yangi ma'no vujudga keladi. Masalan, dastlab kamonning paykoni [*o'q*] deb atalgan. Miltiq kashf etilgach, uning porox to'ldirilgan pistonli gilzasi ham paykonniki kabi vazifa (ya'ni o'ldirish) ni bajarganligi bois [*o'q*] deb ataladi. Rus tilidagi [*pero*] (pat) so'zining bugungi ma'nosi ham shunday ma'noviy taraqqiyotga ega. Ma'lum bo'ladiki, vazifadoshlik asosida vujudga kelgan hosila ma'no nafaqat mustaqil semema darajasiga etadi, balki o'ziga asos bo'lgan bosh, asosiy sememadan ham ko'ra faollashib, qo'llanish doirasi kengayib ketadi. Masalan, ilgari [*ko'mir*] so'zi «ko'mib yondirish yo'li bilan o'tindan tayyorlangan yoqilg'i» sememasiga ega edi. Bugungi kunda bu semema tarixiylashib, u «yer qatlamida tabiiy yo'l bilan hosil bo'lgan qattiq va qora rangli yoqilg'i» hosila sememasi bilan nutqimizda yashaydi.

Ma'lum bo'ladiki, leksema semantikasidagi lisoniy o'zgarish quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Leksema nutqiy ma'nosining ixtisoslashuvi natijasida yangi sememaning vujudga kelishi. «Qushning ikki yonida harakatlanib uchish vositasi» sememasigagina ega bo'lgan [*qanot*] leksemasi bugungi kunda «samolyotning ikki yonidan chiqib turgan havoda suzish va muallaq turish vositasi» sememasiga ham ega polisemantik leksemaga aylangan.

2. Aniq ma'noning mavhum ma'noga aylanishi natijasida ixtisoslashuvga zid ma'noviy kengayish yuz berib, yangi sememaning vujudga kelishi. Masalan, [*otlanmoq*] leksemasining dastlabki sememasi «otga minish» bo'lib, bugungi kunda bu semema o'ta kuchsizlanib, leksema, asosan, «biror joyga borish uchun hozirlanish» sememasi bilan yashaydi.

3. Leksema semantik imkoniyatining torayishi. Leksema sememasining biror tomondan ixtisoslashuvi boshqa sememaning butkul so'nishiga olib keladi. Masalan, keng qamrovli tushunchani ifodalovchi so'zlarning qamrovi torayib ketadi. Bu, ayniqsa, turdosh otning atoqli otga aylanishida, so'zning terminologik mohiyat kasb etishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Leksik-semantik munosabat

Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabat ana shunday lisoniy munosabat.

Sinonimiya. Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar *sinonim* deyiladi. Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi.

Sinonim leksema sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi. Misol sifatida [*yuz*]-[*bet*]-[*afl*]-[*bashara*]-[*turq*] qatorini keltirish maqsadga muvofiq. Ma'nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: «odam boshi old tomoni», «peshonadan iyakkacha». Ammo ifoda semalari har bir leksemada o'ziga xos. Aniqrog'i, «shaxsiy munosabat» har bir leksemada boshqa-boshqa namoyon bo'lgan. U [*yuz*] leksemasida «shaxsiy betaraf munosabat» ko'rinishida bo'lsa, [*turq*] leksemasida «o'ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat» tarzida.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turlituman. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi;

2) leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema: «eskirgan», «yangi», «o'ta yangi», «arxaik», «tarixiy»;

3) leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi sema: «shevaga xos», «so'zlashuvga xos», «kitobiy», «ko'tarinkilik» va h.k.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemaning bittasi dominanta (bosh) leksema bo'lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma'nodoshlik qurshovi hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semasi neytral, betaraf. Masalan, [*katta*]-[*ulkan*]-[*bahaybat*] sinonimik qatori «kitobiylik», «ko'tarinkilik» ifoda semalari asosida tashkil topgan. Qatordagi katta leksemasida bu sema belgilanmagan (neytral), [*ulkan*] va [*katta*] leksemalarida ifodalangan, oydinlashtirilgan.

Ma'nodoshlik qatoridagi dominanta leksemaning bir qancha o'ziga xos xususiyati bor:

1) dominanta leksemaning mazmuni boshqa leksemalarnikiga nisbatan «kambag'alroq» bo'ladi. Qiyoslang: [*chiroyli*], [*go'zal*] va [*suluv*]. Qatordagi [*chiroyli*] leksemasida [*go'zal*] va [*suluv*] leksemasidagi ko'tarinkilik bo'yog'i yo'q;

2) dominanta leksemaning qo'llanish doirasi va miqdori boshqa ma'nodoshlarnikiga nisbatan keng va ko'p bo'ladi;

3) dominanta leksema belgilanmagan ifoda semasiga ega bo'lganligi bois istalgan vaqtda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi;

4) ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi. Masalan, «kishi tanasi a'zolari» lug'aviy ma'noviy guruhiga [*yuz*] dominanta leksemasi kirib, [*quloq*], [*burun*], [*lab*], [*qosh*], [*peshona*] leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasi belgilangan leksema «betaraf» bo'lolmaganligi bois yuqori paradigmaga kira olmaydi va uning betaraf vakili bu huquqqa ega bo'la oladi, xolos.

Ma'nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so'z, so'z birikmasi, nutqiy ko'chma so'z bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi vosita sanaladi.

Antonimiya leksemalar orasidagi zidlik munosabatidir: [*katta*]-[*kichik*], [*yosh*]-[*qari*], [*mitti*]-[*ulkan*], [*oq*]-[*qora*] va hokazo. Antonim leksemalarning umumiy, birlashtiruvchi semasi bilan bir qatorda, qarama-qarshi semasi ham bo'lishi lozim. Masalan, [*katta*] va [*kichik*] leksemalari umumiy — «sifat», «ko'lam» semasi bilan birga, qarama-qarshi — «nisbatan ortiq» ([*katta*]) va «nisbatan katta bo'lmagan» ([*kichik*]) semasiga ham ega. Yoki [*qish*] — «yilning eng sovuq fasli», [*yoz*] — «yilning eng issiq fasli», [*kirmoq*]

— «ichkariga harakatlanmoq», [*chiqmoq*] — «tashqariga harakatlanmoq». Antonim leksemalar asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisaning in'ikosi bo'lgan qarama-qarshi tushuncha yotadi. Antonim leksemalar bir turga kiruvchi giponim leksemalar: [*issiq*]-[*sovuq*] (harakat), [*katta*]-[*kichik*] (hajm), [*erkak*]-[*ayol*] (jins) va hokazolar.

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

a) kontrar qarama-qarshilik;

b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik — darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasida birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimlashuvi. Masalan, [*kichik*]—[*o'rta*]-[*katta*], [*yosh*]-[*o'smir*]-[*o'rta yosh*]-[*qari*] kabi. Bunda [*kichik*] va [*katta*], [*yosh*] va [*qari*] leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in. Yuqoridagi [*o'rta*] leksemasida [*kichik*] va [*katta*] leksemalarining qarama-qarshiligi so'nadi. Demak, leksemalarning kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'ladi: [*rost*]-[*yolg'on*], [*arzon*]-[*qimmat*], [*oson*]-[*qiyin*]. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yo'q.

Antonimlar strukturasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) har xil o'zakli antonim: [*katta*]-[*kichik*], [*kirmoq*]-[*chiqmoq*], [*muhabbat*]-[*nafrat*];

2) bir xil o'zakli antonim: [*madaniyatli*]-[*madaniyatsiz*], [*aqlli*]- [*aqlsiz*], [*ongli*]-[*ongsiz*].

Fanda antonimlar asosan sifat va ravish turkumiga xos degan hamda har xil o'zaklilarini tan olishdek tor tushunish ham mavjud.

Graduonimiya. Lug'aviy birliklar o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma'lum va uning eng yorqin namunasi — [*o'rta*] so'zini o'z ichiga olgan so'zlar qatori. Masalan:

[*Katta*]-[*o'rta*]-[*kichik*]
[*Yosh*]-[*o'rta*]-[*qari*]
[*Uzoq*]-[*o'rta*]-[*yaqin*]
[*Baland*] —[*o'rta*]-[*past*]
[*Uzun*]-[*o'rta*]-[*qisqa*].

Ma'lumki [*o'rta*] so'zi bilan ifodalangan belgi-xususiyat tom ma'noda o'rtalik, oraliq, ya'ni ikki bir-biriga zid belgi oralig'idagi holatni ko'rsatadi. [*O'rta*] leksemasi antonimlar oralig'idan o'rin olsa, (*katta-o'rta-kichik*) darajalanishi kam seziladi. Lekin [*o'rta*] leksemali birliklarni zid belgi asosida emas, ma'lum bir belgining kamayishi yoki o'sishi asosida idrok etilsa, ma'noviy darajalanish yaqqol anglashiladi.

Darajalanish qatori a'zolari kamida uchta bo'ladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini:

a) g'ayrilisoniy asos;

b) sof lisoniy asosga tayanib ajratish mumkin.

G'ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson go'daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik holatini, o'simlik navnihollik, ko'chatlik, yetilganlik, quriganlik davrini boshidan kechiradi — organizm o'sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo'yoqchilar birgina qora rangning hatto o'ndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo'lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, [*nihol*]-[*ko'chat*]-[*daraxt*], [*ninnig*]-[*chaqaloq*], [*go'dak*]-[*bola*], [*buzoq*]-[*tana*]-[*g'unajin*]-[*sigir*] kabi.

Graduonimik lug'aviy qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar:

a) ma'noviy omil;

b) so'zlararo paradigmatik munosabat.

Graduonimik qatorni ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma'lum bir belgining oz-ko'pligi, turli xil darajalariga ishora mavjud. Masalan, *darcha-eshik-darvoza* leksemasining «O'zbek tili izohli lug'ati»dagi izohini kuzataylik:

1. Darcha — ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o'tagan bir yoki qo'sh tavaqali, eshik yoki devorga o'rnatilgan kichkina eshikcha (O'TIL, I, 212.)

2. Eshik — uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o'rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama (O'TIL, II, 457).

3. Darvoza — hovli, qo'rg'on, qal'a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan katta eshik, qopqa (O'TIL I, 209).

Ajratilgan so'zlar miqdoriy ko'rsatkichlarni ifodalovchi leksemalardir. Bu [*darcha*] leksemasi izohidagi (*kichkina*) va (*eshikcha*) so'zlari, [*darvoza*] leksemasi izohidagi [*katta*] so'zi.

Boshqa bir leksema qatorini olamiz: [*gulobi*]-[*pushti*]-[*qizg'ish*]-[*qizil*]-[*ol*]-[*qirmizi*].

Bu leksemalar qayd etilgan lug'atda quyidagicha izohlangan:

1. **Gulobi** – gulob rangli, pushti (O'TIL, I, 197).
2. **Pushti** – shaftoli guli rangidagi, och qizil (O'TIL, II,608).
3. **Qizg'ish** – qizilga moyil, qizilga yaqin rangdagi, qizg'imtir (O'TIL, II, 573) .
4. **Qizil** – qon rangidagi, qirmizi, olvali (O'TIL, II, 570).
5. **Ol** – qizil, qirmizi (O'TIL, II, 529).
6. **Qirmizi** – qizil rangli, qizil, ol (O'TIL, II,581).

Bu tavsif, albatta, mukammal emas. Chunki ular o'zining graduonimik tizimidan uzib tavsiflangan. Agar ular bir sistema a'zolari sifatida tahlil etilsa, quyidagi tavsiflarga ega bo'lishar edi:

1. **Gulobi** – gulob rangli, oqdan qizillikka, pushtiga moyil bo'yoqli rang.
2. **Pushti** – shaftoli guli rangidagi, och qizil, gulobidan to'qroq.
3. **Qizg'ish** – pushtidan to'qroq, qizildan ochroq, qizg'imtir rang.
4. **Qizil** – qon rang.
5. **Ol** - qizildan to'qroq rangli.
6. **Qirmizi** – to'q qizil rangli.

Bu leksemalar denotativ ma'nolaridagi rangning miqdoriy semasi asosida quyidagicha darajalanadi:

«qizillik»

–					+
-3	-2	-1	0	1	2
[*gulobi*]	[*pushti*]	[*qizg'ish*]	[*qizil*]	[*ol*]	[*qirmizi*

Demak, lug'aviy graduonimik qatorni ajratish uchun ma'noviy omil o'zaro yaqin tushunchani ifodalovchilar sirasidagi har bir leksemada ma'lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora mavjudligida namoyon bo'ladi. Shu asosda ma'noviy omilning o'zi ikki turga bo'linadi:

1) bir-biriga yaqin va o'xshash tushunchani ifodalashi;
2) ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishi.

Graduonimik qator lug'aviy paradigmaga qo'yiladigan quyidagi talabning barchasiga javob berdi:

1) lug'aviy paradigmaning bitta yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashishi;

2) lug'aviy paradigmaning ochiqligi;

3) lug'aviy paradigmaning boshqa kattaroq paradigma tarkibiga yetakchi leksema bilangina kirishi;

4) lug'aviy paradigmadagi qurshov leksemaning dominant leksema bilan osonlikcha almashtirila olishi.

Demak, leksemalararo lisoniy munosabat sanaluvchi graduonimiya hodisasi bir necha leksemaning ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga qarab, lug'aviy ma'noviy qatorda, tizimda namoyon bo'lishi bo'lib, bunda dominanta va qurshov leksema farqlanadi.

Lug'aviy graduonimik qatorda dialektikaning eng umumiy qonunlari mavjud:

a) graduonimik qatorda belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni tajallilanadi;

b) graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma'lum bir belgining tasdig'i bilan birga, bir-birini inkor etishida inkorni inkor qonuni namoyon bo'ladi;

d) bir-birini inkor etuvchi (antonimik munosabatda turgan) leksemalarning bir yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashib, bir lug'aviy ma'noviy qatorni — paradigmani, butunlikni tashkil etishda qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni voqelanadi.

Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog'i, gipo-giperonimiya), ya'ni tur-jins munosabati.

Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlik. Giponim esa ma'lum jins turining nomini hamda o'zining semantik tarkibida implisit tarzda jins ma'nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlik.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa obyektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bog'liq. Masalan, [*daraxt*] giperonimi jins ma'nosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan [*daraxt*] leksemasi giperonim sifatida

giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, [*daraxt*]-[*qayin*], [*daraxt*]-[*terak*], [*daraxt*]-[*dub*], [*daraxt*]-[*archa*].

Giponimlar teng huquqli bo'lib, giperonimga munosabati bir xil. O'z navbatida, bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisasi bilan ham bog'lanadi. Masalan, o'zbek tilidagi [*daraxt*] nomi dastlab ikki guruhga bo'linadi: mevali daraxt va manzarali daraxt. Mevali daraxt o'z mevasining nomi bilan ataladi. Shuning uchun bu leksema ko'p ma'noli bo'lganligi bois bir tomondan [*meva*], ikkinchi tomondan [*daraxt*] giperonimi bilan semantik munosabatga kirishadi:

[***Meva***]: [*olma*]-[*o'rik*]-[*shaftoli*]-[*behi*].

[***Daraxt***]: [*olma*]-[*o'rik*]-[*shaftoli*]-[*behi*].

[*Daraxt*] giperonimi jins tushunchasini ifodalovchi leksema sifatida, birinchi navbatda, shu jinsning turini bildiruvchi so'z bilan bog'lanadi. [*Daraxt*] leksemasi uning turi nomi o'rnida qo'llanishi ham mumkin. Lekin giperonim giponim o'rnida qo'llanganda uning mohiyatini yorqin ifodalay olmaydi. Shu boisdan o'z oldidan giponimni aniqlovchi sifatida qabul qiladi: *o'rik daraxti, shaftoli daraxti* kabi.

Giponim leksemaning sememasi giponim leksemalar uchun birlashtiruvchi sema bo'lib xizmat qiladi. Masalan, [*daraxt*] giperonim leksemasining sememasi «tanasidan shoxlanuvchi o'simlik» bo'lib, «qizil, yashil, yoki sariq rangli yong'oqdan piyolagacha bo'lgan hajmdagi sersuv meva beruvchi daraxt» sememasiga ega [*olma*] leksemasining «daraxt» semasi [*daraxt*] giperonim leksemasi semasining sememalashgan ko'rinishi.

Giperonimning ma'nosi giponim leksemanikiga nisbatan kengroq va «xiraroq» (noaniqroq), giponim leksemaning ma'nosi esa giperonimnikiga nisbatan torroq va «yorqinroq». Shu boisdan, aytish mumkinki, giperonimning ma'noviy mohiyati barcha giponimining ma'noviy mohiyati yig'indisiga teng.

Aytilganidek, daraxt mevali va mevasiz daraxtga bo'linadi. Demak, borliqdagi bu bo'linish giponimiya hodisasi sifatida tilda ham aks etadi. Lekin daraxtning mevali va mevasiz turini ataydigan alohida leksema o'zbek tilida yo'q. Demak, giponimning o'rni bo'sh bo'lib, ular leksik lakuna (bo'sh xona) hosil qiladi. Leksik lakunani turli nutqiy nominativ birlik to'ldiraverishi mumkin (Masalan: *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt* so'z birikmalari).

Har bir gipo-giperonimik qator cheklanmagan miqdorda lug'aviy lakunaga ega bo'ladi. Bu bo'sh xona ayni bir jinsning turli belgisi bilan chegaralanmagan miqdorda to'lib borish imkoniyatiga

ega. Masalan, 10 ta uzum nomini biluvchi odam uchun o'zbek tilidagi 600 ta uzum navi nomining 590 tasi lug'aviy lakuna hisoblanadi. Demak, lakunalar ijtimoiy ham («mevali daraxt» va «mevasiz daraxt» tushunchasini ifodalovchi leksemalar), individual ham (mavjud leksemani ma'lum bir kishining bilmasligi) bo'lishi mumkin.

Qo'llanilishi chegaralanmagan va chegaralangan leksika

Leksik birlik qo'llanilish chastotasiga ko'ra farqlanadi. Ko'pgina leksemalar keng qo'llanishga, ba'zilari esa tor qo'llanishga ega bo'ladi. Shu jihatdan o'zbek tili leksikasi ikki qatlamga bo'linadi:

a) qo'llanilishi chegaralanmagan leksika;

b) qo'llanilishi chegaralangan leksika.

Qo'llanilishi chegaralanmagan (umumiste'mol) leksika. O'zbek tili lug'at tarkibining asosini ana shu qatlam tashkil etadi. Qo'llanilishi chegaralanmagan leksemalarni shu tilda so'zlashuvchi kishilar, qanday shevaga, qaysi hududga, qaysi kasb yoki sohaga mansub bo'lishidan qat'i nazar, cheklanmagan darajada ishlatadi.

Qo'llanilishi chegaralanmagan leksema barcha so'z turkumida mavjud.

– fe'l: [*ishlamoq*], [*kelmoq*], [*olmoq*], [*ko'rsatmoq*], [*buyurmoq*], [*saylamoq*];

– ot: [*ota*], [*ona*], [*non*], [*suv*], [*stol*], [*eshik*], [*tog'*], [*yer*], [*shamol*], [*radio*];

– sifat: [*shirin*], [*achchiq*], [*qizil*], [*ko'k*], [*katta*], [*xunuk*], [*go'zal*];

– son: [*bir*], [*o'n*], [*yuz*], [*ming*];

– ravish: [*hamisha*], [*ba'zan*], [*ataylab*], [*hozir*], [*ilgari*];

– olmosh: [*kim*], [*nima*], [*qanday*], [*nima qilmoq*], [*qancha*], [*shu*], [*biz*], [*hamma*];

– so'z-gap: [*xo'p*], [*mayli*], [*rahmat*];

– ko'makchi: [*uchun*], [*bilan*], [*singari*];

– bog'lovchi: [*ham*], [*va*], [*bilan*], [*ammo*];

– yuklama: [*faqat*], [*xuddi*], [*hatto*].

Qo'llanilishi chegaralanmagan leksemaning aksariyati umumturkiy va o'zbekcha. Ammo, shu bilan birgalikda, ular orasida o'zlashmalari ham ko'p.

Qo'llanilishi chegaralangan leksemalarni ikki turga bo'lish mumkin:

a) qo'llanilishi davrga ko'ra chegaralangan leksika;
b) qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika.

Qo'llanilish davri chegaralangan leksika

Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi o'zgarish tilning barcha sohalarida u yoki bu darajada o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Bunday o'zgarish tilning leksik sathida ancha sezilarli kechadi. Bunda to'rt holat kuzatiladi. Birinchidan, ayrim so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi kuzatilsa, ikkinchidan, allaqachonlar iste'moldan chiqib ketgan so'zlar qayta «jonlanadi», «tiriladi», uchinchidan, yangi-yangi so'zlar paydo bo'ladi, to'rtinchidan, nofaol so'zlar faollashadi, iste'mol doirasi kengayadi, ma'noviy tabiatida o'zgarish yuz beradi. Bu hodisalarning barchasi ma'lum bir obyektiv sabab asosida ro'y beradi.

Hozirgi tildagi eskirgan so'zlar **eski leksika**, yangi so'zning jami **yangi leksika**, na eskirgan, na yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar **betaraf leksika** deb yuritiladi. Demak, o'zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtayi nazaridan uchta asosiy qatlamga bo'lib o'rganish mumkin: 1. Betaraf leksika. 2. Eskirgan leksika. 3. Yangi leksika.

Betaraf leksika. Hozirgi o'zbek tili leksikasining asosini **betaraf** leksika tashkil etadi. Bu leksika umumiste'mol leksika, qo'llanilishi chegaralanmagan leksika, faol leksika kabi atama bilan ham yuritiladi. Ammo bulardan *neytral leksika* atamasini ishlatish leksemani tarixiylik belgisi asosida tasniflash nuqtayi nazaridan to'g'riroq. Zero, na eskilik, na yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'z faol yoki umumiste'mol bo'lmasligi mumkin. Masalan, [*sinus*], [*kosinus*], [*zaryad*] kabi leksemalar neytral leksika tarkibiga kiradi. Biroq ular faol ham, umumiste'mol so'zlar ham emas. Demak, faol yoki nofaol, umumiste'mol yoki qo'llanishi chegaralangan bo'lishidan qat'i nazar, eskilik va tilimizga mansub barcha yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan leksema hozirgi o'zbek tilining neytral leksikasi deyiladi.

Eskirgan leksika. Eski qatlamga oid leksemalar o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) tarixiy leksema;
2) arxaik leksema.

Tarixiy leksema hozirgi o'zbek tilida qo'llanuvchi o'tmishga oid, iste'moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiruvchi leksemadir. Masalan, [*sovut*], [*qozi*], [*qalqon*], [*dubulg'a*], [*amir*], [*bek*], [*qul*], [*xon*], [*vazir*], [*kashkul*] kabi.

Tarixiy leksema bildiradigan narsa-hodisa iste'moldan chiqib, o'tmish voqeligiga aylanganligi sababli, bu leksemaning ko'pchiligi hozirgi davr kishisi uchun notanish bo'lishi mumkin.

Tarixiy leksema hozirgi o'zbek tilida ham zarurat taqozosiga ko'ra qo'llaniladi. Xususan, tarixga oid ilmiy asar va darsliklarda, o'tmish voqealarini aks ettiruvchi badiiy asarlarda bunday leksema cheklanmagan darajada ishlatilishi mumkin. Misollar: 1. *Dehqonlarning so'nggi hisoblariga ko'ra, bug'doylari besh* ***botmon*** *chiqishi kerak edi* (S.Ayn.). 2. *Bir chekkada bizning chilimga O'xshagan, lekin* ***nay*** *o'rniga uzun rezinka o'rnatilgan bir balo* (M.Ism.). *3. U qishloqlarda faqat qiz* ***cho'rilardan*** *qirq nafar bo'lib, ularga egalari ko'p zulm qilar ekanlar* (S.Ayn.). *4. Xo'jayin podshoga* ***o'lpon*** *to'laganda biz to'lamaymizmi?* (N.Saf.). *5.Said Abdullaxon* ***to'ra*** *ot ustida turgan holda o'zining ingichka ovozi bilan* ***biyga*** *savol qildi* (Mirm.). *6. Choyxonada uzun bo'yli, uzun quloqli* ***qalandar*** *ko'zlarini yumib... Mashrabdan g'azallar o'qiydi.* (Oyb.).

Ayrim polisemantik leksemalarning ba'zi ma'nolari tarixiylashib, boshqa ma'nosi umumiste'molda saqlanib qolishi mumkin. Masalan, [*millat*] leksemasining quyidagi gaplardagi ma'nosiga diqqat qiling: *1. Yoshlar, keksalar, qizlar, juvonlar orasida turli* ***millat*** *vakillari – qozoq, qirg'iz, arman va yahudiylar ham ko'rinar edilar* (P.Turs.). *2.* ***Millatingni*** *ayt: Ibrohim Xalilulloh* ***millati.*** («Diniy rivoyatlar»dan) Birinchi gapda [*millat*] leksemasining «tarixan tashkil topgan madaniyati, tili, huquqi, iqtisodiy hayoti va ruhiy xususiyatlarining umumiyligi asosida vujudga kelgan kishilar guruhi» sememasi voqelangan bo'lib, leksema neytral leksika tarkibida ushbu sememasi bilan yashasa, ikkinchi gapda uning «biror dinga mansublik» tarixiy sememasi voqelanganligi kuzatiladi. Demak, ko'p sememali leksemaning ayrim sememalari eskirib, boshqasi yashovchan bo'lishi mumkin.

Arxaizm o'z o'rnini boshqa leksemaga bo'shatib bergan leksik birlik. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgilari iste'moldan chiqib ketadi. Misollar: [*ulus*] (xalq), [*lang*] (cho'loq), [*tilmoch*] (tarjimon). Arxaik leksema o'zining neytral leksika tarkibidagi «o'rinbosar»ining «tarixiylik bo'yog'i» ifoda semasi bilan farqlanuvchi sinonimidir. Ular atash va vazifa semalari mushtarak birliklar.

Tilda bo'ladigan o'zgarish uzoq davom etadigan tadrijiy jarayon. Shu boisdan yangi leksema tilga birdan kirib kelmaganligi kabi leksemaning tarixiylashuvi va arxaiklashuvi ham asta-sekinlik

bilan yuz beradi. Shu boisdan tarixiylashish va arxaiklashish hodisasini ham darajalash mumkin.

Tarixiylashish yoki arxaiklashishning quyi darajasidagi leksema tilning bugungi bosqichida kam bo'lsa ham, iste'molda bo'lsa, yuqori darajadagi eskirish natijasida leksema butkul iste'moldan chiqib ketadi.

Yangi leksika tilda yangi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'i sezilib turgan leksemalardir. Ular ilmiy terminologiyada **neologizm** ham deb yuritiladi. Yangi leksema va yangi so'zni farqlash lozim. (Masalan, (*kitobchi*), (*kompyutershunos*), (*zakovatchi*) birliklari). Yangi leksika esa tilimizdan joy olgan yangi leksemadan tarkib topadi.

Yangi leksikani ikkiga bo'lish mumkin:

a) *sof yangi leksema* tilimiz uchun aslida begona, lekin unga endigina kirib kelib o'rnashgan boshqa tilga xos leksik birlik ([*lizing*], [*audit*], [*market*], [*test*], [*internet*] va h. Yangi leksema, asosan, terminologik birlik. Yangi leksema davr o'tishi bilan neytral leksika tarkibiga o'tib ketadi. Masalan, yaqin vaqtgacha neologizm sifatida qaralgan [*kosmos*], [*televidenie*] leksemalari bugungi kunda yangilik bo'yog'ini yo'qotdi;

b) faollashgan leksema yangi leksikaning turlaridan bo'lib, ular iste'moldan chiqib ketgan va bugungi kunda qayta qo'llanila boshlagan birliklardir. [*Hokim*], [*viloyat*], [*tuman*], [*oqsoqol*], [*sardor*] kabi leksema shular jumlasidan. Shuningdek, yangi ma'no kasb etgan birliklar ham yangi leksika tarkibida qaralishga haqli: [*savdogar*], [*tadbirkor*], [*ishbilarmon*], [*biznes*] va h. k.

Faollashgan, leksema sof yangi leksemadan farqli o'laroq, o'z qatlamga oid ham, o'zlashma qatlamga oid ham bo'lishi mumkin. Bu leksemaning umumiste'mol leksema sirasiga o'tib ketishi juda tez yuz beradi.

Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika

Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksikani uchga bo'lib o'rganish mumkin:

1) dialektal leksika;
2) terminologik leksika;
3) noadabiy leksika (argo va jargon).

Dialektal leksika. Ma'lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos leksema dialektal leksika deyiladi. Ular ilmiy terminologiyada dialektizm ham deb yuritiladi. Misollar:

[*kalapo'sh*] (Buxoro) – do'ppi, [*g'o'z*] (Xorazm)-yong'oq, [*mishiq*] (Farg'ona) – mushuk, [*poku*] (Samarqand) – ustara.

Badiiy adabiyot va kinofilmlarda mahalliy koloritni aks ettirish, asar qahramonlari nutqini real berish maqsadida dialektizmlardan foydalaniladi. (Lekin bu dialektal leksema tilda o'rnashdi degani emas, albatta. Badiiy adabiyot va kinofilmlarda shevaga xos unsurlarni ishlatish me'yor doirasida bo'lmog'i lozim).

Ayrim leksemalar adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma'noda ishlatiladi. Masalan, [*pashsha*] leksemasi sememasi lug'atda «yozgi qo'sh parda qanotli hashorat» deb berilgan. Biroq ayrim shevalarda u [*chivin*] leksemasi o'rnida ishlatiladi. «Ikki qanotli, uzun mo'ylovli qon so'ruvchi mayda hashorat» sememasiga ega bo'lgan [*chivin*] leksemasi esa, [*pashsha*] leksemasi o'rnida ishlatiladi. Masalan: *Ajal etmay o'lmas Boysunning xoni, Besabab chiqmaydi* ***chivinning*** *joni* («Alp.») gapidagi (*chivin*) so'zi kunduzi uchadigan qo'ng'ir-qora tusli mayda hashoratni ifodalasa, *Atrofda g'uv-g'uv pashsha: oyoqlarga yopishadi, burun kataklariga suqiladi, quloqni uzadi* (Oyb.) gapidan (*pashsha*) co'zi yuqoridagi izohning atamasi. Yoki [*irkit*] leksemasi abadiy tilda «kir, iflos» degan ma'no bilan qo'llansa, ayrim shevada «ayron xalta», boshqasida esa «beo'xshov, qo'pol ko'rinishli» ma'nosiga ega. Demak, ba'zan leksemalar umumiste'mol birlik bo'lsa, uning ayrim ma'nosi shevaga xos hisoblanadi. Demak, ayrim adabiy tilga xos so'zlarning dialektal sememasi ham mavjud.

Dialektal leksemani ham uning adabiy tildagi muqobiliga sinonim sanamaslik lozim. Chunki ular ham adabiy tilda so'zlashuvchi barcha kishilar uchun ijtimoiy qiymat kasb etmagan.

Terminologik leksika. Terminologik leksikani ikkiga ajratish mumkin.

1) adabiy tilga mansub terminologik leksika;
2) dialektal terminologik leksika.

Fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohalariga xos leksik birlik va so'z birikmaci *termin* deyiladi. Maxsus leksika deganda ma'lum bir sohaga tegishli lug'aviy birlik va ularga tenglashgan birikma tushuniladi. Bunday maxsus leksika *terminologiya* ham deb yuritiladi: *lingvistik terminologiya, fizik terminologiya.*

Terminlarning chegaralangan qo'llanishga egaligi ularning boshqa soha vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi degani emas. Masalan, [*to'g'ri chiziq*], [*gap*], [*so'z turkumi*], [*tezlik*] atamalari

ko'pchilik uchun tushunarli, soha kishilaridan boshqalar nutqida kam iste'molli.

Terminlar, ko'pincha, umumiste'mol leksikadan ma'lum bir ma'nolarining maxsuslashuvi asosida hosil bo'ladi. Masalan, [*fojia*], [*ega*], [*ot*], [*qo'shish*], [*ayirish*] leksemalari umumiste'mol birlik. Ammo ilmiy terminologiyada ham shunday leksema mavjud. Xo'sh, ularni ko'p sememali leksemaning ma'lum bir ma'nosida qo'llanishi deyish kerakmi yoki alohidami? Agar atamalar alohida leksema deb qaraladigan bo'lsa, ular umumiste'moldagi leksema bilan omonimik munosabatdami?

Ma'lumki, ko'pgina omonim leksemalar aslida ko'p ma'noli leksema ma'nosidan birining boshqalaridan uzilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, [*yoz*] («fasl»), [*yoz*] («tasvirlamoq») va [*yoz*] («yoymoq») leksemalari aslida bir polisemantik leksemaning turli ma'nolari asosida hosil bo'lgan omonimik birliklar. Ularning etimologik ildizi bitta. Bunga Koshg'ariy lug'atidan olingan ***Yoy qish bila qarishti*** misrasini keltirish asosida amin bo'lish mumkin. *Xat yozmoq* birikuvidagi (*yozmoq*) fe'lining asl etimologik ma'nosi «fikrni qog'ozga yoymoq»dir.

Shunday ekan, terminlarga ham asl substansiyasidan uzilgan mustaqil leksema sifatida qarash lozim. Bunga terminga qo'yiladigan bir ma'nolilik talabi ham asos bo'ladi. Demak, termin va umumiste'mol leksema bir narsaning ikki qirrasi, bir leksemaning ikki ma'noda qo'llanilishi emas.

Kasb-hunar terminlari turli kasb-hunar egalari nutqida qo'llanuvchi leksemalar. Kasb-hunar atamalari shu hunar egasi qaysi sheva vakili bo'lsa, shu sheva leksikasi tarkibiga kiradi. Masalan, Shahrisabz shevasiga mansub hunarmand ishlatadigan atama Buxoro shevasida bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun kasb-hunar leksemasi ikki hissa chegaralangan leksikani tashkil etadi. Bu leksika, birinchidan, ma'lum bir sheva doirasida bo'lsa, ikkinchidan, shu shevada so'zlashuvchi ayrim kishilar nutqiga xos.

Ilmiy terminlar ko'p holda tarjimasiz bo'lganligi tufayli dunyo fanini bir butunlik sifatida ushlab turadi. Masalan, [*fonetika*], [*morfologiya*], [*sintaksis*] kabi termin dunyo tilshunosligi uchun umumiy.

Turli soha termini o'xshash bo'lishi mumkin. Masalan, [*morfologiya*] atamasi tilshunoslikda ham, zoologiyada ham ishlatiladi. Ularni omonim leksemalar sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Termin ma'lum bir tilga xos yoki baynalmilal bo'lishi mumkin. Masalan, tilshunosligimizdagi [*gap kengaytiruvchisi*], [*gap markazi*] atamalari faqat o'zbek tiliga xos, [*atom*], [*vodorod*], [*natriy*], [*leksema*], [*semema*] atamalari baynalmilal. Baynalmilal atamani tarjima qilishga, ularga muqobil variant qidirishga urinish ma'qul emas.

Jargon ham qo'llanishi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi (frans. *jargon*). Kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida sotsial guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og'zaki nutqida ishlatiladigan va ma'nosini boshqalar ko'p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar jargon deyiladi. Masalan, programmistlar jargoni, talabalar jargoni, mahbubslar jargoni, o'g'rilar jargoni, artistlar jargoni va h.

Jargon umumxalq tilidan maxsus leksikasi va frazeologiyasi hamda yasovchi vositalarining o'ziga xos tarzda qo'llanishi bilan farqlanadi:

1) talabalar jargoni: [*yopmoq*] (sessiyani tugatmoq), [*во3дух*] (stipendiya), [*yaxlamoq*] (imtihondan qaytmoq), [*quloq*] (chaqimchi), [*chizmoq*] (qochmoq);

2) yoshlar jargoni: [*g'isht*] (xunuk), [*sindirmoq*] (lol qilmoq), [*крутой*] (ketvorgan), [*рисовка*] (ko'z-ko'z qilmoq), [*uxlatmoq*] (aldamoq), [*стрелка*] (uchrashuv), [*tashlashmoq*] (tortishmoq), [*baks*] (dollar), [*muzlatmoq*] (harakatdan to'xtatmoq);

3) harbiy xizmatchilar jargoni: [*dux*] (yangi kelgan askar), [*salyaga*] (bir-ikki oy xizmat qilgan askar), [*fazan*] (xizmatning yarmini o'tagan askar) [*ded*] (xizmatdan qaytishi yaqinlashgan askar), [*diskoteka*] (oshxona naryadi).

Jargonlar tarkibi boshqa tildan olingan o'zlashma birlik bilan boyib boradi. Tez-tez yangilari bilan almashib turadi.

Ayrim soha vakillari va soha guruhlari nutqiy tejamkorlik, qulaylik uchun ham jargon qo'llaydi.

Jargonning kelib chiqishi, qo'llanilishi, turi kabi masalalar — sotsiolingvistikaning o'rganish manbai.

Argo (fransuz. *argot*) ayrim professional yoki sotsial guruhning o'ziga xos tili. Argo bir necha til unsurlaridan iborat qorishiq va ko'p hollarda, boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo'ladi. Argo nutqda kommunikatsiya predmetini sir tutish maqsadida qo'llanadi: 1) o'g'rilar nutqida: [*mandarin*] (tilla), [*akula*] (panjarani kesish uchun moslama), [*kalamush*] (o'z yaqinlarinikiga «tushadigan»), [*urkagan*] (tajribali o'g'ri); mahbuslar nutqida: [*maymun*] (oyna), [*shobla*] (qalloblar guruhi),

[*bashli*] (pul) [*krokodil*] (qaychi), [*lebed*] (geroin), [*ment*] (militsioner), [*xafa qilmoq*] (zo'rlamoq), [*pushka*] (pistolet). Argotizmlar turli koloniya, turma, guruh va hududlarda farqlanadi.

Argo ham jargon kabi so'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda sotsial-ramziy vazifa bajarish uchun ishlatiladi.

O'zbek tilshunosligida jargon va argo ilmiy tadqiq qilinmagan.

Ifodaviylik va uslubiy xoslanganlik jihatidan o'zbek tili leksikasi

Ifodaviylik jihatdan o'zbek tili leksikasi

Til nafaqat axborot uzatish vazifasini, balki shu bilan birgalikda, axborot uzatuvchining axborotga hissiy munosabatini ham ifodalaydi. Lisoniy tizimda bu hissiy munosabatni tashuvchi turli vosita mavjud. Ulardan biri leksemadir. Ana shu jihatidan o'zbek tili leksemalari bo'yoqsiz va bo'yoqdor qatlamga bo'linadi.

Bo'yoqsiz leksika. O'zbek tili lug'at tarkibidagi leksemaning ko'pchiligi so'zlovchining hissiy munosabatini ifodalovchi bo'yoqdan xoli bo'ladi. Bunday birlik bo'yoqsiz leksema. Masalan, [*bor*], [*yo'q*], [*katta*], [*mazali*], [*daryo*], [*urmoq*], [*chiroyli*], [*tez*], [*husn*] kabi leksemalar borliq hodisalarini boricha aks ettiradi va unga so'zlovchining munosabatini ifodalamaydi. Boshqacha aytganda, bo'yoqsiz leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semalari nol darajada bo'ladi. Biroq bu leksemaning bo'yoqsizligi nisbiy, ya'ni faqat lisonda. Nutqda har qanday bo'yoqsiz leksema ham bo'yoq kasb etishi mumkin. Masalan, [*katta*] leksemasining lisoniy mohiyati - sememasi bo'yoqsiz. Biroq u nutqda boshqa nolug'aviy tajallilar bilan qorishib, bo'yoq kasb etadi. *Dengiz k-a-tta edi* gapida fonetik tajalli ta'sirida [*katta*] leksemasi bo'yoqdor nutqiy birlikka aylangan.

Bo'yoqdor leksika. Bunday leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semasi bo'rtib turadi: [*ulkan*], [*badnafs*], [*qiltiriq*], [*oniy*], [*tashrif*], [*oraz*], [*yovqur*], [*mahliqo*], [*badbashara*] va h.

Bo'yoqdor leksemaning ifodaviyligi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra bo'yoqdor leksemalar **ijobiy bo'yoqdor** leksema va **salbiy bo'yoqdor** leksemaga bo'linadi.

Ijobiy bo'yoqdor leksema so'zlovchining borliq hodisasiga ijobiy munosabatini ifodalaydi va ular sememalarida tegishli ifoda semalari ijobiy bo'ladi. Misollar: 1. *Onam deganimda, oqsoch, **jafokash munis** va mehribon **chehrang** bo'lar namoyon* (G'.G'ul.).

2. *U hamisha kulib, **jilmayib** turadigan mehribon **chehrani** ko'rmadi* (M.Ism.). 3.***Orazin** yopqoch, ko'zimdan sochilur har lahza yosh* (Nav.)

Salbiy bo'yoqdor leksema borliq hodisasiga so'zlovchining salbiy munosabatini ifodalaydi va ular sememasida salbiy munosabatni ifodalovchi sema bo'rtib turadi. Misollar: 1. *So'ngra yakkam-dukkam **iflos** tishlarini yashirgan og'zini katta ochib esnadi, go'yo uning butun **badburush** yuzini og'iz qopladi* (Oyb.) 2. *U bir ko'ngli borib, **muttaham** qozining **tumshug'iga** tushirgisi, yo **iflos basharasiga** tupurgisi keldi.* (M.Ism.)

Ijobiy bo'yoqdor leksema nutqda salbiy bo'yoqdor leksema o'rnida voqelanishi mumkin. 1. ***Jamolingizni*** (*«basharangizni»* ma'nosida) *boshqa ko'rmay!* 2. *Rosa **xursand qildingiz*** (*«xafa qildingiz»* ma'nosida).

Leksemaning ijobiy va salbiy bo'yog'ini ijobiy va salbiy ma'nodan farqlash kerak. Masalan, [*yaxshi*] leksemasi ijobiy ma'noga ega, ammo uning ifoda ~emasi bo'yoqdorlikni ko'rsatmaydi, ya'ni u bo'yoqsizdir. [*xunuk*] salbiy ma'noga ega bo'yoqsiz leksema.

Uslubiy xoslanganlik jihatidan o'zbek tili leksikasi

Leksema nutq uslubiga munosabatiga ko'ra uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan turlarga ajraladi.

Uslubiy betaraf leksika. Uslubiy betaraf leksema barcha uslublarda birdek va bab-baravar ishlatilaveradi va uning ifoda semalarida uslubga munosabat «uslubiy betaraf» deb beriladi: [*kel*], [*bor*], [*o't*], [*ket*], [*kitob*], [*qalam*], [*stol*], [*mashina*], [*oq*], [*qora*], [*tez*], [*sovuq*], [*faqat*], [*lekin*] va h. Lekin nutqda ko'chma ma'noda ishlatilganda, bu ma'nosi bilan ayrim uslubga xoslanib qoladi. Masalan, [*sovuq*] leksemasi «xunuk» ma'nosida (*sovuq rangli*) faqat so'zlashuv yoki badiiy uslubga xos.

Uslubiy xoslangan leksika. Uslubiy xoslangan leksikani uchga bo'lish mumkin: a) **kitobiy leksika**; b) **badiiy leksika**; d) **so'zlashuv leksikasi**.

Ilmiy, rasmiy va publisistik leksikaga mansub birliklar umumlashtirilib, *kitobiy leksika* deb yuritiladi:

1) ilmiy leksikaga oid birlik: [*integral*], [*meridian*], [*tangens*], [*olmosh*], [*bo'lish*], [*ko'paytirish*];

2) rasmiy leksikaga oid birlik: [*bayonnoma*], [*buyruq*], [*farmon*], [*qo'mita*], [*sessiya*], [*tashkilot*];

3) publisistik leksikaga oid birlik: [*jangovar*], [*mafkura*], [*ilg'or*], [*ittifoq*], [*jahon*], [*afkor*].

Bunday leksemaning uslubga xoslikni ko'rsatuvchi ifoda semasi «ilmiy nutqqa xos», «rasmiy nutqqa xos», «publisistik nutqqa xos» deb belgilanadi. **Badiiy leksika**ga ifoda semalari sirasida «badiiy nutqqa xos» semasi mavjud, badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan leksik birliklar kiradi: *Mehnat bilan topadi* ***iqbol*** (Yo.Mirz.). *Uning odobida, uning xulqida, insoniy* ***kamolot*** *mavjud, barqaror* (Uyg'.). *Tabiatan serzavq va har narsaga qiziquvchi bo'lgan Sodiq uchun har hunar zavq* ***baxsh etar,*** *ko'nglini ko'tarar, sog'lig'ini saqlardi* (Shuhr.). *Kundan kunga yashnamoqda* ***ko'rking, jamoling.*** (/ayr.) *Bahorning fikri bulut bosgan osmonday qorong'ilashdi-yu, ko'z oldini tuman* ***chulg'adi*** (Sh.Rash.). *Yaxshi qoling, sevgan yurtu* ***diyorim*** (Hamz.).

Badiiy nutqda ilmiy, rasmiy, publisistik va so'zlashuv uslubiga xos birlik ham bemalol ishlatilaveradi.

So'zlashuv leksikasiga oddiy so'zlashuv nutqiga xos, erkin muomalada qo'llaniladigan, adabiy til uchun me'yor bo'lmagan leksema kiradi: [*ketvorgan*], [*po'rim*], [*qitday*], [*mullajiring*] kabi. Misollar: *O'ylab ko'rsam, sarkotib odamga shundan bop sovg'a yo'q ekan. Ruchkaning* ***poshshaxoni,*** *perosi oltindan* (N.Saf.). *Shomahdievning qilig'i ma'lum: jahli chiqib bir* ***sannab ketsa,*** *uning* ***chakagini bosish*** *asov tuyani cho'ktirishdek mashaqqat* (A.Muhid.). *Qizlaringizni* ***jerkiysiz, so'kasiz...*** *Xo'sh, nima uchun To'lani yumshoq paxtaga o'rab* ***papalaysiz?!*** (M.Ism.) ***Jillaqursa*** *juvoldiz bilan qarashay dedim* (Oyb.). *Enang besh-o'n tanga pul so'rab yubordi. Bo'lsa, chiqarib ber,* ***boyoqishlar*** *chaynab tursin.* (Oyb.) *Maza qilib kartoshkani* ***tushirib*** *tursang...* (Say.)

So'zlashuv leksikasiga kiradigan leksemaning tegishli ifoda semasi «so'zlashuv nutqiga xos» deb yuritiladi.

Leksemaning uslubiy xoslanganligi ularning boshqa bir uslubda qo'llanmasligidan dalolat bermaydi. Masalan, so'zlashuv uslubi erkin uslub sanaladi va unda boshqa uslub unsurini bemalol ishlatish mumkin. Ammo leksemani ma'lum bir uslubda qo'llash nutq me'yoriga muvofiq bo'lishi lozim.

Frazeologiya

Frazeologiya va frazeologizm. Frazeologiya (gr. phrasis—ifoda va logos-ta'limot) atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) til

frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmui.

Frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir.

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: [*tepa sochi tikka bo'ldi*], [*sirkasi suv ko'tarmaydi*], [*o'takasi yorildi*], [*do'ppisi yarimta*], [*ikki gapning birida*], [*boshga ko'tarmoq*] va boshqa.

Frazeologizm *ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma* atamalari bilan ham yuritiladi.

Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi.

Frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi — bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. *Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom* ***hovuridan tushdi.***(P.Tur.) *2. Stol yoniga kelguncha uning* ***boshi aylanib ketdi.*** (S.Zun.*) 3.* ***Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan*** *bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro'y berib turibdi. 4.* ***Kavushini to'g'rilab qo'yish*** *kerak. (*As.Mux.) 1- va 2- gaplarda frazeologizmlar gap markazi — kesim mavqeyida, 3-gapda so'z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4-gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.

Frazeologizm tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizm: [*ko'ngli bo'sh*], [*enka-tinkasini chiqarmoq*], [*jig'iga tegmoq*], [*bel bog'lamoq*], [*kir izlamoq*], [*terisiga sig'may ketmoq*] va h. Gap tipidagi frazeologizm «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsuli: [*istarasi issiq*], [*ichi qora*], [*labi-labiga tegmaydi*], [*ko'ngli ochiq*], [*tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq*], [*kapalagi uchib ketdi*], [*po'konidan el o'tmagan*], [*tepa sochi tikka bo'lmoq*] va h.k.

Ayrim leksik birliklar frazeologizmning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: [*dardisar*], [*toshbag'ir*], [*boshog'riq*]. Demak, leksema hosil bo'lish manbalaridan biri — frazeologizm.

Frazeologizm, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansub.

Fe'l turkumiga mansub frazeologizmlar: [*me'dasiga tegmoq*], [*yaxshi ko'rmoq*], [*holdan toymoq*], [*sabr kosasi to'lmoq*], [*tepa sochi tikka bo'lmoq*], [*og'ziga talqon solmoq*], [*podadan oldin chang chiqarmoq*].

Sifat turkumiga mansub frazeologizm: [*ko'ngli bo'sh*], [*rangi sovuq*], [*yuragi toza*], [*avzoyi bejo*], [*dili siyoh*], [*kayfi buzuq*].

Ravish turkumiga mansub frazeologizm: [*ipidan-ignasigacha*], [*ikki dunyoda ham*], [*miridan-sirigacha*], [*ha-hu deguncha*].

So'z – gaplarga mansub frazeologizm: [*turgan gap*], [*shunga qaramay*], [*katta gap*].

Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumi bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati yetarli darajada o'rganilmagan.

Frazeologizm leksik birlik kabi qo'llanish darajasi nuqtayi nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra umumiste'mol frazeologizmi ([*holdan toymoq*], [*shunga qaramay*], [*ro'yobga chiqmoq*]) va qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm farqlanadi. Qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm qo'llanilish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum bir tafovutlarga ega:

– eskirgan frazeologizm: [*alifni kaltak demoq*], [*aliflayloni bir cho'qishda qochiradigan*], [*dastin aliflom qilib, kallasini xam qilib*], [*yeng silkitmoq*];

– dialektal frazeologizm: [*alag'da bo'lmoq*] (xavotir olmoq), [*ko'ngli tob tashladi*] (ezildi), [*halak bo'lmoq*] (ovora bo'lmoq), [*qumortqisi quridi*] (intiq bo'lmoq);

– ilmiy frazeologizm: [*nazar tashlamoq*], [*ko'zga tashlanmoq*], [*chambarchas bog'lanmoq*], [*to'g'ri kelmoq*], [*imkoniyatlar doirasi*], [*qulay qurshov*];

– badiiy frazeologizm: [*sabr-kosasi to'lmoq*], [*og'zining tanobi qochmoq*], [*og'zidan bodi kirib, shodi chiqmoq*], [*qildan qiyiq axtarmoq*], [*six ham kuymasin, kabob ham*], [*boshida yong'oq chaqmoq*];

– so'zlashuv nutqi frazeologizmi: [*arpasini xom o'rmoq*], [*yerga urmoq*], [*yuragi qon*], [*ko'zi tor*], [*ko'zi och*], [*boshi ochiq*].

Frazeologizmning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xos.

Frazeologizmning semantik strukturasi

Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm: (*burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; ko'ngli bo'sh; hash-pash deguncha*) denotativ ma'noga ega bo'lsa, *turgan gap, shunga qaramay* kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi.

Odatda, frazeologizmning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazelogizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida [*yoqasini ushlamoq*] frazeologizmi bilan [*hayron bo'lmoq*] leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq» bo'lsa, [*hayron bo'lmoq*] leksemasi «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq» sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida «o'ta darajada» va «so'zlashuv uslubiga xos», «bo'yoqdor» semalariga egaligi bilan «hayron bo'lmoq» leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmning ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Masalan, [*hayron bo'lmoq*] leksemasi umumuslubiy va bo'yoqsiz. Shuning o'ziyoq barcha uslubda qo'llanish imkoniga egaligini va turli «bo'yoqlar» bilan ishlatish mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, frazeologizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasa-da (atash semelari bir xil bo'lsa-da), ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya'ni ifoda semalari turlichadir).

Frazeologizm birdan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topadi. Biroq uning ma'nosi tashkil etuvchi ma'nolarining oddiy yig'indisi emas. Masalan, [*qo'yniga qo'l solmoq*] frazeologizmining ma'nosi [*qo'yin*], [*qo'l*], [*solmoq*] leksemalari ma'nolari sintezi yoki qo'shiluvchi emas. Frazeologizmning ma'nosi tashkil etuvchi so'z to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil

bo'ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo'ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish harakatiga o'xshaydi. Natijada, *qo'yniga qo'l solmoq* erkin birikmasi o'zidan anglashilgan mazmunga o'xshash bo'lgan boshqa bir mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmga aylanadi. Yoki kishi qo'ltiqlab ketayotgan tarvuzini tushirib yuborsa, qanday ahvolga tushadi? Biror narsadan ruhiy tushkunlikka tushgan odamning holati shunga monand va erkin birikma frazeologizm mohiyatiga ega bo'lgan. Bu esa frazeologik ma'noning mantiqiyligidan dalolat beradi.

Frazeologizm tarkibidagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda, boshqalarining o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, [*aqlini yemoq*], [*ko'zini bo'yamoq*], [*ko'zi ko'ziga tushdi*], [*og'zi qulog'ida*] frazeologizmlarida (*aql*), (*ko'z*), (*og'iz*) so'zlari o'z ma'nosida, (*yemoq*), (*bo'yamoq*), (*tushmoq*), (*qulog'ida*) so'zlari ko'chma ma'noda.

Ba'zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilma frazeologizmga aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin. Shuning uchun *barmog'ini tishlab qolmoq* qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. *Tishni-tishga qo'ymoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, labiga uchuq toshmoq* iboralari ham shular jumlasidandir.

Ayrim frazeologizm turli diniy aqida, tushuncha, rivoyat asosida ham shakllanadi: 1. *Uning eriga mening* ***ko'zim tekkan*** *emish.* (I.Rah.) 2. *Hammani qo'yib, sizning soldat o'g'lingizga tegaman deb* ***ko'zim uchib*** *turibdimi?* (M.Muham.) 3. *«Jabrdiyda»ning ham, guvohlarning ham* ***dumi xurjunda*** *gaplari shunday savollar berilishini talab etardi.* (M.Ism.)

Frazeologizm, asosan, bir ma'nolidir. Ammo polisemantiklik frazeologizmda ham uchrab turadi. Masalan, [*aqli yetadi*] frazeologizmi «idrok qilmoq», «ishonch hosil qilmoq» ma'nosiga, [*bo'yniga qo'ymoq*] iborasi 3 ta — «aybni birovga to'nkamoq», «isbotlab e'tirof qildirmoq», «biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq» ma'nolariga, [*...'lga olmoq*] iborasi esa 4 ta- «o'z ixtiyoriga o'tkazmoq», «qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq», «qamash maqsadida tutmoq», «biro. yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq» ma'nolariga ega.

Frazeologik polisemiyada barcha ma'no ko'chma bo'lganligi bois, ularni bosh va hosila ma'nolarga ajratish qiyin.

Frazeologizmlarda semantik munosabat. Leksikada bo'lgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabat amal qiladi.

Frazeologik sinonimiya. Ma'nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham mavjud. Frazeologizmning ma'nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko'ra farqlanadi: [*yaxshi ko'rmoq*] — [*ko'ngil bermoq*], [*yer bilan yakson qilmoq*] — [*kulini ko'kka sovurmoq*], [*ipidan ignasigacha*] — [*miridan sirigacha*], [*qilidan quyrug'igacha*] va h. Ma'nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil bo'ladi. Masalan, [*ipidan ignasiga*] — [*miridan sirigacha*], [*qilidan quyrug'igacha*] kabi iboralarida «butun tafsiloti bilan» atash semasi umumiy. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo'yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

Sinonim frazeologizmlarni frazeologik variantdan farqlash lozim. Sinonim iboralarda ayni bir so'z bir xil bo'lishi mumkin. Lekin qolgan so'zlar sinonim leksemaning ko'rinishlari bo'lmasligi lozim. [*Jonini hovuchlab*] va [*yuragini hovuchlab*] iboralarida bir xil so'z mavjud. Ammo [*jon*] va [*yurak*] so'zlari sinonim leksema ko'rinishi emas. [*Ko'ngliga tugmoq*] va [*yuragiga tugmoq*] iboralari frazeologik variant.

Frazeologik antonimiya. Zid ma'noli antonimlar bir-biriga teskari tushunchani ifodalaydi. Misollar: [*ko'ngli joyiga tushdi*] — [*yuragiga g'ulg'ula tushdi*], [*qoni qaynadi*] — [*og'zi qulog'iga yetdi*].

Frazeologik omonimiya. Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo'lishi mumkin. Misollar: [*so'z bermoq I*] («va'da bermoq»), [*so'z bermoq II*] («gapirishga ruxsat bermoq»), [*boshga ko'tarmoq I*] («ardoqlamoq»), [*boshga ko'tarmoq II*] («to'polon qilmoq»), [*qo'l ko'tarmoq I*] («ovoz bermoq»), [*qo'l ko'tarmoq II*] («urmoq»).

Frazeologizmdagi darajalanish, giponimiya, funksionimiya, iyerarxionimiya kabi semantik munosabatlar o'z tadqiqotini kutmoqda.

Leksikografiya

Tilshunoslikning lug'at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos—co'z, so'zga oid va grapho—yozaman) yoki lug'atchilik deyiladi. Maqsad va vazifasiga ko'ra leksikografiya ikkiga bo'linadi:

a) ilmiy leksikografiya lug'atchilikning nazariy masalasi bilan shug'ullanadi;

b) amaliy leksikografiya bevosita lug'at tuzish ishi bilan mashg'ul bo'ladi.

Leksikografiya muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Bular quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

1) ona tilini va boshqa tillarni o'rgatish;
2) ona tilini tasvirlash va me'yorlashtirish;
3) tillararo munosabatlarni ta'minlash;
4) til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish.

Lug'at maqsadi va mo'ljaliga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) umumiy lug'at;
2) maxsus lug'at.

Umumiy lug'at keng o'quvchilar ommasiga, maxsus lug'at esa tor doiradagi kishilar—alohida soha mutaxassisiga mo'ljallangan bo'ladi.

Har ikkala tur lug'at ham o'z o'rnida yana ikkiga bo'linadi:

1) ensiklopedik lug'at;
2) filologik lug'at.

Demak, lug'atni umumiy ensiklopedik lug'at va maxsus ensiklopedik lug'at, umumiy filologik lug'at va maxsus filologik lug'atga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq va qulay.

Umumiy ensiklopedik lug'at (UEL). Ma'lumki, UEL alfavit tartibida bo'lib, ularda so'z emas, balki shu so'zdan anglashilgan tushunchalar uchun asos bo'lgan narsa, tarixiy voqea, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma'lumot beriladi va lug'at maqolasi lug'at yozilgan tilni tushunuvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan bo'ladi. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» ana shunday lug'atlardan biri. Unda shunday deyiladi: «O'zME (O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi) universal ensiklopediya bo'lganligi uchun fan-texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid ma'lumotlar muxtasar tarzda ifodalanib, u insoniyat sivilizatsiyasining muhim yutuqlari haqidagi bilimlar majmuidan iboratdir». Prezident I.Karimov O'zME ga yozgan so'zboshisida «Ensiklopediyamiz o'zining ilmiy jihatdan chuqur, ayni vaqtda ommabopligi bilan keng kitobxonlar orasida obro'-e'tibor topib, jahonning nufuzli qomuslari qatoridan munosib o'rin olishiga ishonchim komil» deb, uning funksiyasini alohida ta'kidlaydi.

Maxsus ensiklopedik lug'at (MEL). Fan-texnika, san'at va madaniyatning ma'lum bir sohasiga oid tushunchalarni shu soha qiziquvchilari va mutaxassislari uchun mo'ljallab tavsiflaydi. Bunday lug'at sifatida soha ensiklopedik lug'atlari — «Медицина энциклопедияси», «Физический энциклопедический словарь», «Лингвистический энциклопедический словар» kabilarni misol

qilib keltirish mumkin. UELdan farqli ravishda MEL tor sohaga doir tushunchani keng va batafsil sharhlaydi. Masalan, rus tilida yaratilgan «Лингвистический энциклопедический словарь»da shunday deyiladi: «Bu lug'at turli ixtisosliklardagi filolog-tilshunoslar va ilmiy xodimlarning keng doirasiga, shuningdek, tilshunoslik bilan yaqin bo'lgan soha vakillari psixologlar, mantiqshunoslar, filosoflar, etnograf va adabiyotshunoslarga mo'ljallangan». Quyida «Лингвистический энциклопедический словарь»dan namuna keltiramiz (bunday lug'at o'zbek tilida yaratilmagani uchun olingan maqolaning tarjimasi berildi).

«**AKKOMODATSIYA** (lat. Accomodatio-moslashish) tovushning kombinator o'zgarishidan biri: qo'shni undosh va unlining qisman moslashuvi. Akkomodatsiya shunday hodisaki, keyingi tovushning ekskursiyasi (artikulatsiyasining boshlanishi) oldingi tovushning rekursiya (artikulatsiyasining tugashi)ga moslashadi (прогрессив аккоматция) yoki oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashadi. Ayrim tillarga unlining undoshga moslashishi xosdir, masalan, rus tilida [a], [o], [u] unlilari yumshoq undoshdan keyin til oldi unlilariga aylanadi (ularning artikulyatsiyasi ekskursiyaga intilgan). Qiyoslang: «mat»-«myat», «mol»- «myol», «luk»-«lyuk». Boshqa tillarda esa undoshning unliga akkomodatsiyasi kuzatiladi, masalan, fors tilida til oldi unlisidan oldin kelgan undosh tanglaylashadi» (22-bet).

Ko'rinadiki, maxsus ensiklopedik lug'at soha mutaxassislari uchungina zarur bo'lgan tushunchani ana shu soha ilmiy uslubiga xos ifoda bilan tasvirlaydi.

Umumiy filologik lug'at barcha soha kishilari, keng foydalanuvchilar ommasiga mo'ljallangan izohli, imlo, orfoepik, tarjima lug'atdir. «O'zbek tilining izohli lug'ati» (O'TIL), «Ruscha-o'zbekcha lug'at» (RO'L) ana shunday lug'atlar sirasiga kiradi. Shu boisdan O'TILda shunday deyiladi: «Lug'at keng o'quvchilar ommasiga — tilshunoslar, o'rta va oliy maktab o'quvchilari va o'qituvchilari, yozuvchilar, jurnalistlar, gazeta va nashriyot xodimlari va o'zbek tiliga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan» (1-tom, 5-bet) Izohli lug'at so'zning ma'nosini shu tilda sharhlaydi, izohlaydi va shu ma'nosi bilan nutq tarkibida beradi. Misollar:

BAQIRLAMOQ — Baqir-buqur ovoz chiqarib qattiq qaynamoq. *[Hamrobibi] dasturxon yozdi, baqirlab qaynayotgan samovarni keltirib, qopqoqlab qo'ydi.* R.Fayziy. El mehri.

YOZ – 1-yilning bahor bilan kuz orasidagi eng issiq fasli. *Laylak keldi-yoz bo'ldi. Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas.*

2-*ko'chma* umrning eng gullagan yaxshi davri. *Yozim o'tdi, chiroyingizga to'q bu quvnoq ko'ngil.* G'ayratiy.

Ko'ngli yoz bo'ldi. Ortiq sevinib, bahri dili ochildi. *Negadir otashin ko'ngli yoz bo'lib ketdi.* O'.Umarbekov. Charos.

Umumiy izohli lug'atda lug'aviy birlikning barcha – grammatik, uslubiy, frazeologik birlik tarkibida qatnashishi, omonimligi, qaysi tildan o'zlashganlik belgilari ko'rsatiladi.

O'zbek tilining bu turdagi lug'ati birinchi marta 1981-yilda Moskvada nashr etildi. «Boy leksikografik an'analarning davomi sifatida o'tgan asrning 50–80-yillari mobaynida o'zbek tilshunosligida erishilgan va o'zbek leksikografiyasini tilshunoslikning tez rivojlanib borayotgan mustaqil sohasiga aylantirgan ulkan muvaffaqiyati tufayli yuzaga kelgan» (1-tom, 5-bet). «O'zbek tilining izohli lug'ati» o'zbek xalqi tarixi va ma'naviyati taraqqiyotida ulkan hodisa bo'ldi. «Lug'atning asosiy vazifasi o'zbek tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash bilan birga, uning me'yorini belgilab berish va mustahkamlashdan ham iboratki, unda tilning imlo, talaffuz, so'z yasash va ishlatish me'yorlari tavsiya etildi» (1-tom, 5-bet).

Demak, o'zbek tilining ilk izohli lug'ati o'z oldiga qo'yilgan o'zbek tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash hamda uning me'yorini belgilashdan iborat tarixiy vazifasini bajardi. Biroq tilshunoslik fanining rivoji, o'rganish manbaiga yondashuv omillari va metodologiyasining taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy fanlarga qo'yiladigan yangicha talablarning yuzaga kelishi ijtimoiy ong shakllaridan bo'lgan tilning ilmiy talqinida ham yangicha qarashlar shakllanishiga olib keladi .

Leksemalarning lug'aviy ma'nosi talqinida lison va nutqni izchil farqlash talabi har bir so'zga xos barqaror lisoniy va o'tkinchi nutqiy jihatni ajratishni taqozo qiladi. Nutqiy hodisa cheksizlik va rang-baranglik tabiatiga ega bo'lganligi bois leksikografik talqinning obyekti bo'la olmaydi. Lug'at so'zga xos barqaror jihatnigina qamrab olish imkoniga ega. Demak, semasiologiya sohasida amalga oshirilgan izchil substansial tadqiqotlar lug'atni tartiblashtirishda muhim tayanch omil bo'lib, leksikografni cheksiz nutqiy ma'nolarni tartibga keltirish, lug'atga kiritish hamda izohlash tashvishidan xalos etadi. Bunda har bir voqelangan nutqiy lug'aviy ma'noda qorishgan o'zga hodisalar tajallilarini e'tibordan soqit

qilish, ushbu birlik (leksema)ning mohiyatiga daxldor bo'lgan unsurni ajratish va tavsiflash leksikografik talqinda muhim ahamiyatga ega.

Imlo lug'ati so'zlarni amaldagi imlo qoidalariga muvofiq ravishda qanday yozish kerakligini o'rgatadi. Demak, bunday lug'at hammabop va amaliy tabiatga ega bo'ladi va unga S.Ibrohimov va M.Rahmonovlarning 1956, 1964-yillarda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan» nashr etilgan, S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovlarning 1976-yilda «Fan» nashriyoti tomonidan chop etilgan kirill yozuviga doir imlo lug'atlarini kiritish mumkin.

1995-yilda Sh. Rahmatullayev va A.Hojiyev tuzgan lotin imlosidagi imlo lug'ati «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etildi.

Orfoepik lug'atda so'zning to'g'ri adabiy talaffuzi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta kichik hajmda M.Sodiqova va O'.Usmonova tomonidan «O'zbek tilining orfoepik lug'ati» nomi bilan 1977-yilda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan bosib chiqarildi.

Maxsus filologik lug'at tor o'quvchilar ommasi – tilshunoslik bilan shug'ullanuvchilar va boshqa ilmiy tadqiqotchilarga mo'ljallangan bo'ladi. O'zbek tilining morfem, chastotali, ters, o'zlashma so'zlar, frazeologizm, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, dialektizm, terminologik, etimologik lug'atlar shular jumlasidan.

Morfem lug'atda leksik birlikning tarkibi–morfemik strukturasi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta A.G'ulomov, A.N.Tixonov, R.Q.Qo'ng'urov tomonidan tuzilib, 1977-yilda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etilgan.

Chastotali lug'atda so'zning qo'llanish darajasi haqida ma'lumot beriladi. I.A.Kissen muallifligida chop etilgan «Slovar naibolee upotrebitelnых slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika» (Tashkent, 1970) lug'ati chastotali lug'at bo'lib, unda ma'lum bir tanlangan matnlarda so'zlarning qo'llanilish chastotasi (takrorlanganlik miqdori) ko'rsatiladi. Bunday lug'at S.Rizayev, Z.Hamidov, N.Axmatov, N.Mamadaliyeva, R.Zohidov tomonidan alohida asarlar bo'yicha tuzilgan.

Ters lug'atda so'z teskari tomondan oxiridan alfavit tartibida joylashtiriladi. Bu ham lingvistik lug'at bo'lib, R.Qo'ng'urov va A.Tixonov tomonidan «Обратный словарь узбекского языка» nomi bilan 1969-yilda Samarqandda chop etilgan. Undan namuna keltiramiz:

serharajat
hujjat
xat-hujjat
behujjat
murojaat
hojat
muhofazat
ijozat
beijozat.

O'zlashma so'zlar lug'atida o'zbek tiliga boshqa tildan kirib kelgan so'z izohlanadi. Bu tipdagi lug'at izohli lug'atning bir ko'rinishi. Ular qaysi tildan o'zlashgan so'zlarni izohlashiga ko'ra turlicha nomlanadi. Masalan, O.Usmon va R.Doniyorovlar tomonidan 1965-yilda nashr etilgan «Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati»da rus va boshqa Yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlar izohlangan.

Frazeologik lug'at ham maxsus lingvistik lug'atning bir turi bo'lib, Sh.Rahmatullaev tomonidan tuzilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (Toshkent, 1978) bunday lug'atning mukammal namunasidir. Undan misollar keltiramiz.

«**Qulog'(i)ga chalinmoq** nima kimning? Biror gapni yoki tovushni noaniq tarzda eshitmoq. o'xshashi: **qulog'(i)ga kirmoq.** *Erkaklar orasidagi gap Asalbibining qulog'iga chalingan edi.* Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. *Uzoqdan traktorning guvillagan ovozi quloqqa chalindi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi (294-bet).

«**Qurimoq** – yostig'ini quritmoq: yostig'i quridi: tinka-madori quridi: tinkasini quritmoq: esim qursin» (375-bet).

Onomastik lug'at o'zbek leksikografiyasining alohida sohasiga aylandi. Bunday lug'atda atoqli ot (onomosionim), toponim yoki antroponim izohlanadi va ular etimologik lug'atning o'ziga xos ko'rinishi. Bunga T.Nafasov tomonidan tuzilgan «Janubiy O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati»ni, S.Qorayevning «Joy nomlarining izohli lug'ati»ni misol qilib keltirish mumkin.

Dialektal lug'at o'zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo'lgan leksik birliklarni qayd qiladi. Bunday lug'at, umuman, o'zbek tilining barcha shevalariga xos yoki ma'lum bir sheva so'zini izohlashga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. 1971-yilda mualliflar jamoasi tomonidan «Fan» nashriyotida chop etilgan «O'zbek xalq shevalari lug'ati»ni bunga misol qilib keltirish mumkin. Lug'atdan misol keltiramiz:

Govara (Buxoro) beshik;
Gavdo'sha (Buxoro) xurmo;
Gajdim (Nayman) chayon (62-bet).

Terminologik lug'atlar ma'lum bir sohaga tegishli so'zni izohlaydi. Terminologik lug'at izohli yoki tarjima ko'rinishiga ega bo'ladi. Demak, terminologik lug'atni bir tilli va ko'p tilli lug'atga bo'lish mumkin. Quyida A.Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati» (Toshkent, «O'qituvchi», 1985) dan namuna keltiramiz:

«***Kriptologiya.*** Maxfiy tillar, ularni tuzish qonuniyatlarini, rasshifrovka qilish usullarini o'rganuvchi fan.

Ko'makchili aloqa. So'zlar o'rtasida ko'makchilar vositasida yuzaga keladigan aloqa: *qalam bilan yozmoq, uyga qadar yugurmoq* kabi.»

Tarjima lug'atlar bir tildagi so'z ma'nosining boshqa tilda ifodalanishi, berilishini ko'rsatadi. Ruscha-o'zbekcha lug'atdan misol:

РАЗБОГАТЕТЬ sov, (nesov, bogatet) boyimoq, boyib ketmoq, davlat orttirmoq.

ЦАРЕВНА j. r. mn.-ven. malika, shohbekach (podshohning qizi).

Tarjima lug'ati ikki tilli yoki ko'ptilli bo'lib, lug'atlarda so'z ikkitadan ortiq tilda beriladi. Bunday lug'atlar juda kam.

Tarjima lug'atlari qanday birliklarni ifodalashiga ko'ra turlicha bo'ladi:

1) leksik birliklar lug'ati;
2) frazeologizmlar lug'ati;
3) har ikkala birliklar lug'ati;
4) maqollar lug'ati.

1984-yilda Toshkentda nashr etilgan ikki tomli «Ruscha-o'zbekcha lug'at» leksik birliklar lug'atidir.

Frazeologik birliklar tarjima lug'atiga M.Sodiqovaning «Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'ati» (Toshkent, 1972) namuna bo'ladi. Undan ayrim misollar keltiramiz:

Ахнуть не успел — ko'z ochib-yumguncha, bir zumda: og'iz ochib bir narsa deguncha ham bo'ladi: *bir og'iz ham gap aytolmay qoldi* (14-bet).

Без задних ног — s.t. juda charchab holdan toygan, sulayib qolish (82-bet).

O'zbek lug'atchiligi axborot texnologiyalari asosida ri' ojlanish bosqichiga qadam qo'ymoqda.

MORFEMIKA

Morfemika va uning birligi haqida umumiy ma'lumot. Morfemika so'zning nomustaqil tarkibiy qismi haqidagi ta'limot. Ma'lumki, o'zbek tilida, flektiv tillardagidan farqli o'laroq, o'zak mustaqil ma'no anglatish xususiyatiga ega. So'zning o'zakdan boshqa qismlari esa undan ayricha qo'llanmaydi va ma'no anglatmaydi. Shuning uchun ular *morfema* deyiladi. Masalan, (*paxtakorlarga*) so'zi (*paxta*), (*-kor*), (*-lar*), (*-ga*) qismlaridan iborat. Ajratilgan har bir tarkibiy qism bu so'z doirasida o'ziga xos elementar va semantik mavqega ega. Ular lisonda ana shunday ajralgan holda o'z «xonacha»larida guruh-guruh bo'lib yashaydi.

(*Paxta-*) va (*-kor*), (*-lar*), *-ga* qismlari o'zaro semantik va qo'llanish xususiyati jihatidan farqlanadi. [*Paxta*] birligi mustaqil lug'aviy ma'noga egaligi va bu ma'noni qolgan qismlarsiz ham anglata olish xususiyati bilan boshqa tarkibiy qismlardan ajralib turadi. Shuning uchun u *leksema* deyiladi. Boshqa qismlar esa ajralgan holda mavhum bo'lishi, leksemasiz mustaqil ma'no anglata olmasligi bilan xarakterlanadi. Leksema shakllanuvchanlik, morfema shakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqillik tabiati va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni *morfema* deb atashga olib kelgan. Morfemaning nutqiy ko'rinishi *qo'shimcha* deyiladi.

Tilimizda *yordamchi so'z* deb ataluvchi katta guruh ham bor bo'lib, leksema va morfema sirasida «oraliq uchinchi» maqomida bo'ladi. Shuning uchun ularni *leksema-morfema* deyish mumkin. Yordamchi so'zning leksemaligi shundaki, u mustaqil so'z kabi ajralganlik xususiyatiga ega. Biroq shakllanuvchanlikka ega emas. Lug'aviy ma'noga ega emasligi ularni morfemik maydon sari tortib turadi.

Lisoniy sathda leksema qo'shimchali yoki qo'shimchasiz bo'lishi mumkin. Masalan, [*ishchi*], [*paxtakor*], [*ishla*] leksemalari — nutqiy yasama so'zning lisoniylashuvi. Ular leksema sifatida lisonda [*ish*], [*paxta*] leksemalaridan farqli o'laroq, so'z yasovchi qo'shimcha bilan birga mavjud. Qo'shimchadan xoli leksema *o'zak* atamasi bilan ham nomlanadi.

Turkiy tillarda nol morfema grammatik shakl sirasida ustuvor mavqega ega ekan, nutqda voqelangan aksariyat mustaqil leksema qo'shimchasiz bo'lishi mumkin emas. Moddiy qiyofali morfemasiz bunday so'z nol qo'shimchalidir. Masalan, nutqdagi *Kitobni o'qi,*

Uyga bor, U a'lochi gaplaridagi (*o'qi*), (*bor*), (*a'lochi*) so'zlari – nol qo'shimchali nutqiy birlik.

Leksema tarixiy taraqqiyot natijasida morfemaga aylanib borishi, morfema esa so'zning o'zagiga singib ketishi mumkin. Masalan, [*xona*] leksemasi taraqqiyot natijasida ikkiga ajralgan. Bir ma'nosida «joy» semali yasama so'zni hosil qiluvchi derivatsion vositaga aylanib ketgan, leksemalikdan mahrum bo'lgan. [*Noma*], [*goh*], [*xo'r*] leksemasi ham shunday tarixiy siljishni boshidan kechirgan. Albatta, tildagi bunday hodisalar ilmiy muammo bo'lib, maxsus tekshirish natijasida tayinli xulosaga kelish mumkin. Chunki bu birlikning turkiy unsurlar emasligi shuni taqozo qiladi.

So'zning morfemik strukturasidagi o'zgarish. Aytilganidek, til taraqqiyoti natijasida so'zning semantik, fonetik strukturasida bo'lgani kabi, morfemik tarkibida ham jiddiy o'zgarish yuz beradi. Ularning har xil ko'rinishi bor:

1) so'z va qo'shimcha birlashib, so'z *tublashishi* mumkin: *yuksal, yuksak*;

2) so'z va qo'shimcha birlashib, *yaxlitlanishi* mumkin: *biron, biror, bezor*; (qo'shimcha bunday zichlashishi natijasida o'z invarianti – morfemasidan uzilishi mumkin);

3) so'z va qo'shimcha orasidagi aloqa *soddalashishi* mumkin: *yumsho**q**, qatti**q***;

4) so'z qo'shimcha holiga kelishi, murakkab qo'shimchalar bir-biriga qo'shilib ketishi, ya'ni *birlashishi* mumkin: *borib **yotibdi** – borib **yatipti** – boryapti; ning + i=niki.*

Morfemalarning funksional-semantik tasnifi. Morfema funksional-semantik xususiyatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi:

1) derivatsion morfema;

2) grammatik morfema.

Derivatsion morfema so'zga qo'shilib, yangi so'z hosil qiladi. Yangi so'z yangi lug'aviy va grammatik ma'noga ega bo'ladi. Masalan, [*paxta*] leksemasi [*-chi*] affiksini olib, (*paxtachi*) so'zi vujudga keladi. Yangi lug'aviy ma'no yangi grammatik ma'noni ham vujudga keltiradi: narsa-buyum oti shaxs otiga aylanadi. Shu bilan birgalikda, yangi so'zning valentlik imkoniyati ham asos so'znikidan keskin farqlanadigan holga keladi.

Grammatik morfema asosiy xususiyatiga ko'ra uchga ajraladi:

1) lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfema;

2) sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema;

3) lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfema leksema lug'aviy ma'nosini nutqqa moslashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, [*kitob*] leksemasining sememasida birlik va ko'plik ma'nosi noma'lum. Son lug'aviy shakl hosil qiluvchisi bo'lgan [*–lar*] uni ko'plik tomon muayyanlashtiradi. Bu morfemaning o'ziga xos turi *lug'aviy-cintaktik shakl hosil qiluvchi morfema bo'lib,* lug'aviy ma'noni muayyanlashtirish, nutqqa xoslash bilan birga ((***kelgan***), (*o'qigach*)), so'zni sintaktik aloqaga ham kiritadi: *o'qigan bola, o'qigach gapirmoq.*

Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema so'zning sintaktik qurilmadagi o'rnini belgilaydi. Masalan, kesimlik kategoriyasi so'zga kesimlik mavqeini beradi. Kesimning ega va hol bilan sintaktik aloqasini ta'minlaydi. Kelishik morfemalari oldingi mustaqil so'zni keyingi, egalik qo'shimchalari esa keyingi mustaqil so'zni oldingisiga bog'lash vazifasini bajaradi.

Morfemaning struktur tasnifi. Morfema tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* turga bo'linadi:

Sodda morfema tarixan qanday bo'lganligidan qat'i nazar ajralmas, yaxlit, bir tarkibli morfemadir: [*-lar*], [*-roq*], [*-chi*], [*-niki*], [*-sin*], [*-di*], [*-gach*].

Murakkab morfemalar aslida mustaqil morfemaning ma'lum funksiya bajarish maqsadida birlashishi: (*odamgarchilik*), (*uygacha*), (*xafachilik*), (*chorvachilik*), (*borganda*).

Morfemaning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi. Morfemada ham shakl va ma'no munosabati barqaror. Morfemaning miqdoran cheklanganligi bu munosabatning keng qamrovliligidan dalolat beradi.

Morfemik polisemiya. Morfemik polisemiya keng tarqalgan. Bu morfemaning polifunksionalligiga bog'liq. Misol sifatida [*–chilik*] affiksini olaylik. Darslik va qo'llanmalarda uning quyidagi uch ma'nosi farqlanadi:

1) asosdan anglashilgan narsa yetishtiriladigan sohani ifodalovchi ot: (*paxtachilik*), (*urug'chilik*), (*chorvachilik*), (*uzumchilik*);

2) asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiruvchi ot: (*pishiqchilik*), (*mo'lchilik*), (*arzonchilik*);

3) asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog'liq bo'lgan ishni bildiruvchi ot: (*ulfatchilik*), (*tirikchilik*), (*dushmanchilik*).

Aksariyat morfema – polisemik tabiatli.

Morfemik omonimiya. Shakldoshlik bir tur morfemalar orasida ham, turli morfema orasida ham bo'lishi mumkin.

1) derivatsion omonimiya: *-ki* I: [*turtki*], [*tepki*], [*ko'chki*] (ot yasovchi); *-ki* II: [*ichki*], [*kechki*], [*ustki*] (sifat yasovchi);

2) grammatik omonimiya: *-(i)sh* I: (*borish*), (*kelish*), (*ketish*) (harakat nomi shakli); *-(i)sh* II: (birga) (*yuvish*), (*tarash*), (*ishlash*) (birgalik nisbat shakli);

3) derivatsion-grammatik omonimiya: *-(i)m* I: [*yig'im*], [*terim*], [*sig'im*] (ot yasovchi morfema); *-(i)m* II: *uyim, kitobim, soatim* (egalik morfemasi).

Morfemik sinonimiya. Aksariyat morfema ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi. Shu boisdan derivatsion hamda grammatik sinonimiya farqlanadi.

Derivatsion sinonimiya. Derivatsion morfemaning bir-biriga yaqin ma'noni ifodalashi *derivatsion sinonimiya* deyiladi. Masalan, sifat yasovchi [*-li*], [*-dor*], [*-ser*], [*-ba*] morfemalari o'zaro sinonim: (*savlatli*), (*savlatdor*), (*sersavlat*), (*basavlat*) kabi.

Ma'nodoshlik morfemalararo to'liq emas, balki ayrim ma'no qirralari orasida bo'ladi. Ya'ni bir morfema ikkinchi morfema bilan barcha ma'nolari asosida sinonim bo'la olmaydi.

Bugungi kunda derivatsion sinonimiya va derivatsion darajalanishni farqlash tilshunosligimizda tadqiqini kutayotgan muammolardan.

Grammatik sinonimiya. *Nonni yeng — **nondan** yeng, uyga jo'namoq - uy **tomon** jo'namoq* kabi hodisalarda grammatik ma'nodoshlik mavjud.

Morfemik antonimiya. Morfemik antonimiya derivatsion morfema orasidagina mavjud. Unga misol sifatida [*-li*] va [*-siz*] affiksini keltirish mumkin: *andisha**li**-andisha**siz**, baraka**li**-be**baraka**, baxt**li**-baxt**siz*** kabi.

Morfema variantlari. Morfema nutqda turli variantga ega bo'ladi. Misol sifatida qaratqich kelishigi invariant shaklining variantini kuzataylik:

a) poetik variant: *bog'**in** mevasi;*

b) tarixiy variant: *ma**nim**;*

d) dialektal variant: *kitob**ing***;

e) fonetik variant: men***ing***.

Kelishik paradigmasiga kirish huquqiga faqat invariant shakl (*-**ning***)gina ega.

DERIVATSIYA

Derivatsiya (so'z yasalishi, hosil bo'lishi) tilshunoslikning alohida bo'limi. U derivatsiya hodisasi, uning diaxron va sinxron

turi, so'z yasash, hosil bo'lish usuli kabi masala bilan shug'ullanadi. Derivatsiya so'z yasalishini ham ([*ishchi*], [*ishla*], [*kitobxon*]), ichki mikoniyat asosida yangi leksema paydo bo'lishini ham ([*kelishgan*], [*ixtisoslashuv*], [*o'qigan*], [*birov*] o'rganadi.

So'z yasalishi — sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayon. U derivatsiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Biroq uning lisoniy asosi bor. Shu sababli lison va nutqqa birday daxldor.

So'z yasalishi lingvistik termin sifatida ikki ma'noli:

a) so'z yasash jarayoni atamasi;

b) ushbu jarayonni o'rganuvchi soha.

So'z yasash deganda qanday usul bilan bo'lsa-da, yangi so'z hosil qilish tushunilavermaydi. Masalan, so'z yangi ma'no kasb etishi natijasida yangi so'z paydo bo'lishi mumkin. Deylik, [*ishbilarmon*] so'zi yangi ma'no kasb etdi. Biroq bu erda yangi so'z yasalishi yo'q.. Demak, so'z yasalishi, yasama va yangi ma'no kasb etgan so'zlarning leksemalashuvi hodisasini farqlash lozim.

Derivatsiya ham til taraqqiyoti natijasida tarixiylik va zamonaviylikka daxldor bo'ladi. Shu boisdan tarixiy va sinxron derivatsiyani farqlash lozim.

Tarixiy va sinxron derivatsiya. Hozirgi derivatsiyada yasama so'z bilan derivatsion (so'z yasash) qolip orasida aloqa mavjud bo'lib, qolipning shakliy va mazmuniy tomoni hosila so'zda o'z izini qoldirgan bo'ladi. [*Kitobchi*] yasama so'zida **[ot+chi=ot bilan shug'ullanuvchi shaxs oti]** qolipidagi tenglik alomatining chap (shakliy) va o'ng (mazmuniy) tomoni izlari yaqqol ko'rinib turibdi.

Tarixiy derivatsiyada yasama so'zning shakli va ma'nosiga mos qolip mavjud bo'lmaydi. Bu maxsus tekshirish natijasida aniqlanadi. Masalan, [*qishloq*], [*ovloq*] so'zlarining ma'nosini ularning tashkil etuvchilari va derivatsion qolipi asosida chiqarib bo'lmaydi. Chunki ular tarixiy yasalmalardir. [*Qorovul*], [*yasovul*], [*silliq*] so'zida ham shu hol kuzatiladi.

So'z yasash (derivatsion) qolipi haqida. Har qanday yasama so'z so'z yasash qolipi asosida hosil qilinadi. Hosila lisoniylashib, o'z qolipidan uzilib ketsa ham, unda bilinar-bilinmas qolip bilan (agar qolip yashovchan bo'lsa) bog'lanish baribir saqlanib qoladi.

So'z yasash qolipi ikki uzvdan iborat bo'ladi:

a) qolipning shakliy tomoni;

b) qolipning mazmuniy tomoni.

Yasama so'zda ana shu ikki jihat tajallilanadi. Yasalma shaklan va mazmunan ana shu qolipga muvofiq kelsa, unga shu qolip hosilasi sifatida qarash mumkin. Masalan, [*kitobchi*] so'zida

mazkur qolipning izi bor. Lekin [*xabarchi*] so'zida qolipning mazmuniy tomoni aks etmagan. Demak, leksema bu qolip mahsuli emas.

So'z yasash qolipining shakliy tomoni ikki qismdan tashkil topadi: *yasovchi asos* va *yasovchi vosita*. Masalan, **[ot+chi=shu ot bilan shug'ullanuvchi shaxs oti]** qolipining shakliy qismi bo'lgan **[ot+chi]** ning *ot* qismi yasovchi asos, [*-chi*] qismi esa yasovchi vosita.

Qolipning yasovchi asosi, albatta, mustaqil so'z, yasovchi vosita qismi esa so'z ham, qo'shimcha ham bo'lishi mumkin. Masalan, qo'shma, juft so'z yasash qoliplarida asos ham, vosita ham so'z.

GRAMMATIKA

MORFOLOGIYA

Grammatika haqida. *Grammatika* ko'plab tilshunoslik atamasi kabi ikki ma'noli. Bir ma'nosida tilning grammatik qurilishi tushunilsa, ikkinchi ma'nosida tilshunoslikning shu grammatik qurilishni o'rganuvchi sohasi anglashiladi. Demak, u so'z va gapning formal-grammatik tomoni – so'z o'zgarishi, sintaktik birliklar va ularning turli ko'rinishi, strukturasi va hosil qiluvchi vositalari, shuningdek, ifodalaydigan grammatik ma'nosini o'rganadi.

Tilning o'ziga xosligi – fonetik, leksik, grammatik strukturaning yaxlitligidan iboratligi. Ular bir-biridan ajralgan holda emas, yaxlit sistema sifatida mavjud. Bu yaxlitlikni zohiriy va botiniy tushunish mumkin. Yaxlitlikning zohiriy alomati tovushning so'z va qo'shimchani, so'zning gap va so'z birikmalarini tashkil etishida namoyon bo'ladi. Yaxlitlikning botiniy idrokida fonetik omilning qo'shimcha, so'z, so'z birikmalari ma'nosini, leksik omilning shu tarzda fonetik, grammatik, grammatik omilning fonetik va leksik hodisalarni farqlashi va nutqqa olib chiqishi kabi bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan holat e'tiborga olinadi. Grammatika ongda nutqiy qo'llanishga shay turgan leksemani grammatik vosita bilan shakllantirib, so'zga aylantiradi, so'zlarni o'zaro biriktiradi va fikr almashish vositasi sifatidagi vazifasini yuzaga chiqaradi.

Tillar o'zaro grammatik xususiyatiga ko'ra ham tasniflanadi. Masalan, o'zbek tilida kesimning gap markazi sifatida boshqa barcha bo'laklarni o'z atrofida uyushtirishi, eganing fakultativligi, sifatlovchining sifatlanmishdan oldin kelishi, bunda inversiyaning bo'lmasligi, ega va kesim, qaratuvchi va qaralmishning ikkiyoqlama aloqaga egaligi, to'ldiruvchi va to'ldirilmish, hol va hollanmish, sifatlovchi va sifatlanmish, izohlovchi va izohlanmishning bir yoqlama aloqada ekanligi kabilar uning boshqa qarindosh tillar bilan birgalikda bir til oilasiga kirishini ta'minlaydi. Ammo bu bir til oilasiga kiruvchi barcha tillar orasidagi farqning mavjudligini inkor qilmaydi. Masalan, turkiy tillarning sintaktik qurilishida o'xshashlik, morfologik qurilishida esa farq ko'proq.

Til hamisha taraqqiyotda. Bunda ustuvorlik, asosan, tilning leksik sathiga beriladi. Ijtimoiy hayotning o'zgarishi leksikada keskin o'zgarish yasaydi. Yangi so'zning vujudga kelishi, so'zlarning «tirilishi», iste'moldan chiqib ketishi kabilar bunga misol. Tilning fonetik va grammatik sathlari ijtimoiy o'zgarishga befarq, unda faqat vaqt o'z izini qoldiradi. Chunki yaqin yillarda tubdan o'zgarishga uchragan ijtimoiy hayotning ta'siri natijasida, masalan, o'zbek tilining morfologik strukturasi, sintaktik qurilishida o'zgarish kuzatilmaganligi buning yorqin dalili. Lekin asrlar davomida bunday o'zgarish bo'lib turadi. Masalan, eski o'zbek tilida [*–gu*] affiksi yordami bilan yasalgan ish otiga [*-m*], [*-ng*] affiksi qo'shilib, ushbu so'zning kesim ekanligini ko'rsatgan: *Men ko'rgum* tipida. Bu hozirgi o'zbek tilida kuzatilmaydi. [*Ul*], (*alar*), (*andin*), (*anda*), (*ko'zun ko'rub*) (ko'zi bilan ko'rib) kabi qator so'zshakl fikrimiz dalili. Yoki eski o'zbek tilida *Bu sening, Bu mening* ko'rinishidagi sintaktik qurilma mavjud bo'lgan. U hozirgi kunda *Bu seniki, Bu meniki* ko'rinishiga ega. *Bu vatan meningdir* kabi qurilmalar uning «qoldig'i».

Grammatikaning tarkibiy qismlari, o'rganish obyekti. Grammatika deganda tor ma'noda morfologiya va sintaksis yaxlitligi, keng ma'noda tilning barcha qurilish sathi tushuniladi. Aytilganidek, grammatika tilning so'z o'zgartirish va so'z biriktirish qoidalari haqida bo'lib, bunda so'z o'zgartirish doirasida so'zshakllari, so'zshakllarini hosil qiluvchi grammatik kategoriya va o'zgarishi asosida farqlanuvchi so'zning grammatik guruhi – so'z turkumi hamda bu hodisalarning mahsuli bo'lmish so'z birikmasi va gap bir vujudning ikki tomoni sifatida ajraladi. Bu o'z-o'zidan ularni o'rganuvchi ikki soha – morfologiya va sintaksisni farqlashni ham taqozo qiladi.

Morfologiyaning obyekti so'zning o'zgarish bilan bog'liq, ya'ni morfologik strukturasi. So'zning morfologik strukturasi – grammatik morfema, grammatik morfema sistemasi – morfologik kategoriya, so'zning o'zgarish asosidagi sistemasi (masalan, *kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan* [*kitob*] leksemasining kelishik kategoriyasi asosidagi o'zgarish sistemasi), so'zshaklning hosil bo'lish yo'l va usuli, vositaci, bu vositalarning turlari.

Grammatika va milliylik, milliy mafkura. Til va tafakkur, milliy til va milliy ruh ajralmas. Har bir tilning grammatik qurilishi ma'lum me'yorga, qonun-qoidaga ega bo'lib, bu shu tilda so'zlashuvchi kishilarning ijtimoiy ruhiyati bilan belgilanadi. Shu boisdan nazariy tilshunoslik asoschisi V.Humboldt bundan qariyb ikki asr ilgari har qaysi tilning o'z sistemasi bo'lib, tilni tadqiq qilishni shundan boshlash kerak degan edi. Grammatikada aks etuvchi milliylikni uning har ikki tarkibiy qismi – morfologiyada ham, sintaksisda ham kuzatish mumkin. Tilshunoslikda u shunday sharhlanadi. Ma'lumki, o'zbek tilida so'zning o'zak-negizi mustaqil holda ma'no anglatadi va lug'atlarda grammatik shaklsiz beriladi. Jumladan, fe'lning o'zak-negizi lug'aviy, grammatik va kommunikativ ma'no ifodalab, asosiy va qo'shimcha tushunchadan tashqari fikr ham bildiradi. Shunga ko'ra, u asosiy tushuncha ifodalab, lug'aviy unsur (leksema), qo'shimcha tushuncha bildirib, grammatik shakl (so'zshakl), fikr ifodalab kommunikativ birlik (gap) vazifasini bajaradi. Masalan, (*ol*), (*ishla*) fe'llarining lug'aviy ma'nosi harakatni bildirish bo'lib, grammatik ma'nosi fe'l ekanligi. Ular grammatik shakllanmasdan ham lug'aviy ma'no ifodalay oladi.Boshqa qurilishga mansub bo'lgan rus tilida fe'lning o'zak-negizi (*pis-, prochita-*) bunday xususiyatga ega emas. O'zbek tilidagi gapning minimal qolipi kesimga to'g'ri keladi. Rus tilida esa ega va kesim birligi gapning minimal qolipiga muvofiq.

Milliy fanda milliy mafkura aks etadi. O'zbek tilshunosligi milliy fan bo'lib, u ham o'zida milliy mafkura va milliy g'oyani aks ettirish bilan birgalikda, uni targ'ib qiluvchi vositalar sirasidan ham o'rin oladi.

Til ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lganligi sababli uning me'yorlarini belgilash davlatning til siyosati bilan ham bog'liq. Yurtimiz bir asrdan ko'proq mustamlakada bo'ldi. Hukmron xalq va uning tiliga har jihatdan imtiyoz berilib, qaram xalqlarning ruhiyati va tiliga tajovuz qilindi. Faqat istiqlol natijasi o'laroq, til va tilshunosligimiz istibdod kishanidan xalos bo'ldi. O'zbek tilshunosligi tom ma'nodagi mustaqil fan sifatida o'zbek tilining o'zbekona tabiatini

ochiq-oydin o'rganib, uni milliy g'oya va milliy mafkurani targ'ib qilishning tarkibiy qismiga aylantirdi. Bugungi kunda morfologiyada grammatik kategoriya va shakllarning, so'z turkumlarining yangicha tasnifi, sintaktik hodisalarning yangi nuqtayi nazardan tadqiq qilinishi natijasida ta'limga olib kirilayotgan ilmiy yangiliklar – gapning markazi sifatida kesimning qaralishi, gap va so'z kengaytiruvchilarining farqlanishi, gap bo'laklarining darajalanishi, sodda va qo'shma gap oralig'ida uyushgan gapning ajratilishi, gap markaziga tayangan holda qo'shma gapning yangicha tasniflanishi kabilar fikrimiz dalili. Bular esa grammatika, milliylik va milliy mafkura tushunchalarining bog'liqligini ko'rsatadi.

Grammatik ma'no va grammatik shakl. Grammatik kategoriya

Grammatik ma'no haqida umumiy tushuncha. Ma'lumki, grammatik ma'no ifodalashning turli vositasi mavjud. Masalan, fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vosita shular jumlasidan. Demak, grammatik ma'noni faqat so'z yoki so'zshaklga nisbat berish ma'qul emas. Nutqni shakllantiruvchi barcha lisoniy birlik grammatik ahamiyat kasb etishi mumkin.

Grammatik ma'no deganda **til (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) birliklarning nutqni shakllantiruvchi umumlashma abstrakt ma'nolari tushuniladi.** Ta'rifni qisqacha sharhlaymiz. Ko'rinadiki, ta'rifda uch muhim unsur mavjud. Ular quyidagilar:

a) grammatik ma'noning barcha til birliklariga xosligi;

b) bevosita (!) nutqni shakllantirishi;

d) umumlashma va abstraktligi.

Keyingi mavzularning birida grammatik ma'no ifodalash usullari haqida fikr yuritganda grammatik ma'no ifodalashning barcha til birliklariga xosligini anglab yetasiz.

Grammatik ma'noning bevosita nutqni shakllantirishi deganda shuni tushunish lozimki, lisoniy birlik grammatik ma'nodan xoli qilinsa, u nutq uchun tayyor bo'lmay qoladi. Masalan, [*bola*] leksemasining lug'aviy ma'nosi nutqqa grammatik ma'no vositasida kiradi. Uning kelishik, son, subyektiv baho, hokim yoki tobe uzvlik, qaysi gap bo'lagi ekanligi kabi grammatik ma'nolari lisoniy sathda yo'q. Demak, leksema lug'aviy ma'nosi ustiga ana shu grammatik ma'no qavatlansa, u nutq tarkibiga kira oladi.

Grammatik ma'no umumlashma tabiatga ega deganda uning juda ko'p lisoniy birliklarga birday tegishli, umumiy ekanligi nazarda tutiladi. Masalan, «ot», «sifat», «son» grammatik ma'nosi juda katta miqdordagi so'zlar uchun umumiy. Lug'aviy ma'no (semema) har bir leksemada o'ziga xos va yakka, xususiy bo'lsa, grammatik ma'no bir turdagi juda ko'p leksema uchun umumiy. Yoki [WP_m – kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi] sintaktik qolipining o'ng tomoni uning grammatik ma'nosi bo'lib, u chap, ya'ni shakliy tomoni bilan birgalikda o'zbek tilidagi barcha nutqiy gap uchun umumiy.

Grammatik ma'noning abstraktligi deganda uning bevosita kuzatishda berilmaganligi nazarda tutiladi. Masalan, hozirgina keltirilgan **[WP_m – kesimlik ko'rsatkichi bilan shakllangan atov birligi]** sintaktik qolipining grammatik ma'nosi ko'zga tashlanib turgan til birliklari zamiriga yashiringan.

Grammatik ma'no morfologik sathda so'zlarning umumiy ma'nosi bo'lgan so'z turkumlari (masalan, otlarda umumiy predmetlik, fe'llardagi jarayonlilik), shuningdek, har bir so'zshaklning ma'lum bir morfologik kategoriya doirasida qarama-qarshi qo'yiluvchi ma'nosi (masalan, zamon, shaxs-son, egalik, kelishik) sifatida yuzaga chiqsa, sintaksis doirasida predikativlik, so'z birikmasidagi hokim va tobe uzvlarning, gap bo'laklarining bir-biriga o'zaro munosabati sifatida namoyon bo'ladi. Keng ma'noda so'z yasalish hodisasi ham grammatik ma'noga daxldor. Chunki yasalish natijasida so'zning turkumlardagi o'rni o'zgarib ketadi. Bu esa ularning yangi grammatik tabiat kasb etganligini ko'rsatadi. Masalan, [*aql*] so'zi «ot», «mavhum ot» grammatik ma'nolariga ega. Undan [*-li*] so'z yasovchi shakli vositasida sifat yasalishi bilan, albatta, grammatik ma'noda ham katta o'zgarish yuz berdi. Ko'rinadiki, birorta lisoniy birlik (bir planli bo'lgan fonetik birliklardan tashqari) grammatik ma'nodan xoli bo'lolmaydi. Faqat mustaqil leksemadagina lug'aviy va grammatik ma'no dialektik bog'liqlikda bo'ladi. Sintaktik qolip, yordamchi leksema va grammatik shaklda faqat grammatik ma'no mavjud.

Grammatik ma'no grammatik shakllanmagan leksemaning lisoniy mohiyatida mavjud bo'lishi ham, grammatik shakl yoki grammatik qolip yordamida ifodalanishi ham mumkin. Masalan, (*kitoblar*) so'zshaklining «turdosh ot» grammatik ma'nosi boshqa barcha turdosh otda bo'lgani kabi uning mohiyatida mavjud, «ko'plik» ma'nosi esa ma'lum bir shakl (*-lar*) yordamida ifodalangan. *Kitobni o'qimoq* birikuvidagi (*kitob*) so'zining «tobe

uzv» grammatik ma'nosi unga lisoniy sintaktik qolip asosida «yopishtirilgan».

Grammatik va leksik ma'no munosabati. *Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydilar* gapini olaylik. Aytilganidek, mustaqil so'z o'zida bir vaqtda leksika va grammatikani birlashtiradi. (*Bolalar*) so'zida ikki xil ma'no anglashilib turadi:

a) lug'aviy ma'no («odam jinsiga mansub bo'lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxs yoki voyaga yetgan kishining farzandi, avlodi»);

b) turdosh ot, ko'plik son, bosh kelishik, ega vazifasida. Bu so'z leksik va grammatik ma'noni o'zida mujassamlashtirgan. Shuning uchun so'zlar grammatik va leksik birlik sifatida so'z turkumlariga guruhlanadi. Bunda guruhlash, avvalo, leksik asosda, ya'ni ularning lug'aviy ma'nosiga asoslangan holda amalga oshiriladi, guruhlashning yuqori bosqichida u grammatik xarakter kasb etadi. Masalan, [*o'qituvchi*], [*doktor*], [*ishchi*], [*injener*] otlari bir butun holda «kasb oti» lug'aviy guruhini tashkil etadi va birlashish leksik asosda. Chunki bu so'zlar boshqa guruh otlaridan farqli o'ziga xos, qandaydir ayricha grammatik xususiyatga ega emas. Lekin bu otlarning boshqa tur otlari bilan birlashib hosil qilgan katta guruhi, deylik, turdosh otlar atoqli otlardan farqli grammatik xususiyatga ega. Masalan, turdosh ot birlik va ko'plikda qo'llanadi, atoqli ot esa asosan birlikda qo'llanadi. Shuning uchun otning atoqli va turdosh otga ajratilishi grammatik ahamiyatga ega. Deylik, narsa-buyum otlari va o'simlik oti orasida grammatik farqlar bo'lmaganligi sababli bu bo'linish leksik tabiatli. Chunki bu ikki guruhga kiruvchi so'zlar turlanish, son, tuslanish va boshqa grammatik omilga bir xil munosabatda.

So'z grammatik birlik sifatida morfologik ma'no tizimiga ega. Shunga ko'ra, grammatik ma'noni quyidagi turga bo'lish mumkin:

a) ma'lum bir turkumga kiruvchi so'zning ular qaysi morfologik shaklda bo'lishidan qat'i nazar, barchasi uchun birday tegishli bo'lgan grammatik ma'no (masalan, otlarda predmetlik, sifatlarda belgilik, fe'llarda jarayonlilik);

b) bir turkumdagi biror guruhning qanday grammatik shaklda bo'lishidan qat'i nazar barcha so'zlariga xos bo'lgan grammatik ma'no (masalan, ozaytirma daraja sifatning faqat rang bildiruvchi turlariga xos);

d) biror turkumdagi ma'lum bir so'zning ma'lum bir shakldagi turigagina xos bo'lgan grammatik ma'no (masalan, o'zlik olmoshiga kelishik qo'shimchasi faqat egalik qo'shimchasidan keyin

qo'shiladi, olmoshning boshqa turlarida bunday hol kuzatilmaydi, yoki [*-yap*] qo'shimchali aniq hozirgi zamon shakli III shaxsda [*-di*] shakli bilangina voqelana oladi).

GM turlari. UGM, OGM, XGM haqida. Grammatik shaklning fahmiy his qilinadigan alohida ma'nosi *xususiy grammatik ma'no* (qisq. XGM) deyiladi. Masalan, egalik qo'shimchalari umuman «keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash» mohiyatiga ega. Bu *umumiy grammatik ma'no* (qisq.UGM) bo'lib, u nutqiy birlik bo'lgan *Halimning kitobi* birikuvida «(*kitob*) so'zini (*Halim*) so'ziga bog'lash», *daftarning varag'i* birikuvida esa «(*varaq*) so'zini (*daftar*) so'ziga bog'lash» tarzida xususiylashgan. Bu — XGM.

UGM lisoniy tabiatli bo'lib, lisoniy birliklarga xos barcha belgiga, XGM esa nutqiy ma'no bo'lganligi uchun nutqiy birliklarga xos belgiga ega. UGM umumiy, mavhum, zaruriy, barqaror, invariant, uzual, ijtimoiy bo'lsa, XGM bu belgilarning aksi bo'lgan xususiylik, aniq, tasodifiy, beqaror, okkazional, individual kabi belgiga ega.

UGM va XGM xususiyatini idrok etish uchun barcha borliq hodisalarida umumiy yashash qonuniyati bo'lgan *umumiylik* va *xususiylik* tushunchalari munosabatini yaxshi bilish lozim.

Nutqiy birlikda turli lisoniy umumiyliklarning belgilari mujassamlanganligi, qorishganligi kabi, XGMlar ham o'zi mansub UGM zarralari bilan birgalikda boshqa lisoniy birliklarning zarralarini ham o'zida birlashtirgan. Masalan, egalik qo'shimchasining «(*kitob*) so'zini (*Halim*) so'ziga bog'lash» XGMsida «keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash» UGMsi ko'rinishi bilan birgalikda «qarashlilik» ma'nosi, shuningdek, [*Halim*] va [*kitob*] leksemalarining (umumiyliklari) zarralari qorishgan holda yuzaga chiqqan.

Grammatik ma'no so'zning grammatik shakli bilan va undan xoli holdagi holatidan, ya'ni o'zak-negizidan anglashilganligi kabi UGM va XGMlar ham ikki xil tabiatli. Masalan, «predmetlik» ot turkumining, «jarayonlilik» fe'l turkumining, «belgi» sifat turkumining grammatik shaklsiz ifodalanadigan UGMsi. *Bu Halimning kitobidir* gapidagi (*kitob*) so'zining «Halimga tegishli o'qish uchun mo'ljallangan predmetni ifodalovchi turdosh ot» ma'nosi bu so'zning grammatik shaklsiz ifodalanadigan XGMsi.

UGM va XGM grammatik shaklda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Har bir grammatik kategoriyaning ma'nosi — uning shakllarining ma'nosiga nisbatan UGM. Masalan, barcha kelishik shakllari uchun umumiy bo'lgan «oldingi mustaqil so'zni keyingi

mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi — kelishik kategoriyasining UGMsi. Bu kategorial umumiylik alohida shakllarning ma'nosiga nisbatan belgilanadi. Boshqacha aytganda, kelishik kategoriyasining yuqorida aytilgan UGMsi uning tarkibiga kiruvchi 6 ta kelishik shaklining ma'nosidan sintezlanadi, ya'ni keltirib chiqariladi.

Har bir kelishik shaklining ma'nosi undan quyidagi ma'noga nisbatan UGM. Masalan, qaratqich kelishigining UGMsi — «oldingi ism turkumiga kiruvchi so'zni keyingi ism turkumiga kiruvchi so'zga bog'lash». UGM har doim ham quyi ma'noga nisbatan olinadi. Masalan, kelishik kategoriyasi UGMsi quyidagi kelishiklarning ma'nosiga nisbatan olinsa, har bir kelishikning UGMsi undan quyidagi bu kelishik UGMsining «parchalari»ga nisbatan belgilanadi. Chunki har bir kelishikning ma'nosiga nisbatan UGM termini qo'llanilmaydi. Kategoriya va shakl ma'nosi hamda uning xususiy ko'rinishi haqida bahs ketganda ularni qanday baholash muammosi ham bor. Bunda dialektikaning *umumiylik-maxsuslik-alohidalik* kategoriyasiga metodologiya sifatida tayanish lozim bo'ladi. Tilshunoslikda grammatik ma'noga nisbatan bu *umumiy grammatik ma'no-oraliq grammatik ma'no* (qisq.OGM) — *xususiy grammatik ma'no* tarzida tatbiq etilgan. Misol sifatida tushum kelishigi shakli ma'nosini olaylik. Kelishik kategoriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash», tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» va tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lmish *kitobni o'qimoq* birikuvida voqelangan «(*kitob*) so'zini (*o'qimoq*) so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi yaxlitlikda olinganda, UGM-OGM-XGM munosabatida. Kelishik kategoriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosiga nisbatan UGM maqomida, tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lgan *kitobni o'qimoq* birikuvida voqelangan «(*kitob*) so'zini (*o'qimoq*) so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi XGM. Tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosi esa UGM va XGM orasida turganligi hamda ularni bog'lovchi bo'g'in bo'lganligi uchun OGM maqomida. OGMning mavqei nisbiy. Masalan, kelishik kategoriyasining UGMsi e'tibordan soqit qilinsa va fikr faqat tushum kelishigi va uning quyi ma'nolari haqida ketsa, mazkur OGM UGM sifatida qaraladi. Tushum kelishigining zikr etilgan XGMsi e'tibordan soqit qilinib, so'z kelishik kategoriyasi va

tushum kelishigi munosabati xususida ketsa, bunda OGM ushbu UGMga nisbatan XGM sifatida ham qaralishi ham mumkin.

Demak, borliq hodisalari umumiylik – maxsuslik – xususiylik (alohidalik) munosabatida bo'lganligi kabi grammatik ma'no ham «umumiy grammatik ma'no – oraliq grammatik ma'no – xususiy grammatik ma'no» ko'rinishiga ega.

Grammatik ma'no tarkibi. Grammatik ma'no tarkibi murakkab. Masalan, son kategoriyasining UGMsi predmetning miqdoriy va sifatiy tavsifini berishdan iborat, bu umumiy kategorial ma'no son kategoriyasining [*0*] shaklida «miqdoriy aniqlik–noaniqlik va sifatiy bo'linmaslik», [*-lar*] shaklida «miqdoriy noaniq ko'plik va sifatiy bo'linuvchan va bo'linmaslik» kabi har bir shaklga ixtisoslashgan ko'rinishga ega bo'lib, ularni sifat va miqdor kabi turga ajratish mumkin. Son kategoriyasining nomidan ma'lumki, u miqdor ifodalashga ixtisoslashgan morfologik hodisa. Shuningdek, uning UGMsida «noaniq», «aniq», «sifat», «bo'linuvchan», «bo'linmas» kabi unsurlar kategoriya markazidagi «miqdor» unsuriga bevosita daxldor emas. Biroq «bevosita daxldor emaslik»ni u UGMdan tashqari deb tushunmaslik kerak. Chunki deylik, [*-lar*] shakli miqdor (ya'ni ko'plik) ifodalar ekan, u bir paytning o'zida o'z-o'zidan yuqorida zikr etilgan «bo'linuvchanlik–bo'linmaslik», «noaniq» kabi belgilarini ham ifodalaydi. Demak, son kategoriyasi shaklida miqdor belgisi har doim sifat belgisi bilan birga yashaydi, u bilan dialektik bog'lanishda. Boshqacha aytganda, miqdor belgisi hech qachon sifat belgisisiz yuzaga chiqmaydi. Nutqda bu ma'nodan birining kuchayishi boshqasining susayishiga, boshqasining kuchayishi birinchisining susayishiga olib keladi. Masalan, *Do'konda suvlar bor* gapida [*-lar*] shaklida miqdoriy belgi ham (ya'ni «ko'plik»), sifatiy belgi ham («bo'linuvchanlik», «har xil») ifodalanmoqda. Bunda sifatiy belgi ustuvorlik kasb etib, miqdor belgisi kuchsizlanganligi sezilib turadi. Lekin baribir «ko'plik» yuzaga chiqmoqda. Ma'lum bo'ladiki, grammatik shakl UGMsi tarkibiy qismlaridan biri uning mohiyati bo'lsa (masalan, sonda «miqdor»), boshqalari unga yondosh, mohiyatga mansub bo'lmagan, biroq u bilan dialektik yaxlitlik kasb etgan ma'no (masalan, sonda «bo'linuvchanlik»). Shuning uchun grammatik shakl UGMsi tahlilida kategorial ma'no va unga yondosh hodisa farqlanadi.

Kategorial va yondosh ma'no har bir grammatik shaklda mavjud.

Grammatik shakllar nutqda ba'zan UGMsida bo'lmagan ma'noni ham voqelantiradi. Masalan, ko'rilgan [*-lar*] shakli nutqda «hurmat» ma'nosini ifodalashi ham mumkin. Bu ma'no shaklning UGMsi tarkibiga kirmaydi. U UGM bilan birga yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin. Bunday ma'no *hamroh ma'no* deb yuritiladi. Demak, kategorial ma'no shaklning mohiyati va UGMning asosi. Yondosh ma'no UGMga kirsa-da, mohiyat tarkibiga kirmaydi. Hamroh ma'no esa shakl mohiyatiga ham, UGM tarkibiga ham kirmaydi. Quyidagi gaplarni qiyoslang: 1. ***Aqllari*** *bormi? — ukasiga istehzoli kuldi Halim. U kishining* ***fikrlari*** *bizga ma'qul.* Birinchi gapda (*aqllari*) so'zshaklining [*-lari*] egalik qo'shimchasida «kesatish» ma'nosi ham (aslida *aqling*), «II shaxs, birlik» ma'nosi ham anglashilmoqda. «Kesatish», umuman, egalik kategoriyasi UGMsiga daxldor emas. Lekin «II shaxs birlik» ma'nosi bu kategoriyaning [*-(i)ng*] shakliga xos kategorial ma'no bo'lib, [*-lari*] shakli bu ma'noni ifodalash uchun xoslangan va UGM ko'rinishiga vaqtincha «yopishgan» tajalli hisoblanadi. Uning bunday xususiyatga egaligi ushbu «noqulay» ifodalovchi bilan nutqqa chiqishi uchun zarur nutqiy sharoit, bog'liq qurshov talab qilayotganligi bilan ham belgilanadi. Zero, gapdan muallif gapi (*«ukasiga istehzoli kuldi Halim»*) olib tashlansa, [*-lari*] shaklidan anglashilayotgan ushbu hamroh ma'no uqilmay qoladi.

UGMni ochish yo'llari. UGM nutqiy ma'no bo'lgan XGMlarni bosqichli umumlashtirish orqali ochiladi. Bunda XGMdagi o'zi mansub UGMga tegishli bo'lmagan barcha begona tajallilar idrokiy yo'l bilan e'tibordan soqit qilinadi. Quyida [*-moqda*] hozirgi zamon davom fe'li shakli va umuman zamon kategoriyasining UGMsini bosqichli tiklash namunasini beramiz.

1-bosqichda [*-moqda*] shaklining turli matniy va uslubiy hollarda qo'llanishini tahlil etish asosida bu shaklning nutqiy, matniy ma'no turlari, ya'ni XGMlari aniqlanadi. Shakl XGMlariga misollar keltiramiz: 1. *Suv egatlarda jildirab oqmoqda.* 2. *Umr o'tmoqdadir.* 3. *Zamin aylanmoqda mag'rur tebranib.* Shakl 1-misolda «ish-harakat nutq paytida davom etayotganligining badiiy uslub nasriy turiga xos obrazli ifodasi», 2-misolda «ish-harakat nutq paytida davom etayotganligining badiiy uslub lirik turiga xos ko'tarinki ifodasi», 3-misolda «ish-harakat nutq paytida davom etayotganligining badiiy uslub lirik turiga xos tantanavor ifodasi» XGMlarini voqelantirgan. Misollarni davom ettirsak, XGMlar soni yana ortib boradi. Biroq umumlashtirish uchun

ushbu XGMlar etarli. Ular orasidagi umumiylik «ish-harakat nutq paytida davom etayotganligining ifodasi» bo'lib, XGMlarning qolgan unsurlari farqlar (1-misolda «badiiy uslub nasriy turiga xos obrazli ifodasi», 2-misolda «badiiy uslub lirik turiga xos ko'tarinki ifodasi», 3-misolda esa «badiiy uslub lirik turiga xos tantanavor ifodasi»). Farqlar e'tibordan soqit qilinib, ulardagi bir xillik (umumiylik)lar ajratib olinadi. Farq shu bosqich uchun qiymatga ega bo'lsa, bir xillik yuqori bosqich qiyoslashlari uchun ahamiyat kasb etadi.

2-bosqichda [*-moqda*] qo'shimchali zamon shakli birinchi bosqich xulosalari asosida [*–(a)y*] qo'shimchali hozirgi-kelasi zamon, [*-yap*] qo'shimchali aniq hozirgi zamon, [*-yotir*] qo'shimchali hozirgi zamon shakli kabi barcha hozirgi zamon turlari bilan munosabatlarda ko'rilib, shu asosda [*-moqda*], [*-yotir*], [*-yap*], [*-(a)y*] qo'shimchali hozirgi zamon shakllarining mohiyati – UGMlari ochiladi. Keyingi bosqich uchun farqlar e'tibordan soqit qilinib, ulardagi bir xillik (umumiylik)lar ajratib olinadi. Bu bir xilliklargina keyingi bosqich qiyoslashlari uchun ahamiyatli bo'ladi.

3-bosqichda avvalgi bosqich xulosalari asosida hozirgi zamon shakllari umumiylik sifatida olinib, uning kelasi zamon shakllari umumiyligi bilan aloqa-munosabatlari, o'xshash va farqli jihatlari oydinlashtiriladi. Joriy bosqich uchun ulardagi farqlar, keyingi bosqich uchun bir xillik (umumiylik)lar ahamiyatli bo'ladi.

4-bosqichda oldingi bosqich xulosalari asosida «sodir bo'lmagan va bo'layotgan harakat-holat»ni ifodalovchi o'tgan zamon shakli bilan munosabatlari tekshirilib, hozirgi-kelasi va o'tgan zamon shakllarining UGMsi ochiladi.

5-bosqichda 4-bosqich xulosalari asosida hozirgi, kelasi va o'tgan zamon shakllari ma'noviy xususiyatlari bilan munosabatlarini aniqlash asosida zamon va mayl kategoriyalarining UGMlari tiklanadi.

Xususiylikdan umumiylikka qarab yo'naltirilgan bu tadqiq jarayonida har bir bosqichga o'tish bilan xususiyliklarning zamiridagi UGMga chuqurlashib boriladi. Chunki [*-moqda*] qo'shimchali zamon shaklining nutqiy voqelanishlarida zamon kategoriyasi UGMsiga xos hozirgi-kelasi zamon shakli UGMsi ko'rinishining hozirgi zamon UGMsi ko'rinishchasiga mansub turining bevosita kuzatishda berilishini ko'ramiz va bu XGMlarda barcha oldingi bosqichlar UGMlari zarralari mavjud bo'ladi. Shuning uchun [*-moqda*] qo'shimchali zamon shaklining

ziddiyatlari va UGMsi faqat 2-bosqichdagina ochilishi mumkin. 3-bosqichda [*-moqda*] va [*-(a)y*], [*-yap-*] qo'shimchali zamon shakllari mustaqil til birliklari sifatida emas, balki hozirgi zamon shaklining variantlari sifatida yuzaga chiqadi. Bu pog'ona qancha yuqorilasa, xususiy ko'rinishlar shunchalik katta guruhlarga birlashib, o'z mustaqilliklarini yo'qotib, umumlashib boraveradi. Shu boisdan grammatik shakllarning ma'noviy xususiyatlari haqida gapirganda tekshirish qaysi bosqichda olib borilayotganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

So'zshakl va uning asosiy turlari: nol shakl, sintetik, analitik, aralash, juft va takroriy shakllar. Leksema nutqqa chiqqanda, albatta, grammatik shakllangan bo'ladi. *Men sarguzasht kitoblarni sevib o'qiyman* gapidagi so'zlarga diqqat qilaylik. [*Men*] olmoshi ongda leksema sifatida hech qanday grammatik shaklga ega emas. Biroq u mazkur gapda bosh kelishik shaklida va birlik sonda. (*Sarguzasht*) sifati oddiy daraja shaklida, (*kitoblarni*) tushum kelishigida va ko'plik sonda, (*sevib*) aniq nisbat va ravishdosh shaklida, (*o'qiyman*) aniq nisbat, hozirgi-kelasi zamon shakli, birinchi shaxs birlik, tasdiq shaklida. Leksemaning nutqda voqelangan ko'rinishi ***so'zshakl*** atamasi bilan yuritiladi. Bundan shunday xulosa chiqadi: so'zning grammatik shakli bir leksemaning nutqdagi har xil tusli o'zgarishi bo'lib, u bir sememaning o'zini yuzada chiqarib, yo qo'shimcha ma'no ottenkasi tusi bilan farqlanadi yoxud bir leksemaning boshqa leksemaga nutqdagi sintaktik munosabatini ko'rsatadi. Shu sababli so'z yasovchidan boshqa qo'shimchaning barchasi *grammatik shakl yasovchi, grammatik shakl* deb yuritiladi.

Bir leksemaning ma'lum bir sistemaga kiruvchi grammatik shakli bir butun holda paradigmani tashkil qiladi. Masalan, [*olma*], [*olmaning*], [*olmani*], [*olmaga*], [*olmada*], [*olmadan*] so'zshakllari [*olma*] leksemasining kelishik paradigmasi. Morfologik paradigma (grammatik shakllar sistemasi) har bir so'z turkumi uchun alohida (son, daraja, nisbat, o'zgalovchi) bo'lishi ham, barcha so'z turkumlari uchun umumiy bo'lishi ham (kelishik, egalik, kesimlik) mumkin.

O'zbek tilida so'z bir grammatik ko'rsatkichli yoki bir necha grammatik ko'rsatkichli bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan (*sarguzasht*) so'zi bir grammatik ko'rsatkichli (oddiy daraja), (*kitoblarni*) ikki grammatik ko'rsatkich (tushum kelishigi, ko'plik son) li. Shuningdek, tilimizda grammatik shaklning ba'zilari bir grammatik ma'noni, ba'zilari bir vaqtning o'zida bir necha

grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, keltirilgan (*sevib*) so'zshaklidagi (*-ib*) ko'rsatkichi holat ma'nosinigina, (*o'qiyman*) so'zshaklidagi (*-man*) shakli esa, ham birinchi shaxs, ham birlik ma'nosini ifodalamoqda.

Hozirgi o'zbek tilida so'zshaklning bir necha tipi mavjud:

a) affikslar yordamida hosil bo'luvchi so'zshakl (sintetik yoki «yopishgan» shakl);

b) nomustaqil (faqat grammatik ma'no ifodalaydigan) so'z bilan ifodalanadigan so'zshakl (analitik yoki «ajralgan shakl»);

d) ham affiks, ham nomustaqil so'z yordamida ifodalangan shakl (sintetik-analitik yoki «aralash» shakl;

e) so'zning takroridan hosil bo'lgan shakl yoki takroriy shakl).

Sintetik shakl affiksning tabiatiga qarab ikki ko'rinishga ega:

a) affiksi moddiy shaklga ega bo'lmagan (nol shaklli) so'zshakl (*Shoir she'r o'qiydi* gapidagi [*shoir*] so'zi bosh kelishikda va birlik sonda bo'lib, bu ma'noni ifodalovchi shakl ***nol shakl*** deyiladi);

b) affiksi moddiy shaklga ega bo'lgan so'zshakl (keltirilgan gapdagi *o'qiydi* so'zshaklining hozirgi-kelasi zamon, III shaxs birlik ma'nolari moddiy shaklli vosita bilan ifodalangan).

Eslatma. *She'r o'qidi* birikuvidagi [*she'r*] so'zi belgisiz tushum kelishigida deyilib, u nol shakl sifatida qaralmaydi. «O'zbek tilining, boshqa turkiy tillarda bo'lgani kabi, asosiy belgilaridan biri bo'lgan nol shakl masalasi hali yetarlicha o'rganilmagan va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi». (H.Ne'matov).

Analitik so'zshakl nomustaqil ma'noli (asosan, yordamchi) so'z yordamida hosil qilinadi: *maktab uchun, kelajak sari.*

Sintetik-analitik shakl ham affiks, ham yordamchi so'z yoki yordamchi so'z vazifasidagi mustaqil so'z bilan hosil qilinadi. Masalan, *o'qib chiqdi, borgan ekan, shaharga tomon* va h. Bunda *chiqdi* so'zi ushbu o'rinda (*-ib*) affiksi, *tomon* so'zi (*-ga*) qo'shimchasi yordamida aralash so'zshaklni vujudga keltirgan.

Takroriy shakl ham ma'lum bir grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *baland-baland* (imorat), *qator-qator* (daraxtlar), *kula-kula* kabilar «ko'plik», «takror» ma'nosini ifodalaydi. Ba'zi manbalarda takror so'zshaklni ravish sifatida qarash ham uchraydi. Bunda takrorlash natijasida yangi so'z, lug'aviy ma'no, so'zshakl vujudga kelayotganligi nazarda tutiladi. Masalan, *qator-qator* so'zshaklida yangi lug'aviy ma'no *qator* so'zining kuchaygan, orttirilgan ifodali ko'rinishi orqali yuzaga chiqqan.

Grammatik ma'noni ifodalash usullari. O'zbek tilida grammatik ma'no ifodalashning quyidagi vositalari mavjud:

1) affiksal vosita;
2) sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'z;
3) so'z tartibi;
4) takror;
5) ohang;
6) sintaktik qolip.

Affiksatsiya tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi, u orqali deyarli aksariyat grammatik ma'no ifodalanadi. Ifodalaydigan grammatik ma'noning xarakteriga va o'z mohiyatiga ko'ra affikslar ikkiga bo'linadi:

a) so'z yasovchi affiks;
b) shakl yasovchi affiks.

So'z yasovchi affiks so'zga qo'shilib, yangi lug'aviy ma'no hosil qiladi va so'zning grammatik tabiatiga ham ta'sir etadi. Masalan, [*ish*] so'ziga qo'shilgan [*-la*] so'z yasovchi qo'shimchasi yangi lug'aviy ma'no vujudga keltirish bilan birga, yangi grammatik ma'no ham hosil qiladi. Qiyoslang: [*ish*] (gram.ma'no: «predmetlik», «ot») – [*ishla*] (gram.ma'no: «jarayon», «fe'l». Ko'rinadiki, hosila leksemadagi «jarayon» va «fe'l» grammatik ma'nolari so'z yasovchi vosita yordamida vujudga kelgan.

So'z yasovchi vosita orqali har xil grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Masalan, [*-kash*] yasovchisi hosilasi sifat ham, ot ham bo'ladi (*mehnatkash* – ot, *dilkash* – sifat). Demak, so'z yasovchi vosita nafaqat yangi so'z hosil qiladi, balki yangidan-yangi grammatik ma'noni ham vujudga keltiradi. Bu mustaqil so'zda lug'aviy ma'noning grammatik ma'no bilan dialektik aloqasini, ularning o'zaro yaxlitlikda mavjudligini ko'rsatadi.

Shakl yasovchi qo'shimcha grammatik ma'no ifodalashning affiksal vositalari sirasida eng sermahsuli.

Ayrim shakl yasovchi faqat bir turkumga xos grammatik ma'noni vujudga keltirsa (tasniflovchi, bir turkumgagina tegishli bo'lgan shakl yasovchi, masalan, son, daraja, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik), ayrimi barcha turkum uchun birday tegishli (kelishik, kesimlik, egalik).

Affikslar asosan sintetik shakl hosil qiladi va qisman analitik shakllar hosil qilishda yordamchi vositalarga ko'maklashadi.

Sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'z ham grammatik ma'no ifodalovchi vosita sirasida muhim o'rin tutadi.

Yordamchi so'z mustaqil so'z va gapda grammatik ma'no ifodalashning alohida turini tashkil etadi.

Ko'makchi mustaqil so'z bilan birga kelib, oldin turgan so'zni keyingi so'z bilan grammatik aloqaga kiritadi. Bu bilan kelishiklarga o'xshaydi. *Biz kelajakka ishonch* ***bilan*** *qaraymiz* gapida ko'makchi yordamida «holat» grammatik ma'nosi ifodalangan. *Telefon* ***orqali*** *gaplashdim gapida* «vosita», *Do'stlik* ***biz uchun*** *hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo'lib kelgan* gapida «atalganlik» ma'nosi ifodalangan. Bu ma'nolar grammatik ma'noning bir tomoni bo'lib, ikkinchi tomoni — oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash, sintaktik aloqaga kiritish.

Bog'lovchilar teng munosabatli birliklarni bog'lab, ular orasida har xil tenglashtirish, zidlash, ayirish kabi morfologik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi: *olma va anor; o'qidi, lekin yozmadi.*

Ko'makchining morfologik ma'no ifodalash imkoniyati sintaktik imkoniyatidan kengroq. Chunki u mustaqil leksema sememasini modifikatsiya qilishi bilan ahamiyatli.

O'zbek tilida yordamchi so'zlar katta guruhni tashkil etadi. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaning «yarim bog'lovchi», «yarim ko'makchi», «yarim yuklama» kabi turi ham mavjud bo'lib, bunday so'zlar ham mustaqil, ham nomustaqil ma'noga ega. Masalan, *Ishning* ***boshida*** *Abdurahim turar edi.*

O'zbek tilida [*juda*], [*eng*], [*bag'oyat*], [*nihoyatda*], [*o'ta*], [*sal*], [*bir muncha*] kabi ravish ham, [*olmoq*], [*bermoq*], [*qolmoq*], [*o'tirmoq*], [*chiqmoq*], [*ketmoq*], [*boshlamoq*], [*bo'lmoq*] kabi 40 dan ortiq fe'l ham keng qo'llaniladi. Harakat tarzi shakllarini hosil qiluvchi ko'makchi fe'l aslida lug'aviy ma'noli fe'l bo'lib, ko'makchi fe'lga aylanganda, sof grammatik ma'no ifodalaydi. Harakat tarzi shakllari sintetik-analitik shakl. Masalan, (*o'qib chiqdi*), (*yoza boshladi*), (*qo'rqib ketdi*) so'zshakllari ravishdosh shakli va ko'makchi fe'ldan tashkil topganligi sababli cintetik-analitik shakl hisoblanadi.

So'z tartibi grammatik ma'no ifodalashning maxsus vositasi, tartib o'zgarishi so'z grammatik ma'nosining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, *Dalalar yam-yashil* birikuvi gap bo'lsa, *yam-yashil dalalar* birikuvi so'z birikmasi. «Gap» va «so'z birikmasi» grammatik ma'noning sintaktik turi. Grammatik ma'no ifodalashda so'z tartibiga ohang hamrohlik qiladi. Ya'ni yuqoridagi gap va so'z birikmasida tartib o'zgarishi bilan ularning ohangi ham o'zgarib ketgan (so'z birikmasida tugallanmagan, gapda esa tugallangan ohang mavjud).

Ohang – grammatik ma'no ifodalashning fonetik vositasi. Bu vosita yordamida gapning turini, gap bo'laklarini ajratish, farqlash mumkin. *Gulnora, singlim keldi. Gulnora,* (bilan) *singlim keldi. Gulnora singlim keldi* gaplarining birinchisida (*Gulnora*) va (*singlim*) so'zlari uyushiq bo'lak vazifasida, ikkinchi gapda (*Gulnora*) so'zi undalma, (*singlim*) so'zi ega, uchinchi (*Gulnora*) so'zi aniqlovchi, (*singlim*) so'zi izohlanmishega vazifasida kelgan. Gaplarni tashkil etuvchilardagi bunday farq so'zlovchining maqsadiga muvofiq tarzdagi ohang yordamida yuzaga chiqmoqda.

Grammatik shakl va uning turi. Grammatik ma'no ifodalovchi morfologik ko'rsatkich *grammatik shakl yasovchi* yoki qisqa qilib *grammatik shakl* deyiladi. Boshqa nofonologik birliklar kabi grammatik shakl uch tomon – shakl, ma'no va vazifaning yaxlitligidan iborat. Grammatik shaklning moddiy tomoni *grammema* atamasi bilan ham yuritiladi.

Grammatik shakl (*grammatik ko'rsatkich, grammatik shakl, morfologik shakl, morfologik ko'rsatkich, morfologik vosita* atamalari – ma'nodosh terminlar) tasnifi tilshunoslik, jumladan, o'rta va oliy ta'lim grammatik tizimining muhim tushunchasidan biri bo'lganligi sababli har doim dolzarb bo'lib kelgan. O'tgan davr mobaynida o'zbek tili grammatik ko'rsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosa avval arab, keyinchalik rus tili grammatik me'yoriga asoslangan holda berib kelindi. O'zbek substansial tilshunosligi o'zbek tilining agglyutinativ tabiati va ontologik shakl yasash xususiyatiga tayangan holda grammatik ko'rsatkichlarning yangicha tasnifini berdi. Bunga ko'ra:

a) lug'aviy shakl hosil qiluvchi;

b) sintaktik shakl hosil qiluvchi;

d) lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi farqlandi.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi – so'z ma'nosini qisman o'zgartiruvchi, muayyanlashtiruvchi qo'shimcha. Masalan, (*kitob*) so'zida birlik ma'nosi ham (*Bu* ***kitob*** *qiziqarli*), ko'plik ma'nosi ham (*Do'konga* ***kitob*** *keldi*) mujassamlangan. Nutq sharoiti, matn (*kitob*) so'zida birlik yoki ko'plik voqelanishini ajratib beradi. Shu so'zga (*-lar*) shakli qo'shilishi bilan u (*kitob*) so'zida birlik ma'nosini ko'plik ma'nosidan chegaralaydi, ya'ni lug'aviy ma'noni muayyanlashtiradi, toraytiradi. Lekin yangi so'z yasamaydi, so'zni sintaktik aloqaga kiritish uchun xizmat qilmaydi. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi, asosan, to'rt yirik so'z turkumi – fe'l (nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, sintetik va analitik harakat tarzi shakllari), ot (son, kichraytirish-erkalash), sifat (daraja) va sonda

(uning ma'no turini hosil qiluvchilar) mavjud bo'lib, qo'llanilishi o'zi mansub so'z turkumi bilan chegaralanadi. Shu boisdan ular tasniflovchi, ya'ni so'zlarni tasniflash chog'ida bir turkumni boshqalaridan ajratuvchi shakl deb yuritiladi.

Sintaktik (aloqa-munosabat) shakl hosil qiluvchilar so'z lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmay, so'zlarni bir-biriga bog'lashga yoki ularga ma'lum bir sintaktik vazifa berishga xizmat qiladi. An'anaviy ta'riflardagidan farqli ravishda aloqa-munosabat shaklining qo'llanilishi lug'aviy shakllardek bir so'z turkumi bilan chegaralanmaydi, ya'ni bu shakl istalgan mustaqil so'zga qo'shilib, uni o'zidan keyingi yoki oldingi so'z bilan sintaktik aloqaga kiritadi yoki so'zga sintaktik vazifa tayinlaydi. Kelishik, egalik, kesimlik shakli shunday grammatik vosita.

O'zbek tilida shunday shakllar borki, ular bir tomondan so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etadi, ikkinchi tomondan, ularni sintaktik aloqaga kiritadi. O'zgalovchi kategoriya shakllari shunday ikkiyoqlama mohiyatga ega. Masalan, *shoshilib gapirmoq* birikmasida (*-ib*) ravishdosh shakli (*shoshil*) so'zining lug'aviy ma'nosiga ta'sir etgan, ya'ni unga ravishlik ma'nosiga yaqin ma'no bergan, shu bilan birgalikda, bu so'zni keyingi so'zga bog'lash vazifasini ham bajarmoqda. Shuning uchun o'zgalovchi kategoriya shakllari lug'aviy shakl hosil qiluvchilar va sintaktik shakl hosil qiluvchilar orasida oraliq vaziyatni egallab, *lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi* atamasi bilan nomlanadi.

Grammatik shaklning tuzilishiga ko'ra turi. Grammatik shaklning tuzilishiga ko'ra turlari bir qarashda ularning sintetik va analitik turining yangicha nomlanishiga o'xshaydi. Biroq sintetik shaklning o'zi sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, (*uydagi*), (*ko'chadagi*) so'z shakllaridagi sintetik grammatik shakl (*-dagi*) murakkab shaklga misol (*-da+gi*).

Grammatik shakl tuzilishiga ko'ra sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Sodda shakl bir grammatik ko'rsatkichdan iborat bo'ladi. Kelishik, egalik shakllari bunga misol. Sintetik shaklning ayrimi va sintetik-analitik shaklning barchasi murakkab shakl.

Shakllarning so'zga qo'shilish tartibi. Affikslarning so'z tarkibidagi tartibi ma'lum qonuniyatga ega bo'lib, bu hodisa ularning turi bilan bog'liq: so'z yasovchi, lug'aviy shakl hosil qiluvchi va sintaktik shakl hosil qiluvchi so'zdagi o'rni bilan farqlanadi.

Morfemalarning o'rinlashishidagi tartib va izchillik ularning ma'no-grammatik xususiyati bilan bog'liq, so'zning lug'aviy

ma'nosini hosil qiluvchi **(so'z yasovchi)** affiks birinchi, lug'aviy ma'noga ta'sir qiluvchi **(lug'aviy shakl hosil qiluvchi)** affiks ikkinchi va lug'aviy ma'noga ta'sir qilmaydigan **(aloqa-munosabat)** affiks uchinchi bo'lib qo'shiladi.

Qo'shimchaning o'rinlashuvidagi me'yoriy holat ba'zan istisno ko'rinishlar ham kasb etadi (*opa-lar-im — opa-m-lar, ayt-di-ng-lar—ayt-di-lar-ing* kabi). Bu kam uchraydigan hodisa bo'lsa-da, unda grammatik, uslubiy va dialektal asoslar mavjud.

«O'zak+so'z yasovchi affiks+lug'aviy shakl hosil qiluvchi+cintaktik shakl hosil qiluvchi» qolipidagi qoida bundagi turlarning o'zaro munosabati, har bir turning o'z ichidagi morfemalarning tartibi jihatidan bir qancha xususiyatga ega. Quyida faqat shakl hosil qiluvchilar doirasida fikr yuritamiz (ma'lumotlar «O'zbek tili grammatikasi (I tom) «dan olindi).

Lug'aviy shakl hosil qiluvchining odatdagi tartibi:

a) otda subyektiv baho+son. Subyektiv baho shakllarining kam qo'llanadiganlari ko'p qo'llanadiganlaridan avval keladi: umuman, «tirik» affikslar «o'lik» affikslardan keyin keladi (*toychoqcha, toyloqcha*);

b) sifatda [*-roq*] affiksi [*-ish*], [*-imtir*] affikslaridan, shuningdek, ravishdosh va sifatdoshga qo'shilganda ham ularni hosil qiluvchi affikslardan keyin qo'shiladi (*oqishroq, ko'kimtirroq, sovinqiraganroq, tortinibroq* kabi);

d) sonda taxmin bildiradigan [*-cha*] affiksi «dona» ma'nosini ifodalovchi [*-ta*] (urg'usiz) unsuridan keyin keladi (*o'ntacha* kabi);

e) olmoshda gumon bildiruvchi [*-dir*] (urg'usiz) unsuri (*kimdir, nimadir*), ba'zan yuklama xarakterida bo'lib, hamma turdagi affikslardan keyin qo'shiladi: *nima-lar-ni-dir*;

f) fe'lda fe'lning daraja affikslari boshqa daraja ko'rsatkichidan keyin keladi: *ko'r-in, ko'r-il-di, ko'r-ish-di, yuv-in-tir*; lekin o'zlikdan boshqa nisbatning ko'rsatkichlari orttirma nisbat affiksidan keyin qo'shiladi: *tarqa-til-di, yugur-tir-ish-di, tik-tir-ish-di*); fe'lning tarz affikslari va kuchaytiruvchilari (*chayqa, bura, to'zg'i*); bo'lishsizlik affiksi (*urintirma, chayqatma*); zamon affikslari; shart mayli affiksi va buyruq maylining kuchaytiruvchilari (*bordi, boradi, borsa, boray, borgin/borgil*), fe'lning o'zgalovchi shaklini hosil qiluvchi affikslar (*bormoq, borgan, borib* va boshqalar).

Sintaktik shakllarning tartibi:

a) nokesimlik shakllari: egalik affiksi+kelishik qo'shimchasi ((*bolamni*), (*o'qiganimni*));

b) kesimlik shakllari: tasdiq/inkor+zamon/mayl+shaxs+son.

Hamma turdagi affiksdan keyin affiks tipidagi yuklamalar qo'shiladi.

Qo'shimchalar qo'shilishidagi istisnolar:

a) semantik boshqalik talabi bilan bog'liq bo'ladi;

b) til hodisalarining davrga ko'ra o'zgarishi (tarix), dialektal farq va o'zgarish xususiyati, poetik talab bilan bog'liq bo'ladi. Misol: *Bilurlar erdi* (Qutb) — *bilar edilar*, *qilmag'aylarsiz* («Boburnoma») — *qilmag'aysizlar*, *solurlar erdi quloq* — *quloq solur erdilar.*

Bunday tartib o'zgarishi o'zida nozik ma'noviy farqlarni aks ettiradi.

Shakllarda pleonazm va tejamkorlik. Bir so'zda ma'nolari bir xil yoki yaqin bo'lgan qo'shimchaning takrorlanishi (ikki, ba'zan uch) *affiksal pleonazm* deyiladi. Pleonazm affikslarda bir necha ko'rinishga ega. Masalan, bir affiksning aynan o'zi yoki tashqi shakli har xil bo'lgan — ma'nodosh affikslar takrorlanadi: takrorlangan bu affikslar:

a) zich, ketma-ket holda (ayting+*iz*+*lar*) ham;

b) ajralgan holda ham bo'lishi (ish+*da* +lig+im+*da*) mumkin.

Affiksal pleonazm har xil sababga ko'ra yuzaga keladi. Bir affiks o'zak bilan juda ham zichlashib, o'zakning tarkibiga singib ketadi, bunda o'zak o'z mustaqqilligidan mahrum bo'ladi, natijada, so'zga shu qo'shimchaning ma'nodoshlaridan biri qo'shilishi mumkin, qo'shimcha arxaiklashib, undan keyin tildagi iste'molda bo'lgan qo'shimcha qo'shiladi ((*ichkariga*), (*tashqariga*), (*nariga*), (*beriga*), (*barisi*) kabi). Takrorlanayotgan sinonim affikslarning barchasi «tirik» bo'lsa, ular ta'kid, kuchaytirish kabi uslubiy vazifani o'z zimmasiga oladi (*sizlar aytingizlar* kabi). Boshqa tildan kirgan affiks tushunarli va keng iste'molli bo'lmaganda ham uning tilimizdagi ma'nodoshi qo'llanadi (yor+*on*+*lar* kabi). Qo'shimcha qo'shilishi natijasidagi tovush o'zgarishi ham ma'nodosh affiksning qo'shilishiga sabab bo'ladi: (*yarmisi*), (*kichkinagina*), (*unisi*), (*anavinisi*), (*qaysinisi*), (*singlisi*), (*toychoqcha*) kabi.

Pleonazm aksariyat hollarda til evolutsiyasi bilan bog'liq hodisa. Bunga o'zbek tilining akademgrammatikasida ayrim izoh berilgan: 1. Ot va sifat yasovchi (-*lik*) affiksi farqlanib, vazifasi ajralishi ([-*li*] sifat yasaydi, [-*lik*] ot yasaydi) natijasida ular ketma-ket qo'llanadigan bo'lgan: (*aqllilik*), (*ifodalilik*), (*bilimlilik*). 2. Og'zaki so'zlashuv nutqida ba'zan uchrab qoladigan (*mashshoqchi*), (*xodimchi*) kabi so'zlarda «bajaruvchi» ma'nosi ikki

marta ifodalangan: ichki fleksiya (arab tilida [*mashshoq*] — mashq qiluvchi shaxs, [*xodim*] — xizmat qiladigan shaxs) va [*-chi*] affiksi orqali. 3. Bir xil ma'nodagi ikki affiks qo'shma affiks maqomini oladi: [*yog'ingarchilik*], [*namgarchilik*], [*rasvogarchilik*] kabi. 4. Kelishik va egalik affikslarining ikki marta ifodalanishi (*kitobni uch* ***so'mdanga*** *oldi, romanning* ***so'zboshisi***) ham pleonazmning o'ziga xos ko'rinishi. 5. Bir qo'shimchaning o'zi takrorlanganda, ko'pincha ular morfema fonetik variantlarining qator kelishi tusida bo'ladi (fonetik, uslubiy qulaylik): *qistalang* ([*-ta*], [*-la*]), *shoshilinch* ([*-l*], [*-n*]), *tiqilinch* ([*-l*], [*-n*]) kabi. 6. Bir ma'nodagi ikki affiksning ketma-ket qo'llanishi analogiya natijasida tug'ilishi ham mumkin. Masalan, *biri-birisi, yig'loq-yig'loqi, sayroq- sayroqi, o'ynoq-o'ynoqi.*

Tejam—plenonazmning ziddi. Tildagi tejam tamoyili so'zlovchi (individ)ning ruhiy, psixofiziologik quvvatini til birliklarini qisqartirish, tushirib qoldirish orqali tejash, kommunikatsiyaga ketadigan vaqtni kamaytirish, tildagi ortiqchalikni bartaraf etish ehtiyojidan kelib chiqib, zohir bo'ladigan umumlisoniy qonuniyat. *Op keling* (olib keling), *buyam* (bu ham), *qong* (qoling) kabi hodisa bunga misol bo'ladi. Tejamkorlikning fonetik, morfologik ko'rinishi mavjud. Morfologik tejam asosida fonetik tejam yotadi. *Yirik-irik, yigit-igit, yiroq-iroq* qisqaruvi fonetik tejamga misol. *Olib ber — ober, bizim - bizning, sizing - sizning* kabilar morfologik qisqaruvga misol. *Olib ber - ober, bizim - bizning, sizing-sizning* tejalishlari — nutqiy qisqaruv.

Tejam o'z maqomiga ko'ra yo lisoniy, yo nutqiy bo'lishi mumkin. Masalan, jo'nalish kelishigi shakli dastlab [*-qaru*] ko'rinishida bo'lgan, bugungi kunda u qisqarib, [*-ga*] shakliga kelib qolgan. Bu — tejamning lisoniylashuvi. *Olib ber - ober, bizim - bizning, sizing - sizning* tejalishi nutqiy qisqaruv. Chunki, *sizing* so'zshaklidagi (*-ing*) lisonda [*-ning*] shaklida yashaydi. Tilshunoslikda faqat nutqiy qisqaruvlarnigina tejam sifatida tan olishga moyillik kuchli.

Tejam o'z mohiyatiga ko'ra nutqiy aloqani osonlashtirishga xizmat qiladi, biroq axborot ko'lamiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Grammatik kategoriya. *Kategoriya* atamasi tilshunoslikka falsafadan kirgan termin. U falsafada «obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha» tarzida ta'riflanadi. Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya'ni kategoriya uchun juftlik va alohidalik xos bo'lishi shart. Falsafada

juftlikni sabab-natija, mohiyat-hodisa, butun qism, alohidalikni borliq, miqdor, makon tashkil etsa, tilshunoslikda *kategoriya* atamasi ostida zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko'plik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi.

Bugungi tilshunosligimizda *grammatik kategoriya* atamasi ostida, asosan, morfologik kategoriyani tan olish ustuvor. Umuman, sintaktik kategoriya ham grammatik kategoriya sifatida qaralsa-da, xususiy hollarda, ya'ni sintaktik tekshirishlarda *kategoriya* tushunchasi e'tiborga molik ahamiyat kasb etmaydi. Bunga qo'shilib bo'lmaydi, albatta.

Butun uchun qism va ular orasidagi munosabat, sistema uchun element va ularni birlashtiruvchi aloqa shart va zarur bo'lganligi kabi grammatik kategoriya (qisq. GK) uchun ham (ayni paytda morfologik hodisa haqida so'z yuritayotganimiz tufayli *grammatik kategoriya* atamasi ostida morfologik kategoriyani nazarda tutamiz) aloqa va aloqada turuvchi birlik zarur. Muayyan ma'no umumiyligi ostida birlashgan va o'zaro bu ma'noning parchalanishi, xususiylashuvi asosida zidlanadigan shakllar sistemasi GK hisoblanadi. GK grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum bir turdagi shakllarning umumiy ma'no asosidagi barqaror munosabati tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlik. Bunda umumiylik va farq umumiy ma'no asosida bo'lishi lozim. Buni yorqin idrok etish uchun kelishik kategoriyasi va ravishdoshlarni *grammatik kategoriya* tushunchasiga munosabat nuqtayi nazaridan kuzatish etarli.

Ma'lumki, kelishikning mohiyati «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga tobelab bog'lash»dir. Bu mohiyat faqat ana shu morfologik ko'rsatkichlar tizimiga xos. Har bir kelishik ushbu ma'noni o'ziga xos tarzda xususiylashtirib, bu bilan bir-biriga zidlanadi. Masalan, qaratqich kelishigi «oldingi ismni keyingi ismga», tushum kelishigi «oldingi ismni keyingi fe'lga» xususiylashmasiga ega. Bu xususiylashmalar lisoniy ma'noning parchalanishlari bo'lish bilan birga, mazkur kelishiklarning farqlovchi belgisi ham. Demak, har bir kelishikka xos «parcha» kelishik mohiyatining xususiylashmasi, zidlanish esa ana shu parchalar asosida. Ravishdosh shakllari esa «fe'lni fe'lga bog'lash» ma'nosiga ega. Biroq ravishdosh shakllariaro farq o'zga kategoriyalar ma'nosining ushbu shakllardagi tajallisi evaziga. Masalan, [*-gani*] ravishdosh shaklidagi «maqsad» ma'nosi mayl kategoriyasining ushbu shakldagi tajallisi, yoki [*-gach*] shaklidagi «payt» ma'nosi zamon kategoriyasi ma'nosining mazkur

ko'rsatkichdagi ko'rinishi. Agar shakllari faqat «fe'lni fe'lga bog'lash» ma'nosining parchalanishi asosida zidlansa edi, ravishdoshni alohida kategoriya sifatida baholash lozim bo'lur edi. Holbuki, ravishdosh shakllari fe'lni fe'lga bog'lash nuqtayi nazaridan o'zaro farq qilmaydi

Ta'kidlash lozimki, grammatik kategoriya va unga mansub grammatik shakl o'zaro pog'onali, butun-bo'lak munosabatlarida bo'ladi. Bu esa biror grammatik shaklning qaysidir grammatik kategoriyaga mansub bo'lmasligi mumkin emasligini ko'rsatadi. To'g'ri, ayrim kategoriyada moddiy ifodali grammatik shakl bitta bo'ladi. Moddiy ko'rsatkichi bitta bo'lgan kategoriyasida muayyan morfologik formani yasovchi asosning o'zi nol ko'rsatkichli bo'lib, ikkinchi morfologik shaklni tashkil qiladi. Masalan, otning son kategoriyasida shunday holni ko'rish mumkin. Bunda birlik son nol shaklli grammatik ko'rsatkich bo'lib, u ushbu shakliy va shunga muvofiq ma'noviy mohiyati bilan [*-lar*] shakliga ziddiyatda turadi. Sifatlardagi oddiy va qiyosiy daraja shakllari ham fikrimizni dalillaydi.

Darslik va akademgrammatikada [*-niki*], [*-dagi*], [*-dek*], [*-gacha*] birliklarini goh nokategorial shakl yasovchi, goh so'z yasovchi sifatida qarash hollari uchrab turadi. Bu tilshunosligimizda o'rganilishi lozim bo'lgan muammolardan.

Demak, nokategorial grammatik shakl bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun grammatik shaklni kategorial va nokategorial kabi turga ajratish va zid qo'yish ilmiy asosli emas. Shunday qilib, grammatik kategoriyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin. **Bir umumiy grammatik ma'no ostida birlashuvchi, shu asosda bir-birini taqozo va bu umumiy ma'noning parchalanishi asosida inkor qiluvchi shakllar tizimi** *grammatik kategoriya* deyiladi.

O'zbek tilshunosligida tilimizdagi 9 ta GK mavjudligi tan olinadi:

1) nisbat kategoriyasi;
2) o'zgalovchi kategoriyasi;
3) harakat tarzi kategoriyasi;
4) bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi;
5) son kategoriyasi;
6) daraja kategoriyasi;
7) kelishik kategoriyasi;
8) egalik kategoriyasi;
9) kesimlik kategoriyasi:

9.1) shaxs-son;

9.2) zamon;
9.3) tasdiq-inkor;
9.4) mayl (modallik).

GK ham serqirra mohiyatli lisoniy hodisa bo'lganligi sababli turli tomondan tasnif qilinadi. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

1. Kategoriya shakllarining ma'noviy tarkibiga ko'ra.
2. Morfologik kategoriya (MK)ning so'z turkumi yoki gap bo'laklariga xosligiga ko'ra.
3. MK sintaktik qobiliyatining yo'nalishiga ko'ra.

Birinchi tasnifga muvofiq, GK sodda va murakkab kategoriyaga bo'linadi. Nisbat, subyektiv munosabat, son, qiyoslash, daraja, egalik sodda kategoriya sifatida qaraladi. Chunki ularda ma'no sodda bo'lib, ularda boshqa kategoriya tajallisini ko'rmaymiz. Chunonchi, son kategoriyasining ma'nosi miqdoriy va sifatiy belgilarning ma'lum yig'indisidan iborat bo'lsa, kelishik kategoriyasi tobelikni ifodalaydi. Daraja kategoriyasi belgining qiyosan ekanligini ko'rsatsa, nisbat kategoriyasi fe'l anglatgan bajaruvchining miqdor va sifat jihatdan tavsifini beradi. Bu soddalik, albatta, nisbiydir. Chunki grammatik ma'no tarkibi kategorial, yondosh va hamroh ma'nodan iboratligi bunday hukm chiqarishga yo'l bermaydi. Biroq bu kategoriyalarda mavjud ma'nolardagi yondosh va hamroh ma'no boshqa bir morfologik kategoriyaga emas, balki umuman boshqa qaysidir sathga tegishli.

Murakkab kategoriya shakllarida ma'no murakkab bo'lib, boshqa kategoriyaga mansub ma'nolar ham mujassamlashgan bo'ladi. Egalik, o'zgalovchi, harakat tarzi, kesimlik ana shunday GKlardan. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma'no mujassamlashgan bo'ladi:

a) lisoniy (so'zlarni bir-biriga bog'lash) va nolisoniy (borliqdagi bir narsa/shaxsning ikkinchi bir narsa/shaxsga mansubligi) munosabatni ifodalash;

b) shaxs ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial, ya'ni yondosh);

d) son ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial, ya'ni yondosh).

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda tasdiq/inkor, mayl-zamon, shaxs-son va zamon ma'nolari birlashgan va ular bitta qo'shimchada yoki bir necha qo'shimchada yuzaga chiqadi. Masalan, *olmani ol* gapida (*ol*) so'zshakli tasdiq, buyruq mayli, ikkinchi shaxs, birlik son va hozirgi zamon ma'nolarini voqelantirib kelmoqda va bular nol shakl bilan ifodalanmoqda. *Kitobni*

olmadingiz gapida inkor ma'nosi (*-ma*) qo'shimchasi bilan, mayl va zamon ma'nosi (*-di*) shakli bilan, ko'plik ma'nosi (*-iz*) shakli bilan ifodalanmoqda.

O'zgalovchi kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllari ma'nolari yondosh ma'no sifatida bir butunlikni tashkil etadi.

So'z turkumi yoki gap bo'lagiga xosligi jihatidan MK ikkiga bo'linadi:

a) leksik-morfologik kategoriya;

b) funksional-morfologik kategoriya.

Leksik-morfologik kategoriya so'zlarning ayrim guruhiga, ya'ni tukumlarga xos bo'lib, ular sirasiga nisbat, harakat tarzi, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja kategoriyalari kiradi. Kelishik, egalik, kesimlik funksional-morfologik kategoriyadir. Chunki kesimlik kategoriyasi kesim vazifasida keluvchi barcha so'zga xos. Kelishik kategoriyasi so'z birikmasidagi tobe a'zo vazifasida keluvchi so'zni shakllantirsa, egalik kategoriyasi qaratuvchili birikmadagi hokim a'zoni shakllantiruvchi grammatik kategoriyadir. Formal o'zbek tilshunosligida kelishik va egalik kategoriyasining ot turkumiga, shaxs-son kategoriyasining fe'lga xosligi uqtirilar edi. Bu ham, albatta, asossiz emas. Chunki kelishik va egalik kategoriyasi ko'rsatkichlari ko'p hollarda otni shakllantirsa, kesim vazifasida kelishga asosan fe'l xoslangan. Fe'l fe'l bo'lganligi uchun emas, balki kesim vazifasida kelganligi uchun tuslanadi. Ot esa ot bo'lganligi uchun emas, balki tobe a'zo vazifasida kelganligi uchun turlanadi. Chunki so'zlarning turkumga ajralishidagi dastlabki asos ularning sintaktik vazifasidir. «Avvalo, gap bo'laklari farqlangan va, shunga muvofiq, so'z turkumlari ajratilgan» (I.I.Meshchaninov). Demak, kelishik va egalik kategoriyasini faqat otga, kesimlik kategoriyasini faqat fe'lga bog'lab qo'yish ularning imkoniyatini toraytirib qo'yishdir.

MK sintaktik qobiliyatining yo'nalishiga ko'ra tasnifida «birin-ketinlik», ya'ni grammatik kategoriya sintaktik qobiliyatining «oldingisi bilan» va «keyingisi bilan» sifatida belgilanishi nazarda tutiladi. Masalan, (*kitobning*) so'zshaklidagi (*—ning*) o'zidan keyin egalik shaklini olgan ot kelishi shartligini, (*kitobi*) so'zidagi (*-i*) bu so'zshakldan oldin qandaydir qaratqich aniqlovchi bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. O'zbek tilida egalik, nisbat, o'zgalovchi, kesimlik, qiyoslash, son kategoriyasi so'zshaklning «oldingisi bilan» aloqalarini ko'rsatsa, kelishik va o'zgalovchi kategoriyasining

ravishdosh va sifatdosh shakllari so'zshaklning «keyingisi bilan» aloqasini ifodalaydi. O'zgalovchi kategoriyasining harakat nomi shakli hamda subyektiv baho kategoriyasi bu jihatdan mo'tadil.

Aloqa-munosabat kategoriyalari

Aytilganidek, aloqa-munosabat (sintaktik) kategoriyalari so'z turkumiga emas, balki gap bo'laklariga, so'zning sintaktik mavqeiga xos. Aniqrog'i, so'z ma'lum bir turkumga xos bo'lganligi uchun emas, balki qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganligiga, gapda qanday sintaktik vazifa bajarayotganligiga qarab aloqa-munosabat shaklini qabul qiladi. Biroq bunda so'z turkumining ko'proq qaysi gap bo'lagi vazifasiga xoslanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ot turkumi ko'proq tobe mavqeda kelib, ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifalarini bajaradi. Kesim vazifasida kelishga esa fe'l turkumi xoslangan. Shuning uchun bu bir qarashda kelishik otga, kesimlik shakli esa fe'lga xosdek tasavvur uyg'otadi. Bu — grammatik illuziya. Aslida barcha mustaqil so'z turkumining barcha gap bo'laklari vazifasida kela olishi haqidagi «aksioma» mazkur shakllarning so'z turkumlariga munosabatini yaqqol namoyon qiladi.

So'z turkumining gap bo'laklari vazifasiga xoslanishi turlicha ekan, aloqa-munosabat shaklining ularning har biridagi voqelanishi o'ziga xos. Quyida har bir so'z turkumi misolida bu o'ziga xoslik tahlil etiladi.

Aloqa-munosabat shaklining fe'lda voqelanishini kesimlik kategoriyasidan boshlash maqsadga muvofiq. Zero, fe'l — kesim vazifasida kelishga eng ko'p xoslangan so'z turkumi.

Kesimlik kategoriyasi. Ma'lumki, kesim gap bo'lagi sifatida dunyodagi barcha tillarning sintaktik sistemasida alohida o'rin tutadi. Uning mavqei turkiy tillarda, ayniqsa, muhim.

Turkiyshunoslikda ham, o'zbek tilshunosligida ham kesimlik kategoriyasini maxsus morfologik kategoriya sifatida ko'rsatish urf bo'lmoqda. Zero, u aloqa-munosabat shakllari sirasida to'liq sintaktik funksiya bajarishi bilan ajralib turadi. Turkiy tillarning asosiy xususiyati shunda. Chunki aloqa-munosabat kategoriyalari sirasidagi kelishik va egalik so'zlarni bog'lashga xizmat qilsa va ko'p hollarda gap bo'laklarini belgilamasa, kesimlik shakllari so'zlarga alohida sintaktik vazifa beradi. Boshqacha aytganda, «gap bo'laklarini shakllantirish» belgisi ostidagi ziddiyatda kesimlik kategoriyasi bu belgiga to'liq egaligi bilan ajralib turadi. Egalik

kategoriyasi esa gap bo'laklarini belgilamaydi, balki faqat so'zning sintaktik munosabatini ko'rsatadi. Kelishik kategoriyasi bu belgiga majhul munosabatda. Chunki masalan, o'rin-payt kelishigidagi so'z hol vazifasida ham, boshqa vazifada ham bo'lishi mumkin. Qiyoslang: Akam ***shaharda*** yashaydi (*shaharda* – hol). ***Shaharda*** *yashaydigan akam keldi* (***shaharda*** – aniqlovchining tarkibiy qismi, hol emas). Bosh kelishikdagi so'z ega vazifasida ham (***Akam*** *keldi*), egadan boshqa vazifada ham (***Akam*** *o'qigan kitob*) kela oladi. Shuningdek, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari ham muayyan gap bo'lagini shakllantirmaydi.

Kesimlik kategoriyasining ma'nolari murakkab bo'lib, ular quyidagilardir:

a) tasdiq/inkor ma'nosi;
b) mayl ma'nosi;
d) zamon ma'nosi;
e) shaxs ma'nosi;
f) son ma'nosi;
k) kesimni shakllantirish va uni gapning egasi va hol bilan bog'lash.

Demak, kesimlik kategoriyasida beshta ma'noviy xususiyat va bir sintaktik vazifa mujassam. «Tasdiq/inkor, mayl-munosabat, zamon, shaxs, son, ma'nosini ifodalab, kesimni shakllantirish va uning gap kengaytiruvchilari (ega, hol) ga sintaktik munosabatini ko'rsatish» – kesimlik kategoriyasining UGMsi.

Kesimlik kategoriyasi shakllari uchun shaxs, son, zamon, mayl, tasdiq/inkor ma'nolarini yaxlit ifodalash xos bo'lib, bu ma'no bir qo'shimcha bilan ham, bir necha qo'shimcha bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *kitobni o'qi* gapida (*o'qi*) so'zshakli ikkinchi shaxs, birlik, hozirgi-kelasi zamon, tasdiq ma'nolari voqelangan bo'lib, bitta nol shakl bilan yuzaga chiqqan. *Otam – ishchi* gapida ham shunday hol kuzatiladi. *Kitobni o'qimadingiz* gapida shaxs-son ma'nosi (*-ingiz*), inkor ma'nosi (*-ma*), zamon ma'nosi (*-di*) shakli bilan alohida-alohida ravishda ifodalangan.

Egalik kategoriyasi. Bu kategoriyaning ko'rsatkichlari quyidagi: *-(i)m, -(i)miz, -(i)ng, -(ing)iz, -(i)si.* Egalik affiksi tarkibida beriluvchi [*-lar*] shaxs haqida emas, balki egalik qilinayotgan narsa/predmet haqida ma'lumot tashigani, shu narsaning ko'pligiga ishora qilganligi tufayli uni bu kategoriya bilan bog'lab bo'lmaydi. Masalan, *...Antey kuchni yerdan oladi, Said Ahmad ...ularning maqtovlaridan. Maqtovlari* so'zshaklidagi (*-lar*) maqtovning ko'pligini ko'rsatmoqda.

Bu kategoriya shaxs va son ma'nosi bilan uzviy bog'langan. Shu boisdan egalik kategoriyasi (qisq. EK)ning barcha ko'rsatkichida bir vaqtning o'zida shaxs ma'nosi ham, son ma'nosi ham ifodalanadi. Holbuki, bu ma'nolar ushbu kategoriyadan tashqarida ham mavjud (masalan, kishilik olmoshlarida, kesimlik kategoriyasida, shuningdek, otning son kategoriyasida va h.). Aslida shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun kishilik olmoshi xoslangan. Ulardan boshqa lisoniy birliklardagi shaxs-son ma'nosi olmosh mohiyatining tajallilari. Demak, EKning mohiyatini shaxs-son ma'nosining qo'llanilishi bilan bog'liq o'ziga xos holatdan tashqaridan qidirmoq lozim bo'ladi.

EK asosidagi sintaktik qurilma rang-barang ma'noni anglatadi. Bu rang-baranglik shaxs-son, aniqlik/noaniqlik kabi tajalli ma'no, tobe so'zning kelishik shakli, birikuvchi so'zlarning semantikasi kabi omil bilan bog'liq. Masalan, (*g'amim*) so'zshakli kontekst bilan bog'liq ravishda ikki xil ma'no anglatadi: *g'amimni yedim – g'amimni yeding.* Shu boisdan EKning faqat sintaktik xususiyati uning mohiyatiga daxldor. Zero, EK UGMsidagi kategorial ma'no sintaktik tabiatli, undan anglashiladigan turli ma'no yondosh va hamroh ma'no. Xususan, «shaxs-son» ma'nosi EK uchun yondosh, shaxs-son kategoriyasi uchun kategorial.

EKning sintaktik (kategorial) mohiyati – «keyingi mustaqil so'zning oldingi ifodalangan (a) yoki ifodalanmagan (b) mustaqil so'zga sintaktik munosabatini ko'rsatish. Masalan, a) *mening kitobim, mening borganim, kelishning azobi;* b) *sevinchim, ishing*;

EK qaratqich kelishigi va bosh kelishik shakli bilan zich munosabatda bo'ladi. Aniqrog'i, egalik affiksi bilan shakllangan so'zdan oldingi, unga tobe so'z qaratqich (a) yoki bosh kelishikda (b) bo'lishi mumkin: a) *mening kitobim, kitobning varag'i;* b) *mart oyi, dam olish kuni, qish payti.* (Keyingi birikuvlardagi bosh kelishik shaklini belgisiz qaratqich kelishigi sifatida tan olish ham uchrab turadi.)

Ko'rinadiki, egalik ma'nosi uch xil usul bilan ifodalanadi:

1) *morfologik usul*da egalik ma'nosi egalik shakli bilan ifodalanadi, ammo qaratuvchi so'z keltirilmaydi: *kitob**im**, o'qigan**ing**, taq-tuq**i**.*

2) *morfologik-sintaktik usul.* Bunda egalik subyekti qaratqich kelishigida, egalik obyekti egalik shaklida bo'ladi: *mening kitob**im**, sening o'qigan**ing**, bolg'aning taq-tuq**i**, gulning qizil**i**.*

3) *sintaktik usul.* Bunda egalik subyekti qaratqich kelishigida, egalik obyekti egalik shaklisiz bo'ladi: *bizning uy, sizning ko'cha.*

Modal ma'no EK uchun nokategorial, ya'ni hamroh ma'no bo'lib, u o'zining grammatik kategoriyasiga ega emas. I shaxs birlik, III shaxs qo'shimchasidan boshqasi modal ma'no ifodalaydi. «Sizlash», «sensirash», «kamsitish», «kesatish», «hurmat» kabi qator ma'nolar modal ma'no. Bu, ayniqsa, ko'plikda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. *Akamning kitoblari, dadamning mashinalari* kabi.

Egalik qo'shimchalarining xususiy qo'llanishida «butun-qism» ma'nosining yuzaga chiqishini ham kuzatish mumkin: *o'quvchilarning biri, talabalarning a'lochisi, odamlarning o'qigani* kabi.

EKning UGMsi kategorial va yondosh ma'no asosida bir necha OGMga ajraladi:

1) «qarashlilik/mansublik»: *Ilhomning kitobi, bolaning otasi, qo'yning boshi*;

2) «foil-harakat»: *Adibaning kulishi, sening qarishing;*

3) «aniqlanmishni aniqlovchiga bog'lash»: *qovun bozori, go'sht do'koni.*

Bu OGMlarning har biri bog'lanayotgan so'zlarning xususiyatiga bog'liq ravishda qator XGMlarda yuzaga chiqishi mumkin: *bolaning otasi, gulning bargi, Mohigulning kitobi, qizlarning bittasi.* Masalan, bola va ota orasida qarindoshlik munosabati bo'lganligi sababli ularning ifodalovchilari bo'lgan (*bola*) va (*ota*) so'zi egalik shakli bilan bog'langanda, XGM «qarindoshlik» bo'ladi. *Ilhomning kitobi* birikuvida uch xil XGM yuzaga chiqadi: «Ilhom yozgan kitob», «Ilhomga qarashli kitob», «Ilhom haqidagi kitob».

EKning ikkinchi OGMsi bog'liq qurshovda – aniqlanmish vazifasida harakat nomi, sifatdosh, ba'zan fe'ldan yasalgan ot kelgan so'z birikmalarida voqelanadi. Bunday birikmalarda aniqlanmish harakat-holat ma'nosida, qaratqichli aniqlovchi esa foil/subyekt ma'nosiga ega bo'ladi: *Sitoraning kelishi, Muniraning aytgani* kabi.

EKning uchinchi OGMsi so'z birikmalari tuzish, so'zlararo sintaktik aloqani o'rnatish uchun xizmat qiladi. Misollar: *Astrobodning bir kuni bir yilga teng.* (Oyb.) *Oygulning yo'qligidan bo'ldi.*

EK shakllarining sintaktik vazifa bajarishi – otli birikma hosil qilish vazifasi asosida tadqiqotchilar turkiy tillar so'z birikmalari tizimida ham, gap qurilishida ham alohida qurilish – possesiv (qarashlilik) qurilishi mavjudligini qayd etadi va possesiv qurilish nominativ qurilishga qarama-qarshi qo'yiladi. Haqiqatan ham,

istagan turdagi gap qaratuvchi birikma variantiga ega bo'lishi mumkin: *qizlardan bitta – qizlarning bittasi, molga qul – molning quli, vatan uchun kurash – vatan kurashi, qizil gul – gulning qizili.*

EKning sintaktik funksiyasi ayrim so'zlar tarkibida butunlay so'nib ketadi: *kechasi, o'rni, qaysi* kabi.

Kelishik kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi (qisq. KK) morfologik kategoriya sirasida ustuvor sintaktik tabiati bilan ajralib turadi. U EK bilan birgalikda sintaktik shakllarning so'z birikmasiga xos guruhini tashkil etib, gapga xos kesimlik kategoriyasidan farqlanadi. KKning UGMsi – «sintaktik qurilmada oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash». Bu bilan u EK ga qarama-qarshi tursa, fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi, bog'lovchilar va ko'makchilarga yaqin turadi. Ammo ulardan farqli jihatga ega. Ko'makchidan morfologik ko'rsatkich (qo'shimcha) ekanligi bilan farqlanadi. Ko'makchilar grammatik ma'no ifodalash, so'zlarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarsa-da, leksik birlik hisoblanadi. O'zgalovchi kategoriya shakllaridan barcha mustaqil so'zni sintaktik aloqaga kiritish, so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmasligi bilan ajraladi. Holbuki, o'zgalovchi kategoriyasi faqat fe'lga xos va fe'llarning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etishi bilan lug'aviy-sintaktik mohiyatga ega. Shuning uchun ular «fe'l kelishiklari» deb ham yuritiladi. Bog'lovchilardan esa tobe aloqa uchun xizmat qilib, so'z birikmalariga xosligi hamda grammatik ko'rsatkich (qo'shimcha) ekanligi bilan farqlanadi.

KK olti shaklli sistema bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ma'noviy va sintaktik xususiyatlar yaxlitligidan iborat. KK shakllari sistemasi quyidagi jadvalda aks etgan (21-jadval):

21-jadval

№	Kelishik	Qo'shimchasi	Misollar
1	Bosh kelishik	*-0*	*Kitob, yaxshi, o'n, men, borish*
2	Qaratqich kelishigi	*-ning*	*Kitobning, yaxshining, o'nning, mening, borishning*
3	Tushum kelishigi	*-ni*	*Kitobni, yaxshini, o'nni, meni, borishni*
4	Jo'nalish kelishigi	*-ga*	*Kitobga, yaxshiga, o'nga, menga, borishga*
5	O'rin-payt kelishigi	*-da*	*Kitobda, yaxshida, o'nda, menda, borishda*
6	Chiqish kelishigi	*-dan*	*Kitobdan, yaxshidan, o'n-dan, mendan, borishdan*

Bosh kelishik. Bosh kelishik (qisq. BK) 0 shaklli bo'lib, uning mohiyati boshqa kelishiklarga qarama-qarshi qo'yilish asosida belgilanadi. BK dagi so'zshakl gap tarkibida tobe mavqedagi istagan gap bo'lagi, so'z yoki gap kengaytiruvchisi bo'lib kela oladi. Misollar:

Ega: *Derazamning oldida bir tup* ***o'rik*** *oppoq bo'lib gulladi.* (H.Olim.)

Aniqlovchi: *Bilim* — ***baxt*** *kaliti.* (Maq.)

To'ldiruvchi: *Ko'rpangga qarab* ***oyoq*** *uzat.* (Maq.)

Hol: *Ship etdi,* ***Shibirg'on*** *ketdi.* (Topish.)

Darslik va qo'llanmalarda BK kesim vazifasidagi so'zni ham shakllantiradi deyiladi: *Otam* — ***o'qituvchi***. *Dil qulfi* — ***til*** kabi. Biroq bunda [*o'qituvchi*], [*til*] so'zshakllari kesim vazifasida bo'lib, boshqa bo'laklarga mutlaq hokim. KKning sintaktik mohiyati esa «sintaktik qurilmada oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash». Bu mohiyat nuqtayi nazaridan kelishiklarga munosabatda bo'ladigan bo'lsak, kesimda bosh kelishikni qidirish — mantiqsiz. Chunki:

a) kesimlik kategoriyasi tarkibi murakkab bo'lsa-da, unda kelishik shakli mavjud emas;

b) KK umumturkumiy kategoriya ekan, unda kesim vazifasidagi barcha mustaqil so'zlarda kelishikni qidirishga to'g'ri kelgan bo'lar edi;

d) KK sintaktik mohiyati «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» ekan, kesim eng oxirgi so'z bo'lib, undan keyin bog'lanadigan birlik yo'q;

e) ayrim tadqiqotlarda bunday paytda kelishik ma'nosi va vazifasi o'ta darajada kuchsizlashadi, deyiladi. Aslida bunda kuchsizlashish shu darajadaki, kelishik mohiyati mutlaqo voqelanmaydi — «ko'rinmaydi». Bu esa ushbu pozitsiyada kelishikni qidirmaslikni taqozo qiladi.

Tilshunoslar turkiy tillarda «bosh kelishikdagi so'z gapning xohlagan bo'lagi bo'lib kela olishi»ni ta'kidlashadi. BKning bu xususiyati boshqa kelishiklarning o'rnini almashtira olishi bilan belgilanadi. Ammo bu imkoniyat chegaralangan. KK sistemasi ikki mikrosistemadan iborat: BK, qaratqich kelishigi (qisq. QK), tushum kelishigi (qisq. TK) va jo'nalish kelishigi (qisq. JK), o'rin-payt kelishigi (qisq. O'PK), chiqish kelishigi (qisq. ChK). BK birinchi mikrosistemaga mansub bo'lganligi uchun uning QK va TKni almashtirishi bemalol. JK, O'PK va ChKga nisbatan bu imkoniyat nihoyatda chegaralangan. Masalan, *ikki* ***kundan*** *keyin* —

ikki kun keyin, qishloqqa ketdi – qishloq ketdi, oqshomda ketdi – oqshom ketdi.

Qaratqich kelishigi. QK uch xil qo'llanadi: *kitobning varag'i, mening uyim, qoshin qarosi.* QK ko'rsatkichini olgan so'z – qaratqich, u bog'langan so'z – qaralmish. Qaratqich-qaralmish munosabati ancha barqaror bo'lib, bu QK ko'rsatkichining so'z birikmasidagi o'rni ancha barqarorligi bilan belgilanadi.

QK *shuning uchun, shuning singari* kabi birikuvlarda so'z birikmasi hosil qilmaydi, balki so'zning ajralmas qismiga aylanadi.

QKni olgan so'z EKni olgan so'z bilan birga qo'llanadi. Bunday qurilishli so'z birikmalari – [QKdagi ism + EKdagi ism] so'z birikmasi umumiy qolipining voqelanishi.

QKning keltirilgan uch xil ko'rinishi nutq ko'rinishi, bog'lanuvchi so'zlarning lug'aviy ma'nosiga bog'liq ravishda yuzaga chiqadi.

Tushum kelishigi. TK ning morfologik ko'rsatkichi – [*-ni*]. Varianti – ([*-n*], [*-i*]). TKdagi so'z faqat fe'l bilan bog'lanadi. Fe'llar TK dagi so'zga munosabatiga ko'ra, ikkiga ajraladi: o'timli fe'l va o'timsiz fe'l. TK ham ko'p holda BK bilan o'rin almashadi: *kitobni o'qidi – kitob o'qidi, olmani yedi – olma yedi.* TK bilan shakllangan so'z gap tarkibida so'z kengaytiruvchisi – to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Novdalarni bezab g'unchalar, tongda aytdi hayot otini.* (H.Olim.)

Kelishiklarning belgili/belgisiz qo'llanilishi masalasi munozarali. KKdagi so'z uyushganda oldingi so'zshakllardagi kelishiknigina belgisiz deyish ma'qul. Masalan: ***Halim, Karim va Salimni ko'rdim*** (belgisiz TK). ***Opalarim va akalarimning*** *dardlari bir dunyo* (belgisiz QK). ***Na sada daraxtlari osti, na machitlar, na doim bazm qiziydigan gavjumda*** *biror sharpa eshitasiz* (belgisiz O'PK). (J.Abd.)

Jo'nalish kelishigi. JK ko'rsatkichi – [*-ga*]. JK semantikasiga yo'nalganlik, xoslik, tenglashtirish kabi ma'no turi xos. Bu ma'nolar birikuvchi so'zlarning xususiyatidan kelib chiqib o'zgarib ketaveradi: *ukamga olmoq, maktabga bormoq.* Birinchi birikmada «atalganlik» ma'nosi (*uka*) va (*ol*), ikkinchi birikmada «yo'nalganlik» ma'nosi (*maktab*) va (*bormoq*) so'zlarining lug'aviy va grammatik ma'nosiga bog'liq. JK UGMdagi kategorial ma'no esa «oldingi so'zni keyingi so'zga hol va to'ldiruvchi vazifasida bog'lash».

O'rin-payt kelishigi. O'PK ko'rsatkichi – [*-da*]. O'PK KK UGMsini «oldingi so'zni keyingi so'zga hol va to'ldiruvchi

vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi. O'PK va JK «yo'nalganlik» va «o'rinlashganlik» yondosh ma'nosi bilan farqlanadi.

O'PKning BK bilan o'rin almashishiga misol: *Sitora 1998-yil (da) tug'ildi.* Bunday almashish kam uchraydi. O'PK qo'llanishida so'zda makon, zamon, obyekt, vosita kabi ma'nolar yuzaga chiqadi: 1. *Munira kompyuterda yozdi* (vosita). 2.*Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda* (payt). (H.Olim.) *Hammasi muqaddas kitoblarda aytilgan* (makon).

Chiqish kelishigi. ChK yagona ko'rsatkichga ega: [*-dan*]. Bu qo'shimcha ko'rsatish olmoshlariga qo'shilganda bir (*n*) tovushi orttiriladi: *u+dan=undan, shu+dan=shundan.* Aytilganidek, BK bilan ChKning o'rin almashishi nihoyatda cheklangan: *nondan yeng—non yeng, choydan iching—choy iching* kabi. ChKdagi so'z gap tarkibida hol, to'ldiruvchi, ega, kesim vazifasida keladi. Ega va kesim vazifasida kelganda ChK mohiyati voqelanmagandek tuyuladi. Misollar: *Munirada shu kitoblardan bor. Xijolati vazifani bajarmaganidan.* E'tibor qilinsa, bunda lisoniy qisqaruv mavjud: *Munirada shu kitoblardan (bir nechtasi) bor. Hijolati vazifani bajarmaganidan(dir).* Birinchi gapda aslida *bir nechtasi* so'zshakli ega, ikkinchi gapda *-dir (turur)* kesim bo'lgan.

ChK TK bilan ham o'rin almashishi mumkin. Bunda semantikada farq seziladi: *nondan yeng—nonni yeng, choydan iching—choyni iching.* ChKning QK bilan o'rin almashishida ham shunday hol kuzatiladi: *o'quvchilardan biri — o'quvchilarning biri.*

Eslatma. Darslik va grammatikalarda har bir kelishikning yigirma-o'ttiz ma'no turi keltiriladi. Ularning aksariyati KK UGMsiga xos bo'lmagan, birikuvchi so'zning lug'aviy va grammatik ma'nosiga bog'liq hodisalar. Shu boisdan har bir kelishik mohiyatini KK UGMdagi kategorial ma'no — «oldinggi so'zni keyingi so'zga bog'lash» mohiyatini qay tarzda xususiylashtirishidan qidirmoq lozim.

Eslatma. Turkiy tillarda kelishiklarning semantik va vazifaviy jihatini bir-biridan alohida va har xil mikrosistemalarga keskin bo'lib o'rganib bo'lmaydi, chunki bu tillar kelishiklarining ma'no va vazifasi dialektik birlikda yashaydi, kelishikning turli funksiyasi bir-biriga turli belgilari bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Masalan, JK, O'PK va ChK bir xil — hol va to'ldiruvchi vazifasida kela oladi. Biroq ular bu vazifani turlicha bajaradi.

SO'Z TURKUMLARI

So'z turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari

Leksema ham serqirra mohiyatli lisoniy birlik, uning tasnifida bu jihat asosiy diqqat markazida turishi lozim. Chunki leksemaning har bir qirrasi alohida bir tasnifga asos bo'ladi. Uning har biri o'z o'rnida ahamiyatli.

So'z turkumlarida leksika va grammatika, lison va nutq, til va borliq munosabatlari shunday qorishadiki, bu murakkab holat ularni tasniflashni murakkablashtiradi.

So'z leksika uchun ham, grammatika uchun ham asosiy va zaruriy birlik. Modomiki, so'z turkumlari o'zida u yoki bu belgisiga ko'ra ajratilgan so'z guruhlari ekan, guruhga ajratishga doir muammolarni leksika, morfologiya va sintaksis bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar o'zlaricha hal etadi. Bundagi ilmiy bahslar, avvalo, turkumlarga ajratish mezonlari, ajratiluvchi guruhlar soni va ularning tarkibi masalasi. Boshqacha aytganda, tilshunosligimizda asosiy e'tibor so'z turkumlari tasnifiga qaratilib, boshqa bir muhim masala — so'z turkumlarining o'zaro munosabati, ularning kesishuv nuqtalari, yaqinlashuvi va uzoqlashuvi ko'pincha nazardan chetda qoladi.

So'z turkumi soni va tarkibini aniqlashda dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligida ham, so'zlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatini inobatga olish keng tarqalgan. Biroq amaliyotda so'z turkumlarini ajratishda, asosan, ularning semantik xossasiga tayanish urf bo'lgan. Ayrim tilshunoslar tomonidan tasnifda ma'noviy belgi bosh va yagona asos sifatida qaraladi. Ba'zilar esa mezon sifatida mazkur uch belgini tan olgani holda so'zlarni ma'noviy va sintaktik belgilari asosidagina guruhlashadi. So'z turkumlarining bir-biriga o'tishi, leksik va leksik-grammatik omonimiya masalasi esa bunda har xil qarama-qarshilik va ikkilanishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

So'z guruhlariaro munosabatlarning ochilishi u yoki bu belgi asosida so'z turkumining muayyan turini ajratishga, tasnifini berishga olib keladi. Shuning uchun mantiqiy qarama-qarshilikdan qochish maqsadida formal mantiqning borliq hodisasini tasniflashga qo'yadigan asosiy talabidan biri bo'lgan «tasnifni faqat bir mezon asosida amalga oshirish, tasnifning ikki belgisini bir paytning o'zida qo'llab, ularni qorishtirmaslik» qoidasiga qat'iy rioya qilish lozim.

Shunday qilib, so'zlar semantik, morfologik va sintaktik belgisi asosida tasnif qilinishi maqsadga muvofiq. Bu uch belgi har bir so'zda dialektik birlikni tashkil etadimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Boshqacha aytganda, ma'lum bir semantikada ma'lum bir morfologik belgi va sintaktik xususiyat mujassamlashganmi? Masalan, predmetni ifodalovchi so'z (ya'ni predmetlik ma'nosi) son, kelishik, egalik ma'nolariga, shuningdek, subyekt, obyekt vazifalariga egami? Dalillar shuni ko'rsatadiki, ular subyekt, obyekt vazifalarida keladi. Shu bilan birgalikda, atributiv vazifada kelib, predmetning belgisini (*tilla uzuk, qum soat*), belgining belgisini (*tovushdan tez, yovdan xavfli*) bildiradi. Belgi ma'noli so'z egalik, kelishik affikslarini olishi, gapda subyekt, obyekt vazifalarida kelishi mumkin (*Olmaning **qizili** pishdi, gullarning **oqidan** terdi* kabi.)

Semantik-morfologik-sintaktik belgilar birligi asosida tasniflash tarafdorlari bunda yo omonimiya, yo substantivatsiya (otlashish) hodisasini ko'radilar. Chunki bu so'zlarda belgi ham, predmetlik ham mushtarak.

So'zlarning bayon etilgan semantik xususiyatlari, ya'ni «belgilik» va «predmetlik» ma'nosining birligi shuni ko'rsatadiki, so'zlarning egalik, kelishik, kesimlik affikslari hamda ma'lum bir sintaktik vazifa bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi yo'q. Takror bo'lsa-da, aytish joizki, egalik, kelishik, kesimlik affikslari, shuningdek, gapda ma'lum bir sintaktik vazifa bajarish biror so'z turkumi uchun xususiylashmagan. To'g'ri, ayrim so'zlar faqat predmetni bildirsa-da, belgi ifodalamaydi (masalan, atoqli otlar), ba'zilari esa predmetga ishora qilmasdan, faqat belgi, miqdor (masalan, [*ko'p*], [*oz*], [*bir*], [*ikki*]) ifodalashi mumkin. Bu yuqoridagi fikrga monelik qila olmaydi. Chunki ular juda oz miqdorda bo'lib, ular «predmetlik va belgilik mushtarakligi maydoni»ning chekkasidan o'rin oladi. Chegaradan o'rin egallovchi bunday so'zlar tasnifda, albatta, qiyinchilik tug'diradi. Shu boisdan ular sun'iy ravishda u yoki bu turkumga kiritib yuboriladi. Holbuki, bunday birliklarning o'rni ajratilayotgan so'z turkumlarining sarhadida. Shu boisdan tilshunos L.V.Sherba shunday yozadi: «Faqat guruhlar markazidagi birliklar aniq. So'z turkumlari chegarasidagi oraliq birliklar esa hamisha u yoq-bu yoqqa tebranib turadi. Ana shu noaniq, xira va tebranib turuvchi holat tilshunosning diqqatini ko'proq o'ziga jalb etmog'i lozim».

Agar so'zda semantik, morfologik va sintaktik belgi butunlikni tashkil etmas ekan, bunda ular tasnif asosi bo'lib xizmat qila olmaydi. Zero ziddiyatsiz bo'lish, guruhlash faqat bir asosda amalga

oshiriladi. Shuning uchun ayrim manbalarda, darslik va qo'llanmalarda mualliflar so'zlarni uch belgi birligi asosida tasnif qilishib, asosan, ulardan biriga yetakchi, asosiy mezon sifatida tayanishadi, shu bilan birgalikda, bir tasnifning o'zida tasnif asosini bir necha marta almashtirishadi. Deylik, o'zbek tilidagi so'zlar tasnifida morfologik belgi yetakchilik qiladi. Shu boisdan taqlidlar mustaqil so'zlarning barcha belgilariga ega bo'lsa-da, morfologik o'zgarmas so'z bo'lganligi uchun nomustaqil so'zlar sirasiga kiritib yuborilgan. Yoki gap bo'laklari sintaktik belgi asosida tasnif etiladi, biroq an'anaviy yondashuvda ergash gapli qo'shma gaplar bo'linishida tasnif sintaktik belgi asosida boshlanib, semantik belgi bilan yakunlanadi.

Ta'kidlash kerakki, qayd qilingan uch mezondan hammasi ham so'z guruhlarini belgilashda bir xil mavqega ega emas. Bu, avvalo, so'zlarning sintaktik vazifalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki biror bir sintaktik vazifani bajarish imkoniyati barcha mustaqil so'z turkumida mavjud. Bu vazifa so'z turkumlarini farqlash uchun emas, aksincha, ularni tenglashtirish uchun xizmat qiladi. Sintaktik vazifa nuqtayi nazaridan mustaqil va yordamchi so'zlar ajraladi, xolos. Ammo bunda ham yordamchi so'z vazifasida qo'llanadigan ot yoki fe'l haqida gap ketganda chalkashlik vujudga keladi. Nomustaqil so'zlarning ichki tasnifida ularning sintaktik vazifalarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, muayyan sintaktik munosabatni ifodalash ularning mohiyatini, kategorial ma'nosini tashkil etadi.

Morfologik tasnifda so'zlarning ikki muhim jihati e'tiborga olinadi: so'zlarning shakl yasalishiga potensial imkoniyati va muayyan grammatik kategorial ma'no ifodalanishining ma'lum bir so'z guruhlari bilan bog'liqligi.

Birinchi jihatga ko'ra morfologik o'zgaruvchi va o'zgarmas so'z farqlansa, ikkinchi jihatga ko'ra, so'zlarning morfologik guruhlari (so'z turkumlari) ajratiladi.

So'zlarning semantik tasnifi. Bunda so'zlar quyidagi guruhlarga ajraladi:

a) mustaqil lug'aviy ma'noli so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);

b) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z (olmosh va so'z-gap);

d) lug'aviy ma'nosiz so'z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama).

Olmosh anglatadigan ma'no u almashtirayotgan so'zning ma'nosi. Shu boisdan u nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z sifatida baholanishi lozim. So'z-gap (tasdiq-inkor, taklif, undov va modal

so‘z) esa hatto bir butun gap vazifasida ham kela oladi. Bu – uning lug‘aviy ma’nosiz so‘zdan farqi, biroq kontekst yordamida lug‘aviy ma’no anglatadi. Masalan, – *Uyga bor.* –*Mayli* gapida *mayli* so‘z-gapi *boraman* so‘zi anglatgan lug‘aviy ma’noga teng nutqiy ma’noga ega. Biroq bu ma’no mustaqil emas.

So‘zlarning morfologik tasnifi. Bu tasnifga binoan, so‘zlar, aytilganidek, ikki guruhga ajraladi:

a) o‘zgaruvchi leksema;

b) o‘zgarmas leksema.

O‘zgaruvchi leksema lug‘aviy shakl hosil qiluvchilarni qabul qila oladi. O‘zgarmas so‘z esa bunday xususiyatga ega emas. Bu tasnifda so‘zlarning o‘rni quyidagicha (22-jadval):

22-jadval

Leksemalar	
O‘zgaruvchi	**O‘zgarmas**
Fe’l	Taqlid
Ot	Ravish
Sifat	Ko‘makchi
Son	Bog‘lovchi
	Yuklama
	So‘z-gap

O‘zgaruvchi turkum uchun tasniflovchi grammatik shakl mavjud. Masalan, otlarda son, subyektiv baho shakllari, fe’llarda nisbat, o‘zgalovchi, harakat tarzi, sifatlarda daraja. O‘zgarmas so‘z bunday shaklga ega emas.

Bu tasnifda olmoshga o‘rin berilmagan, chunki u o‘zi ishora qiluvchi barcha mustaqil so‘z turkumiga xos o‘zgarish tizimiga ega. Shuning uchun olmoshning ot-olmosh, fe’l-olmosh, sifat-olmosh, son-olmosh kabi turi mavjud. Ot-olmosh sonlanadi (son kategoriyasiga ega bo‘ladi), fe’l-olmosh nisbatlanadi, tarzlanadi, o‘zgalanadi, sifat-olmosh darajalanadi, son-olmosh son shakllarini qabul qiladi.

Leksemalarning sintaktik tasnifi. Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan, ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog‘lana olish-olmasligi, gap bo‘lagi bo‘lib kela olish-olmaslik xususiyati o‘z aksini topadi:

1) gap bo‘lagi bo‘lishga xoslanmagan so‘z: undov, modal, so‘z-gap;

2) gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'z: fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh;

3) sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'z: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

So'z-gap boshqa so'z bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, o'zi mustaqil gap bo'lib kelish qobiliyatiga, ya'ni ajralganlik xossasiga ega. Mustaqil va yordamchi so'z esa bog'lanish xususiyatiga ega bo'lib, bulardan yordamchilar gapda alohida bo'lak bo'lib kela olmaydi, balki sintaktik jihatdan bog'lash vazifasini bajaradi. Mustaqil leksema esa mustaqil ravishda gap bo'lagi bo'lib kela oladi.

O'zbek tili leksemalarining semantik-morfologik-sintaktik belgilar majmuidan iborat serqirra mohiyatini jadvalda quyidagicha berish mumkin (23-jadval):

23-jadval

№	Leksema turlari	Ma'noviy belgilari	Morfologik belgilari	Sintaktik belgilari	Ajralishning asosiy belgisi
1	Fe'l	Harakat-holatni atash mustaqil leksemalari	Nisbatlanuvchi, o'zgalanuvchi, tarzlanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va ma'noviy
2	Ot	Predmet va predmetlikni atash mustaqil leksemalari	Sonlanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va ma'noviy
3	Sifat	Belgini atash mustaqil leksemalari	Darajalanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va ma'noviy
4	Son	Miqdorni atash mustaqil leksemalari	Tartiblanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va ma'noviy
5	Ravish	O'rin-payt, tarz-tusni atash mustaqil leksemalari	O'zgarmaslik	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va sintaktik
6	Taqlid	Tovush yoki ko'rinishga taqlid mustaqil leksemalari	O'zgarmaslik	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Ma'noviy
7	Olmosh	Ishora qiluvchi mustaqil leksemalar	O'zgaruvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Ma'noviy

8	Ko'-mak-chi			O'zgarmaslik	So'zni so'zga bog'lovchi, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan so'zlar	Ma'noviy va cintaktik
9	Bog'-lovchi			O'zgarmaslik	So'zni va gapni bog'lovchi, gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan so'z	Sintaktik
10	Yuk-lama			O'zgarmaslik	Gap bo'lagi vazifasida kela olmay-digan so'z	Ma'noviy
11	So'z-gaplar	Modal	Munosabatni atash leksemalari	O'zgarmas-lik	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosa-batga kirisha olmaslik)	Ma'noviy va sintaktik
		Un-dov	His-hayajonni tasvirlash leksemalari	O'zgarmas-lik	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosa-batga kirisha olmaslik)	Ma'noviy va sintaktik
		Tas-diq va inkor so'zlar	Tasdiq-inkor ma'noli leksemalar	O'zgarmas-lik	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosa-batga kirisha olmaslik)	Ma'noviy va sintaktik
		Taklif so'zlar	Taklif ma'noli leksemalar	O'zgarmas-lik	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosa-batga kirisha olmaslik)	Ma'noviy va sintaktik

O'zbek tilida so'z turkumlari mazkur belgilari asosida quyidagi ko'rinishda tartiblanadi:

I. Mustaqil so'zlar

1. Fe'l.
2. Ot.
3. Sifat.
4. Son.
5. Ravish.

6. Taqlid.
7. Olmosh.

II. Yordamchi so'zlar

8. Ko'makchi.
9. Bog'lovchi.
10. Yuklama.

III. Oraliq so'zlar

1. So'z-gaplar.

So'z turkumlari transpozitsiyasi

Ma'lumki, nazariy yondashuvda leksemaning atash (denotativ) semasi deganda borliqdagi harakat/holat, narsa-predmet, miqdor, belgi – xusu-siyatini atovchi, nomlovchi sema tushuniladi. Bu semaning har birini mustaqil so'z turkumi – fe'l «harakat/holatni atash» semasi, ot «narsa-predmetni atash», son «miqdorni atash», sifat va ravish «belgini atash» semasi sifatida bevosita xususiylashtiradi. Atash semasi obyektiv borliq parchasiga muvofiq kelgani bois leksema sememasi tarkibidagi boshqa semalar (vazifa, ifoda)dan muhimroq ahamiyatga ega. Har bir so'z turkumining muayyan atash semasi mutlaq va doimiymi yoki mustaqil so'z turkumlari orasidagi so'z turkumlarining bir-biriga ko'chish hodisasi (transpozitsiya)ning bunga daxli bormi?

So'z turkumining ko'chishi – transpozitsiya deganda, ma'lum bir turkumga mansub so'zning o'ziga xos bo'lgan atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so'z turkumiga xos semantik va grammatik belgiga ega bo'lishi tushuniladi. Turkiy tillarda so'z turkumi bir-biridan qat'iy chegaralanmaydi, ular uzviy aloqada, bir butun sistemani tashkil etadi. Bu sistema qismlari dialektik mantiqdagi «oraliq uchinchi» qonuniyatidan kelib chiqqan holda g i b r i d so'z sifatida baholanadigan, har ikki siraga xos semantik-grammatik belgini o'zida saqlovchi, bir turkumdan ikkinchi turkumga ko'chish bosqichida turuvchi so'zlar bilan uzviy bog'lanadi.

Mustaqil so'zlar orasidagi o'zaro munosabat va ularning bir-biriga ko'chishi leksema sememasidagi taraqqiyot natijasida yuzaga kelib, ko'chishning nutqiy va lisoniylashgan ko'rinishi farqlanadi. Nutqiy ko'chishda nutqiy ko'chma ma'no ifodalanadi. Masalan, *Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr qil* gapida son turkumiga mansub (*bir*) so'zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda va bu o'tkinchi, nutqiy hodisa. Lisoniy ko'chishda so'z bir turkumdan

boshqa turkumga butunlay o'tib ketadi, transpozitsiya hodisasi yuz beradi. Transpozitsiya deyarli barcha mustaqil so'z, hatto mustaqil va yordamchi so'zlar orasida ham kuzatiladi:

1) [*odam*], [*kishi*], [*inson*] otlari (*zerikib ketdi odam* (men), *hayron qolasan kishi* (men), *dardimni eshitadigan inson* (hech kim) *topilmadi*), [bir] soni (*bir kishi* (kimdir)), [*ba'zi*] sifati (*ba'zilar* (allakimlar) *unday deydi, ba'zilar bunday*) olmoshga;

2) [*yigit*], [*qiz*], [*o'g'il*], [*qari*], [*yer*], [*xotin*], [*ko'r*], [*issiq-sovuq*] *(issiq-sovug'idan xabar olmoq)* sifatlari, [*bordi-keldi*], [*keldi-ketdi*], [*oldi-berdi*], [*ur-yiqit*] juft fe'llari, [*o'qish*], [*yozish*], [*o'tmish*], [*qilmish*], [*qidiruv*] harakat nomi shakllari, [*o'qituvchi*], [*bog'lovchi*], [*kuzatuvchi*] sifatdoshlari, [*uch*], [*yetti*], [*yigirma*], [*qirq*] sonlari otga;

3) [*kelajak*], [*bo'lajak*] sifatdoshlari, [*tilla*], [*kumush*], [*taxta*] *(tilla uzuk, asal bola)* otlari sifatga;

4) [*charchamasdan*] *(ishlaysan)*, [*o'ylamasdan*] *(gapirdi)*, [*indamasdan*], [*bilinar-bilinmas*] sifatdoshlari, [*osha*], [*o'ta*], [*ura*], [*qayta*], [*qo'yarda-qo'ymay*], [*ura-sura*] ravishdoshlari, [*erta*], [*indin*], [*kecha*], [*kech*], [*kechqurun*], [*savat-savat*], [*navbatma-navbat*] otlari ravishga;

5) [*bir*] soni, [*yakka*], [*yolg'iz*] sifatlari yuklamaga;

6) [*haqiqatdan*], [*chamasi*], [*mazmuni*] otlari, [*yaxshi*], [*so'zsiz*], [*tuzuk*], [*to'g'ri*], [*tabiiy*] sifatlari, [*qani*], [*qalay*] olmoshlari modal so'zga;

7) [*bir*] soni, [*ba'zan*] ravishi, [*ham*] yuklamasi, [*bilan*] ko'makchisi bog'lovchiga;

8) [*ost*], [*ust*], [*old*], [*orqa*], [*tomon*], [*tag*], [*tepa*], [*ich*], [*ora*], [*qosh*], [*lab*], [*yoqa*], [*og'iz*] otlari, [*qarab*], [*boshlab*], [*ko'ra*], [*deya*], [*deb*], [*o'xshab*] ravishdoshlari, [*boshqa*], [*bo'lak*], [*o'zga*] sifatlari, [*avval*], [*oldin*], [*ilgari*], [*keyin*], [*so'ng*] ravishlari ko'makchiga ko'chganligi tegishli adabiyotlarda qayd etilgan. Sanalganlarning ayrimi bugungi kunda lisoniylashgan, ayrimi hali o'tish bosqichida – nutqiy hodisa sifatida qaralmoqda. Masalan, mavjud grammatikalarda son turkumining tasnifiy belgilari sanalar ekan, predmetning sanog'i, tartibini bildirishi, (*qancha*), (*nechta*), (*nechanchi*) so'rog'idan biriga javob bo'lishi, ot turkumiga mansub so'z bilan erkin aloqada bo'lishi va gapda, asosan, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelishi ta'kidlanadi. Son lug'aviy mazmun guruhiga kiruvchi jamlovchi son shaklida son umumiy grammatik ma'nosidan chetlashish kuzatiladi.

Ayni paytda jamlovchi sonning [*-ov*], [*-ala*], [*-ovlon*], [*-ovlab*], [*-ovlashib*] shakllari ajratiladi. Qayd etilganlardan [*-ovlab*], [*-ovlashib*] shakllari, bizningcha, jamlovchi son shakli emas, balki jamlovchi son o'zagidan yasalgan ravishdosh shakli: *ikki+ov+lash+ib*.

Demak, so'nggi ikki shakl jamlovchi son shakllari sirasidan chiqariladi. Asosiy shakl sifatida [*-ov*], [*-ala*], [*-ovlon*] ko'rsatkichi ajratilishi mumkin. Ma'lumki, bundan [*-ov*], [*-ala*] shakli boshqa son ma'no turidan farqlanib, deyarli har doim egalik shakli bilan qo'llanadi. [*-ovlon*] shaklli jamlovchi son atash semasi bugungi kunda miqdor emas, balki «qanchadir miqdordagi shaxs» deb qaraladi: ***Oltovlon*** *ola bo'lsa, og'zidagin oldirar.* [*-ov*], [*-ovlon*] shaklli son ot bilan birikmaydi, gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelmaydi, sonning so'roqlariga javob bo'lmaydi, hatto mazkur shakl hosil bo'ladigan qolip ham nihoyatda unumsiz bo'lib, barcha son o'zaklaridan jamlovchi son shakli hosil qilinmaydi. Ular ko'proq otga xos tasnifiy belgini o'ziga qabul qilmoqda. [*-ala*] shakli esa sonlik belgicini ham o'zida birmuncha saqlab turibdi: *Uchala bola ham qo'shni qishloqdan ekan.* Jamlovchi son shakllaridagi semik taraqqiyotni chizmada quyidagicha aks ettiramiz:

[*-ala*] - [*-ov*] - [*-ovlon*]

Ko'rib o'tilganidek, ushbu shakllar orasida [*-ala*] shaklida sonlik belgilari birmuncha saqlangan, [*-ovlon*] shaklida otlik belgici yaqqol, [*-ov*] shaklida har ikki jihat uyg'un bo'lib, mazkur shakllarga gibrid birlik sifatida qarash mumkin. [*-ov*] shakli jamlovchi son shakli orasida, jamlovchi son shaklli so'z esa ot va son so'z turkumi orasida «oraliq uchinchi» maqomiga ega bo'ladi.

Demak, aytish mumkinki, so'z turkumi orasida muntazam aloqa mavjud, bu aloqa til tizimining doimiy o'zgarish, taraqqiyotdagi jonli jarayon ekanligidan dalolat beradi. Shu boisdan ayrim so'zlarning qaysi turkumiga mansubligi ularning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tegishli tadqiq usullari bilan tadqiq qilish asosida belgilanishi lozim. Bu tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Fe'l

Fe'l va uning UGMsi. Fe'lning UGMsi — «ish-harakat va holatni jarayon sifatida ifodalash». Holat ifodalash boshqa so'z turkumiga ham xos. Biroq fe'lda u bir tusdan boshqasiga o'tish

tarzida. Masalan, *Daraxtlar yam-yashil* gapida sifat-kesim (*yam-yashil*) turg'un holatni ifodalamoqda. *Daraxtlar ko'kardi* gapida esa holat jarayon sifatida, bir tusdan ikkinchisiga o'tish tarzida yuz bermoqda.

Ish-harakatning barchasi ham zamon bilan bog'liq holda yuz bersa-da, gapda ulardagi zamon ifodalanmasligi mumkin. *Daraxtlar ko'kardi* gapidagi fe'lda zamon lisoniy ifodasiga ega. *Ishga borish* gapidagi fe'lda esa bunday xususiyat lisoniy voqelanmagan.

O'zbek tilidagi fe'llar leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra ikki asosiy guruhga ega:

a) mustaqil fe'l;

b) nomustaqil fe'l.

Mustaqil fe'lga quyidagi xususiyat xos:

1) lug'aviy ma'no asosidagi harakatni ifodalaydi va shu boisdan gapda biror bo'lak vazifasida keladi;

2) biror so'zni boshqarib (*kitobni o'qidi*) yoki biror so'z tomonidan boshqarilib (*o'qilgan kitob*) keladi;

3) harakatning obyektga munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) o'timli fe'l;

b) o'timsiz fe'l.

O'timli fe'l bildirgan harakat obyekt tushunchasi bilan bog'lanadi va bunda obyektni ifodalovchi birlik tushum kelishigidagi so'z bo'ladi: [*ol*], [*o'qi*], [*boshqar*]. O'timsiz fe'l bunday xususiyatga ega bo'lmaydi: [*yig'la*], [*uxla*], [*cevin*]. O'timli-o'timsizlik fe'lning mohiyatida, lisoniy tabiatli bo'lishi ham, grammatik shakl vositasida hosil qilinishi ham mumkin. Masalan, [*uxla*], [*yig'la*], [*bor*], [*ket*], [*kel*] fe'lida o'timsizlik ma'nosi fe'lning o'zak-negizidan anglashiladi va u lisoniy tabiatli. [*Yuvinmoq*], [*sevinmoq*], [*burilmoq*], [*qirilmoq*] fe'lidagi o'timsizlik esa nutqiy, grammatik vosita yordamida vujudga kelgan. (Bu haqda «Nisbat kategoriyasi» mavzusida so'z yuritiladi);

4) fe'l ifodalagan harakat obyektiv borliq hodisasi bo'lib, uni tilda ifodalashda bevosita inson, so'zlovchi ishtirok etadi. Tilda ifodalangan harakatda, demak, inson munosabati ham mavjud bo'ladi. Bunday munosabat fe'l mayli deb yuritiladi;

5) harakat real yoki irreal bo'lishi ham mumkin. Bunga ko'ra, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar farqlanadi;

6) har qanday harakat bajaruvchi bilan ham bog'lanadi. Bajaruvchi aniq, noaniq, bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Ish-harakatning bajaruvchiga munosabat nuqtayi nazaridan tavsifi fe'l nisbatlari deb yuritiladi;

7) harakat zamon bilan bog'lanishi mumkin. Mantiqan zamondan tashqaridagi harakat yo'q. Yuqorida tilga olingan (*borish*) fe'lida zamon bevosita ifodalanmagan. Lekin uni gap ichida olsak (*Ishga borish lozim*), uning kelasi zamonda yuz beradigan harakat ekanligi mantiqan anglashilib turadi. Demak, har qanday fe'lda yo grammatik, yo mantiqiy zamon ifodalanadi. Modomiki, til qurilishini o'rganayotgan ekanmiz, biz uchun grammatik zamon ahamiyatli. Shu boisdan zamonli va zamonsiz fe'lni farqlaymiz;

8) aytilganidek, borliqda harakat, albatta, bajaruvchi bilan bog'lanadi. Biroq uning tildagi ifodasida grammatik shaxs mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, *Halim keldi* gapida grammatik shaxs mavjud. U kesimlik shaklida yuzaga chiqqan. Biroq *Halim kelgach* qurilmasida mantiqiy shaxs mavjud bo'lsa-da, u o'z ifodasiga ega emas. Chunki qurilma *men kelgach, sen kelgach* tusini olsa ham, (*kelgach*) so'zshaklida bajaruvchi qaysi shaxsda ekanligi noaniqligicha qoladi. (*Halim*), (*men*), (*sen*) mantiqiy bajaruvchi, grammatik emas. Bu nutqdagi tuslangan va tuslanmagan fe'lni farqlashni taqozo qiladi.

Tildagi mantiqiy va grammatik jihatni keskin farqlay bilish kerak. Ularni qorishtirish har xil chalkashliklarga olib keladi, mohiyatni anglashga to'siq bo'ladi.

Nomustaqil fe'llar bevosita lug'aviy ifodali harakat ma'nosiga ega emas. Masalan, *qaror qildi, o'qib chiqdi, ishlayotgan ekan* hosilalarida (*qildi*), (*chiqdi*), (*ekan*) birliklari oldinda turgan so'zlarning lug'aviy ma'nosini yo yangilagan, yo modifikatsiya qilgan. Biroq bu fe'llardan ham qandaydir harakat uqilmoqda. Bu harakat derivatsion, grammatik harakat, lekin lug'aviy emas. Aniqrog'i, ular o'zlaridan oldingi so'zlarning ma'nolariga harakat, jarayon tusini bermoqda.

Nomustaqil fe'l mohiyat e'tibori bilan uchga bo'linadi:

a) yordamchi fe'l;

b) ko'makchi fe'l;

d) to'liqsiz fe'l.

Yordamchi fe'l yangi lug'aviy birlik hosil qiladi – so'z yasaydi, ko'makchi fe'l harakat tarzi shaklining bir qismi bo'lib, fe'l lug'aviy ma'nosini nutqqa xoslaydi – modifikatsiya qiladi, to'liqsiz fe'l esa fe'l va fe'l bo'lmagan so'zning zamonini ko'rsatadi.

Fe'lning asosiy LMGlari. LMGda markaz va qurshov leksemalari. Fe'llar anglatgan qator ma'nolariga ko ra turli mazmuniy guruhlarga bo'linadi. Bunda harakatga xos yaratish,

buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlanadi. Bulardan xarakterlilarini ko'rib o'tamiz.

Harakat fe'li jonli va jonsiz predmetga xos harakatni ifodalaydi. Ular yurish, ta'sir etish, zarb berish kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq harakatda harakatlanuvchi obyekt yaqqol ko'rinib turadi. Oyoq bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: [*yurmoq*], [*kezmoq*], [*yo'rg'alamoq*], [*pildiramoq*], [*lapanglamoq*], [*gandiraklamoq*], [*do'konglamoq*,] [*tentiramoq*], [*tepkilamoq*], [*tepmoq*], [*toptamoq*], [*depsinmoq*], [*tisarilmoq*]; qo'l bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: [*urmoq*], [*solmoq*], [*ushlamoq*], [*silamoq*], [*tirnamoq*], [*shapaloqlamoq*], [*chimchilamoq*], [*uqalamoq*], [*qitiqlamoq*], [*changallamoq*], [*mushtlamoq*], [*chertmoq*], [*hovuchlamoq*], [*chapak chalmoq*], [*paxsa qilmoq*];

Yuz, gavda, og'iz, lab, quloq, burun va h. bilan bog'liq harakat ham mavjud.

Nutq fe'llari insonning gapirish faoliyati bilan bog'liq harakatlarni ifodalaydi: [*gapirmoq*], [*so'zlamoq*], [*aytmoq*], [*demoq*], [*bidirlamoq*], [*to'ng'illamoq*], [*g'o'ldiramoq*], [*vaysamoq*], [*vaqillamoq*], [*javramoq*], [*bobillamoq*], [*javob bermoq*], [*vag'illamoq*] kabi.

Holat fe'llari. Inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holat turli xususiyatga ega. Holatni to'rtga bo'lish mumkin:

a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog'liq): [*eslash*], [*unutish*], [*yodlash*], [*tubanlashmoq*];

b) tashqi holat (ichki holatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq): [*xafa bo'lmoq*], [*shodlanmoq*], [*esankiramoq*], [*dovdiramoq*], [*g'azablanmoq*];

d) jismoniy holat (inson tanasi bilan bog'liq: [*holsizlanmoq*], [*kuymoq*], [*kuchlanmoq*], [*zaiflashmoq*];

e) ijtimoiy holat (jamiyat bilan bog'liq): [*boyimoq*], [*kambag'allashmoq*], [*ko'tarilmoq*], [*urilmoq*], [*quvg'in bo'lmoq*].

Natijali faoliyat fe'llari tizimi [*yasamoq*], [*qurmoq*], [*bunyod etmoq*], [*hosil bo'lmoq*], [*chizmoq*], [*yozmoq*], [*barpo qilmoq*], [*arralamoq*], [*parchalamoq*], [*sayqal bermoq*], [*randalamoq*], [*sindirmoq*], [*yemoq*], [*o'chirmoq*] kabi birliklarni o'z ichiga oladi.

Tafakkur fe'llari sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq *o'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq* kabilar kiradi.

Munosabat fe'llari qatori [*erkalamoq*], [*suymoq*], [*yaxshi ko'rmoq*], [*parvona bo'lmoq*], [*rahmi kelmoq*], [*xushomad qilmoq*], [*yon bosmoq*], [*maftun bo'lmoq*], [*e'zozlamoq*] kabi ijobiy xarakterdagi munosabat fe'llari, [*beti qursin*], [*xudo olsin*], [*qorasi o'chsin*], [*baloga giriftor bo'lsin*], [*juvonmarg bo'lgur*] kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe'llaridan tashkil topadi.

Fe'l ma'noviy guruhlarida ham markaz va qurshov leksemalari farqlanadi. Masalan, ma'nodosh fe'llarda bosh (dominanta) so'z, uyadoshlik paradigmasida uya (giperonim) markaz leksemasi hisoblansa, boshqa ma'nodosh va uyadosh (giponimlar) qurshov leksemaci deyiladi. [*Kulmoq*] fe'li dominanta sifatida bunga ma'nodosh boshqa leksemalarni, [*buzmoq*] esa buzishning turli ko'rinishini ifodalaydigan giponim leksemani uyushtirib turadi. So'zlar yirikroq butunliklarga birlashtirilganda, markaz leksemasigina bu butunlikdan joy oladi. Qurshov leksemalari esa uning «soyasi» sifatida quyida qolaveradi. Masalan, [*kulmoq*], [*yig'lamoq*], [*xursand bo'lmoq*] leksemalari o'z atrofida ko'plab fe'llarni birlashtirgan. Lekin ular bu uch leksema mansub tizimga kira olmaydi, quyi bosqichda qoladi.

Fe'lda so'zshaklning turlari. Fe'lda ham, boshqa turkumda bo'lgani kabi, so'zshakllar nol shaklli, sintetik, sintetik-analitik, takroriy ko'rinishda bo'ladi.

Nutqda fe'lning moddiy (nol ko'rsatkichdan boshqa) grammatik shakldan xoli qilingan qismi har doim kelasi zamon, buyruq mayli, aniq nisbat, ikkinchi shaxs, birlik ma'nosini ifodalaydi: (*bor*), (*kel*), (*o'qi*), (*yoz*), (*sev*), (*ayt*), (*ishon*) kabi. Bunday so'zshakllar *nol shaklli* deyiladi. Yuqorida aytilganidek, nol shakl masalasi o'zbek tilshunosligida o'z yechimini kutayotgan muammolardan.

Grammatik shakli qo'shimcha tusida bo'lgan fe'l *sintetik shaklli* so'zshakl deyiladi: (*o'qiyman*), (*bordim*), (*kelyapman*), (*yozayotirman*), (*shoshib*), (*kelgach*), (*kelgan*) kabi. Bunda grammatik shakl fe'l o'zak-negiziga «yopishgan» holda bo'ladi.

Fe'llar nomustaqil fe'l bilan shakllanganda, albatta, sintetik-analitik ko'rinishda bo'ladi. Masalan, (*o'qib chiqdi*), (*ayta boshladi*), (*borgan ekan*) kabi. Bunda ham «yopishgan», ham «ajralgan» grammatik shakl yaxlitlikni tashkil qilganligi uchun u *sintetik-analitik shakl* atamasi bilan yuritiladi.

Takroriy shakllarni faqat takroriy deyish unchalik to'g'ri emas. Chunki bunda takrorlanayotgan fe'l avval sintetik shakl qiyofasiga kiradi, so'ngra takroriy shaklga aylanadi. Masalan,

(*aytdi-aytdi*), (*o'qidi-o'qidi*), (*bordi-bordi*) kabi. Misol: ***aytib-aytib*** *charchadi,* ***chopib-chopib*** *o'ynadi* va h.k. Bunda takrorlanuvchi fe'l nisbat, o'zgalovchi, kesimlik shaklini olgan va undan keyin takrorlangan.

Ayrim manbalarda fe'lning *juft so'zshakl* turi ham ajratilib, unga (*aytdi-qo'ydi*), (*topshirdi-qo'ydi*) tipidagi misol kiritiladi. Bunga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki juftlanayotgan fe'lning ikkalasi ham mustaqil bo'lsa va ularning juftlanishidan yangi grammatik ma'no o'qilsagina, uni so'zshakllarning juftligi deyishga asos bo'lur edi. Bunda esa juftlikning ikkinchi qismi ko'makchi fe'l sifatida grammatik ma'no ifodalash uchungina xizmat qilmoqda.

Fe'l derivatsiyasi

Fe'l o'ziga xos so'z yasalish tizimiga ega. U, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli.

Affiksatsiya usuli. Affiksatsiya usuli keng qamrovli. Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zdan fe'l yasaladi.

Yasash asosiga qo'shilib, fe'l hosil qiluvchi affiksning so'z yasash darajasi ham turlicha. [*-la*], [*-lan*], [*-lashtir*], [*-(a)|r*], [*-(a)y*] kabi affiks ancha mahsuldor bo'lib, ko'p miqdorda fe'l hosil qiladi. Bu affiksning har biri turli derivatsion qolip tarkibida fe'l yasaydi:

1. [*ot/sifat/ravish/olmosh/taqlid/undov + la = 1) asosdan anglashilgan narsa/predmetga ega holatli qilish harakati; 2) asosdan anglashilgan asbob vositasida bajariladigan harakat; 3) asosdan anglashilgan narsa/predmetni yuzaga keltirish harakati*] qolipi ko'p ma'noli bo'lib, uning hosilalari quyidagicha:

1) (*o'g'itla*), (*moyla*), (*betonla*), (*jilovla*), (*kishanla*), (*tikla*), (*tekisla*), (*dumaloqla*), (*to'g'rila*), (*tushovla*);

2) (*randala*), (*qaychila*), (*egovla*), (*arrala*);

3) (*urug'la*), (*mog'orla*), (*bolala*), (*chuhla*), (*dodla*), (*gumburla*), (*sizla*), (*senla*), (*hozirla*) kabi.

2. [*ot/sifat/son + lan/lash + subyektning asosdan anglashilgan belgiga ega bo'lishi harakati*] qolipi tarkibidagi [*-lan/lash*] affiksi o'zining murakkab tabiati bilan xarakterlanadi. Zohiran ular ikki affiksning birikuvi (*-la+n* va *-la+sh*) dek ko'rinadi. Chunki hozirgi o'zbek tilida [*-la*] so'z yasovchi va [*-sh*] hamda [*-n*] nisbat shakllari faol bo'lib, ko'p hollarda ular birgalikda keladi. Shuningdek, [*-lan/lash*] affikslarida birgalik va o'zlik nisbati ma'nolari ham uqilib turadi (*shodlanmoq*), (*salomlashmoq*), (*afsuslanmoq*),

(*ajablanmoq*), (*zavqlanmoq*), (*lazzatlanmoq*), (*janjallashmoq*), (*ravshanlashmoq*) kabi). Biroq bu misollarda (*-lan/lash*) affiksini ajratib bo'lmaydi. (*Maydalanmoq*) kabi fe'llarda esa ular ajraladi (*mayda+la+n+moq*). Demak, bunda [*-la*] va [*-n*] – mustaqil affiks.

[*-lan*] affiksining aslida [*-la*] va [*-n*] affikslarining birikuvidan iborat ekanligini sezish qiyin emas.

3. [*taqlid+illa/ira=asos bildirgan tovush yoki obrazni harakat tarzida ifodalash*] qolipi faqat taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: (*chirqillamoq*), (*chirsillamoq*), (*likillamoq*), (*guvillamoq*), (*shuvillamoq*), (*mo'ltillamoq*), (*bezillamoq*), (*yarqiramoq*), (*sirqiramoq*), (*mo'ltiramoq*), (*yaltiramoq*). [*-illa*] va [*-ira*] qo'shimchalari orasida ma'noviy farq kuzatilmaydi, balki ular qaysi so'zga qo'shilishi bilan farqlanadi, xolos.

4. [*ot/sifat/taqlid+a*] (*oshamoq*), (*qonamoq*), (*o'ynamoq*), (*bo'shamoq*), (*qiynamoq*), (*shildiramoq*), (*jildiramoq*)), [*sifat/ravish+(a)y*] ((*qoraymoq*), (*toraymoq*), (*ko'paymoq*), (*ozaymoq*)), [*sifat+(a)r*] ((*oqarmoq*), (*ko'karmoq*), (*qisqarmoq*), (*eskirmoq*)), [*ot/olmosh+sira*] ((*qonsiramoq*), (*suvsiramoq*), (*tuzsiramoq*), (*gumonsiramoq*)), [*son/ot/ravish+(i)k/(i)q*] ((*birikmoq*), (*yo'liqmoq*), (*kechikmoq*), (*zo'riqmoq*), [*sifat/ot+i*] ((*tinchimoq*), (*boyimoq*), (*changimoq*)), [*sifat+t*] ((*to'latmoq*), (*berkitmoq*)) qoliplari unumsiz qolip bo'lib, birinchidan, ularning hosilalari sanoqli bo'lib, bugungi kunda bu qolip asosida yangi-yangi so'z hosil qilib bo'lmaydi, ikkinchidan, bu hosila davr o'tishi bilan derivatsion ma'nosi jihatidan bir-biridan shu darajada uzoqlashib ketganki, ular asosida qolipning o'ng, ya'ni ma'noviy tomonini chiqarib, aniqlab bo'lmaydi. (*Kamsitmoq*), (*boshqarmoq*), (*g'ivirsimoq*), (*yo'qolmoq*), (*kuchanmoq*), (*yotsinmoq*), (*qiziqsinmoq*) kabi fe'lning ham yasamaligi aniq, lekin ulardagi affikslar ayrim so'z doirasida chegaralangan. Ularga nisbatan ham yuqorida aytilgan fikr o'rinli.

Eslatma: (*siltala*), (*tortqila*), (*opichla*) kabi so'zdagi shakl yasovchi [*-la*] affiksini fe'l yasovchi [*-la*] affiksi bilan chalkashtirmaslik kerak. Ular – omonim affiks.

[*-kila*] *(-qila, -gila,- g'ila)*, [*-imsira*], [*-inqira*], [*-sh/ish*] (*to'lish, qizish, ozish*), [*-q/iq/k/ik*] (*toliq, ko'nik*), [*-qi/g'i*] affikslari hozirgi o'zbek tilida harakatning tarzini (kuchli/kuchsizligi, takroriyligi kabi) bildirganligi uchun shakl yasovchi sifatida qaraladi.

Kompozitsiya usuli. Bu usul vositasida qo'shma va juft fe'l yasaladi.

Qo'shma fe'l. Qo'shma fe'l tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) ism+fe'l;

b) fe'l+fe'l.

Ism+fe'l tipidagi fe'lni hosil qilishda yordamchi fe'l vazifasida [*qilmoq*], [*etmoq*], [*aylamoq*], [*bo'lmoq*], [*bermoq*], [*olmoq*], [*topmoq*], [*yemoq*], [*urmoq*, [*ko'rmoq*, [*kelmoq*], [*keltirmoq*] kabi birlik keladi: [*abgor qilmoq*], [*ado bo'lmoq*], [*ayyuhannos solmoq*], [*javob bermoq*], [*javob olmoq*], [*xalal bermoq*], [*xabar olmoq*], [*qiron solmoq*], [*tartibga keltirmoq*], [*oh urmoq*], [*tush ko'rmoq*], [*qo'nim topmoq*] kabi.

O'zbek tilida fe'l+fe'l tipidagi fe'l barmoq bilan sanarli: [*sotib olmoq*], [*olib bormoq*], [*olib kelmoq*], [*olib chiqmoq*], [*olib qochmoq*], [*ishlab chiqarmoq*] *kabi.*

Juft fe'l. Juft fe'l grammatik shakliga ko'ra ikki ko'rinishda bo'ladi:

a) biri ravishdosh, ikkinchisi boshqa shaklda: [*aylanib-o'rgilmoq*], [*yelib-yugurmoq*], [*yayrab-yashnamoq*], [*o'ynab-kulmoq*], [*qo'llab-quvvatlamoq*];

b) har ikki qismi bir xil shaklda: [*aylanib-o'rgilib*], [*o'ylamay-netmay*], [*aralashib-quralashib*], [*achib-bijib*], [*tejab-tergab*], [*qisinib-qimtinib*], [*yuvib-tarab*], [*yayrab-yashnab*].

Tilshunosligimizda fe'l ibora bilan qo'shma fe'l chegarasi aniq oydinlashtirilmagan.

Juft fe'llar tarkibiy qismining qo'llanishiga ko'ra quyidagi shakllarda bo'ladi:

1) qismlari yakka holda ishlatiladigan juft fe'llar:

a) qismlari o'zaro sinonim: [*hormay-tolmay*], [*qo'llab-quvvatlamoq*];

b) qismlari o'zaro antonim: [*kelib-ketib*], [*o'lib-tirilib*], *kirib-chiqib*], [*o'tirib-turib*];

d) qismlarining ma'nosi yaqin: [*aylanib-o'rgilmoq*], [*yeb-ichmoq*], [*o'ynab-kulmoq*], [*oshirib-toshirib*], [*yuvib-tarab*].

2) ikkinchi qismi yakka (mustaqil) ishlatilmaydigan fe'l: [*aldab-suldab*], [*yig'lab-siqtab*], [*yamab-yasqab*], [*qolgan-qutgan*].

Fe'lning tasniflovchi grammatik kategoriyalari

Fe'lning tasniflovchi kategoriyalari haqida umumiy ma'lumot. Fe'lning tasniflovchi kategoriyalari faqat shu turkumga xos grammatik shakllar sistemasi. Ular nisbat, o'zgalovchi, harakat tarzi, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyalari. Fe'l kesimlik yoki nokesimlik vazifasida bo'lishidan qat'i nazar, ushbu shakldan birida

bo'lishi shart. Ular fe'l leksemaning lug'aviy ma'nosini modifikatsiya qilish vazifasini bajaradi. Tasniflovchi shakllar orasida nisbat fe'l leksemani modifikatsiya qilish darajasi jihatidan boshqalaridan ustuvor. Shu boisdan nisbat fe'lni boshqa so'z turkumidan ajratib turuvchi asosiy morfologik belgi. O'zgalovchi, nisbatdan farqli o'laroq, fe'lning nokesimlik vazifasi uchun xoslangan. O'zgalovchi kategoriyasining umumlashgan grammatik ma'nosi – fe'lni kesim vazifasidan tashqarida boshqa, ya'ni hokim so'z bilan bog'lash vazifasini bajarishi.

Tarz ma'nosi fe'lda ifodalanishi ham, ifodalanmasligi ham mumkin. Masalan, (*o'qidi*) fe'lida u nol darajada bo'lsa, (*o'qib chiqdi*) so'zshaklida namoyon bo'lgan. Bo'lishli-bo'lishsizlik shakli haqida ham shunday fikrni aytish mumkin. Biroq bo'lishli-bo'lishsizlik shakli bilan kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lgan tasdiq-inkor kategoriyasini farqlash lozim. Tasdiq-inkor kesim vazifasida keluvchi barcha so'z uchun xos bo'lsa, bo'lishli-bo'lishsizlik kesimdan boshqa vazifadagi fe'lning barchasi uchun xos bo'lgan grammatik hodisa. Boshqacha aytganda, bo'lishli-bo'lishsizlik fe'lning nokesimlik, tasdiq-inkor esa barcha mustaqil so'zning kesimlik shaklidan biri.

Quyida ularning har biri alohida-alohida ko'rib o'tiladi.

Nisbat kategoriyasi

Nisbat kategoriyasi haqida umumiy tushuncha. Nisbat kategoriyasi harakatning subyekt (bajaruvchi)ga munosabatini ifodalaydi. Bu munosabat maxsus grammatik shakl bilan yuzaga chiqadi. Masalan, *Shoir she'r yozdi* gapida ega bevosita ish-harakatning bajaruvchisi bo'lib, bajaruvchi va harakat munosabati nol shaklli aniq nisbat bilan ifodalangan; *o'qituvchi bolaga kitobni o'qitdi* gapida harakatning bevosita va bilvosita bajaruvchisi (o'qituvchi bilvosita, bola esa bevosita bajaruvchi) farqlangan. *Dovul chalindi* gapida harakat bajaruvchisi noaniq, majhul. Demak, nisbati o'zgarishi bilan fe'lning bajaruvchisida ham o'zgarish yuz beradi. Nisbat kategoriyasi fe'lning bo'sh subyekt valentligini to'ldirib, muayyanlashtirib uni nutqqa moslaydi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'l nisbatining beshta ko'rinishi ajratiladi: *aniq nisbat, o'zlik nisbati, orttirma nisbat, birgalik nisbati, majhul nisbat.*

Aniq nisbat. Bu nisbatda subyektga munosabat nol shakl orqali ifodalanadi va shakl UGMsi «harakatning ega bilan ifodalangan

shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligini bildirish»dir: (*bildi*), (*ko'rdi*), (*so'radi*), (*aytdi*), (*qaytdi*) kabi. Bu nisbatdagi fe'l o'timli (*oldi*) yoki o'timsiz (*uxladi*) bo'lishi mumkin.

Nol shakl UGMsida o'zi mansub kategoriyaning mohiyatini boshqalariga nisbatan to'laroq aks ettiradi. Ma'lumki, fe'lning barcha shakllarini ikkiga — kategoriya ichidagi shakllarning o'zaro ziddiyatida aniq bir belgiga ega bo'lgan belgili shakllarga (masalan, aniq nisbatdan boshqa nisbat shakllari) va bu ziddiyatda aniq belgiga ega bo'lmagan shakllarga (masalan, aniq nisbat shakli) ajratish mumkin. Birinchi guruh shakllar o'zlari mansub kategoriyaning UGMsidan aniq bir ko'rinishni «xususiylashtirib» oladi. Ikkinchi guruh shakllarida xususiylashma noaniq bo'ladi. Ikkinchi guruh shakllari (bizningcha, aniq nisbat) o'zi mansub kategoriyaning umumiy namoyandasi bo'ladi. Shuning uchun ular matn va sharoit talabi bilan boshqa shakllar ma'nosini ifodalashi, aniq nisbat ham belgisiz shakl sifatida boshqa nisbat shakllari o'rnida bemalol qo'llanaverishi mumkin. Yuqorida bunga aniq nisbatdagi fe'l (masalan, (*hayajonlanmoq*))dan o'zlik nisbati ma'nosi uqilib turishi misolida amin bo'lgan edik.

O'zlik nisbati. O'zlik nisbati asosan [*-(i)n*], ba'zan [*-(i)l*] ko'rsatkichi yordamida o'timli fe'ldan hosil bo'ladi. [*-(i)sh*] affiksi o'zlik nisbati hosil qilishda kammahsuldir: (*kerishdi*), (*joylashdi*), (*qorishdi*) kabi so'zshakllardagina buni kuzatish mumkin. O'zlik nisbati UGMsi — «harakatning subyekti va obyektini birlashtirish, o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantirish».

Ayrim holda grammatik shakl o'zlik nisbatiniki bo'lsa-da, bu shakl harakatning bajaruvchiga qaytishini, bajaruvchi ham harakat obyekti ekanini bildirmaydi: *Bir mahal G'ulomjon tuynukdan erinib chiqayotgan tutunga qarab* ***so'zlandi.*** (M.Ism.) *So'ng uzun do'nglik ortiga o'tib,* ***ko'rinmay ketdi.*** (P.Qod.) *Yigit ko'zini yashirishga joy topolmay* ***qiynaldi.*** (S.Ahm.) *Davlatbekovning* ***tug'ilgan*** *qishlog'i Bodomzor bu yerdan o'n bir chaqirim pastda.* (P.Qod.) O'zlik nisbati shakli o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi.

O'zlik nisbati shakli har qanday o'timli fe'ldan ham yasalavermaydi. Masalan, (*o'qi*), (*hayda*), (*kes*), (*ek*), (*min*), (*tik*), (*sug'or*) kabi fe'ldan o'zlik nisbati hosil qilinmaydi. Shuningdek, orttirma nisbatdagi o'timli fe'ldan ham o'zlik nisbati hosil qilinmaydi.

Semantikasida ma'noviy siljish ro'y berayotgan o'zlik nisbati shakliga ega fe'llar bu nisbatdan xoli qaralishi lozim: *Yuzlari semizlikdan tirsillagan Arabboy* ***kerilgan*** *bir holda so'radi.* (P.Tur.)

Bu qishloqda Avazning eng ***ochilib*** *gaplashadigan tengdoshi shu Zamonali edi.* (P.Qod.) Bunday hol ayrim mualliflarning ba'zan nisbatni so'z yasalishi sifatida qarashiga, ba'zan izohli lug'atlarda bosh so'z (leksema) sifatida berishlariga sabab bo'ladi.

Shaklning to'laqonli o'zlik nisbati ekanligi yoki emasligini aniqlashda boshqariladigan so'z yordam beradi. Aslida o'zlik nisbatdagi fe'l o'timsiz bo'lganligi sababli tushum kelishigidagi fe'l bilan bog'lanmaydi. Ayrim hollarda bu shakldagi fe'l bilan boshqacha hol kuzatiladi. Masalan, *choponini yopindi* birikuvida o'zlik nisbat shaklidagi fe'l tushum kelishigidagi fe'lni boshqarmoqda. Demak, bunda nisbat shakli bo'lsa-da, mazkur nisbatga tegishli ma'no mavjud emas. Ma'no va shakl yaxlit emas ekan, bu birikuvda o'zlik nisbatini qidirish ma'qul emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zlik nisbatida harakat subyekti «subyekt-obyekt» qiyofasiga kirib, avvalgi obyekt yo'qoladi. Qiyoslang: *Halim kiyimini kiydi* — *Halim kiyindi.* Birinchi gapda *Halim* subyekt, *kiyim* obyekt, ikkinchi gapda obyekt yo'q, *Halim* esa «subyekt-obyekt»dir.

Orttirma nisbat. Orttirma nisbat shakli quyidagilar:

[*-dir (-tir)*]: (*chizdir*), (*yondir*), (*urintir*);

[*-gaz (-giz,- g'az, -g'iz, -kaz, -kiz, -qaz, -qiz)*]: (*ko'rgaz*), (*kirgiz*), (*turg'iz*), (*yutqiz*), (*o'tqaz*), (*ketkiz*), (*yurg'az*);

[*-(i)t*]: (*o'qit*), (*ishlat*), (*tugat*), (*boshlat*), (*yurit*), (*kirit*);

[*-iz*]: (*oqiz*), (*tomiz*), (*emiz*);

[*-ir*]: (*bitir*), (*uchir*), (*pishir*), (*qochir*), (*ochir*), (*shoshir*), (*oshir*), (*botir*), (*qotir*);

[*-ar*]: (*chiqar*), (*qaytar*);

[*-sat*]: (*ko'rsat*).

Orttirma nisbat UGMsi «harakat bajaruvchisini orttirish, jarayonga «ortiqcha» bajaruvchini kiritish va o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantirish». Orttirma nisbatda ish-harakatning subyekti ortib, ular bevosita va bilvosita subyektga ajraladi: *Halim o'qidi. Halim ukasini o'qitdi.* Birinchi gapda subyekt bitta. Ikkinchi gapda esa ikkita bo'lib, [*Halim*] bilvosita, [*ukasi*] bevosita bajaruvchilar. Bevosita subyekt unchalik ahamiyatli bo'lmaydi, shuning uchun u ko'p holda ifodalanmay qolaveradi.

Orttirma nisbat shakli fe'lga birdan ortiq qo'shilishi mumkin. Bunda avvalgi bevosita subyekt bilvosita subyektga aylanib ketaveradi: *Halim to'ladi. Halim ukasiga to'latdi. Halim ukasiga to'lattirdi.* Jumla g'alizligi kelib chiqmasligi uchun keyingi gapdagi bevosita subyekt tushirib qoldirilgan.

Orttirma nisbat shaklli fe'l semantikasida ma'noviy siljish ro'y berib, unga xos morfema ajralmaydigan holga kelib qolishi ham mumkin: [*tuzatmoq*] [*surishtirmoq*], [*solishtirmoq*], [*yaratmoq*], [*uyg'on*], [*yupan*], [*erkalatmoq*], [*(dalil,misol) keltirmoq*] tipidagi fe'l ham shular jumlasidan.

Orttirma nisbat shakli o'timsiz fe'lni o'timliga aylantiradi.

Majhul nisbat. Majhul nisbat [*-i)l*] va [*-i)n*] shakllari yordamida hosil qilinadi: (*yuvildi*), (*tozalandi*), (*aytildi*), (*gapirildi*), (*olindi*) kabi. Bu nisbatli fe'l «subyektsizlashadi», aniqrog'i, obyekt ustuvorlashib, ega vazifasiga o'tadi, mantiqiy obyekt grammatik ega maqomini oladi: *Bu yerda chetan bilan* ***o'ralgan*** *mol qo'rasi bor edi.* (P.Qod.) *Boboxo'ja domla ishdan* ***bo'shatildi.*** (P.Tur.)

Majhul nisbat asosan o'timli ((*o'ralgan*), (*yig'ilgan*), (*sochilgan*), (*terilgan*), qisman o'timsiz ((*bo'shatilgan*), (*tushilgan*), (*borilgan*)) fe'ldan hosil qilinadi. O'timsiz fe'ldan yasalganda egasiz gap (shaxssiz fe'l) hosil bo'ladi: *Bu ko'cha bilan ikki-uch yuz odim* ***yurilgach,*** *qishloq guzariga* ***etiladi.*** (H.Shar.) *Rasmi, yomon xotindan* ***qochiladi,*** *zamona shum bo'lsa, yaxshi xotindan ham qochar ekan kishi.* (A.Qah.) Ba'zan majhul nisbatda qo'llanishi lozim bo'lgan fe'l aniq nisbatda bo'lsa ham, majhul nisbat ma'nosi ifodalanadi: *Anchagina* ***yurgach,*** *o'ng tomonda paxsa uy ko'zga tashlanadi.* (S.Nur.) Bunda shakl va ma'no muvofiqligi yo'q. Shuning uchun nisbatni aniqlashda «Qaysi nisbat shakli yoki qaysi nisbat ma'nosi bor?» tarzidagi muqobil savoldan biri qo'yilishi kerak. Bir-biriga bog'langan kontakt holatdagi ikki fe'ldan ikkinchisigina majhul nisbatda bo'ladi: *Bu dori spirtda ivitilib,* ***qiyom qilib ichiladi.*** (N.Saf.) *Eshakka teskari* ***mindirib sazoyi qilindi.***(M.Ism.)

O'zlik va majhul nisbat omonimik munosabatda. Masalan, (*osildi*), (*tashlandi*), (*to'kildi*) fe'llarining o'zlik yoki majhul nisbatda ekanligi qurshovda ma'lum bo'ladi.

Birgalik nisbati. Birgalik nisbat [*-(i)sh*] affiksi yordamida hosil qilinib, uning UGMsi «harakatni bajarishda bajaruvchining birgalashuvi»dir.

Birgalik nisbati asos fe'l boshqaruviga oddiy vositali to'ldiruvchini ko'makchili vositali to'ldiruvchiga aylantirish darajasida o'zgarish berishi mumkin.

Birgalik nisbat shaklida «birgalik yordamlashish» va «birgalik-ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi farqlanadi. «Birgalik-ko'plik» ma'nosi uchun fe'llarning o'timli-o'timsizligi ahamiyatsiz: *Kattalar o'sha yerda. Arz qil,* ***yordam berishadi,*** *yo'l-yo'riq* ***ko'rsatishadi.*** (P.Tur.) «Birgalik-yordamlashish» ma'nosi voqelanishi uchun esa

shakl o'timli fe'llarni tanlaydi: *Bola dadasiga yer* ***haydashdi,*** *ekin* ***ekishdi.*** (S.Nur.)

Ba'zan ko'plik shakli ham nutqiy ortiqchalik sifatida birgalik nisbat shakli ustiga «qavatlanadi»: *Sharofat xolaning so'zlariga zavqlanib* ***kulishdilar.*** (N.Saf.) *Ona-bola uzoq* ***yig'lashdilar,*** *ko'z yoshlari bitguncha* ***bo'zlashdilar.*** (A.Qod.)

Xulosa sifatida aytish mumkinki, nisbat kategoriyasi UGMsi «harakatning bajaruvchiga munosabatini ifodalash» bo'lib, bu kategorial ma'noga «o'timli-o'timsizlikka munosabat» ma'nosi yondosh ma'no sifatida qorishadi.

Demak, nisbat kategoriyasi lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriya sifatida fe'l leksema sememasini subyekt valentligi va o'timli-o'timsizlik nuqtayi nazaridan modifikatsiya qiladi.

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi

Bo'lishli-bo'lishsizlik – fe'lning asosiy belgisidan biri. Chunki fe'l nutqda yo bo'lishli, yo bo'lishsiz shaklda bo'ladi. Bo'lishli shakl yuz bergan/berayotgan/beradigan, bo'lishsiz shakl esa yuz bermagan/bermayotgan/bermaydigan harakatni ifodalaydi. Bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosini ifodalashda geterogen (har xil) tabiatli, ya'ni turli sathga mansub lisoniy birliklar ishtirok etadi. [*-ma*], [*-may*], [*-maslik*] morfologik ko'rsatkichidan tashqari, [*na*] nomustaqil so'zi ham ishtirok etadi. Ayrim adabiyotda [*yo'q*], [*emas*] inkor ifodalovchi so'zlarni ham shu siraga kiritadilar. Bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki zikr etilgan so'zlar fe'l kesim vazifasida kelgandagina inkor ifodalaydi va bu ma'noni ifodalash uchun fe'l bilangina cheklanmaydi. To'g'ri, nutqimizda *kelgani yo'qligini bilmayman* tipidagi qurilmalarda [*yo'q*] so'zi ishtirok etadi. Biroq bu qurilma *Kelgani yo'q* predikativ sintagmasining transformatsiyasi. Demak, baribir, [*yo'q*] so'zi kesimlikning inkor shakli bo'lib qolaveradi.

[*Emas*] inkor shakli haqida ham shunga o'xshash fikrni aytish mumkin. Ba'zan undan qiyoslanayotgan ikki harakatdan sifatdosh, ravishdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan harakatning inkorini ifodalash uchun foydalanilishi aytiladi: *Kulib emas, jiddiy gapirdi. Qarashi emas, kulishi chiroyli.* Bunday qurilmalar ham predikativ sintagmaning qisqaruvi natijasi: *Kulib gapirdi emas, jiddiy gapirdi. Qarashi chiroyli emas, kulishi chiroyli.*

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining UGMsi «harakatning sodir bo'lish/bo'lmasligini ko'rsatish»dir. Bu kategoriyaning

semantik qiymati bo'lib, uning sintaktik tomoni kuchsiz. Chunki u o'zi birikayotgan so'zning birikish imkoniyatiga juda oz ta'sir qiladi (ya'ni uning *hech, hech qachon* birliklari bilan birikuviga olib keladi, xolos).

Bo'lishlilik nol shakl orqali ifodalanadi. Bu nol shakl ham boshqa kategoriyalar nol shakli kabi xususiyatga ega bo'lib, bo'lishsizlikni ham ifodalashi mumkin. Masalan, *Yozadi-ya, yozadi* («yozmaydi» ma'nosida).

[*-ma*] affiksi fe'lning tuslangan va sifatdosh shaklida bo'lishsizlikni ifodalash uchun ishlatiladi: 1. *Sevgi menga* ***bo'ylama,*** *Mehring bilan* ***siylama.*** (M.Yusuf.) 2. *Bu yerlarga nega keldim men,* ***qiziqmasam*** *unut chiroyga.* (A.Orip.) 3. ***O'qimagan*** *odam,* ***yurmagan*** *mashina.*

Bo'lishsizlik fe'lning harakat tarzi shakllarida uch xil qo'llanadi:

1) yetakchi fe'lga qo'shiladi: (*yozmay tur*);

2) ko'makchi fe'lga qo'shiladi: (*yoza ko'rma*);

3) har ikkalasiga qo'shiladi: (*yozmay qo'yma*).

Uchinchi ko'rinishda shakliy-ma'noviy nomuvofiqlik yuz berib, bo'lishsiz shakl bo'lishlilikni ifodalaydi.

[*-may/masdan*] bo'lishsizlik ko'rsatkichi fe'lning ravishdosh shakliga xos. Uni ravishdosh shakli sifatida ajratishning bir nechta asosi bor. Masalaga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilsa, uning *−ma+y* tarkibli emasligi oydinlashadi. Turkiy tilda O'rxun-Enisey yodgorliklaridan tortib XV asrgacha bo'lishsiz ravishdosh shakli [*-mazib*], [*-madin*], [*-mayin*] va h. ko'rinishida bo'lgan. O'zbek tilidagi [*-may*] qo'shimchasidagi *y* mana shu qadimiy [*-mazib*], [*-madin*], [*-mayin*] qo'shimchasi tarkibidagi ikki tish oralig'ida talaffuz etiluvchi [*z*] va uning boshqa turkiy tillardagi muqobili bo'lgan [*d*], [*t*] ga nisbat beriladi. Demak, [*-may*] qo'shimchasi [*-mazib*], [*-madin*], [*-mayin*] qo'shimchasi tarkibidagi *-ib, -in* qismlarining tushib qolishi natijasida hosil bo'lgan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, [*-may*] bo'lishsizlik shaklidagi [*-y*] tovushi bilan *o'qiy* so'zidagi [*-y*] boshqa-boshqa manbalardan kelib chiqadi: *o'qi-ya − o'qiy, bar-mazib − bor-may.* Ko'rinadiki, *bormaydi, o'qimaydigan* fe'l shakllaridagi (*-ma*) va (*-y*) qo'shimchalari alohida-alohida grammatik ko'rsatkich. Bunda (*-ma*) bo'lishsizlik, (*-y*) esa kelasi zamon shakli.

Fe'lning harakat nomi uchun bo'lishsiz shakl [*-maslik*] ko'rsatkichi: *ketish − ketmaslik, aytish − aytmaslik, ko'rinmoq − ko'rinmaslik* kabi.

Demak, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining UGMsi «harakatning sodir bo'lish/bo'lmasligini fe'l birikuvchanligiga kuchsiz ta'sir ko'rsatish asosida ifodalash» bo'lib, bu UGM [0], [*-ma*], [*-may/masdan*], [*-maslik*] ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi.

Bo'lishli-bo'lishsizlik fe'lga nisbatlik mutlaq va doimiy belgi emas. Chunki nisbatini yo'qotgan fe'llar (*ko'ra, osha*) fe'llikdan chiqib ketadi. Lekin fe'lning ayrim shakllari, xususan, maqsad ravishdoshi (*o'qigani, borgani*), ayrim harakat tarzi shakllari (*yiqilayozdi, tugatayozdi*) to'laqonli fe'l bo'lsa-da, bo'lishsiz shaklda yuzaga chiqmaydi. Bu bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi fe'l tasniflovchi kategoriyalari sirasida nisbat kategoriyasidan keyin turishini bildiradi.

Harakat tarzi kategoriyasi

Harakat tarzi kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot. Formal o'zbek tilshunosligida harakat tarzi shakllari morfologik kategoriya sifatida qaralmas va bu hodisaga nisbatan *ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, ko'makchi fe'l* atamalari qo'llanar edi. Xo'sh, harakat tarzi shakllari, harakat tarzi kategoriyasi atamalarining qabul qilinishiga sabab nima?

Birinchidan, harakatning tarzi faqat ko'makchi fe'l bilangina emas, **[ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l]** morfologik qolipi hosilasi asosida yuzaga chiqadi. Ko'makchi fe'l ushbu shaklning bir qismi, xolos. Shu boisdan ilmiy tadqiqot, darslik va grammatikalarda ko'makchi fe'l ma'nosi haqida so'z ketganda, uning ravishdosh shakli yordamida yuzaga chiqishi ta'kidlanadi.

Ikkinchidan, *ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi* atamasidagi *qo'shilma* unsuri so'z birikmasidan teng munosabatlilik belgisi asosida farqlanuvchi *so'z qo'shilmasi* (*olma va anor, kitob va daftar, gulu lola*) sintaktik hodisasi bilan nisbiy omonimlik kasb etadi. Holbuki, harakat tarzi sintaktik emas, balki morfologik hodisa.

Uchinchidan, harakat tarzi shakllari morfologik kategoriyaga berilgan ta'rifga «sig'adi».

Tilda ikki tur qolip ajratiladi:

1) derivatsion qolip;
2) sintaktik qolip.

Biroq tekshirishlarda **[ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l=harakat tarzi]** qoliplari e'tibordan chetda qoldiriladi. Ma'lumki, **[ravishdosh shakli+fe'l]** qolipi orqali fe'lli birikishlar ham yuzaga keladi va bu qolip ko'plab nutqiy hosilani birlashtiradi.

Mazkur so‘z birikmalariga shakldosh turuvchi va umumiylik xususiyatiga ega bo‘lgan harakat tarzi shakli qolipi ham lisoniy morfologik qolip sifatida ajratilishi mumkin. Masalan, *o‘qiy oladi, borib ko‘r* va *topa qol* misollaridagi farqlar e’tibordan soqit qilinganda, lisoniy morfologik umumiylik sifatida **[ravishdosh shakli+ko‘makchi fe’l]** qolipi tiklanadi. Bunda lisoniy morfologik qolip o‘zining shakliy va mazmuniy tomoniga ham ega bo‘lib, **[ravishdosh shakli+ko‘makchi fe’l=harakat tarzi]** qolipining chap qismi uning shakliy tomonini tashkil etsa, o‘ng qismi esa uning mazmuniy tomoni.

[ravishdosh shakli+ko‘makchi fe’l] qolipi barcha harakat tarzi shakllari uchun yagona lisoniy morfologik qolip bo‘lsa-da, ichki bo‘linishlarda esa kichik qoliplarga ajraladi:

1) birikish doirasi tor harakat tarzi shakllari: [*-a/y+bor*], [*-(i)b+bit (bitir)*], [*-(i)b+et*], [*-a/y+ket*], [*-(i)b+o‘l*], [*-a/y+ko‘r*], [*-(i)b+boq*], [*-(i)b+boshla*], [*(i)b+ur*], [*-a/y+tur*], [*-(i)b+tuga*];

2) birikish doirasi keng harakat tarzi shakllari: [*-a/y+boshla*], [*-(i)b+yot*], [*-(i)b+tur*], [*-(i)b+yur*], [*-(i)b+o‘tir*], [*-(i)b+bor*], [*-(i)b+kel*], [*-(i)b+bo‘l*], [*-(i)b+chiq*], [*-(i)b+o‘t*], [*-a/y+ol*], [*-(i)b+ol*], [*-(i)b+ber*], [*-(i)b+qol*], [*-a/y+qol*], [*-(i)b+qo‘y*], [*-(i)b+ket*], [*-(i)b+yubor*],[*-(i)b+tashla*], [*-(i)b+sol*], [*-a/y+sol*], [*-(i)b+tush*], [*-(i)b+ko‘r*],[*-(i)b+qara*], [*-a/y+bil*], [*-a+yoz*], [*-a/y+ber*].

Endi esa o‘zi birikuvchi fe’l leksemalarga qo‘shilib, soddalashish holatidagi harakat tarzi shakllarini kuzatamiz:

1) qo‘shimchalashayotgan harakat tarzi shakllari: [*-a/y+ber*], [*-a+yoz*], [*-a/y+ol*], [*-(i)b+yubor*];

2) qo‘shimchalashgan harakat tarzi shakli: [*-a/y+yot*]. Shuningdek, nutqda yetakchi fe’llarga ravishdosh shakllarisiz juftlashgan holatda birikuvchi ko‘makchi fe’llar soni 6 ta bo‘lib, ular quyidagilar: [*ol*], [*ber*], [*qol*], [*qo‘y*], [*ket*], [*tashla*]. Nutqda (*yozdi-oldi*), (*aytdi-qo‘ydi*) juftlashuvchi shakllari bilan birgalikda *tashladi-vordi* kabi ko‘makchi fe’l ham uchrab turadi. Bunday misollar, asosan, so‘zlashuv uslubiga xos.

Harakat tarzi kategoriyasining ichki bo‘linishlari. Harakat tarzi shakllarining UGMsini ochishda, kategorial xususiyati va paradigmatik munosabatini oydinlashtirishga ularning tarkibli, ya’ni [qo‘shimcha+fe’l leksema] tuzilishga ega ekanligi ham ma’lum darajada monelik qilishi tabiiy. Chunki bunda masalani murakkablashtiruvchi bir necha holat mavjud:

1) shaklda uni o‘ziga biriktirayotgan leksemaning ham,

ravishdosh shaklining ham, shuningdek, ko'makchi fe'lning ma'nolari ham qorishgan holda voqelanib, umumiy tarz ma'nosining ko'rinishini murakkablashtirishi;

2) harakat tarzi shaklini hosil qilishda ishtirok etayotgan ko'makchi fe'llar ma'nolarining mustaqil qo'llanishidagi lug'aviy ma'nolari bilan aloqasining mavjudligi va bu aloqaning turli daraja va ko'rinishda ekanligi;

3) ravishdosh ko'rsatkichining ham, ko'makchi fe'lning ham ma'noviy murakkabligi, serqirra mohiyatliligi harakat tarzi shaklining ham ko'p ma'noliligini keltirib chiqarishi va shaklni ayni bir ma'no ifodalovchi vosita sifatida muayyan paradigmaga kiritish imkoniyatining cheklanganligi.

Ma'lum bo'ladiki, harakat tarzi shakllari garchi «tarz» umumiy grammatik ma'nosi ostida birlashsa-da, ularni boshqa grammatik kategoriyalarda bo'lgani kabi, shakllardan kelib chiqqan holda paradigmatik tahlil qilish imkoni cheklangan. Shu boisdan harakat tarzi shakllari paradigmasi lisoniy tizim sifatida tahlilga tortilar ekan, «xususiylikdan umumiylikka» yo'nalishida emas, balki «umumiylikdan xususiylikka» tamoyili asosida ish ko'rmoq lozim bo'ladi.

Harakat tarzi shakllarining XGMlari ham bevosita nutq bilan bog'liq bo'lib, ular faqat nutqiy hosilalardagina o'zining XGMlarini yuzaga chiqaradi. Harakat tarzi shakllarining UGMsi esa bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, tayyorlik, umumiylik, majburiylik, barqarorlik kabi xususiyatga ega. Harakat tarzi shakllarining UGMsi xususiyliklarning umumiy xossalari sifatida mazkur xususiyliklarda yashaydi va ular orqaligina nutqda reallashadi.

Harakat tarzi shakllarining xususiylashuvi umumiy grammatik ma'noning muayyan xossalari asosida shakllanadi. Har qanday hodisa ko'plab mohiyatlar zarrasidan iborat bo'lganligi sababli, nutqda qo'llanilgan muayyan so'zshaklda turli UGMning XGMsi sifatida yuzaga chiqqan zarralar mavjud bo'lib, ular nutqiy alohidalik sifatida so'zshakllarda shunday zich birlashganki, ko'p holda ularni bir-biridan ajratish qiyin.

Miqdoran ellikdan ortiq shaklni o'z ichiga qamrab olgan harakat tarzi shakllari, aytilganidek, «tarz» umumiy grammatik ma'nosi ostida birlashadi. Bu umumiylik muayyan nutqiy qo'llanishgacha bir necha oraliq bosqichni bosib o'tadi. Birinchi bo'linishi ikki a'zoli bo'ladi:

a) «jarayonlilik»;

b) «qobiliyat».

Ikkinchi bo'linish – oraliqlanishda «jarayonlilik» oraliq ma'nosi:

a) «ish-harakatning boshlanishi»;

b) «ish-harakatning davomiyligi»;

d) «ish-harakatning tugallanganligi» oraliqlanishlariga ega bo'ladi. «Qobiliyat» oraliq ma'nosi:

a) «qodirlik»;

b) «sinash» parchalariga bo'linadi.

O'z navbatida ikkinchi oraliq ma'nolar yana parchalanadi.

Ma'lumki, o'zbek tilida shu kungacha eng katta morfologik paradigma sanalgan zamon kategoriyasi 18 a'zodan iborat. Hajman undan-da katta bo'lgan, qariyb 50 ga yaqin a'zoni o'z ichiga olgan harakat tarzi shakllari paradigmasini «tarz» umumiy grammatik ma'nosi ostida birlashtirish mumkin.

Harakat tarzi kategoriyasi fe'l tasniflovchi kategoriyalari sirasida nisbat va bo'lishli-bo'lishsizlikdan keyin joylashadi. Chunki fe'lning bu kategoriyaga munosabati doimiy emas. Aniqrog'i, barcha fe'llarda tarz ma'nosidan biri voqelanishi shart emas.

O'zgalovchi kategoriyasi

O'zgalovchi kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot. Fe'lga xos shunday grammatik shakllar borki, ular fe'lni kesimlikdan boshqa turkumga ([*-(a)y*], [*-(i)b*], [*-gach*], [*-guncha*], [*-gancha*], [*-ganda*], [*-gani*], [*-may/masdan*] shakllari ravishga, [*-gan*], [*-ayotgan*], [*-adigan/ydigan*] sifatga, [*-moq*], [*-ish*], [*-uv*] otga) xos vazifalarga moslaydi. Shunga ko'ra, ular uch guruh – ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllariga ajratiladi. Bu shakllar fe'lga nutqda o'zga turkum xossalarini «yopishtirganligi» uchun bir butun holda *o'zgalovchi kategoriyasi* atamasi bilan nomlanadi.

Ma'lumki, o'zgalovchi, garchi bunga o'zbek tili qurilishida yetarli asos va ehtiyoj bo'lishiga qaramay, alohida kategoriya sifatida ajratilmagan. Biroq ularning tarkibiy qismlari, ichki shakllari bo'lgan ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi ayrim manbalarda kategoriya sifatida qaraladi. Shuning uchun turkiyshunoslikda «harakat nomi kategoriyasi», «sifatdosh kategoriyasi», «ravishdosh kategoriyasi» kabi atamani uchratish mumkin. Haqiqatan ham, o'zgalovchining turlari bo'lgan bu «kategoriya»lar ma'lum bir umumiy ma'no (ravishdoshda «fe'lni fe'lga bog'lash va unga ravishlik xususiyatini berish», sifatdoshda «fe'lni otga bog'lash va unga sifatlik xususiyatini berish», harakat

nomida «fe'lga otlik sintaktik va semantik xususiyatlarini berish») va ularning parchalanishini ko'ramiz. Chunki an'anada grammatik kategoriya «ikki yoki undan ortiq, o'zaro zidlanuvchi, bir-birini taqozo va o'z o'rnida, inkor qiluvchi, bir grammatik ma'no tagida birlashadigan grammatik shakllar tizimi» sifatida ta'riflab kelindi. Bu ta'rifga muvofiq, boshqa kategoriyalar shakllari kabi harakat nomining kamida uchta ([*-moq*], [*-ish*], [*-uv*]), sifatdoshning ba'zan uch, ba'zan besh ([*-gan*], [*-ayotgan*], [*-adigan*], [*-uvchi*], [*-ar*)], ravishdoshning oltita ([*-ib*], [*-a/y*], [*-gach*], [*-guncha*], [*-gani*], [*-gach*]) shakli ajratiladi. Xo'sh, bular haqiqatan ham tom ma'noda harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakllarimi? Buning uchun ular faqat shu turlarga xos UGMni xususiylashtirish, juz'iylashtirish lozim. Masalan, harakat nomi shakllari alohida ko'rinishlarda uning «ot turkumiga xos bo'lgan sintaktik va ma'noviy vazifalarni bajarish» UGMsini xususiylashtirganda edi, uni alohida kategoriya sifatida ajratish mumkin bo'lur edi. Agar ravishdosh, sifatdosh, harakat nomining ma'noviy va vazifaviy jihatlari o'zlari mansub kategoriyalar (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi) ning umumiy ma'nosi va sintaktik imkoniyatiga mansub xususiylashma bo'lmasa, shu bilan birgalikda, o'z mohiyatiga xos xususiyat bilan emas, balki boshqa, kategoriya ma'nolari tajallisi asosida bir-biridan farqlansa, unda ularning alohida kategoriya ekanligi xususida so'z yuritish maqbul emas. Chunonchi, sifatdosh shakllari bir-biridan zamon kategoriyasi ma'nosi asosida farqlansa, demak, qayd qilingan shakllar uning alohida shakli emas, balki bir sifatdoshning zamon kategoriyasi ma'nolari asosida farqlanuvchi ko'rinishi — varianti. Bunday holni ravishdosh shakllarida ham kuzatish mumkin. Chunki ravishdosh shakllarining bir-biridan zamon, tasdiq/inkor, payt, maqsad kabi qator ma'no bilan farqlanishi zamon, tasdiq/inkor, mayl kategoriyalari ma'nosining tajallilanishi evaziga sodir bo'ladi. Bunday holni boshqa kategoriyalarda ham ko'rish mumkin. Masalan, (*yozay*), (*yozgin*), (*yozsin*) kabi so'zshakllardagi grammatik ko'rsatkich buyruq-istak maylining turli shakllarimi yoki bir shaklning shaxs/son kategoriyasi ma'nosi bilan farqlanuvchi variantlarimi, degan savolga javob aniq. Demak, ayonki, garchi buyruq-istak mayli shakllari qatorida olti va undan ko'p shakl, aniqrog'i, ko'rinish mavjud bo'lsa ham, ularning har biri mayl umumiy ma'nosini xususiylashtirishga emas, balki uni shaxs-son kategoriyasi ma'nosi bilan murakkablashtirgan holda voqelantirishga xizmat qilayotganligi uchun, aniqrog'i, shakllar bu

mayl uchun substansial bo'lmagan ma'no asosida farqlanayotganligi uchun buyruq-istak mayli alohida kategoriya sifatida qaralmaydi.

Ko'rinadiki, ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi o'zaro o'zgalovchi kategoriyasining «fe'lni boshqa so'zlarga bog'lash va fe'lga otga xos vazifalarini berish» UGMsini «fe'lni fe'lga bog'lash» (ravishdosh), «fe'lni otga bog'lash» (sifatdosh) va «fe'lga ot vazifasini berish» (harakat nomi) tarzida xususiylashtiradi. Ularning ichki shakllari esa boshqa kategoriyalar ma'nolari asosida farqlanadi va bu tizim (paradigma)lar kategorial ahamiyatga ega emas.

Demak, o'zbek tilida ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi kategoriyalari emas, balki turli ko'rinishlarga ega bo'lgan uch shakldan iborat bitta o'zgalovchi kategoriyasigina mavjud.

Ravishdosh shakli va uning variantlari. «Fe'lni fe'lga bog'lash» UGMsiga ega bo'lgan ravishdosh shakli [*-(a)y*], [*-(i)b*], [*-gach*], [*-guncha*], [*-gancha*], [*-ganda*], [*-gani*], [*-may/masdan*] kabi variant shakliga ega. Bu variant shakllar o'zaro quyidagi tajalli ma'nolar asosida xarakterlanadi:

[*-(a)y*] —davomli harakatning holat tusini ifodalash;
[*-(i)b*] —davomli/davomsiz harakatga holat tusini ifodalash;
[*-may/masdan*] — bo'lishsiz harakatga holat tusini berish.
[*-gach*] —harakatning boshlanish paytini ko'rsatish;
[*-ganda*] —harakatning sodir bo'lish paytini ko'rsatish;
[*-guncha*] —harakatning tamom bo'lish paytini ko'rsatish;
[*-gancha*] —harakatlarning bir paytdaligini ko'rsatish;
[*-gani*] —harakatga maqsad ma'nosini berish;
[*-may/masdan*] —bo'lishsiz harakatga holat tusini berish.

Aytilganidek, barcha variant shakllar uchun «fe'lni fe'lga bog'lash» sintaktik vazifasi umumiy.

Ko'rinadiki, variant shakllardan uchtasida turli xil «holat», qolgan oltitasida esa har xil «payt» ma'nosi ifodalangan.

[*-(a)y*], [*-(i)b*] shaklli ravishdosh bajaradigan vazifasining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu shaklli ravishdosh ko'pincha [*boshlamoq*], [*chiqmoq*], [*qolmoq*], [*ko'rmoq*], [*yubormoq*] kabi fe'l bilan birikib keladi. Ko'p hollarda ravishdoshli birikuvlar fe'lning harakat tarzini hosil qilish uchun xizmat qiladi: (*o'qib chiqdi*), (*berib yubordi*). Bunda faqat shakl mavjud bo'lganligi uchun mazkur ko'rsatkichli so'zshakl (*o'qib, berib*) ni shakl va ma'no yaxlitligi sifatida ravishdosh deb bo'lmaydi.

Ravishdosh shakllari ma'noviy munosabatini kuzatish natijasida amin bo'lish mumkinki, [*-gani*] va [*-guncha*] hokim fe'l ifodalagan harakatdan keyin sodir bo'luvchi jarayonni anglatadigan

ravishdosh hosil qiluvchi shakl sirasiga kiradi. Modallikning kuchli darajada ifodalanishi va harakatlar bajaruvchilarining umumiyligi belgisi bilan [*-gani*] shakli bu belgiga ega bo'lmagan [*-guncha*] shaklidan farqlanadi.

Payt ma'nosini namoyon qilganda [*-(i)b*] va [*-gach*] shaklli ravishdoshlar harakat bajaruvchisiga munosabat jihatdan qarama-qarshi turadi. Mazkur ma'noni ifodalashda [*-i(b)*] shaklli ravishdosh bilan undan keyin keluvchi hokim fe'lning bajaruvchisi bitta bo'ladi. *Ikromjon maxorkasini o't* ***oldirib bo'lib,*** *javob berdi.* (S.Ahm.) [*-gach*] shaklli ravishdoshli qurilmada esa ravishdosh va hokim fe'l bajaruvchisi turlicha bo'lishi mumkin. *Ikromjon maxorkasini o't* ***oldirib bo'lgach,*** (Ikromjon yoki boshqa kimdir) *javob berdi.*

Ravishdosh shakllarining paradigmatik munosabati quyidagicha:

1. «Fe'lni fe'lga bog'lash» umumiy sintaktik vazifasi bilan birlashuvchi ravishdosh shakllari «hokim fe'ldan anglashilgan harakatning sodir bo'lish paytini ifodalash» belgisi ostida ajraladi. [*-a/y*], [*-(i)b*],[*-gancha*], [*-may/masdan*], [*-gani*] shakllarida bu belgi majhul. [*-gach*], [*-guncha*], [*-ganda*] shakllarida esa ifodalangan.

2. [*-a/y*], [*-(i)b*], [*-gancha*], [*-may/masdan*], [*-gani*] shakllarining «ravishdosh va u bog'langan hokim fe'l ifodalagan harakatlarning bir vaqtdaligini ko'rsatish» belgisiga munosabati turlicha. Mazkur belgi [*-gancha*], [*-a/y*] shakllarida ifodalangan. Chunki bu shaklli ravishdosh va undan keyingi hokim fe'l anglatgan harakatlar bir vaqtda ro'y beradi: ***kutgancha*** *o'tirardi,* ***kuta-kuta*** *charchadi* kabi. [*-gani*] shaklli ravishdosh va u bog'langan fe'l anglatgan harakat turli vaqtda ro'y beradi: ***ko'rgani*** *keldi,* ***aytgani*** *ketdi* kabi. Shuning uchun ular mazkur belgiga salbiy munosabatda deyiladi. [*-(i)b*], [*-may/masdan*] shakllarida belgi yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin. Qiyoslang: ***shoshilib*** *gapirdi,* ***shoshilmasdan*** *gapirdi* (harakatlar bir vaqtda yuz bergan), ***o'qib*** *javob berdi,* ***o'qimasdan*** *javob berdi* (avval o'qish, keyin javob berish harakati yuz bergan). Bu hol ushbu shakllarning mazkur belgiga majhul, noaniq munosabatda ekanligini ko'rsatadi.

3. [*-a/y*], [*-gancha*] shakllari «ravishdosh ifodalagan harakatning takroriy emasligi» belgisi bilan farqlanadi. Bu belgiga munosabat [*-gancha*] shaklida ijobiy va [*-a/y*] shaklida majhul. Bu quyidagilar bilan izohlanadi. ***O'qigancha*** *kelardi* birikuvida ravishdosh ifodalagan harakat takror-takror yuz bermaydi. *Kelisopni*

qo'ya chopdi birikuvida [*-a/y*] shakli bir martalik harakatni ifodalaydi. *O'qiy-o'qiy charchadi* birikuvida esa ravishdosh ifodalagan harakat takrorlanuvchi, davomiy. [*-a/y*] shaklli ravishdosh, odatda, takror qo'llanadi, ayrim hollarda takror bo'lmagan holda ishlatilishi mumkin.

4. [*-gach*], [*-guncha*], [*-ganda*] shakllari o'zaro «harakatning chegarasini ifodalash» belgisi bilan farqlanadi. [*-gach*] shaklli ravishdosh ifodalagan harakat hokim fe'l ifodalagan harakatdan oldin yuz beradi: *borgach, aytaman.* [*-guncha*] shaklli ravishdosh ifodalagan harakat hokim fe'l ifodalagan harakatdan keyin yuz beradi: ***borguncha*** *aytaman.* [*-ganda*] shaklli ravishdosh ifodalagan harakat bilan hokim fe'l ifodalagan harakat bir paytda yuz beradi: ***ko'rganda*** *ko'rishguncha.*

Ravishdosh shakllarining tavsiflangan alohida ma'nolari uning UGMsi tarkibidagi yondosh ma'no hisoblanadi.

Sifatdosh shakllari va uning turlari. O'zgalovchi kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lgan sifatdosh nutqda fe'llarni otlarga (ba'zan fe'llarga) bog'lash vazifasini o'tashga ixtisoslashgan. Bu vazifa — barcha sifatdosh shakllari uchun mutlaq substansial mohiyat.

Sifatdoshlar tabiatan «fe'lni fe'lga bog'lash» belgili noto'liq ziddiyatning majhul, noaniq uzvi. Bu ziddiyatda ravishdosh kuchli a'zo hisoblanadi. Sifatdosh, asosan, fe'lni otga, qisman fe'lga (masalan, ***mast qiladigan*** *kulishi, dilni* ***vayron qiladigan*** *yig'lashi* kabi) bog'lash vazifasini bajaradi. Shuningdek, bu shakl ba'zan analitik, perifrastik shakllar tarkibida ham fe'lni fe'lga bog'lashi mumkin.

Sifatdoshlarning sintaktik imkoniyati asosida uning ma'noviy xususiyati yotadi. Bu ma'noviy xususiyat — fe'l anglatgan harakat yoki harakat natijasini narsa/predmetning belgisi sifatida nutqda voqelantirish. Shuning uchun tilshunoslar sifatdoshni sifat va fe'l oralig'ida turgan so'z sifatida baholashadi. Mana shu jihati bilan ular ravishdoshdan tubdan farq qiladi. Ravishdoshlar o'zgalashish jarayonida fe'lning lug'aviy ma'nosini o'zgartirmay, unga faqat tobelovchi sintaktik vazifa yuklasa, sifatdoshlar fe'ldagi dinamik belgini barqarorlashtirib, uning lug'aviy ma'nosini ko'proq modifikatsiya qiladi.

Manbalarda sifatdoshning quyidagi shakllari ajratiladi:

[*-gan*];
[*-(a)r*];
[*-(u)vchi*];

[*-mish*];
[*-ajak*];
[*-asi/gusi*].

[*-(a)r*] shakli mavjud darslik va adabiyotlarda umumzamon, doimiylik ma'nosini ifodalovchi (***aytar*** *gap,* ***ketar*** *odam*) sifatdosh shakli sifatida qaraladi. Lekin bu shaklning kammahsulligi va uni olgan sifatdosh ko'proq sifatga yaqin turishi o'zbek tilshunoslari tomonidan e'tirof etilgan. Chunki «uning yordamida sifatdosh hosil bo'lishi o'zbek tilida juda kam uchraydi. Mazkur ko'rsatkich yordamida qo'llanuvchi ayrim so'zlar fe'ldan ko'ra sifatlarga juda yaqin turadi: ***oqar*** *suv,* ***so'nmas*** *hayot* kabi. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining keladi, ishlaydi va keladigan, ishlaydigan tipidagi shakli kelib chiqqach, bu shakl yordamida yasaluvchi sifatdosh hozirgi-zamon fe'liga aylangan» («O'zbek tili grammatikasi, I tom). Demak, [*-(a)r*] shaklini tarixiy sifatdosh shakli sifatida qarashga to'la asos bor.

[*-mish*] o'zbek tili tarixida tom ma'nodagi sifatdosh bo'lib, bu shaklga «perfekt kesim orqali anglashilgan harakatga nisbatan amalga oshirilgan, sodir bo'lgan harakat» ma'nosini ifodalash xos. Lekin til taraqqiyotining keyingi bosqichi va hozirgi vaqtda o'zbek tili uchun me'yor emasligi bilan xarakterlanadi. O'g'iz tillari va o'zbek tilining o'g'iz shevalariga xos bo'lgan bu shakl o'zbek tilida uchramasligi uni sifatdosh shakli sifatida qarashga imkon bermaydi.

[*-(u)vchi*] shakli o'zbek struktur tilshunosligida sifatdoshdan keskin farq qiluvchi ismi foil (harakat bajaruvchi) hosil qiluvchi sifatida baholanganligi uchun unga sifatdosh shakllari qatoridan o'rin berilmadi.

[*-ajak*], [*-asi/gusi*] shakllari – to'la arxaiklashgan sifatdosh ko'rsatkichi.

Demak, tom ma'nodagi sifatdosh shakli sifatida mazkur qatorda [*-gan*] qoladi. Ma'lumki, [*-gan*] zamon ma'nosini ko'rsatuvchi va [*-gan*] shaklining varianti sifatida qaraluvchi [*-yotgan*], [*-adigan/ydigan*] shakliga shu ma'nosi bilan o'tmaydi. Har uchala shakl zamon ma'nosi bilan farqlanganligi va bu zamon kesimga nisbatan belgilanuvchi nisbiy zamonga aylanganligi sababli, ularni sifatdosh shaklining zamon bilan farqlanuvchi ko'rinishi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Demak, sifatdosh shakli [*-gan*], [*-yotgan*], [*-adigan/ydigan*] ko'rinishiga ega.

Sifatdoshning bu uch ko'rinishi o'zaro «fe'lni otga va qisman fe'lga bog'lash» UGMsiga birday ega bo'lganligi sababli quyida ularning faqat ma'noviy tomoniga e'tibor qaratiladi.

[*-gan*] ko'rsatkichi bilan shakllangan sifatdoshning ma'noviy xususiyati asosida keyingi fe'ldan anglashilgan harakatdan ilgari sodir bo'luvchi harakatni predmetning atributiv belgisi sifatida ifodalash yotadi. Lekin sifatdosh ifodalagan harakat nutq momentigacha sodir bo'lmagan bo'lishi mumkin. Masalan, *Jon xotin, men borguncha shu xatni* ***olib borgan*** *bolani o'ldirib yubor* (Ert.) Bu shaklli sifatdosh ifodalagan harakat davomiy (*Sochiga bitta-ikkita oq* ***oralagan*** *xotin chiqib eshikni ochdi*) bo'lishi ham mumkin.

To'rt holat fe'li – *yot, tur, o'tir, yur* fe'llariga qo'shilganda ham shakl ushbu ma'no bilan bo'ladi. Bu, albatta, fe'lning lug'aviy ma'nosiga bog'liq holda yuz beradi.

[*-yotgan*] shaklining ma'noviy mohiyati davomiy harakatni narsa/shaxsning atributiv belgisi sifatida berish. Misollar: *Nay ovozi* ***kelayotgan*** *tepaning oldiga yetdim.* (S.Ayn.) *U ho'l o'tin vishillab* ***yonayotgan*** *o'choqqa tikildi.* (P.Tur.) Bu shakldagi davomiylik, hozirgi zamon ma'nosi, asosan, shakldagi *-yot* formantining ma'noviy xususiyati asosida. Chunki *yot* fe'li kesimdan anglashilgan harakat bilan bir vaqtda yuz bergan davomiy harakatni ifodalaydi. Ma'lumki, [*-gan*] shakliga bajarilgan, o'tgan zamonga oid harakatni ifodalash xos bo'lib, [*-yotgan*] shaklli sifatdoshda zamon va davomiylik ma'nosini ifodalashni *-yot* formanti butunlay o'z zimmasiga olgan va [*-gan*] shakli hissasiga faqat atributiv belgi ekanlikni ko'rsatish va bog'lash vazifasi qoladi.

[*-adigan/ydigan*] shaklining ma'noviy mohiyati doimiy harakatni narsaning atributiv belgisiga aylantirish. Bu shaklning bunday xususiyatga egaligi uning tarkibiy qismi bo'lgan [*-adi*] formantining qadimda holat fe'li [*-ardi*] bo'lganligiga borib taqaladi. Holat esa, albatta, davomiy. Xuddi [*-yotgan*] shaklida bo'lgani kabi, [*-adigan/ydigan*] shaklida ham asosiy ma'noni ifodalash mas'uliyati shaklning *-adi* qismiga yuklatilgan bo'lib, – *gan* qismida esa harakatni turg'unlashtirish va fe'lni hokim so'zga bog'lash vazifasi qoladi. Misollar: 1. *Eng yaxshi* ***o'qiydigan*** *zehnli bolalarni doskaga chiqarish kerak. 2. Bu akam bilan Ustaxo'janing katta o'g'li* ***turadigan*** *xona ekan.*

Sifatdosh shakllarining ma'noviy munosabatlari quyidagicha. Shakl UGMsida kategorial ma'no «fe'lni fe'l yoki otga bog'lash» bo'lib, undagi yondosh ma'no «fe'lga sifatlik (atributiv) belgisini

berish»dir. Shakl turlari «tegishli keyingi fe'ldan anglashilgan harakatdan oldin sodir bo'lish» belgisi asosida farqlanadi. [*-gan*] shaklida mazkur belgi ijobiy. [*-yotgan*], [*-adigan/ydigan*] shakl turlarining bu belgiga munosabati majhul. Chunki ularning asosiy xususiyati tegishli fe'ldan anglashilgan harakatdan keyin yoki u bilan bir vaqtda sodir bo'lish bo'lsa-da, ba'zan kontekst talabi bilan oldin yuz bergan harakatni ifodalashi ham mumkin. Misol: ***Ishlayotgan*** *kishilarni keyinchalik mukofotga taqdim etasiz.* [*-adigan/ydigan*] shakl turining «doimiylik» belgisi ham uni mazkur belgiga befarq, majhul, noaniq munosabatli qilib qo'yadi.

Demak, ma'lum bo'ladiki, sifatdosh ham ravishdosh kabi o'z mikrosistemasi ichida sifatdoshlik (harakatni barqarorlashtirish, fe'lni otga va qisman fe'lga bog'lash) belgilarini muayyanlashtirish, ixtisoslashtirish jihatidan emas, balki o'zga kategoriyalarning zamon, tarz kabi ma'nolarini ifodalashga ixtisoslashishi jihatdan farqlanadi. [*-gan*], [*-yotgan*], [*-adigan/ydigan*] qo'shimchalari turli xil sifatdosh emas, balki o'zgalovchi kategoriyaning shakli sifatida namoyon bo'ladigan bitta sifatdosh shaklining boshqa kategoriyalarga xos tajalli ma'nolar bilan farqlanuvchi ko'rinishlari.

Harakat nomi shakli va uning turlari. O'zbek tilshunosligida harakat nomi shakli sifatida quyidagi ko'rsatkichlar farqlanadi:

[*-moq*];
[*-(i)sh*];
[*-maslik*];
[*-(u)v*];
[*-ganlik*];

Bu shakllar sirasida [*-(u)v*], [*-ganlik*] shakllarining keng iste'molli va jonli nutqqa xos emasligi ularni to'la ma'nodagi harakat-nomi shakli sifatida qarashga monelik qiladi.

[*-moq*] shakli nisbatan kam qo'llanadi va harakat nomining adabiy til ko'rinishi, lug'at shakli sifatida qaraladi: *Bosmachilarning vahshiyligi odamlarga ma'lum: odamlarni* ***kesmoq, osmoq, tiriklay kuydirmoq***. (S.Ahm). Bu harakat nomining boshqa shakllaridan uslubiy qo'llanilishi bilangina farqlanadi.

[*-(i)sh*] affiksli harakat nomi quyidagi ma'noga ega:

a) harakatning nomi, atamasi: ***Ketishi*** *ham, ketmasligi ham noma'lumligini aytdi.* (Mirm.);

b) ish, mashg'ulot ma'nosi: (*shudgorlash*), (*o'g'itlash*), (*ishlash*);

d) odatdagi ot ma'nosida: (*chopish*), (*jilmayish*), (*kelish*), (*ketish*).

Bu shakl [*-lik*] qo'shimchasi bilan ko'p hollarda tilning diniy nutq ko'rinishida uchraydi: (*aytishlik*),(*kelishlik*), (*borishlik*) kabi.

Harakat nomining bo'lishsiz shakli [*-maslik*] ko'rsatkichi orqali hosil qilinadi: (*bormaslik*), (*kelmaslik*) kabi.

Harakat nomi otga xos barcha sintaktik vazifada kela oladi.

O'zgalovchi kategoriya shakllari bo'lmish ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi ma'noviy va sintaktik jihatlarning darajasi bilan farqlanadi. Bu darajali ziddiyatning belgisini «lug'aviy ma'noni o'zgalash» tashkil etadi. Bu ravishdoshda kuchsiz, sifatdoshda o'rtacha va harakat nomida kuchli. Agar belgi «sintaktik munosabatni ifodalash» tarzida bo'lsa, ravishdosh kuchsiz, sifatdosh yana o'rtacha, ravishdosh kuchli a'zo sifatida yuzaga chiqadi. Demak, sifatdoshda ma'noviy va sintaktik o'zgalash o'zaro muvofiq.

Fe'lning harakat tabiatini ko'rsatuvchi shakllari

Fe'lning harakat tabiatini ko'rsatuvchi shakllari tilshunoslikda *nokategorial shakl* deb yuritiladi. Aytilganidek, biror butunlikka kirmaydigan lisoniy birlik bo'lishi mumkin emas. Buni shu kungacha [*-la*], [*-kila/gila/g'ila/qila),* [*-(i)nqira*], [*-(i)msira*] shakllari sirasida *ko'makchi fe'l* atamasi ostida nokategorial shakl sifatida o'rganib kelingan grammatik ko'rsatkich sistemasining kategorial tabiati ochilib, nokategorial shakl tizimidan chiqarilganligining o'zi ham isbotlaydi. Demak, har qanday shakl biror grammatik kategoriya tarkibida yashaydi.

Fe'lning harakat tabiatini ko'rsatuvchi shakllari bo'lgan [*-la*], [*-kila*] */gila/g'ila/qila)*], [*-(i)nqira*], [*-(i)msira*] ko'rsatkichiga xos kategorial xususiyatlar tilshunosligimizda hali yetarli darajada o'rganilmaganligi, ochilmaganligi sababli alohida kategoriya sifatida qaramaymiz. Ularning kategorial xususiyatini ochish yoki biror kategoriyaga munosabatini oydinlashtirish tilshunosligimiz oldida turgan vazifalardan.

Fe'lning bu sintetik shakllari harakatning turli tomondan tavsifini beradi. Shu asosda ularni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1) harakatning davomiyligini, takroriyligini ifodalovchi shakl. Fe'lning bu shakli unga [*-la*], [*-kila/gila/g'ila/qila)*] affiksini qo'shish orqali hosil qilinadi: (*ishqa-ishqala*), (*sava-savala*), (*turt-turtkila*), (*cho'z-cho'zg'ila*), (*yugur-yugurgila*), (*tort-tortqila*), (*tep-tepkila)* tarzida.

Bu shakllarning [*-la*] yoki [*-kila/gila/g'ila/qila*] ekanligi ham munozarali. Quyidagi misollarga diqqat qiling: *O'n uch yildan beri seni* ***so'roqlayman,*** *do'stim.* (N.Foz.) *Ertadan buyon Yormat ... chuqurlarga tuproq solib* ***tepkilaydi.*** (Oyb.) *Shamol quturib ko'cha yoqasidan daraxt shoxlarini* ***tortqilab*** *silkitar, ulardan duv-duv yomg'ir tomchilari to'kilardi.* (S.Abd.) Bu misollarda ajratilgan so'zshakllardagi [*-la*], [*-qila*], [*-kila*] ko'rsatkichi manbalarda harakat tavsifi shakli sifatida beriladi. Biroq *(so'roqla)* so'zshaklida [*-la*] so'z yasovchi, *tepkila, tortqila* so'zlarining morfemik tarkibi *tep+ki* (ot yasalgan)+*la, tort+qi* (ot yasalgan)+*la* bo'lishi ham mumkin;

2) harakatning kuchsiz darajasini ko'rsatuvchi shakli [*-(i)nqira*], [*-(i)msira*] affikslari yordamida hosil qilinadi: (*oqar-oqarinqira*), (*qo'rq-qo'rqinqira*), (*kul- kulimsira*) kabi.

Nazarimizda, fe'lning harakat tabiatini ko'rsatuvchi shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalarni harakat tarzi kategoriyasi tarkibida o'rganish maqsadga muvofiq. Bu shakllar harakatning tarzini ifodalashi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Ular sintetik shakl hosil qiluvchi ko'rsatkichlar sifatida esa harakat tarzi kategoriyasining sintetik-analitik shakllaridan ajralib turadi. Biroq masalaga tilda geterogen shaklli kategoriyalarning ham mavjudligi asosida yondashilsa, uning yechimiga kelish osonlashadi.

Fe'lning tuzilishiga ko'ra turlari. Fe'l tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* bo'ladi. Sodda fe'l bir o'zakli bo'ladi: [*o'qi*], [*bor*], [*ishla*], [*turtkila*]. Murakkab fe'l o'z o'rnida uchga bo'linadi:

a) *juft fe'l*;
b) *takroriy fe'l*;
d) *qo'shma fe'l.*

Fe'llarda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi

Kesimlik kategoriyasi. Boshqa so'z turkumi bilan fe'l orasida tuslanishda, kesimlik bilan shakllanishda jiddiy farq borligini aytib o'tgan edik. Bu fe'lning kesimlik vazifasini bajarish imkoniyati boyligi, kesim vazifasiga ko'proq xoslanganligi tufayli unda mazkur ma'noni ifodalovchi vositalarning keng rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Aytilganidek, kesimlik murakkab kategoriya, uning tarkibiy qismlari tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyasi. Bu kategoriyalar kesimlik kategoriyasining alohida shakllari emasmi, ularning har.birini kategoriya sifatida baholashga asos bor·ni degan

savol tug'ilishi tabiiy. Chunki bunga o'xshash hol o'zgalovchi kategoriya misolida kuzatilgan edi. Ma'lumki, kategoriya shakllari bir substansial ma'noni xususiylashtirishi kerak edi. Kesimlik kategoriyasining substansial mohiyati murakkab, undagi tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nosi nisbiy alohidalikka ega. Shuningdek, bu kategoriyalarning ichki shakllari boshqa kategoriyalar ma'nolari asosida emas, balki o'zlari tegishli kategoriyalar ma'nolarini xususiylashtiradi. Masalan, zamon kategoriyasi shakllari zamon ma'nosini xususiylashtiradi (o'tgan, hozirgi, kelasi). Shaxs-son kategoriyasi (birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs birlik va ko'plik) shakllari shaxs-son ma'nosinigina xususiylashtiradi. Bunda «begona» kategoriya tajallisi kuzatilmaydi. Demak, kesimlik kategoriyasi ichki kategorial sistemalardan iborat yaxlitlik. Yaxlitlikning mohiyati shundaki, bu ichki kategoriyaning birortasi ikkinchisisiz yashay olmaydi.

Kesimlik kategoriyasi murakkab ekan, uning tarkibiy qismlarining yuzaga chiqishida uch holat farqlanadi:

a) kesimlik ma'nosining yig'iq ifodalanishi: *Yoz. Boray. O'qigin. O'qituvchiman. Shifokorsiz;*

b) kesimlik ma'nosining yoyiq ifodalanishi: *Yozmasaydingiz. O'qituvchidirman;*

d) kesimlik ma'nosining tafsiliy ifodalanishi: *O'qisa bo'ladi. Ishchi edim. Yog'sa kerak.*

Quyida bu ichki kategoriyalarning har birini alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

1. Tasdiq-inkor kategoriyasi (qisq. TIK) kesimdan anglashilgan fikrning tasdiq yoki inkorini ifodalaydi. TIKning UGMsi – «tasdiq, inkor ma'nosini ifodalash bilan gap kesimni shakllantirishda ishtirok etish, uning hol valentligiga ta'sir qilish».

Tasdiq-inkor ma'nosini ifodalashda nol shakl (tasdiq), [*-ma*] bo'lishsizlik shakli, [*emas*], [*na*], [*yo'q*] so'zi (inkor) ishtirok etadi. Misollar: *Majlis yarim kechagacha* ***cho'zildi.*** (O.Mux.) *Uzoqdan Navoiyning qorasi ko'ringunga qadar u amirning kelishiga* ***ishonmagan edi.*** (Oyb.) ***Na*** *xotin,* ***na*** *farzand* ***ko'rmagan,*** *kimsasiz bechora bir yigit.* (Uyg'.) *Mening* ***farzandim yo'q, gulbog'larim yo'q.*** (S.Nur.)

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasini TIKdan farqlash lozim. Bo'lishli-bo'lishsizlik fe'lga xos va uning nokesimlik shakli. Bunda bo'lishsizlik shakli bo'lgan [*-ma*] ko'rsatkichining o'rnini aniq bilish lozim. Bu shakl boshqa (masalan, [*-gan*] shakli sifatdosh shakli sifatida boshqa paradigmadan, kesimni shakllantirishi bilan

boshqa paradigmadan joy olganligi kabi) grammatik shakllardek ko'p vazifali (polifunksional). U gap kesimi tarkibida kesimlik kategoriyasining UGMsidagi «gap kesimini shakllantirish» ma'nosini xususiylashtirganligi bilan bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasidagidan boshqa bir qirrasini namoyon qiladi. Bu serqirra mohiyatli, ko'p funksiyali lisoniy birliklar kabi [*-ma*] shakli ham birdan ortiq paradigmadan o'rin olishini ko'rsatadi.

2. Mayl kategoriyasi. Mayl kategoriyasi (qisq. MK) «kesimdan anglashilgan voqelikning borliqqa munosabatini ifodalash va gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish» UGMsiga ega. MK UGMsida mayl kategorial ma'nosiga har doim zamon kategoriyasi ma'nosi yondosh.

MK ifodalayotgan munosabat rang-barang bo'lishi mumkin. Shuning uchun uning quyidagi turi ajratiladi:

a) *xabar mayli;*
b) *shart mayli;*
d) *buyruq-istak mayli;*
e) *maqsad mayli.*

Xabar mayli harakat/holat yoki hodisani uning bajarilish vaqti bilan ifodalaydi. Unda bajarilish haqida xabar mavjud. Shuning uchun bu mayldagi fe'l, albatta, biror zamon shaklida bo'ladi: *keldi, kelyapti, keladi.*

Xabar mayli biror ko'rsatkichga ega emas. U fe'lning zamon ko'rsatkichi orqali yuzaga chiqadi. Xabar mayli va zamon ma'nosi yig'iq ifodalanishga ega.

Shart mayli [*-ca*], [*-ca edi*], [*-ganda edi*], [*-gan ekan*] shakllari orqali hosil qilinadi: *borsam, borsang, borsa, borsangiz, borsalaringiz, borsangizlar, borsalar; borganda edi* va h. Misollar: *Mana bu kanal **bitsa**, yangi yer **ochilsa**, paxta ham ko'payadi.* (A.Qah.) *Ertoev bir nimani **sezmasa**, bunchalik talvasaga tushmas edi.* (O.Yoqub.) *Bizning bunday ulug' kunga erishganimizni otamiz ham **ko'rganda**, qanday quvonar edi.* (Iboxon.) *Men ham doim qishloqda **turganimda**, mashinani o'rganib olardim.* (H.Naz.) ***Tuzalsa edi**, odamlardek **yura olsa**, boshiga ko'tarardi.* (S.Ahm.) *Qayerdaki ma'naviy-ma'rifiy ishlar yaxshi **yo'lga qo'yilgan ekan**, u yerda muvaffaqiyat qo'lga kiritiladi.* («O'zb.ov.») *Ishlab chiqqan mebellarimiz uylaringizni qanchalik yaxshi **bezatar ekan**, biz shunchalik xursand bo'lamiz.* («Qarshi univers.») *Istiqlol mendan fermer bo'lishni **talab qilgan ekan**, men bu vazifani a'lo darajada uddalashga va'da beraman.* («Qashq.»)

[*-ca*] shaklining «shart» ma'nosidan tashqari ifodalaydigan yana qator ma'nolari («payt», «istak», «iltimos», «sabab», «to'siqsizlik» kabi) mavjud, ular shart mayli doirasida qaralmaydi.

Buyruq-istak mayli shakllarining asosiy xususiyati — so'zlovchining istagi bilan bog'liq holdagi harakatga undash, shu harakatga da'vat etish, qo'zg'atishni ifodalash. U [*-ay*], [*-gin*], [*-sin*], [*-aylik*], [*-ing*] shakllari orqali yuzaga chiqadi: (*boray*), (*borgin*), (*borsin*), (*boraylik*), (*boring*(*izlar*)) kabi. Ifodalovchilar birlik va ko'plikda, shaxs va sonda farqlanadi.

Buyruq-istak maylida:

a) sof buyruq, da'vat, iltimos;

b) istak ma'nolari qorishadi.

Birinchi ma'no ikkinchi ((*yo'qoling*), (*yondiring*), (*kuldirmagin*)) va uchinchi shaxsga (*borsin, borsinlar*), ikkinchi ma'no esa so'zlovchining o'ziga qarata (*boray, aytay*) ifodalanadi.

Buyruq-istak mayli ifodalovchilari bundan boshqa ma'nolarni («to'siqsizlik», ma'no kuchaytirish va h.) ifodalashi ham mumkin. Ammo unda mayl UGMsi tajallisi bo'lmaganda mayl ma'nosi doirasida o'rganilmaydi.

Maqsad mayli subyektning kesimdan anglashilgan harakatni bajarish maqsadini, niyatini, mo'ljalini bildiradi: (*bormoqchiman*), (*bormoqchisan*), (*bormoqchi*); (*bormoqchimiz*), (*bormoqchisiz*), (*bormoqchilar*).

Maqsad mayli ma'nosi [*-moqchi*], [*-moqchi edi*] ko'rsatkichlari yordamida ifodalanadi: *U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni yo hech o'ylamayapti, yoki bu gapning menga sira daxli yo'q, deb* ***ko'rsatmoqchi.*** (A.Mux.) *Domlaning yer olgani rost, buni Saidiyga* ***bildirmoqchi emas edi.*** (A.Qah.)

1. ***Zamon kategoriyasi.*** «Payt valentligiga ta'sir etish orqali kesimni shakllantirishda ishtirok etish va undan anglashilgan voqelikning nutq momentiga munosabatini ifodalash» — zamon kategoriyasi (qisq. ZK)ning UGMsi. Fe'lda bu UGMdagi *voqelik* uzvi harakat *tarzi* ko'rinishida xususiylashadi.

Voqelikning nutq momentiga munosabatiga qarab uch xil zamon farqlanadi:

a) nutq momentigacha bo'lgan voqelik — *o'tgan zamon*;

b) nutq momentidagi voqelik — *hozirgi zamon*;

d) nutq momentidan keyin bo'ladigan voqelik — *kelasi zamon.*

Shu boisdan zamon UGMsining uchta xususiy ko'rinishi farqlanadi:

1) *o'tgan zamon*;
2) *hozirgi zamon*;
3) *kelasi zamon.*

Ularni ifodalovchi shakllar ham shunga muvofiq uch guruhga ajratiladi.

O'tgan zamon. Hozirgi o'zbek tilida o'tgan zamon fe'li bir necha shakl yordamida ifodalanadi:

[*-di*] *(o'qidim, o'qiding, o'qidi);*

[*-gan*] *(o'qiganman, o'qigansan, o'qigan);*

[*-(i)b-*] *(o'qibman, o'qibsan, o'qibdi);*

[*-edi/ekan/emish*] *(yozgan edim, ishlayotgan edi, ishlagan eding, ishlar edilar, ishlamoqchi edim).*

Mazkur shakllarni qabul qilgan fe'l turli ma'no ifodalaydi. Masalan:

a) [*-di*]: «so'zlovchi ko'rgan, bilgan harakatning nutq momentigacha bajarilganini aniq, qat'iy tarzda ifodalash»: *Barno yo'q ekan, biroz* ***kutdi****, kelavermagach, o'tirishga sabri chidamay, idoradan* ***chiqdi****.* (O. Yoq.);

b) [*-gan*]: «so'zlovchi va tinglovchi o'zaro suhbatlashib turgan paytda bo'lmagan harakatni ifodalash»: *Kapalagini* ***uchirib yuborgan****.* (H.Naz.); «harakatning bajarilganligi va uning hozir ham mavjudligi»: *O'rinda ham gaplashaveramiz, sen juda* ***charchagansan.*** (I.Rah.);

d) [*-(i)b-*]: «harakatni bevosita kuzatmaganlik, undan keyin xabardor bo'lganlik»: *O'zim ko'rdim, tosh chap yelkasiga* ***tushibdi***; «to'siqsizlik»: *Ustidan oshirib o'q* ***otibman-u,*** *kiprik qoqmaydi-ya!* (A.Qah.)

e) [*edi*]: «harakat holatning hozir emas, balki o'tgan, avvalgi vaqtga oidligi»: *Suv endi yerga singmay,* ***muzlab qolgan edi.*** (A.Qah.)

Bunday ma'nolar qatorini yana ancha davom ettirish mumkin. Biroq keltirilgan qo'shtirnoq ichidagi ma'nolarga diqqat qilinsa, ulardagi umumiylik «harakatning o'tgan zamonga oidligi» bo'lib, qolgan farqlarning birortasi zamon UGMsiga daxldor emas. Masalan, «to'siqsizlik», «bevosita kuzatmaganlik», «o'zaro suhbatlashib turgan paytda bo'lmaganlik» kabilarning zamon ma'nosiga mutlaqo tegishli joyi yo'q. Demak, ularni zamon doirasida tahlil etish ortiqcha. Shu boisdan *o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li* atamalaridagi *«hikoya», «davom»* unsurlarini zamonga daxlsiz hodisalarning ZKni murakkablashtiruvchi hodisa sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Zamon ma'nosiga boshqa ma'noning qorishuvini ham grammatik illuziyaning bir ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

O'tgan zamon shakli kesimning payt valentligini hol vazifasidagi o'tgan zamon ma'noli so'zshakllar bilan to'ldiradi: ***kecha keldi, o'tgan yili o'qigan, bultur bajargan edim*** kabi.

Hozirgi zamon. Zamonning bu turi ZK UGMsini «harakatning nutq momentida yuz berayotganligini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Ma'nolardagi «davomiylik», «tugamaganlik» unsurlari undagi boshqa kategoriya tajallisi bo'lib, zamonning substansial ma'nosiga daxli yo'q. «Davomiylik», «tugallanmaganlik» UGMdagi kategorial ma'no bilan zich holatdagi yondosh ma'no.

Bu zamon ma'nosi:

[*-yap*];
[*-yotib*];
[*-yotir*];
[*-moqda*]
affikslari bilan ifodalanadi.

Shakllar orasidagi farq sof uslubiy asosda. Aniqrog'i, [*-yap-*] umumuslubiy va keng iste'molliligi, [*-yotib-*] va [*-yotir*] dialektal va poetik xususiyati bilan, [*-moqda*] shakli kitobiy uslubga xosligi bilan xarakterlanadi. Ularda zamonni ifodalashda farq sezilmaydi. Qiyoslang: (*o'qiyapman*), (*o'qiyotirman*), (*o'qiyotibman*), (*o'qimoqdaman*).

[*Yot*], [*tur*], [*yur*], [*o'tir*] birliklari ko'makchi fe'l vazifasida kelib, hozirgi zamon shaklining analitik ko'rinishini hosil qiladi: *Hali dushmanlarimiz tinchigani yo'q, hushyorlikni qo'ldan berding, kallangga solaman deb* ***poylab turibdi.*** («Qashq.») *Hali kelishgani yo'q, o'zim ham xavotir* ***olib o'tiribman.*** (A.Qah.). *Quyoshki falakda* ***kezib yuribdi****, umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.*(G'.G'ul.) *Bo'liq yer «tayyorman» degandek* ***ko'pchib yotibdi.*** («Qashq.»)

Hozirgi zamon shakllari kesimning payt valentligini hozirgi zamon ma'noli so'zshakl bilan to'ldiradi: [*bugun*], [*hozir*] kabi. Bu so'zshakllar gapda hol bo'lib keladi.

Kelasi zamon. Mavjud darsliklarda grammatik illuziya natijasida kelasi zamonning ikki ko'rinishi farqlanadi:

a) *kelasi zamon aniqlik shakli*;
b) *kelasi zamon gumon shakli.*

Yuqorida aytilgani kabi ma'no turlaridagi «aniqlik» va «gumon» unsurlarining zamon substansial mohiyatiga tegishli joyi yo'q. Bu ham boshqa kategoriya substansial mohiyatining kelasi zamon UGMsidagi tajallisi.

Kelasi zamon ZK UGMsini «nutq momentidan keyin yuz beruvchi harakatni ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Bu zamon:

a) [*-a*], [*-y*] (*O'zbek qizlari sevgisini* ***aytmaydi***, *bir umr pinhon* ***tutadi***. (Sayyor) *Bolang uch-to'rt* ***qiynaladi***, *keyin* ***o'rganib ketadi.*** (A.Qah.);

b) [*-(a)r/mas*] (*Balki zavod qurish uchun ovora bo'lishga* ***to'g'ri kelmas***. (Oyb.) *Shu atrofda yurgandir,* ***kelib qolar.*** (S.An.)) affikslari orqali ifodalanadi. (Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, darsliklarda zamon shakllari sanalganda, undan keyin, albatta, shaxs-son shakllari kelishi ta'kidlanadi. Bu o'rinda ZK kesimlikning dialektik bog'langan bir tarkibiy qismi bo'lganligi uchun hadeb zamon shaklidan keyin shaxs-son shakli bo'lishini ta'kidlab o'tirishni ortiqcha deb bildik. Chunki ular ajralmas).

Kelasi zamon fe'lining [*ekan*], [*emish*] to'liqsiz fe'li bilan yasalgan eshitilganlik, keyin bilganlik ma'nosini ifodalovchi shakli gumon ma'nosini ifodalamasligi ta'kidlanadi: (*ishlar ekan*), (*kelar ekan*); (*ishlar emish*), (*kelar emish*) kabi. Bunda to'liqsiz fe'llarda zamon ma'nosi yo'q. Zamon shaklning [*-ar*] qismi orqali ifodalanadi.

Umuman olganda, to'liqsiz fe'llar fe'ldan boshqa so'zlar kesim vazifasida kelganda ularga zamon va modal ma'nolarni birgalikda beradi. Fe'llarni shakllantirganda esa sintetik-analitik shaklning affiks qismi zamon ifodalab, to'liqsiz fe'l zimmasiga modal munosabat ifodalashgina yuklatiladi. Qiyoslang: *ishchi ekan — ishchi bo'lgan ekan, o'qigan emish.* Keyingi ikki misolda [*-gan*] shakli zamon, to'liqsiz fe'llar modal munosabat ifodalagan.

Kelasi zamon shakllari kesimning payt valentligini kelasi zamon ma'noli hol vazifasidagi so'zshakllar bilan to'ldiradi: *ertaga, kelasi yil, kelajakda* kabi.

Affikslar ko'chma ma'nolarda ishlatilishi ham mumkin. *Hozir qorong'ida qayoqqa* ***bordig-u, nimayam qildik*** (kelasi zamon). (P.Tur.) *Shundan so'ng,* ***bilmadim,*** *qancha vaqt shirin xayollar osmonida qanot qoqib yurdim* (hozirgi zamon) (Sayyor.) *Kecha dalada chunonam* ***chekanka qilyaptiki,*** *bamisoli usta sartarosh g'o'zani tarashlayapti deysiz* (o'tgan zamon) (S.Ahm.) *Bularni boshqa qismga* ***yuboryapmiz*** (kelasi zamon). (A.Ubay.)

Bunday ma'no ko'chishi nutqiy tabiatli.

Shaxs-son kategoriyasi. Shaxs-son kategoriyasi kesimlik kategoriyasi UGMsini «ega valentligini muayyanlashtirish orqali gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish» tarzida xususiylash-

tiradi. Hozirgi o'zbek tilida shaxs-son ko'rsatkichlarining quyidagi turlari mavjud:

1. a)

shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	*borgan+**man***	*borgan+**miz***	*borib+**man***	*borib+**miz***
II	*borgan+**san***	*borgan+**siz***	*borgan+**san***	*borib+**siz***
III	*borgan+**0***	*borgan+**(lar)***	*borgan+di+**0***	*borgan+di **(lar)***

b)

shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	*boryap+**man***	*boryap+**miz***	*bora+**man***	*bora+**miz***
II	*boryap+**san***	*boryap+**siz***	*bora+**san***	*bora+**siz***
III	*boryapti+**0***	*boryapti+**lar***	*boradi+**0***	*boradi+**(lar)***

d)

shaxs	birlik	ko'plik
I	*bormoqchi+**man***	*bormoqchi+**miz***
II	*bormoqchi+**san***	*bormoqchi+**siz***
III	*bormoqchi+**0***	*bormoqchi+**(lar)***

2. a)

shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	*bordi+**m***	*bordi+**k***	*borgan edi+**m***	*borgan edi+**k***
II	*bordi+**ng***	*bordi+**ngiz***	*borgan edi+**ng***	*borgan edi+**ngiz***
III	*bordi+**0***	*bordi+**(lar)***	*borgan edi+**0***	*borgan edi+**(lar)***

b)

shaxs	birlik	ko'plik
I	*borsa+**m***	*borsa+**k***
II	*borsa+**ng***	*borsa+**ngiz***
III	*borsa+**0***	*borsa+**(lar)***

3. a)

shaxs	birlik	ko'plik
I	*borgan+**im yo'q***	*borgan+**imiz yo'q***
II	*borgan+**ing yo'q***	*borgan+**ingiz yo'q***
III	*borgan+**i yo'q***	*borgan+**(lar)i yo'q***

b)

shaxs	birlik	ko'plik
I	*borayotgan+**im yo'q***	*borayotgan+**imiz yo'q***
II	*borayotgan+**ing yo'q***	*borayotgan+**ingiz yo'q***
III	*borayotgan+**i yo'q***	*borayotgan+**(lar)i yo'q***

4.

shaxs	birlik	ko'plik
I	*bor+**ay***	*bor+**aylik***
II	*bor+**0** \ bor+**gin***	*bor+**ing(giz)***
III	*bor+**sin** \ bor+**sin(lar)***	*bor+**ishsin***

Nutqda shaxs-son shakllarining ko'chgan ma'noda qo'llanishi ham ko'p uchraydi. Bularni quyidagicha tartiblash mumkin:

a) uchinchi shaxs shakli birinchi shaxs ma'nosida: *Kamina aytdi – Men aytdim*;

b) uchinchi shaxs ko'plik shakli ikkinchi shaxs birlik («sizlash») ma'nosida: *Nima istasalar bor;*

d) ikkinchi shaxsning birlik shakli va birlik ma'nosida «sizlash» uchun qo'llanuvchi shakli umumshaxs ma'nosida qo'llanadi: *Qayta-qayta hidlaganingda yer mehriga to'yganday **bo'lasan*** (Sayyor);

e) gap ichida odam yoki kishi so'zi qo'llanganda uchinchi shaxs shakli ham umumshaxs ma'nosida qo'llana oladi: *Tashabbuskor yoshlarni ko'rib **odam quvonadi*** («Qashq.»);

Bunday qo'llanish sof nutqiy tabiatga ega.

Egalik kategoriyasi. Aytilganidek, EK – barcha mustaqil so'z turkumi uchun umumiy kategoriya. Uning fe'l turkumida yuzaga chiqishiga misollar: *uning aytgani, bizning bormaganimiz, qizlarning kelgani.* Fe'lda EKning «keyingi mustaqil so'zni oldingi mustaqil so'zga bog'lash» UGMsini «keyingi fe'lni oldingi mustaqil so'zga bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

Quyida EKning fe'lda voqelanish xususiyatidan ayrimiga to'xtalamiz.

EK ikkinchi a'zosi [*-gan*] sifatdosh shaklida keluvchi qurilmalar tarkibida voqelanadi: *nimalar bo'layotganini, shabada yurmayotganidan, kimdir kelayotganini.* Misollar: *Uning zamirida katta tarbiya yotganini bilmay qolamiz.* (J.Abd.) *Bu gap asosan qaysi maqsadda aytilayotganini tushunishga urinardi.* (J.Abd.) *Mannop bilan Nodir ham tungi smenaga tushganligini bilgandan keyin...*

(J.Abd.) Bunda tobe birlik bosh kelishikda: *katta tarbiya yotgani, gap aytilayotganini, Mannop bilan Nodir tushganligini.*

Bu qurilmalarni unga o'xshab ketuvchi *reja bajarilganida* ko'rinishidagi qurilmadan farqlash lozim:

1) birinchi tur qurilmalarda bosh kelishikni qaratqich kelishigiga aylantirish mumkin: *yigit kelganini — yigitning kelganini.* Ikkinchi tur qurilmani bunday shaklga keltirib bo'lmaydi: *reja bajarilganida — rejaning bajarilganida.* Bunda [*-ning*] shakli ortiqcha;

2) birinchi tur qurilmada egalik affiksidan oldin *-lik* substantiv shakl yasovchisini qo'shish mumkin (demak, bunda bosh kelishik emas, balki qaratqich kelishigi qatnashadi): *yigit — yigitning kelganligini.* Ikkinchi tur qurilmada [*-lik*] substantiv shakl yasovchisini qo'shib bo'lmaydi;

3) birinchi tur qurilmada obyekt ma'nosi ifodalanib, u to'ldiruvchi yoki ega bo'lib keladi: *kelgani* — nima?, *kelganini* — nimani?, *kelganidan* — nimadan? Ikkinchi tur qurilmadan esa payt, shart ma'nolari ifodalanadi, shunga ko'ra u o'rin kelishiklaridan biri shaklini olib, hol bo'lib keladi: *reja bajarilganida.*

Ikkinchi uzvi harakat nomi bo'lgan qurilmalar: *Dushman samolyotlari o'q yog'dirib turishiga qaramay, hammasi ro'yobga chiqishiga, qalb boshqacha hissiyot bilan tepishini* kabi. Misollar: *Bularning hammasi keyin diirabo qo'shiqday bo'lib qolishini hali bilmaydilar.* (J.Abd.) *Ko'z oldida askarlar dushman ustiga balo-qazoday yopirilishlari kecha boshladi.* (J.Abd.)

Bu qurilmani ham unga o'xshab ketuvchi *suv qaynashi bilan* kabi qurilmadan farq qilish lozim. Chunki bu birikmalarda ham bosh kelishigi mavjud:

1) birinchi tur qurilmalarda bosh kelishik shaklini qaratqich kelishigi shakliga almashtirish mumkin: *samolyotlarning o'q yog'dirib turishi, qalbning hissiyot bilan tepishi, hammasining qo'shiqday bo'lib qolishi* kabi. Ikkinchi tur qurilmani bunday shaklga keltirib bo'lmaydi. Bunda [*-ning*] shakli ortiqcha bo'ladi;

2) birinchi tur qurilmada obyekt ma'nosi ifodalanib, u to'ldiruvchi yoki ega bo'lib keladi: *turgani* — nima?, *turganini* — nimani?, *turganidan* — nimadan? Ikkinchi tur qurilma *suv qaynashi bilan*da ta'kidlangan xususiyat yo'q.

Eslatma. *Men aytganim yo'q, u borgani yo'q* tipidagi qo'llanishlarga nazar tashlansa, unda egalik ma'nosi yo'qolib, shaxs-son ma'nosi kuchayganligi ko'rinadi. Aftidan, egalik

qo'shimchalari bu o'rinda boshqa omillar va vositalar bilan birgalikda kesimni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu misollardagi (*men*), (*u*) so'zlarida [*-ning*] affiksi bordek tuyuladi. Ammo qolipning sinxron holatida ega va kesim orasida uni qidirish ma'qul emas. Shuning uchun uni EKga nisbat berib bo'lmaydi.

Kelishik kategoriyasi. KK fe'llarda EK bilan dialektik yaxlitlikda voqelanadi. Ya'ni KK ko'rsatkichini qabul qiluvchi fe'lda undan oldin egalik affiksi bo'lishi shart: *o'qiganimni, o'qiganimdan, o'qiganimga, borishimga, borishimda* kabi. KK fe'lning, asosan, tuslanmagan shakllarida yuzaga chiqadi. KK dagi fe'llar bir qarashda tuslangan fe'ldek tasavvur uyg'otadi. Masalan, *Barcha ayb mening borganligimda.* Bunda egalik qo'shimchasi qaralmish fe'lni qaratuvchiga bog'lamoqda, egaga emas. Gapning egasi *ayb* so'zi bo'lib, kesimda shaxs-son kategoriyasining III shaxs, birlik shakli mavjud. EKning shakli esa I shaxs birlik.

KKdagi fe'l gapning barcha bo'laklari vazifasida kela oladi, ega: *Mening **borganim**—sening borganing,* hol: *Achchig'i chiqqani**dan** yig'ladi;* to'ldiruvchi: *Borgani**dan** uyaldi;* aniqlovchi: *Borishi**ning** siri nimada?* kesim: *Hamma gap ishlamagani**da.***

KKdagi fe'l matndan kelib chiqib: a) «harakatning obyektlashishi»; b) «payt»; d) «sabab»; e) «evaz» kabi ma'nolarni anglatadi: a) *Halimning borgani**ni** aytmoq, o'quvchining o'qigani**ni** so'ramoq*; b) *kelgani**da** gapirdi, yurgani**da** o'ylamoq*; d) *achchig'i chiqqani**dan** yig'ladi, quvonganidan gapirolmay qoldi, gapirganiga uyaldi*; e) *ishlamagani**ga** gap eshitdi; bormagani**ga** afsuslandi.*

Bu sirani birikuvchi so'zlardan anglashilgan voqeliklarning munosabatiga qarab ancha davom ettirish mumkin. KK UGMsidagi «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no fe'l turkumida «oldingi fe'lni keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi.

Ot

Ot va uning UGMsi. *Kim, nima, qayer* so'roqlariga javob bo'lib, mavjudot, narsa, joy, voqea, jarayonni atovchi leksik birlik— ot. «Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash» — ot turkumining UGMsi. Bunda *predmet* tushunchasi mantiqiy emas, balki grammatik mohiyatga ega. Mantiqan jonsiz va bevosita sezgi a'zosiga ta'sir etuvchi narsa predmet deyiladi. Grammatikada esa u keng ma'noda tushuniladi, «mavjudlik» mohiyatiga ega deb qaraladi.

Ot so'z turkumi sifatida o'ziga xos morfologik paradigmaga, yasalish tizimiga, xoslangan sintaktik pozitsiyalariga ega.

Otning UGM parchalanishiga ko'ra turlari. Otni ma'no jihatidan turlicha tasnif qilish mumkin. Bu o'rinda ularning grammatik xususiyatini muayyanlashtiruvchi semantik belgi asosga olinadi. Ot quyidagi xususiyatiga ko'ra tasnif qilinadi:

1. Bir turdagi predmetdan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra.
2. *Kim* yoki *nima* so'roqlariga javob bo'lishiga ko'ra.
3. Sanalish-sanalmasligiga ko'ra.

Ot borliqdagi bir turdagi predmetdan birining yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra *atoqli* va *turdosh* otga bo'linadi.

Atoqli va turdosh ot. Atoqli ot bir xil predmet yoki hodisaning birini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladigan ikkilamchi nom. Masalan, *bola* bir turdagi predmet (shaxs)ning umumiy va birlamchi nomi. *Sherzod* ana shu bir xil predmet (shaxs)dan birini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan va *bola* atamasidan keyin qo'yilgan ikkilamchi nom.

Atoqli ot quyidagi lug'aviy mavzuviy to'da (LMT) ga ega:

1. Kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: [*Ikrom*], [*Otabek*]; [*Jumayev*], [*Xudoynazarov*]; [*Imomzoda*].
2. Jo'g'rofiy nom: [*O'zbekiston*], [*Dehqonobod*], [*Hisor*], [*Tanxozdaryo*].
3. Tashkilot, muassasa, korxona nomi: [*Qarshi universiteti*], [*Xalq ta'limi vazirligi*], [*«Nasaf ziyosi» jurnali*].
4. Samoviy yoritqichlar nomi: [*Mushtariy*], [*Zuhro*], [*Yupiter*], [*Yarqiroq*].
5. Tarixiy hodisa nomi: [*Mustaqillik kuni*], [*Loy jangi*], [*Boston choyxo'rligi*].
6. Hayvon nomi: [*Boychibor*], [*Brendi*], [*Yo'lbars*].
7. Mahsulot nomi: [*Siltama*] (go'shtli ovqat), [*Qoraqum*] (shokolad) [*Chiyal yaxnasi*].
8. Ilohiy tushunchani ifodalovchi nom: [*Alloh*], [*Do'zax*], [*Iso*], [*Buroq*].

Atoqli ot matndan, nutq vaziyatidan uzilgan holda atash ma'nosiga ega bo'lmaydi, faqat kontekstda reallashadi. Masalan, [*Sanam*] so'zining atoqli yoki turdosh ekanligi shu so'zni qurshab turgan so'z yordamida anglashiladi. Bu jihatdan atoqli ot olmoshga o'xshab ketadi.

Atoqli otning aksariyati turdosh ot va boshqa turkum so'zi asosida vujudga kelgan. Turdosh otdan: [*Asal*], [*Dilshoda*], [*Rayhon*], [*Anor*]; fe'ldan: [*Sotiboldi*], [*O'lmas*], [*Itolmas*], [*Turdi*]; sifatdan: [*Shirin*], [*Buyuk*], [*Aziz*], [*Ulug'*]; sondan: [*Yetmishboy*], [*Saksonboy*] kabi.

Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi ot *turdosh ot* deyiladi. Turdosh ot ot turkumiga kirgan so'zning asosiy qismini tashkil etadi: [*tog'*], [*qishloq*], [*mashina*], [*sevgi*], [*muhabbat*]. Turdosh otda predmetlik va belgilik xususiyati yaxlitlashgan holda mavjud bo'ladi. Chunki har qanday narsa — belgi-xususiyat majmui.

Atoqli va turdosh ot nafaqat lug'aviy semantikasi, balki grammatik xususiyati bilan ham farqlanadi. Masalan, atoqli ot, asosan, birlik sonda qo'llanadi. Ko'plik son shaklida butunlay boshqa ma'no bo'yog'iga ega bo'ladi: ***Farhodlar*** *keldi kanal qazmoqqa* (Turs.).

Turdosh ot atoqli otdan hosil bo'lishi ham mumkin: [*muslimka*], [*xosiyatxon*], [*rentgen*], [*amper*].

Turdosh ot ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra:

a) muayyan;

b) mavhum otlarga bo'linadi.

Muayyan va mavhum ot. Sezgi a'zosi bilan sezish mumkin bo'lgan predmetni atovchi — ot muayyan ot. Muayyan otni bevosita sanash mumkin. Shuning uchun bunday ot sanoq son bilan munosabatga kirishadi. Shuningdek, shaxsiy baho shakli, ko'plik qo'shimchasini olishi mumkin: (*beshta daftar*), (*yuzlab odam*), (*o'g'ilcha*), (*qizgina*).

Muayyan ot quyidagi LMTga ega:

1. Modda nomi: [*oltin*], [*kumush*], [*qum*], [*suv*].
2. Shaxs tavsifi nomi: [*yigit*], [*chol*], [*o'zbek*], [*tojik*], [*cho'loq*], [*kasal*], [*ota*], [*ona*].
3. Buyum nomi: [*qalam*], [*kitob*], [*cho'mich*], [*kosa*], [*gilam*], [*sholcha*].
4. O'simlik nomi: [*daraxt*], [*buta*], [*o't*], [*jiyda*], [*ildiz*].
5. O'rin-joy nomi: [*qishloq*], [*shahar*], [*sahro*], [*adir*].
6. Miqdor nomi: [*misqol*], [*tonna*], [*botmon*], [*chaqirim*].
7. Tashkilot va muassasa nomlari: [*maktab*], [*idora*], [*do'kon*], [*bozor*].
8. Vaqt-payt nomi: [*kun*], [*fasl*], [*tong*], [*kecha*].

Bu har bir LMT o'z ichida bir necha lug'aviy-ma'noviy guruh (LMG) ga bo'linib ketadi. Masalan, shaxs tavsifi nomi quyidagi LMGga ajraladi:

1. Shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi LMG: [*chol*], [*qari*], [*o'smir*], [*o'spirin*].

2. Shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi LMG: [*opa*], [*ona*], [*singil*], [*egachi*], [*buvi*].

3. Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG: [*ishchi*], [*dallol*], [*dehqon*], [*suvchi*], [*mirob*].

4. Shaxsni istiqomat jihatdan tavsiflovchi LMG: [*qishloqi*], [*toshkentlik*], [*shaharlik*].

5. Shaxsni tashqi belgilari jihatdan tavsiflovchi LMG: [*bukri*], [*novcha*], [*pakana*].

6. Shaxsni ruhiy holati jihatdan tavsiflovchi LMG: [*jinni*], [*ovsar*], [*dovdir*], [*ezma*].

7. Shaxsni ijtimoiy jihatdan tavsiflovchi LMG: [*boy*], [*kambag'al*], [*xasis*], [*ziqna*].

Boshqa LMT lam shunday LMGga bo'linadi. Masalan, «Hayvon nomi» LMTsi LMG lari: «qoramol» LMG, «ot» LMG, «qo'y» LMG, «echki» LMG, «it» LMG, «eshak» LMG, «tovuq» LMG va h.k.

Muayyan ot LMG lari nisbatan barqaror va o'ta keng, deyarli cheklanmagan va o'zgaruvchan qurshovdan iborat. LMG markazidagi leksemalar o'zaro giponimik, partonimik, graduonimik, funksionimik, ierarxionimik munosabatlarda yashaydi. Masalan, [*daraxt*] leksemasi quyidagi jins-tur munosabati: [*qayin*], [*tol*], [*o'rik*], [*terak*], [*majnuntol*], [*archa*]. Funktsionimik asosda tuzilgan LMG ancha oz: [*qalam*], [*ruchka*].

Shaxs tavsifi oti esa keng graduonimik munosabatga egaligi bilan ajralib turadi.

Mavhum ot turli narsada mavjud bo'lgan bir xil yoki o'xshash sifatni bir alohidalik tarzida ifoda etadi. Masalan, [*olma*], [*qovun*], [*shakar*], [*qand*] otining muhim sifat belgisi «shirinlik» bo'lsa, [*shirinlik*] mavhum otida yuqoridagi narsalarda mavjud bo'lgan umumiy belgi bir alohidalik sifatida beriladi. Shuning uchun muayyan va mavhum otning farqli tomoni faqatgina ularning haqiqiy ([*kitob*], [*olma*], [*eshik*]) yoki xayoliy ([*sevgi*], [*ishq*], [*shirinlik*]), umumiy va yakka narsani ifodalashi emas, balki belgi, sifat ma'nosining qay usulda talqin etilishi ham.

Ot birlik shaklda bir turdagi predmetlarning o'zini (*yakka ot*) yoki predmet to'dasini (*jamlovchi ot*) bildirishiga ko'ra ham farqlanadi.

Yakka va jamlovchi ot. Bir turdagi predmetning o'zini bildiruvchi ot yakka ot deyiladi: [*kitob*], [*uy*], [*daraxt*]. Jamlovchi ot birlik shaklda ham predmetlar majmuini anglatadi: [*armiya*], [*ko'pchilik*], [*xalq*]. Lekin bunday ot semantik ko'plikda bo'lsa-da, grammatik birlikda deyiladi.

Ot derivatsiyasi

Otlar ikki xil – *affiksatsiya* va *kompozitsiya* usuli bilan yasaladi. Shunga muvofiq, ot yasashning affiksal va kompozitsion qolipi mavjud. Bu qolip ham o'z o'rnida unumli, unumsiz; mahsuldor va kammahsul turga bo'linadi.

Ot yasovchi qolipning aksariyati ko'p ma'noli. Quyida ularni ko'rib o'tamiz.

[*-chi*] affiksli **[ot + -chi = *1*) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; *2*) asosdan anglashilgan ish/harakat/hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; *3*) asosdan anglashilgan ish-harakat, faoliyatda qatnashuvchi shaxs oti; *4*) ish-faoliyatda biror oqim, maslak va sh.k. tarafdori, shularga mansub bo'lgan shaxsni bildiruvchi ot; *5*) asosdan anglashilgan hodisani, ish-harakatni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxsni bildiruvchi ot]** qolipi quyidagi hosilalarni bergan:

1) [*sportchi*], [*dutorchi*], [*kashtachi*], [*shaxmatchi*], [*bufetchi*], [*matbaachi*];

2) [*xabarchi*], [*maslahatchi*], [*terimchi*], [*yordamchi*], [*himoyachi*], [*davomchi*];

3) [*jangchi*], [*isyonchi*], [*hasharchi*], [*muzokarachi*], *(sayrchi)*, [*obunachi*];

4) [*respublikachi*], [*muxtoriyatchi*], *(«paxtakor»chi)*, [*tursunoychi*];

5) [*to'polonchi*], [*buzg'unchi*], [*tavakkalchi*], [*ginachi*], [*uyquchi*], [*lofchi*], [*kekchi*].

Ko'rinadiki, bu qolip polisemantik va polifunksional bo'lib, har bir ma'nosi yana bir necha ma'no turlariga bo'linib ketadi.

[*-shunos*] affiksli **[ot + *-shunos* = asosdan anglashilgan sohani o'rganuvchi mutaxassis]** qolipi bir ma'noli bo'lib, u quyidagi

hosilani bergan: [*adabiyotshunos*], [*tilshunos*], [*tarixshunos*], [*o'lkashunos*], [*musiqashunos*] kabi.

[*-kor*] affiksli ikkita qolip mavjud:

a) **[aniq ot + *-kor* + asosdan anglashilgan narsa/predmetni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti]** ([*paxtakor*], [*lavlagikor*], [*sholikor*], [*g'allakor*]);

b) **[mavhum ot + *-kor* = asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs]** ([*madadkor*], [*xiyonatkor*], [*gunohkor*], [*tajovuzkor*], [*tashabbuskor*], [*ijodkor*], [*xizmatkor*]).

[*-kash*] affiksli qolip ham ikki ma'noli:

a) **[ot + *-kash* = *I*) asosdan anglashilgan ish, mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs oti:** [*zambilkash*], [*kirakash*], [*loykash*], *(paxsakash)*;

b) **asosdan anglashilgan ishni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxs oti]**: [*janjalkash*], [*hazilkash*].

Quyida boshqa affiksli qoliplarni misollari bilan sanab o'tamiz: **[o'quv otlari+*-xon* = asosdan anglashilgan narsa/predmetni doimiy mutolaa qiluvchi shaxs oti]** ([*gazetxon*], [*kitobxon*], *(jurnalxon)*, [*duoxon*]), **[ot + *-do'z* = asosdan anglashilgan narsa/predmetni tikuvchi shaxs oti]** ([*etikdo'z*], [*mahsido'z*], [*mo'ynado'z*], [*do'ppido'z*]), **[ot + *-gar* = asosdan anglashilgan narsa/predmet bilan bog'liq kasbni qiluvchi shaxs oti]** ([*zargar*], (*sovungar*), [*savdogar*]), **[ot + *-soz* = asosdan anglashilgan narsa/predmetni yaratuvchi, tuzatuvchi shaxs oti]** ([*soatsoz*], (*stanoksoz*), (*asbobsoz*)), **[ot + *-paz* = asosdan anglashilgan taomni tayyorlov shaxs oti]** ([*oshpaz*], (*somsapaz*), (*mantipaz*), [*kabobpaz*]), **[ot + *-boz* = asosdan anglashilgan ish/harakat bilan ko'p shug'ullanuvchi, unga berilgan shaxs oti]** ([*majlisboz*], *(rizaboz)* [*maishatboz*], [*safsataboz*], [*va'daboz*], [*guruhboz*], [*kaptarboz*], [*bedanaboz*]), **[ot + *-xo'r* = asosdan anglashilgan yegulik, ichimlikni doimiy iste'mol qiluvchi shaxs oti]** (*norinxo'r)* [*aroqxo'r*] [*nafaqaxo'r*], [*choyxo'r*]), **[ot + *-parast* = asosdan anglashilgan narsaga e'tiqod qiluvchi shaxs oti]** ([*butparast*], [*mayparast*], [*shaxsiyatparast*], [*maishatparast*]), **[ot + *-go'y* = asosdan anglashilgan ish/harakat, hodisani doim bajarib turadigan shaxs oti]** ([*maslahatgo'y*], [*duogo'y*], [*xushomadgo'y*], [*nasihatgo'y*], (*labbaygo'y*), **[ot + *-dor* = asosdan anglashilgan narsa/predmetga ega bo'lgan shaxs oti]** ([*bog'dor*], [*quldor*], [*do'kondor*]), **[ot + -bon = asosdan anglashilgan narsa/predmetga qarovchi shaxs oti]** ([*bog'bon*], [*saroybon*], [*darvozabon*]), **[ot + *-furush* = asosdan anglashilgan**

narsa/predmetni sotish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti] ([*chitfurush*], [*nosfurush*], [*mevafurush*]), **[ot + *-dosh* = asosdan anglashilgan narsa/predmetga bir xil aloqador bo'lgan shaxs oti]** (*qayg'udosh*), [*musobaqadosh*], [*suhbatdosh*], [*zamondosh*]), **[ot + *-vachcha* = asosdan anglashilgan shaxsga qarashli farzand ma'nosidagi shaxs oti]** ([*boyvachcha*], [*gadoyvachcha*], [*to'ravachcha*], [*tog'avachcha*], [*xolavachcha*], [*ammavachcha*], [*itvachcha*]), **[*ham* + ot = asosdan anglashilgan narsa/predmetga aloqador shaxs oti]** ([*hamshahar*], [*hamsuhbat*], [*hamkurs*], [*hamkasb*]), **a) [sifat/ravish + *-lik* = asosdan anglashilgan belgi oti]** ([*sariqlik*], [*tezlik*], [*bema'nilik*], [*yoshlik*],), **b) [ot + *-lik* = asosdan anglashilgan narsa/predmetni umumlashtirib, holat tarzida ifodalovchi mansublik oti]** ([*otalik*], [*o'qituvchilik*], [*ginaxonlik*], [*va'dabozlik*], [*shaharlik*], [*urug'lik*], [*kiyimlik*], [*muzlik*], [*botqoqlik*]), **[ot + *-chilik* = *1*) asosdan anglashilgan narsa etishtiriladigan soha oti; *2*) asosdan anglashilgan narsa/hodisaning borliq holatini anglatuvchi ot; *3*) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'lanuvchi holat oti; *4*) biror ish-hodisaning sababi asosdan anglashilgan narsa ekanini bildiruvchi ot]** (1) [*paxtachilik*], [*urug'chilik*], [*chorvachilik*]; 2) [*pishiqchilik*], [*to'kinchilik*], (*qattiqchilik*)), *3*) [*ulfatchilik*], [*tirikchilik*], [*maynabozchilik*], (*o'rtoqchilik*); 4) (*yurtchilik*), [*o'zbekchilik*], [*ro'zg'orchilik*]), **[ot + *-garchilik* = asosdan anglashilgan belgi, holat, harakat-hodisaga aloqador bo'lgan ot]** ([*oliftagarchilik*], [*namgarchilik*], [*isrofgarchilik*]), **[ot + *-zor* = asosdan anglashilgan narsa ko'p bo'ladigan joy oti]** ([*olmazor*], [*qaroqchizor*], [*paxtazor*], [*ajriqzor*]), **[qum, tosh, o't + *-loq* = asosdan anglashilgan narsa/predmet ko'p bo'ladigan joy oti]** ([*o'tloq*], [*qumloq*], [*toshloq*]), **[ot + *-iston* = asosdan anglashilgan narsa/predmetga boy joy oti]** ([*O'zbekiston*], [*guliston*]).

Shunday ot yasash qoliplari borki, ulardan bugungi kunda yangi so'z yasalmaydi. Hosilalarning barchasi lisoniy tabiatli. **[ot + *-goh* = asosdan anglashilgan ish-harakat bajarilgan joy oti]** ([*sayilgoh*], [*ayshgoh*], [*manzilgoh*]), **[ot + *-don* = asosdan anglashilgan narsa/predmet saqlanadigan predmetni ifodalovchi ot]** ([*qalamdon*], [*tuzdon*], [*kuldon*]), **[ot + *-xona* = asosdan anglashilgan ish-harakatga mo'ljallangan joy oti]** ([*ishxona*], [*qabulxona*], [*choyxona*], [*oshxona*]), **[ot + *-obod* = asosdan anglashilgan narsa/predmet obod qilgan joy oti]** ([*Dehqonobod*], [*Mehnatobod*]), **[ot + *-noma*= asosdan anglashilgan**

narsa/predmetni ifodalovchi ot] ([*arznoma*], [*taklifnoma*], [*sayohatnoma*]).

[*-k*(*-ik/-ak*), *-q*(*-iq, -uq, -oq*)] ([*kekirik*], [*ko'rik*], [*og'riq*], [*qaviq*], [*buyruq*], [*qiynoq*], [*o'roq*]). [*-k/q*] (*-iq, -ik*) ([*to'shak*], [*qayroq*], [*elak*]),[*-gi* (*ki/g'i/qi/g'u*)] ([*sevgi*], [*kulgi*], [*supurgi*], [*chopqi*], [*achitqi*], [*yonilg'i*], [*tomizg'i*]), [*-m*(*-im/-um*)] ([*chidam*], [*to'plam*], [*unum*], [*tuzum*], [*chiqim*], [*qo'nim*], [*kechirim*]), [*-ma*] ([*uyushma*], [*birlashma*], [*dimlama*]), [*-qin/g'in*] ([*toshqin*], [*to'lqin*], [*bosqin*], [*tutqun*], [*qochqin*], [*yong'in*]), [*-in/-un*] ([*ekin*], [*yog'in*], [*yig'in*], [*bo'g'in*], [*tugun*]), [*-(i)ndi*] ([*cho'kindi*], [*yuvindi*], [*chirindi*], [*supurindi*], [*sirqindi*], [*yig'indi*]), [*-gich*] (*g'ich/kich/qich*) ([*o'lchagich*], [*purkagich*], [*o'chirg'ich*], [*qashlagich*], [*eritkich*], [*savag'ich*]), [*-ch*], [*-inch*] ([*quvonch*], [*o'kinch*], [*qo'rqinch*], [*sevinch*]), [*-machoq*] ([*bekinmachoq*], [*tortishmachoq*], [*quvlashmachoq*]), [*-ak/oq*] ([*sharsharak*], [*bizbizak*], [*pirpirak*], [*g'urrak*], [*tartarak*]), [*-ildoq*] ([*shaqildoq*], [*hiqildoq*], [*chirildoq*], [*pirildoq*]), [*-a*] ([*sharshara*], [*g'arg'ara*]), [*-os*] ([*chuvvos*], [*sharros*], [*gulduros*]) qo'shimchalari ishtirok etuvchi derivatsion qoliplari kam unum bo'lib, ular bugungi kunda hosila bermaydi. Shu boisdan qolipning mazmuniy tomonini uning hosilalaridan umumlashtirib bo'lmaydi.

[*-ish*], [*-uv/ov*], [*-uvchi/ovchi*] affiksli [*qurilish*, [*kirish*], [*chiqish*], [*uchrashuv*], [*kechuv*], [*maqtov*], [*chanqov*], [*uchuvchi*], [*haydovchi*], [*tinglovchi*], [*sotuvchi*] so'zlarini ham yasama so'zlar sifatida qarash hollari uchrab turadi. Bunda ular aslida so'zshaklning leksemalashuvi hodisasi ekanligini esda tutish lozim.

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma va juft otlar otlar hosil qilinadi: [*toshko'mir*], [*tuyaqush*], [*karnaygul*], [*oybolta*], [*ko'kqarg'a*], [*qoraqurt*], [*mingoyoq*], [*qo'ziqorin*], [*ota-ona*], [*qozon-tovoq*], [*qizilishton*].

Qo'shma otlar:

1. **[Ot+ot]**: [*ajdargul*], [*ayiqtovon*], [*atirgul*], [*kinolenta*], [*xontaxta*], [*xo'rozqand*], [*toshbo'ron*], [*sochpopuk*], [*shakarqamish*], [*qo'ypechak*], [*qo'larrra*], [*temir yo'l*], [*piyozdog'*], [*O'rta Chirchiq*].

2. **[Sifat+ot]**: [*kaltakesak*], [*Markaziy Osiyo*], [*Sho'rko'l*], [*ko'ksulton*], [*ko'rsichqon*], [*sassiqpopishak*], [*qoradori*].

3. **[Ot+fe'l]**: [*echkiemar*], [*ko'zboylog'ich*], [*kallakesar*], [*husnbuzar*], [*beshiktervatar*], [*socho'sar*], [*dunyoqarash*].

4. **[Son+ot]**: [*beshbarmoq*], [*beshqarsak*], [*Yettisuv*], [*Oltiariq*], [*uchburchak*], [*mingoyoq*], [*qirqog'ayni*].

5. **[Son+fe'l]**: [*beshotar*], [*birqoqar*].

6. **[Ot+sifat]**: [*ustabuzarmon*], [*gulbeor*], [*oshko'k*].
7. **[Fe'l+fe'l]**: [*iskabtopar*], [*ishlab chiqarish*].
8. **[Fe'l+ot]**: [*savacho'p*].

Juft otlar. Juft otlar **[ot+ot]**, **[sifat+ot]** kabi qoliplar, shuningdek, boshqa turkumga oid juft so'zlarning otga ko'chishidan vujudga keladi. Juft otlar tarkibiga ko'ra quyidagi ko'rinishlarga ega:

I. Har ikki qismi mustaqil holda ham ishlatiladigan juft otlar:

1. Qismlari o'zaro sinonim: [*azob-uqubat*], [*aysh-ishrat*], [*dori-darmon*], [*baxt-saodat*], [*zeb-ziynat*], [*izzat-ikrom*], [*izzat-hurmat*], [*kayf-safo*], [*makr-hiyla*], [*nasl-nasab*], [*pand-o'git*].

2. Qismlari o'zaro antonim: [*avra-astar*], [*avlod-ajdod*], [*achchiq-chuchuk*], [*bordi-keldi*], [*bosh-oyoq*], [*er-xotin*], [*o'g'il-qiz*], [*savol-javob*], [*salom-alik*], [*qulf-kalit*].

3. Qismlarining ma'nosi yaqin: [*ariq-zovur*], [*baxt-taxt*], [*baqir-chaqir*], [*boj-xiroj*], [*bosh-ko'z*], [*dev-pari*], [*sovg'a-salom*], [*o'q-dori*], [*qovoq-tumshuq*], [*hisob-kitob*], [*hol-jon*], [*qo'y-qo'zi*].

II. Qismlaridan biri mustaqil holda ishlatilmaydigan juft otlar: [*aldam-quldam*], [*bozor-o'char*], [*bola-baqra*], [*qo'ni-qo'shni*], [*latta-putta*], [*yig'i-sig'i*], [*maza-matra*], [*mehmon-izmon*], [*irim-sirim*].

III. Har ikki qismi ham mustaqil ishlatilmaydigan juft otlar: [*adi-badi*], [*ashqol-dashqol*], [*zer-zabar*], [*shikast-rext*], [*ikir-chikir*], [*lash-lush*], [*qalang'i-qasang'i*], [*mirqinboy-shirqinboy*], [*ya'juj-ma'juj*].

Son otning tasniflovchi grammatik kategoriyasi sifatida

Otning morfologik belgilari va tasniflovchi kategoriyalari. Ot morfologik o'zgaruvchi so'z sifatida o'ziga xos morfologik paradigmalarga ega. Son va subyektiv baho shakllari otning asosiy tasniflovchi grammatik shakllari hisoblanadi.

Son kategoriyasi. Otlarda ziddiyat holida bo'lgan birlik va ko'plik ma'nosi va bu ma'noni ifodalovchi shakllar sistemasi grammatik son kategoriyasini tashkil etadi.

Mantiqiy va grammatik sonni aralashtirmaslik kerak. Masalan, jamlovchi ot ([*xalq*], [*qo'shin*], [*poda*], [*suruv*]) mantiqan predmet jamini bildiradi, lekin grammatik jihatdan birlikda deb qaraladi.

Son kategoriyasining ikki: [*-lar*] affiksi bilan yasaluvchi shakli va shunga oppozitsiyada bo'lgan nol ko'rsatkichli shakli bor.

Bulardan [-*lar*] affiksi otning ko'plik shaklini yasaydi, birlik shakl esa nol ko'rsatkichli shakli.

[-*lar*] shaklining ko'plikni ifodalashi masalasida barcha tilshunoslar hamfikr. Ammo nol ko'rsatkichli shakl masalasida har xil qarash bor.

Ko'p holda nol shakl faqat birlik ma'nosining ifodalovchisi sifatida qaraladi. Ba'zilar esa u na ko'plik, na birlik ifodalashini ta'kidlab, bu shaklning son kategoriyasi tarkibidagi o'rniga shubha bilan qaraydi. Zero, nol shakl miqdoriy grammatik ma'no anglatishdan mahrum ekan, unda [-*lar*] shakli bilan aynan bir xil qurshovda o'rin almashishini qanday tushunish kerak? Unda *Askar o'rab oldi o'ngdan-u so'ldan* (Mirt.) gapida mantiqan (*askarlar*) so'zshakli ishlatilgan bo'lur edi.

Demak, [-*lar*] va nol shakl — hozirgi o'zbek tilida miqdor anglatuvchi grammatik ko'rsatkich. Bu ular sof miqdor anglatadi, degani emas, albatta. Miqdor belgisi bu shakllarda kategorial ma'no bo'lsa, unda sifatiy yondosh va boshqa hamroh ma'no ham mavjud.

Quyida [-*lar*] shaklining OGMlarini sanaymiz:

«Ko'plik» [-*lar*] shakli eng ko'p ifodalaydigan ma'no. Bunda [-*lar*] UGMsining kategorial ma'nosi «ko'plik» bo'lsa, unga dialektik yondosh bo'lgan ma'no — «miqdoriy noaniqlik» va «sifatiy bo'linuvchanlik». Ya'ni grammatik ma'no «bo'linuvchan noaniq **ko'plik**». Demak, «ko'plik» ma'nosi ifodalanganda, albatta, o'z-o'zidan «noaniqlik» va «bo'linuv-chanlik» ma'nosi yuzaga chiqishi shart. Bunga misol: *Bog'da shirin-shirin olma**lar** bor.* Olmaning ko'pligi ayon. Ammo uning nechtaligi noaniq va bu ko'plik bo'linuvchan (olma+olma+olma...).

«Jamlik» ma'nosi ba'zan sezilar-sezilmas, ya'ni bo'linuvchanlik xususiyatini saqlagan holda (a) yuzaga chiqsa, ayrim holda, xususan, turg'unlashib qolgan izofada (b) yaqqol yuzaga chiqadi: a) *kishilar orzusi, qushlar bayrami*; b) *ishchilar sinfi, o'qituvchilar ro'znomasi, kitoblar uyi.*

[-*lar*] shaklining «bog'liqlik yoki o'xshashlikka asoslangan ko'plik»ni ifodalashi quyidagi misolda ko'rinadi: 1. *Avazlarga g'isht quyib berdim* (Avaz va u bilan bog'liq oila a'zolariga). 2. *Avvalgi sarvigullar o'qishni tugatishdi* (Sarvigulga o'xshaganlar).

[-*lar*]ning miqdoriy va sifatiy belgisi ayrim holda unga makon va zamon o'lchovida taxminiylikni ifodalash imkonini beradi. Masalan, 1. *Adashmasam, uni urib burnini qonatganimda uch*

yoshlarda edik. 2. *O'n yillar ilgari kamina ham shu qizlar yoshida edim.*

[*-lar*]ning kuchaytirilgan ma'no ifodalashi: *Tillarimga ko'cholmaydi bo'g'zimdagi ovozim.* Bundagi kuchaytirish [*-lar*]ning «ko'plik» ma'nosiga bog'liq. Chunki ko'p narsa mantiqan kuchli bo'ladi. Ya'ni til aslida «bitta». Uni kuchli qilib ko'rsatish uchun ko'plik shakli berilmoqda.

Quyida nol [*0*] shakl OGMlarini sanaymiz:

1. «Birlik» ifodalash [*0*] shaklning asosiy vazifasi. Bu ma'no ko'rsatish olmoshlari, *bir* so'zi, aniqlovchilar bilan munosabatga kirishganda yuzaga chiqadi: *Bir radiosi bor, sandiqdek keladi.* (O'.Hosh.)

2. [*0*] shakl jamlik ifodalaganda narsalarning bo'linmas, yaxlit birligi anglashiladi: ***Gadoning dushmani gado bo'ladi.*** (A.Orip.)

3. [*0*] shakl matnda aniq va noaniq ko'plik ifodalashi mumkin. Masalan, *Ermon buvaning aytishiga qaraganda,* ***o'n pud ko'sakni*** *chuvish zimmamizga yuklatilgan edi.*

Aytilganlar asosida son kategoriyasi shakllari uchun quyidagi UGMlarni ko'rsatamiz:

[*0*] shakli UGMsi – «bo'linmas sifat, aniq/noaniq miqdor ifodalash».

[*-lar*] shakli UGMsi – «bo'linuvchan/bo'linmas sifat va aniq/noaniq miqdor ifodalash».

Bu UGM o'z o'rnida kategorial va nokategorial qismga bo'linadi. «Miqdor» kategorial, «bo'linuvchan/bo'linmas sifat» yondosh, «tur», «xil», «kuchaytirish», «hurmat» kabilar – kategorial ma'no bilan dialektik bog'lanmagan hamroh ma'no.

Otning xususiy lug'aviy shakllari: kichraytirish, shaxsiy munosabat shakllari. Otdagi yana bir lug'aviy shakl – kichraytirish-erkalash shakli. Kichraytirish-erkalash paradigmasi [*-cha*], [*-gina*], [*-(a)loq*] shakllaridan iborat bo'lib, ular quyidagi ma'noni ifodalaydi:

[*-cha*]:

a) shaxs va predmetning kichik ekanligini: (*kitob***cha**), (*qalam***cha**);

b) erkalash ma'nosini: (*o'g'il***cha**), (*qiz***cha**);

d) kamsitish ma'nosini: (*doml***acha**), (*odam***cha**).

[*-gina*]:

a) kichraytirish: (*qiz***gina**), (*bola***gina**);

b) achinish: (*bechora***gina**);

d) erkalash: (*bola***ginam**).

[*-(a)loq*] qo'shimchasi ayrim otlarga qo'shilib, erkalash ma'nosini bildiradi: (*bo'**taloq***), (*qiz**aloq***), (*toy**loq***).

Shaxsiy munosabat (erkalash) shakllari ([*-jon*], [*-xon*], [*-oy*], [*-bonu*]) shaxs bildiruvchi atoqli va turdosh otga qo'shilib, erkalash, suyish ma'nosini ifodalaydi: (*Ahmad**jon***), (*xolaj**on***), (*Gulnora**xon***), (*Shirina**bonu***)

Otning tuzilishiga ko'ra turi. Ot tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* bo'ladi. Sodda ot bir o'zakli bo'ladi: (*kitob*), (*daftar*), (*odam*), (*ishchi*). Murakkab ot o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft ot*; b) *takroriy ot*; d) *qo'shma ot.*

Otda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi

Ot turkumida sintaktik kategoriyalar keng qo'llanishga ega. Xususan, KK va EK voqelanishi uchun bu turkumda cheklanmagan imkoniyat mavjud. Ammo unda kesimlik kategoriyasining voqelanishi nisbatan chegaralangan.

Egalik kategoriyasi. Ot turkumi EK UGMsini «keyingi otni oldingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi otni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Ot turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz.

Ot turkumida EK ning ishlatilishida ikki holat bor:

1. Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EKdagi so'z QKdagi so'z bilan keladi: *mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi.* Kishilik olmoshi va EK qo'shimchasi shaxs va sonni ifodalaydi. Shu boisdan QKdagi olmosh tushirib qoldirilishi mumkin: (*kitob**im***), (*nutq**ing***);

EKdagi so'z ba'zan ChKdagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: *talabalardan biri.* Bunda ko'pincha qaralmish miqdor yoki belgi ifodalovchi so'z bilan ifodalangan bo'ladi.

2. Egalik affiksi QKni talab qilmaydi. Bunda ham ikki holat farqlanadi:

a) erkin birikmada bosh kelishikdagi so'zni boshqaradi: *Navoiy ko'chasi, Dehqonobod tumani*;

b) EKdagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga o'tib ketadi: [*kechasi*], [*kunduzi*]; modalga o'tadi: [*chamasi*], [*yaxshisi*].

EKning birlik va ko'plik shakli qo'llanilishida farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zakka birlik son shakli qo'shilmaydi: (*beshovimiz*), (*barchangiz*). Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: (*barchasi*), (*beshovi*).

Kelishik kategoriyasi. BK dagi ot *kim, nima, qaer* so'roqlariga javob bo'lib, quyidagi vazifada keladi:

Ega: 1. ***Ilhom*** — *eng yosh o'qituvchi.* 2. *Darvoza tepasiga* ***sandiq*** *qo'yilgandi.*

Hol: ***Shu kuni*** *Abdulla allamahalgacha xayol surib yotdi.* (O'.Umar.). *Yer haydasang,* ***kuz*** *hayda,* ***kuz*** *haydamasang, yuz hayda.* (Maq.)

Vositasiz to'ldiruvchi: *Murotali qazib qo'ygan chuqurlarga* ***ko'chat*** *o'tqazardi.* (Sh.Rash.) *Bir kishi* ***ariq*** *qaziydi, ming kishi* ***suv*** *ichadi.* (Maq.)

Qaratuvchi aniqlovchi: ***Ko'k*** *yuzini yulduzlar band etdi.* (J.Abd.) ***Cho'l*** *qovunlari pishay-pishay deb turibdi.* (S.Ahm.)

Sifatlovchi: *Shu payt* ***elektr*** *qo'ng'iroq asta jiringladi.* (H.G'ul.)

Izohlovchi: *Daryodan o'tilgan kun* ***general*** *Pogodin harbiy Kengashga chaqirildi.* (I.Rah.)

Ot kesim (*Otam* - ***ishchi***), undalma (*Siz baxtlisiz,* ***Olimjon aka***), atov gap (*Ko'm-ko'k* ***dala***) vazifasida kelganda, uni BK da deyish to'g'ri emas. Aytilganidek, bunda kelishik UGMsiga xos vazifa yuzaga chiqmagan.

QK dagi otda KK UGMsi «otni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Mohidil inson tabiatining naqadar murakkabligiga yanada chuqurroq tushuna bordi.* (J.Abd.)

Manbalarda QK ning belgili va belgisiz ko'rinishi farqlanadi. BKning KK shakllari o'rnini bemalol almashtira olishi haqidagi nazariya «belgisiz QK»ni BK sifatida qarashni taqozo qiladi. Masalan, ***nonning*** *uvog'i* — QKda, ***non*** *uvog'i* — BKda.

TKdagi ot gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan ot vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Otga obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» — TK UGMsining ot turkumidagi xususiylashuvi.

Manbalarda TK ning ham belgili va belgisiz ko'rinishi farqlanadi. BKning KK shakllari o'rnini bemalol almashtira olishi haqidagi nazariya «belgisiz TK» ni ham BK sifatida qarashga olib keladi. Masalan, ***nonni*** *yemoq* — TKda, ***non*** *emoq* — BKda.

Demak, QK va TKda ta'kidlash va ajratish ma'nosi bo'lib, unga ehtiyoj bo'lmaganda BK qo'llanadi.

ChK KK UGMsini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, ot turkumida esa «oldingi otni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

Ot turkumida ChK ko'makchi bilan kelishi mumkin: *taom**dan** **keyin**, ish**dan** so'**ng**.*

ChKdagi otning vazifalari:

a) vositali to'ldiruvchi: *Gulnorning o'zi**dan** so'rab ko'rarmiz?* («Saodat»).

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xona**dan** pianino ovozi eshitilmoqda edi.* (P.Qod.).

d) sabab holi: *Yulduz taajjubi**dan** o'zini bosolmadi* (M.Muh.).

e) payt holi: *Ikkalasi **yoshlikdan** birga o'sishgan* (M.Qor.).

f) ko'makchilar bilan birga ajratilgan bo'lak vazifasi: *Qamishkapaliklar odamlarni nomlari bilan atash**dan** **ko'ra**, xususiyatlari bilan ta'riflaydilar* (A.Qah.).

ChK o'z vazifasini yo'qotishi mumkin: [*birdan*], [*to'satdan*], [*qo'qqisdan*].

Ma'nosi kuchsizlanishi va gap qisqarishi natijasida kesim vazifasida tuslovchi olishi mumkin: *Qishloq**dan**misizlar*? Qisqaruv hodisasi ChK dagi so'zning ega bo'lib kelishini ham ta'minlaydi: *Bu kitoblardan menda ham bor.*

JKdagi ot ish-harakat yo'nalgan predmetni anglatadi: *maktab**ga**, ish**ga**, zavod**ga**, ukam**ga**.* Uning invariant affiksi [*-ga*] bo'lib, nutqda turli fonetik, poetik, dialektal variantga ega bo'ladi: *kurak**ka**, tuproq**qa**, buyon**a**, qayg'**a**.*

JK ko'makchi bilan sinonimik munosabatga kirishadi: *uyga ketdi — uy **tomon** ketdi, ukasi**ga** oldi — ukasi **uchun** oldi.*

JK ChK, TK va O'PKlari vazifalarini ham bajaradi: *Biz hashamatli bino oldi**ga(da)** to'plandik. Bu gap**ga(ni)** tushunmadim. Ko'rsatish**ga(dan)** uyaldim.*

JK dagi ot gapda:

a) vositali to'ldiruvchi: *Mohidil shoshilinch **safarga** otlana boshladi.* (J.Abd.) *Dildor Nafisaning oppoq chaqnoq **ko'zlariga** havaslanib boqdi.* (H.G'ul.)

b) o'rin holi: *Bahor ko'zi to'la yoshni yashirmoq uchun **eshikka** yugurdi.* (Sh.Rash.) *Nayman **cho'llariga**, **to'qaylariga** chinakam bahor keldi.* (S.Ahm.).

d) payt holi: *Sport musobaqalari* ***bahorga*** *qoldirildi.* («Qashq.»).

e) maqsad holi: *Baloning oldini* ***olmoqqa*** *ne choralar ko'rmoq lozim?* (J.Abd.) *Bahor Po'latni* ***kuzatishga*** *yasanib chiqqan edi.* (Sh.Rash.)

f) sabab holi: *O'z vaqtida* ***davolanmaganimga*** *juda afsuslanaman. Sitora sportda katta muvaffaqiyat* ***qozonganiga*** *xursand bo'ldi.*

g) miqdor-daraja holi: *Ro'ziyeva Dilshoda do'kondan* ***besh so'mga*** *turli o'quv qurollari sotib oldi.*

Qisqargan qolipli gaplarda kesim vazifasida keladi: *Kitob* ***hammaga.*** *Bilim* ***ommaga.***

Ko'rinadiki, JK ot turkumida KK UGMsini «oldingi otni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'PK ot turkumida KK UGMsini «oldingi otni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'noni ifodalaydi. O'PK [*-da*] ko'rsatkichiga ega: [*qishloqda*], [*yozda*], [*hovlida*].

O'PKdagi so'zlar uyushib kelganda oldingilarida qo'shimcha tushib qolishi mumkin: ***Na sada daraxtlari osti, na masjidlar, na doim bazm qiziydigan gavjumda*** *biror sharpa eshitasiz.* (J.Abd.)

O'PKgapda:

a) vositali to'ldiruvchi: *Botirda bog'bonlikka mehr bolalikda uyg'ondi.* (N.Saf.).

b) o'rin holi: *Katta-katta ko'chalarda yursin.* (O'.Umar.).

d) payt holi: *O'sha kezlarda Yolqin akam otda g'o'zani kultivatsiya qilar edi.* (P.Qod.).

e) tarz holi: *Qiz horg'in, parishon holda uyga qaytdi.* (Oyb.).

f) maqsad holi: *Biz yangi maktab binosi qurilishi masalasida keldik.* (J.Abd.).

g) kesim: *Olimjonning ikki ko'zi ko'm-ko'k g'o'zalarda.* (Sh.Rash.). *Katta izzatda, kichik xizmatda.* Bunda ham sintaktik qisqaruv yuz bergan.

O'PK gap bo'laklariga xoslanganda anglashiladigan ma'no u birikayotgan so'zning lug'aviy xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, [*ko'cha*] so'zida o'rin ma'nosi bor, shuning uchun (*ko'chalarda*) so'zshakli gapda o'rin holi vazifasida, *o'sha kezlar* birikuvidan payt anglashiladi, shu boisdan bu birikma O'PKda payt holi bo'lib kelgan. Demak, O'PK substansial mohiyatining voqelanishida tajalli ma'noning roli katta.

Kesimlik kategoriyasi. Bog'lama. Kesimlik kategoriyasi ot turkumida o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qiladi. U bu turkumda ikki ko'rinishga ega bo'ladi:

a) hozirgi zamon ko'rinishi;

b) o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi.

Ko'p holda ot turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi.

Bog'lama kesimlik kategoriyasini ot va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so'zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To'liqsiz fe'l [*bo'lmoq*], [*hisoblanmoq*], [*sanalmoq*], [*deyilmoq*] kabi mustaqil fe'l bog'lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining ot turkumidagi hozirgi zamon ko'rinishida quyidagi tusga ega bo'ladi:

*ishchi+**man***	*ishchi +**miz***
*ishchi+**san***	*ishchi +**siz***
*ishchi+**0***	*ishchi +**(lar)***

[*-man*], [*-san*], [*-miz*], [*-0*], [*-lar*] kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo'lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: (*ishchi emasman*), (*ishchi emassan*). Egaga urg'u berilganda, kesimlikning barcha ma'nosi nol shakl orqali ifodalanadi: *Men ishchi* (0). *Men yahudiy* (0) kabi.

O'tgan zamonda kesimlik ma'nosi bog'lama vazifasida keluvchi to'liqsiz fe'llar va bog'lamalashgan so'z bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi:

*ishchi+**edim***	*ishchi +**edik***
*ishchi+**eding***	*ishchi +**edingiz***
*ishchi+**edi***	*ishchi +**edi(lar)***

Bunda ikki shakl (***edi*** va shaxs/son) kesimlikning to'rt tur ma'nosini ifodalaydi. To'liqsiz fe'l zamon, tasdiq, mayl ma'nosini yaxlit yuzaga chiqaradi.

Bo'l fe'li bog'lama vazifasida kelib uch zamonni ham ko'rsatishi mumkin:

ishchi+bo'laman (bo'ldim). Misollar: *Men shu zavodda uch yil ishchi bo'ldim* (o'tgan zamon). *Men shu zavodning tajribali ishchisi bo'laman* (hozirgi zamon). *Sen shu zavodda ishchi bo'lasan* (kelasi zamon). *Sanaladi, hisoblanadi* so'zlari ham bog'lama vazifasini bajarib otga kesimlik kategoriyasini moslaydi.

Sifat

Sifat va uning UGMsi. Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi darajalanuvchi so'z sifat deyiladi: *qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq.*

Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, *Gul — qizil* deganda turg'un (statik) belgi, *Gul qizardi* deganda esa o'zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, *qizg'ish — qizil — qip-qizil.* Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo'q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi.

Shu asosda sifatning UGMsini «asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba'zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kelish» ko'rinishida tiklash mumkin.

Belgi tushunchasi o'z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabini qamrab oladi. Belgining xususiyatiga ko'ra sifat ikkiga bo'linadi: *asliy sifatlar* va *nisbiy sifat.*

Asliy sifat predmetning turg'un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi: [*qizil*], [*sariq*], [*katta*], [*ko'p*], [*oz*].

Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o'rin va harakatga nisbatan ifodalaydi: ***moddiy*** *yordam,* ***siniq*** *piyola,* ***burchakdagi*** *o'tirgich.* Nisbiy sifatda darajalanish, qiyoslanish bo'lmaydi. Lekin u daraja belgisiga ega bo'lgan ravishdan asosan predmet belgisini bildirishi bilan farqlanadi.

Asliy sifatning barchasida daraja shakllari, ayrimida ozaytirma va kuchaytirma shakl bor.

Asliy sifat bildirgan belgining darajasi har xil bo'lishi mumkin. *Daraja kategoriyasi* (DK) sifat ifodalagan belgining shu nuqtayi nazaridan tavsifini beradi.

Sifat LMGlari. Darslik va qo'llanmalarda sifatning 9 ta LMGsi ajratiladi:

1.Xususiyat bildiruvchi sifat. 2.Holat bildiruvchi sifat. 3.Shakl bildiruvchi sifat. 4.Rang-tus bildiruvchi sifat. 5.Maza-ta'm bildiruvchi sifat. 6.Hid bildiruvchi sifat. 7.O'lchov bildiruvchi sifat. 8.O'rin bildiruvchi sifat. 9.Payt bildiruvchi sifat.

Quyida ularning har birini alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

Xususiyat bildiruvchi sifat narsa/mavjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadi: [*yoqimtoy*], [*badjahl*], [*muloyim*], [*dilkash*], [*yaxshi*], [*yomon*], [*loqayd*] kabi. Xarakter-xususiyat ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Holat bildiruvchi sifat narsa/mavjudotning holat yoki vaziyatini turg'un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifat o'z o'rnida yana ichki guruhlarga bo'linadi:

1) tabiiy holat bildiruvchi sifat: [*go'zal*], [*mo'min*], [*o'ktam*], [*cho'loq*], [*bukri*];

2) jismoniy holat bildiruvchi sifat: [*bardam*], [*baquvvat*], [*tetik*], [*yosh*];

3) ruhiy holat bildiruvchi sifat: [*xafa*], [*g'amgin*], [*ma'yus*], [*xursand*], [*shod*];

4) iqtisodiy holat bildiruvchi sifat: [*boy*], [*badavlat*], [*kambag'al*], [*nochor*];

5) harorat holatini bildiruvchi sifat: [*iliq*], [*salqin*], [*sovuq*], [*issiq*];

6) tozalik holatini bildiruvchi sifat: [*toza*], [*ozoda*], [*kir*], [*musaffo*], [*isqirt*];

7) eskilik, yangilik holatini bildiruvchi sifat: [*yangi*], [*eski*], [*ko'hna*], [*juldur*];

8) ho'l-quruqlik holatini bildiruvchi sifat: [*ho'l*], [*quruq*], [*nam*], [*namxush*];

9) tinch va notinch holatni bildiruvchi sifat: [*tinch*], [*jim*], [*jimjit*], [*sokin*], [*osuda*], [*osoyishta*], [*bezovta*];

10) yetilganlik holatini bildiruvchi sifat: [*xom*], [*pishiq*], [*g'o'r*], [*puxta*].

Shakl bildiruvchi sifat. Bu turdagi sifat narsa/predmetning tashqi ko'rinishini ifodalaydi: [*novcha*], [*yassi*], [*uzunchoq*], [*dumaloq*], [*yapaloq*], [*aylana*].

Rang-tus bildiruvchi sifat: [*oq*], [*qora*], [*qizil*], [*pushti*], [*sariq*], [*zangor*].

Maza-ta'm bildiruvchi sifat: [*shirin*], [*achchiq*], [*nordon*], [*taxir*], [*sho'r*].

Hid bildiruvchi sifat: [*xushbo'y*], [*badbo'y*], [*qo'lansa*].

O'lchov bildiruvchi sifat: [*keng*], [*tor*], [*uzun*], [*yaqin*], [*katta*], [*og'ir*].

O'rin bildiruvchi sifat: [*ichki*], [*tashqi*], [*devoriy*], [*qishloqi*].

Payt bildiruvchi sifat: [*kuzgi*], [*yozgi*], [*qishki*], [*chillaki*], [*ertapishar*].

Sifat derivatsiyasi

Sifatlar ikki usul bilan yasaladi: *affiksatsiya* va *kompozitsiya*.

Affiksatsiya usuli. O'zbek tilida sifat yasovchi affiksal derivatsion qolip anchagina. Ularni birma-bir sanab o'tamiz.

1. [**ot + -li = 1) asosdan anglashilgan narsa/predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan narsa/predmetga me'yordan ortiq egalik belgisini bildiruvchi sifat;**] (1) [*rasmli*], [*do'ppili*], [*masxarali*], [*gavdali*]; *2)* [*aqlli*], [*gavdali*], [*kuchli*]), [**harakat nomi + -li = narsa/predmetning fe'ldan anglashilgan ish-harakat uchun juda mosligi, bopligini bildiruvchi sifat**] ([*o'tirishli*], [*yeyishli*], [*ichishli*]).

2. [**ot +- dor= 1) asosdan anglashilgan narsa-predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqligini bildiruvchi sifat**] (1) [*aloqador*], [*aybdor*], [*manfaatdor*]; 2) [*mahsuldor*], [*nasldor*], [*to'shdor*]).

3. [**ser + ot = asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqligini bildiruvchi sifat**] ([*sersoqol*], [*sersuv*], [*sergo'sht*], [*sersomon*]).

4. [**be + ot = asosdan anglashilgan narsaning yo'q ekanligini bildiruvchi sifat**] ([*bemajol*], [*bedin*], [*beg'ubor*]).

5. [**ba + ot = asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqligini bildiruvchi sifat**] ([*basavlat*], [*baquvvat*], [*sersavlat*]).

6. [**no + ot = 1) asosdan anglashilgan narsaga ega emaslikni bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan belgiga qarama-qarshi belgini bildiruvchi sifat)**] (1) [*noumid*], [*noinsof*], [*noo'rin*]; *2)* [*nomard*], [*noma'lum*], [*nomunosib*]).

7. [**sifat + -chan = asosdan anglashilgan xususiyatga moyillikni bildiruvchi sifat**] ([*kurashchan*], [*yashovchan*], [*unutuvchan*]).

8. [**fe'l + -choq/chiq/chak = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat**] (*erinchoq*, [*kuyinchak*], [*tortinchoq*], [*qizg'anchiq*]).

9. [**fe'l + -qoq/g'oq = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat**] ([*uyushqoq*], [*tirishqoq*], [*yopishqoq*]).

10. [**fe'l + -ag'on = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat**] ([*topag'on*], [*chopag'on*], [*qopag'on*]).

11. **[fe'l +-mon = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat]** ([*toparmon*], [*bilarmon*], [*yeyarmon*]).

12. **[fe'l/taqlid + -(a) ki(qi) = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat]** ([*shartaki*], [*jirtaki*], [*yig'loqi*]).

13. **[fe'l + -k/-q/-g' =asosdan anglashilgan harakat natijasi sifatidagi holat belgisini bildiruvchi sifat]** ([*egik*], [*buzuq*], [*yorug'*]).

14. **[fe'l + -kin/qin/g'in/g'un = asosdan anglashilgan harakatni belgiga aylantirish]** ([*tushkun*], [*turg'un*], [*ozg'in/so'lg'in*]).

15. **[fe'l + -ma = 1) predmetning asosdan anglashilgan harakat usuli bilan yuzaga kelish belgisini bildiruvchi sifat; 2) fe'ldan anglashilgan harakat predmetning odatdagi, unga xos belgisi ekanligini bildiruvchi sifat]** *1)* [*qovurma*], [*ag'darma*], [*qisqartma*], [*ivitma*], [*buyurtma*]; *2)* [*ko'chma*], [*burama*], [*og'ma*], [*sochma*]).

16. **[fe'l + -(a)rli = shaxs/predmetning asosdan anglashilgan harakatning bajarilishiga oid belgisini bildiruvchi sifat]** ([*arzirli*], [*achinarli*], [*zerikarli*], [*maqtarli*], [*ajablanarli*], [*yetarli*], [*tushunarli*]).

17. **[taqlid + -ildoq = asosdan anglashilgan belgiga ortiq darajada egalikni bildiruvchi sifat]** ([*chiyildoq*], [*bijildoq*], [*dirildoq*], [*akildoq*], [*likildoq*], [*po'rsildoq*]).

18. **[fe'l + -ch = asosdan anglashilgan harakatga bog'liq belgini bildiruvchi sifat]** ([*tinch*], [*jirkanch*]).

19. **[ot + -iy/viy =1) predmetning asosdan anglashilgan narsa/hodisaga aloqadorlik belgisini bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan tushunchaga egalik belgisini bildiruvchi sifat]** *1)* [*ilmiy*], [*shaxsiy*], [*imloviy*]; *2)* [*taxminiy*], [*aqliy*], [*ommaviy*]).

20. **[ot/ravish + -gi/ki/qi = predmetning asosdan anglashilgan joy yoki vaqtga ko'ra beligisini bildiruvchi sifat]** ([*avvalgi*], [*hozirgi*], [*tonggi*], [*tungi*], [*kechki*], [*ichki*]).

21. **[ot + -i = shaxs yoki predmetning millat/vaqt/joyga mansubligini bildiruvchi sifat]** ([*qozoqi*], [*qishloqi*], [*bahori*]).

22. **[ot/sifat+-cha = predmetning millat/joy/miqdor/xususiyat kabilarga ko'ra belgisini bildiruvchi sifat]** ([*o'zbekcha*], [*farg'onacha*], [*ortiqcha*], [*erkakcha*]).

23. **[sifat + -namo = biror shaxsning asos bildirgan xarakter-xususiyat belgisiga ega ekanligini bildiruvchi sifat]** ([*darveshnamo*], [*avliyonamo*], [*majnunnamo*]).

24. **[ot + -simon = asosdan anglashilgan narsaga o'xshashlik belgisini bildiruvchi sifat]** ([*sharsimon*], [*kumushsimon*], [*odamsimon*]).

25. **[ot + -parvar = asosdan anglashilgan narsani sevishni bildiruvchi sifat]** ([*xalqparvar*], [*insonparvar*], [*vatanparvar*]).

Ko'rib o'tilganlardan tashqari [*-aki*] ([*dahanaki*], [*zo'raki*]), [*bad-*] ([*badaxloq*], [*badhazm*], [*badbashara*]), [*-shumul*] ([*olamshumul*], [*jahonshumul*]), [*-chil*] ([*dardchil*], [*izchil*]), [*-kay*] ([*kungay*], [*terskay*]), [*-don*] ([*gapdon*], [*bilimdon*]), [*-msiq*] ([*qarimsiq*], [*achimsiq*]), [*-kash*] ([*dilkash*], [*hazilkash*]), [*-m*] ([*qaram*]), [*-lom*] ([*sog'lom*]), [*-qa*] ([*qisqa*]), [*-bop*] ([*qishbop*], [*palovbop*]), [*xush-*] ([*xushbichim*], [*xushhavo*]) affiksli qoliplar asosida ham sifat yasalgan. Bu affiksli qoliplar unumsiz bo'lganligi uchun ularning mazmuniy tomonini mavjud hosilalaridan umumlashtirib chiqarib bo'lmaydi.

Kompozitsiya usuli. Kompozitsiya usuli bilan qo'shma va juft sifat hosil bo'ladi.

Qo'shma sifat. Qo'shma sifat quyidagi qolip asosida hosil bo'ladi:

1. **[Ot+ot]**: [*devsifat*], [*devqomat*], [*dilorom*], [*dilozor*], [*kafangado*], [*otashnafas*], [*sohibjamol*].

2. **[Sifat+ot]**: [*xomkalla*], [*sho'rpeshona*], [*kaltafahm*], [*shirinsuxan*], [*sho'rtumshuq*], [*balandparvoz*].

3. **[Ot+sifat]**: [*yoqavayron*], [*jig'ibiyron*], [*tepakal*], [*xonavayron*], [*xudobezor*], [*otabezori*].

4. **[Ravish+ot]**: [*hozirjavob*], [*kamgap*], [*kamsuxan*], [*kamsuqum*], [*kamqon*], [*kamxarj*].

5. **[Ravish+fe'l]**: [*tezpishar*], [*ertapishar*], [*cho'rtkesar*].

6. **[Fe'l+ fe'l]**: [*yebto'ymas*].

7. **[Olmosh+ot]**: [*o'zboshimcha*].

8. **[Ot+fe'l]**: [*tilyog'lama*], [*gadoytopmas*], [*tinchliksevar*].

9. **[Olmosh+sifat]**: [*o'zbilarmon*].

10. **[Son+ot]**: [*ikkiyuzlamachi*], [*qirqyamoq*].

Juft sifat. Juft sifat tarkibidagi so'zning xususiyatiga ko'ra quyidagi turga bo'linadi:

I. Har ikki qismi mustaqil holda ishlatiladigan juft sifat:

1. Qismlari sinonim: [*aql-hushli*], [*pishiq-puxta*], [*telbateskari*], [*sog'-salomat*], [*yakka-yolg'iz*].

2. Qismlari antonim: [*achchiq-chuchuk*], [*baland-past*], [*vayron-obod*], [*issiq-sovuq*].

3. Qismlari ma'noviy yaqin: [*mo'min-qobil*], [*och-yalang'och*], [*soya-salqin*], [*xor-zor*], [*ezma-churuk*].

II. Bir qismi mustaqil holda ishlatiladigan juft sifat: [*aralash-quralash*], [*mast-alast*], [*ilma-teshik*], [*tuppa-tuzuk*], [*xom-xatala*], [*entak-tentak*], [*qari-quri*], [*qora-qura*], [*yamoq-yasqoq*], [*harom-harish*].

III. Har ikkala qismi mustaqil holda ishlatilmaydigan sifat: [*aji-buji*], [*aloq-chaloq*], [*poyintar-soyintar*], [*uvali-juvali*], [*o'poq-so'poq*], [*ilang-bilang*].

Boshqa turkumga xos so'z konversiya yo'li bilan sifatga o'tishi mumkin. Bu sifatlashuv deyiladi. Sifatlashuv tarixiy jarayon bo'lib, boshqa so'z turkumi davr o'tishi bilan sifatga aylanib boradi. Sifatlashuv hodisasi lisoniy tabiatga ega:

1. Juft va takroriy otning sifatlashuvi: [*mosh-guruch*], [*yo'l-yo'l*], [*rang-barang*], [*xilma-xil*].

2. O'zak holidagi fe'lning sifatlashuvi: [*daydi*], [*qari*], [*chalkash*], [*yanglish*], [*tutash*], [*aralash*].

3. Harakat nomi shaklidagi juft fe'l: [*olmoq-solmoq*].

4. Kesimlik shaklidagi fe'l: [*oldi-qochdi*], [*kuydi-pishdi*], [*tug'di-bitdi*], [*ilikuzildi*], [*ichakuzdi*], [*supraqoqdi*]

Sifatning tuzilishiga ko'ra turlari. Sifat tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* bo'ladi. Sodda sifatlar bir o'zakli bo'ladi: *oq, yozgi, aqlli, beg'ubor, tor.* Murakkab sifat o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft sifat*; b) *takroriy sifat*; d) *qo'shma sifat.*

Juft sifat ikki sifatning juftlashishidan tashkil topadi: [*oq-qora*], [*yaxshi-yomon*], [*katta-kichik*].

Takroriy sifatda bir o'zak takrorlanadi: [*katta-katta*], [*baland-baland*], [*og'ir-og'ir*].

Qo'shma sifat birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: [*havo rang*], [*ishyoqmas*], [*ertapishar*], [*yoqavayron*], [*o'zbilarmon*].

Eslatma. Juft va qo'shma sifat yasama. Takroriy sifatda shakl yasalishi, qisman leksemalashuv mavjud. U taraqqiyot natijasida yangi ma'no kasb etishi ham mumkin: [*yo'l-yo'l*]. Bunda yangi so'z yasalishi emas, balki so'zshaklning leksemalashuvi kuzatiladi.

Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida

Daraja kategoriyasi (qisq. DK) «sifatda belgi darajasi» UGMsiga ega. Daraja turli (geterogen) shakl yordamida hosil qilinadi: (*chiroyli*) — (*chiroyliroq*) — (*juda chiroyli*).

Asliy sifatda belgining darajasini ifodalashga ko'ra uch daraja ajratiladi:

a) oddiy daraja; b) orttirma daraja; v) ozaytirma daraja.

Oddiy daraja hech qanday vositasiz yuzaga chiqadi. Unda DK UGMsi «belgining ortiq-kamligiga munosabat bildirmaslik» tarzida yuzaga chiqadi: (*yaxshi*), (*qattiq*), (*semiz*), (*keng*), (*baland*), (*to'g'ri*), (*yumshoq*) kabi.

Orttirma daraja belgining me'yoriy holatdan ortiqligi, kuchliligini ifodalab, DK UGMsini «belgining me'yordan ortiqligini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Orttirma daraja maxsus morfologik shaklga ega emas. DK ifodalovchisining geterogenligi ushbu darajada yaqqol ko'zga tashlanadi. Orttirma daraja quyidagi usullar bilan hosil qilinadi:

1. ***Fonetik usul***. Uning bir necha ko'rinishi bor: a) (*qop-qora*), (*yap-yapaloq*), (*dum-dumaloq*); b) urg'uli tovushning cho'zilishi: (*u'zun*), (*bala'nd*), (*chiro'yli*).

2. ***Leksik usul:*** (***juda*** *kuchli*), (***g'oyatda*** *qo'rqinchli*), (***nihoyatda*** *baland*).

Belgining ortiq darajasi analitik shaklda ham ifodalanadi. Bu shakl ikki uzvli, birinchi uzvini chiqish kelishigi shaklida qo'llash orqali hosil qilinadi: (*uzundan uzoq*), (*shirindan shirin*).

Ozaytirma daraja DK UGMsini «belgining me'yordan kamligini ifodalash» ko'rinishida xususiylashtiradi. Bu ma'no ikki usul bilan yuzaga chiqadi:

1. ***Leksik usul:*** (***sal*** *durust*), (***bir oz*** *yaxshi*), (***xiyol*** *ochiq*).
2. ***Morfologik usul:*** (*kattaroq*), (*ko'proq*), (*ozroq*).

Eslatma. Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatda qo'llanuvchi [*-(i)sh*],[*-(i)mtir*] affikslari belgining kuchsiz darajasini bildirmaydi. Masalan, (*oqish*) so'zi oq rangning, (*qoramtir*) so'zi qora rangning kuchsiz darajasi emas, balki oq, qora bo'lmagan, ularga o'xshash bo'lgan rang turlari.

Sifatda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi

Sifat turkumida sintaktik kategoriya keng bo'lmagan voqelanishga ega.

Egalik kategoriyasi. Sifat turkumi EK UGMsini «keyingi sifatni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sifatni oldingi so'zga

bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Quyida sifat turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz.

Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EKdagi so'z QK dagi so'z bilan keladi: *olmaning qizili, odamning aqllisi.*

EKdagi so'z ba'zan ChKdagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: *odamlardan aqllisi.*

EKdagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga o'tib ketadi: *(odamning) yaxshisi.*

EKning birlik va ko'plik shakli qo'llanilishda farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zakka birlik son shakli qo'shilmaydi: *aqllingiz, ko'pimiz.* Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: *nodoni, rangdori.*

Kelishik kategoriyasi. KK sifatda EK bilan birga qo'llanadi.

BKdagi sifat ega vazifasida keladi: 1. *Ukamning **kichigi** — o'qituvchi.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning **kattasi** qo'yilgandi.*

QKdagi sifatda KK UGMsi «sifatni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Inson yalqovining bahonasi ko'p.* (J.Abd.).

TKdagi sifat gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan sifat vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Sifatga obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» TK UGMsining sifat turkumidagi xususiy-lashuvi: *Gulning qizilini ajratdi.*

ChK KK UGMsini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, sifat turkumida esa «oldingi sifatni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

ChKdagi sifatning vazifalari:

a) vositali to'ldiruvchi: *Qarzni odamning yaxshisidan so'rang.* («Saodat».).

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi.* (P.Qod.).

d) sabab holi: *Piyozning achchig'idan ko'zlari qizardi.* (M.Muh.).

JKdagi sifat ish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: *og'iriga, yaqiniga.*

JKdagi sifat gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'lak vazifasida keladi: 1. *Qizning ko'zlarining* ***qorasiga*** *havaslanib boqdi.* 2. *Bola hovuzning* ***to'lasiga*** *yugurdi.*

Ko'rinadiki, JK sifat turkumida KK UGMsini «oldingi sifatni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'PK sifat turkumida KK UGMsini «oldingi sifatni keyingi so'zga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'nolarni ifodalaydi: *Odamning* ***pismig'ida*** *gap ko'p.*

Kesimlik kategoriyasi. Bog'lama. Kesimlik kategoriyasi sifat turkumida ham o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qilib, ikki ko'rinishga ega bo'ladi:

a) hozirgi zamon ko'rinishi;

b) o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi.

Ko'p hollarda sifat turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi.

Bog'lama kesimlik kategoriyasini sifat va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so'zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To'liqsiz fe'l, [*bo'l*], [*hisoblanmoq*], [*sanalmoq*], [*deyilmoq*] kabi mustaqil fe'l sifatda ham bog'lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining sifat turkumidagi hozirgi zamon ko'rinishida quyidagi tusga ega bo'ladi:

*Yoshi kattasi+**man***	*Yoshi kattasi +**miz***
*Yoshi kattasi+**san***	*Yoshi kattasi +**siz***
*Yoshi kattasi+**0***	*Yoshi kattasi +**(lar)***

[*-man*], [*-san*], [*-miz*], [*-0*], [*-lar*] kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo'lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: *Yoshi kattasi emasman, Yoshi kattasi emassan.* Egaga urg'u berilganda, kesimlikning barcha ma'nosi nol shakl orqali ifodalanadi: *Men yoshi kattasi* ([*0*]) kabi.

O'tgan zamonda kesimlik ma'nosi bog'lama vazifasida keluvchi to'liqsiz fe'l va bog'lamalashgan so'zlar bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi.

*Yoshi kattasi+**edim***	*Yoshi kattasi+**edik***
*Yoshi kattasi+**eding***	*Yoshi kattasi+**edingiz***
*Yoshi kattasi+**edi***	*Yoshi kattasi +**edi(lar)***

Bunda ikki shakl (***edi*** va shaxs/son) kesimlikning to'rt tur ma'nosini ifodalaydi. To'liqsiz fe'l zamon, tasdiq, mayl ma'nosini yaxlit yuzaga chiqaradi.

Bo'l fe'li bog'lama vazifasida kelib, uch zamonni ham ko'rsatishi mumkin: *Yoshi kattasi+bo'laman (bo'ldim).* Misollar: *Men shu zavodga ishga kirganlarning eng yoshi bo'ldim* (o'tgan zamon). *Men shu zavod ishchilarining tajribalisi bo'laman* (hozirgi zamon). *Sen shu zavod ishchilarining eng yoshi bo'lasan* (kelasi zamon). *Sanaladi, hisoblanadi* so'zlari ham bog'lama vazifasini bajarib, sifatga kesimlik kategoriyasini moslaydi.

Son

Son va uning UGMsi. «Predmetlarning sanog'i va asosan aniq miqdori uchun ishlatiladigan so'z» — sonning so'z turkumi sifatidagi UGMsi. Sanaladigan predmet uchun ishlatilganda ularning sanoq va miqdorini anglatadi. Son so'z turkumi sifatida predmet ifodalovchisi bilan munosabatga kirishib, shu jihati bilan sifat va ravish turkumiga yaqin turadi. Biroq aniq miqdor bildiruvchi bu so'zlar predmetning noaniq miqdorini bildiruvchi [*oz*], [*ko'p*], [*mo'l*] kabi sifatdan ajralib turadi. Sifat raqam bilan ifodalanmaydi. Son esa noaniq miqdorni bildirganda ham raqam bilan beriladi: *uch-to'rt kun* (*3-4 kun*). Bu esa ular anglatgan miqdor noaniqligi ham nisbiy ekanligidan dalolat beradi.

Songa oid so'z matematik son ma'nosida esa faqat sonning nomini bildiradi. Demak, predmet nomini anglatuvchi so'z bilan munosabatda namoyon bo'ladigan ma'nosi bilan son so'z turkumini tashkil etadi.

Sonning grammatik xususiyati. Son morfologik va sintaktik xususiyatining o'ziga xosligi bilan boshqa turkumlardan ajralib turadi.

1. Sonda o'ziga xos morfologik ifodasiga ega bo'lgan quyidagi grammatik xususiyat mavjud:

— sanoq songa [*-(i)nchi*] affiksining qo'shilishidan predmetning tartibiga ko'ra munosabatini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *birinchi, o'ninchi.*

— sanoq songa [*-ov*], [*-ala*] affiksining qo'shilishidan predmetning guruhini, to'dasini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: (*ikkovi*), (*uchalasi*).

— sanoq songa [*-ta+cha*], [*-lab*] affiksining qo'shilishidan predmetning taxminiy hisobini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: (*o'ntacha*), (*yuzlab*).

– sanoq songa [*-ta+dan*] affiksining qo'shilishidan predmetning taqsimini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: (*ikkitadan*), (*o'ntadan*).

2. Hisob so'zi ([*juft*], [*gramm*], [*dona*], [*metr*]) bilan qo'llanilishi uning o'ziga xosligini belgilovchi muhim belgidan biri.

3. Sintaktik kategoriya cheklangan voqelanishga ega.

4. Sonlar yasalish xususiyatiga ega emas. Biroq sondan boshqa so'z turkumi yasaladi: [*birlashmoq*], [*ikkilanmoq*] (fe'l), [*beshlik*] (ot) kabi.

Son quyidagi sintaktik xususiyatga ega.

5. Son otdan oldin kelib, asosan, aniqlovchi vazifasini bajaradi.

6. Sonlar cheklangan darajada bo'lsa-da, gapning barcha bo'lagi vazifasida kela oladi.

7. Son ot oldida aniqlovchi vazifasida kelganda, u bilan birga ajralmas birikmani vujudga keltiradi: *ikki talaba kelmadi* birikuvida *ikki talaba* ajralmas birikma bo'lib, bitta bo'lak, *ikki* so'zi esa bo'lakning bo'lagi vazifasida kelgan.

8. Son va sifatni aniqlovchi sifatida qo'llashga to'g'ri kelganda avval son, keyin sifat joylashadi: *uchta a'lochi talaba, beshta ilg'or terimchi.*

Sonning LMT va LMGlari hamda ularga xos lug'aviy shakl hosil qiluvchi vositalar. Son ma'no va grammatik xususiyatiga ko'ra dastlab ikki LMTga bo'linadi: «miqdor son» LMTsi va «tartib son» LMTsi. «Miqdor son» LMTsi predmetning miqdorini, «tartib son» LMTsi esa tartibi, sirasiga ko'ra xususiyatini bildiradi.

Bu LMTlar o'zaro quyidagi munosabatga ega:

– miqdor son ichki LMGlarga ega. Tartib son LMTsi bir vaqtning o'zida LMG ham;

– miqdor sonlar hisob so'zi bilan qo'llana oladi, tartib son esa bunday xususiyatga ega emas;

– miqdor sonlar juftlasha oladi, tartib sonda esa bunday xususiyat yo'q;

– miqdor sonlarga (*beshdan bir*), (*uchga bir*) kabi birikmali qo'llanish xos, tartib songa esa xos emas;

– miqdor sonlar ko'plik shaklini olganda taxminiy miqdor bildiradi (*uchlarda keldi*), tartib son esa bunday holda otlashib ketadi: *birinchilar – birinchi odamlar.*

«Tartib son» LMGsi. Tartib son predmetning aniq tartibini, ketma-ketlikdagi o'rnini bildirish, shuningdek, boshqasidan farqini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Tartib son sanoq songa [*-(i)nchi*] affiksining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

[*-(i)nchi*] affiksi o'rnida ba'zan [*-lamchi*] shakli ham ishlatiladi. Masalan: ***Birlamchi**, g'alamis odamlarning gapiga quloq solmanglar, **ikkilamchi**, o'zlaring bilasizlar, mardikorlikka ketganlar ko'pi bilan olti-yetti oylarda qaytishadi*...(A.Qah.).

Tartib son fe'l bilan bog'langanda miqdorni ham anglatadi: *Bu gapni birinchi eshitishim.* (S.Ahm.).

Tartib sonlar oy kunining tartibini bildirganda vaqt ifodalovchi otlardan oldin keladi: *ikkinchi aprel, yigirma uchinchi aprel, o'n sakkizinchi mart, yigirmanchi noyabr* kabi. Bu rus tilining ta'siri, albatta. Sof o'zbekcha oy kuni hisobi *aprelning ikkinchi kuni, noyabrning yigirmanchi kuni* tarzida bo'ladi.

Tartib sonning otlashgan va otlashmagan holatini farqlash lozim. *Odamlarning birinchisi, o'quvchilarning beshinchisi* birikuvida sondagi egalik qo'shimchasidan oldin tushirilgan otni qo'yib bo'lmaydi. Demak, bu son otlashmagan. *Birinchi kitobni sen olasan, ikkinchisini men* gapida *ikkinchi* tartib soni otlashgan.

«Miqdor son» LMTsi va uning LMGlari. Miqdor son predmetni sanash, donalash, taqsimlab yoki taxminlab ko'rsatish uchun ishlatiladi. Uning quyidagi LMGlari ajratiladi: «sanoq son» LMG, «dona son» LMG, «chama son» LMG, «jamlovchi son» LMG, «taqsim son» LMG.

«Sanoq son» LMG. Sanoq son predmetni sanash, donalab ko'rsatish uchun ishlatiladi: *Xatni o'qiyotganimda, kampir **ikki** qo'lini tizzasiga tirab, jimgina quloq solib o'tirdi.* (S.Ahm.). ***Uch** do'st yarim tunga qadar suhbatlashib o'tirishdi.*(Yo.Shuk.).

Sanoq son morfologik ko'rsatkichga ega emas.

Sanoq son ot bilan sintaktik munosabatga kirishganda mustaqil va nomustaqil sintaktik mavqeda bo'la oladi. Mustaqil mavqeda aniqlanmishdan ayricha so'roqqa javob bo'lib, alohida bo'lak maqomiga ega bo'ladi: *Besh* (aniql.) *kishi* (ega) *so'zladi* (kesim). Nomustaqil mavqeda tarkibiy qism sifatida yuzaga chiqadi: *Besh kishi* (ega) *kelishdi* (kesim).

Sanoq son qo'shma sifat hosil qilishi mumkin: *besh yashar bola, uch chaqirimli yo'l.*

Sanoq son sirasida *bir* so'zi qo'llanish va vazifasi jihatidan qator o'ziga xoslikka ega.

1. «Miqdor» ma'nosi: *Yana **bir** gapni ayting.* (S.Nur.).
2. «Noaniqlik» ma'nosi: ***Bir** o'zbek yigiti so'zlay boshladi.* (Oyb.).

3. «Harakat belgisi» ma'nosi: *Mashina **bir** lapanglab, ilgariladi.* (S.Ahm.).

4. «Mo'ljal» ma'nosi: *Ertaga **bir** dam oling.*

5. «Bir xil» ma'nosi: *Tiling bilan ko'nglingni **bir** tut.*

6. «Kuchaytirish» ma'nosi: *Yomg'ir **bir** yog'di.*

7. «Navbatma-navbat» ma'nosi: *Bola **bir** bizga qaraydi, **bir** otasiga qaraydi.*

8. «O'xshashlik» ma'nosi: *U mening **birim**.*

9. JK da «birgalik» ma'noli ravishga o'tadi: *birga ishlamoq.*

10. ChK da «to'satdan» ma'noli ravishga o'tadi: ***birdan** qichqirib yubordi.*

11. [*-day*] shakli bilan ravish bo'lib keladi: ***birday**.*

12. [*-ov*] affiksini olib «gumon» ma'noli olmosh: ***Birov** keldi.*

13. [*-or/-on*] affiksini olib keladi: *birorta, bironta.*

14. [*-gina*] yuklamasi bilan «chegaralash» ma'nosi: ***birgina**.*

15. Fonetik o'zgargan [*ham*] yuklamasi bilan «kuchaytirish» ma'nosi: ***biram**.*

16. [*-oq*] elementi bilan bog'lovchi vazifasida: ***biroq**.*

Shuningdek, [*bir*] so'zi [*rov*], [*pas*], [*nafas*], [*zum*], [*payt*], [*yil*], [*vaqt*], [*oy*], [*kun*] ([*birrov*], [*bir pas*], [*bir nafas*]), [*necha*], [*muncha*], [*sidirg'a*], [*oz*], [*muncha*], [*qadar*] ([*bir necha*], [*bir oz*], [*bir muncha*]), [*nima*], [*narsa*] ((*bir nima*), (*bir narsa*)), [*qator*], [*talay*] ((*bir qator*), (*bir talay*)), [*xil*] (*bir xil*), [*ba'zi*], [*har*], ((*ba'zi bir*), (*har bir*)) so'zi bilan birga kela oladi.

Bir so'zi takrorlanib kela oladi: (*bir-bir*) («tartib bilan» ma'nosida), [*birma-bir*] («batafsil» ma'nosida), [*birdan-bir*] («yagona» ma'nosida), (*bir-biridan*) («o'zaro» ma'nosida), (*bir-biriga*) («biri ikkinchisiga» ma'nosida).

O'zbek tilida [*bir*] so'zi [*ilk*], [*yakka*], [*yolg'iz*], [*yagona*] so'zi bilan ma'nodoshlik kasb etadi.

Sanoq sonning hisob so'zi bilan qo'llanilishi. Sanoq son o'lchov birligini ifodalovchi so'z bilan birga qo'llanilishi ham mumkin: [*gektar*], [*tanob*], [*tosh*], [*bosh*], [*tup*] kabi. Bunday so'z *hisob so'zi* (numerativ) deyiladi. Hisob so'zi, odatda, ot turkumidan bo'ladi va alohida LMGni tashkil etadi.

Hisob so'zi o'zi birikkan son bilan birga ajralmas sintaktik birlikni tashkil etib, gapda bir sintaktik pozitsiyadan o'rin oladi.

Hisob so'zi qadimdan o'zbek tilida faol qo'llangan. Bugungi kunda ularning ayrimi butunlay iste'moldan chiqib ketgan yoki juda kam ishlatiladi. Ularga [*qadoq*], [*jon*], [*tanob*], [*gaz*], [*sarjin*],

[*paysa*], [*taxta*], [*enlik*]. [*so'lkavoy*], [*tosh*], [*pud*], [*mahal*], [*yumaloq*] (choy), *mehnat kuni* (uch mehnat kuni).

[*Gektar*], [*gradus*], [*kilovatt-soat*], [*kubometr*], [*metr*] *(santimetr, millimetr)*, [*minut*], [*par*], [*pachka*], [*sotix*], [*sentner*], [*mehnat kuni*] kabi hisob so'zi o'zbek tiliga XX asrda kirib kelgan.

Hisob so'zi tizimi ochiq sistema.

Hisob so'zi LMG si quyidagi mikrosistemalardan tashkil topadi:

1. Predmetni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*bosh*], [*nafar*], [*dona*], [*nusxa*], [*tup*], [*jon*].

2. Predmetni butun yoki to'daning qismi sifatida hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*burda*], [*varaq*], [*luqma*], [*parcha*], [*poy*], [*siqim*], [*tilim*], [*tomchi*], [*to'g'ram*], [*chaqmoq*], [*chimdim*], [*shingil*], [*qultum*].

3. Predmetni to'dalab, guruhlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*bog'*], [*gala*], [*guruh*], [*dasta*], [*to'da*], [*to'p*], [*shoda*], [*quchoq*], [*hovuch*].

4. Predmetni juftlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*juft*], *(par)*.

5. Predmetning og'irlik o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*gramm*], [*kilogramm*], [*litr*], [*pud*], [*tonna*], [*sentner*], [*misqol*], [*qadoq*], [*botmon*], [*kosa*], [*piyola*], [*qop*], [*qoshiq*], [*quti*].

6. Predmetning uzunlik va masofa o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*qadam*], [*qarich*], [*quloch*], [*metr*], [*tosh*], [*chaqirim*], [*kilometr*].

7. Yosh hisobini bildirish uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*yashar*], [*yoshdagi*], [*yoshli*].

8. Vaqt o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*asr*], [*yil*], [*kun*], [*kecha-kunduz*], [*oy*], [*hafta*], [*daqiqa*], [*soniya*].

9. Qiymat o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*so'm*], [*tiyin*], [*miri*], [*paqir*], [*dinor*], [*dollar*], [*evro*], [*rubl*].

10. Harakat miqdorini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi: [*marta*], [*karra*], [*qatla*], [*daf'a*], [*sidra*].

«Dona son» LMG. Dona son [*-ta*] qo'shimchasi va [*dona*], [*nafar*], [*bosh*] kabi hisob so'zi bilan hosil qilinadi. [*-ta*] qo'shimchali dona son predmetning miqdorini donalab ko'rsatish uchun ishlatiladi: ***Bitta*** *bargni uzib Zokir otaga uzatdi.* (A.Qah.).

Bu affiks har qanday son o'zagiga qo'shilib kela oladi: (*to'qqizta*), (*o'n to'rtta*), (*uch yuzta*), (*yetti yuzta*). Undan keyin ko'plik shakli qo'shilmaydi.

Egalik affiksining dona son qo'shilishidagi o'ziga xoslik shundaki, bunda III shaxs birlik ((*bittasi*), (*oltmish oltitasi*)) va boshqa shaxsning ko'plik (*sizning beshtangiz, bizning o'ntamiz*) shakli faol.

Dona son fe'l oldida kelganda tarz ma'nosini ifodalab, gapda hol bo'lib keladi: *Men **bitta** gapiraman.* Yuklama olib «chegaralab, ayirib, donalab, kamaytirib ko'rsatish» ma'nosini ham ifodalaydi: (*to'rttagina*), (*uchtagina*).

Dona son ko'rsatkichi [*nafar*], [*bosh*], [*jon*], [*dona*] so'zi bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi: *bitta — bir dona, o'nta — o'n nafar, beshta — besh jon* kabi.

«Chama son» LMG. Chama son [*-tacha*], [*-lab*], [*-larcha*] qo'shimchasi, sonning juft shakli, [*taxminan*], [*qariyb*], [*taqriban*], [*chamasi*], [*yaqin*], [*kamida*], [*ortiq*]/*mo'l(roq)* kabi ravish va boshqa turkum so'zi orqali hosil qilinadi: *o'nta ishchi, millionlab yurtdoshlar, o'nlarcha mashina, soat o'n birlar, uch-to'rt kun, taxminan o'nta, yuzga yaqin, kamida besh mingta, sakson besh mingdan ortiqroq.*

Hisob so'zi bilan kelgan son [*-cha*] qo'shimchasi bilan chama ma'nosini beradi: *uch yilcha burun, besh kilometrcha.*

«Jamlovchi son» LMG. Jamlovchi son bir turdagi predmetning miqdoriy yig'indisini ifodalaydi va *sakkiz* sonidan quyi turuvchi songa qo'shiladi. Ular quyidagicha hosil qilinadi:

1) [*ikki*], [*uch*], [*to'rt*], [*besh*], [*olti*], [*yetti*] soniga [*-ov/-ovlon*] affiksi qo'shiladi: (*ikkov(lon)*), (*uchov(lon)*), (*to'rtov(lon)*), (*beshov(lon)*), (*oltov(lon)*), (*yetov(lon)*) (Bu shaklli son haqida so'z turkumlarining ko'chishi muammosi haqida fikr bildirilgan edi). Jamlovchi son EKda kelishi mumkin: (*beshovimiz*), (*ikkovi*). Bu hodisa otlashuv sanalmaydi.

2) [*ikki*], [*uch*], [*to'rt*] so'zi [*-ala*] qo'shimchasini olib jamlash ma'nosini ifodalaydi: (*ikkala*), (*uchala*), (*to'rtala*), (*beshala*).

«Taqsim son» LMG. Taqsim son LMG [*-tadan*] lug'aviy shakli orqali hosil qilinadi: (*bittadan*), (*o'ntadan*). Taqsim son gapda ot yoki fe'l oldidan kelishi mumkin: *o'ntadan olma, beshtadan oldi.*

Sonning butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra turi. Son butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1) butun son;
2) kasr son;
3) aralash son.

Butun son narsa-miqdori yoki sanog'ini uning butun holatida ifodalaydi: [*bir*], [*yuz*], [*ikki ming*].

Kasr son butunning bo'lagini, ulushini ifodalaydi: (*ikkidan bir*), (*chorak*), (*yarim*).

Aralash son butun va kasr sonning birligidan tashkil topadi: (*bir butun uchdan ikki*).

Sonning butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra turlarga bo'linishini LMGga ajratishdan farqlash lozim.

Aloqa-munosabat kategoriyalarning son turkumida voqelanishi. Son cheklanmagan muchalanuvchanlikka (gap bo'lagi vazifasida kelishga) ega, ya'ni u istalgan gap bo'lagi vazifasida kela oladi:

1. Kesim: *Bu xotinning joni **bitta** emas, balki **mingta**.* (A.Qah.).
2. Ega: *Dushmanning **yuz birinchisi** qoldi.* (A.Qah.).
3. Hol: *Samarqandni **bir necha** marta ko'rganman. U marraga **birinchi** yetib keldi.*
4. Aniqlovchi: *Bir chetda gulzor oralab **ikkita** chiroyli qiz gul terib yuribdi.* (Oyb.).
5. To'ldiruvchi: *Jurnalning **birinchisini** topdim.*

Shunga muvofiq, son turkumi KK, EK va kesimlik kategoriyasini o'z doirasida voqelantiradi.

Egalik kategoriyasi. Son turkumi EK UGMsini «keyingi sonni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sonni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Quyida son turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz.

Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EKdagi so'z QKdagi so'z bilan keladi: *olmaning beshtasi, odamlarning o'ntasi.*

EKdagi so'z ba'zan ChKdagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: *odamlardan uchtasi.*

EKning birlik va ko'plik shakllari qo'llanilishida farq bor. Ko'pincha, miqdor bildiruvchi o'zaklarga birlik son shakli qo'shilmaydi: (*beshtangiz*), (*ikkovimiz*). Bu jihatdan Sh shaxs egalik affiksi farqlanadi: (*biri*), (*oltovi*).

Kelishik kategoriyasi. KK sonda EK bilan birga qo'llanadi.

BK dagi son ega vazifasida keladi: 1. *Daftarning **uchtasi** menda.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning **ikkitasi** qo'yilgandi.*

QKdagi sonda KK UGMsi «sonni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Sigirning ikkitasi**ning** suti ko'p.*

TKdagi son gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan son vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Songa obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» TK UGMsining son turkumidagi xususiylashuvidir: *Gulning uchtasi**ni** ajratdi.*

ChK KK UGMsini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, son turkumida esa «oldingi sonni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

ChKdagi sonning vazifalari:

a) vositali to'ldiruvchi: *Qarzni odamning ikkinchisi**dan** so'rang.*

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonaning birinchisi**dan** pianino ovozi eshitilmoqda edi.*

JKdagi son ish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: *birinchisiga, uchoviga.*

JKdagi son gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklar vazifasida keladi: 1. *Qo'zilarining **uchoviga** havaslanib boqdi.* 2. *Bola mashinaning **birinchisiga** yugurdi.*

Ko'rinadiki, JK son turkumida KK UGMsini «oldingi sonni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'PK son turkumida KK UGMsini «oldingi sonni keyingi so'zga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'nolarni ifodalaydi: *Bizning beshovimizda chora yo'q.*

Kesimlik kategoriyasi. Bog'lama. Kesimlik kategoriyasi son turkumida ham o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qilib, ikki ko'rinishga ega bo'ladi: a) hozirgi zamon ko'rinishi; b) o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi. Ko'p hollarda son turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi.

Bog'lama kesimlik kategoriyasini son va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so'zlarda yuzaga chiqaruvchi vosita. To'liqsiz fe'l, [*bo'l*], [*hisoblanmoq*], [*sanalmoq*], [*deyilmoq*] kabi mustaqil fe'llar sonlarda ham bog'lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining son turkumidagi hozirgi zamon ko'rinishida quyidagi tusga ega bo'ladi:

Birinchisi +***man***	*Birinchisi*+***miz***
Birinchisi +***san***	*Birinchisi*+***siz***
Birinchisi +***0***	*Birinchisi*+***(lar)***

[*-man*], [*-san*], [*-miz*], [*-0*], [*-lar*] kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo'lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: ***Birinchisi emasman, Birinchisi emassan***. Egaga urg'u berilganda, kesimlikning barcha ma'nolari nol shakl orqali ifodalanadi: *Men **birinchisi***(0) kabi.

O'tgan zamonda kesimlik ma'nosi bog'lama vazifasida keluvchi to'liqsiz fe'l va bog'lamalashgan so'z bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi.

Birinchisi +***edim***	*Birinchisi* +***edik***
Birinchisi +***eding***	*Birinchisi* +***edingiz***
Birinchisi +***edi***	*Birinchisi* +***edi(lar)***

Bunda ikki shakl ([*edi*] va shaxs/son) kesimlikning to'rt tip ma'nosini ifodalaydi. To'liqsiz fe'l zamon, tasdiq, mayl ma'nosini yaxlit yuzaga chiqaradi.

[*Bo'l*] fe'li bog'lama vazifasida kelib uch zamonni ham ko'rsatishi mumkin: *birinchisi + **bo'laman/bo'ldim***. Misollar: *Men shu zavodga ishga kirganlarning eng birinchisi **bo'ldim*** (o'tgan zamon). *Men shu zavod ishchilarining birinchisi **bo'laman*** (hozirgi zamon). *Sen shu zavod ishchilarning eng birinchisi **bo'lasan*** (kelasi zamon). *Sanaladi, hisoblanadi* so'zlari ham bog'lama vazifasini bajarib, songa kesimlik kategoriyasini moslaydi.

Sonning tuzilishiga ko'ra turlari. Son tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* bo'ladi. Sodda son bir o'zakli bo'ladi: [*bir*], [*besh*], [*ming*], [*yarim*]. Murakkab son o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft sonlar*; b) *takroriy sonlar*; d) *qo'shma son*.

Juft son ikki sonning juftlashishidan tashkil topadi: [*uch-to'rt*], [*besh-olti*].

Takroriy sonda bir o'zak takrorlanadi: [*bitta-bitta*], [*uchta-uchta*], [*beshta-beshta*].

Qo'shma son birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: [*o'n besh*], [*bir ming olti yuz*], [*uch butun beshdan bir*], [*bir yarim*].

Ravish

Ravish va uning UGMsi. Ravish hamisha tilshunoslikning muammoli masalasidan bo'lib kelgan. Uni o'rgangan olim V.V.Vinogradov «mustaqil so'zning hech bir guruhiga sig'may

qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan» deb haqqoniy baho bergan edi. Uning ma'no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshga yaqin turishi arab va Yevropa tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va g'arb tilshunosligi ravishni ma'no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo'lmagan belgi – o'zgarmaslik belgisi bilan ismdan farqlaydi. Biroq o'zbek tili grammatik qurilishining tavsifiga bag'ishlab yozilgan ko'plab ilmiy adabiyot va darslikda ravishning o'zgarmaslik tabiati inobatga olinmagan. Tilshunoslar o'zbekcha ravishni rus tilidagi «наречий»ning muqobili sifatida talqin qilishgan, natijada, [*kecha*], [*kunduz*], [*tong*], [*oqshom*] kabi payt oti, [*atrof*], [*o'rta*], [*u yerda*], [*bu yerda*], [*old*], [*orqa*] kabi o'rin oti, [*oz*], [*mo'l*], [*butun*], [*to'la*] kabi miqdor sifati, [*keyin*], [*past*], [*baland*], [*yuqori*] kabi o'rin sifati ravish turkumi doirasida o'rganilgan.

«Asosan harakatning, qisman predmetning belgi, miqdor yoki holatini bildiruvchi o'zgarmas so'z» – ravishning so'z turkumi sifatidagi UGMsi.

Ravish o'zgarmas so'z turkumi sifatida. Ravish – mustaqil ma'noli o'zgarmas so'z. U belgi, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nosini ifodalaydi va bu jihatidan ot, sifat, songa yaqin turadi. Ulardan farqli jihati shundaki, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimcha bilan birika olmaydi. Masalan, ot ko'plik, sifat daraja shaklini qabul qiladi. Masalan, [*tongda*], [*oqshomda*], [*kunduzlari*], [*ko'proq*], [*ozroq*], [*balandroq*] kabi. Ayrim til birligida uchraydigan EK, KK shakli ravishning o'zak qismida soddalashgan, ya'ni o'zak bilan yaxlit holga kelib qolgan: [*birdan*], [*zimdan*], [*to'satdan*], [*kechasi*], [*birga*]. Bundan tashqari qadimgi davrda keng iste'molda bo'lgan [*-ra*] (jo'nalish kelishigi) ([*so'ngra*], [*uzra*]), [*-a*], ([*qayta*], [*ko'tara*]), [*-in* (*-un*)] ([*birin-ketin*], [*ostin-ustun*]) qo'shimchasi ham ravish tarkibida qotib qolgan.

Ravish turkumini talqin qilishda o'zgarmaslik xususiyatini e'tiborga olish uning so'z turkumi sifatidagi xususiyatini belgilashda qator qarama-qarshilikka nuqta qo'yadi.

Ilmiy manba, darslik va qo'llanmalarda [*eng*], [*juda*], [*nihoyat*], [*g'oyat*], [*lang*], [*g'irt*] kabi so'z kuchaytiruv ravishi deb qaraladi. Holbuki, bu shakllar ravish oldidan kelib belgi ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun keyingi yillarda ayrim tadqiqotchilar bu unsurlarning ravish emasligini, chunki ravish kabi mustaqil lug'aviy ma'nodan xoliligini ta'kidlashib, kuchaytiruv yuklamasi sirasida o'rganish lozimligini uqtiradi. **Ravish LMGlari.**

Ravish holat, miqdor-daraja, o'rin, payt, maqsad, sabab LMGlariga bo'linadi.

Payt ravishi. Payt ravishi harakatning vaqti, payti, muddatini bildiradi: [*endi*], [*saharlab*], [*hali*], [*doim*], [*indin*] kabi. U gapda ko'pincha hol, ba'zan kesim bo'lib keladi: ***Bugun erta*** *turib tongni ko'rdim.* (Uyg'.) *Bugunning hakami* ***ertadir.*** (A.Xud.).

O'rin ravishi. O'rin ravishi harakatning yuz berish o'rnini bildiradi: [*olg'a*], [*ilgariga*], [*oldinga*].

Eslatma. O'rin ravishini o'rin otidan farqlamoq kerak. Bunga o'rin otlarining morfologik o'zgarishi asos qilib olinadi: (*atrofimiz*), (*o'rtada*), (*o'rtadan*), (*ichkarida*), (*o'ngdan*), (*chapda*), (*oldida*), (*u yerdan*) kabi.

Holat ravishi. Holat ravishi harakatning bajarilish usuli, tarzini bildiradi. Shu boisdan ular tarz-tus ravishi deb ham yuritiladi: [*bexosdan*], [*astoydil*], [*majburan*], [*qavatma-qavat*], [*mardlarcha*], [*yigitlarcha*].

Miqdor-daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi miqdoriy sifat va darajani ifodalaydi: [*ko'plab*], [*sal*], [*qarich-qarich*], [*arang*], [*xiyol*], [*yana*] kabi. Miqdor-daraja ravishi songa yaqinlashadi. Biroq son bilan «noaniq miqdor» belgisi ostidagi noto'liq ziddiyatda belgili a'zo sifatida yuzaga chiqadi.

Maqsad ravishi. Fe'ldan anglashilgan harakatning maqsadini ifodalaydi: [*atay*], [*atayin*], [*ataylab*], [*azza-bazza*], [*jo'rttaga*], [*qasddan*].

Sabab ravishi fe'ldan anglashilgan harakatning sababini ifodalaydi: [*noiloj*], [*noilojlikdan*], [*bekordan-bekorga*], [*chor-nochor*].

Eslatma. Boshqa turkumda bo'lgani kabi ravishning ham ko'p ma'noliligi ularni LMGga ajratishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, [*nari-beri*] ravishi o'rinni ham (*Stollarni nari-beri surdik*), holatni ham (*U nari-beri nonushta qildi*) ifodalaydi.

Ravishda derivatsiya. Tilshunosligimizda ravish yasalishi munozarali. Chunki ravishning asosiy qismi – asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksema. Shu boisdan aksariyat tilshunoslar ravish yasalishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so'zining ravishga o'tishi) mavjudligini tan olishadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ravishlar tarkibiga diqqat qilinsa, ularda turli so'z yasash qolipi mavjudligi ma'lum bo'ladi: [*arabcha ot+an*], [*ot+chasiga*], [*ot+ona*], [*ot+larcha*] [*ot+lab*] kabi.

Qo'shma ravish esa [*olmosh+ot*]. (*har gal, har zamon*), [*ravish+ot*] (*hali zamon, hali beri*), [*son+ot*] (*bir yo'la, bir dam*) qolipi mahsuli.

Boshqa turkumdagi takroriy so'z ravish bo'lishi mumkin: *yuzma-yuz, quruqdan-quruq* kabi.

Tilshunoslar ravish turkumining yasalish sistemasiga ega emasligini [*-an*], [*-ona*] qo'shimchasining arabcha va tojikcha so'z tarkibida uchrashini, [*-larcha*], [*-chasiga*], [*-lab*] kabining grammatik ma'no ifodalashi bilan va [*-iga/-siga*], [*-chasiga*] kabi so'zning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydi.

Ravish gapda ko'pincha fe'lga bog'lanib hol, otga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi. Bu ravish – UGMsining tarkibiy qismi.

Ravishning tuzilishiga ko'ra turlari. Ravish tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* turga bo'linadi.

Sodda ravish bir o'zakli bo'ladi: [*bugun*], [*indin*], [*ertaga*], [*ertalab*].

Murakkab ravish o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft ravish*; b) *takroriy ravish*; v) *qo'shma ravish*.

Juft ravish ikki so'zning juftlashishidan tashkil topadi: [*yana-tag'in*], [*eson-omon*]; [*ochin-to'qin*], [*oldinma-keyin*], [*qishin-yozin*]; [*uzil-kesil*], [*ura-sura*], [*unda-bunda*]; [*ora-sira*], [*ora-chora*], [*ro'y-rost*], [*sal-pal*], [*chala-chulpa*], [*emin-erkin*], [*oz-moz*], [*huda-behuda*]; [*azza-bazza*], [*apil-tapil*], [*eran-qaran*], [*o'lda-jo'lda*].

Takroriy ravishda bir o'zak takrorlanadi: [*galma-gal*], [*zinhor-bazinhor*], [*to'g'ridan-to'g'ri*], [*es-es*], [*o'qtin-o'qtin*], [*ahyon-ahyonda*].

Qo'shma ravish birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: [*bir yo'la*], [*bir muncha*], [*bir talay*]; [*bajonudil*], [*baholiqudrat*], [*baqadrihol*]; [*har yili*], [*har yoq*], [*har dam*]; [*shu zahoti*], [*shu asnoda*].

Taqlid

Taqlid va uning UGMsi. Taqlid o'zbek tilida bir guruhni tashkil etadi va mustaqil so'z sirasidan o'rin olgan. Buning bir nechta ilmiy asosi bor.

Birinchidan, turkiy tillarda taqlid miqdoran ko'p va ma'no jihatdan rang-barang.

Ikkinchidan, ulardagi tovushlar tizmasi ma'lum obyektiv voqelikdan xabar berib turadi.

Uchinchidan, taqlid gap tarkibida ma'lum bir sintaktik pozitsiya egallaydi.

Taqlid – o'zbek tilining muhim ifoda vositasi. Ularning ifoda tomoni mazmun tomoni bilan tabiiy bog'lanishga ega. Bu quyidagi so'z qatorini qiyoslash asosida hosil bo'ladi:

1) *taq-tiq/tuq-tuq/to'q-to'q/taq-taq;*
2) *liq-liq/luq-luq/lo'q-lo'q/laq-laq;*
3) *tirs-tirs/tars-tars/tars-turs.*

Ko'rinadiki, fonetik qiyofasi tor unli va qattiq undoshdan iborat bo'lgan taqliddagi belgi darajasi keng unli va qattiq undoshdan iborat taqlid ifodalagan belgidan past. Bu taqliddagi shakl va mazmunning tabiiy bog'lanishini ko'rsatadi.

Taqlid jamiyatning har bir a'zosi tushunadigan turli ma'noga ega. Masalan, *taq-tiq/tuq-tuq/to'q-to'q/taq-taq* taqlidi orqasida nimadir yotgani va ma'lum bir borliq hodisasini ifodalayotgani shu til jamiyatining barcha a'zolari uchun tushunarli.

Taqliddagi ma'noviy g'ayrioddiylik uni boshqa mustaqil so'z turkumidan ajratib turadi. Biroq ma'noviy g'ayrioddiylik faqat taqlidgagina xos emas. Buni olmoshda ham kuzatish mumkin. Chunki ularning ma'nosi faqat matn tarkibidagina anglashilib, shu boisdan «ichi bo'sh» so'z sifatida baholanadi. Ammo «ma'noviy bo'shlik» olmoshni mustaqil so'z sifatida qarashga monelik qila olmagan. Demak, bu nomustaqil so'z sifatida qarab kelingan taqlidning ham «mustaqillashuvi»ga to'siq bo'la olmasligi kerak.

Taqlid morfologik jihatdan o'zgaruvchan, bu bilan to'la ma'nodagi mustaqil so'z bo'lgan ravishdan ham ustun turadi: *odamlarning g'ovur-g'uvuri, eshikning taqir-tuquridan* kabi.

Taqlid cheklanmagan muchalanuvchanlikka ega:

1. Kesim: *Atrof g'ala-g'ovur.*
2. Ega: *Taqir-tuqur tinmadi.*
3. Hol: *Shabada g'ir-g'ir esadi.*
4. To'ldiruvchi: *Odamlarning vag'ir-vug'uridan quloqlar bitgudek.*
5. Aniqlovchi: *Mahallada duv-duv gap.*

Demak, taqlid «borliq hodisalariga taqlidning lisoniy ifodasi» UGMsiga ega.

Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi taqlid semantik-morfologik-sintaktik jihatdan mustaqil so'z maqomiga ega.

Taqlidning LMTlari. Taqlidning ayrimi tovushga taqlidni ifodalasa, ikkinchi bir xili ko'rinish-holatga taqlidni ifodalaydi. Shu

boisdan «tovushga taqlid» va «ko'rinishga taqlid» LMTlari farqlanadi.

I. «Tovushga taqlid» LMT. Bu LMT a'zolari kishi, jonivor, narsa va hodisalar paydo qilgan tovushga taqlid qilish natijasida paydo bo'ladi. LMT o'z o'rnida ikkiga bo'linadi:

1. «Fiziologik tovushga taqlid» LMG: [*qah-qah*], [*xur-xur*], [*xir-xir*], [*miyov-miyov*].

2. «Fizik tovushga taqlid» LMG: [*tap-tup*], [*taqir-tuqur*], [*tipir-tipir*].

II. «Ko'rinishga taqlid» LMT. Tovushga taqlid so'z eshitish bilan bog'liq hodisani ifodalasa, ko'rinishga taqlid so'zi ko'rinish bilan bog'liq hodisalarni aks ettiradi. Bu LMT ham o'z o'rnida:

1. «Harakatni ifodalovchi taqlid» LMG: [*dik-dik*], [*lik-lik*], [*lapang-lapang*], [*ship-ship*].

2. «Tashqi ko'rinishni ifodalovchi taqlid» LMG: [*xil-xil*], [*jiq-jiq*], [*mo'lt-mo'lt*].

3. «Yorug'likni ifodalovchi taqlid» LMG: [*lip-lip*], [*jimir-jimir*], [*yalt-yult*], [*yilt-yilt*].

Taqlidning tuzilishiga ko'ra turlari. O'zbek tilida taqlid juft va takroriy ko'rinishda bo'ladi.

Juft taqlid: [*g'arch-g'urch*], [*taq-tuq*], [*vag'ir-vug'ur*], [*g'ing-ping*], [*alang-jalang*], [*apir-shapir*].

Takroriy taqlid: [*guv-guv*], [*duv-duv*], [*shartta-shartta*], [*cho'lp-cho'lp*], [*shaqa-shaq*], [*guppa-guppa*].

Eslatma. Taqlid [*etmoq*, [*demoq*], [*qilmoq*] fe'li bilan kelganda qo'shma fe'l vujudga keladi: [*guv-guv etmoq*], [*duv-duv qilmoq*], [*cho'lp-cho'lp qilmoq*].

Olmosh

Ma'lumki, so'zlar ma'noviy belgisiga ko'ra uch turga bo'linadi:

a) mustaqil ma'noli so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);

b) bo'sh — ishora ma'noli so'z (olmosh);

d) yordamchi ma'noli so'z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar).

«Ishoraviylik» ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib «ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'z» sifatida o'ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlid, undov, gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmosh guruhiga [*men*],

[*sen*], [*u*], [*biz*], [*siz*], [*ular*] kabi shaxsga; [*kim*], [*nima*], [*bu*], [*ana*], [*mana*], [*mana bu*] kabi predmetga; [*qanday*], [*bunday*], [*shunday*] kabi belgiga; [*buncha*], [*shuncha*], [*qancha*] kabi miqdorga; [*qachon*] kabi paytga; [*qayer*] kabi o'ringa; [*shunday bo'lmoq*], [*qanday qilmoq*] kabi harakat-holatga ishora qiluvchi leksema kiradi. Shuni aytib o'tish joizki, olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni «almashtirib», uning o'rnida kelavermaydi. Misollar: 1. *Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi.* 2. *Men kecha keldim. Sen buni bilasan.* 3. *Nima qilsam ham men o'zim bilaman.* 4. *Hamma mehmonlar biznikida.* 5. *Barcha mushkulotlar oson bo'ldi* kabi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshi hech bir so'zni almashtirmagan.

Arab tilshunosligida olmosh alohida so'z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida «yashirin ma'noli so'z» (*zamirlar*) sifatida alohida guruhlarga ajratilgan. Chunonchi, [*kitob*], [*daftar*], [*Abbos*] — aniq ma'noli ot bo'lsa, [*men*], [*sen*], [*kim*] — yashirin ma'noli ot (zamir otlar) dir. Yoxud [*oq*], [*qizil*], [*chiroyli*] — ma'lum ma'noli sifat hisoblansa, [*bunday*], [*shunday*] kabilar «zamir sifat» dir.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy (mavhum) ma'noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'z kabi morfologik jihatdan o'zgaradi.

Olmosh qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, shu turkumga xos sintaktik vazifani bajaradi: ***O'qituvchi*** *darsga kirdi.* ***U*** *o'quvchilar bilan salomlashdi.* Olmosh o'zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi: *Hamma xursand va shod. U kitobni o'qidi.* Olmosh ifoda etadigan ishoraviy ma'nosiga ko'ra quyidagi ma'no guruhiga bo'linadi:

1. Kishilik olmoshi.
2. Ko'rsatish olmoshi.
3. O'zlik olmoshi.
4. Belgilash olmoshi.
5. So'roq olmoshi.
6. Gumon olmoshi.
7. Bo'lishsizlik olmoshi.

I. Kishilik olmoshi shaxs olmoshi deb ham yuritiladi, chunki shaxsga ishora qiladi. Shaxs olmoshining qo'llanishida ayrim o'ziga xoslik bor. Shaxs o'z ma'nosidan tashqari ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Chunonchi:

1. *Biz* olmoshi II shaxs ko'plikdagi *siz* olmoshi o'rnida qo'llanadi: *Qani, endi **biz** ishga tushaylik.* Bunda tashviq ma'nosi anglashilib turadi.

2. Ko'plikni ifodalovchi olmosh birlik uchun qo'llanadi: *Bu ishni **biz** uddaladik.* Ushbu gapda *men* o'rnida ishlatilgan *biz* maqtanish, kibr ma'nosini ifoda etmoqda.

3. *Men* o'rnida *biz* olmoshi ishlatilib, kamtarlikni ifodalashi mumkin: ***Biz** bu maqolada yechimini kutayotgan muammoni olib chiqdik.*

4. *Sen* o'rnida *siz, u* o'rnida *ular* olmoshi ishlatilib, hurmat ma'nosini ifodalaydi: ***Siz** bugun darsda faol ishtirok etdingiz. Men buvimni yaxshi ko'raman. **Ular** ham meni sevadi.*

5. *Siz* olmoshi, ko'pincha, birlik sonda hurmat ma'nosida qo'llanilganligi sababli ikkinchi shaxs ko'plik sonda *sizlar* shakli ishlatilishi mumkin: ***Sizlar** kelajagimiz.*

6. Kishilik olmoshiga [*-lar*] qo'shimchasi qo'shilganda turli ma'no voqelanadi:

— *Senlarga aytyapman* (kamsitish ma'nosi).

— *Sizlarda insof bormi?* (ko'plik ma'nosi).

7. O'zbek tilida III shaxs ko'plik olmoshi, aslida birlik sondagi olmoshning ko'plik shaklidir: *u+lar.*

II. Ko'rsatish ma'nosini anglatuvchi olmosh ([*bu*], [*shu*], [*mana*], [*ana*], [*u*], [*o'sha*], [*hov*] va boshqa) shaxs, predmet, belgini alohida ko'rsatish, ta'kid ma'nosi uchun xizmat qiladi. Ular ifodalovchi (ishoraviy) nom ham turlicha:

— shaxs yoki predmetga ishora qiladi: — *Siz o'shami?* (A. Qod.).

— belgiga ishora qiladi: *Menda ham shunaqa kitoblar bor.*

— vaqtga ishora qiladi: *Shu-shu Fotima kelmay qoldi.*

— o'ringa ishora qiladi: *Siz - unda, biz - bunda.*

III. O'zlik olmoshi. Bu olmosh turi «ta'kid», «tegishlilik» ma'nosini anglatadi: *Mening o'zim bilaman.* «o'xshatish» ma'nosi ham matndagi *o'z* so'zi orqali ifodalanadi: *Onasining o'zi.* «Umumiylik», «noaniqlik» kabi ma'no — *O'zim.* (*shunchaki)* turdagi gapda ro'yobga chiqadi.

IV. So'roq olmoshi shaxs, predmet, belgi, harakatni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Ular quyidagiga bo'linadi:

— shaxsga nisbatan qo'llanuvchi olmosh ([*kim*], [*kimlar*]);

— voqea-hodisa, predmetga nisbatan qo'llanuvchi olmosh ([*nima*], [*nimalar*]*);*

— belgini aniqlashga qaratilgan olmosh ([*qanday*], [*qanaqa*]);

– sabab va maqsadni aniqlashga qaratilgan olmosh ([*nega*], [*nima uchun*], [*nechuk*]);

– miqdorga nisbatan ishlatiluvchi olmosh ([*necha*], [*qancha*]);

– harakat-holatga nisbatan qo'llanuvchi olmosh *([nima qildi*], [*nima bo'ldi*]);

– o'rin ma'nosini ifodalovchi so'roq ([*qani*], [*qayerda*]) ;

– payt ma'nosini ifodalovchi so'roq ([*qachon*], [*qachonga*]).

Bunday olmosh faqat so'rash ma'nosini yuzaga chiqarmaydi, ma'noni bo'rttirish ([*kimki*], [*nimaki*]), ritorik so'roq (*Men sizga nima dedim?!*), taajjub *(Buning nimasi yomon?!)* kabi ma'noni ham ifoda etadi.

V. Belgilash olmoshi. [*Har*] so'zi belgilash olmoshi bo'lib, ko'pincha, so'roq olmoshi bilan birikib keladi va qo'shma belgilash olmoshi yasaydi. Jamlik ifodalovchi olmosh predmet, shaxs, belgiga nisbatan yig'indini, to'dani ifodalaydi: [*hamma*], [*yalpi*], [*har kim*], [*barcha*], [*bari*], [*butun*].

VI. Gumon olmoshi muayyan predmet, shaxs, belgi yoki harakat xususida o'ta mavhum tushunchani bildiradi. So'roq olmoshi bilan qo'shilib keladigan [*alla-*] va [*-dir*] birligi ushbu olmoshga noaniqlik ma'nosini kiritadi.

VII. Bo'lishsizlik olmoshi ma'no jihatdan tasdiqqa nisbatan zidlikni bildiradi va [*hech*] so'zi bilan hosil bo'ladi. Bu olmosh gapni (fikrni) inkorga aylantiradi: [*hech nima*], [*hech kim*], [*hech qachon*], [*hech mahal*].

Til tarixida ham, hozir ham ba'zan juda ko'tarinki, tantanavor nutqda kamtarinlik uchun, manmanlik qilmaslik maqsadda [*men*] kishilik olmoshi o'rnida [*kamina*], [*faqir*], [*banda*] so'zi qo'llaniladi. Bular tilshunosligimizda *ot-olmosh* nomini olgan.

Olmosh – nutqni o'rinsiz takrordan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasi. U gapda turli sintaktik vazifada kela oladi: 1. *Mening o'zim bu yukni ko'tara olmas edim.* 2. *Vazifamiz – shu.* 3. *Qanday kishi xor bo'lur?* 4. *Bahor keldi seni so'roqlab.*

Olmoshning tuzilishiga ko'ra turi quyidagi jadvalda berilgan (24-jadval):

24-jadval

Olmosh	Shakllar			
	Sodda	Qo'shma	Juft	Takroriy

1. Kishilik	*men, sen*	*meniki*	-	-	-
2. Ko'rsatish	*bu, shu*	*bular, shunisi*	*ana bu, mana u*	*u-bu*	*o'sha-o'sha, shu-shu*
3. O'zlik	*O'z*	*o'zim, o'zlari*	-	-	*o'z-o'zini*
4. So'roq	*kim, nima?*	*kimga, nimalar*	*nima uchun, nima maqsadda*	-	*kim-kim, nima-nima?*
5. Belgilash	*hamma, bari*	*ham-mamiz*	*har kim, har nima*	-	*barcha-barcha, butun-butun*
6. Bo'lishsiz-lik	*hech*	-	*hech kim, hech nima*	-	-
7. Gumon	-	*birov, kimdir*	*allakim, allanima*	-	-

Jadvalda olmoshning «yasama» shaklini berishda tilshunos olim G'.Zikrillayev fikriga tayanib, lug'aviy shakl qo'shimchasi inobatga olindi.

Olmoshda shaxs, hurmat, miqdor, munosabat ma'nosining mujassamligi va ularning nutqda rang-barang usulda namoyon bo'lishi tilshunosligimizda aniqlangan. Masalan, kishilik olmoshidan [*men*], [*biz*] so'zlovchi, [*sen*], [*siz*] tinglovchi, [*u*], (*ular*) o'zga shaxsni bildiradi. Miqdor ma'nosining ifodalanishi jihatidan [*men*], [*sen*] birlikni; [*biz*], (*sizlar*), (*senlar*), (*bizlar*) ko'plikni; [*siz*], (*ular*) birlikka ham, ko'plikka ham betaraf ma'noni anglatadi. Hurmat ma'nosi II, III shaxs olmoshiga xos. Munosabat ma'nosi kishilik olmoshining kelishik qo'shimchasini olib o'zgarishida yuzaga chiqadi. Kishilik olmoshiga egalik ma'nosi ham xos. Ushbu olmosh qaratqich kelishigida egalik ma'nosini bildiradi: *bizning universitet*. O'zbek tilida egalik ma'nosi kishilik olmoshiga [*-niki*] qo'shimchasini qo'shish bilan ham ifodalanadi: *meniki, bizniki, seniki* kabi. Yuqoridagi ma'nolarning ifodalanish tarzini boshqa LMGda ham kuzatish mumkin.

Olmosh derivatsiyasi. Olmosh o'ziga xos so'z yasalish tizimiga ega. U — affiksatsiya va kompozitsiya usuli. Ko'rsatish, belgilash-jamlash, gumon, bo'lishsizlik olmoshlari sirasida yasalmalari ham mavjud. Shuningdek, o'zga turkum so'zlaridan derivatsiyaning

boshqa ko'rinishlari asosida ham olmosh vujudga kelgan: [*birov*], [*butun*], [*yalpi*], [*jami*], [*falonchi*] kabi.

Affiksatsiya usuli. Affiksatsiya usuli gumon olmoshida uchraydi. Bu usul bilan asosan olmoshdan olmosh yasaladi.

Yasash asosiga qo'shilib, olmosh hosil qiluvchi affiksning so'z yasash darajasi ham turlicha: [*-alla*], [*-dir*]. Bu affiksning har biri turli derivatsion qolip tarkibida olmosh yasaydi: [*-alla+so'roq olmoshi/narsa = 1) asosdan anglashilgan narsa/predmetning gumonligi*] qolipi hosilalari quyidagicha: [*allakim*], [*allanima*], [*allanarsa*], [*allakim*], [*allaqayer*] kabi.

[*so'roq olmoshi+-dir = 2) asosdan anglashilgan narsa/predmetning gumonligi*] qolipi quyidagi olmoshlarni beradi: [*kimdir*], [*nimadir*], [*qayerdadir*], [*qachondir*], [*qaysidir*] kabi.

Kompozitsiya usuli. Bu usul vositasida qo'shma (ko'rsatish, so'roq, belgilash, bo'lishsizlik), juft (ko'rsatish) va takroriy (ko'rsatish, so'roq, belgilash) olmoshlar yasaladi (24a-jadval):

24a-jadval

Olmosh	Qo'shma	Juft	Takroriy
1. Ko'rsatish	*ana bu, mana u*	*u-bu*	*o'sha-o'sha, shu-shu*
2. So'roq	*nima uchun, nima maqsadda*	-	*kim-kim, nima-nima?*
3. Belgilash	*har kim, har nima*	-	*barcha-barcha, butun-butun*
4. Bo'lishsizlik	*hech kim, hech nima*	-	-

O'zbek tilida olmoshning yasalishi masalasi munozarali. Olmoshning yasalish xususiyati tadqiqi tilshunosligimiz oldida turgan vazifalardan.

Yordamchi so'z

Leksemalar tasnifidagi «ma'noviy nomustaqillik» tushunchasi. Ma'lumki, leksik sath birliklari ikki katta guruhga bo'linadi: mustaqil so'z va yordamchi so'z. Ular orasidagi zidlanishni «ma'noviy va vazifaviy nomustaqillik» tashkil etadi. Bu ziddiyat belgisiga ko'ra yordamchi so'z belgili, mustaqil so'z esa belgisiz a'zo mavqeini egallaydi. Yordamchi so'z hech qachon mustaqil

qo'llanmaydi, bog'liq qurshovdagina kela oladi. Mustaqil so'z esa mustaqil qo'llanilish va ma'no ifodalash qobiliyatiga ega.

Leksemalarning ma'noviy tasnifida ilk bosqich belgisi «ma'noviy mustaqillik» emas, «ma'noviy nomustaqillik» bo'lishining sababi – mustaqil leksemaning bu belgiga nisbatan betarafligi. Chunonchi, katta guruhni tashkil etuvchi atoqli ot (*Temir, Anor, Gavhar*) guruhida, mavhum otda mustaqil ma'noning mavjudligi kishini shubhaga soladi. Mustaqil so'zda «ma'noviy mustaqillik» belgisi shartli. Assimilatsiya tilshunoslikda boshqacha, biologiyada esa tamoman o'zgacha talqin etiladi. [*Loy*] so'zi adabiy tilda boshqa, otarchi nutqida esa boshqacha mohiyatini namoyon qiladi. Shunga o'xshash hodisani sifat, fe'l, ravishda ham ko'plab uchratish mumkin. Bularning barchasi «ma'noviy mustaqillik» belgisi mustaqil leksemada nisbiy tushuncha, nisbiy belgi ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun leksemaning ma'noviy tasnifida ilk bosqichning belgisi – «ma'noviy mustaqillik» emas, balki «ma'noviy nomustaqillik». Ushbu belgi asosidagi ziddiyatda ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kuchli (belgili) a'zoni tashkil etadi. Sof ko'makchi, sof bog'lovchi, sof yuklama hech qachon mustaqil ma'noli so'z xususiyatiga ega bo'la olmaganligi tufayli uning guruhiga o'ta olmaydi.

Yordamchi so'zning «oraliq uchinchi» tabiatiga egaligi. Tilshunoslikda yordamchi so'zning leksema va qo'shimcha orasida «oraliq uchinchi» bo'lib, ham leksema, ham grammatik morfema xususiyatini o'zida mujassamlashtirishi aniqlangan. Ular shaklan leksema, mazmunan qo'shimcha (qiyos: *Kitobni akamga/akam **uchun** oldim.*) Shu tufayli bo'lsa kerak, til tizimida yordamchi so'zning o'rni turlicha baholanadi – ayrim olimlar ularni qo'shimchaga, ayrimi nutq bo'lakchasiga, ba'zisi yordamchi so'zga nisbat beradi. Yordamchi so'zning so'zmi, qo'shimchami yoki mustaqil so'zning yordamchi so'z bilan bog'lanishi so'z birikmasimi ekanligi hanuzgacha munozara mavzui bo'lib qolmoqda. Chunki yordamchi so'z guruhi ichida shunday birliklar borki, ular ham «ma'noviy mustaqillik», ham «ma'noviy nomustaqillik» xususiyatiga ega (ot-ko'makchilar, yordamchi va ko'makchi fe'l). Chunonchi, [*tortib*] mustaqil so'z sifatida ravishdosh kabi qo'llaniladi: *Baliq qarmoqni bir **tortib**, qochib ketdi.* Shu so'z *Farhod tog'idan **tortib** Shirin yayloviga qadar Sirdaryo bo'ylab tizilib ketgan yetmish ming xalq bu sovuqlarni pisand qilmaydi.* (Oyd.). gapida yordamchi so'z vazifasida kelgan. [*Tortib*] mustaqil va yordamchi ma'noga ega bo'lishiga qaramay, mustaqil leksema

tipiga kiradi. [*Uchun*], [*sayin*], [*uzra*], [*kabi*], [*va*] ga o'xshagan yordamchi so'z aniq bir tushunchani ifodalay olmaydi, ammo turli munosabatni yuzaga chiqarib, yordamchi so'z guruhidan joy oladi. Yuqoridagilardan anglashiladiki, «alohida qo'llanila olish yordamchi leksemani mustaqil leksema bilan yaqinlashtirsa, turli-tuman munosabatni ifodalash kabi umumlashgan ma'no uni morfemaga, qo'shimchaga yaqinlashtiradi, leksema va morfema ziddiyatida «oraliq uchinchi» vazifasida keladi.

Yordamchi so'zni mustaqil so'zga quyidagilar yaqinlashtiradi:

a) shaklan alohida ajralib turish;

b) lug'aviy ma'noning mavjudligi (ot-ko'makchi, fe'l-ko'makchida);

d) ko'pincha ularning mustaqil so'zlarga yaqinlashishi, ulardan kelib chiqishi.

Yordamchi so'zning grammatik morfemaga o'xshash tomoni ularning morfema kabi mustaqil nominativ funksiya bajarmasligi ([*ammo*], [*va*], [*sayin*], [*kabi*]), qo'shimchasimon shaklda bo'lishi ([*-u*], [*-yu*], [*-da*]; [*-ki/-kim*]; [*-dek/-day*], [*-cha*]) va boshqalar. Biroq yordamchi so'zning grammatik morfemadan farqli tomoni shundaki:

1) ular ajralgan holda gap bo'lagi, so'z birikmasi va gapda sintaktik xarakterdagi vazifa bajaradi. Bu xususiyat, ayniqsa, ko'makchi uchun xos. Chunonchi, 1. *Yaxshi* ***bilan*** *yursang yetarsan murodga, Yomon bilan yursang qolarsan uyatga* (Maq.). 2. *To'lqinlarning kuchli na'rasi, Yulduzlarga* ***qadar*** *yetardi.* (Uyg'.);

2) gap bo'lagi yoki gapni o'zaro bog'laydi. Bunday funksiyada, asosan, bog'lovchi va yuklama keladi: 1. *Xonaga baland bo'yli,* ***biroq*** *oriqqina yigit salom berib kirdi.* (S.Ahm.) 2. *Saida bu gapni aytdi-yu, chiqib ketdi.* (S.Ahm.);

3) so'roq, inkor kabi gap ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi (yuklama).

Yordamchi so'z mustaqil so'z va so'z-gap oralig'ida «oraliq uchinchi» maqomini oladi. O'z navbatida, yordamchi so'z ham o'z ichida umumiy belgisiga ko'ra oraliq uchinchini ajratib chiqaradi. Ya'ni bog'lovchida bog'lash, yuklamada gap mundarijasiga ta'sir qilish mohiyatni belgilash darajasida bo'lsa, ko'makchida sanalgan har ikki belgi mushtarak. Bu uning «oraliq uchinchi»lik mavqeini ko'rsatadi.

Yordamchi so'zning shakliy xususiyatiga ko'ra turlari. Yordamchi so'z shakliy xususiyatiga ko'ra:

a) qo'shimchasimon;
b) sof yordamchi so'z;
d) nisbiy yordamchi so'z ko'rinishiga ega.

Qo'shimchasimon yordamchi so'z har uchala yordamchi so'z tarkibida uchraydi. Ko'makchi orasida [*-dek/-day*],[*-cha*], bog'lovchi orasida [*-ki/-kim*]; [*-u*], [*-yu*],[*-da*] affikssimon yuklama — bog'lovchi, yuklama orasida [*-mi*], [*-chi*], [*-a*], [*-ya*], [*-ku*],[*-oq/yoq*], [*-da*], [*-gina*] kabi qo'shimchaga o'xshash yordamchi so'zni uchratish mumkin. Qo'shimchasimon yordamchi so'z shaklan qo'shimchaga o'xshaydi, ammo yordamchi so'z vazifasini bajaradi. Chunonchi, 1. *Po'latdek* (kabi) *dadil bir yigit bu ishdan hayiqsa, uyat bo'ladi.* (O.Mux.). 2. *Shu payt o'g'ilchasi eshikdan yugurib keldi-da* (va), *dadasining quchog'iga otildi.* (Oyb.). 3. *Bazmga Gulnoragina (faqat) kelmadi.* (S.Ahm).

Sof ko'makchi sirasiga [*uchun*], [*bilan*], [*sari*], [*qadar*], [*kabi*], [*singari*], [*sayin*], [*orqali*] so'zlari; sof bog'lovchi sirasiga [*va*], [*hamda*], [*ammo*], [*lekin*], [*biroq*], [*balki*], [*yo*], [*yoxud*], [*go'yo*], [*agar*], [*basharti*], sof yuklama qatoriga [*:uddi*], [*faqat*], [*axir*], [*hatto*], [*naq*], [*atigi*] so'zi kiradi.

Nisbiy yordamchi so'z atamasi ostida boshqa turkumga mansub bo'lgan so'zning yordamchi vazifasida qo'llanilishi ([*old*], [*orqa*], [*avval*], [*bo'ylab*], [*boshlab*]) yoki tabiatida «shakldoshlik» mavjud bo'lgan birlik tushuniladi. Masalan, (*yolg'iz*) sifat turkumiga oid so'z-yuklama o'rnida (*Yolg'iz senga suyanaman*) ishlatiladi. Yoki ***Vaqtida*** *yomg'ir yog'adi,* ***vaqtida*** *qor* gapida (*vaqtida*) so'zining vazifasi bog'lovchiga yaqin. Bunga o'xshash misol nutqimizda ko'p. Yordamchi so'zning shakliy xususiyatiga ko'ra turini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin (25-jadval):

Jadvaldan ko'rinib turganidek, yordamchi so'z mustaqil so'z hisobidan ortib boradi. Yordamchi so'zning boyishida yana bir yo'l — ularning ichki tomondan bir turdan ikkinchi turga o'tishi, aniqrog'i, «oraliq hodisa» xususiyatiga ega bo'lgan ko'makchi-bog'lovchi, bog'lovchi-yuklamaning mavjudligi. Masalan, [*bilan*], [*deb*], [*deya*] kabilar — ko'makchi-bog'lovchi. Ushbu ko'makchining bog'lovchi vazifasida kelishi ancha keng tarqalgan hodisa. *Ammo lekin bu ishni paysalga solish yaramaydi* gapida bog'lovchi-yuklama qo'llanilgan, ya'ni [*ammo*] bog'lovchisi kuchaytiruv yuklamasi vazifasida kelgan.

25-jadval

Yordamchi so'z turi	Sof yordamchi so'z	Qo'shimcha-simon yordamchi so'z	Yarim yordamchi so'z
Ko'makchi	*kabi, singari, sari, sayin, dovur, uchun, orqali*	*-dek, -day, dayin, -cha*	*old, oldin, orqa, qarshi, avval, bo'ylab, ko'ra, qarab, tomon*
Bog'lovchi	*va, hamda, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, go'yo, toki, basharti, garchi, xoh, dam, yoki, yoxud, yo*	*-ki, (-kim), -u, -yu, -da*	*vaqtida, bir, ba'zan, gohida*
Yuklama	*axir, hatto, faqat, ham, naq, go'yo, go'yoki, atigi*	*-mi, -ku, -gina, -u, -yu, -da, -a, -oq, (-yoq), -dir*	*yolg'iz, ba'zan, bir*

Bugungi kunda yordamchi so'zni har tomonlama o'rganish, uni lisoniy tahlil qilish ishlari tilshunosligimizda davom etmoqda.

Ko'makchi

Ko'makchi yordamchi so'zning bir ko'rinishi sifatida. Turkiy tillarda (jumladan, o'zbek tilida ham) ko'makchi ko'pdan buyon tilshunoslarning tekshirish manbai bo'lib kelmoqda. O'zbek tilidagi ko'makchiga birinchi bo'lib mukammal ta'rifni A.N.Kononov bergan: «Ko'makchilar shunday bir gruppa so'zlarki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol-vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo'nalish, o'xshatish kabi munosabatning yaratilishida xizmat qiladi». Sh.Shoabdurahmonov ham o'zining «Yordamchi so'zlar» asarida ko'makchiga shunday ta'rif bergan:

«Ko'makchi obyektning obyektga yoki obyektning predikatga bo'lgan turli grammatik munosabatini ko'rsatuvchi yordamchi so'zdir». Darhaqiqat, ko'makchi mustaqil so'z orasidagi tobe munosabatni ifodalash va kelishik ma'nosini aniqlashtirish, to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shu xususiyati bilan ko'makchi bog'lovchi va yuklamadan farq qiladi. Ko'makchi ma'no va vazifa jihatidan kelishik qo'shimchasiga yaqin turadi. Shuning uchun ba'zan kelishik shaklidan anglashilgan ma'no ko'makchi bilan ham ifodalanadi (*Mashinada keldim — mashina bilan keldim. Ukamga oldim — ukam uchun oldim* kabi). Lekin ular kelishik affiksiga qaraganda ma'noni aniq, konkret ifodalaydi.

Ko'makchining shakliy xususiyatiga ko'ra turlari. Ko'makchi shakli va bajaradigan vazifasi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

a) sof ko'makchi;

b) yarim ko'makchi;

d) qo'shimchasimon ko'makchi.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan [*uchun*], [*bilan*], [*sari*], [*qadar*], [*kabi*], [*singari*], [*sayin*], [*orqali*] so'zi **sof ko'makchi**, ular tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiladi. Sof ko'makchi boshqa so'zga birikkan holda turli munosabatni anglatadi. Jumladan, [*bilan*] ko'makchisi o'zbek tilida asosan ko'makchi, ba'zan bog'lovchi vazifasida ishlatiladi. Shuning uchun bu ko'makchi turi yordamchi so'zdan birining o'rnida ikkinchisi qo'llanilishi nuqtayi nazaridan *ko'makchi-bog'lovchi* atamasi ostida ham o'rganilmoqda. [*Bilan*] yordamchisining etimologiyasi haqida prof.A.N.Kononov V.V.Radlov, J.Deni kabi qator turkiyshunoslarning fikrini e'tiborga olib, uning [*birlan*] so'zidan kelib chiqqanini aytgan. [*Bilan*] yordamchisining [*birla*], [*birlan*], [*bila*], [*ila*], [*-la*] shakllari vazn, qofiya va uslub talabiga ko'ra ko'proq poeziyada uchraydi. Chunonchi, *Baxt **ila** to'lib-toshgan go'zal oy deraza tagida o'sgan daraxt barglarida mudrab yotadi.* (R.Tag.) Bu ko'makchi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1) biror harakatning bajarilishida shaxs yoki predmetlarning birgaligini: *Ko'pchilik **bilan** odam o'zini kuchli sezadi;*

2) harakatni bajarishda vosita ma'nosini: *Shu gapning ustiga Ismat bobo hassasi **bilan** eshikni ochib kirib keldi* (P.Qod.);

3) payt ma'nosini: *Qo'ng'iroq chalinishi **bilan** o'qituvchi sinfga kirdi;*

4) sabab ma'nosini: *Ular: «Gulnor o'z ajali **bilan** o'ldi...», - deyishdi.* (Oyb.);

5) harakatning bajarilishidagi holatni: *Onamning mehr* ***bilan*** *boqib turgan ko'zlarini bir umr unuta olmasam kerak.* (Oyb.).

[*Bilan*] ko'makchisi – keng tarqalgan yordamchi so'z. Uning bog'lovchilik, ko'makchilik tabiati olimlarimiz orasida tortishuv bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan «... *va, bilan, hamda, shuningdek* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida teng bog'lovchining biriktiruv bog'lovchi turiga kiradi» degan fikr ham ilgari surilgan. Ammo bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, bog'lovchi vazifasidagi [*bilan*] ning [*va*], [*ham*] biriktiruv bog'lovchisidan farqlanadigan o'ziga xos xususiyati bor:

– «birgalik» ma'nosi [*bilan*] yordamchisi uchun xos: *Chodir sahnasidan bir qiz* ***bilan*** *yigit chiqib o'yin qildi* (M.Ism.). Ushbu misoldagi [*bilan*] o'rnida [*va*] ni qo'llasak, yuqoridagi ma'no kelib chiqmaydi, balki qiz bilan yigitning alohida-alohida o'ynagani ma'nosi ifodalanadi.

– [*va*], [*ham*] bog'lovchilari uyushib kelgan fe'l kesimni bog'laydi, ammo [*bilan*] da bu imkoniyat chegaralangan. Qiyoslang: *Lola ishlaydi va o'qiydi. Lola ishlaydi ham o'qiydi.* Ammo *Lola ishlaydi* ***bilan*** *o'qiydi* tarzidagi gap nutqda ishlatilmaydi. [*Bilan*] ning grammatik vazifasi – bog'lovchi va ko'makchi vazifasida kela olishi; shunga ko'ra, [*bilan*] boshqa ko'makchidan farqlanadi. Shuning uchun [*bilan*] ko'makchisini *ko'makchi-bog'lovchi* termini bilan ataganimizda, uning barcha xususiyati qamrab olinadi. Bu ko'makchi turi gapda vosita ma'nosini bildirganda to'ldiruvchi, sabab, payt, harakatning bajarilish tarzini bildirganda hol vazifasida keladi.

[Uchun] ko'makchisi «atalganlik» (*Yo'lchi* ***uchun*** *keltirgan tugunchak yodiga tushdi* (Oyb.)), «maqsad» (*Hamma xalq ochdan o'lmaslik* ***uchun*** *bir amal-taqal qilib turibdi* (Oyb.)), «sabab» (*Kampirning ahmoqligi yo dushmaningizning ig'vosi* ***uchun*** *shundoq deyishga qandoq tilingiz bordi?* (A.Qah.)), «evaz» (*E'tiboringiz uchun rahmat*) kabi ma'noda qo'llanib, to'ldiruvchi, maqsad, sabab holi vazifasida keladi.

[*Kabi*], [*singari*], [*yanglig'*] ko'makchisi bir narsani boshqa narsaga o'xshatish, chog'ishtirish ma'nosini anglatadi. Masalan, *Ukam men* ***kabi*** *bechora... g'am chekib yotgandir* (Oyb.). [*Kabi*], [*singari*] ko'makchisi bilan [*-dek*], [*-day*] qo'shimchalarining ma'nodoshlik xususiyati tilshunoslarimiz tomonidan qayd etilgan. Formal tilshunoslikda bu affikslar ravish yasovchi qo'shimcha sifatida berilgan. [*-dek*], [*-day*] affikslari orqali yasalgan ravishlar harakat va holatning yasash asosida ifodalangan narsa yoki belgi-

xususiyat bilan o'xshashligini, qiyoslashni bildiradi: *tog'-dek, ot-dek, lochin-day, qadimgi-day, ilgarigi-dek, avvalgi-dek, burungi-day, gul-day* kabi: *Qalandarov ertasiga* ***kundagiday*** *saharda idoraga chiqdi.* (A.Qah.). *U go'yo tug'ilib o'sgan qishlog'ini* ***ko'rmoqchiday*** *boshini ko'tarib hayajon va sog'inch bilan uzoqlarga tikildi.* (Oyb.). Bu o'rinda ham til hodisalarini izohlashda zo'rma-zo'rakilik yuzaga kelgan. Natijada, nutqimizda tez-tez ishlatiladigan ushbu qo'shimchalar boshqacha talqin etilgan. Buni quyidagi oddiy qiyosda ko'rish mumkin (26-jadval):

26-jadval

[*-dek*], [*-day*] (qo'shimcha-simon ko'makchi)	[*kabi*], [*singari*], [*yanglig'*] (sof ko'makchi)
1. *Oy**dek** go'zal qiz.*	*Oy **kabi** go'zal qiz.*
2. *Tog'**dek** yuksak.*	*Tog' **kabi** yuksak.*
3. *Lochin**day** dadil.*	*Lochin singari dadil.*
4. *Ilgarigi**dek** qadrdon bo'lib ketishgan.*	*Ilgarigi **kabi** qadrdon bo'lib ketishgan.*
5. *Gul**day** ochilib menga bir bor qaramaysiz.*	*Gul **yanglig'** ochilib bizga bir bor qaramaysiz.*

Oddiy mantiq [*-dek*], [*-day*] qo'shimchasi [*kabi*] ([*singari*], [*yanglig'*], [*misol*], [*misoli*]) sof ko'makchisiga sinonim ekanligini, [*-dek*], [*-day*] qo'shimchasida so'z yasash xususiyati yo'qligini ko'rsatib turibdi.

[*-dek*], [*-day*] qo'shimcha shaklidagi ko'makchi hamisha o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi va urg'uli bo'ladi, ko'pincha bir-birini almashtira oladi. Ular bitta ko'makchining ikki ko'rinishi.

[*-dek*], [*-day*] ko'makchi-qo'shimchasi o'zining eski adabiy o'zbek tilida keng qo'llangan [*-dayin*] ko'rinishiga ham ega. Bu ko'rinish hozir, asosan, ko'tarinki uslubda, she'riyatda qo'llaniladi: 1. *Oy**dayin** ruxsoringga zoru intizorman o'zim.* 2. *Zihi sarv ustida yuzung qamardayin, Qani bir shoxi gul sen siymbar**dayin**.* («Muhabbatnoma»).

[*-day*] ko'makchisi [*shunday*], [*bunday*], [*qanday*], [*unday*], [*allaqanday*] kabi olmosh; [*jinday*], [*qittay*], [*arziguday*], [*aytganday*], [*jo'jabirday*], [*o'lguday*], [*davangirday*] kabi ravish tarkibida yaxlitlanib, qotib, o'zakdan ajralmaydigan bo'lib qolgan.

[*Qadar*], [*dovur*] ko'makchisi hokim bo'lakka tobelanish munosabatini yuzaga chiqarar ekan, bunda o'rin, payt ma'nosini ifodalaydi. [*Qadar*] ko'makchisi [*-ga*] qo'shimchali ot va olmosh

bilan qo'llanib, «chegara», «nihoya» ma'nosini bildiradi: *Tantanali yig'ilish boshlangunga* ***qadar*** *askiya, o'yin-kulgi davom etdi.* (Oyb.). [*Qadar*]ga ma'nodosh qo'shimchasimon ko'makchi sifatida [*-cha*] qo'shimchasining to'g'ri kelishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan: *Mehmonlar kechga* ***qadar*** *o'tirishdi – Mehmonlar kech****gacha*** *o'tirishdi.*

[*Orqali*] ko'makchisi harakatning biror vosita bilan bajarilishini bildiradi: *Anvar o'z istiqbolini yolg'iz muhabbat* ***orqali*** *ko'rar edi.* (A.Qod.). [*Bilan*] va [*orqali*] ko'makchilari vosita ma'nosini anglatishga ko'ra ma'nodoshlik hosil qiladi. Ammo bu ma'nodoshlik ma'lum kontekstdagina voqelanadi. O'rin ma'nosini ifodalagan otlar bilan birikkanda [*bilan*] va [*orqali*] ko'makchilari sinonim bo'ladi: *Katta yo'l* ***orqali*** *yurib borib chapga burildik – Katta yo'l* ***bilan*** *yurib borib chapga burildik.* Agar ko'makchi boshqarayotgan ot o'rin ma'nosini ifodalamasa, bu ko'makchilar ma'nodoshlik kasb etmaydi. Chunonchi, *Yigitga deraza* ***orqali*** *to'yib-to'yib qarashga zor bo'lsa-da,...* (Oyb.).

[*Sari*] ko'makchisi harakatning yo'naltirilgan o'rni, payti ma'nosini anglatadi: *Hirot* ***sari*** *yurdik.* (Oyb.). *Ko'krak og'rig'im borgan* ***sari*** *battar bo'lyapti.* (Oyb.). [*Sari*] ko'makchisi o'rin, tomon, payt ma'nosini bildirganda [*sayin*] ko'makchisi bilan ma'nodosh bo'ladi. Gapda payt, o'rin holi, to'ldiruvchi vazifasida keladi.

Ma'lumki, sistem tahlil jarayonida har bir narsaning mohiyati shu narsaning o'ziga o'xshash, ayni vaqtda undan farqli va unga zid boshqa narsalar bilan bo'lgan munosabati orqali ochiladi. Jumladan, o'zbek tilining lug'aviy tizimi mustaqil va yordamchi leksemaga bo'linadi. O'z navbatida, mustaqil leksema atash/nomlash vazifasini bajaruvchi atovchi leksema va ishora ma'noli leksema (olmosh)ga, yordamchi esa ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaga, bularning har biri, o'z navbatida, yana boshqa guruhga pog'onali ravishda bo'linib ketaveradi. Tilimizning yordamchi so'z, mustaqil so'z va morfema tizimi izchil pog'onaviy (ierarxik) tuzilishga ega bo'lib, nisbiy va quyi pog'onalar o'zaro gipo-giperonimik (tur-jins) munosabati bilan bog'lanadi – har bir yuqori bosqich quyi pog'ona uchun giperonim mavqeida, quyi bosqich yuqori bosqichga nisbatan giponim mavqeida bo'ladi. Demak, so'z yoki morfema ma'lum bir pog'onadan o'tib, lisoniy birlik darajasiga yetadi. Quyida ayrim yordamchi so'z (ko'makchi) ning umumlisoniy ma'nosini berishga harakat qilamiz:

[*Bilan*] – leksik sath birligi–ma'noviy nomustaqil – umumlashgan grammatik ma'noli – shaklan morfologik o'zgarmas;

– leksoid va affiksoid ko'rinishli – yakka qo'llanishli – sintaktik bog'lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

[*Kabi*] – leksik sath birligi – ma'noviy nomustaqil – umumlashgan grammatik ma'noli – shaklan morfologik o'zgarmas; – leksoid ko'rinishli – yakka qo'llanishli – sintaktik bog'lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

Boshqa ko'makchiga ham shunga o'xshash ta'rif berish mumkin.

Nisbiy ko'makchi haqida. Mustaqil so'zning «nomustaqillik» belgisiga nisbatan mo'tadilligi sababli mustaqil so'z ichidan nisbiy yordamchi ajralib chiqadi. Nisbiy ko'makchi bir xususiyati bilan ma'noviy mustaqil, ikkinchi xususiyati bilan ma'noviy nomustaqil leksemaga o'xshab ketadi va oraliq uchinchi guruhini hosil qiladi. Leksema nomustaqil leksema sifatida voqelanganda, leksema sememasi o'z muayyanligini kuchsizlantiradi va semema grammatik ma'no sifatida voqelanadi. Chunonchi, quyidagi gaplarda berilgan [*ko'ra*] leksemasining ma'nolarini qiyoslashga harakat qilamiz: 1. *Yaxshi-yomonni* ***ko'ra-ko'ra*** *odamning yaxshimi, yomon ekanini tez ajratib oladigan bo'lib qolgan.* (A.Qah.). 2. *Qalandarovdan shikoyat boshlashdan* ***ko'ra*** *ko'proq bu noqulay ahvoldan chiqish uchun* ... (A.Qah.) 1-gapda qo'llanilgan [*ko'ra*] «ko'z bilan ko'rmoq, kuzatmoq» semasiga ega bo'lsa, 2-gapda «ko'rish» semasi kuchsizlangan va «chog'ishtirish, qiyoslash» grammatik ma'nosini voqelantirgan. 1-gapda qo'llanilgan [*ko'ra*] [*ko'rmoq*] fe'lining ravishdosh shakli bo'lsa, 2-gapda fe'l ko'makchi sifatida tobelanish munosabatini hosil qilgan. Qolgan nisbiy ko'makchilar ham xuddi shunday xususiyatlarga ega. [*Old*], [*oldin*], [*orqa*], [*ro'para*], [*qarshi*], [*avval*], [*keyin*], [*so'ng*], [*oxir*], [*tomon*], [*ost*], [*ust*], [*tag*], [*tepa*], [*yon*], [*uch*], [*ich*], [*o'rta*], [*ora*] kabi o'rin va payt ma'noli ot, [*bosh*], [*qosh*], [*lab*], [*og'iz*], [*oyoq*], [*qorin*] kabi tana a'zolari nomi, [*qariyb*], [*bo'ylab*], [*boshlab*], [*ko'ra*], [*deya*], [*deb*], [*atab*], [*o'xshab*] kabi ravishdosh ko'p holda ko'makchi vazifasida keladi va ko'makchi sirasining boyishiga sabab bo'ladi. Bunday holda bu so'zlar nisbiy yoki yarim ko'makchi sanalib, o'zi birikib kelgan so'z bilan birgalikda bir gap bo'lagi, ko'pincha, hol bo'lib keladi. Ko'makchidan [*bilan*], [*uchun*], [*kabi*], [*singari*], [*yanglig'*], [*sayin*], [*sari*], [*sababli*], [*orqali*], [*tufayli*], [*chog'li*], [*bo'ylab*], [*haqida*], [*to'g'risida*] kabilar o'zi birikib kelgan so'zga hech qanday qo'shimchasiz bog'lanadi; [*tomon*], [*qadar*], [*qarshi*], [*qaraganda*],

[*doir*], [*binoan*], [*qaramay*] kabi ko'makchi o'zi birikib kelgan so'zdan [*-ga*] qo'shimchasini qabul qilishni talab qiladi: *qonunga binoan, ukasiga qaraganda, baxtga qarshi; so'ng, keyin, boshqa, tashqari, buyon, avval, ilgari, boshlab* ko'makchisi [*-dan*] qo'shimchali so'z bilan birikadi: *bundan avval, o'qishdan keyin, tanaffusdan so'ng* kabi. Ko'makchining grammatik munosabatni yaratib, kelishik qo'shimchasiga o'xshash vazifani bajarishi haqida yuqorida qisman aytib o'tilgan edi. Darhaqiqat, ko'makchi shu xususiyati bilan ham boshqa yordamchi so'zdan farq qiladi. A.N.Kononov ta'biri bilan aytganda, ko'makchi ko'p holda kelishikning dubleti sanaladi. Masalan: *Ukamga oldim — Ukam **uchun** oldim. Siyohda yozdi — Siyoh **bilan** yozdi. Telefonda gaplashdi — Telefon **orqali** gaplashdi. Akamni gapirdi — Akam haqida gapirdi.*

Bog'lovchi

Bog'lovchi va uning shakliy ko'rinishlari. Bog'lovchi ham ko'makchi kabi sintaktik aloqa vositasi sanalib, ulardan tobe munosabatni ifodalashdan tashqari, teng munosabatni ham hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bog'lovchi gap bo'laklari, qo'shma gapning sodda gapga teng qismlari orasidagi turlicha aloqani, grammatik munosabatni ko'rsatadi. Bog'lovchining mohiyati, o'zbek adabiy tilidagi bog'lovchining turi, bu turga oid so'zlar tilshunosligimizda keng o'rganilgan. Mavjud adabiyotlarda bog'lovchining turi va bu turga qaysi so'z mansubligi masalasida turlicha nuqtayi nazar bor, ya'ni bir tadqiqotda bog'lovchi deb berilgan birlik boshqasida yuklama qatoriga kiritiladi, ko'makchi deb berilgan birlik bog'lovchi deb tan olinadi. Bog'lovchiga oid so'zning aniq belgilanmasligi sababi ular lison-nutq jihatidan o'rganilmaganligida bo'lsa kerak.

Bog'lovchini ham ko'makchi singari shakliy jihatdan uch guruh (sof bog'lovchi, nisbiy bog'lovchi, qo'shimchasimon bog'lovchi) ga ajratib o'rganish lozim. Sof bog'lovchi guruhiga faqat bog'lovchi vazifasida qo'llaniladigan [*va*], [*hamda*], [*yo*], [*yoxud*], [*yoki*], [*ammo*], [*lekin*], [*biroq*], [*chunki*], [*shuning uchun*], [*agar*], [*ya'ni*] kabi yordamchi so'z xos. Qo'shimchasimon bog'lovchi guruhiga [*-ki (-kim)*], bog'lovchi va yuklama vazifasida kela oladigan [*-u/-yu*], [*-da*], [*-mi*] qo'shimchasi mansub. [*-u/yu*], [*-da*] qo'shimchasining bog'lovchi vazifasini to'la-to'kis bajarishi qator manbada qayd etilgan, [*-mi*] qo'shimchasida ham bog'lovchilik xususiyati borligini 1. *Yomg'ir yog'dimi, hamma*

joy nam bo'ladi. 2.*Karim keldi**mi**, to'polon boshlanadi* tipidagi gaplar tasdiqlaydi. Ushbu gaplarda qo'llangan [*-mi*] qo'shimchasi ta'kid ma'nosini voqelantirgan holda sodda gaplarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Nisbiy bog'lovchiga mustaqil so'z turkumidan o'sib chiqqan, «oraliq uchinchi» tabiatiga (ham mustaqil, ham yordamchi) ega bo'lgan [*ba'zan*], [*bir*], [*vaqtida*], [*hali*], [*goh*] ([*goho*]) kabi so'zlarning takroriy shakli misol bo'ladi. Chunonchi, 1. ***Ba'zan*** *Qoratoyning ishxonasida,* ***ba'zan*** *choyxonada tunab yurdi.* (Oyb.). 2. *Ikki kundan beri* ***goh*** *savalab,* ***goh*** *shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir hammayoqni ivitib yubordi.* (A.Qah.). 3. ***Vaqtida*** *qor yog'adi,* ***vaqtida*** *yomg'ir.* Bu gaplarda qo'llanilgan [*ba'zan*], [*goh*], [*vaqtida*] so'zlarining vazifasi bog'lovchiga juda yaqin.

1. *Salima tez qaytdi.* ***U*** *yangi xabar olib keldi.* 2. *Brigadada mehnat yaxshi uyushtirilmadi.* ***Natijada*** *hosil kam bo'ldi.* 3. *Azimboy ko'p zulm o'tkazdi.* ***Oqibatda*** *xalqning sabr kosasi to'ldi* gaplaridagi [*u*], [*natijada*], [*oqibatda*] so'zlari birinchi gapni ikkinchi gap bilan bog'lab kelmoqda. Demak, [*u*], [*natijada*], [*oqibatda*] so'zi ham nisbiy bog'lovchi sirasiga kiritilsa to'g'ri bo'ladi. Ikkinchi gapning mazmuni birinchi gapsiz aniq emas. Yordamchi so'z nafaqat so'z, hatto gap va matn qismlarini ham bog'lashga xizmat qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili bo'yicha darslik va qo'llanmalarda bog'lovchilarning vazifa jihatidan turlari quyidagicha belgilangan:

I. **Teng bog'lovchi**. 1. Biriktiruv bog'lovchisi: [*va*], [*-u/-yu*], [*hamda*]. 2. Ayiruv bog'lovchilari: [*yo*], [*yoki*], [*yoxud*], [*goho*], [*dam*]... *dam*, [*bir... bir*], [*ba'zan... ba'zan*]. 3. Zidlov bog'lovchisi: [*ammo*], [*lekin*], [*biroq*].

II. **Ergashtiruvchi bog'lovchi**. 1. Aniqlov bog'lovchisi: [*ya'ni*], [*-ki/-kim*]. 2. Sabab bog'lovchisi: [*chunki*], [*shuning uchun*], [*zeroki*]. 3. Shart bog'lovchilari: [*agar*], [*agarda*], [*agarchi*]. 4. Chog'ishtiruv bog'lovchisi: [*go'yo*], [*go'yoki*]. Teng bog'lovchi, ergashtiruvchi bog'lovchining ma'no va vazifa tomoni, imlo xususiyati formal tilshunoslik bo'yicha darslik va qo'llanmada atroflicha bayon etilgan.

Bog'lovchi-yuklamaning mohiyati. Ayrim so'zning bog'lovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bog'lovchining miqdori, ularning mohiyati, turi hanuzgacha aniq belgilanganicha yo'q. Masalan, chog'ishtirish bog'lovchisiga [*go'yo*], [*go'yoki*] so'zi kiritiladi. Ammo bu so'z gap bo'laklari yoki gaplarni bog'lash uchun emas, balki o'xshatish,

qiyoslash ma'noli qurilmalarda shu ma'noni ta'kidlash uchun xizmat qiladi, o'xshatish, qiyoslash ma'nosi esa boshqa vosita bilan ifodalanadi: *Beda orasi juda issiq,* ***go'yo*** *quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday.* (Oyb.). *Nay sadosining mayin to'lqinlari tip-tiniq havoda yoyilarkan,* ***go'yo*** *hammayoq jonlangan kabi tuyuldi.* (Oyb.). Ushbu misollarda o'xshatish, qiyoslash [*-dek*] qo'shimchasi va [*kabi*] so'zi bilan ifodalanyapti, [*go'yo*] esa shu ma'noni ta'kidlamoqda. Demak, [*go'yo*] ta'kid yuklamasi hisoblanadi. [*Balki*] yordamchisi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. [*Balki*] qo'llanishidagi ba'zi xususiyatiga ko'ra, zidlov bog'lovchisidan farq qiladi. Zidlov bog'lovchisi ko'pincha qo'shma gap qismlarini bog'laydi, [*balki*] yordamchisi bunday vazifani bajarmaydi: *Havo bulut bo'ldi,* ***lekin*** *(ammo, biroq) yomg'ir yog'madi.* Bu misolda zidlov bog'lovchisi o'rnida *balki* so'zini qo'llab bo'lmaydi. [*Balki*] so'zi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gapda gumon, qarama-qarshilik ma'nosini ta'kidlash uchun qo'llanadi:*...toping,* ***balki*** *tanishlaringiz bordir.* (Oyb.). *Chunki biz Azizbek kabilardan xalqnigina emas,* ***balki*** *o'zimizni ham qiynatdirmog'damiz.* (A.Qod.). *Bu gap menga yoqmas,* ***balki*** *battar jahlimni chiqarardi.* O'z-o'zidan anglashiladiki, *balki* sof bog'lovchi bo'lolmaydi, bog'lovchi funksiyasini bajarayotgan yuklama sirasidan joy oladi. Qisqasi, bir turdan ikkinchi turga o'tish va bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi kabi oraliq hodisa hosil qilish – yordamchi so'z tabiatiga xos xususiyat, ularning ichki manba asosida boyishining bir yo'li. [*Ham... ham*] biriktiruv bog'lovchisi ta'kid qo'shimcha ma'no bo'yog'iga ega, [*na...na*] esa inkor ma'nosini ifodalaydi, [*-mi*] so'roq-taajjub yuklamasi esa gap tarkibida bog'lash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun bular bog'lovchi-yuklama hisoblanadi. Misollar: 1. ***Na*** *so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo.* (O.). 2. *Bir tovuqqa* ***ham*** *suv kerak,* ***ham*** *don kerak.* (Maq.). 3.*U bir gapni aytdi****mi****, albatta, qiladi.*

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek tili bog'lovchisining ma'no va xususiyati tamomila boshqacha, ularni turkona tahlil qilish, bog'lovchi bilan bog'liq masalalarni ilmiy hal etish bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan bosh vazifalardan biri sanaladi.

Yuklama

Yuklamaning ma'no va vazifasi. Yordamchi so'zning funksional belgisi — «bog'lash». Shu belgi asosida ko'makchi, bog'lovchi, yuklama so'z va gapni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog'lovchi va ko'makchi uchun o'zgarmas, barqaror. Yuklamaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z yoki gapga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o'xshatish kabi qo'shimcha ma'no beradi va funksional «bog'lash» belgisiga nisbatan beqaror, o'zgaruvchan sanaladi, ya'ni «bog'lash» belgisi unda bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Chunonchi, [*na-na*] yordamchisi teng bog'lovchining bir turi sifatida inkor bog'lovchisi sanalib kelgan. Tilshunos G'.Abdurahmonov esa uni inkor bog'lovchi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ham egaligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog'lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog'lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo'lak (komponent)larga inkor ma'nosini berib, ularni bog'laydi: ***Na** so'zlarida ma'no bor, **na** ishlarida hayo.* (Oyb.). Bu yordamchi so'z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma'nosini ko'rsatadi: *Raisning erkatoy o'g'li **na** o'qiydi, **na** biror joyda ishlaydi.*

[Go'yo] yordamchisi mazmunidan o'xshatish yoki chog'ishtirish ma'nosi anglashilgan sodda va qo'shma gap tarkibida ishtirok etadi. Sodda gapda ko'proq yuklamaga yaqin turadi: *Tursunoy **go'yo** qalbi bilan ashulaga jo'r bo'lar edi.* (A.Mux.). *Kampirning yuzida **go'yo** kulgiga o'xshagan bir narsa aks etdi.* (A.Qah.) [*Go'yo*] yordamchisi qo'shma gapda sodda gap qismlarini biriktiruvchi grammatik vositaning biri sifatida xizmat qiladi, ya'ni qo'shma gapda sodda gapdagi vazifasidan farqli o'laroq, faqat yuklamagina emas, balki bog'lovchi-yuklama sanaladi: *Ertaga nikoh bo'ladi, **go'yo** men uning xotini.* (Oyb.). *Shunday baqirdiki, **go'yo** butun xona larzaga kelgandek bo'ldi.* (A.Qah.) *Aytdimi, qiladi. Qo'ydi-da, chiqdi* gaplarida ham [*-mi*], [*-da*] qo'shimcha yuklamalarning bog'lovchilik xususiyatini kuzatish mumkin. Demak, yuklamaning qo'shma gap tarkibiy qismini o'zaro bog'lash vazifasi keng uchraydigan hodisa va bu tilshunosligimizda ma'lum darajada o'rganilgan.

Yuklamaning tuzilish turlari. Ko'pgina leksoid yordamchi so'zning affiksoid ko'rinishi mavjud, bu yuklamaga ham tegishli: [*ham*], [*-am/-yam*]; [*uchun*], [*-chun*]; [*-u*], [*-yu*]; [*bilan*], [*-ila*],

[*-la*] shular jumlasidan. Yuklama shakliy jihatdan uch xil ko'rinishga ega:

1. Qo'shimchasimon yuklama ([*-mi*], [*-chi*], [*-a*], [*-ya*]).
2. Sof yuklama ([*xuddi*], [*faqat*], [*axir*]...).
3. Nisbiy yuklama ([*yolg'iz*], [*ba'zan*], [*tanho*], [*bir*]...).

Yuklamaning shakliy va vazifaviy turlari. Yuklama vazifaviy jihatdan quyidagi ma'no turiga bo'linadi:

1. **So'roq yuklamasi**: [*-mi*], [*-chi*], [*-a*], [*-ya*], [*nahotki*]. Bu yuklama turli so'z turkumiga qo'shilib, so'roq ma'nosini bildiradi. Ba'zan, so'roq ma'nosidan tashqari, taajjub, hayrat ma'nosini ham ifodalaydi.

[*-mi*] yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi, [*-chi*], [*-a*], [*-ya*] yuklamasi esa o'zidan oldingi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: 1. *Kiyganingiz ipakmidi, kimxob**mi**di, Sevganingiz bizlardan ham ortiq**mi**di?* 2. *Opang-**chi**? Sen-**chi**? Men-**a**? Meni-**ya**?* 3. *Nahotki, shu gaplarga ishongan bo'lsangiz.*

2. **Ayirish-chegaralash yuklamasi**: [*faqat/faqatgina*], [*-gina/-kina/- qina*].

Bu yuklama ayrim narsa va hodisani boshqasidan ajratish, harakatni chegaralash uchun qo'llanadi. [*-gina*] affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: 1. *To'yga **Sheraligina** kelmadi, xolos.* 2. *O'ktam indamadi, **faqat** yuragida to'lqinlangan mehr bilan onasiga tikildi.* [*Faqat*] yuklamasining o'rnida [*yolg'iz*] so'zini ham qo'llash mumkin. Sifat so'z turkumiga oid bu so'z nisbiy yuklama hisoblanadi: *Sobir, **yolg'iz** senga suyandim (Sobir, **faqat** senga suyandim).*

3. **Ta'kid yuklamasi** ([*-ku*], [*-da*], [*-u*], [*-yu*]) gapda ifodalangan biror voqeani ta'kidlash uchun qo'llaniladi: *Sobir-**ku** keldi, Mahmud kelmadi-**da**!*

4. **Kuchaytiruv yuklamasi**: [*axir*], [*hatto*], [*hattoki*], [*-oq/-yoq*].

[*-oq/-yoq*] affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. Harakatning birin-ketin tezlik bilan davom etishini, boshlanish paytini, ta'kidlashni ko'rsatadi: *Gullarni **ko'riboq** ko'ngli yorishdi.* [*Axir*], [*hatto*], [*hattoki*] yuklamasi ham fikrni kuchli ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatishni ifodalaydi: ***Axir** do'stimsan-ku!*

5. **O'xshatish-qiyoslash yuklamasi**: [*xuddi*], [*naq*], [*go'yo*], [*go'yoki*]. 1.*Bahorda bu bog'lar **go'yoki** kelindek yasanadi.* 2.*Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, **go'yo** kechaning o'zi kuylaydi* kabi gapda yuklama-bog'lovchi vazifasini bajaradi.

6. **Inkor yuklamasi**: [*na*]. Takror holda ishlatilib, inkor ma'nosini ifodalaydi:

Na ko'kning fonari o'chmasdan,
Na yulduz sayr etib ko'chmasdan. (Uyg'.).

1. Ko'makchi, bog'lovchi va yuklama nutqimizning cheksiz imkoniyatini boyroq, ifodalarimizning yanada aniqroq va go'zalroq bo'lishini, jumlalarning rang-barangligini ta'minlovchi muhim vositalardan.

2. Yordamchi so'z til tizimida mohiyatan mustaqil so'z bilan qo'shimcha oralig'ida turadi.

3. Bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi, ko'makchi-yuklama kabilar — til tizimida yordamchi so'z turkumiga xos bo'lgan «oraliq uchinchi».

4. Tilimizda nisbiy ko'makchi, nisbiy bog'lovchi, nisbiy yuklama sirasi mustaqil so'zning yordamchilashishi evaziga boyib bormoqda.

6. Yuklama o'z mohiyati bilan modalga yaqin. Shu tufayli bu ikkisi ko'pincha birgalikda tasvirlanadi. Ammo modal so'z bilan yuklamani tenglashtirib bo'lmaydi. Yuklama:

1) rang-barang ma'noni ifodalaydi, shulardan ba'zilarigina modal ma'noga yaqin keladi;

2) ko'pincha mustaqil ishlatilmaydi, biror so'zga tirkalib keladi. Modal so'zlar esa:

a) gap tarkibida gap modalligini kengaytiruvchi, murakkablashtiruvchi vosita sifatida ro'yobga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, **[WPm]** gap qurilish qolipining **(Pm)** qismida mujassamlangan va xilma-xil vosita bilan ifodalanadigan tasdiq/inkor, taxmin, gumon, shubha, ishonch, shart, qat'iylik, istak, imkoniyat kabi ma'nolar gapning boshqa bo'laklari bilan tobe-hokimlik munosabatiga kirishmaydigan modal so'z, tasdiq/inkor so'zi vositasida kengaytiriladi: *Kanizak, **aftidan**, shuni aytmoqchi edi...*(A.Qah.).

b) mustaqil ravishda yakka o'zi bitta gap bo'lib kela oladi va modal so'z-gap deb yuritiladi. Bunday so'z-gapning barchasida kesimlik kategoriyasi ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosida mujassamlashgan bo'ladi: *Kelasizmi? — **Albatta**.*

3) yuklama morfologiyada yordamchi so'z guruhida, modal so'z-gap doirasida o'rganiladi;

4) boshqa so'z guruhi kabi modal ham, yuklama ham o'ziga xos morfologik, sintaktik, ma'noviy belgiga ega. Modal bilan yuklamaning o'zgarmasligi ularning morfologik belgisiga kiradi.

Sintaktik jihatdan esa modal ajraluvchilik (ya'ni kirish so'z vazifasida kela oladi), yuklama esa muchalanmaslik (gap bo'lagi bo'la olmaslik) belgisiga ega. Semantik jihatdan modal so'z fikrning voqelikka munosabatini ifodalaydi va butun gapga taalluqli bo'ladi. Yuklama esa ta'kid, o'xshatish, kuchaytirish kabi qo'shimcha ma'no ifodalaydi. Yuklama ifodalagan ma'no butun gapga bevosita taalluqli bo'lmay, avvalo, o'zi tirkalib kelgan bo'lakning ma'nosini bo'rttirishga xizmat qiladi va shu bo'lak orqali butun gapga taalluqli bo'ladi.

So'z-gap

So'z-gap to'plamini ajratish tamoyillari. O'zbek tilshunosligida so'z-gapning mohiyati, turlari, ularning leksik materiali tavsifi, qo'llanish xususiyati empirik asosda yetarlicha o'rganilgan. Substansial yondashuvda gapning eng kichik qurilish qolipi **[WPm]** sifatida qayd etilgach, ziddiyatli, izohtalab nuqtalarga ega bo'lgan so'z-gapga ham «lison-nutq» tamoyili asosida yondashish zaruriyati paydo bo'ldi va har bir gapning o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi, so'z-gapning ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish modeli bo'lishi shartligi e'tirof etildi.

So'z-gap umumiy atamasi ostida birlashtiriladigan so'zlarning alohida belgilari mavjudki, ular shu belgisi bilan mustaqil, yordamchi so'zdan, shuningdek, yoxud qo'shma gapdan farq qiladi. Bular quyidagilar:

1) mustaqil holda gap bo'la olish;

2) gap tarkibida shu gapning biror bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olmaslik;

3) o'ziga xos g'ayrioddiy ma'noga ega bo'lish;

4) bog'lamalar bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs/son shakllariga ega emaslik.

So'z-gap sirasiga shu to'rt asosiy belgi bilan bir majmuaga birlashuvchi birliklar kiradi (bu tipdagi birliklar kirish so'z vazifasida ham keladi, lekin ularning substansial belgisi – so'z-gap bo'lib kelish). Quyida ularning har biri alohida-alohida ko'rib o'tiladi.

1. Mustaqil holda alohida gap bo'la olish belgisi. Bu belgi 4-belgi bilan chambarchas bog'langan. O'zbek lisoniy tizimi gapda ma'lum bir axborotni tashuvchi tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son ma'no va munosabatini ifodalovchi tarkibiy qism zarur bo'lishini talab qiladi. So'z- gapda bunday tarkibiy qismni alohida-

alohida ajratish mumkin emas. Lekin kesimlik ma'no va munosabati so'z-gapning o'zida mujassamlashgan va ularning ichki mohiyatini tashkil qiladi. Bunday gaplarda kesimlik kategoriyasi ma'nolari hamda kesimlik – gap markazi mavqeida kelishida – fikrni shakllantirish, ifodalash vazifasi bor. Ular gap sifatida voqelanuvchi so'zning leksik ma'nosida mujassam. Shu sababdan bunday gapda kesimlik mavjud, ammo kesimlik shakli ifodalanmagan.

2. So'z-gap **mustaqil gap bo'la olish** qobiliyatiga ega bo'lganligidan bu so'zga nisbatan *semantik funksional shakllangan so'z-gap* atamasi qo'llaniladi. Bu atamadagi «semantik» tarkibiy qismi hodisaning lug'aviy (ma'noviy) tomoniga ishora qilib turadi. Gap markazi mavqeida kelgan bunday leksemaning ikki tabiiy xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni leksik birlik ham so'z, ham gap. Bu atamaning funksional tarkibiy qismi esa so'z-gapning sintaktik vazifa bajarishi faqat gap markazi vazifasida kela olish i bilan chegaralanganligini ifodalaydi. Demak, semantik-funksional shakllangan gap grammatik shakllangan gap **([WPm])** dan farq qiladi va kesimlik ma'nosi so'z-gapda leksik birlikning yoki atov birligi **[W]**ning o'zida mujassamlashganligi tufayli lisoniy qurilish qolipi **[W^]** sifatida berilgan.

3. So'z-gapning o'ziga xos g'ayrioddiy lug'aviy ma'noga egaligi. Bu xususiyat quyidagida namoyon bo'ladi:

a) ma'no imkoniyati chegaralangan;

b) grammatik shaklni talab qilmaydi;

d) boshqa so'z bilan birikish qobiliyatidan mahrum;

e) gapda bajara oladigan vazifasi cheklangan;

f) ma'noli qismga ajralmaydi.

Shuning uchun ham bu tur leksemalar boshqa leksemalarga nisbatan g'ayrioddiy, biroq ma'no va vazifa jihatidan alohida barqaror til birligi hisoblanadi.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, taqlid so'z turkumlari gapning istalgan bir bo'lagi vazifasida kela olsa, so'z-gap gap (yoki uning markazi) vazifasida kela olishga xoslangan, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama esa sintaktik aloqani ifodalash uchun xizmat qiladi.

So'z-gap tasnifi. So'z-gap o'z ichida bir necha ma'noviy guruhga ajraladi: 1. Modal. 2. Undov. 3. Tasdiq /inkor. 4. Taklif /ishora.

So'zlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabati – qat'iy ishonch, gumon, taxmin kabi ma'noni ifodalab keladigan so'z

*modal*dir. Unga [*xullas*], [*demak*], [*chamasi*], [*tabiiy*], [*ehtimol*], [*shubhasiz*], [*shekilli*] kabi so'z misol bo'ladi.

Kishilarning his-tuyg'usini, haydash, to'xtatish kabi xitob, buyruqni ifodalaydigan so'z-gap ko'rinishi — *undov so'z-gap*. His-tuyg'u undoviga [*eh*], [*voy*], [*oh*], [*barakalla*], [*rahmat*], [*ofarin*] kabi so'z, buyruq-xitob undovlariga [*pisht*], [*beh-beh*], [*pisht-pisht*], [*chuh*] kabi xitob so'z kiradi.

So'z-gapning uchinchi ma'noviy guruhi bo'lgan tasdiq/inkor so'z ko'pincha modal tarkibida o'rganilgan. [*Ha*], [*mayli*], [*xo'sh*], [*xo'p*] so'zi tasdiqni, [*yo'q*], [*mutlaqo*], [*aslo*], [*sira*] so'zi — inkorni ifodalovchi so'z-gap.

Taklif/ishora so'z-gapga qo'llanishi tana a'zolarining maxsus harakati bilan uzviy bog'liq bo'lgan [*ma*], [*mang*], [*qani*], [*marhamat*] so'zi kiritilgan. Ular tinglovchiga qaratilgan bo'lib, uni biror ish-harakatni bajarishga undaydi.

So'z-gap shunday birliklar guruhiki, ularning ko'pchiligi boshqa so'z turkumidan tarixiy taraqqiyot jarayonida o'ziga xos nutqiy qo'llanish natijasida shakllangan va rivojlangan. Chunonchi, [*so'zsiz*], [*tabiiy*] so'zi sifatdan, [*albatta*] ravishdan o'sib chiqqan bo'lsa, [*har qalay*], [*har holda*] modal so'z-gapi so'z birikmasidan, [*nasib bo'lsa*], [*xudo xohlasa*] kabilar gapdan kelib chiqqan.

Sof so'z-gapga [*albatta*], [*alhamdulilloh*]; [*eh*], [*hoy*], [*oh*], [*o'h*]; [*ha*], [*yo'q*], [*mutlaqo*]; [*ma*], [*mang*] kabi modal, undov, tasdiq/inkor, taklif/ishora so'zi mansub. O'zbek substansial tilshunosligida so'z-gap [W^]-lashgan (modallashgan, undovlashgan tasdiq/inkorlashgan, taklif/ishoralashgan) so'zlar, [W^]-lashayotgan (modallashayotgan, undovlashayotgan, tasdiq/inkor-lashayotgan, taklif/ishoralashayotgan so'zlar, [W^]-simon (modalsimon, undovsimon, tasdiq/inkorsimon) so'z-gapga ajratilib, mufassal o'rganilgan.

[W^]-lashgan (so'z-gaplashgan) so'z o'z semantik-funksional xususiyati bilan har xil guruhning markaziy leksemasiga juda yaqin turadi, lekin o'z aloqasini boshqa so'z turkumlaridan to'la-to'kis uzmagan bo'ladi. Chunonchi, modallashgan so'zga [*chamasi*], [*chog'i*], [*ehtimol*]; undovlashgan so'zga [*ura*], [*olg'a*], [*dod*], [*voydod*]; tasdiq /inkorlashgan so'zga [*bo'pti*], [*ma'qul*], [*aksincha*], [*mutlaqo*]; taklif/ishoralashgan so'zga *qani* kabi leksema misol bo'ladi.

[W^]-lashayotgan (so'z-gaplashayotgan) so'z so'z-gapga to'la-to'kis o'tgan bo'lmaydi va «o'tish yo'lida» turgan so'zdir. Bu

o'rinda modallashayotganga [*balki*], [*hatto*], [*aftidan*]; undovlashayotganga [*yashang*], [*voy o'lay*]; tasdiq /inkorlashayotganga [*durust*], [*to'g'ri*], [*rost*], [*aslo*], [*hargiz*]; taklif/ishoralashayotganga [*mana mundoq*] kabi so'zni misol keltirish mumkin. Chunonchi, 1. ***Balki*** *siz aytarsiz nima bo'lganini?* (P.Tur.). 2. *Nafsi uchun emas,* ***balki*** *qadri uchun yig'laydi-da.* (O'.Usm.). 3. — *Qayerga borish, kimga uchrashishni u yaxshi biladi.* — ***To'ppa-to'g'ri.*** (Ch.Ayt.). 4. *Hilola gapning* ***to'g'risini*** *aytdi* (O'.Usm.) gaplarida [W^-lashayotgan] so'z (1-3-gapda) qo'llanilgan.

[W^]-simon (so'z-gapsimon) deganda mohiyatan so'z-gap bo'lmagan lug'aviy birlikning so'z-gap vazifasida kelishi tushuniladi. Jumladan, modalsimonga [*shunday qilib*], [*baxtga qarshi*], [*tavba*], [*xudo saqlasin*]; undovsimonga erkalash ma'noli [*asalim*], [*oppog'im*] va undalma ma'noli [*ey, do'stlar*] kabi; tasdiq/inkorsimonga [*xuddi shunday*], [*hech qachon*], [*noto'g'ri*] kabi; taklif/ishorasimonga [*boshlang*] ko'rinishli so'z misol bo'ladi.

Qisqasi, so'z-gapning leksik-semantik turi bo'lmish sof so'z-gap o'zi tarixan kelib chiqadigan so'z turkumidan batamom uzilgan bo'lib, uning ko'pchiligi ravish, sifat, ot sifatida mutlaqo qo'llanilmaydi. So'z-gaplashgan unsur esa o'zi tarixan kelib chiqqan so'z bilan omonimik munosabat hosil qiladi va o'z aloqasini boshqa turkumdan to'la uzmagan bo'ladi. So'z-gaplashayotgan unsurga o'zi boshqa so'z turkumi (ravish, sifat, olmosh, son, fe'l) ga tegishli, lekin so'z-gapga xos ma'no va vazifada qo'llanila oladigan birliklar kiradi va bularning so'z-gapsimondan farqi shundaki, ushbu qatlamga oid so'z tarixiy taraqqiyot natijasida batamom so'z-gapga o'tib ketishi mumkin. So'z-gapsimon esa o'z turkumi doirasida qoladi.

So'z-gapning sintaktik xususiyati. So'z-gapning sintaktik xusu-siyati yuqorida ta'kidlaganimizdek, kesimlik qo'shimchasini qabul qilmasligi, bog'lama bilan birika olmasligida. So'z-gap ham undalma, sodda gap kabi kengaygan yoyiq holatda bo'lishi mumkin: 1. *Cho'lni o'zlashtirgan mardlarga* ***ofarin.*** (A.Qah.). 2. *Falakning dastidan* ***dod!*** (Hamza.) 3. ***Barakalla*** *sizga!* Misollardan ko'rinib turganidek, so'z-gap faqat bitta so'zdan iborat bo'lmay, nutqda kengayish qobiliyatiga ham ega. So'z-gapning yana bir sintaktik xususiyati shundaki, **[WPm]** qurilishli gapda kesimlik kategoriyasi va ma'nosi **(W)**ga **(Pm)** orqali kiritiladi, **(m)**ning esa o'zbek tilida juda ko'p ko'rsatkichi mavjud. Shakl o'zgarishi bilan kesimlik kategoriyasining ma'no turi ham

o'zgaradi. Masalan, *Bo'ladi. Bo'lmaydi. Bo'lsa. Bo'ldi* va h.k. Ammo so'z-gapda bunday emas. Har bir so'z-gap shu gapga xos bo'lgan ma'noni ifodalashga xoslangan bo'ladi. Chunonchi, [*ha*] so'zi tasdiqni ifodalaydi. Uning bo'lishsizligi *Ha, emas* bilan emas, balki alohida [*yo'q*] so'z bilan ifodalanadi. [*Albatta*] yoki [*shubhasiz*] modal so'zi qat'iy ishonch va tasdiqni ifodalaydi, inkor ma'nosi [*mutlaqo*], [*aslo*] so'z-gapi bilan beriladi.

So'z-gapda zamon va shaxs ma'nosi matnda muayyanlashadi. O'zbek tilida gap (kesimlik) zamon va shaxs ma'nosidan xoli bo'la olmaydi. Zero, so'z-gapda zamon va shaxs-son ma'nosining kontekstual aniqlanish xususiyati bu so'zning asosiy sintaktik xususiyati – kesimlik qo'shimchasini qabul qilmay gap bo'lib kela olishi bilan sharhlanadi. So'z-gapning yana bir sintaktik xususiyati – uning gap tarkibida alohida pozitsiyada turishi, ya'ni boshqa gap bo'laklari bilan bog'lanmasligi va o'zi gap sifatida «yashay olishi», hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qolishi bilan belgilanadi. Chunonchi, 1. – *Ertaga kelasizmi?* – ***Albatta.*** (O'.Usm.). 2. –*Yengil tortdingmi, qizim?* – ***Shukur.*** (A.Qah.).

Ko'rinadiki, so'z-gapning umumiy sintaktik xususiyati ular kesimlik qo'shimchasini qabul qilmagan holda gap va uning markazini tuza olishida. To'rt leksik-semantik turda (modal, undov, tasdiq/inkor, taklif/ishora so'zlar) kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi ma'nodan har biri alohida bo'rttirilgan va «yalang'och» holda yuzaga chiqadi: modal so'zlovchining munosabatini ((P_m)dagi maylni), taklif/ishora «shaxsga qaratilganlik» ma'nosini ((P_m)dagi shaxs-sonni), tasdiq/inkor ((P_m)dagi) tasdiq va inkorni va undov bo'lajak harakatni ((P_m)dagi zamonni) ifodalashga xizmat qiladi.

SINTAKSIS

Sintaksis haqida umumiy ma'lumot

Sintaksis va uning tadqiq manbai. Til o'z kommunikativ vazifasini sintaktik qurilma – gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha – fonetik, leksik, morfologik hodisa ana shu sintaktik qurilishga xizmat qiladi. Biroq bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki o'ziga xos. Zero, har qanday sintaktik hodisada so'z va morfologik ko'rsatkichni ko'ramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatni belgilashda leksik va morfologik omilga tayaniladi.

Sintaksis (gr. sintaxys – tuzish, qurish)ning asosi – gap haqidagi ta'limot. Gap, aslida, so'zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so'zning bog'lanish qonuniyati, so'z birikmasi ham sintaksisda o'rganiladi. So'z birikmalarini o'rganish gap ta'limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas.

Sintaksis so'zning har qanday birikuvini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvni lisoniy mohiyatini tekshiradi. Qaysidir yo'sindagi so'zning birikuvi bo'lgan qo'shma so'z (*uchburchak, ertapishar, sotib olmoq*), frazeologik birlik (*ilonning yog'ini yalagan, po'konidan yel o'tmagan, ko'ngli bo'sh*) sintaksisning tadqiq doirasidan chetda qoladi. Chunki ular erkin bog'lanishga ega emas.

Sintaksis atamasi *grammatika* atamasining o'zi kabi ikki ma'noli:

1) tilning sintaktik qurilishi;
2) grammatikaning tarkibiy qismi.

Atamani ana shu ikkinchi ma'nosida qo'llab, birinchi ma'no ifodasi uchun *sintaktik qurilish* atamasini ishlatamiz.

Asosiy sintaktik birliklar. So'z birikmasi va gap – sintaksisning asosiy birliklari. Shunga ko'ra, sintaksis ikkida bo'linadi:

1) so'z birikmasi sintaksisi;
2) gap sintaksisi.

So'zning nutqda o'zaro aloqaga kirishuvidan so'z qo'shilmasi vujudga keladi. So'z qo'shilmasini ikki guruhga birlashtirish mumkin:

1) gap (*Osmon tip-tiniq*);
2) so'z birikmasi (*tip-tiniq osmon*).

Til jamiyatda aloqa qilish, axborot uzatish vositasi hisoblanadi. Axborot uzatish esa gap orqali amalga oshiriladi. Demak, gap fikr ifodalaydi. So'z birikmasi fikr emas, balki so'z kabi tushuncha ifodalaydi. (Biroq so'z birikmasi ifodalagan tushuncha so'z ifodalagan tushunchadan farqlanadi.) Ko'rinadiki, sintaksisning bosh birligi gap, so'z birikmasi so'z kabi bevosita yoki bilvosita uning tashkil etuvchisidir.

Sintaktik birlik – gap va so'z birikmasi – so'zning qo'shilishidan hosil bo'lishi, bu qo'shilishning esa turli vosita (qo'shimcha, yordamchi so'z) va usul (masalan, tobe aloqaning turi) orqali yuzaga kelishi sintaksisning boshqa sathlar b lan zich aloqada ekanligini ko'rsatadi.

Demak, nutqda:

1) so'zlar o'zaro sintaktik aloqaga kirishib, tushuncha ifodalovchi birlik – so'z birikmasi vujudga keladi. So'zlarning o'zaro birikib, tushuncha ifodalovchi birlik hosil qilish qonuniyatini o'rganish – so'z birikmasi sintaksisining vazifasi;

2) so'z fikr ifodalashga ixtisoslashgan nutqiy birlik – gapni shakllantiradi. Gap hosil qilish qonuniyati bilan gap sintaksisi mashg'ul bo'ladi.

Sintaktik birlikning ikki tomoni. LSQ tushunchasi. Fonetika, leksika va morfologiyada bo'lgani kabi sintaksisda ham lisoniy va nutqiy jihat farqlanadi. Ma'lumki, lisoniy hodisa bevosita kuzatishda berilmaganlik (moddiylikdan xolilik), miqdoran cheklilik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik va majburiylik belgisiga ega, u bevosita kuzatishda berilganlik, miqdoriy cheklanmaganlik, betakrorlik, individuallik, ixtiyoriylik sifatiga ega bo'lgan nutqiy hodisaga qarama-qarshi turadi.

Nutqiy sintaktik birlik sifatida nutqda qo'llanadigan, sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan, o'qish, yozish, aytish, eshitish mumkin bo'lgan so'z birikmasi va gap tushuniladi. Lisoniy sintaktik birlik esa so'z birikmasi va gap hosil qilish qolipi. Lisoniy sathga tegishli bo'lganligi uchun ularni *lisoniy sintaktik qolip* (qisqacha **LSQ**) deb ataymiz.

LSQ g'isht qolipiga o'xshaydi. Inson ongida ham so'zlash, nutqni shakllantirish maqsadida leksemalarni so'z birikmasi shakliga keltirish, gap hosil qilish qolipi mavjud. Ular *LSQ, model, konstruksiya, qurilma* deb nomlansa-da, aslida bir tushunchani ifodalaydi. Masalan, *kitobni o'qimoq* kabi cheksiz birikmani chiqaradigan **[ot$^{\text{tushum kelishigi}}$ + fe'l]** so'z birikmasi qolipi qanday nomlanmasin, uning mohiyatiga ta'sir qilmaydi.

Qolip va nutqiy hosila (so'z birikmasi va gap)lar dialektik birlikda. Qolip nutqiy hosilasiz o'lik va jonsiz, nutqiy hosila esa qolipsiz bo'lishi mumkin emas. Quyida LSQ va nutqiy so'z birikmasi hamda gapning bir-biriga o'xshamaydigan, farqli xususiyatini bayon etamiz.

1. LSQning moddiylikdan xoliligi va nutqiy hosilaning moddiyligi. LSQ jamiyat a'zolari ongida mavjud bo'lib, kishilarning erkin birikma hosil qilish ko'nikmasi sifatida uzoq davr mobaynida shakllanadi. Bu ko'nikma bo'lmasa, inson birikma hosil qila olmaydi. Bunga quyidagi dalil asosida amin bo'lishimiz mumkin. Deylik, biror tilni, masalan, ingliz tilini o'rganmoqchi bo'lgan kishi ongida bu tilga xos birikma tuzish ko'nikmasi – LSQ shakllanmagan bo'lsa, masalan, o'zbekcha *kitob* va *o'qimoq*

so'zining ingliz tilidagi *a book* va *to read* muqobilini bilsa-da, birikma hosil qila olmaydi yoxud o'zbek tiliga xos **[ot$^{tushum\ kelishigi}$ + fe'l]** qolipi asosida *a book to read* deya oladi, xolos. Ingliz tilida esa *kitobni o'qimoq* birikmasini hosil qiluvchi LSQ **[to V+ the N]** ko'rinishida bo'lib, undan *to read the book, to write the letter* kabi hosila paydo bo'ladi.

Ma'lum bo'ladiki, LSQ jamiyat a'zolari ongida yashaydi va moddiy qiyofaga ega emas. Uni sezgi a'zosi asosida bilib bo'lmaydi. Qolipdan chiqqan nutqiy hosilani esa aytish, eshitish, yozish va o'qish mumkin ekan, bu ularning moddiylikka egaligini ko'rsatadi .

2. LSQning ijtimoiyligi va nutqiy birikmaning individualligi. LSQ bir kishi tomonidan emas, balki shu tilda so'zlashuvchi jamiyatning barcha a'zolari tomonidan uzoq vaqt davomida shakllantirilgan. Shuningdek, ular bir kishi uchun emas, balki jamiyatning shu tilda so'zlashuvchi barcha a'zosi uchun birday xizmat qiladi. Bu LSQning ijtimoiy tabiatga egaligini ko'rsatadi.

LSQ asosida vujudga keluvchi nutqiy hosila har bir kishi nutqida o'ziga xos. Masalan, *kitobni o'qimoq* so'z birikmasi har bir so'zlovchi nutqida o'zgacha. Bu nutqiy hosilaning har biri kimning nutqiga tegishliligi, aytilgan o'rni va zamoni, aytilish maqsadi va sharoiti kabi qator belgisi bilan farqlanadi. Hatto bir kishi nutqida aytilgan ikkita *(kitobni o'qimoq* va *kitobni o'qimoq)* so'z birikmasidan ikkinchisi birinchisining aynan takrori emas. Zero, bu nutqiy hosilalar hech bo'lmaganda, so'zlovchi shaxs, nutq vaziyati, zamoni bilan farqlanadi. Nutqiy hosilaning individualligi (alohidaligi)ni shunday tushunmoq lozim.

3. LSQning takrorlanuvchanligi va nutqiy hosilaning betakrorligi. Qolip har bir g'ishtda o'z izini qoldiraverganligi kabi LSQ ham har bir so'z birikmasi va gapda takrorlanaveradi. Lekin ikkinchi g'isht birinchi g'ishtning takrori bo'lmaganligi kabi, nutqiy hosilaga ham betakrorlik xos. Aslida borliqda bevosita kuzatishda berilgan birorta hodisada takroriylik yo'q. Kesilgan daraxtni qayta ekib bo'lmaganidek, qolipdan chiqqan so'z birikmasini takror aytish, yozish mumkin emas. Ikkinchi bor aytilgan yoki yozilgandek tuyulgan so'z birikmasi, aslida, boshqa hosila.

4. LSQning cheklanganligi va nutqiy hosilaning cheksizligi. G'isht qolipi bitta, undan chiqqan g'isht hisobsiz. Shuningdek, deylik, **[ot$^{tushum\ kelishigi}$+fe'l]** qolipi bitta bo'lib, undan *kitobni o'qimoq, qalamni sotmoq* kabi ming-minglab so'z birikmasini hosil qilish mumkin. Bugungi kunda o'zbek tilida so'z birikmasi hosil

qilishning 18 ta ustuvor qolipi aniqlangan (ular haqida «So'z birikmasi» faslida bahs yuritiladi). Bu qoliplardan chiqqan, chiqayotgan va chiqadigan nutqiy so'z birikmasi miqdorini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Gap qolipi va ularning hosilalari ham xuddi shunday.

5. LSQning majburiyligi va nutqiy hosilaning ixtiyoriyligi. O'zbek tilida so'zlashuvchi kishi nutq jarayonida so'z birikmasi tuzishga ehtiyoj sezar ekan, bunda LSQning yuqorida aytilgan 18 ta turidan foydalanishga majbur. Ularning LSQni o'zgartirishiga, yangi-yangi LSQ tuzishiga til «qonunchiligi» tomonidan yo'l qo'yilmaydi. Biroq nutqiy so'z birikmasi yaratishda so'zlovchi erkin.

Qolip va nutqiy hosila o'zida dialektikaning bir-biriga nisbatlanuvchi kategoriyalari munosabatini aks ettiradi. Buni quyidagicha tasavvur qilish mumkin (27-jadval):

27-jadval

LSQ	Nutqiy hosila
Umumiylik	Alohidalik
Mohiyat	Hodisa
Imkoniyat	Voqelik
Sabab	Oqibat

Bu jihatdan ham LSQ va nutqiy hosila munosabatini sharhlashga harakat qilamiz.

1. LSQ umumiylik va nutqiy hosila alohidalik sifatida. LSQ umumiylik sifatida ko'plab nutqiy hosiladagi umumiy belgi-xususiyatni o'zida jamlaydi. Masalan, *kitobni o'qimoq, xatni yozmoq* va *qo'yni sotmoq* birikmasidagi *kitobni, xatni, qo'yni* tobe a'zosi quyidagi umumiy belgilarga ega:

1) ot turkumiga mansublik;
2) tushum kelishigi bilan shakllanganlik;
3) tobe a'zolik.

Bu uch umumiylik **[ot$^{\text{tushum kelishigi}}$ + fe'l]** LSQining *ot* uzvida mujassamlangan. LSQning keyingi uzvi haqida ham shunga o'xshash fikrni aytish mumkin. Har bir nutqiy hosila esa boshqa nutqiy hosilaga mutlaqo o'xshamaydigan alohidalik. Aytilganidek, nutqda muayyan lug'aviy ma'noli birliklar aniq makon va zamonda muayyan qolip asosida erkin nutqiy birikma hosil qiladi.

2. LSQ mohiyat va nutqiy hosila hodisa sifatida. LSQ nutqiy hodisalar zamirida yashiringan, ularning ichki, barqaror, o'zgarmas

mohiyati, u nutqiy hosiladagi rang-baranglikka befarq. Nutqiy hosila esa bu mohiyatni turli nutq sharoitiga mos ravishda rang-barang ko'rinishda aks ettiruvchi, biroq mohiyat chegarasidan tashqariga chiqa olmaydigan vaqtinchalik hodisa. Masalan, **[ot$^{\text{tushum kelishigi}}$ + fe'l]** qolipi – o'zgarmas. Ammo uning hosilalari *uyni supurmoq, qog'ozni yirtmoq, xatni jo'natmoq, derazani bo'yamoq* kabi har xil ko'rinishda bo'ladi. Bu rang-baranglikning barchasi, u qancha ko'p bo'lmasin, «tushum kelishigidagi tobe ot va fe'l» doirasidan chetga chiqa olmaydi. Nutqiy hosila LSQning o'zgarmasdan turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatsa, LSQ nutqdagi xilma-xil hosilani bir asosga birlashtiradi.

3. LSQ imkoniyat va nutqiy hosila voqelik sifatida. LSQ – voqelikka aylanmagan, namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit va ehtiyoj talab etadigan imkoniyat. Nutqiy hosila esa ana shu imkoniyatning yuzaga chiqishi, voqelikka aylanishi.

4. LSQ – sabab, nutqiy hosila uning oqibati. LSQ – bu o'ziga muvofiq keladigan biror natijani keltirib chiqaruvchi. Chunki sabab biror ta'sirning boshlanish nuqtasi bo'lib, u ma'lum bir natija, oqibatni yuzaga keltiradi. LSQ natijasida kelib chiqadigan oqibat – shunday hosila. Sabab oqibatdan oldin kelganligi kabi LSQ ham nutqiy hosilaning qanday bo'lishini belgilaydi.

LSQning asosiy turlari. Umuman, qolip asosida birikuvidan vujudga kelgan nutqiy hosilani 3 guruhga birlashtirish mumkin:

1) yasama so'z;
2) so'z birikmasi;
3) gap.

(ishla) yasama so'zi [*ish*] leksemasi va [*-la*] morfemasining, *kitobni o'qimoq* nutqiy so'z birikmasi [*kitob*] va [*o'qi*] leksemalarining, *O'qidim* gapi esa [*o'qi*] leksemasi va [*-dim*] kesimlik kategoriyasi shaklining birikishidan hosil bo'lgan.

(ishla) so'zi **[ot+la = asosdan anglashilgan narsa bilan shug'ullanmoq]** so'z yasash qolipi mahsuli bo'lsa, *kitobni o'qimoq* so'z birikmasi **[ot$^{\text{tushum kelishigi}}$+fe'l]** LSQi, *O'qidim* gapi esa **[WP$_{\text{m}}$]** qolipi hosilasi. Bular sirasida so'z yasash va so'z birikmasi qolipi tushuncha ifodalovchi – atash (nominativ) vazifasini bajaruvchi hosilani beradigan qolip bo'lsa, gap qolipi fikr ifodalovchi (kommunikativ) hosilani tug'diruvchi qolip hisoblanadi. So'z yasash qolipi lisoniy bo'lsa-da, lekin sintaktik mohiyatga ega emas. Shuning uchun u lisoniy derivatsion qolip (LDQ) sifatida derivatsiya bo'limida qoldirilib, sintaksisda erkin sintaktik hosila beruvchi, ya'ni so'z birikmasi va gap qolipi tekshiriladi.

Formal va substansial (struktural) sintaksis. Formal sintaksis bevosita kuzatishda berilgan, nutqiy sintaktik hodisani o'rganadi. Boshqacha aytganda, u alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat sifatidagi nutqiy hosila bilan band bo'lib, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab sifatidagi lisoniy birlikni (nutqiy birlikning lisoniy tomonini) o'rganishni substansial sintaksis hukmiga havola etadi. Shuningdek, formal sintaksis *kitob* va *o'qimoq* so'zlari orasidagi sintaktik aloqani ham tekshiradi. Zero, bundagi *o'qimoq* fe'lining tushum kelishigidagi so'zni boshqaruvi ham bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hodisa. Lekin bu aloqa uchun [*o'qi*] leksemasining biriktirish imkoniyati bo'lgan obyekt valentligi bevosita kuzatishda berilmagan. Bu esa substansial sintaksis tomonidan o'rganiladi.

Substansial sintaksis tadqiqotlari uchun formal sintaksis tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar zamin, poydevor vazifasini o'taydi. Demak, formal sintaksissiz substansial sintaksisning bo'lishi mumkin emas. Formal sintaksis esa substansial sintaksissiz ham ish ko'raveradi. Zero, substansial sintaksis mohiyatni tadqiq etar ekan, buning uchun hodisalar jamlangan bo'lishi kerak. Hodisani jamlash uchun esa substansial sintaksis tiklaydigan mohiyatga ehtiyoj sezilmaydi.

Har bir nutqiy parchada turli sath hodisasi qorishgan holda voqelanadi. Masalan, *Halim keldi* gapida fonetik (tovushlar tizimi, ohang), leksik (so'zlar), morfologik (grammatik shakllar) va uslubiy (masalan, so'zlovchining munosabati yoki uslubiy betaraflik) sathlar o'z izini qoldirgan. Formal sintaksis nutqiy parchani shu holida, turli mohiyat zarralarining qorishmasi sifatida o'rganadi va uning qorishmaligiga e'tibor qaratmaydi. Substansial sintaksis esa nutqiy parchada qorishgan, sintaksisga daxldor bo'lmagan jihatlarni e'tibordan soqit qiladi. Formal sintaksis keltirilgan gapni muayyan(aniq)lik sifatida e'tirof etsa, substansial sintaksis unda turli hodisalar qorishganligi sababli mohiyatini anglash mushkulligini hisobga olgan holda mavhum (noaniq)lik sifatida qaraydi. Qorishiq hodisalar chetlashtirilgan mohiyat «tozalangan»ligi uchun substansial sintaksis tomonidan muayyanlik, bevosita kuzatishda berilmaganligi uchun esa u formal sintaksis tomonidan mavhumlik sifatida qaraladi.

Demak, formal sintaksis asosiy diqqatini hodisalarning zohiriy (bevosita kuzatishda berilgan) tomoniga, substansial sintaksis esa botiniy (bevosita kuzatishda berilmagan, ichki) tomoniga qaratadi. Ular bir-birini ham taqozo, ham inkor etadi. Formal sintaksis mutlaq hodisalar bilan, substansial sintaksis esa mutlaq mohiyat

bilan shug'ullanadi, ularning vazifalarini butunlay qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Chunki formal sintaksis mohiyatga intilganligi kabi substansial sintaksis ham faqat formal sintaksis to'plagan hodisalargagina tayanadi. Bunda formal va substansial sintaksisning o'rganish manbalari jihatdan qarama-qarshiligi so'nadi.

LSQni ajratish usullari. LSQni tiklash

LSQni aniqlashda ham LSQga daxldor bo'lmagan, bir qolipdan chiqqan nutqiy hosilalarning turli-tumanligini keltirib chiqarayotgan hodisalar LSQga bog'liq bo'lmagan nosintaktik hodisalar sifatida ahamiyatsiz deb qaraladi va e'tibordan soqit qilinadi. Masalan, *Gulnoraning kitobi* nutqiy hosilasining mohiyati, ya'ni LSQini aniqlamoqchi bo'lsak, shu ko'rinishdagi va turdagi so'z birikmalarini tasavvurimizda to'plab, saralaymiz. Shu usulda *Muniraning daftari, Sitoraning ruchkasi* kabi yuzlab nutqiy so'z birikmalarida

[ot_{atoqli}+$ot_{turdosh}$=otdan anglashilgan pred./shaxsga tegishli narsa]

umumiyligini topgandek bo'lamiz. Biroq *mening kitobim, uning ruchkasi, bizning uyimiz, qizilning qizili, yashashning zavqi* nutqiy birikmasini oldingi so'z birikmalari bilan qiyoslash natijasida ularning farqli ekanligiga, qolipga solib ko'rish natijasida unga joylashmayotganligiga amin bo'lamiz. Zero, LSQning birinchi uzvi ot turkumiga mansub so'z bo'lishi kerak edi. Misollarda esa tobe uzvlar – olmosh. Shuningdek, LSQning ikkinchi uzvidagi egalik kategoriyasi III shaxs qo'shimchasi haqida ham shunday deyish mumkin. Yuqorida qoliplarning umumiylik tabiatiga ega ekanligini, unda nutqiy hosilalarning umumiy, bir xil belgilari o'rin olishini ta'kidlagan edik. Shuning uchun nutqiy hosilalardan farqlarni fikran chetlashtirib, umumiy belgilarni saqlab qolamiz. Keltirilgan birinchi (tobe) a'zolardagi umumiylik va farqlarni quyidagicha beramiz (28-jadval):

28-jadval

Umumiylik	Farqlar
1.1.Erkak kishining ismi+*qaratqich kelishigi*	*Halim* oti +*ning*
1.2.Qiz bola ismi+*qaratqich kelishigi*	*Munira* oti+*ning*, *Sitora* oti+*ning*
1.3.I shaxs birlik kishilik olmoshi	*Men* olmoshi+*ning*

1.4. II shaxs ko'plik kishilik olmoshi	*Biz* olmoshi+*ning*
1.5.Sifat+*qaratqich kelishigi*	*Qizil* sifati +*ning*
1.6.Harakat nomi+*qaratqich kelishigi*	*Yashash* harakat nomi+*ning*

Farqlarni e'tibordan soqit qilib, olingan umumiylik asosida LSQning birinchi (tobe) a'zosini tiklaymiz. Nisbiy umumiyliklarni yana birlashtirib, quyidagi

[ism$^{\text{qaratqich kelishigi}}$ + ...

uzvi tiklanadi.

So'z birikmasining ikkinchi uzvidagi farq va umumiyliklarni ham shu asosda aniqlaymiz (29-jadval):

29-jadval

Umumiylik	Farqlar
2.1. O'quv vositasi oti+III sh.*egalik qo'shimchasi*	*kitob* oti+i
2.2. Yozish mumkin bo'lgan narsa oti+III sh.*egalik qo'shimchasi*	*daftar* oti+i
2.3. Rang sifati + III sh. *egalik qo'shimchasi*	*qizil* sifati+i
2.4. Mavhum ot + III sh. *egalik qo'shimchasi*	*zavq* oti+i
2.5. Joy oti + I sh. *egalik qo'shimchasi*	*uy* oti+imiz
2.6. Yozuv quroli + III sh. *egalik qo'shimchasi*	*ruchka* oti+si

Bu a'zoda ham farqlarni chetlashtirib, umumiy belgilarni olib qolamiz. Natijada,

...+ism$^{\text{egalik qo'shimchasi}}$]

umumiyligi tiklanadi. Har ikkala a'zoni birlashtirish natijasida **[ism$^{\text{qaratqich kelishigi}}$ +ism$^{\text{egalik qo'shimchasi}}$]** umumiyligi tiklanadi. Bu umumiylik LSQ bo'lib, so'z birikmalaridan chetlashtirilgan mazkur farqlar LSQga aloqador emas.

LSQning shakliy tomoni. LSQ mohiyatan riyoziy tenglamaga o'xshaydi va u butunlik sifatida tenglik belgisidan chap hamda o'ng tomonlardan iborat bo'ladi.

Yuqorida misol sifatida keltirilgan **[ism$^{\text{qaratqich kelishigi}}$+ism$^{\text{egalik qo'shimchasi}}$= qaratuvchi-qaralmish]** LSQi ham ikki – **ism^{qaratqich}**

kelishigi+ism$^{egalik\ qo'shimchasi}$ va qaratuvchi-qaralmish qismlaridan tashkil topgan.

LSQning chap, ya'ni **[ism$^{qaratqich\ kelishigi}$+ism$^{egalik\ qo'shimchasi}$]** qismi uning shaklini tashkil etadi.

LSQning shakliy tomoni umumiylik xususiyatiga ega. Chunki u nutqda voqelangan cheksiz birikmalar umumiy shaklining sintezi. Xususiy shakl sifatida nutqiy so'z birikmalari namoyon bo'ladi. Demak, xususiy shakl deganda moddiy shaklda – so'z va qo'shimcha vositasida ifodalangan, o'qilishi, yozilishi, aytilishi, eshitilishi mumkin bo'lgan shakl tushuniladi.

LSQning mazmuniy tomoni. LSQning o'ng tomoni uning mazmuniy jihati. Yuqorida keltirilgan **[ism$^{qaratqich\ kelishigi}$+ism$^{egalik\ qo'shimchasi}$=qaratuvchi-qaralmish]** qolipining o'ng, ya'ni mazmuniy qismini *«lisoniy tobe qaratuvchi va hokim qaralmish orasidagi rang-barang munosabatlar»* tashkil etadi. «Rang-barang munosabat» deganda har bir nutqiy so'z birikmasidan anglashiladigan turli ma'no va munosabat tushuniladi. Masalan: *mening kitobim* – «qarashlilik» *stolning oyog'i* – «butun-qism» *e'tiborsizlik oqibati* – «sabab-oqibat» *yashashning zavqi* – «holat va uning natijasi».

Birikmalarning o'ng tomonida ularning xususiy ma'noviy belgisi ko'rsatilgan. Ular qolipda «rang-barang ma'noviy munosabat» deya birlashtirilgan. Ma'lumki, ko'pincha, ma'no deganda so'z atayotgan narsa, predmet, miqdor, belgi kabilar haqidagi tushuncha ifodasi tushuniladi. Masalan, [*kitob*] leksemasi aytilganda, uning ma'nosi sifatida «varaqlardan tashkil topgan, bosma yoki qo'lyozma holdagi asar» mohiyati tan olinadi. Lekin keltirilgan LSQ ma'nosi esa bunga o'xshamaydi. Chunki [*kitob*] leksema bo'lib, uning ma'nosi leksik. Lekin LSQ – sintaktik hodisa. Shu boisdan uning ma'nosi ham sintaktik bo'lmog'i darkor. Sintaksisda esa «tobe-hokim», «qaratuvchi-qaralmish», «to'ldiruvchi», «hol», «ega», «kesim» kabi tushunchalar ahamiyatli bo'lib, sintaktik munosabatni ifodalaydi. Bu munosabat esa sintaktik ma'no sifatida qaraladi. Nega yuqoridagi birikmalarning o'ng tomonida keltirilgan «qarashlilik», «butun-qism», «sabab-oqibat», «holat – uning natijasi» kabilar LSQning mazmuni bo'la olmaydi, degan savol tug'ilishi tabiiy. To'g'ri, ular birikmalarning ma'nolarini alohida-alohida aks ettiradi. Lekin LSQi bitta. **[ism$^{qaratqich\ kelishigi}$+ism$^{egalik\ qo'shimchasi}$= qaratuvchi-qaralmish]** qolipining mazmuni esa cheksiz nutqiy hosilalarning ma'nolarini umumlashtiradi.

LSQning [ism$^{qaratqich\ kelishigi}$+ism$^{egalik\ qo'shimchasi}$] shakliy tomoni birikuvchi so'zlar munosabatidan umumlashtirganligi kabi mazmun tomoni ham nutqiy birikmaning alohida-alohida ma'nosini umumlashtirish natijasi bo'lmog'i lozim.

Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida har bir gap bo'lagi, so'z birikmasining turli gap, matn va qurshovdagi ma'nolarini tavsiflashga ko'p e'tibor qaratiladi. Masalan, *(uyni qurmoq)* birikmasida *(uyni)* so'zshaklining, yoki to'ldiruvchining ma'nosi «yaratiladigan, bunyod etiladigan narsa», *(uyni buzmoq)* birikmasidagi *(uyni)* so'zshaklining ma'nosi «yo'qotiladigan manba» tarzida ta'riflanadi. Lekin mulohaza yuritilsa, bu ma'nolar sintaktik emas, balki lug'aviy bo'lib, aslida *(buzmoq)* va *(qurmoq)* so'zlariga xos ma'nolar. LSQ esa cheksiz so'z birikmalarining umumlashmasi. Shu boisdan ularning mazmun tomoni ham cheksiz so'z birikmalarining alohida-alohida ma'nolaridagi xususiy, farqli jihatlarni chetlashtirib, umumiy, o'xshash tomonlarni ajratish asosida tiklanadi. Demak, umumiy, lisoniy ma'no xususiy jihatlarni idrok etish asosida birlashtirishdir. Xususiy ma'no, ya'ni har bir so'z birikmasidagi tezda anglanadigan, ilg'anishi oson bo'lgan ma'no ular zamiridagi mohiyatni to'sib turadi. Ana shu mohiyat anglanishi bilan tadqiqotchi ko'rinib turgan ma'noning rang-barangligi «aldamchi» ekanligiga ishonch hosil qiladi.

LSQni ajratishning ahamiyati. Tabiatda sof narsa uchramaydi. Har bir modda turli-tuman narsalarning qorishmasidir. Biroq sof moddani ajratib olish maqsadida uzoq vaqtlar davomida tadqiqotlar olib borilgan. Shu tariqa tozalangan atom ximiya fanidagi buyuk «topilma» bo'ldi. Bu D.Mendeleyev davriy jadvalida o'z aksini topdi. Til hodisalarini ham «tozalangan» holda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tozalangan atomlardan tabiatda uchramaydigan, lekin zarur bo'lgan turli-tuman sun'iy moddalar hosil qilinganidek, «tozalangan» LSQ ham boshqa «tozalangan» fonetik, leksik, morfologik hodisalar kabi, bugungi kunda tilni «mashinalashtirish», ya'ni kompyuter orqali matn tarjima qilish, tuzatish, tekshirish kabi zamonaviy «yumush»larda muhim qimmat kasb etadi.

Valentlik

Valentlik haqida tushuncha. *Valentlik* aslida ximiyaviy atama, tilshunoslikda lisoniy birliklarning yuzaga chiqmagan birikuvchanlik-biriktiruvchanlik imkoniyati sifatida qaraluvchi

lisoniy hodisaga nisbatan qo'llanadi. Valentlikning ximiyaviy tavsifi quyidagicha. Masalan, kislorod **(O)** atomi boshqa turdagi yana ikkita atomni biriktirish imkoniyatiga ega. Bu uning elektron qavatidagi ikkita atomning bo'sh o'rniga qarab belgilanadi. Suv molekulasi (N_2O)da bu bo'sh o'rinlar to'ldirilgan. Shuningdek, nafaqat kislorod, balki vodorod (N) ham valentlikka ega bo'lib, uning bo'sh o'rni bitta. Demak, ko'rinadiki, suv molekulasida kislorodning ham, vodorodning ham valentlik imkoniyati voqelikka aylangan bo'lib, ular kislorodda biriktiruvchi, vodorodda esa birikuvchi tabiatga ega. Har ikkala atom (vodorod va kislorod) ham bir-biriga muvofiq bo'lgandagina birikma hosil qilishi mumkin. Masalan, vodorod va oltin atomlari birikib, molekula hosil qila olmaydi.

Atomning valentligi ro'yobga chiqmagan, namoyon bo'lishi uchun sharoit talab etiladigan imkoniyat. Lisoniy birlik ham ana shunday birikish-biriktirish imkoniyatiga ega, u (ya'ni valentlik) ham lisoniy birliklarning o'zi bilan muayyan til jamiyati a'zolari ongida yashaydi. Masalan, *[o'qi]* leksemasi kishi ongida bir nechta bo'sh o'rniga ega holda mavjud bo'ladi va nutqda voqelanib, bir vaqtda o'ziga shuncha birikuvchini ham torta olishi mumkin. Uni chizmada quyidagicha tasavvur qilish mumkin (30-jadval):

30-jadval

Kim	***o'qidi***
Nimani	
Kimga	
Qanday	
Qachon	
Nima bilan	
Nima sababdan	
Qancha	

Bunda so'roq olmoshlari *[o'qi]* leksemasiga birikish imkoniyatiga ega bo'lgan so'zlarga ishora qiladi. Bu imkoniyat bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, *[o'qi]* leksemasining mohiyatida yashiringan. Lekin *kitobni o'qimoq, har kuni o'qimoq, ko'p o'qimoq* nutqiy birikuvlarida bu imkoniyatlar bitta-bitta voqelangan. Quyidagi birikuvlarning birinchisida bir vaqtning o'zida bu imkoniyatdan ikkitasi, ikkinchisida esa uchtasi voqelikka aylangan, so'z birikmasi hosil qilingan:

1) *kitobni tez o'qimoq;*

2) *kutubxonada kitobni tez o'qimoq.*

[*O'qi*] leksemasining ongdagi birikish imkoniyati valentlik ekan, uning nutqiy voqelanishi sintaktik aloqa hisoblanadi. Demak, valentlik lisoniy, sintaktik aloqa esa nutqiy hodisa sifatida qaraladi. Ular lison va nutqning barcha qarama-qarshi belgilarini o'zida aks ettiradi. Masalan, (31-jadval):

31-jadval

Valentlik	**Sintaktik aloqa**
Umumiylik	Alohidalik
Mohiyat	Hodisa
Imkoniyat	Voqelik
Sabab	Oqibat

yoki (32-jadval):

32-jadval

Valentlik	**Sintaktik aloqa**
Moddiylikdan xoli	Moddiylikka ega
Ijtimoiy	Individual
Takrorlanuvchan	Betakror

Lisoniy birlikning valentligini to'ldiruvchi birlik *aktant* deb ham yuritiladi.

Yuqorida aytilganidek, kislorod atomi bilan birga vodorod atomi ham valentlikka ega bo'lganligi kabi [*o'qi*] leksemasiga birikuvchi leksema ham valentlikka ega. Biroq [*o'qi*] leksemasi hokim, tortuvchi mavqeda bo'lganligi sababli uning valentligi hokim valentlik, unga birikuvchi leksemaning valentligi esa tobe valentlik deyiladi.

Turli atom bir-biriga mos bo'lgandagina birika olganligi kabi lisoniy birlik ham ma'no va grammatik jihatdan muvofiq bo'lmog'i lozim. Boshqacha aytganda, biriktiruvchi leksema birikishi lozim bo'lgan leksemani nafaqat ma'no jihatdan, balki bir grammatik shaklda ham mos bo'lishini ham talab qiladi. Shunga ko'ra, valentlik lug'aviy va sintaktik qatlamga ajraladi.

Lug'aviy valentlik. Lug'aviy valentlik biriktiruvchi leksemaning ma'noviy jihatdan o'ziga mos birikuvchilarni tanlashi. Masalan, [*hangra*] leksemasi [*qush*] leksemasini o'ziga torta olmaydi, [*qush*] leksemasi [*hangra*] leksemasidagi birorta ham bo'sh o'ringa tusha olmaydi. Chunki ularda ma'noviy muvofiqlik mavjud emas.

Leksemalar bir-biriga ma'noviy mos bo'lishi uchun ularning ma'no strukturalarida o'xshash ma'no bo'lakchalari – semalari bo'lmog'i lozim. Masalan, (33-jadval):

33-jadval

[*qush*]	[*sayramoq*]
«parranda»	«ovoz chiqarish»
«uchadigan»	«qushlarga xos»
«sayray oladigan»	

Ko'rinadiki, [*qush*] leksemasi ma'no tarkibidagi «sayray oladigan» ma'no bo'lakchasi [*sayramoq*] leksemasida va undagi «qushga xos» ma'no bo'lakchasi *qush* leksemasida mavjud. Bu ularning birikma hosil qilishiga asos bo'la oladi.

Endi [*qush*] va [*hangra*] leksemalarini shu tarzda qiyoslab ko'raylik (34-jadval):

34-jadval

[*qush*]	[*hangramoq*]
«parranda»	«ovoz chiqarish»
«uchadigan»	«eshakka xos»
«sayray oladigan»	

Bu leksemalarda, yuqoridagidek, ma'noviy moslik kuzatilmaydi. Shu boisdan [*hangramoq*] leksemasi valentligini to'ldirish uchun [*qush*] leksemasini o'ziga torta olmaydi, [*qush*] leksemasi esa [*hangra*] leksemasidagi bo'sh o'rinni to'ldira olmaydi.

Leksemaning valentliklari tor yoki keng bo'lishi mumkin. Masalan: [*hangramoq*] leksemasining *nima* so'rog'iga javob bo'ladigan valentligi to'ldiruvchisi – [*eshak*], [*xo'tik*], [*hangi*] leksemalari. [*kishnamoq*] leksemasining bunday valentligini to'ldiruvchi unsurlar – [*ot*], [*toy*], [*bedov*], [*saman*] leksemalari. Ba'zan birikuvchi yoki biriktiruvchi leksemalar ma'nolari muvofiq bo'lmagani holda ular nutqda birikuv hosil qilishi mumkin. Masalan, *Artist «hangradi»* kabi. Bunda endi me'yoriy valentlik buzilgan holda namoyon bo'lib, ko'chma, obrazli ma'no yuzaga chiqadi. Lekin bu sof nutqiy hodisa, [*hangra*] va [*artist*] leksemalarining lisoniy mohiyatidan joy olmagan. Chunki [*artist*] leksemasining ma'no tarkibi «*san'atkor*», «*qo'shiqchilik–teatrga xos*» semalari bo'lib, unda «hangra» semasi yo'q, [*hangramoq*] leksemasi «*eshakka xos*», «*ovoz chiqarish*» ma'no tarkibiga ega, unda

«san'atkor», *«qo'shiqchilikka xos»* ma'no bo'lakchalari mavjud emas.

Lug'aviy valentlikni ot va fe'l turkumidan olingan namuna asosida dalillashga harakat qildik. Lekin lisoniy-lug'aviy valentlik nafaqat ot yoki fe'lga, balki boshqa so'z turkumlariga ham xos.

Sintaktik valentlik. Sintaktik valentlik leksema valentligining ikkinchi tomoni, u hokim mavqedagi leksemaning tobe leksemalarni o'ziga tortish uchun ularning ma'lum bir sintaktik shaklda — kelishik, ko'makchi, ravishdosh, sifatdosh qo'shimchasini olishini talab qilishi. Bu hokim leksemaning sintaktik mavqei, grammatik shakli tomonidan belgilanadi. Masalan, *Xatni yozdi, Xat yozildi* sintaktik qurilmalaridagi (*xatni*) va (*xat*) so'zlarining grammatik shakli bosh so'zning grammatik shakli bilan belgilangan.

Sintaktik valentlik lug'aviy valentlik bilan zich bog'langan, biri o'zgarsa, ikkinchisi ham o'zgaradi, biri yo'qolsa, ikkinchisi ham bo'lmaydi. Masalan, [*yetakla*] leksemasi jo'nalish kelishigidagi otni o'ziga tortmaydi (*Halimga yetakla* tarzida). Lekin [*yetakla*] leksemasi orttirma nisbat shakli [*-t*] bilan shakllansa, (*Halimga*) so'zshakli unga tortila oladi. Bunda [*yetakla*] leksemasining sintaktik valentligi o'zgardi.

Lug'aviy va sintaktik valentlik o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular tez-tez o'zgarishga uchrab turadi. Masalan, *Ashulachi «hangradi»* birikuvida sintaktik valentlik o'zgarmasdan voqelangan, ammo lug'aviy valentlik yangilangan holda yuzaga chiqqan. Bunday hol ko'chma ma'no yuzaga chiqqanidan dalolat beradi. *Xat yozildi*, *Xatni yozdi* birikuvlarida ma'noviy valentlik joyida, biroq sintaktik valentlik o'zgargan. Bu turlicha sintaktik shakllar voqelanganligini ko'rsatadi. Biroq aytilgan har ikkala o'zgarish ham bir yoqlama — yo ma'noviy, yo sintaktik tabiatga ega. Agar o'zgarish birdaniga ikki tomonlama — ham lug'aviy, ham sintaktik bo'lsa-chi? Bunda derivatsiya sodir bo'ladi. Dalil sifatida [*ochmoq*] fe'lining lug'aviy va sintaktik valentliklarini aniqlash orqali bunga amin bo'lish mumkin:

1. *Tergovchi jinoyatni ochdi.*
2. *Jinoyat tergovchi tomonidan ochildi.*
3. *Amerikani Vespuchchi ochdi.*
4. *Gul ochildi.*

1- va 2-misolda [*ochmoq*] fe'li valentliklarini to'ldiruvchi so'z (*tergovchi*) ning ma'nosi o'zgarmagan, lekin sintaktik shakli (*tergovchi* — bosh kelishikda, *tergovchi tomonidan* — ko'makchili)

o'zgargan. Demak, [*ochmoq*] leksemasining ma'noviy valentligi o'zgarishsiz saqlangan, sintaktik valentligi o'zgargan. Bu o'zgarish [*ochmoq*] fe'liga [*-il*] majhul nisbat qo'shimchasi tomonidan kiritilgan. 3-misolda esa fe'lning sintaktik valentligi o'zgarishsiz qolgani holda ma'noviy valentlik o'zgarishga uchragan. Chunki [*Amerika*] so'zining ma'nosi [*ochmoq*] fe'li ma'nosiga muvofiq kelmaydi. Ammo sintaktik shakli mos. 4-misolda esa ham ma'noviy, ham sintaktik valentliklar butkul o'zgargan. Chunki [*gul*] so'zi [*ochmoq*] fe'liga ma'noviy jihatdan mos emas. Bundan tashqari, birikuvchi so'zning sintaktik shakli ([*gul*] — bosh kelishik) [*ochmoq*] fe'lga *-il* qo'shimchasi qo'shilishi natijasida o'zgarishga uchragan.

Demak, ma'lum bo'ladiki, leksemaning lisoniy valentligi ikkiyoqlama, ma'noviy tomoni unga qanday leksema birika olishi me'yori, chegarasini ko'rsatsa, sintaktik tomoni birikuvchi so'zning qanday grammatik qo'shimchani olishini belgilaydi.

Grammatik shakl valentligi. Leksemaga grammatik shakl qo'shilganda ularning birikuvchilari sirasida jiddiy o'zgarish yuz beradi. *Shoirman* so'zshakli — [*-man*] shaxs-son qo'shimchasi bilan birikmasdan oldin, ya'ni [*shoir*] leksemasi sifatida [*men*] olmoshi bilan birikish ehtiyojiga ega emas edi. Shaxs-son ma'nosini ifodalovchi (*-man*) qo'shimchasini qabul qilgach, shunday ehtiyoj tug'ildi. Bu ehtiyoj, zarurat [*-man*] qo'shimchasida mujassam, u II shaxs birlik son shaxs/son qo'shimchasining sintaktik ehtiyoji, kengayish talabi, ya'ni valentligi.

Grammatik shakl o'zi qo'shilib kelgan leksemaning lisoniy (ma'noviy va sintaktik) valentligini yo kengaytiradi, yoki cheklaydi. Masalan, egalik qo'shimchasi o'zi qo'shilib kelgan ism turkumiga mansub so'zga qaratqich kelishigi shaklida turgan boshqa ism bilan qaralmish-qaratuvchi aloqasiga kirishish imkoniyatini beradi. Demak, o'zi qo'shilib kelgan so'zning sintaktik imkoniyatini kengaytiradi. So'zshakl ma'noviy va sintaktik valentligi shu so'zshakl uchun asos bo'lgan leksema lisoniy valentligidan keng. Shunday hodisani orttirma nisbat morfemasi bilan o'timsiz fe'l leksema birikishida ko'rish mumkin. Qiyoslang: *Mashina yurdi. Bola uxladi.* [*uxla*], [*yur*] fe'llari vositasiz to'ldiruvchi bilan birika olmaydi. Lekin *Haydovchi mashinani yurgizdi, Ona bolani uxlatdi* me'yoriy birikma. Vositasiz to'ldiruvchi bilan birika olish valentlik qobiliyatini [*yur*], [*uxla*] leksemalariga orttirma nisbat morfemasi berdi, boshqacha aytganda, bu fe'lga qo'shilib kelgach, u morfema

o'z valentligini olib keldi. Ayrim grammatik shakl o'zi qo'shilib kelgan leksemaning lisoniy valentligini toraytiradi.

Masalan, majhul va o'zlik nisbat shakli o'timli fe'lni o'timsizlashtiradi, uning vositasiz to'ldiruvchi bilan birikish imkoniyatini cheklaydi. Bunga amin bo'lish uchun [*kitob*] leksemasining grammatik shaklsiz va grammatik shakllangan holatida valentlik imkoniyatini taqqoslash kifoya (35-jadval):

35-jadval

Qiziq	*Kitob*
Katta	
Badiiy	
O'nta	
Ko'p	
Qiziq	*Kitobcha*
Katta	
Badiiy	
O'nta	
Ko'p	

Ayon bo'ladiki, yuqoridagi jadvalda [*kitob*] leksemasining birikuv imkoniyati ko'plik son shakli [*-lar*] va kichraytirish qo'shimchasi [*-cha*] hisobiga toraygan. Quyidagi gaplarda esa leksemaning biriktirish imkoniyati kengayganligiga amin bo'lamiz: *1. Halim kitob o'qidi. 2. Halim ukasiga kitob o'qitdi.*

Sintaktik aloqa. Mustaqil so'zlarning nutq jarayonidagi erkin bog'lanishi *sintaktik aloqa* deyiladi: *Suvlar tiniq, toza havo.* Sintaktik birlik bir necha a'zoli bo'ladi. Faqat gap bir a'zoli bo'lishi mumkin. Nutqda so'zlarning bir-biri bilan bog'lanishi har bir tilning LSQ, leksemaning birikish imkoniyati asosida sodir bo'ladi. So'zning sintaktik munosabatga kirishuvi natijasida hosil bo'lgan sintaktik qurilma *so'z qo'shilmasi* deyiladi. Bu so'zning bir-biriga ergashishi (*a'lochi o'quvchi*) yoki tenglashishi (*olma va anor*) shakllarida bo'lishi mumkin. *A'lochi o'quvchi* birikmasida bir so'z ma'noviy qobiliyatini namoyon qilish uchun boshqasiga ehtiyoj sezadi. Aniqrog'i, *o'quvchi* uzvi izohlanishga muhtoj. Shu boisdan *a'lochi* so'zi unga ergashib, izohlab keladi. Bu tobelanish aloqasi. Tobelanish aloqasi natijasida so'z birikmasi va gap hosil bo'ladi: *tiniq suv, Halim o'qidi.* O'zbek tilida keyin kelib, ma'nosi izohlanayotgan so'z hokim (bosh) so'z, hokim so'zga ergashish yo'li bilan bog'lanib, uning ma'nosini izohlaydigan so'z tobe

(ergash so'z) deyiladi. *Tiniq suv, Halim o'qidi* birikuvlarida *tiniq* va *halim* so'zlari tobe, *suv* va *o'qidi* so'zlari – Hokim a'zo.

Nutqda so'zlarning barchasi ham tobe aloqada bog'lanavermaydi. So'zlar *olma va anor, nok va anjir, o'qidi va yozdi* shaklida biri ikkinchisiga bo'ysunmay, teng holda ham bog'lanishi mumkin. Bu so'z qo'shilmalari a'zolari teng huquqli bo'lib, biri ikkinchisining ma'nosini izohlamaydi.

Demak, so'zlar orasidagi aloqa ikki xil: tenglashish va tobelanish. Ular esa uch xil hosilani beradi: so'z birikmasi, so'z tizmasi va gap. Tenglashish aloqasi asosida so'z tizmasi hosil bo'lsa, tobelanish aloqasi asosida so'z birikmasi va gap shakllanadi.

So'z tizmasi. So'z tizmasi (*olma va anor*) teng huquqli a'zolardan tashkil topadi. Ular orasida tobelik bo'lmaydi. Shunga muvofiq, so'zlar orasida bir-birini izohlash, to'ldirish hodisasi ham yo'q. So'z tizmasi tashkil etuvchilarining o'rnini almashtirish ham mumkin: *anor va olma*. Bu ularning sintaktik mavqei va ma'nosiga putur yetkazmaydi. So'z tizmasidagi a'zolar birgalikda boshqa so'zga tobelanib, uni aniqlashi (*oq va sariq gullar*) yoki boshqa so'z tomonidan izohlanib, birgalikda hokim a'zo bo'lib kelishi mumkin (*shirin olma va anor*). Shuningdek, so'z tizmasidagi har bir a'zo o'ziga xos tobe uzvlarga ham ega bo'lishi mumkin (*o'qiyotgan bola va yozayotgan qiz*). Uni chizmada quyidagicha berish mumkin:



So'z tizmasi a'zolari teng bog'lovchilar yordamida yoki bog'lovchi vositasiz, faqat ohang yordamida bog'lanishi mumkin: *bola, qiz* kabi. So'z tizmasi a'zolari, asosan, bir so'z turkumiga mansub leksemalar voqelanishi bo'ladi: *olma* (ot) va *anor* (ot). Ba'zan ular turli turkumdan ham bo'ladi: *Halim* (ot) va *men* (olmosh).

So'z birikmasi birikuvchi so'zlarning hokim-tobelik munosabati asosida hosil bo'ladi. Bunda izohlanuvchi a'zo kengayuvchi, izohlovchi a'zo kengaytiruvchi a'zo deb ham

yuritiladi: *kitobni o'qimoq* (*kitobni* — izohlovchi, kengaytiruvchi, *o'qimoq* — izohlanuvchi, kengayuvchi).

Tobelanish aloqasida hokim a'zo hokimlik mavqei va vositasiga, tobe a'zo tobelik mavqei va uni ta'minlovchi vositaga ega bo'ladi. *kitobni o'qimoq* birikmasida *kitobni* a'zosi oldin kelib, tushum kelishigi ko'rsatkichi bilan shakllangan bo'lsa, *o'qimoq* a'zosi hokimlik mavqei va shakliga ega.

A'zolarning hokim-tobeligini bildiradigan shakliy ko'rsatkich har doim ham bo'lavermaydi. Morfologik ko'rsatkich bo'lmaganda ham tobelik va hokimlik belgisi birikuvchi so'zlarning lug'aviy-grammatik tabiatidan, sintaktik o'rnidan hamda tartib va ohangdan bilinib turadi. Masalan: *tiniq suv* (tobe+hokim), *suv tiniq* (tobe+hokim).

Nutqiy birikuvda hokim-tobelik belgisini aniqlashda ohangga asoslanishning ahamiyati katta. Masalan, so'z tizmasida sanash ohangi mavjud bo'lsa (*qalam, daftar*), so'z birikmasida ko'tariluvchi (*kitobni o'qimoq*) va gapda pasayuvchi ohang (*suvlar tiniq*) amal qiladi. Biroq hokim-tobelikni aniqlashda morfologik ko'rsatkichga tayanish har doim ham to'g'ri bo'lavermaganligi kabi (chunki morfologik ko'rsatkichsiz ham so'z birikuvi hosil bo'laveradi — *qizil qalam*), ohang va so'z tartibiga tayanish ham mutlaq asos emas. Chunki *kitobni o'qidi* nutqiy so'z birikmasi pasayuvchi ohang bilan aytilsa, *o'qidim kitobni* hosilasida hokim so'z oldin tobe so'z keyin kelsa-da, u so'z birikmasi sanalaveradi. Umuman, tobelikning ko'rsatkichlari bo'lmaganda, tartib — hokim-tobelikning asosiy belgisi, bunday ko'rsatkich bo'lganda esa u o'z kuchini yo'qotadi.

Tenglashish uyushiq bo'laklar va ayrim qo'shma gap a'zolari orasida amal qilsa, bulardan boshqa bog'lanish — tobelanish aloqasi.

Gap. Gapning asosini ham tobelanish tashkil qiladi. Kesim gapning markaziy, uyushtiruvchi bo'lagi bo'lib, u barcha gap bo'lagini o'ziga bevosita yoki bilvosita tobelaydi.

Sintaktik aloqani ta'minlovchi vosita. Erkin birikmada so'zlarning bog'lanishi va unda sintaktik aloqa vositalari turlicha: *a'lochi o'quvchi, o'qituvchini tabriklamoq, telefon orqali gaplashmoq, kitobning varag'i* va h.k. kabi.

So'zlarning turli vosita yordamida bog'lanishi ularning qaysi lug'aviy-grammatik tip (so'z turkumi) ga kirishiga, lug'aviy-grammatik xususiyatiga bog'liq. Zero, ayrim lug'aviy-grammatik tur, asosan, tobe a'zo vazifasida kelish uchun ixtisoslashgan (masalan, son, ravish, sifat): *besh o'quvchi, tez gapirish, a'lochi bola*

kabi. Shuning uchun ular so'z birikmasida tobe a'zo mavqeida kelish uchun ma'lum bir grammatik ko'rsatkichni talab qilmaydi. Ayrim so'z turkumi (masalan, ot, fe'l), asosan, hokim mavqe egallashga xoslangan: *issiq **non**, kitobni **keltirmoq***. Shu boisdan ular tobe a'zo sifatida nutqda ishtirok etishi uchun asosan o'ziga xos grammatik shakl kasb etadi: *paxtani termoq, terilgan paxta.*

Sintaktik aloqani ifodalovchi vosita sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimcha, yordamchi so'z, so'z tartibi va ohangdir.

Aloqa-munosabat (sintaktik) shakllari (sintaktik shakl hosil qiluvchi vosita) – kelishik, egalik, kesimlik ko'rsatkichlari. Aloqa-munosabat shakllari shakliy omil sifatida so'zlarning erkin bog'lanishida faol: *Men qishloqqa o'tdim* gapida [*-ga*] shakli *qishloq* so'zini *o'tmoq* fe'li bilan, [*-dim*] kesimlik shaklidagi [*-m*] ko'rsatkichi *men* so'zini *o'tmoq* fe'liga tobelash vazifasini o'tamoqda.

Egalik qo'shimchalari mustaqil so'zlarning hokim mavqeda kelishini ifodalab, uning tobe so'zga munosabatini ko'rsatadi (*sizning uyingiz*). Shuningdek, bog'lash bilan birgalikda, hokim va tobe so'zning shaxs va sonda moslashishini ham ta'minlaydi.

Kelishik – mustaqil so'zning barchasi uchun tobelikni ta'minlovchi formal ko'rsatkich. Masalan, bosh kelishik egani, tushum kelishigi to'ldiruvchini, qaratqich kelishigi aniqlovchini hokim bo'lakka tobelaydi.

Shaxs-son qo'shimchalari, kesimlikning boshqa shakllari bilan birgalikda, o'zi hosil qilayotgan hokim bo'lakni tobe bo'lak – egaga bog'laydi.

Yordamchi so'z. Sintaktik aloqani ifodalashda qo'llanadigan yordamchi vositalar (ko'makchi, bog'lovchi va bog'lama) birikuvlarda shakliy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'makchining bir so'zni ikkinchi so'zga tobelovchi vosita ekanligi, ma'no va vazifa jihatdan kelishikka o'xshashligi (*telefonda gaplashmoq – telefon orqali gaplashmoq*), shuningdek, so'zni sintaktik aloqaga kiritishda o'zi bilan birga uning biror kelishik shaklida bo'lishini ham talab qilishi ma'lum: *Marraga qadar bir tekisda yugurib borishdi.* (A.G'ul.).

Bog'lovchi odatda, so'z tizmalari, gaplarning a'zolarini bog'lash uchun xizmat qiladi. Masalan: *olma va anor. Men o'qidim va yozdim.* Teng bog'lovchi birinchi misolda so'z tizmasi a'zolarini, ikkinchi misolda esa qo'shma gap a'zolarini bog'lash uchun xizmat qilgan.

Bog'lama ot kesimni ega yoki boshqa tobe a'zo bilan bog'lash uchun xizmat qiladi: *Biz o'tgan yili talaba bo'ldik.* Bunda *bo'ldik* bog'lamasi shaxs-son va zamon ma'nolarini ifodalagan hamda kesimni uning shaxs (*biz*), zamon (*o'tgan yili*) kengaytiruvchilari bilan bog'lagan.

So'z tartibi. So'zlar erkin birikuvda grammatik shakl asosida bog'langanda, so'z tartibi o'zgarsa-da, u ma'noviy munosabat yoki bog'lanishga ta'sir qilmaydi: *Sen kitobni keltirdingmi? Kitobni sen keltirdingmi? Keltirdingmi sen kitobni?* birikuvidagi so'z o'rni almashtirilganiga qaramay, *keltirdingmi* so'zshakli hokim, *sen* va *kitobni* so'zshakllari tobe a'zo sifatida qolavergan. Chunki ular sintaktik mavqeini ta'minlovchi vosita — morfologik ko'rsatkichga ega. So'zning hokim-tobeligi (sintaktik mavqei)ni ko'rsatuvchi vosita bo'lmaganda so'z tartibining qimmati oshadi (*achchiq olma).* Bunda so'zning gapdagi funksiyasi, asosan, tartibi bilan belgilanadi, tartib o'zgarsa, mazmun bilan birga, sintaktik holat ham o'zgaradi: *Hayot go'zal* (ega+kesim), *go'zal hayot* (aniqlovchi+aniqlanmish).

Gapda uslubiy maqsadlarda so'z tartibi o'zgarishi mumkin: *O'qituvchi intizom haqida gapirdi. Intizom haqida o'qituvchi gapirdi.* Tartibning bunday o'zgarishi a'zolarning hokim-tobeligiga ta'sir qilmaydi, biroq gapning uslubiy jihatiga, fikrdagi ma'no nozikligiga ta'sir ko'rsatadi.

Ohang. Ohang ham, yuqorida aytilganidek, birikuvning tabiatini ko'rsatuvchi nisbiy vosita. Gap tugallangan ohang bilan aytiladi, uning tarkibidagi ayrim birikuvlar sanash (*olma va anor*), ayrimlari ko'tariluvchi ohangga (*qizil qalam*) ega bo'ladi.

Ohang (pauza) birikuvning sintaktik bo'linishini ko'rsatadi. Masalan, *Ko'p qavatli uy* birikmasini ikki xil (*ko'p//qavatli uy* va *ko'p qavatli//uy* tarzida) aytish mumkin. Demak, sintaktik aloqani, unga bog'liq ravishda mazmuniy farqlanishni ifodalashda ohangning o'rni bor. Ya'ni, *ko'p//qavatli uy* tarzida birinchi so'zdan keyin pauza qilinishi natijasida (*ko'p*) so'zshakli tobe va *qavatli uy* birikmasi unga hokim mavqeda bo'lib, bunda qavatli uylarning ko'pligi haqidagi ma'no anglashiladi. Ikkinchi holatda (*ko'p qavatli//uy*) esa *ko'p qavatli* birikmasi tobe, *uy* so'zshakli esa hokim mavqeda, birikmadan esa uyning qavatlari ko'pligi ma'nosi namoyon bo'lgan.

Sanash ohangi bir xil bo'lakning aloqasini ifodalaydi: *Oltin, kumush tosh bo'lar.* (Maq.)

Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasida ham turli: qarama-qarshilik (*Kunduzi issiq - kechasi sovuq*), shart (*Sen kel - u boradi*),

sabab (*Kecha borolmadim - mehmonlar kelib qoldi*) — ma'noviy munosabatlar mavjud.

Ko'rinadiki, ayrim o'rinda so'zlar va gaplarni bog'lashni ohangning o'zi bajaradi. Bog'lashni boshqa vositalar o'z zimmasiga olganda, ohangning roli kuchsizlanadi.

SO'Z BIRIKMASI

So'z birikmasi nutq birligi sifatida

Nutqiy so'z birikmasi (SB) haqida tushuncha. Nutqda tushunchalarni aniqroq va muayyanroq ifodalash zarurati tug'iladi. Bu esa nisbiy noaniq tushuncha ifodalovchi so'zdan nisbiy aniq tushuncha ifodalovchi so'z birikmasini afzal qilib qo'yadi. Qiyoslang: *o'qimoq — tez o'qimoq*. Keyingi nutqiy hosilada «harflarni urishtirib ma'nosini tushunish» harakati (*o'qimoq*) so'zidagiga nisbatan aniqroq. Chunki unga *tez* so'zi ko'maklashgan. Ko'rinadiki, so'z ham, so'z birikmasi ham tushuncha ifodalaydi. So'z ifodalaydigan tushuncha noaniq va, demak, kengroq (masalan, *o'qimoq* fe'lida harakat tez ham, sekin ham bo'lishi mumkin), so'z birikmasida esa ikki tushuncha o'z mustaqilliklarini saqlagan holda nisbiy aniq va muayyan harakat («harflarni tez urishtirib, ma'nosini tushunish») ifodalangan. Demak, so'z o'z ma'noviy imkoniyatini to'laroq va ravshanroq namoyon qilishi uchun boshqa bir mustaqil so'zga ehtiyoj sezadi. Bu so'z uning ma'noviy ehtiyojini qondirmog'i uchun ham ma'noviy, ham grammatik jihatdan unga muvofiq bo'lmog'i lozim. Buni ravshanroq anglash uchun quyidagi hosilalarga diqqat qilaylik:

olmaning termoq
osmonni tishlamoq
Halim keldi
kitobni o'qimoq

Birikmalarning birinchisida (*olma*) va (*termoq*) so'zlari ma'noviy jihatdan muvofiq bo'lib, biroq ularning grammatik shakli (qaratqich kelishigi) mos emas. Ikkinchi birikuv (*osmonni tishlamoq*)da so'zlar grammatik shakli jihatdan mos bo'lsa-da, ma'noviy tabiatining «beo'xshovligi» ularning birikuv hosil qilishiga yo'l qo'ymaydi. Uchinchi birikuvda a'zolar ham ma'noviy, ham shakliy jihatdan muvofiq. Ular birikuvi tushuncha emas, fikr ifodalaydi. To'rtinchi birikuv (*kitobni o'qimoq*) bularning barchasidan farqlanadi va birdan ortiq mustaqil so'zning ma'no va

grammatik jihatdan hokim-tobelashuvidan tashkil topib, tushuncha ifodalashga xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Bunda bir so'z tobe, ikkinchisi hokim, tobelik va hokimlik xossasi hamda vositasiga ega. Bu – ularning ma'noviy mosligi va tobeligi (hokimligi) grammatik shakli hamda joylashuv (oldinma-keyinlik) xususiyati. Demak, nutqiy so'z birikmalari uchun quyidagi belgilarni ko'rsatish mumkin:

a) birdan ortiq mustaqil so'z;
b) a'zolarning ma'noviy va grammatik jihatdan mosligi;
d) tobelik;
e) tushuncha ifodalash.

So'z birikmasi bu to'rt belgisining har biri bilan o'ziga yondosh hodisalarga o'xshaydi va bir vaqtning o'zida farqlanadi ham. Masalan, birdan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topganligi bilan so'zdan farq qilsa, tushuncha ifodalashi bilan o'xshashlik kasb etadi. Gap birdan ortiq mustaqil so'zning ma'noviy va grammatik jihatdan tobelanishi asosida ham vujudga keladi. Lekin u SBdan farqli o'laroq, fikr ifodalaydi. Demak, SB bilan uning o'xshashlari munosabatiga alohida-alohida to'xtalish lozim bo'ladi.

SB va so'z. So'z bir tushunchani ifodalaydi. SBda esa birdan ortiq tushuncha munosabatga kirishgan holda voqelanadi. So'z asosida leksema va morfema hamda ularning birikuv qonuniyati yotsa, SBga leksemalar birikuvini tartibga soluvchi LSQ asos bo'ladi. Aytilganidek, so'zda tushuncha, ma'no keng va mavhum bo'ladi. So'z birikmasida esa bu kenglik va mavhumlik bir qadar barham topgan bo'ladi. Masalan, *qiziq kitob* birikmasida kitobning bir belgisi namoyon bo'lgan. Shu jihatdan u muayyanlik kasb etgan. Ammo bu muayyanlik nisbiy va biryoqlama. Chunki uning badiiy yoki ilmiyligi hali mavhum va noaniq. *Qiziq badiiy kitob* birikmasida bu belgi ham muayyanlik kasb etadi. So'z birikmasida so'z boshqa so'zni o'ziga biriktirib kengayishi bilan ma'noviy jihatdan torayib boradi. Demak, shakliy kengayish ma'noviy torayishni keltirib chiqarsa (so'z birikmasida), shakliy torlik (so'zda) ma'noviy kenglik bilan munosib.

SBda ma'nolar o'zaro munosabatga kirishar ekan, bunda ular yaxlitlanib, bir «vujud»ga aylanib ketmaydi. Bir-biriga qancha yaqinlashmasin, baribir o'z mustaqilliklarini saqlab qoladi. Masalan, *toza havo* birikmasida bir ma'no ikkinchisiga muayyanlik kiritish uchun xizmat qiladi, lekin, baribir, bunda ikki tushuncha mavjud. Ikki tushuncha orasidagi munosabat ma'lum bir me'yor chizig'idan o'tsa, ular yaxlit tushunchaga aylanadi va bir butun

holda yangi ma'no anglatadi. Masalan, *belbog'* so'zi dastlab *belning bog'i* birikuvi shaklida bo'lib, bunda ikki tushuncha munosabati (hokim-tobeligi) mavjud. Biroq bu ularning yaxlitlanishi darajasiga etmagan. (*Belbog'*) so'zida esa munosabatning me'yor chizig'idan keyingi holatiga duch kelamiz.

So'zlarning alohida ko'rinishi bo'lgan qo'shma so'zlar aslida so'z birikmalari uzvlarining yaxlitlanishi – so'z birikmasining ma'noviy taraqqiyoti mahsuli.

SB va ibora. SB a'zolari tobe munosabatli mustaqil so'z bo'lsa, ibora ham mustaqil so'zlar birikuvidan tashkil topsa-da, orasidagi sintaktik aloqa so'ngan, bu so'zlar o'zaro yaxlitlanib, ibora o'zida tayyorlik, majburiylik, barqarorlik kabi belgilarni tashiydigan lisoniy birlik qatoridan joy olgan. Ibora tashkil etuvchilari (zohiriy) jihatidan SBga O'xshasa-da, mohiyatan leksemaga yaqinlashadi. Zero, *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* iborasi bilan *bo'shashmoq* so'zining ma'noviy mohiyati yaqin. Leksema kabi ibora ham yaxlit holda yashaydi. So'z birikmasi esa vaqtincha va o'zgaruvchan. So'z birikmasini tashkil etgan so'zlar nutqda o'z mustaqil ma'nolari bilan qatnashgani holda ibora tarkibidagi so'zlar o'zlarining xos ma'nosidan uzoqlashgan (*tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* iborasida *tarvuz, qo'ltiq, tushmoq* so'zlari o'zlarining xos ma'nolariga ega emas).

SBda hokim va tobe, kengayuvchi va kengaytiruvchi so'z. SBda ma'nosi muayyanlashtirilayotgan so'z hokim va uning ma'nosini muayyanlashtiruvchi so'z tobe a'zo deyiladi (masalan, *kitobni o'qimoq* birikmasida *kitobni* tobe va *o'qimoq* hokim a'zo). Bir so'z bir nechta so'zni o'ziga tobe a'zo sifatida biriktirishi mumkin. Lekin SBda bir so'z faqat bir a'zogagina tobe a'zo sifatida bog'lanishi mumkin, xolos. Masalan, *katta, chiroyli gulchambar* birikmasida *gulchambar* so'zi ikkita so'zga hokim. Lekin *chiroyli* so'zi bir so'zgagina tobe. Hokim mavqeda yuzaga chiqayotgan leksema o'zining hokim, tobe vazifada yuzaga chiqayotgan leksema esa o'zining tobe valentligini namoyon qiladi. Hokim va tobe a'zo vazifalari, grammatik shakli va sintaktik o'rni asosida belgilanadi. Tobe a'zo oldin kelib, keyingisining ma'nosini izohlashga xoslangan bo'ladi va bunga mos grammatik ko'rsatkich bilan shakllanadi, ma'lum sintaktik o'ringa ega bo'ladi. O'zbek nutqida odatda, hokim so'z keyin tobe so'z oldin keladi. Nutqiy inversiya (hokim va tobe so'z tartibining buzilishi) asosidagi so'z birikmalarigina bundan mustasno: *o'qidim kitobni, Dilshoda, hamshira* kabi. Hokim so'z *kengayuvchi* va tobe so'z *kengaytiruvchi*

so'z deb ham yuritiladi. *Kengayuvchi* va *kengaytiruvchi* atamalari nisbiy mohiyatga ega bo'lib, shaklga nisbatan aytilgandagina to'g'ri bo'ladi. Masalan: *kitobni o'qimoq* birikmasida (*o'qimoq*) so'ziga yana bir so'zi birikadi va bir so'z ikkita bo'lib, shakliy «yoyilish», ya'ni kengayish yuz berdi. Shakliy kengayish esa ma'noviy torayishni vujudga keltiradi. Bunda shakl va mazmun dialektikasi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Chunki [*o'qimoq*] leksemasining ma'nosi keng, u o'qiladigan barcha narsalar ustida yuz beradigan tegishli harakatni ifodalaydi. *Kitobni o'qimoq* birikmasida esa aytilgan «barcha narsalar»dan asosan «kitob ustida bajariladigan harakat» mohiyatli toraygan ma'nosi qoladi. *Kengayuvchi* atamasini faqat bosh so'zga, *kengaytiruvchi* atamasini faqat ergash so'zgagina xos qilib qo'yish ham biryoqlamalik. Zero, *kitobni o'qimoq* birikmasida *kitob* leksemasi tobe, *o'qi* leksemasi hokim valentligini namoyon qilganligi kabi unda *o'qimoq* so'zi *kitobni* so'zshakli uchun ma'noviy toraytiruvchi va shakliy kengaytiruvchi vazifani namoyon qiladi. Zero, *kitobni* so'zshakli o'timli harakatni ifodalovchi cheksiz leksema bilan bog'lanish imkoniyatiga ega. *O'qimoq* so'zshakli bilan birikish asosida unda ma'noviy torayish, shakliy kengayish yuz beradi.

SBda bog'lanish usuli. SB a'zolari orasidagi bog'lanish, ya'ni tobelanish uch xil: *bitishuv, moslashuv, boshqaruv.* Bu aloqa turining o'ziga xos xususiyati va farqi a'zolarni biriktiruvchi ko'rsatkich yoki boshqa vositadan kelib chiqadi. Masalan, *tez yurmoq, qalamni olmoq, kitobning varag'i* birikmalarida tobe so'zning qaysi shaklda kelishi ko'pincha, uning hokim so'ziga (*qalamni olmoq*) bog'liq bo'lsa, ba'zan har ikkala a'zo bir-birining qanday shaklda bo'lishini belgilab qo'yadi (*kitobning varag'i*).

Bitishuvda birikkan so'zlarning o'zaro aloqasi, asosan, tartib va ohang bilan belgilanadi. Bitishuv aloqasida morfologik ko'rsatkich bo'lmasa-da, tartib muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunda tobe so'z ushbu mavqeda kelish uchun shakliy jahatdan o'zgarmaydi. Zero, tobe a'zo sifatida namoyon bo'layotgan so'z ma'noviy va vazifaviy jihatdan bunga xoslangan bo'ladi. Misollar: *qizil gul, oq qog'oz.* Ba'zan ot turkumidagi so'zlar ham hech qanday vositasiz tobe vazifada kela oladi: *oltin soat, tosh yo'l* kabi. Bunda ular mohiyatan tobe a'zolik doimiy belgisi bo'lgan sifat, son, ravish turkumiga yaqinlashadi. Bu hodisa nutqiy bo'lib, *oltin, tosh* leksemasining lisoniy mohiyati bilan belgilanmagan.

Quyidagi so'zlar bitishuv yo'li bilan bog'langan:

1) ravish +fe'l: *o'z-o'zidan gapirmoq;*

2) sifat+fe'l: *yaxshi so'zlamoq;*
3) son+ot: *o'nta qalam, sakkiz daftar;*
4) ot+ot: *kumush qoshiq, chang yo'l;*
5) olmosh+ot: *hamma odam, qanday kitob.*

Ayrim manbalarda tobe so'z vazifasida ravishdosh (*shoshilib gapirdi*), sifatdosh (*o'qigan bola*) yuzaga chiqqan birikuv ham bitishuvli birikma sifatida qaraladi. Vaholanki, bu erda ravishdosh ko'rsatkichi [*-ib*] fe'lni fe'lga (*shoshilib gapirdi*), sifatdosh shakli [*-gan*] fe'lni otga (*o'qigan bola*) bog'lash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bularning morfologiyada lug'aviy-sintaktik shakl sifatida qaralishi ham ular hosil qilgan birikuvni bitishuvli emas, balki boshqaruvli birikuv sifatida baholashni taqozo etadi.

Bitishuvda a'zolarning hokim-tobelik holati, asosan, tartib va joylashuv omili asosida belgilanadi: (tobe a'zo + hokim a'zo), ya'ni tobe so'z oldin, hokim so'z keyin keladi hamda a'zolar orasiga boshqa so'zni kiritib bo'lmaydi, (*kumush qoshiq* birikmasini *kumush o'nta qoshiq* deb o'zgartirib bo'lmaydi). Ba'zan bitishuvda ham tartib ikkinchi o'ringa tushib qolgandek tuyuladi: *Majlis bo'ladi — Majlis kechqurun bo'ladi.* Lekin bunda *majlis* so'zi fe'lga bitishuv asosida emas, balki bosh kelishikda bog'lanayotganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Demak, bitishuv aloqasida tartib va ohang muhim rol o'ynaydi. Bunda tobelik tartib va joylashuvdan, so'zning grammatik xususiyati va ma'nosidan anglashilishi ayon bo'lib turadi.

Kelishik affiksi o'z ma'nolarini yo'qotgan *tezda kelmoq, o'z-o'zidan raqsga tushib ketmoq, birdan gapirmoq* birikuvini ham bitishuv aloqasi sifatida qaramoq lozim. Chunki kelishik qo'shimchasi bu SBda o'z tizimidan ajralib, so'z tarkibida «qotib qolgan». Bular — kelishik qo'shimchasini olgan holda ravishga ko'chgan so'z.

Boshqaruv aloqasi bir tomonlama shakllangan SBlar tarkibida amal qiladi. Faqat tobe a'zolari birikish uchun tobelovchi qo'shimcha olgan SB boshqaruv yo'li bilan bog'langan deyiladi. Bunda hokim so'z tobe so'zning qanday shaklda bo'lishini boshqaradi. Masalan, *kitobni o'qimoq* birikmasida tobe so'zning tushum kelishigi shaklida kelishi *o'qimoq* fe'lining o'timliligi bilan belgilangan. Agar bu fe'l o'timsiz fe'lga aylantirilsa, (*o'qildi*) tobe so'zdagi tushum kelishigi shakli o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi: *kitobni o'qimoq-kitob o'qildi.*

Boshqaruv aloqasida tobe so'zni har xil turkumdagi so'z boshqarishi mumkin. Misollar: *uyga bormoq* (fe'lli boshqaruv),

mendan katta (sifat boshqaruvi), *tovushdan tez* (ravishli boshqaruv), *o'qishda birinchi* (son boshqaruvi), *aytgan bola* (otli boshqaruv).

Boshqaruv uni amalga oshirayotgan vositaga bog'liq ravishda kelishikli boshqaruv, ko'makchili boshqaruv, ravishdoshli boshqaruv, sifatdoshli boshqaruv kabi turga ajraladi.

Moslashuv SBning ikki tomonlama grammatik shakllangan turi bo'lib, bunda tobe a'zo hokim a'zoga muvofiq egalik shaklini, hokim a'zo tobe a'zoga muvofiq ravishda qaratqich yoki bosh kelishik shaklini oladi. Masalan, *ukamning daftari, sizning uyingiz, Fuzuliy g'azali* kabi. *Moslashuv* atamasi har ikkala a'zo bir-birini taqozo qiluvchi morfologik vositaga egaligini anglatadi. Moslashuv aloqasida tobe a'zo qaratuvchi, hokim a'zo qaralmish deb yuritiladi.

Moslashuv aloqasida tobe a'zo (*Fuzuliy g'azali*) [0] shaklli bo'lganligi kabi, hokim a'zo ham ko'rsatkichsiz qo'llanishi mumkin: *sizning uyingiz – sizning uy, bizning kitobimiz – bizning kitob* kabi. Bu *siz* va *biz* olmoshi hamda [*-ngiz*] va [*-miz*] ko'rsatkichining tarixiy genetik bog'lanishi bilan izohlanadi. Zero, *ularning kitobi* birikmasini *ularning kitob* tarzida qo'llab bo'lmaydi.

SBda bog'lanish omili. SBning tuzilishi, tashkil etuvchi a'zolarning o'zaro munosabatini o'rganish jarayonida birikishning ichki qonuniyati ochiladi. SBda bog'lanish a'zolardan birining faolligi asosida emas, balki har ikki a'zoning ham bir-biriga, avvalo, ma'noviy, qolaversa, shakliy, joylashuv jihatdan moslashishi asosida yuz beradi. Chunki tobelanayotgan leksemaning birikish imkoniyati voqelanishga, hokim a'zoning biriktirish talabi esa qondirilishga intiladi. SBdagi a'zolarning goh bittasining (*maktabga bormoq*), goh ikkinchisining ham (*maktabning bog'i*) grammatik shakllanishi asosida sintaktik aloqaning ikki xil – bir tomonlama aloqa, ikki tomonlama aloqa turini farqlash ma'qul emas. Unda bitishuvli (*keng dala*) birikmalarni hech qanday aloqasiz birikma deyishga to'g'ri kelgan bo'lur edi. Yuqoridagi aloqaning ikki ko'rinishi bog'lovchi vositaga qarab belgilangan, xolos.

So'z birikmasida aloqa har doim ham ikki tomonlama. SB a'zolarining ikki yoqlama birikish imkoniyati (tobe a'zo) va biriktirish talabi (hokim a'zo) aloqadorligi bevosita a'zolarning birikish-biriktirish qobiliyatiga asoslanadi.

SB a'zolari orasidagi bog'lanish har bir so'zda yaxlit holda mavjud bo'lgan ma'noviy (**M**), shakliy (**Sh**), joylashuv (**J**) omillarining o'zaro muvofiqligiga tayanadi. Masalan, *kitobni o'qimoq* birikmasidagi *kitobni* so'zshaklida hokim so'zga birikishini

ta'minlaydigan **M, Sh, J** omillari bo'lganligi kabi *o'qimoq* so'zshaklining ham tobe a'zoga bog'lanishini ta'minlaydigan **M, Sh, J** omillari mavjud. *Xatni yozmoq* birikmasida tobe so'z (*xatni*)ning hokim so'z (*yozmoq*) bilan birikishini uning shakli [*-ni*], ma'nosi va qisman joylashuvi (oldin kelishi) ko'rsatsa, hokim so'zning tobe so'z bilan bog'lanishini ma'nosi, shakli va qisman joylashishi (keyin kelishi) ko'rsatadi.

So'zda bu uch omil yaxlit bo'lib, ma'lum birikish jarayonida birortasi ustunlik qilsa, boshqalari kuchsizlanadi. Keltirilgan *xatni yozmoq* birikmasidagi tobe so'z (*xatni*)da shakliy omil [*-ni*] tobelikni ko'rsatuvchi yetakchi omil bo'lsa, hokim so'z (*yozmoq*)da ma'noviy omil ustunlik qilgan.

Ma'noviy omil deganda so'zlarning bog'lanishi uchun muhim sanalgan lug'aviy ma'nosi, qaysi turkumga xosligi tushuniladi. Lug'aviy ma'no ayon bo'lib, so'zning grammatik ma'noviy xususiyatiga biroz sharh berish lozim. So'zlarning muayyan turkumga xosligi keng ko'lamli tushuncha, mustaqil so'z turkumlari doirasida narsa-predmet (ot), belgi (sifat), miqdor (son), harakat (fe'l), holat (ravish), tasviriylik (taqlidlar), ishoraviylik (olmoshlar) kabi turkumlik ma'nolarini qamrab oladi. Bu ma'nolar so'z turkumi (masalan, ot), uning ichki bo'linishlari (masalan, modda-ma'dan oti, o'rin-joy oti kabi) bilan bog'liq. Shuning uchun *tosh ko'prik* birikmasida (*tosh*) so'zining ot turkumiga mansubligi, modda-ashyo nomi ekanligi, (*ko'prik*) so'zining ma'lum bir harakatning mahsuli bo'lmish predmetni ifodalashi, *so'rida yotmoq* birikmasida esa (*so'ri*) so'zining joy nomini atab kelishi, (*yotmoq*) fe'lining o'timsizligi kabilar ma'noviy omilni tashkil etadi.

Shakliy omil deganda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan aloqa-munosabat (sintaktik) shakllari tushuniladi. Morfologik shakl birikmadagi qaysi a'zoni shakllantirishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) tobega xos (kelishik, sifatdosh, ravishdosh ko'rsatkichi va ko'makchi);

2) hokimga xos (egalik, nisbat, kesimlik ko'rsatkichi).

Joylashuv omili so'zlarning erkin joylashuvi (1) va birikma tarkibida jipslashuvidan (2) iborat.

O'zbek tilining me'yoriy nutqida tartib qat'iy, tobe a'zo oldin, hokim keyin keladi. *Erkin joylashuv* deganda SBdagi tobe va hokim a'zoni bir-biridan ajratish, «uzish», ular orasiga boshqa bo'laklarni kiritish imkoniyati mavjudligi nazarda tutiladi. Masalan, *kecha kelmoq, kitobni o'qimoq, shahrimizning ko'chalari* kabi SBda erkin

joylashuv imkoniyati bor, ularda tobe va hokim a'zoni bir-biridan ajratish, «uzish» (*Kecha uyga keldi, kitobni tez o'qidi, shahrimizning keng ko'chalari*), hatto teskari joylashtirish (*kelmoq kecha, ko'chalari shahrimizning*) mumkin. *Jipslashuv* deganda tobe va hokim a'zoni bir-biridan «uzish» mumkin emasligi tushuniladi. Bunga *tosh ko'prik, oltin uzuk, Navoiy romani, kitob o'qimoq* birikmalarini misol qilib keltirish mumkin. Masalan, *tosh ko'prik* birikmasidagi so'zlarning o'rni almashtirilsa, birikma mohiyati o'zgarib ketadi: *Ko'p:ik — tosh*. Demak, bu so'zlarda birikma mohiyatini belgilashda joylashuv omili ustuvor ahamiyatga ega. Erkin joylashuv **J** omilining kuchsizligini, jipslashuv esa kuchliligini bildiradi.

Har qanday SBda so'zning mavjud imkoniyati yuzaga chiqadi. Bunda har bir a'zodagi mazkur (**M, J, Sh**) omillar o'zaro va boshqa a'zodagi shunday omillar bilan muvofiqlashadi. So'zdagi bir omilning kuchayishi boshqa omilning kuchsizlanishi evaziga sodir bo'ladi. Buni uchburchak burchaklariga qiyoslash mumkin. Uchburchak burchaklarining yig'indisi 180 gradusga teng. Bir burchak kattalashsa, buning hisobiga boshqalari kichrayadi. Lekin ularning umumiy yig'indisi 180 gradusga teng bo'lib turaveradi. Xuddi shuningdek, tobe yoki hokim so'zdagi bir omil kuchayishi boshqa omillarning kuchsizlanishi hisobiga bo'ladi. Chunki bir omilning yetakchilik qilishi boshqalarning to'la voqelanishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan, *uyning egasi* birikmasida birikuv omillari quyidagicha: **[ShMJ+ShMJ]**. Chunki har ikki a'zo ham — biriktiruvchi-tobe a'zo tobega xos, hokim a'zo hokimga xos grammatik shaklga ega. Ularning hokim va tobeligini ana shu shakllar ko'rsatib turibdi. Shuning uchun har ikkala a'zoda ham shakliy omil ustuvor. Birikma a'zolarini bir-biridan «uzish» (*uyning asl egasi*), teskari joylashtirish (*egasi uyning*) birikmaning oldingi mohiyatiga ta'sir qilmaydi. Bu esa joylashuv omilining o'ta kuchsizligidan dalolat beradi. Ma'noviy omil esa shakliy va joylashuv omillari oralig'ida bo'ladi. *Shoshilib gapirmoq* birikmasidagi a'zolarning birikuv omillari quyidagicha: **[ShMJ-MShJ]**. Birinchi uzvda shakliy omilning oldingi o'ringa chiqishi sababi uning ravishdosh shaklidaligi. Ravishdosh shakli *shoshilib* so'zshaklining tobeligini ta'minlamoqda. Joylashuv omilining har ikkala a'zoda ham oxirgi o'ringa o'tishi esa tobe va hokim uzvlar orasida erkin joylashuvning mavjudligi. Ikkinchi a'zo (*o'qimoq*)da ma'noviy omilning kuchayishi uning hokimlik grammatik shakliga ega emasligi va joylashuv omilining kuchsizligi evaziga. *Mart oyi*

birikmasidagi a'zolarning birikuv omillari munosabati esa quyidagicha: JMSh+ShMJ. SB a'zolarida ma'noviy omilning oxirgi o'ringa o'tishi mumkin emas. Chunki SB uchun dastlabki talab – a'zolarning ma'noviy muvofiqligi.

O'zbek tilida har bir a'zo birikuv omillarining o'rin almashish natijasida 6 xil kombinatsiya vujudga keladi. Tobe a'zo: MShJ, MJSh, ShMJ, ShJM, JMSh, JShM. Hokim a'zo: MShJ, MJSh, ShMJ, ShJM, JMSh, JShM. Har bir a'zoning 6 xilligi asosida (6x6) SBning 36 mantiqiy-riyoziy turi ma'lum bo'ladi. Olti xil tobe a'zo va olti xil hokim a'zoni ko'paytirish asosida 36 xonali jadval yuzaga keladi. Quyida jadval har bir SB turiga ayrim misollar berish bilan keltiriladi (36-jadval):

Jadvaldagi bo'sh kataklardan o'zbekcha birikmalar o'rin olmaydi. Masalan, MShJ-ShJM tuzilishli birikma o'zbek tiliga xos emas. Zero, aytilganidek, a'zolarda ma'noviy omil eng ko'p darajada kuchsizlangan so'z birikmalari nutqimizda yo'q.

Hokim a'zoning ifodalanishiga ko'ra SBning turlari. SB o'z tarkibidagi hokim a'zoning qaysi so'z turkumiga kirishiga qarab, quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Ismli birikmada hokim a'zo ot, sifat, son, olmosh turkumidan ifodalanadi: *keng dala* (ot), *tuxumdan kichik* (sifat), *ovozdan tez* (sifat), *odamlarning biri* (son), *o'quvchilarning hammasi* (olmosh).

Fe'lli birikmada hokim a'zo fe'ldan bo'ladi: *vazifani bajarmoq, tez o'qish, uyalgani uyalgan.*

SBning tuzilishiga ko'ra turlari. Biz yuqorida ko'rib o'tgan so'z birikmalari ikki mustaqil so'zli. So'z birikmalari uch va undan ortiq mustaqil so'zli bo'lishi ham mumkin: *bepoyon yashil maydon, o'nta badiiy asar.* Demak, tuzilishiga ko'ra so'z birikmasi ikki turga bo'linadi:

a) sodda birikma; b) murakkab birikma.

Sodda birikma, odatda, ikki mustaqil so'zdan tuziladi: *oq qog'oz, ko'm-ko'k osmon* kabi. *Besh qavatli bino, o'n yashar bola, o'rta bo'yli yigit* tipidagi qo'shilish ham sodda birikma sanaladi. Chunki ular tarkibidagi *besh qavatli, o'n yashar, o'rta bo'yli* unsurlari ajralmas birikma bo'lib, bir butun holda tobea'zo sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, SBning a'zolari ibora yoki boshqa turg'un birikma bilan ifodalanganda ham birikma sodda hisoblanadi: *kapalagi uchib ketgan bola* (*kapalagi uchib ketgan+bola*), *«Yoriltosh» ertagi* (*yoriltosh+ertagi*), *Qush qo'nmas o'simligi* (*qush qo'nmas+o'simligi*).

36-jadval

HT	SHMJ	SHJM	MSHJ	MJSH	JMSH	JShM
SHMJ	*uyning egasi, uydan maktabgacha, shamoldan yopilmoq*				*mart oyi*	
SHJM						
MSHJ	*kitobni o'qimoq, odamdek yashamoq, shirindan shirin, daraxtdan mo'rt, shoshib gapirmoq, uchga bir*			*ilg'or ishchi, yaxshi odam, shunchalar go'zal*	*temir qoshiq, qo'shni kampir*	
MJSH	*xalqqa murojaat, farishtadek odam, nuragan devor*					
JMSH						
JSHM						

Murakkab birikma sodda birikma a'zolarining kengayishidan tuziladi. Qiyoslang:



Osmondagi *uch o'rdak ((osmondagi+(uch+o'rdak))*, *xo'jalikdagi ilg'or terimchilar ((xo'jalikdagi +(ilg'or+terimchilar))* SBlarida hokim so'z kengayishi natijasida, *hammadan a'lochi o'quvchilar ((hamma-dan+a'lochi)+o'quvchilar))* birikmasida esa tobe a'zo kengayishi natijasida murakkab birikma hosil bo'lgan. Ba'zan har ikkala a'zo ham birdan kengayishi mumkin: *hammadan a'lochi faol talabalar: ((hammadan+ a'lochi)+(faol+talabalar))*:



Murakkab birikmada oldin turgan so'zlar oxirgisiga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanib birikma hosil qilmaydi, ya'ni *katta semiz qora qo'y*

birikmasidagi a'zolar ushbu birikmaning o'zida *katta qo'y, semiz qo'y, qora qo'y* kabi birikuvni bermaydi:



Chunki bunda tobe so'zlar hokim so'z ifodalagan narsaning turli belgisini ko'rsatadi. Bu esa ularning uyushmaganligiga dalildir. Uyushmagan tobe a'zo esa o'ziga xos ohang bilan aytiladi. Qiyoslang:

A'lochi, bilimdon bolalar (uyushgan tobe so'zlar)

Katta semiz qora qo'y (uyushmagan tobe so'zlar)

SB zanjiri. Ayrim murakkab SBda bir so'z oldingi so'zga hokim, keyingi so'zga nisbatan tobe bo'lishi mumkin. Masalan: *maktabda o'qiyotgan bola* kabi. Bunda *o'qiyotgan* so'zi *maktabda* so'ziga hokim, *bola* so'ziga esa tobe a'zo sanaladi. Uning sxemasini quyidagicha berish mumkin:



Birikma esa kengayishi mumkin:



So'z birikmasidagi a'zolarning bu tarzdagi kengayishi SB zanjiri deyiladi. Lekin barcha murakkab birikma ham SB zanjirini hosil qilavermaydi. Masalan, *xo'jalikdagi ilg'or terimchilar* birikmasi kabi. Buning bog'lanishi zanjirsimon emas. Chunki *xo'jalikdagi* so'zi ilg'or so'ziga emas, balki *ilg'or terimchilar* birikmasiga tobelangan:



SB va sintagma. Gapning tuzilish va mazmun jihatdan birlashgan parchalari nutq jarayonida qisqa to'xtam bilan ajraladi. Bunday parchalar *sintagma* deyiladi. Masalan: *A'lochi o'quvchilar barcha imtihonlarni muvaffaqiyat bilan topshirdilar* gapi uchta sintagmaga bo'linadi:

1)a'lochi o'quvchilar; 2) barcha imtihonlarni; 3) muvaffaqiyat bilan topshirdilar.

Har bir sintagma bir nafas kuchi bilan aytilib, qisqa to'xtamdan so'ng yangi sintagma boshlanadi. Gap yaxlitlik sifatida boshqa gapdan kattaroq pauza bilan ajratilsa, sintagmalarni ajratib turadigan pauzalar undan kichikroq bo'ladi. Sintagma — grammatik-semantik jihatdan yaxlitlangan fonetik butunlik.

Gap bir sintagmali yoki bir necha sintagmali bo'lishi mumkin. Sintagma ba'zan bir so'zdan ham tashkil topadi. Sintagma bir necha so'zli bo'lganda, ko'pincha, yetakchi va unga tobe so'zdan tashkil topadi. Lekin sintagmadagi hokim-tobelik SBdagi hokim-tobelik munosabatidan farq qiladi. Sintagmadagi bir hokim so'z keyingi sintagma uchun tobe bo'lmaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan gapdagi *a'lochi o'quvchilar* sintagmasidagi hokim a'zo (*o'quvchilar*) *barcha* so'ziga tobe bo'lolmaydi. Lekin SBning tarkibiy uzvida u uchinchi sintagmadagi *topshirdilar* so'ziga tobelanadi.

Sintagma SBga teng bo'lishi ham mumkin. Bunda SBdagi yonma-yon kelgan tobe va hokim a'zolar sintagma hosil qila oladi: *a'lochi o'quvchilar* birikuvi ham SB, ham sintagma. *O'quvchilar topshirdilar* birikmasi erkin birikuv bo'lsa-da, sintagma emas, chunki a'zolari bir pauza bilan birlashtirilmagan.

Sintagmaning SBdan farqli yana bir xususiyati shuki, uning unsurlari orasiga boshqa sintagmaning uzvi ajralib kirmaydi. Lekin SBning uzvlari orasida nutqda bu SBga daxldor bo'lmagan boshqa SB uzvlari joylashgan bo'lishi mumkin: *kitobni kecha o'qidim* gapidagi *kitobni o'qimoq* SB orasida unga daxli bo'lmagan *kecha* so'zi joylashgan.

Sintagmalanishning o'ziga xos qonuniyati bor. Asosan, yonma-yon kelgan aniqlovchi va aniqlanmish, to'ldiruvchi va to'ldirilmish, hol va hollanmish bir sintagmani hosil qiladi.

So'zlovchining maqsadi gapni sintagmaga bo'lishda muhim rol o'ynaydi. Demak, sintagma nutqiy, individual hodisa bo'lib, har bir so'zlovchi bir gapni turlicha sintagmaga bo'lishi mumkin. Masalan: *Halim shofyor akamning o'rtog'i* gapini quyidagicha sintagmalash va uni turlicha tushunish mumkin; *1. Halim — shofyor akamning*

o'rtog'i. 2. Halim shofyor – akamning o'rtog'i. Demak, gapning lisoniy mohiyatini gap tarkibidagi nutqiy SBning qaysi SB LSQi hosilasi ekanligini aniqlashda sintagmalanishga ham tayanish mumkin.

So'z birikmasi lisoniy sathda

SB LSQini tiklash va uning voqelanishi. Boshqa lisoniy hodisa kabi SB LSQlarini tiklash va uning voqelanishi farqlanadi. SB LSQining voqelanishi «lison-nutq» yo'nalishida bo'lib, bu yo'nalish umumiylikdan oraliq ko'rinish orqali xususiylikka – nutqiy hodisaga qarab boradi. Masalan:



Bunda [W-W] umumiy lisoniy sintaktik qolip bo'lsa, **[Ot_{atoqli} qaratqich kelishigi - $Ot_{turdosh}$ egalik qo'shimchasi]** – quyi lisoniy sintaktik qolip. *Karimning kitobi* hosilasi – ana shu LSQ asosidagi nutqiy SB.

LSQni tiklash xususiylik (nutqiy hosila)dan oraliq ko'rinish orqali umumiylik sari boradi va bu jarayon «nutq-lison» yo'nalishida kechadi. Nutqiy SBning voqelanishida boshlang'ich nuqta [W-W] qolipi bo'lsa, uni tiklashda *Karimning kitobi* kabi nutqiy SBlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida aytilganidek, o'zbek tilida so'z birikmasining 18 ta umumlashmasi – LSQi mavjud bo'lib, ularni a'zolarining birikuv omillari asosida jadvalda quyidagicha umumlashtirish mumkin (37-jadval):

T/r	ShMJ	ShJM	MShJ	MJSh	JMSh	JShM
ShMJ	1[W$^{qaratqich\ kelishigi}$ W$^{egalik\ qo'shimchasi}$] 2.[W$^{chiqish\ kelishigi}$_ W$^{chegara\ shakli}$] 3.[W$^{chiqish/\ jo'nalish\ kelishigi}$ Fe'l$_{majhul/\ aniq\ nisbat}$]		1.[Ism$^{kelishik\ qo'shimchasi}$ Fe'l] 2.[Ism$^{o'xshatish}$ Fe'l] 3.[Sifat$^{chiqish\ kelishigi}$-Sifat] 4.[Ot$^{qaratqich\ kelishigi}$-Sifat] 5.[Fe'l$_{sifatdosh}$ Fe'l] 6.[Son$^{kelishik\ qo'shimchasi}$ Son]	1.[Ot$^{kelishik\ qo'shimchasi}$ Ot] 2.[Ism$^{o'xsha-tish}$-Ism] 3.[Fe'l$_{sifat-dosh}$-Ot]		
ShJM						
MShJ						
MJSh			1.[Ism-Ot] 2.[Ism-Fe'l] 3.[Ravish/Ol mosh-Sifat]			
JMSh	[Ot$^{bosh\ kelishik}$ Ot$^{egalik\ qo'shimchasi}$]		1.[Ot$_{modda}$ Ot$_{aniq}$] 2.[Ot$_{shaxs}$ Ot$_{shaxs}$]			
JShM						

Quyida har bir riyoziy-mantiqiy katakdagi bittadan LSQning asosiy ko'rinishi va ma'noviy turlarini tasvirlashga harakat qilinadi.

[W$^{qaratqich\ kelishigi}$ - W$^{egalik\ qo'shimchasi}$ = qaratuvchi-qaralmish]. Qolipda a'zolar [W] belgisi bilan berilgan bo'lib, bu muayyan so'z turkumi belgisi emas. Chunki bunda [W] unsurini to'ldiruvchi a'zo sifatida turli xil mustaqil so'z turkumi qatnashishi mumkin. Shuningdek, bu LSQning quyi bo'linishi uning tegishli so'z turkumi tomonidan to'ldirilishi asosida bo'lib, ular quyidagilar:

1) **[Ot$^{qaratqich\ kelishigi}$ - Ot$^{egalik\ qo'shimchasi}$=ot qaratuvchi+ot qaralmish]** (*kitobning varag'i*);

2) **[Ot$^{qaratqich\ kelishigi}$ - Sifat$^{egalik\ qo'shimchasi}$=ot qaratuvchi+sifat qaralmish]**(*daraxtning mo'rti*);

3) **[Sifat$^{qaratqich\ kelishigi}$ - Ot$^{egalik\ qo'shimchasi}$ = sifat qaratuvchi + ot qaralmish]** ((*gulning*) *qizilining hidi*);

4) **[Sifat$^{qaratqich\ kelishigi}$ — Sifat$^{egalik\ qo'shimchasi}$ = sifat qaratuvchi+sifat qaralmish]** ((*olmaning*) *kattasining chuchugi*);

5) **[Ot$_{turdosh}$ $^{qaratqich\ kelishigi}$ - Sifat$^{egalik\ qo'shimchasi}$]=ot qaratuvchi+son qaralmish]** (*gulning bittasi*);

5) **[Ot$_{turdosh}$ qaratqich kelishigi - Sifat egalik qo'shimchasi]=ot qaratuvchi+son qaralmish]** (*gulning bittasi*);

6) **[Son qaratqich kelishigi — Son egalik qo'shimchasi]=son qaratuvchi+son qaralmish** (*o'nning yarmi*);

7) **[Ot qaratqich kelishigi - Harakat nomi egalik qo'shimchasi = ot qaratuvchi+fe'l qaralmish]** (*Otabekning qaytishi*);

8) **[Harakat nomi qaratqich kelishigi - Ot egalik qo'shimchasi] = fe'l qaratuvchi+ot qaralmish]** (*uyalishning o'rni*);

9) **[Harakat nomi qaratqich kelishigi — Harakat nomi egalik qo'shimchasi]=fe'l qaratuvchi+fe'l qaratuvchi]** (*olmoqning bermog'i*);

10) **[Ot qaratqich kelishigi - Sifatdosh egalik qo'shimchasi=ot qaratuvchi + sifatdosh qaralmish]** (*yurakning to'xtagani*);

11) **[Sifatdosh qaratqich kelishigi - O egalik qo'shimchasi=sifatdosh qaratuvchi+ot qaralmish]** (*qo'rqqanning ko'zi*);

12) **[Ot qaratqich kelishigi - Ravish egalik qo'shimchasi=ot qaratuvchi+ravish qaralmish]** (*mehnatning kecha-kunduzi*);

13) **[Olmosh qaratqich kelishigi - Ot egalik qo'shimchasi]=olmosh qaratuv-chi+ot qaralmish]** (*mening vatanim*);

14) **[Ravish qaratqich kelishigi - O egalik qo'shimchasi=ravish qaratuv-chi+ot qaralmish]** (*hozirning huzuri*).

Umumiy **[W qaratqich kelishig - W egalik qo'shimchasi]** qolipining bu ko'rinishlari ham bevosita kuzatishda berilgan, ular o'zaro a'zolarining qaysi turkumga mansubligi bilan farqlanar ekan, demak, bu farq lug'aviy mohiyatlar asosida

[W qaratqich kelishigi - W egalik qo'shimchasi=qaratuvchi-qaralmish] qolipi hosilalari turli xil ma'noviy munosabatni namoyon qiladi. Misol sifatida bir-biriga o'xshash bir nechta nutqiy SBni qiyoslab ko'raylik (38-jadval):

38-jadval

№	SB	Ma'noviy munosabatlar
1	Halimning qalami	«Ega-egalik qilinuvchi narsa»
2	Odamning qo'li	«Butun-qism»
3	Ilmning tashabbuskori	«Narsa-aloqador shaxs»
4	Odamning yaxshisi	«Tur-jins»
5	Uyning tozaligi	«Belgi egasi-belgi»
6	Bolaning yig'lashi	«Subyekt-uning harakati»
7	Yashashning zavqi	«Holat-uning natijasi»
8	Urushning asorati	«Jarayon-uning oqibati»
9	E'tiborsizlikning illati	«Sabab-natija»

Bu qatorni yana davom ettirish mumkin. Ko'rinadiki, SBdan SBga o'tish bilan ularning ma'noviy munosabati ham farqlanib bormoqda. Ma'noviy munosabatlar orasida aynan o'xshashlik yo'q.

Bu leksemalar asosida ko'plab SB tuzish mumkin va ularning har biri borliqdagi har xil – «atash», «ajratish», «ega-egalik qiluvchi narsa» kabi munosabatlarni aks ettiradi. Bu obyektiv munosabatning qaysi biri voqelanishi esa birikmadagi grammatik qo'shimcha bilan belgilanadi. Qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasi *Karimning kitobi* birikmasida ikki xil ma'noviy munosabatni voqelantiradi: «ega-egalik qilinuvchi narsa» va «muallif-uning asari». Lekin **[W$^{\text{qaratqich kelishigi}}$ - W$_{\text{egalik qo'shimchasi}}$] = qaratuvchi-qaralmish]** LSQi bu ikki xillikka nisbatan befarq. Chunki bu omonimlikni nutqda yoki lisonda **[W$^{\text{qaratqich kelishigi}}$ - W$_{\text{egalik qo'shimchasi}}$]** dan quyida maxsus vositalar farqlaydi. Bu vositalar matn (*Karim kitob oldi. Karimning kitobi qiziq ekan,* yoki *Karim kitob yozdi. Karimning kitobi qiziq ekan*) yoki SB a'zosining kengayishi (*Karimning yozgan kitobi*) kabidan biri yoki bir nechtasi bo'lishi mumkin.

Demak, ayon bo'ladiki, yuqoridagi jadvalda keltirilgan SB a'zolari orasidagi ma'noviy munosabat **[W$^{\text{qaratqich kelishigi}}$ - W$_{\text{egalik qo'shimchasi}}$]** qolipiga daxldor bo'lmay, balki uni to'ldirayotgan leksemalar va ular borliqda ataydigan narsa/predmet orasida bo'ladigan munosabatning aksi bo'lib, bu munosabat leksemaning miqdoriga muvofiq ravishda rang-barang bo'lishi mumkin. Masalan, borliqdagi stol va oyoq jismlari orasida «ega-egalik qiluvchi narsa» munosabati bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, bu ma'noviy munosabat qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasining ma'nosi ham emas. Bu jismlar orasida butun-qism munosabati mavjud, u SBda ham aks etgan. SBdagi turli-tuman ma'noviy munosabat bir qarashda qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasi ma'nosidek ham tuyuladi. Lekin qaratqich kelishigi tobe so'zni hokim so'zga, egalik qo'shimchasi hokim so'zni tobe so'zga bog'lash uchungina xizmat qiladi, xolos. Unga tegishlidek tuyulgan ma'nolar qolipni to'ldirayotgan leksemalarning ma'noviy mohiyati bilan bog'liq bo'lib, mazkur qo'shimchalar namoyon qiluvchi vositalardir, xolos.

[Ism$^{\text{kelishik qo'shimchasi}}$ - Fe'l] qolipi. SBning bu LSQi birinchi uzvi morfologik shakllangan va shuning uchun [ShMJ] birikuv omiliga ega va ikkinchi qismda grammatik ko'rsatkich bog'lanish

uchun nisbatan ahamiyatsiz bo'lganligi bois, birikuv omillarining MShJ kombinatsiyasi amal qiladi.

Qolipning birinchi uzvini ism turkumiga oid so'zlar to'ldirib, ular hokim uzvga tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari shakllari bilan bog'lanadi. Birinchi uzvi asosida LSQ quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi (39-jadval):

39-jadval

[Ism$^{\text{kelishik qo'shimchasi}}$ - Fe'l]			
[Ism$^{\text{tushum kelishigi}}$-Fe'l]	[Ism$^{\text{jo'nalish kelishigi}}$-Fe'l]	[Ism$^{\text{o'rin-payt kelishigi}}$-Fe'l]	[Ism$^{\text{chiqish kelishigi}}$-Fe'l]

LSQning har bir ko'rinishi **[Ism]** uzvining bo'linishi asosida yana tarmoqlanadi. Masalan, **[Ism$^{\text{tushum kelishigi}}$-Fe'l]** qolipi quyidagi nutqiy hosilalarni beradi: **[Ot$^{\text{tushum kelishigi}}$-Fe'l]**, **[Sifat$^{\text{tushum kelishigi}}$-Fe'l]**, **[Ism$^{\text{tushum kelishigi}}$-Fe'l]**, **[Son$^{\text{tushum kelishigi}}$-Fe'l]**, **[Olmosh$^{\text{tushum kelishigi}}$-Fe'l]** **[Harakat nomi$^{\text{tushum kelishigi}}$-Fe'l]** (*(kitobni/yaxshini/o'nni ayir, uni (gapirish/ o'qimoq/ so'ramoq/ boshlamoq/ni bas qil.*) kabi.

LSQning birinchi uzvi morfologik shakllanganligi tufayli uni to'ldiruvchi so'zda shakliy omil birinchi o'ringa ko'tariladi. Joylashuv omili esa oxirgi o'ringa tushadi. Zero, birikma a'zolarini erkin almashtirish, ular orasiga so'zlar kiritish birikmaning mohiyatiga, a'zolar orasidagi ma'noviy munosabatga ta'sir ko'rsatmaydi. Ikkinchi a'zo grammatik shakllanganligi sababli ma'noviy omil kuchayib, birinchi uzvda joylashuv omili o'ta kuchsiz bo'lganligi bois ikkinchi (**Fe'l**) uzvda ham bu omilning kuchsizlanishi va uchinchi planga surilishini taqozo qiladi.

[Ism$^{\text{kelishik qo'shimchasi}}$-Fe'l] LSQining birinchi uzvida bir necha kelishik umumlashmasi aks etganligi uchun uning mazmuniy jihati ham murakkab xarakter kasb etadi va uni harakatga tortilgan yoki bog'liq obyekt (joy-harakat) ko'rinishida berish mumkin. Bu ma'noviy umumiylik **[Ism$^{\text{kelishik qo'shimchasi}}$-Fe'l]** LSQining xususiy ko'rinishlarida alohida kelishik qo'shimchalari tomonidan juz'iylashtiriladi, muayyanlashtiriladi.

Masalan:

[Ism$^{\text{tushum kelishigi}}$-Fe'l =vositasiz obyekt-harakat];

[Ism$^{\text{jo'nalish kelishigi}}$-Fe'l= vositali obyekt/hol-harakat];

[Ism$^{\text{chiqish kelishigi}}$-Fe'l= ajralish manbai/o'rin-harakat] va hokazo.

[Ism-Ot] LSQi. Bu LSQ SB uchinchi tip **[W-W]** qolipining alohida turi, u bitishuv aloqali nutqiy hosila berishi bilan

xarakterlanadi. **[Ism-Ot]** qolipining nutqiy voqelanish bosqichlarini quyidagicha aks ettirish mumkin (40-jadval):

40-jadval

[Ot-Fe'l]	**[Sifat-Ot]**	**[Olmosh-Ot]**	**[Son-Ot]**	**[Ravish-Ot]**
[asal bola]	*[yaxshi bola]*	*[o'sha bola]*	*[birinchi bola]*	*[pinhona suhbat]*

[Ism-Ot] LSQi uzvlari o'zaro hech qanday morfologik vositasiz bog'langan, bunday unsurlarda birikuvning joylashuv omili kuchayadi, shakliy omil o'ta kuchsizlanadi. Ma'noviy omil esa birikuvni ta'minlovchi ustuvor omil maqomida bo'ladi: **MJSh-MJSh**. **[Ism-Ot]** LSQining mazmuniy jihati birikuvchi unsurlarning ma'noviy munosabatini umumlashtirish asosida lisoniy mazmunga ega bo'ladi, LSQni yaxlit holda **[Ism-Ot=sifatlovchi-sifatlanmish]** tarzida ta'riflash mumkin.

Ma'lum bo'ladiki, LSQdan sintaktik shakl yasovchigina joy oladi. Lug'aviy shakl yasovchi esa LSQ uchun ahamiyatsiz, ikkiyoqlama tabiatga ega bo'lgan lug'aviy-sintaktik shakllar qolip uchun ahamiyatli vositalar sifatida lug'aviy shakllar tizimining chekkasidan joy oladi.

LSQni o'qish va yozish qoidalari. Lisoniy birlik bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, ular yozish yoki aytish uchun ham shartli belgidir.

Lisoniy birlik bo'lgan LSQ yozuvda turli shartli belgi vositasida beriladi. Biroq bu shartli belgini o'qishning o'ziga xos qonun-qoidalari bor. Ma'lumki, ximiyada moddalar turli shartli belgilar vositasida ifodalansa-da, ular aynan o'qilmaydi. Masalan, H_2SO_4 ni «Ash ikki S O to'rt» deb o'qish to'g'ri emas. LSQga ham shunday munosabatda bo'lish lozim. Deylik, **[W$^{\text{morfologik vosita}}$ _W$^{\text{morfologik vosita}}$]** qolipini o'qish buyurilgan. Uni «W morfologik vosita va W morfologik vosita», deb emas, balki, «ikki uzvi morfologik shakllangan atov birligi» deb o'qish tavsiya etiladi. Agar LSQ **[Ism$^{\text{kelishik qo'shimchasi}}$_Ism$^{\text{egalik qo'shimchasi}}$]** ko'rinishida bo'lsa, u «ikki uzvi ismli qaratuvchili birikma» tarzida o'qilishi maqsadga muvofiq.

Ma'lum bo'ldiki, LSQning shakliy tomonigina yoziladi va o'qiladi. Zero, ikki yoqlamali birlik bo'lgan leksema va morfemaning ham shakliy tomoni shartli ravishda yoziladi va o'qiladi: *[kitob]* leksemasi, *[-ni]* morfemasi kabi. Ularning mazmuniy tomoni bo'lgan semema yoki grammatik ma'no

birliklarning shakliy tomoni bilan yaxlit idrok etiladi va yozuvda uni alohida berish uchun zarurat bo'lmaydi.

Demak, LSQ ifodasida ham qulaylik uchun ularning shakliy tomoni bilangina cheklanish ma'qul.

Turg'un SB va frazemalarning LSQdagi o'rni. Turg'un SB va frazemalar ham mohiyatan o'zida tayyorlik, majburiylik, ijtimoiylik belgilarini mujassamlashtirganligi bois, bir atov birligi, bir leksemaga teng birlik sifatida qaralib, yaxlit holda LSQning bir uzvini to'ldiradi. Masalan, *Halimning tepa sochi tikka bo'lishi* ([Wqaratqich kelishigi_Wegalik qo'shimchasi]), *qo'y og'zidan cho'p olmagan bola* ([Ism-Ot]) kabi.

GAP

GAP NUTQIY SATHDA

Gap kommunikativ nutqiy birlik sifatida

Tildan foydalanish fikrni shakllantirish va bayon qilishdan iborat. Bu esa gap orqali amalga oshar ekan, demak, til yaxlit vujud sifatida sintaksisda namoyon bo'ladi.

Gap — kishilarning bir-biriga fikr, axborot uzatish uchun ishlatadigan asosiy birlik, fikr ifodalashning eng oddiy va usullik ko'rinishi. U so'zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi.

Kishi ongidagi fikr tushunchalar asosida tiklanadi. Fikr nutqda gap sifatida yuzaga chiqadi. Fikr tushunchadan tashkil topganligi kabi gap ham tushunchaning shakli sanalgan so'z va so'z birikmalaridan tuziladi. Gapning tashkil etuvchilari — so'z (ibora ham), grammatik shakl va so'z birikmalari.

Tilning asosiy vazifasi — kishilar muloqotida vosita bo'lib xizmat qilish. Axborot uzatish va qabul qilish vositasi bo'lish — tilning kommunikativ mohiyati.

Kommunikatsiya jarayoni uchun jamoa zarur. Aniqrog'i, muayyan tilda axborot uzatish va qabul qilish shu tilda so'zlashish malakasiga ega kishilarni taqozo qiladi. Bu esa kommunikatsiya jarayonining ijtimoiy tabiatliligidan dalolat beradi.

Gap sintaktik yaxlitlik, bu uning grammatik shakllanganligi, tarkibiy uzvlari bir butunlik holiga kelganligi bilan izohlanadi. Demak, gapda bir necha jihat birlashgan bo'ladi. Birinchi jihat gapning moddiy qobig'i, bu uni tashkil etuvchi so'z va grammatik

shakllar. Masalan, aksariyat gapda kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi (kesim)ning bo'lishi shart. Ikkinchi jihat ana shu moddiy qobiqqa singdirilgan aqliy mahsul – fikr – axborot. Uchinchi jihat esa so'zlovchining voqelikka munosabati, nutq vaziyati. Bu uch jihat nutqda uchlikni – sintaktika, semantika va pragmatika birligini tashkil etadi.

Nutqiy gapning belgilari. Gap, avvalo, sintaktik tugallangan qurilma ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu esa u orqali ifodalanayotgan fikrning nisbatan tugallanganligi bilan belgilanadi. Sintaktik tugallanganlik – gapning kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllanganligi va tugal ohangga egaligi. Gap kesimga ega bo'lmasdan tugal fikr ifoda eta olmaydi. Masalan, *chiroyli kitob* birikuvida so'zlovchi nazarda tutgan axborot yuzaga chiqmagan, chunki uning kitob haqida nima demoqchiligi hali aytilmagan. Shu bois mazkur qurilma fikrni ifodalaydigan qurilmaning asosiy shakli–kesimlikdan xoli. To'g'ri, *chiroyli kitob* birikmasida kitobning xususiyati haqida axborot bordek, ammo u so'zlovchining asosiy maqsadi bo'lgan axborot emas, balki u ikkinchi darajali axborot, asosiy planda gapning yakunidan anglashiladigan kitobning, deylik, borligi, sotilganligi yoxud yo'qolganligi haqidagi axborot yotadi. Demak, gapdan anglashilgan fikr deyilganda, undagi asosiy axborot tushuniladi. Boshqa yordamchi, asosiy bo'lmagan axborotlar uning yuzaga chiqishida vosita bo'lib xizmat qiladi. (To'liqsiz gaplarda sintaktik tugallik bo'lmasa ham, fikr anglashilaveradi. Ulardagi sintaktik tugallik kontekstdan yoki nutq vaziyatidan ma'lum bo'lib turadi). Sintaktik tugallik sintaktik o'rin bilan ajralmas holda, ya'ni lug'aviy birlik kesimlik shaklida bo'lishining o'zi uni gap sifatida qarashga asos bo'la olmaydi. Masalan, *Aytdim deganing nimasi?* gapidagi *aytdim* so'zshakli – kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi. Lekin u kesimlik o'rni bilan ta'minlanmaganligi bois ushbu qurshovda gap maqomiga ega emas. Kesimlik shaklidagi so'z gap bo'lishi uchun kesimlik maqomiga ega bo'lishi kerak. Sintaktik tugallanganlik kesimlik shakli va o'rni bilan belgilanar ekan, bunda tilning yaxlit vujudligi yana bir karra yaqqol namoyon bo'ladi.

Til sathlardan iborat. Til yaxlit vujud ekan, bu sathlar gapning asosiy vazifasi bo'lgan axborot uzatish va qabul qilish jarayonida butunlik sifatida ishtirok etishi lozim. Buni gapda ko'ramiz. Gapning sintaktik tugalligi uchun, dastavval, ma'lum bir mustaqil so'z va kesimlik shakli talab etiladi. *O'qidim* birligi *o'qi* atov birligi va [*-dim*] kesimlik shakli birikuvidan iborat. Demak, bunda tilning

tarkibiy uzvlari – leksik va morfologik sathlarning birgalikdagi harakati ko'zga tashlanadi. Gap uchun lug'aviy va morfologik omil hamkorligi yetarli emas. Uning uchun sintaksisning xos omili – sintaktik o'rin zarur bo'ladi. Sintaktik o'rin esa qurilmaning o'ziga xos tugal ohang bilan namoyon bo'lishini taqozo qiladi. Bundan ko'rinadiki, fonetik omil sintaktik tugallikka yakun yasaydi. Demak, gapda tilning barcha sathlari – leksik, morfologik, sintaktik va fonetik sathlar yaxlit vujud sifatida namoyon bo'ladi, voqelanadi. Quyida ularning har biriga bir butunlikning bo'laklari sifatida alohida-alohida to'xtalamiz.

Gapning shakllanishida leksik omil. Fikr tushunchalarsiz bo'lmagani kabi nutqiy gap asosida ham, avvalo, so'z yotadi. Zero, gap asosidagi atov birligi – voqelangan leksema. Leksemaning guruhlanishida ham etakchi omildan biri sifatida ularning sintaktik imkoniyati yotishi bejiz emas. Shu boisdan tilshunoslikda gap bo'laklari va so'z munosabati ustuvor masaladan biri. Gap bo'laklari turli mustaqil so'z turkumi bilan ifodalanaveradi. Biroq har bir gap bo'lagi uchun ma'lum bir so'z turkumi ko'proq xoslangan bo'ladi – semantik va grammatik xossalari bilan ma'lum bir gap bo'lagi vazifasiga mos so'zlar bor. Masalan, «kesim vazifasida kelish uchun ko'proq fe'l xoslangan» (I.I.Meshchaninov.) Ega, to'ldiruvchi vazifasida, asosan, ot va ot vazifasidagi so'z keladi. Bu so'z turkumlarining umumiy ma'noviy tabiati va grammatik xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, ot turkumi ko'proq tobe bo'lak (ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi) vazifasida kelganligi bois tobelovchi vosita bo'lgan kelishik qo'shimchalari faqat otga, kesim vazifasida ko'proq fe'l kelganligi uchun kesimlik shakllari faqat ungа xosdek tasavvur uyg'otadi. Bu turkumlarning qaysidir vazifaga ko'proq xoslanganligi bilan belgilanadigan «aldamchi» tasavvurlardir.

Aytilganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkin: har bir so'z turkumi muayyan gap bo'lagi vazifasiga ko'proq xoslangan bo'lsa-da, bu vazifada boshqa turkum so'zlari ham kelaverganligi kabi, ma'lum vazifaga xoslanganlik uni nutqda boshqa mavqe egallashdan mahrum qilmaydi. Shuning uchun ham so'zning qaysi turkumga xosligini belgilashda uning qaysi gap bo'lagi vazifasida kelishi nisbiy, barqaror bo'lmagan asos vazifasini o'taydi.

Gapning shakllanishida morfologik omil. Gapni so'z, so'z birikmasidan farqlovchi belgi uning maxsus morfologik ko'rsatkichi–kesimlik qo'shimchalari bilan shakllanganligi. Zero, eng «kichik» gap –morfologik shakllangan atov birligi. Misollar:

O'qituvchiman. Ishladim. Bu «kichik» gaplar atov birligi (*o'qituvchi, ishla*)dan mahrum etilsa, bu o'z holicha hech qanday qiymat kasb etmaydigan morfologik shakl – [*-dim*] qoladi. Biroq mazkur gaplar morfologik shakldan ajratilsa, tilning boshqa sathi birliklari (so'z, SB) dan farqlanmay qoladi. Demak, kesimlik shakli gapda asosiy sintaktik vazifa – kesimni shakllantirishga ixtisoslashgan shakl. Vositasiz to'ldiruvchi vazifasidagina kelish tushum kelishigi shakli uchun qanchalik qat'iy va xususiy bo'lsa, *kelay, o'qituvchiman* kabi nutqiy birliklardagi morfologik shakllar uchun kesimni shakllantirish ham shunday.

Kesimlik shaklining boshqa morfologik shakllardan farqi – uning bir necha ichki kategoriyalarning qorishishidan hosil bo'ladigan murakkab tabiatga egaligi. Aniqrog'i, kesimlik kategoriyasi kesim vazifasini birgalikda qaror toptiruvchi – shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl kategoriyalari sintezidan iborat. *O'qidim* gapida kesimlik shakli maxsus ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, *Bu yer shahar* gapida u nol shaklli. Zero, bu gapda ham III shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, aniqlik mayli ma'nolari anglashilib turibdi.

Morfologik shakldan faqat aloqa-munosabat (sintaktik) shakligina sintaktik qurilishga daxldor, undan faqat kesimlik kategoriyasi gap mohiyatiga tegishli. Chunki, odatda, kesimlik kategoriyasisiz gap shakllanishi mumkin emas. Gap mohiyati «atov birligi+kesimlik qo'shimchalari» tarzida. Aloqa-munosabatning boshqa shakli (kelishik, egalik) esa gap tarkibidagi so'zlarni bog'lash uchungina xizmat qilib, SB mohiyatini tashkil etishda ishtirok etadi.

Gapni shakllantirishda ohangning roli. Nutqiy gapning muhim belgilaridan biri – uning tugallangan ohangga ega bo'lishi.

Gapning fikriy va sintaktik tugalligi ohang jihatidan ham tugallik va yaxlitlikni taqozo qiladi: tugallangan ohang fikrning va sintaktik qurilishning tugalligini bildirib turadi. Zero, gap va gap bo'lmagan nutqiy hodisa (so'z, SB)larning muhim farqlaridan biri ham tugal bo'lmagan ohangga ega bo'lishi. Masalan: 1. *Kelgan o'quvchi.* 2. *Kelgan – o'quvchi.* Bu nutqiy hodisaning birinchisida ohang ko'tariluvchi, ikkinchisida esa tushuvchi. Ko'rinadiki, birinchi hosila aniqlovchi-aniqlanmish tipidagi birikma bo'lib, u fikr anglatmaydi va bu uning tugal bo'lmagan ohang bilan aytilishini talab qiladi. Ikkinchi hosila (*kelgan bola*) ham tarkibi jihatdan oldingi hosilaga o'xshaydi, lekin tarkibida kesimlik shakli va ma'nosi borligi uchun tugal ohang bilan aytiladi. Shu boisdan birinchi qurilma ochiq, yakunlanmagan, ikkinchisi yopiq va

tugallangan. Bir so'zning o'zi ham goh tugal, goh tugallanmagan ohang bilan aytilishi mumkin. Qiyoslang: *1. Qish. 2. Qish* ...

Demak, so'z yoki birikma fikriy, sintaktik va ohang jihatidan tugallikka ega bo'lib, gap tusiga kiradi.

Ohang nafaqat gapning tugallanganligini, balki gapning turli tipini belgilashda ham muhim. Misol sifatida bir so'zni olaylik. Qiyoslang:

A'lochi...
A'lochi.
A'lochi!
A'lochi?
A'lochi!?

Ma'lum bo'ladiki, so'zning atov birligimi yoki gap, gap bo'lsa, qanday tabiatga ega ekanligini nutqda faqat ohang ko'rsatmoqda. So'z yoki SB atov birligi sifatida nutqda gapdan ohang bilan ham farqlanganligi kabi, gapning turlarini farqlashda ham boshqa omillar bilan birgalikda ohangga tayaniladi. Masalan, *Jonim!* gapida uning his-hayajon gap ekanligini faqat ohang ko'rsatmoqda. *Voy, jonim!* gapida esa leksik (*voy*) va fonetik (*ohang*) omil hamkorlik qilmoqda. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (darak, so'roq, buyruq), his-hayajon ifodalanishiga ko'ra turlarini belgilashda leksik, morfologik omillar ishtirok etishi ham, ishtirok etmasligi ham mumkin, lekin fonetik omilning bo'lishi shart.

Gaplar mundarijasi, shakli va vazifasi jihatidan farqlanadi: *Men shaharga boraman. Men shaharga boramanmi? Men shaharga boray.* Bu gaplarda so'zlovchining maqsadi har xil bo'lganligi bois, ular turlicha shakllangan hamda gapning darak, so'roq va buyruq-istak turlari vujudga kelgan. Bu esa gapning turlicha ohangga ega bo'lishini taqozo etadi. Gaplarning grammatik shakllari bir xil bo'lganda ham, ularni ohang farqlab turadi. Demak, gapning grammatik shakli turlicha bo'lsa-da, so'zlovchining maqsadi va ohangi har doim muvofiq.

Yuqoridagi misolda aytilganidek, bir gapda turli xil maqsad ifodalangan bo'lishi mumkin. Masalan, *Shaharga boraman!* gapida xabar bilan so'zlovchining shodlanishi ham ifodalangan va ular ohang orqali «tasdiqlangan».

Ohang qo'shma gap tarkibiy qismlarini bog'lashda ham namoyon bo'ladi. Ko'pincha, u grammatik vosita o'rnini bosish darajasiga ko'tariladi: *Biz ishonamiz — ko'nglimiz to'q.* Bunda ohang (pauza) ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasida qo'llangan.

Gap bo'laklari orasidagi munosabatni ko'rsatishda ham ohang muhim o'rin tutadi. *Men — men, sen — sen* gaplarida gap bo'lak (ega-kesim)larini farqlashda va ular orasidagi munosabatni ko'rsatishda ohang hal qiluvchi rol o'ynaydi. *Halim, ukam o'qishga kirdi* va *Halim ukam o'qishga kirdi* gaplarida *Halim* so'zining (1-gapda) undalma yoki (2-gapda) aniqlovchi ekanligi og'zaki nutqda ohang orqali bilinib turadi.

Gapning sintagmalarga bo'linishi va aktual bo'linish hodisalarida ohangning roli katta.

Aytilganlar asosida nutqiy gapning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) gap nisbiy tugal fikr anglatadi;

2) gap grammatik shakllangan bo'ladi;

3) tugal fikr va sintaktik shaklga muvofiq tugallangan ohangga ega bo'ladi;

4) axborot beruvchi eng kichik birlik sanaladi.

Gapda shakl va mazmun munosabati

Har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat. Gapning lisoniy sathdagi shakliy va mazmuniy jihati uning nutqiy sathdagi shakliy va mazmuniy jihatidan farqlanadi.

Gapning eng kichik qurilish qolipi **[WP_m = fikr ifodalovchi eng kichik birlik]** lisoniy sathda o'rnashgan. Bunda LSQning chap tomoni shakliy va o'ng tomoni mazmuniy jihati.

Nutqiy sathda esa shakliy va mazmuniy jihat lisoniy sathdagidan farqliroq. Gapning nutqiy sathdagi shakliy-mazmuniy munosabatini tilshunoslikning mazmuniy sintaksis yo'nalishi o'rganadi.

Mazmuniy sintaksis ma'lum bir sintaktik birlik nimani ifodalaydi va ma'lum bir voqea qanday ifodalanadi degan muammoni ochib berish bilan mashg'ul bo'ladi.

Sintaktik birlik (SB, gap bo'lagi, gap)da ifodalangan borliq bo'lagi, voqelik, vaziyat mazmuniy sintaksisda *propozitsiya* deb yuritiladi. Masalan, borliqda kitob ustida harakat bajarildi — kitob o'qildi. Bu propozitsiyadir. Propozitsiya SB bilan ham (*kitobning o'qilishi*), gap bilan ifodalanishi ham mumkin (*Kitob o'qildi*). Lekin turli sintaktik birlikda turlicha — SBda muayyanlashgan tushuncha, gapda esa nisbiy tugal fikr sifatida aks etgan. Demak, ko'rinadiki, ma'lum bir propozitsiya gap sifatida namoyon bo'lishi uc l un unga boshqa narsalar — so'zlovchining kommunikativ maqsadi, modallik

belgilari ham qorishadi – bu esa gapga xos grammatik kategoriyaning nutqiy namoyon bo'lishini taqozo etadi va tegishli sintaktik mavqe bilan ta'minlanadi. Boshqacha aytganda, birinchi sintaktik birlik (*kitobning o'qilishi*)da propozitsiya tushuncha tarzida berilib, u so'zlovchining buni hukm sifatida bermaslik maqsadiga bo'ysundirilgan. Maqsad esa ifodalovchi sintaktik birlikda grammatik shakllar ([*-ning*], [*-i*]) va ohang (ko'tariluvchi – tugallanmagan) bilan ta'minlangan. Ikkinchisida esa so'zlovchi propozitsiyani nisbiy tugal fikr sifatida berishni maqsad qilganligi tufayli u nutqda tegishli grammatik vosita (kesimlik kategoriyasi) va maxsus (pasayuvchi, tugallangan) ohang bilan ta'minlangan.

Ma'lum bo'ldiki, mazmun va shakl muvofiq emas. Bir mazmun (propozitsiya) turli shakl (SB va gap) bilan ifodalangan. Shuningdek, bir shakl turli mazmunlarni ifodalashi mumkin. Masalan, *Men o'quvchiman* gapi sintaktik shakl sifatida ikki mazmunni ifodalagan. Qiyoslang:

1. *Men o'quvchiman - I am school boy.*
2. *Men o'quvchiman - I am readineer.*

Mazmuniy sintaksisda gap mazmuni ikki unsur – obyektiv va subyektiv mazmundan iborat deb qaraladi. Obyektiv mazmun gapda aks etgan propozitsiya (u *diktum* ham deyiladi), subyektiv mazmun esa bu voqelikka so'zlovchining munosabati (u *modus* deb yuritiladi). Masalan, *Halim keldi, Halim kelmoqchi, Halim kelsa edi, Halim, balki kelar* gaplarida diktum bir xil, ammo har bir gapda modus turlicha.

Bir sintaktik birlik bilan turli mazmunning, bir mazmunning turli sintaktik birliklar vositasida ifodalanishi sintaktik birliklarda mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi (bunga yuqorida misol keltirildi).

Bir propozitsiya sodda gap bilan ham, qo'shma gap bilan ham ifodalanishi mumkin. Qiyoslang: *Kamola kelgach, men ketdim* (sodda gap). *Kamola keldi va men ketdim* (qo'shma gap).

Qo'shma gap bilan bitta propozitsiya ifodalanib, gapning bir qismi modusnigina ifodalashi mumkin: *Men o'ylaymanki* (modus), *u bugun kelmaydi* (diktum, propozitsiya).

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turida ham mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik mavjud bo'ladi. Masalan, gap shaklan so'roq gap (*She'rdan bahra olmagan kim bor?*) bo'lsa-da, mazmunan darak (*She'rdan hamma bahra oladi*) yoki gap shaklan so'roq bo'lsa-da (*Oq ayiqlarni ko'rmaysizmi?*), mazmunan buyruq (*Oq*

ayiqlarni ko'ring), mazmunan buyruq gap shaklan darak gap xarakteriga ega bo'lishi mumkin (*Borsangiz bo'lardi*).

Umuman olganda, sintaktik birliklar va ular ifodalayotgan obyektiv voqelik orasida muvofiqlik ham, nomuvofiqlik ham mavjud bo'ladi. Buni SBda ham, gap bo'laklarida ham, gapda ham kuzatish mumkin.

GAP LISONIY SATHDA

Gap LSQi va uning tiklanishi

LSQ nutqiy hodisa sifatidagi gapning asosiy grammatik va struktur (qurilish) xususiyatini o'zida mujassamlashtirgan mavhum qurilma sifatida yashaydi. Bu gapning struktur elementi orasidagi munosabatni ifodalab, uning umumiy grammatik ma'nosini mujassamlashtiradi.

Nutqda gaplar turli-tuman: *1 Shavkat kitobni o'qidi. 2 Ortadi sevinchim. 3 Farg'ona, go'zalsan.* Shuning uchun ularning qoliplari ham turli-tuman bo'lishi tabiiy. Yuqoridagi *Shavkat kitobni o'qidi* tipidagi cheksiz gaplar (*Tohir xatni oldi. Munisa uyni supurdi*) uchun (ega+to'ldiruvchi+kesim) *Ortadi sevinchim* tipidagi cheksiz gaplar uchun (ega+kesim), *Farg'ona, go'zalsan* tipidagi cheksiz gaplar uchun (undalma, kesim) qoliplari umumiy. Aytilganlardan ikkita ikki xil xulosaga kelish mumkin:

1) qoliplar cheksiz gaplar uchun umumiy;
2) bu qoliplarni ham cheksiz ajratish mumkin.

Ikkinchi xulosa lisoniy birliklarning cheklanganligi haqidagi qoidaga zid. Demak, yo qolip haqidagi xulosada hali izchillik va mukammallik yo'q, yoxud ajratilgan qoliplarda umumiylik yuqori darajada emas. Zero, boshqa lisoniy birlik kabi qolip ham miqdoran chekli va mohiyatan umumiy bo'lishi lozim.

Keltirilgan qolipning cheksizligi sababi – uning gaplarni umumlashtirishning ancha quyi bosqichida ekanligi. Chunki [undalma, kesim] va [ega+kesim] qolipi ham o'zaro farqli va umumiy belgi-xususiyatga ega. Bu qolip undalma va kesim uzvlari asosida o'zaro farqlanadi, biroq har ikkalasi uchun ham kesim uzvi qanchalik cheksiz ko'rinish kasb etmasin, ular lisonda bitta umumiylikka ega bo'lishi va bu umumiylikning zarrasi gap bo'lib kela oladigan istalgan hosilada mavjud bo'lishi shart va zarur. Xo'sh, o'zbek nutqida qo'llana oladigan gaplardagi yuqori darajadagi umumiylik nimadan iborat va u qanday tiklanadi? Buni

aniqlash uchun bir necha o'nlab gaplar olinib, ulardan nosintaktik, ya'ni almashtirilsa ham, o'zgartirilsa ham, gap mohiyatiga daxl qilmaydigan fonetik (gap ohangi), grammatik (gap bo'laklari uchun asos bo'lgan so'z turkumlari) hodisalar, so'zlovchining kommunikativ niyati (ifoda maqsadi: darak, so'roq, buyruq), emotsional jihatlar (gapdagi his-hayajon), gap bo'laklari tarkibi (yig'ma, yoyiq, analitik bo'laklar), shaxsning tavsifi kabilar gapning mohiyatini qorong'ilashtiruvchi o'zga hodisa, tajalli sifatida gap tarkibidan chetlashtiriladi. Shuningdek, tajallilardan xoli qilingan cheksiz qoliplardagi farqlar e'tibordan soqit qilinib, umumiyliklar saqlab qolinaveradi. Demak, gap LSQni tiklash (aniqlash) ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1) nosintaktik hodisalarni chetlashtirish;
2) farqlarni soqit qilish – aynanliklarni ajratish.

Quyidagi gaplardan dastlab nosintaktik hodisalarni chetlashtirishga harakat qilamiz. *1. Shavkat uyga borsin! 2. Qaylardasan, sevikli erkam? 3. G'urbat axtarganga g'urbat ekan bu dunyo! 4. Sen ham uni sevasanmi?*

Bu gaplarda quyidagi nosintaktik hodisalar mavjud:

1. Ifoda maqsadi. Bu nosintaktik hodisa so'zlovchining maqsadi, kommunikativ niyati bo'lib, shu asosda darak, so'roq, buyruq gap hosil qilinadi. Bir gapni uning sintaktik qurilmasiga ta'sir qilmasdan har xil ohang yordamida darak, so'roq, buyruq gapga aylantirish mumkin. Masalan: 1. *Jamshid uyga borsin* (buyruq gap). 2. *Jamshid uyga borsin (Jamshid uyga borsin, keyin gaplashamiz* ma'nosida – darak gap). 3. *Jamshid uyga borsin?* (so'roq gap). Gap ohang jihatdan qancha o'zgarmasin, uning qurilishi o'zgarmasdan qolaveradi: [ega+hol+kesim]. Gapning ifoda maqsadini o'zgartuvchi vosita gap tarkibiga kiritilsa ham, sintaktik qurilishiga putur etkazmaydi (masalan, so'roq olmoshlari, yuklamalar). Demak, birinchi gapdagi buyruq, ikkinchi va to'rtinchi gapdagi so'roq va uchinchi gapdagi darak ma'nolari mantiqiy kategoriyaning ushbu gaplarda namoyon bo'lgan zarralari– gaplarning sintaktik tabiatiga daxldor bo'lmagan o'zga, begona hodisaning tajallisi.

2. Modal ma'nolar. So'zlovchining o'z fikriga munosabatini ifodalovchi modal ma'no ham gapning sintaktik qurilishiga ta'sir qilmaydi. Masalan, *Shalola kelgan, Shalola kelgandir, Shalola keldi, Shalola, albatta, keldi* gaplarining birinchisida so'zlovchining fikrga betaraf munosabati, ikkinchisida gumonsirash, uchinchisida aniqlik, to'rtinchi gapda fikrning qatiyligi namoyon bo'lgan.

Bundagi biror gapdan anglashilgan so'zlovchining munosabati ikkinchi bir gapga ko'chirilsa ham, gaplarning sintaktik tabiati o'zgarmasdan qolaveradi. Yuqorida keltirilgan to'rtta gapning birinchisida qatiylik (*Shavkat uyga borsin*), ikkinchisida noaniqlik (*Qaylardasan, sevikli erkam*), uchinchisida afsus (*G'urbat axtarganga g'urbat ekan bu dunyo*), to'rtinchisida gumon (*Sen ham uni sevasanmi?*) kabi ma'nolar nosintaktik hodisalar sifatida namoyon bo'lgan.

3. Gap bo'laklarining ifodalanish xususiyatlari. Gap bo'laklarining qanday so'z bilan ifodalanganligi — leksik hodisalarning gapda voqelangan (tajallilangan) ko'rinishi. Masalan, bo'laklarning ot yoki fe'ldan ekanligi, leksema yoki frazema bilan ifodalanganligi ham nutqiy sintaktik qurilishni belgilaydi, biroq lisoniy mohiyatga ta'sir qilmaydi. Bunga, deylik, ot bilan ifodalangan bo'lakni olmosh bilan almashtirish asosida (*Nigora maktabga boradi — ega+hol+kesim; U maktabga boradi — ega+hol+kesim*) amin bo'lish mumkin.

4. Murakkablashtiruvchi vositalar. Gap tarkibi undalma, ajratilgan bo'lak, bo'laklarning uyushishi, kirish va kiritma vosita yordamida murakkablashadi. Undalma, kirish va kiritma gap bo'laklari bilan mazmunan bog'langan, lekin grammatik munosabatga kirishmagan hodisa bo'lib, gapning umumiy sintaktik qurilishini o'zgartirishga qodir emas. Masalan, *Qaylardasan, sevikli erkam* gapidagi undalma (sevikli erkam), *Shavkat, so'zsiz, va'dani uddalaydi* gapidagi kirish so'z (*so'zsiz*), *Tabibning ta'biricha, bu dardga da'vo yo'q emish* gapidagi kirish birikma (*tabibning ta'biricha*), *Shoir (men uni ilgari ko'rmagan edim) rindona ijodkor sifatida taassurot qoldirdi* gapidagi kiritma (*men uni ilgari ko'rmagan edim*) ana shunday nosintaktik hodisa.

5. Ajratilgan bo'lak ajralmish bo'lakning ma'nosini muayyanlashtiruvchi vosita bo'lganligi bois, u o'ziga tegishli bo'lakni mazmunan to'ldiradi. Shu bilan birga, gap strukturasini kengaytiradi. Ajratilgan bo'lak izohlanayotgan, to'ldirilayotgan bo'lak bilan birgalikda hokim uzvga tobelanadi: 1. a) *U soyda, qo'sh yong'oqning tagida, qorga ko'milib uzoq turdi* — [ega+hol+hol+kesim]; b) *U soyda qorga ko'milib uzoq turdi* — [ega+hol+hol+kesim]. 2. a) *Oshpazning, Rashid Jumayevning, qo'li shirin ekan* — [aniqlovchi+ega+kesim]; b) *Oshpazning qo'li shirin ekan* — [aniqlovchi+ega+kesim].

Demak, ajratilgan bo'lak garchi intonatsion alohidalikka, mustakillikka ega bo'lsa-da, izohlanmish, to'ldirilmish bilan bir butun holda gap strukturasidan o'rin oladi.

6. Navbatdagi murakkablashtiruvchi vosita **uyushiq bo'lak** bo'lib, uyushgan barcha so'z gap strukturasidan bitta a'zo sifatida o'rin oladi. Masalan, *Serquyosh, hur o'lkam elga baxt-najot* (Madhiya) gapidagi uyushgan ikkita aniqlovchi (*serquyosh, hur*) gap strukturasida bir a'zo sifatida ishtirok etadi. Uyushgan bo'lak yopiq holatda bo'lsa, murakkablashish yanada kuchayadi: *Ariq bo'yida loyga belanib o'ynayotgan bolalar, mudrab yotgan olapar, quyosh nurida jimir-jimir qilayotgan suv o'ziga xos ajib uyg'unlik kasb etgan edi.* Bu gapdagi *bolalar, olapar, suv* so'zlari aniqlovchilari bilan birgalikda yoyiq uyushiq bo'laklarni hosil qilib, yoyiq uyushgan qismli bir butunlik sifatida namoyon bo'lgan.

Gap aytilgan tajallilardan xoli qilinsa, nisbatan umumiy bo'lgan [ega + kesim], [ega + to'ldiruvchi + kesim], [ega + to'ldiruvchi + hol + kesim], [aniqlovchi + to'ldiruvchi + hol + kesim] kabi qoliplar qoladi. Lekin ushbu beshta gap bo'lagining, shuningdek, bu gap bo'lagining bittasi, goh ikkitasi yoki uchtasining tushirilgan holdagi ko'rinishlari kombinatsiyasidan ko'plab qolip tuzish mumkin bo'ladi. Oldimizda esa gapning nisbatan eng yuqori va umumiy qolipini tiklash vazifasi turibdi. Demak, keltirilgan gap qoliplaridagi farqlardan voz kechib, umumiyliklarni saqlash asosida qolipni tiklashning ikkinchi bosqichini amalga oshirishimiz lozim. **Qolipni tiklashning ikkinchi bosqichida yuqorida nosintaktik - gapning lisoniy qurilishiga ta'sir etmaydigan tajallilardan xoli qilingan [ega + kesim], [ega + to'ldiruvchi + kesim], [ega + to'ldiruvchi + hol + kesim], [aniqlovchi + to'ldiruvchi + hol + kesim] qolipidagi farqlar nazardan soqit qilinadi. Natijada, yagona umumiylik sifatida kesim unsuri ajralib chiqadi. Kesim esa har doim mustaqil so'z va kesimlik shakllaridan iborat bo'lganligi bois, uni shartli ravishda «atov birligi+kesimlik qo'shimchasi» yoki** [WP_m] **(W-inglizcha *word*, P_m esa *predikat* va *marker* so'zlarining bosh harflari) shartli belgisi bilan belgilaymiz.** [WP_m] **sodda gaplarning eng umumiy belgisi bo'lib, u aksariyat sodda gapda voqelanadi. Boshqa gap bo'laklarining birortasi gapda bo'lmasligi mumkin, lekin kesimning bo'lmasligi mumkin emas. Lisoniy sathda** [WP_m] **bir necha oraliq ko'rinishlarga ham ega bo'ladi.**

Sodda gapning tarkibiy qismlari

Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo'lganligi sababli o'zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so'zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi. Demak, nutqiy gaplardagi ikki hodisani farqlash lozim:

1) gap markazini tashkil etuvchi so'zdagi kesimlik kategoriyasi **shakllariga** bog'lanuvchi so'z;

2) gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldirayotgan so'z.

Bulardan birinchisi gap kengaytiruvchisi bo'lsa, ikkinchisi – so'z kengaytiruvchisi.

Gap kengaytiruvchisi. Gap kengaytiruvchisi gap tarkibida ma'lum bir bo'lak vazifasida kelayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nosiga emas, balki gapning kesimini shakllantirgan morfologik vositaga bog'lanadi. Masalan, *Biz bu kitobni kecha o'qidik* gapini olaylik. Bu gapda ega (*biz*), aniqlovchi (*bu*), hol (*kecha*) va kesim (*o'qidik*) ishtirok etgan. Gap markazi (*o'qidik*) ni lug'aviy ma'noni anglatuvchi (**W**) va kesimlik qo'shimchalari ($\mathbf{P_m}$)ga ajratamiz: *o'qi* (**W**) - *dik* ($\mathbf{P_m}$). Gapdagi *biz* (ega) kesimlik kategoriyasi shaklining (*-k*) qismiga, *kecha* (hol) esa (*-di*) qismiga bog'langan. *Kitobni* so'zi (to'ldiruvchi) kesimning lug'aviy ma'no anglatuvchi qismiga, *bu* (aniqlovchi) esa *kitobni* so'ziga bog'lanmoqda. Buni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin (41-jadval):

41-jadval

o'qi	di	k
kitobni	kecha	Biz
bu		

Demak, gapning kesimi tarkibidagi kesimlik qo'shimchalariga tobelangan *kecha* (hol) va *biz* (ega) so'zlari – gap kengaytiruvchilari. Biroq *o'qidik* kesimining lug'aviy ma'no anglatuvchi qismi bo'lgan *o'qi* so'zi istalgan boshqa fe'l (*yoz, chiz, ol, ber*) bilan almashtirilib, [*-dik*] qismi saqlab qolinsa, *biz* so'zi ega, *kecha* so'zi hol vazifasida qolaveradi.

Demak, kesimlik kategoriyasi gapning markazini shakllantiruvchi asosiy vosita bo'lganligi sababli, yuqorida keltirilgan gapdagi ega gapning sintaktik qurilishiga bevosita aloqador qism – gap kengaytiruvchisi deb baholanishi kerak. Eganing mavjudligi kesim vazifasida kelgan so'zning ma'nosi bilan

emas, balki kesimlik grammatik shaklining, jumladan, uning tarkibidagi shaxs-son ma'nosi bilan bog'liq. Ko'rinadiki, ega kesimlik kategoriyasi tarkibiga kiruvchi shaxs ma'nosini o'zida muayyanlashtiradi.

Darslik va qo'llanmalarda eganing shu gap tarkibidagi boshqa bir so'zga ergashib so'z birikmasi tuza olmasligi (masalan, yuqoridagi gapda *biz o'qidik* hosilasi so'z birikmasini emas, balki gapni berishi) ta'kidlanadi. Xuddi shuningdek, *men o'qituvchiman* gapida ham *men* olmoshi *o'qituvchi* so'zi bilan so'z kengaytiruvchisi sifatida birikib so'z birikmasi tuza olmaydi. *Mening o'qituvchim* so'z birikmasida esa boshqacha holatni kuzatamiz, ya'ni bu yerda so'z birikmasi grammatik shakl — egalik qo'shimchasi [*-im*] ning sintaktik qobiliyati asosida yuzaga keladi va *o'qituvchi* so'zining semantik valentligiga aloqador emas.

Gap kengaytiruvchisi sifatida ega gapning kesimlik qo'shimchalari tarkibidagi shaxs-son, hol esa zamon, modallik, tasdiq-inkor shakllari bilan bog'lanadi.

Gap kengaytiruvchilari faqat kesimga tobelanadi va uning boshqa bir so'zga tobelanishi kuzatilmaydi. Bu bilan u sintaktik qurilmadagi barcha tobe birliklarning umumiy — faqat bir so'zga tobelanish, lekin birdan ortiq so'zga hokim mavqeida bo'la olish qonuniyatini (xususiyatini) namoyon qiladi.

Modal gap kengaytiruvchi. Ma'lum bo'ldiki, **[P_m]** tarkibida tasdiq-inkor va modallik ma'nolari ham mavjud. Shuning uchun **[P_m]**da mujassamlashgan va turli vositalar bilan ifodalangan tasdiq-inkor, taxmin, gumon, shubha, ishonch, aniqlik, qat'iylik, shart, istak, tilak, buyruq, imkoniyat, zarurat, majburiylik va h. ma'nolar gap tarkibida turlicha — kirish bo'lak, kiritma bo'lak kabi gapning boshqa bo'laklari bilan tobe-hokimlik munosabatiga kirishmaydigan va shu boisdan so'z birikmalarini ham tashkil eta olmaydigan modal va tasdiq-inkor so'zlar vositasida kengaytiriladi. Masalan: *1. Nigora, ehtimol keladi. 2. Biz, shubhasiz, yutib chiqamiz.* Gaplardagi *ehtimol, shubhasiz* so'z-gaplari sodda gap tarkibiga kirar ekan, gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmasa-da, mazmunan **(P_m)**ning tegishli ma'nolarini muayyanlashtiradi. Modal kengaytiruvchilar bu bilan lisoniy gap mazmunini nutqda to'laroq ochishga yordam beradi.

So'z kengaytiruvchilari. Gap tarkibidagi mustaqil so'zlik mavqeini saqlagan barcha so'zlarning ma'noviy qobiliyati asosida kengaya olishini va shu qobiliyatni namoyon qilishini ta'minlovchi lug'aviy birlik *so'z kengaytiruvchisi* deyiladi. So'z kengaytiruvchisi

gapning qurilishiga bevosita aloqador hodisa bo'lmay, ma'lum bir so'zning ma'nosini muayyanlashtirish, uni ochib berishga aloqador bo'lgan hodisa. So'z kengaytiruvchisi mustaqil, alohida bir gap bo'lagi – gap qurilishining zaruriy tarkibiy qismi emas. U gapning ma'lum bir bo'lagiga ergashib, tobelanib keladi, gap markazi – kesim tarkibidagi kesimlik qo'shimchasi bilan bog'lanmaydi. Aniqlovchi ana shunday bo'lakning usullik ko'rinishi. Masalan, *Bu kitobni kecha o'qidik* gapidagi *bu* aniqlovchisi to'ldiruvchi (*kitobni*)ga tobelangan va gap tarkibida to'ldiruvchi bilan bir butun holda kesimga bog'lanadi.

Aniqlovchi gapdagi barcha bo'laklarni kengaytirishi mumkin.

a) eganing kengaytiruvchisi : *A'lochi Tohir keldi.*

b) kesimning kengaytiruvchisi: *Sen ilg'or o'qituvchisan.*

d) holning kengaytiruvchisi: *U azim shaharda yashaydi.*

e) to'ldiruvchining kengaytiruvchisi: *Aqlli bolalarni sevaman.*

f) aniqlovchining kengaytiruvchisi: *Beg'ubor yoshligim taassurotlari hech qachon o'chmaydi.*

So'z kengaytiruvchisi nutqda kesim vazifasida kelgan so'zga mansub bo'lishi ham mumkin. Masalan, *Gulnora – iste'dodli talaba.* Bu holatda ham so'z kengaytiruvchisi gap qurilishiga o'zi ergashib kelgan so'z bilan birga kirib keladi va gap qurilishida alohida o'rin egallamaydi. Yuqoridagi gapda *iste'dodli* so'zi gap kesimiga tobelanib kelganday ko'rinadi. Aslida esa u gap kesimiga emas, balki mana shu gapdagi kesim vazifasida voqelangan *talaba* so'ziga tobelanib kelmoqda. Shuning uchun gapning kesimi vazifasida kelgan so'zning leksik-semantik valentligi bilan bog'liq bo'lgan kengaytiruvchi bo'lak ham so'z kengaytiruvchisi. *Biz kecha bu kitobni o'qidik* gapidagi *kitobni* so'zshakli bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchini olib ko'raylik. Ma'lumki, vositasiz to'ldiruvchi bilan birikish faqat o'timli fe'lga xos. Shu boisdan vositasiz to'ldiruvchi kesimlik shakli bilan emas, balki kesim vazifasida ma'no jihatidan o'timli bo'lgan fe'lning kelishi bilan bog'liq. So'z va gap kengaytiruvchilarini farqlashga yuqorida tasvirlangan mezon asosida yondashadigan bo'lsak, bu gapdagi to'ldiruvchini ham so'z kengaytiruvchisi – o'timli fe'lning lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan muayyanlashtiruvchi bo'lak sifatida baholash lozim. Vositali to'ldiruvchi ham vositasiz to'ldiruvchi kabi gapda so'z kengaytiruvchisi mavqeida bo'ladi va gap qurilishida mustaqil o'ringa ega emas.

Demak, to'ldiruvchi ham aniqlovchi kabi so'z kengaytiruvchisi bo'lib, gapning qurilishida mustaqil o'rin egallamaydi, balki gap

tarkibiga o'zi bog'lanayotgan o'timli fe'l bilan birga kiradi. O'timli fe'l gapda qanday mavqeda kelmasin, vositasiz to'ldiruvchi u bilan bir butunlikni tashkil etib, shu butunlikka nisbatan bo'lak maqomida bo'ladi. Boshqacha aytganda, mazkur gapda to'ldiruvchi gapning bo'lagi emas, balki kesimning bo'lagi – bo'lak ichidagi bo'lak.

To'ldiruvchi ko'pincha, kesimga bog'lanadi. Lekin to'ldiruvchi faqat kesimga tobelanib keladi, degani emas. U barcha bo'laklarni to'ldirishi mumkin:

1. ***Kattani*** *hurmat qil.*
2. ***Kattani*** *hurmat qilishni o'rgan.*
3. ***Kattani*** *hurmat qilish – yoshlarning fazilati.*
4. *Bolalarimizni yoshligidan* ***kattani*** *hurmat qilishga o'rgatishimiz zarur.*
5. *Yoshlarimizdagi eng yaxshi fazilatlardan biri* ***kattani*** *hurmat qilishdir.*

Ko'rinadiki, vositasiz to'ldiruvchi 1-gapda kesimga, 2-gapda vositasiz to'ldiruvchiga, 3-gapda egaga, 4-gapda vositali to'ldiruvchiga, 5-gapda yana kesimga bog'lanib kelyapti.

Demak, to'ldiruvchi fe'l bilan ifodalangan barcha gap bo'laklariga bog'lanadi va gap tarkibiga o'zi bog'langan bo'lak bilan yaxlitligicha kiradi. Bu kengaytiruvchilar o'zi birikayotgan so'z bilan so'z birikmasi hosil qiladi, biroq gap qurilishi bilan bevosita aloqador emas.

Lisoniy sathda gap bo'laklari

Grammatik shakllangan gapning minimal va maksimal lisoniy sintaktik qolipi. Avvalgi fasllarda gapning eng kichik lisoniy qolipi **[WP_m]** ramzi bilan berilib, gapning umumiy lisoniy mohiyati sifatida tavsiflandi. Bunda o'zbek nutqida qo'llanadigan aksariyat gapning eng umumiy belgilari mujassamlashgan. Nutqdagi barcha gaplarning kesimdan boshqa bo'laklari olib tashlansa ham, u gap bo'la oladi. Biroq nutqiy gaplarning lisoniy sathda bu umumiylik (**WP_m**)dan quyiroqda joylashgan boshqa umumiyliklari ham bor. Modomiki, gap kengaytiruvchilari gap mohiyatini belgilovchi asosiy vosita bo'lgan kesimlik qo'shimchalari (**P_m**)ga tegishli ekan, demak, yig'iq gapdan boshqa barcha kengaygan gapda, kesim bilan birga, yana ikkita gap bo'lagini ajratish mumkin. Ular ega va hol. To'ldiruvchi va aniqlovchi esa barcha bo'laklarga, bo'lakning bo'laklariga bog'langanligi hamda so'z kengaytiruvchilari bo'lganligi

bois lisoniy qolipdan o'rin ola olmaydi. Ular qaysi so'zga bog'lanayotgan bo'lsa, lisoniy sathda uning valentliklari sifatida yashaydi. Yig'iq gap esa umumiy qolip – [WP_m]ning aynan voqelanishi. Masalan: *Bahor. O'tlar yam-yashil* kabi. Demak, gapning minimal qolipi **[WP_m]** ega va hol bilan kengaytirilsa, u quyidagi ko'rinishni oladi:



Bu gapning maksimal qolipi hisoblanadi. Boshqa barcha so'z kengaytiruvchilari (to'ldiruvchi va aniqlovchilar) o'zi ergashib kelayotgan bo'laklar bilan bir butun holda bitta bo'lak (ega, kesim, hol) bo'lib keladi. Masalan, *Sharob hammaning boshini qizdirib, hissiyotni aqldan ustun qilgan bu soatda sohibqiron Amir Temurning Hindistonning podshohi bo'lgan zurriyoti o'zining qilich kesmaydigan, o'q o'tmaydigan nazarkarda botir ekaniga arslon kiyik bilan olishganda o'z g'alabasiga amin bo'lganday ishonmoqda edi (P.Qodirov)* gapida uchta gap kengaytiruvchisi bor: *bu soatda, zurriyoti, aniq bo'lganday.* Bular to'g'ridan-to'g'ri gap markazi (kesimi) dagi kesimlik qo'shimchalari bilan bog'langan. Qolgan so'zlar esa ana shu (*soatda, zurriyoti, amin bo'lganday, ishonmoqda edi*) bo'laklarning ma'noviy valentligini to'ldirayotgan so'z kengaytiruvchilaridir (sxemada hol **H**, ega **E** belgisi bilan berildi) (42-jadval):

42-jadval

bu soatda	*amin bo'lganday*	*zurriyodi*	*ishonmoqda*	*edi*
ustun *qilgan* *aqldan* *hissiyotini* *qizdirib* *boshini* *hammaning* *sharob*	*g'alabasiga* *o'z* *olishganda* *kiyik bilan* *arslon*	*Temurning* *Amir* *Sohibqiron* *Jahongir*	*botir ekaniga* *o'tmaydigan* *kesmaydigan* *o'q qilich*	

Gapda hollar ma'noviy turlariga ko'ra bir nechta bo'lsa ham, u bitta H belgisi bilan gap qolipidan o'rin oladi. Demak, yuqoridagi gap ham



maksimal qolipning hosilasi.

Uyushiq bo'laklar gap strukturasida bir xil mavqeni egallaganliklari sababli ularni lisoniy sintaktik qolipda berishga ehtiyoj yo'q. Shuningdek, ajratilgan bo'laklar ham qaysi bo'lakni izohlayotgan bo'lsa, o'sha bo'lak bilan bir butunlik kasb etadi.

Lisoniy sintaktik qolipning cheksiz rang-baranglikda voqelanish imkoniyati ustiga nutqda har bir so'zning ma'no valentligi zaminida xilma-xil so'z kengaytiruvchisi bilan kengayib kelish imkoniyati qo'shiladi va bu ko'rinishlarni cheksiz miqdorda ko'paytiradi. Lisoniy sintaktik qoliplarda har bir tashkil etuvchi (kesim, ega, hol) ning bitta so'z, so'z birikmasi, so'z birikmasi zanjiri, ajralmas birikma bilan ifodalana olish qonuniyati va bunday turli qurilishli birikmalarning sintaktik nuqtayi nazardan teng huquqliligi mazkur imkoniyatni yanada kengaytiradi. Shuning uchun gapning o'ta sodda ko'rinish kasb etgan eng umumiy mohiyati – minimal qolipi – **[WP_m]** ham, undan quyidagi umumiylik – maksimal qurilish qolipi – **[E-N-WP_m]** ham nutqimizda mana shunday rang-baranglik va cheksiz imkoniyatga ega bo'ladi.

Kesimlik kategoriyasi

Gap bo'laklari (P_m) ma'nosi bilan uzviy bog'liq. Shu boisdan gap bo'laklarini ko'rib o'tish uchun bevosita gapning «jon»ini, markazini shakllantiruvchi vosita – kesimlik kategoriyasining tarkibi, ma'nolari va ifodalanish usullariga qisqacha sharh berishi zarur. Zero, gap kengaytiruvchilari tushunchasi, ularni belgilash, shu asosda gapning struktur zaruriy va ixtiyoriy tarkibiy qismlarini ajratish gapning «yuragi», gapning gap ekanligini ta'minlovchi kesimlik kategoriyasi va uning ko'rsatkichi, ifodalanish xususiyati bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, gapning gapligini, ya'ni bir nisbiy tugal fikrni boshqalarga yetkazish, ular tomonidan to'g'ri

anglanishining eng muhim omili – bu nutq bosqichida nutq sharoiti, lisoniy bosqichda esa kesimlik kategoriyasi.

Demak, kesimlik kategoriyasi fikrni shakllantiruvchi, uni tinglovchiga yetkazishning eng muhim lisoniy vositasi asosi.

Kesimlik kategoriyasi. Kesimlik kategoriyasi mazmun jihatidan tasdiq-inkor (**T**), so'zlovchining bayon etilgan fikrga bildirgan munosabati – modallik (**M**), zamon (**Z**) va shaxs-son (**Sh**) ma'nolaridan tarkib topadi (buni qisqacha shartli ravishda **T, M, Z, Sh** deb belgilaymiz va qulaylik uchun keyingi o'rinlarda ana shu shartli qisqartmalardan foydalanamiz). Bu ma'nolar yaxlit holda voqelangandagina kesimlik kategoriyasi ichki mazmun tomonini namoyon qila oladi. **T, M, Z, Sh** ma'nolarining har biri alohida-alohida ravishda yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, modal so'zlarda mayl (modallik) ma'nosi bo'ladi. Kishilik olmoshlari va egalik qo'shimchalarida shaxs-son ma'nosi yetakchilik qiladi. Tasdiq-inkor so'zlari (*ha, yo'q*)da, bo'lishli-bo'lishsizlik ([*-ma*], [*Ø*])da tasdiq-inkor ma'nosi yorqin ifodalangan bo'ladi. Payt ravishlari, zamon otlari, shuningdek, o'rin-payt kelishigi shakli, ravishdosh va sifatdoshda zamon ma'nosi ifodalanadi. Lekin bularning barchasi alohida-alohida voqelanish bo'lib, kesimlik vazifasida yuzaga chiqishidan boshqa holatda yaxlit sistem tabiatga ega bo'lmaydi. Zero, kesimlik kategoriyasi mazkur alohida olingan kategoriyalarning yaxlitligi (sistemasi)dan iborat. Har qanday tizim–o'z tarkibiy qismlarining oddiy yig'indisidan kattaroq butunlik. Chunki **T,M,Z,Sh** kategoriyalari kesimlik kategoriyasida birlashar ekan, bu butunlik tarkibiy qismlarida avval bo'lmagan, lekin sistema tashkil etganda tug'iladigan hodisalarni ham qamrab oladi. Masalan, *o'tgan yili o'qimagan odam* birikuvidagi *o'qimagan* so'zshaklining birikuvchisi – *o'tgan yili* so'z kengaytiruvchisi (lekin gap bo'lagi emas). *U o'tgan yili o'qimagan* gapidagi *o'tgan yili* so'zshakli – gap bo'lagi (hol). Demak, birinchi qurilmadagi kesimlik kategoriyasi a'zosi emas, shu boisdan uning birikuvchisi (*o'tgan yili*) gap bo'lagi emas. Ammo ikkinchi qurilmada [*-gan*] kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lib, uning birikuvchisi gap bo'lagi. Gap kesimlik tarkibidagina gap bo'laklarini o'ziga tobelaydi. Bu uning butunlik tarkibida kasb etgan yoki namoyon bo'lgan belgisi.

Kesimlik kategoriyasining nutqiy gaplarda voqelanishidagi ikki holatni farqlash lozim:

1) kesimlik kategoriyasining grammatik (morfologik) shakllar orqali voqelanishi;

2) kesimlik kategoriyasining semantik-funksional ifodalanishi.

Bundan kelib chiqqan holda gapni ikkiga ajratish mumkin:

1) grammatik shakllangan gap;

2) semantik-funksional shakllangan gap.

Grammatik shakllangan gap. Grammatik shakllangan gapda kesimlik kategoriyasi ma'nosi kesimlik qo'shimchalarining faqat o'zi bilan yoki bog'lama va kesimlik qo'shimchalari vositasida ifodalanishi mumkin.

O'zbek tilida kesimlik qo'shimchalarining quyidagi turlari mavjud:

1) kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismlari sinkretik, ya'ni ajralmas, bitta moddiy ko'rinishda berilgan qo'shimchalar bo'ladi: *o'qiy , ketaylik, keldi.* Bu qo'shimchalar ([*-y*], [*-aylik*], [*-di*])ning har birida tasdiq-inkor, shakl, zamon va shaxs-son ma'nolari birgalikda umumiy shaklga ega. Masalan, *o'qiy* kesimidagi [*-y*] qo'shimchasi bo'lishlilik ([*-may*] uning bo'lishsiz shakli), buyruq-istak mayli (bunda [*-sin*], [*-ng*], *(o'qisin, o'qing)* bilan paradigma – o'xshashlik qatori hosil qiladi), kelasi zamon, birinchi I shaxs (II shaxs *o'qi*), birlik (ko'plikda *o'qiylik*) ma'nolariga ega. Bunday holatni *borsa, yozsa* so'zshakllari tarkibidagi shart mayli qo'shimchasida ham ko'rish mumkin. Bunday sinkretik shaklli ma'nolar nol morfemalarda ham mavjud: *1.O'qi! 2.Shavkat – shoir. 3.Qish;*

2) kesimlik qo'shimchasi tarkibida tasdiq-inkor alohida qo'shimcha bilan, modallik, mayl, zamon, shaxs-son qorishiq ravishda bitta qo'shimcha bilan beriladi: *kel - **ma** - **di**, kel – **ma-y**;*

3) kesimlik qo'shimchasi tarkibida tasdiq-inkor, modallik, zamon ma'nolari qorishiq holatda bir qo'shimcha bilan, shaxs-son ma'nosi boshqa qo'shimcha bilan beriladi: *bor - **sa** - **ng**, o'qi - **sa** - **ngiz**, ko'r - **di-mi**;*

4) kesimlik qo'shimchasi tarkibida tasdiq-inkor alohida, shaxs-son alohida, modallik va zamon ma'nolari qorishiq qo'shimcha bilan ifodalanadi: *ko'r-**ma-di-ngiz**;*

5) kesimlik kategoriyasining har bir ma'nosi alohida-alohida qo'shimcha bilan ifodalanadi: *ko'r - **ma** - **sa** - **ydi** - **ngiz**;*

6) kesimlik kategoriya ma'nolarini ifodalashda bog'lama yoki to'liqsiz fe'l vositalarida yuzaga chiqadi. Masalan: *Borgan yigit men **bo'laman*** (A.Muxt.). *Hamon yodimdadir: gul chog'i **erdi**.* (Uyg'. I.Sult.).

Sanab o'tilgan barcha vositalar lisoniy mohiyat nuqtayi nazaridan bir kategoriyaning shakllari sifatida baholanadi va qolipda, aytilganidek, bitta ramz – ($\mathbf{P_m}$) shartli belgisi bilan beriladi. Quyidagi gaplarning kesimiga diqqat qiling: *1. Sensan har narsadan mo'tabar aziz* (**W**-*sen*, $\mathbf{P_m}$-*san*). 2. *Ha, ha, ammamning buzog'isan* (**W** – *buzog'*, $\mathbf{P_m}$ – *i*+*san*). 3. *U cho'l burguti edi* (**W** – *cho'l burguti*, $\mathbf{P_m}$ – *edi*). 4. *U shu yerda yashaydi* (**W** – *yasha*, $\mathbf{P_m}$ – *ydi*).

Ma'lum bo'ladiki, **[WP$_m$]** (**W**) va ($\mathbf{P_m}$) qismlaridan iborat bo'lib, atov ma'nosini (**W**), kesimlik ma'nosini ($\mathbf{P_m}$) ko'rsatkichi beradi. ($\mathbf{P_m}$) ko'rsatkichlari formal jihatdan ifodalanganda u *morfemali* deyiladi. Masalan, *Uyim shaharda* gapidagi *shaharda* so'zshakli alohida olinganda unda kesimlik ma'nosi, vazifasi mujassamlashgan emas. Bu vazifa unga kontekst (nutq sharoiti, gapdagi o'rni va h.) tomonidan kiritilmoqda. Bunda ($\mathbf{P_m}$) morfemali ekanligiga uni *shahardadir, shaharda edi, shaharda bo'ladi* tarzida o'zgartirish bilan ham amin bo'lish mumkin. Demak, *Uyimiz shaharda* gapida ($\mathbf{P_m}$) tarkibiy qismlari quyidagicha: **T** – tasdiq, **M** – aniq, **Z** – hozirgi zamon, **Sh** – III shaxs. Bunda ham kesimning tarkibiy qismlari (**W**) va ($\mathbf{P_m}$) ajralib turibdi. Shu xususiyatga ko'ra ular semantik-funksional shakllangan gaplardan ajralib turadi.

Semantik-funksional shakllangan gap. Semantik-funksional shakllangan gap to'rtga bo'linadi:

1) modal so'z-gap (*Kelasizmi?- Albatta*);
2) undov so'z- gap (*Beh-beh! Oh-oh*);
3) tasdiq/inkor so'z- gap (*Ha, yo'q*);
4) taklif-ishora so'z-gap (*Ma*).

Bu so'z-gapning barchasida kesimlik kategoriyasi ma'nosi (**TMZSh**) so'zning lug'aviy ma'nosida mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun bunday so'z-gap:

a) hech qachon kesimlik qo'shimchalarini qabul qila olmaydi;

b) nutqda alohida gap bo'lib keladi;

d) boshqa gap tarkibiga kirganda, uning biror bo'lagi bilan semantik aloqaga kirishmaydi va o'z mustaqilligini saqlab qolaveradi.

Semantik-funksional shakllangan so'z-gapda kesimlik ma'nosi atov birligi (**W**)ning lug'aviy ma'nosi tarkibida mujassamlashgan, bunday gaplar kesimi [$\mathbf{W_m}$] ramzi bilan beriladi.

Semantik-funksional shakllangan gaplarda kesimlik ma'nosi so'z-gapning lug'aviy ma'nosi bilan bir butunlikni tashkil etganligi sababli kesimlik kategoriyasi uchun xos bo'lgan tasdiq-inkor, modallik, mayl, zamon, shaxs-son (TMZSh) ma'nolarining rang-barangligi yo'q. Bunda ham kesimlik kategoriyasining barcha ma'nolari uchburchak burchaklarining yig'indisiga o'xshaydi. Aytilganidek, uchburchak burchaklarining yig'indisi 180^0ga teng bo'lib, bir burchak kattaroq bo'lsa, buning evaziga boshqa burchaklar kichrayadi. Semantik-funksional shakllangan gaplarda ham kesimlikning to'rtta ma'nosidan biri yuzaga chiqqanda boshqalari 0 (nol) ga teng bo'ladi. Bu tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarining har biri uchun alohida-alohida so'zlar borligi bilan belgilanadi. Masalan, «qat'iy bo'lishlilik» ma'nosi (ya'ni mayl ma'nosining ko'rinishi) *albatta* so'zi bilan ifodalansa, kesimlik shaklidagi [*-ma*] qo'shimchasi ifodalaydigan shunday bo'lishsiz ma'no *mutlaqo* so'z-gapi bilan beriladi. *Ha* so'zida tasdiq, *yo'q* so'zida inkor ma'nosi mavjud.

Kesimlik kategoriyasi ma'nolari kesimdagi atov birligi lug'aviy ma'nosiga singganligi tufayli so'z-gaplarda bu ma'nolarning har birini alohida-alohida va rang-barang ko'rinishlarda ifodalash imkoniyatlari cheklangan. Shu boisdan o'zbek tilida kesimlik qo'shimchalarini qabul qiladigan, kesimlik kategoriyasining barcha ma'nolarini ifodalay oladigan, lug'aviy ma'nosi kesimlik qo'shimchalariga befarq bo'lgan, ya'ni ularni erkin biriktira oladigan mustaqil so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid va olmosh)lardan lug'aviy ma'nosida kesimlik kategoriyasi qo'shimchalarini biriktira olmaydigan, lekin ularning ma'nolaridan birini o'z lug'aviy ma'nosi bilan ko'chaytirgan holda ifodalab, boshqalarini nutqqa o'ta kuchsiz holda voqelantiruvchi so'z-gaplar guruhi alohida ajralib turadi.

Mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari. O'zbek tilida kesimlik qo'shimchalari o'z voqelanishi uchun boshqa bir gapni talab qilishi ham, talab qilmasligi ham mumkin. Quyidagi gaplarning kesimiga diqqat qiling: 1. *Men kecha maktabga bordim.* 2. *O'qituvchi kelsa, dars boshlanadi.* 3. *Yomg'ir yog'masa edi, ekin-tikin ishlarini saranjomlab olgan bo'lur edik.*

Birinchi gapning kesimi (*bordim*) o'z ma'nosini boshqa gaplarga ehtiyoj sezmasdan voqelantirmoqda. Ikkinchi gapdagi *kelsa*, uchinchi gapdagi *yog'masa edi, saranjomlab olgan bo'lur edik* kesimlarining ushbu gaplarda voqelangan ma'nolari uchun boshqa gap talab qilinadi. Boshqacha aytganda, *kelsa* va *yog'masa edi*

kesimlaridan anglashilgan shart ma'nosi *boshlanadi, saranjomlab olgan bo'lur edik* kesimlari yordamida, *saranjomlab olgan edik* kesimning ma'nosi esa undan oldindagi *yog'masa edi* kesimi yordamida yuzaga chiqadi. Agar ikkinchi va uchinchi gapning ikkinchi qismi olib tashlansa, oldingi gapdagi kesimdan shart emas, balki istak ma'nosi yuzaga chiqadi: *O'qituvchi kelsa. Yomg'ir yog'masa edi. Saranjomlab olgan bo'lur edik* kesimi esa oldingi gapsiz hech qachon, boshqacha bo'lsa ham, ma'nosini voqelantira olmaydi. Ma'nosini yordamchisiz voqelantiradigan kesimlik shakli *mustaqil kesimlik shakli* (MKSh) deyiladi.

Boshqa gaplarsiz, ya'ni qurshovsiz o'z ma'nosini voqelantira olmaydigan, voqelantirgan taqdirda esa butunlay boshqa ma'no kelib chiqadigan kesimlik shakli nomustaqil kesimlik shakli **(NKSh)** deyiladi.

Kesim

Kesim – tasdiq/inkor, zamon, modallik, shaxs/son (ya'ni kesimlik kategoriyasi) ma'no va shakllariga ega bo'lgan so'z, gap markazini tashkil qiluvchi bo'lak.

Nutqimizda kesimsiz gap bo'lishi mumkin emas. Gapda kesim bo'lmasa, u o'zbek tili (nutqi) uchun to'liqsiz gap. Kesim gapning shunday konstruktiv bo'lagiki, u o'zini shakllantiruvchi grammatik kategoriya – kesimlik kategoriyasi voqelanishiga ega. Shu sababdan hamma vaqt gapda kesim tarkibi murakkab.

O'zbek tilidagi ayrim gaplarda eganing qo'llanilishi shart bo'ladi: 1. *Otam – o'qituvchi. 2. Men – yahudiy.* (G'.G'ul.). Bunda $(_{m})$ tushirilgan bo'lib, uning vazifasi ega va kesim birligidan iborat bo'ladi. Bu turdagi gaplarning kichik kolipi **[E-WP]** ko'rinishida. Qolipning bu turi o'zbek tilining tipologik sintaktik belgisi bo'la olmaydi. Chunki o'zbek tilidagi gaplarning aksariyati $[WP_m]$ minimal qolipi va uning kengayishi asosida.

(P_m) ma'nosi kesimda mujassamlashgan tasdiq/inkor, modallik/mayl, shaxs/son ma'nolarining yaxlitligidan iborat. Shu bois (P_m)ning me'yoriy ma'nosi ushbu to'rtta grammatik ma'noning majmui sifatida ajratiladi. Istalgan gap tarkibida bu majmua butunlik sifatida bo'lishi shart, lekin muayyan nutqiy voqelanishlarda majmua tarkibi qismlarining hissasi hamma vaqt bir xil bo'lavermaydi. Masalan, modallik ma'nolari bo'rttirilganda, zamon ma'nosi zaiflashadi va aksincha, zamon ma'nosi bo'rttirilganda modallik ma'nosi susayadi. Shunga o'xshash boshqa

grammatik ma'nolarning ifodalanish darajasi ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu ma'nolar ifodalanish darajasi qanchalik kuchli bo'lmasin, u (P_m)da mutlaq yoki yagona bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, o'ta zaiflashib kelishi yoki tamoman yo'qolgan bo'lishi ham mumkin emas. Chunki kesimlik kategoriyasi tarkibidagi har bir ma'no tizim hosil qiluvchi ma'no va ulardan birortasi tamoman yo'qolsa, kesimlikning o'zi ham yo'qoladi yoki butunlay boshqa mohiyat kasb etadi.

Shakliy ifodalanishga ko'ra (P_m) o'zbek tilida o'ta rang-barang. Uning nol morfema (*Otam — o'qituvchi)* dan boshlab morfemalar tizmasi bilan (*aytmasaydingiz*), turli xil bog'lamalar bilan ifodalanishi mumkinligi aytildi.

Kesimning lug'aviy asosi ham nutqda tub, sodda, yasama, qo'shma, qisqartma, erkin so'z birikmasi, turg'un so'z birikmasi, parafraza, frazema, kengaygan birikma, transformatsiyalashgan gaplar kabi struktura jihatidan rang-barang bo'lgan nominativ birlik bilan ifodalanishi mumkin.

Kesimning W ga ko'ra turlari. Kesimlikdagi atov birligi vazifasida barcha mustaqil so'z turkumi kela oladi. Shunga ko'ra, kesimlarni umumlashtirib, *ism* (ot, sifat, son, ravish, taqlid olmosh) *li* va *fe'l* (fe'l, olmosh) *li* kesimlarga ajratish mumkin.

Ism bilan ifodalangan kesimlar.

Ot: *Qarg'a nima deyotganini bilmaymiz, chunki u qarg'a, biz — odam. («*Husnobod*»).*

Sifat: *E taqsir, qissamiz* ***uzun.*** (Oyb.).

Son: *Ikki karra ikki —* ***to'rt.***

Ravish: *O'zlashtirishing — yodaki.*

Taqlid: *Hamma tomon* ***g'ovur-g'uvur,*** *tinchlik yo'q.*

Olmosh: *Sen —* ***mensanu,*** *men —* ***senman,*** *qissamni bayon etsam.*

Fe'l bilan ifodalangan kesim:

1. Maqsadim — ***o'qimoq.*** *2.* ***Qarasam, qaramaysan.*** *3. Ishning boshi* ***boshlanguncha.*** *4. Yashnaganim —* ***yashnagan.*** *5. Yigit kishining uyalgani —* ***o'lgani.*** *6.* ***Ko'rdi-yu, kapalagi uchib ketdi.***

Kesim tuzilishiga ko'ra sodda, murakkab va tarkibli bo'ladi.

Sodda kesim bir mustaqil so'z bilan ifodalanadi: 1. *Sen bahorni* ***sog'inmadingmi?*** (A.Orip.). 2. *Majlis shunga* ***qaror qildi.*** 3. *Mana bu —* ***yeryong'oq.*** 4. *Sherzod —* ***talaba.***

Murakkab kesim so'z birikmasi holidagi kengaygan so'z bilan ifodalanadi: *1. Bu kun biz uchun* ***og'ir kun.*** *2. Sherzod* ***yulduzni benarvon uradigan yigit.***

Tarkibli kesim yetakchi va yordamchi a'zodan tuzilib, yetakchi a'zo lug'aviy ma'noga ega bo'ladi, yordamchi a'zo esa grammatik ma'no tashiydi. Misollar: 1. *Anjir kulchaday yirik va holvaytarday* ***yumshoq edi.*** (Oyb.): *yumshoq* – yetakchi komponent, *edi* – yordamchi komponent. *2. Hammasi* ***sen uchun, dilovar uchun****: sen*+ yetakchi komponent, *uchun* – yordamchi komponent, *dilovar* – yetakchi komponent, u*chun* – yordamchi komponent. *3. Bunday odamlarni* ***nodon hisoblashadi.*** («Kalila va Dimna»): *nodon* – yetakchi komponent, *hisoblashadi* – yordamchi komponent. *4. Hamma ham xalqiga* ***xizmat qilgisi keladi.*** (N. Saf.): – *xizmat qilgisi*+ yetakchi komponent, *keladi* – yordamchi komponent.

Ega

Ega gap kesimini shakllantiruvchi ($\mathbf{P_m}$) – kesimlik kategoriyasida mujassamlashgan shaxs-son (Sh) ma'nosini muayyanlashtiruvchi gap kengaytiruvchisi: *1* ***Elchibek*** *asta o'rnidan turdi.* (A.Mux). *2.* ***Biri*** *– sensan,* ***biri*** *– men. (*Oyb.). *3. Shunday* ***o'lka*** *doim bor bo'lsin.* (H.Olim.). *4.* ***(Sen)*** *Aytar so'zni ayt,* ***(sen)*** *aytmas so'zdan qayt. (*Maqol*).* Birinchi gapda *Elchibek* so'zi kesimdagi uchinchi shaxs birlik (nol) kesimlik qo'shimchasining, ikkinchi gapdagi *biri* so'zlari *sensan* kesimining ikkinchi shaxs birlik ([*-san*]) va *men* so'zidagi birinchi shaxs birlik ([*-man*]), uchinchi gapdagi *o'lka* so'zi *bor bo'lsin* kesimidagi uchinchi shaxs ([*-sin*]), to'rtinchi gapdagi ifodalanmagan (*sen, sen*) *ayt, qayt* so'zlari bilan ifodalangan kesimdagi ikkinchi shaxs birlik (*nol*) kesimlik ma'nosining muayyanlashtiruvchisi, kengaytiruvchisi. Ega gapdagi fikr o'zi haqida borayotgan, belgisi kesim tomonidan ko'rsatilayotgan bo'lak. Kesimdan axborot (kommunikatsiya) anglashilsa, ega ana shu kommunikatsiya predmetidir.

Ega bevosita kesimlik shakli – ($\mathbf{P_m}$)ga bog'lanayotganligi tufayli, hol va kesim bilan birgalikda, gapning konstruktiv bo'laklari qatoriga kiradi.

Egali va egasiz gaplar. Gapning lisoniy qurilishida eganing ifodalangan yoki ifodalanmaganligiga ko'ra ikki ko'rinishi bo'ladi:

1) egali gaplar;

2) egasiz gaplar.

Egali va egasiz gap gapning lisoniy sintaktik qolipi bilan emas, balki gap kesimining lug'aviy (**W**) va kesimlik qo'shimchalari ($\mathbf{P_m}$) qismlarining ba'zi bir ifodalanish xususiyatlari bilan bog'liq.

1. Egasiz gaplar. Bunday gaplarda kesim tarkibidagi ($\mathbf{P_m}$) ning shaxs-son ma'nosi o'ta kuchsizlanib, gap tarkibidagi eganing mutlaqo bo'lmasligini keltirib chiqaradi. Egasiz gaplarning mavjudligiga olib keluvchi omillar kesimdagi (W) va ($\mathbf{P_m}$)ga bog'liq ikki guruhga bo'linadi.

I. (W) ga bog'liq ravishda egasiz gapning vujudga kelishi. 1.O'timsiz fe'llar (masalan, *bormoq, yurmoq, yugurmoq, qolmoq, erishmoq*) vositasiz to'ldiruvchiga ega bo'lganligi tufayli majhul nisbat shaklini olganda, gap egasiz qo'llanadi: *1. Bugun stadionga* ***boriladi****. 2. O'n minut qadar yo'l* ***yurildi****.* (Oyb.) *3. Institutning o'ttiz yili davomida ulkan yutuqlarga* ***erishildi****. 4. Katta trassaga chiqish uchun o'ng tomonga* ***yuriladi****. 5. Jizzaxga borish uchun Samarqanddan* ***o'tiladi****.* Bu gaplardan bittasining lisoniy qolipini kuzatamiz (43-jadval):

43-jadval

E	H	W	P_m
—	*o'ttiz yili davomida*	*erishil*	*di*
	institutning	*yutuqlarga*	
		ulkan	

Ma'lum bo'ladiki, gapning maksimal lisoniy qolipidagi eganing o'rni bo'sh. Buning boisi, aytilganidek, o'timsiz fe'l (*erishmoq*) majhul nisbatga o'tganda ega o'z-o'zidan tushib qoladi. Agar fe'l o'timli bo'lsa edi, (masalan, *o'qimoq*), uning vositasiz to'ldiruvchisi ega mavqeini egallar edi: *Nilufar kitobni o'qidi — Kitob Nilufar tomonidan o'qildi* tarzida. *to'g'ri kelmoq* qo'shma fe'li «O'zbek tili»ning izohli lug'atidagi 8-ma'nosida jo'nalish kelishigidagi harakat nomi bilan zich aloqaga kirishib, egasiz gaplar hosil bo'lishiga olib keladi: *1. Nargizaga og'ir bo'ldi, ko'p qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keladi. 2. Buning uchun Toshkentga o'z vakillarimizni yuborib, korxonadan zarur yordamni so'rashimizga to'g'ri keladi.* Bu gaplarning lisoniy strukturasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi (44-jadval):

Bu gaplar kesimidagi *mumkin, shart, kerak* kesimlik so'zi ($\mathbf{P_m}$) dagi mayl ma'nosi ifodalovchilari bo'lib, ulardan keyin zamon va tasdiq, inkor ma'nolarini ifodalovchi vositalar keladi.

44-jadval

E	H	W	P_m
	Bugun yuborib	*so'rashimizga to'g'ri kel*	*-adi*
	Toshkentga *o'z* → *vakillarimizni*	*yordamni* *zarur* *korxonadan*	

Yuqoridagi gaplardan birining lisoniy struktur sxemasini keltiramiz (45-jadval):

45-jadval

E	H	W	Pm
	har doim	*rivojlantirmoq, davom ettirmoq*	*kerak edi*
		ishini *Ustozlar*	

Kesimi [*fe'lning III shaxs shart mayli+bo'ladi*] qurilmasi asosida ifodalangan gaplar ham o'zbek tilida egasiz gaplarni hosil qiladi: 1. *Hosilni o'n-o'n besh kunda yig'ib olsa bo'ladi. 3. Bu ig'voning sabablarini tahlil qilsa bo'ladi.* Bunda kesimlarning *yig'ib ol, tahlil qil* qismlari **(W)** (lug'aviy birlik) va [*-sa bo'ladi*] qismlari esa **(P_m)** voqelanishi.

Kesim ravishdoshning [*-(i)b*] shakli va *bo'lmoq* fe'lining turli ko'rinishlari bilan ifodalanganda ham egasiz gap vujudga keladi: 1. *Bu xatning mazmunini birovga aytib bo'lmaydi.*(A.Qah.). *2. Falakka qo'l uzatib, shamsu . anvorni olib bo'lmas.* (Mashr.). Bu kesimlarda *aytib bo'l, olib bo'l* qismlari (W) va [*-mayd*], [*-mas*] qismlari [P_m] voqelanishi. Sxemasi (46-jadval):

46-jadval

E	H	W	Pm
	uzatib	*olib bo'l*	*mas*
	↑ *qo'l*	↑ *shamsuanvorni*	
	↑ *Falakka*		

III. O'zbek tilidagi atov gap – egasiz gapning o'ziga xos turi: *1. Keng sahro. Quruq cho'l. Suv manbalaridan darak yo'q. 2. Yoqimli ohang. Zavqli qo'shiqlar. Anorxon yo'llaridan to'xtab tinglaydi.* (I.Rah.). Bu gaplar bir qarashda kesimsiz, faqat egadan iborat gaplardek tasavvur uyg'otadi. Biroq gaplarni zamonlar bo'yicha paradigmaga solsak, quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi:

1. Keng sahro – Keng sahro edi.

2. Tun – Tun edi.

Demak, atov gap – hozirgi zamon ko'rinishidagi kesimdan iborat egasiz gap. Qiyoslang:

1. *Navbahor, ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar.* (Muq.).
2. *Hamon yodimdadir, gul chog'i erdi.*(Uyg'., I.Sult.).
3. *Ko'rishgan maskanim, gul bog'i erdi.* (Uyg'., I.Sult.).

IV. Semantik-funksional shakllangan gap ham egasiz gapning alohida ko'rinishi: *1. – Bugun bormoqchimisan? – **Ha.** 2. – U ham bormoqchimi? –**Yo'q.** 3. – Kitobni olasanmi? – **Bo'lmasam-chi!** 4. Nasriddin xaltani uloqtirib yubordi: **Ma!** Sen to'y!* («Afandi latifalari»dan). *5. **Salom,** - dedi ko'rishi bilan hamma birdan. Qo'llar o'tdi biqinlarning orasidan.* (G'.G'ul.).

Egali gap. Egasiz gap tilimizda chegaralangan bo'lib, ular egali gapga nisbatan kam. Egali gap esa tilimizning me'yoriy xususiyatidan biri. Chunki gap markazini tashkil etuvchi kesimning tarkibidagi ($\mathbf{P_m}$) (kesimlik kategoriyasi) ning qismlaridan biri shaxs-son ma'nosi bo'lib, u hamisha o'zining to'ldirilishini, muayyanlashtirilishini talab qiladi. Bu esa gaplarning egali bo'lishini taqozo qiladi.

Aytilganidek, o'zbek tilidagi gaplarning lisoniy strukturasi uch a'zo (ega, hol, kesim) dan iborat, egali gaplarda ega pozitsiyasi bo'sh bo'lmaydi, to'ldirilgan bo'ladi. U nutqda esa yuzaga chiqqan

hol, yuzaga chiqqan kesim bo'lishi mumkin. Quyidagi ikki gapni qiyoslang:

1. Men kitobni o'qidim.

2. Kitobni o'qidim.

Har ikkala gap ham **[E-N-P_m]** qolipi hosilasi bo'lib, ularning kesimidagi (P_m)ga xos shaxs-son qo'shimchalari ega, uning tabiati (qaysi shaxs, son) haqida to'liq axborot berib turibdi. Har ikkala gap uchun ham ega – I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi. Biroq, ulardan birinchisida bu lisoniy to'liqlik (ega pozitsiyasining bo'sh emasligi) nutqda namoyon bo'lgan, ikkinchisida esa nutqiy ehtiyoj bo'lmaganligi tufayli yuzaga chiqmagan. Ko'rinadiki, har ikkala gap ham lisoniy egali, ega pozitsiyasi to'ldirilgan gap qismining hosilasi.

Egali gaplarning o'zi quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

1) egasi ifodalangan (nutqda namoyon bo'lgan) gap;

2) egasi ifodalanmagan (nutqda namoyon bo'lmagan) gap.

Egasi ifodalangan gap. Kesimdagi (W), (P_m) xususiyati va ularning o'zaro munosabati tufayli nutqda egani tushirib qoldirish mumkin bo'lmaydi. Bunda eganing nutqiy voqelanishini zarur qilib qo'yadigan:

I. (W) ga bog'liq omil.

II. (P_m) ga bog'liq omil mavjud.

I. Kesimdagi [W]ga bog'liq holda ega ifodalanishining zarurligi.

1. Kesimning (W) qismi vazifasida frazema (ibora) kelganda, egani tushirib qoldirishning iloji yo'q: *1. Bu voqeadan Jamshidning kapalagi uchib ketdi.* (Gaz.). *2. Markazga kelib, bo'lib o'tgan voqealarning butun tafsilotini eshitgan Qalandarovning fig'oni falakka chiqdi.* Bunda ega ifodalanishining zarurligi, ko'rinib turibdiki, gapning qolipiga emas, balki iboralarda ega bilan kesim aloqasining o'ta zichligi, iboralarning barqaror hodisa ekanligi bilan bog'liq.

2. Ma'lumki, ayrim hollarda o'timli fe'lning semantikasi ularning vositasiz to'ldiruvchi bilan kompletiv (o'ta zich) aloqada bo'lishini taqozo qiladi (masalan, *kuzatmoq, ko'rmoq, aytmoq*). Bu so'zlarning obyekt valentligi (tushum kelishigidagi kengaytiruvchisi) zaruriy. Shu boisdan fe'l majhul nisbatga o'tgach, ularning vositasiz to'ldiruvchisi egaga aylanadi, shuningdek, mazkur kompletiv aloqa ham saqlanib qoladi, avval to'ldiruvchi, endi esa eganing ifodalanishi zarur bo'lib qoladi: 1. *Oqibat, hozirgacha ham ayrim fuqoralar, ayniqsa, yoshlar orasida ikkilanishlar, hatto muxolifat*

tomoniga og'ib ketish kabi achinarli hollar kuzatilmoqda. (Gaz.). 2. *Natijada, ko'plab fuqarolar uchun buzg'unchi muxolifatning asl basharasi, uning maqsad va vazifalari, mohiyati, kirdikorlari to'laqonli bayon etib berilmadi.* (Gaz.). 3. *Yig'inda fermer xo'jaliklari taraqqiyoti uchun mahalliy fermerlar tomonidan qo'yilayotgan sun'iy g'ovlarning sabablari ham aytildi.* (Gaz.).

3. Kesimning (**W**) qismi taqlid so'zlardan yasalgan fe'l bilan ifodalanishi ham eganing voqelanishini taqozo etadi: *1. Eshik taq-taq qildi. 2. Yuragim shuvillab ketdi. 3. Qarg'a qag'illaydi.*

4. Tabiat hodisalarini ifodalovchi ayrim fe'llar ham eganing mazmuni bilan o'ta zichlashib ketganligi bois nutqda eganing tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi: *Tong otdi. Kun botdi. Chaqmoq chaqdi. Qorong'i tushdi.*

Yig'iq va yoyiq gap. O'zbek tilidagi yig'iq gaplar formal yondashuvda asosan rus tili qoliplari asosida ajratilgan. Substansial yondashuvda esa bu masalada ham gapning eng kichik qurilish qolipiga tayaniladi.

Ma'lumki, o'zbek tilida ot, sifat, son yoki boshqa so'z turkumi bilan ifodalangan kesim predikativlikning shaxs-son ko'rsatkichini qabul qila oladi yoki predikativ so'zlar orqali ifodalaydi, shuning uchun ular egasiz gapda ham kesim vazifasini bajara oladi. Ammo rus tilida esa otlar predikativlik ko'rsatkichiga ega bo'la olmaydi, shuning uchun predikativ maqomdagi otlar ega bilan kelgandagina kesim vazifasini bajara oladi. Bu holatni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: 1. *Sog'-salomatmisiz? — Здоровыли-вы?* 2. *O'qituvchiman. — Я учительница.*

O'zbek va rus tillarida kesim o'ziga xos grammatik xususiyatga ham ega. O'zbek tilida kesim sodda va tarkibli turga ega, turli kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllanadi. Kesim vazifasida kelgan so'zlarda, odatda, tasdiq-inkor, shaxs-son, modallik va zamon ko'rsatkichi bo'lishi lozim. O'zbek tilida ot-kesimdan iborat gap ham mavjud. Bu ot-kesimlarda birlik va ko'plik, shaxs qo'shimchalari shaxs ma'nolarini ifodalashi bilan birga, hozirgi zamon ma'nosini ham ko'rsatadi. Masalan, *Tadbirkorman. Uydaman.*

O'zbek tili sintaktik qurilishida ot-kesimlar ham, fe'l-kesimlardagi kabi egali yoki egasiz qo'llanishi mumkin. Rus tilida esa, tilshunoslar e'tiroficha, otlarga qo'shiladigan predikativ shaxs-son qo'shimchalari yo'qligi tufayli bu tilda otning o'zi mustaqil holda ma'lum bir morfologik ko'rsatkich yordami bilan kesimga

aylana olmaydi. U faqat ega bilan kelib, kesim vazifasini bajarishi mumkin». Masalan, *Tadbirkorman.* — *Я бизнесмен.*

Demak, o'zbek tilidagi gaplarning lisoniy sathdagi eng kichik qurilish qolipi asosan [$\mathbf{WP_m}$] shaklida bo'lsa, Hind-Yevropa tillarida gapning minimal qolipi asosan **[E-WP]** ko'rinishida. Bu esa bu tillar orasidagi asosiy tipologik va milliy farqlardan hisoblanadi.

O'zbek tilida sodda yig'iq gap uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1) egasi ifodalanmagan sodda yig'iq gap. Bu gapning qolipi [$\mathbf{WP_m}$] ko'rinishida berildi.

2) egasi ifodalanishi lozim bo'lgan sodda yig'iq gap. Bu gap **[E-WP]** yoki **[E-WP]** qolipi hosilasi: *Men - shoir. Ukam — talaba.*

3) So'z-gapdan iborat yig'iq gap (**[WP]**): *Xo'p. Rahmat. Balli* kabi.

[$\mathbf{WP_m}$] qolipli gaplar boshqa har qanday, **[E-WP]** qolipli gaplar ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengaysa, yoyiq gap hisoblanadi. So'z-gap tipidagi yig'iq gap kengaymaydi.

Hol

Holning gap qurilishidagi o'rni. Hol ega kabi gap kesimidagi kesimlik shakllari — ($\mathbf{P_m}$)ning ma'noviy xususiyatini muayyanlashtiruvchi, oydinlashtiruvchi bo'lak, ya'ni gap kengaytiruvchisi sanaladi. Quyidagi gaplarni qiyoslaylik:

1. *Jamshid ishladi.*
2. *Jamshid kecha ishladi.*
3. *Jamshid ertaga ishlaydi.*

Keltirilgan gaplardagi *ishladi* va *ishlaydi* so'zshakllari gap kesimi vazifasida kelgan bo'lib, boshqa bo'laklar ana shu markaziy bo'lakning muayyanlashtiruvchilari:





(*Jamshid*) so'zi har uchala gapda ham kesimdagi ($\mathbf{P_m}$)ning shaxs-son, (*kecha*), (*ertaga*) so'zlari esa payt ma'nosini muayyanlashtirgan. Ega va gap markazidagi shaxs-son ma'nolari kabi, hol va kesimlik kategoriyasi ($\mathbf{P_m}$) voqelanishidagi zamon ma'nolari ham bir-biriga muvofiqlashgan. Aniqrog'i, kesimlikda o'tgan zamon ma'nosi voqelanganda, hol hozirgi yoki kelasi zamon ma'nosida bo'lmaydi. Demak, ma'lum bo'ladiki, gap qurilishida gap markazidagi kesimlik kategoriyasi ma'nosi bilan uzviy bog'langan gap kengaytiruvchisi payt holi. Payt holi kesimga bog'lanar ekan, undagi lug'aviy qism ma'nosi bilan emas, balki kesimlik kategoriyasi tarkibidagi zamon ma'nosi bilan bog'liq ekanligi ot-kesimli gaplarda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, ot leksema o'z semantik valentligini to'ldiruvchi har xil aniqlovchilar bilan erkin birikuv hosil qila oladi: *a'lochi talaba, shaharlik talaba, o'nta talaba* va h. Bunda birikuv hosil qilish uchun *talaba* so'zining gap hosil qilishi, gap tarkibidan o'rin egallashi shart emas. Qiyoslang: *a'lochi talaba, Jamshid a'lochi talaba.* Har ikkala holatda ham hosil bo'lgan birikuv me'yoriy. Chunki aniqlovchi so'z kengaytiruvchisi. Biroq *bugun talaba, ertaga talaba, kecha talaba* kabi so'z birikmalari g'ayrime'yoriy. Lekin ular gap tarkibiga kiritilganda va *talaba* so'zi kesim mavqeini egallaganda, bu g'ayrioddiylik yo'qoladi: *1.Men bugun talabaman. 2. Sen kecha talaba eding.* Demak, *bugun, kecha* so'zlari gap kengaytiruvchici bo'lganligi va gap markazidagi ($\mathbf{P_m}$)ga tortilganligi, bog'langanligi sababli so'z birikmasidagi nome'yoriylik gap tarkibida barham topadi.

O'rin holi ham so'z kengaytiruvchisi emas, balki gap kengaytiruvchisi ekanligi bunday vazifada keluvchi so'zlarni gapda va gapdan tashqarida SB hosil qilish uchun ot-leksemaga tobelab ko'rish asosida amin bo'lish mumkin. Qiyoslang: *1. **Qishloqda** muallim, **zavodda** ishchi. 2. Halim **shaharda** o'qituvchi, G'afur **zavodda** ishchi.*

Ko'rinadiki, birinchi guruh birikuvlar g'ayrime'yoriy, ikkinchi guruh birikuvlar esa o'zbek nutqiga xos me'yoriy qurilma ekanligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Demak, o'rin hollari payt hollari kabi gap kengaytiruvchilaridir.

Endi holning boshqa turlariga diqqat qilamiz:

1. *Ilgari ikkalamiz birga talaba edik.*
2. *Bu payt sen kabi o'qituvchiman.*
3. *Shu boisdan dadam ishchi edi.*

Birinchi gapda *birga* so'zi ravish, ikkinchi gapda *sen kabi* o'xshatish, uchinchi gapdagi *shu boisdan* so'zshakli sabab holi. Ular gap kengaytiruvchilarimi yoki so'z kengaytiruvchilari ekanligini aniqlash uchun birikuvlarni gap tarkibidan chiqarib, zikr etilgan so'zshakllar *talaba, o'qituvchi, ishchi* so'zshakllarining ma'noviy valentligini to'ldirayotgan-to'ldirmayotganligini tekshiramiz:

1) birga talaba;
2) sen kabi o'qituvchi;
3) shu boisdan ishchi.

Ko'rinadiki, birikuvlar nome'yoriy va tobe so'zshakllar hokimlarining lug'aviy-ma'noviy birikuvchisi emas, balki ularning kesimlik vazifasi, mavqei bilan har doim mantiqan bog'langan.

Demak, holning mazkur turlari ham gap kengaytiruvchilaridir.

Holning gap kengaytiruvchisi ekanligini asoslash uchun ot-kesimli gaplardan foydalandik. Bunda holning gap kengaytiruvchigi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hol gap markazini shakllantiruvchi ($\mathbf{P_m}$) bilan bog'lanar ekan, u, umuman, gap konstruktiv tizimida qanday mavqega ega bo'ladi?

Hol gapning bevosita konstruktiv uzvi emas. Chunki holsiz ham gap tashkil topaveradi. Demak, hol kesimdan quyi mavqeni egallaydi. Ko'pincha holning gap tarkibiga kiritilishi ($\mathbf{P_m}$) ma'nolari bilan zich bog'lanmaydi. Shu boisdan hol egadan ham quyi mavqeni egallaydi. Chunki nutqiy gaplarda kesim orqali egani tiklash holni tiklashdan ancha qulay. Ifodalanmagan holni tiklash qiyin. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, ba'zan kesimning (**W**)si maqomida o'rin, payt, sabab, maqsad va boshqa ma'noli aktantlar bilan kuchli aloqada bo'ladigan leksema yuzaga chiqqanda, gapning yuza qolipida hol egadan ko'ra zarurroq faoliyatga ega bo'ladi. Masalan, yurish fe'llari (*bormoq, kelmoq, etmoq, ketmoq*) kesim vazifasida kelganda gapda o'rin hollarining ishtirok etishi zaruriyati kuchayadi: *Uyga bordi. Shahardan keldi. Maktabga ketdi. Manzilga etdi.* Bu albatta, kesimlik kategoriyasi birikuvchanligi bilan emas, balki kesim vazifasida kelayotgan fe'lning ma'noviy xususiyati bilan belgilanadi.

Demak, holning gap qurilishidagi zaruriy bo'lak darajasiga ko'tarilishi kesimdagi (**W**)ning muayyanlashish ehtiyoji bilan

belgilanadi. Hol gapning konstruktiv bo'laklari sifatidagi kesim va egadan keyin uchinchi o'rinni egallaydi.

Holning ma'noviy turlari haqida. Hol nutqda gapdan anglashilgan mazmunning, kesim ifodalagan ish-harakat, holat, voqea-hodisaning o'rni, payti, tarzi, miqdor-darajasi, sababi, maqsadi, natijasi, sharti (qatorni yana davom ettirish mumkin) kabi ma'noni ifodalaydi.

Boshqa gap bo'laklariga nisbatan holning ma'noviy turlari nisbatan ko'proq. Lekin, olaylik, aniqlovchining rang-tus aniqlovchilari, xususiyat aniqlovchilari, hajm-shakl aniqlovchilari kabi turlarini ajratish grammatik, sintaktik qurilish nuqtayi nazaridan mantiqsiz bo'lgani kabi, holning ma'noviy turi ham gap sintaktik qurilishi uchun daxlsiz. Shuningdek, ko'p hollarda o'rin-payt (*Botir urushda bilinadi*), sabab va maqsad (*O'qish uchun Toshkentga keldi*), ravish va miqdor holini (*Isroil qayta-qayta o'qidi*) farqlash qiyin. Chunki hol va so'zlararo munosabat nutq sharoiti, voqea-hodisaning tabiatiga va so'zlovchining maqsadiga mos ravishda turlicha voqelanishi mumkin.

Holning tuzilish turlari. Lisoniy sintaktik qolipning asosiy xususiyatidan biri shuki, uni to'ldiradigan nutqiy birlik bir a'zo huquqiga ega va har qanday katta-kichiklikda bo'lishi mumkin:

I. Holning bir so'z bilan ifodalanishi: *1. Tog'am **shaharga** meni ham olib bordi. 2. Shalola **shoshilib** jo'nadi. 3. Qiz bilan **salomlashib** suhbatlashdi.*

II. Holning so'z birikmasi bilan ifodalanishi: 1. *Tog'am **notanish shaharga** meni ham olib bordi. 2. Shalola **favqulodda shoshilib** jo'nadi. 3. Qiz bilan **do'stlarcha salomlashib** suhbatlashdi.*

Demak, bir so'zshakl bilan ifodalangan hol sodda, kengaygan (birikma holidagi) birlik bilan ifodalangan hol murakkab deyiladi.

Holning ifodalanishi. Hol barcha mustaqil so'z turkumi bilan ifodalanadi:

1) fe'l: *Shalola **shoshilib** gapirdi;*
2) ot: *__Uydan__ chiqarib ketdi;*
3) sifat: *U **yaxshi** o'qiydi;*
4) son: *__Bir__ keldi, __bir__ ketdi;*
5) olmosh: *__Bunda__ ari keltiradi bol;*
6) taqlid: *U **piq-piq** kuldi;*
7) ravish: *Ish __kech__ tugadi.*

Holning kesimga bog'lanish usuli — bitishuv va boshqaruv.

Bitishuv aloqasida hol vazifasida tobe uzvlik vazifasiga xoslangan so'z keladi. Ular sifat, ravish, son, olmosh va taqlid:

1. Vazifani ***xo'b*** *uddaladi* (sifat). *2.* ***Qo'qqisdan*** *kulib yubordi* (ravish). *3.* ***G'o'ng'ir-g'o'ng'ir*** *suhbatlashdi* (taqlid). *4.* ***Bir*** *gapirib,* ***o'n*** *kular* (son). *5. Kun* ***botguncha*** *kelmadi* (fe'l).

Ot, fe'l, olmosh hol vazifasida kesimga ***boshqaruv usuli***da bog'lanadi. Buning uchun ot kelishik shakli va ko'makchi, o'xshatish, fe'l esa ravishdosh va o'xshatish shakliga ega bo'ladi: *1. Shahardan qaytdi. 2. Shoshilib gapirdi. 3. Odamdek yashadi. 4. Uxlagandek yotardi.* Holning kesimga birikishida bog'lanish omillari munosabati quyidagicha bo'ladi:

1. **[ShMJ-MShJ]**: *1. Uydan keldi. 2. Go'dakday kuldi. 3. Shoshilib gapirdi.*

2. **[MJSh-MShJ]**: *1.Tez o'qirdi. 2.Qo'qqisdan kulib yubordi. 3.Chindan qiynaldi.*

Demak, hol va kesimning bog'lanishida birikuvchi unsurlarda bog'lanish omillari munosabati ikki xil kombinatsiyali bo'ladi: **[ShMJ-MShJ]** va **[MJSh-MShJ]**. Bu hol va kesim birikuvida LSQlardan biri **[$W^{morfologik\ shakl}$-WP_m]** va ikkinchisi **[W-WP_m]** ekanligini ko'rsatadi.

To'ldiruvchi

Aytilganidek, so'z kengaytiruvchisi gapning konstruktiv bo'laklari sirasiga kirmaydi, balki gapdagi so'zlarning lug'aviy ma'nosini muayyanlashtiruvchi vosita sanaladi. To'ldiruvchi ham nutqiy gap qurilishida so'z kengaytiruvchisi sifatida ishtirok etadi va fe'l bilan ifodalangan har qanday bo'lak yoki bo'lak qismining ma'noviy valentligini to'ldiradi. To'ldiruvchi faqat kesimgagina bog'lanmaydi. Quyidagi gaplarga diqqat qiling: *1.* ***Kitobni*** *olib kel. 2.* ***Kitobni*** *olib kelishni unutma. 3.* ***Kitobni*** *keltirish sening vazifang. 4.* ***Kitobni*** *tushunishning yaxshi tomonlari ko'p.*

Ko'rinadiki, to'ldiruvchi birinchi gapda kesimga (*olib kel*), ikkinchi gapda to'ldiruvchiga (*olib kelishni*), uchinchi gapda egaga (*keltirish*), to'rtinchi gapda aniqlovchiga (*tushunishning*) bog'langan. Kesimga bog'langanda ham undagi (P_m) ma'nolariga emas, balki Wga «tortiladi» – uning ma'nosini muayyanlashtirishga xizmat qiladi. To'ldiruvchi qaysi gap bo'lagiga aylanishidan qat'i nazar, shu bo'lak ifodalanayotgan fe'lning ma'nosini muayyanlashtiradi. To'ldiruvchi so'z kengaytiruvchisi bo'lganligi bois, u kengaytirayotgan ma'nosi muayyanlashayotgan so'z gap bo'lagi maqomiga ega bo'lmasligi ham mumkin. Yuqorida aytilganidek, kes'm, ega, hol gapning konstruktiv bo'laklari bo'lib, to'ldiruvchi va aniqlovchi

bo'lakning bo'laklari sifatida keladi. Bu, ayniqsa, kengaygan ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi gap bo'laklari modeliga ega bo'lganda, yaqqol ko'zga tashlanadi. E'tibor bering: 1. *Shalola* ***kitobni*** *keltirdi. 2. Kecha* ***kitobni*** *keltirgan Shalola bugun kelmadi.* Birinchi gapda *kitobni* to'ldiruvchisi kesimga bog'langan. Ikkinchi gapda esa aniqlovchiga (*keltirgan*) tobelangan. Birinchi gapda to'ldiruvchi kesim (*keltirdi*) ning emas, balki uning tarkibiy qismi bo'lgan *keltir* fe'li ma'nosini izohlagan va gap bo'lagining bo'lagiga daxldor. Ikkinchi gapda esa aniqlovchi (so'z kengaytiruvchisi) ning kengaytiruvchisi vazifasida kelgan. To'ldiruvchi o'zi bog'lanayotgan fe'lning obyekt valentligini to'ldiradi va shunga muvofiq ravishda, uning mazmunidan shaxs/predmetlik ma'nosi anglashilib turadi.

Harakatni bajarish vositasini ifodalovchi gap bo'lagini uning predmet yoki nopredmetlik ma'nosidan qat'i nazar, to'ldiruvchi yoki hol deb atashning o'zi ham muammoli. Chunki ular bir vaqtning o'zida *nimada* so'rog'iga ham, *qanday, qay holda, qay yo'sinda* so'roqlariga ham javob bo'lishi tabiiy hamda ularning mohiyatini to'laroq ochishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, misollardagi so'zlarning bunday so'roqlarni olishida o'rin-payt kelishigi ko'rsatkichining roli muhim. O'rin ma'nosini ifodalovchi [*-da*] kelishik shakli gap propozitsiyasining tayanch bo'lagi bo'lgan makonni ifodalashda alohida mavqega ega. Ma'lumki, makon va zamon ma'nosidagi hollar gap kesimini shakllantiruvchi ($\mathbf{P_m}$)ning o'rin va payt ko'rsatkichlariga mos keladi. Xususan, quyidagi ko'rinishli (47-jadval):

47-jadval

Men hozir Qarshida	yashayman
	o'qituvchiman
	ikkinchiman
	xursandman

gaplarda o'rin ma'noli *Qarshi* so'zi bilan *yasha* fe'li orasida, *Qarshi* so'zi bilan *o'qituvchi* so'zi orasida, shuningdek, sifatga xos *xursand*, songa xos *ikkinchi* so'zlarining bir-biriga bog'lanish xususiyati yo'q edi. Keyin keluvchi hokim uzvga kesimlik qo'shimchalarining qo'shilishi unga kengayish imkoniyatini berdi va natijada **[WP$_m$]** hosilasi bo'lgan gap shaxs kengaytiruvchisi qatorida o'rin va payt kengaytiruvchilariga ham ega bo'ldi. Demak, zikr etilgan gaplarda qatnashgan *havoda, dengizda* so'zshakllaridagi o'rin-payt shakli ($\mathbf{P_m}$) ta'siriga berilgan bo'lib, bu

ularning gap kengaytiruvchici ekanligidan dalolat beradi. To'ldiruvchi esa so'z kengaytiruvchisi bo'lib, (P_m)ga befarq.

To'ldiruvchining ma'no turlari. To'ldiruvchi o'zi birikayotgan fe'lning tabiatiga ko'ra vositali va vositasiz turga ajraladi.

Vositasiz to'ldiruvchi bilan birikish faqat o'timli fe'lga xos. Shu boisdan vositasiz to'ldiruvchi – o'timli fe'lning obyekt valentligini to'ldiruvchi so'z kengaytiruvchisi. Vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bosh yoki tushum kelishigidagi so'z keladi: **1.** Bosh kelishikdagi vositasiz to'ldiruvchi: 1. *Bunda bulbul* ***kitob*** *o'qiydi. 2. Bunda qurtlar* ***ipak*** *to'qiydi. 3. Bunda ari keltiradi* ***bol,*** *Bunda qushlar topadi* ***iqbol.*** **2.** Tushum kelishigidagi vositasiz to'ldiruvchi: *1. Sen* ***bahorni*** *sog'inmadingmi? 2. Har bir tuki* ***kiyimlarini*** *teshib chiqib ketgan edi.*

Vositasiz to'ldiruvchi vazifasidagi so'z turli-tuman ma'nolarni ifodalaydi. Vositasiz to'ldiruvchi o'timli fe'lga bog'lanadi deyish o'timli fe'l vositali to'ldiruvchini qabul qila olmaydi degani emas. O'timli fe'llar ham vositali, ham vositasiz to'ldiruvchini o'ziga biriktiradi. O'timsiz fe'llar esa faqat vositali to'ldiruvchilarnigina tobelaydi.

Vositasiz to'ldiruvchi bevosita harakatni o'z ustiga olgan predmetni anglatsa, vositali to'ldiruvchi harakatni qamrab olgan, lekin harakatga daxldor bo'lmagan predmetni ifodalaydi. Vositali to'ldiruvchi turli grammatik ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) jo'nalish kelishigi: *Senga oldim.*
2) chiqish kelishigi: *Sendan oldim.*
3) o'rin-payt kelishigi: *Menda qoldi.*
4) ko'makchi: *Sen uchun oldim.*

To'ldiruvchining tuzilish turlari. Boshqa bo'lak kabi to'ldiruvchi ham sodda yoki murakkab bo'ladi:

1) **sodda to'ldiruvchi** bir so'z yoki bir so'zga teng birlik bilan ifodalanadi: 1. *Xotirangiz mening* ***xotiramdan*** *o'tkir ekan.* 2. *U yana* ***Pushkinga*** *murojaat qildi.* 3. *Turmushimizda hamma narsa* ***bir-biri bilan*** *bog'liq;*

2) **murakkab to'ldiruvchi** kengaygan birikmalar bilan ifodalanadi: 1. *Men Mirzacho'lni ham, Surxon diyorining* ***Sherobod dashtini*** *ham, Farg'ona vodiysining* ***Yozyovon qumliklarini*** *ham ko'rganman.* 2. *Hasharchilarning shart-sharoitlarini yaxshilash,* ***ularga yordam ko'rsatish to'grisida*** *ko'rsatma berildi.* 3. *Tevarak-atrof* ***qushlar chug'uriga,*** *anvoyi* ***gullar isiga*** *to'lib ketdi.*

Izohlanayotgan fe'lning bo'sh o'rnini to'ldirishda sodda to'ldiruvchi ham, kengaygan to'ldiruvchi ham bir xil mavqega ega

bo'ladi – u qancha kengaygan bo'lmasin, baribir bir o'rinni to'ldiradi. Bir so'zdan iborat to'ldiruvchiga ham, bir necha so'z bilan kengaygan to'ldiruvchiga ham fe'l valentligidan bitta bo'sh o'rin «ajratilgan».

Aniqlovchi

Aniqlovchi ot bilan ifodalangan, shuningdek, bo'lak yoki bo'lak bo'laklarining, undalma yoki kirish birikmalarining kengaytiruvchisi. To'ldiruvchi kabi aniqlovchi ham so'z kengaytiruvchisi sifatida gap tarkibida qatnashayotgan otlarning lug'aviy valentligini to'ldiradigan vosita sifatida namoyon bo'ladi va gap konstruktiv tuzilmasidan o'rin egallamaydi. Uning lisoniy sathga aloqadorligi – muayyanlashuvchi otning qanday valentligiga muvofiq kelishi va uni sintaktik aloqa bilan voqelantirishi.

Aniqlovchi so'z kengaytiruvchisi ekan, u istagan gap bo'laklariga tobelanishi mumkin:

1) kesim aniqlovchisi: *Nilufar **a'lochi** talaba;*
2) ega aniqlovchisi: ***Kimning** gapi to'g'ri;*
3) hol aniqlovchisi: ***So'lim va xushhavo** vodiyda o'rnashdilar*;
4) to'ldiruvchi aniqlovchisi: ***Bizning** yorni ko'rgan bormi?*
5) undalma aniqlovchisi: *Xayr endi, **yashil** vodiy, **xushmanzara** tog'.*

Aniqlovchi mustaqil holda biror bo'lakka bog'lanishi ham, kengaytiruvchilar tarkibida kelishi ham mumkin. Qiyoslang:

*Bir yonda **lojuvard** Bahri Muhit bor,*
*Bir yonda **za'faron** Sahroyi Kabir.*
*Bir yonda **oq sochli** tog'lar purviqor*
Sening toleinga o'qiydi takbir.

Misralardagi *lojuvard* so'zi *Bahri Muhit* (ega), *za'faron* so'zi esa *Sahroyi Kabir* (kesim) so'ziga aniqlovchi bo'lib, bo'laklar kengaytiruvchisi sifatida namoyon bo'lgan. Uchinchi misradagi *sochli* so'zi *tog'lar* (ega) so'ziga tobelangan bo'lib, o'z navbatida *oq* so'zini o'ziga tobelagan.

Aniqlovchining ifodalanishi. Aniqlovchi gapda turlicha ifodalanishga ega. Aniqlashning o'ziga xosligiga ko'ra, aniqlovchining ifodalanishi ham, shunga muvofiq, uning kengayuvchi so'z bilan sintaktik aloqasi ham turlicha bo'ladi.

Predmetning qandayligi, tusi, xususiyati, maza-ta'mi, shakli, tabiati kabilarni muayyanlashtirish lozim bo'lganda aniqlovchi sifat, sifatdosh, ba'zan ot turkumidan bo'lgan so'z bilan ifodalanadi. Biror shaxs yoki predmetga qarashlilikni anglatish zaruriyati

bo'lganda aniqlovchi ot yoki ot o'rnidagi so'z bilan ifodalanadi. Shunga ko'ra, aniqlovchi ikki xil bo'ladi:

1) belgini muayyanlashtiruvchi aniqlovchi (sifatlovchi);

2) qarashlilikni muayyanlashtiruvchi aniqlovchi (qaratuvchi).

Sifatlovchi-aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1) sifat bilan: ***A'lo*** *mamlakatning* ***a'lo*** *farzandi, bilib qo'yki, seni Vatan kutadi;*

2) sifatdosh bilan: ***Oqar*** *daryo oqmasdan qolmas;*

3) ravish bilan: ***Kechagi*** *noxush manzarani bir umr unutmasa kerak;*

4) son bilan: ***o'ninchi*** *yillarning sargardonligi;*

5) belgi aniqlovchisi (sifat vazifasidagi) ot bilan: ***anor*** *yuz,* ***oltin*** *kuz;*

6) olmosh bilan: ***Qaysi*** *yuzim bilan unga qarayman?*

Qaratuvchi aniqlovchi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

1) ot yoki ot o'rnidagi so'z: 1. ***Ona yerning*** *otash qa'ridan «o'g'lim», degan nido keladi.*(E.Voh.). *2.* ***Mening*** *ikki onam bor, ikkisi ham mehribon;*

2) otlashgan so'z bilan: *1.* ***Ko'pning*** *duosi ko'l.* ***2. O'qiganning*** *tili ko'p uzun bo'ldi.*

Aniqlovchining turlari. Aytilganidek, aniqlovchi mohiyatan uch xil bo'ladi: sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.

Sifatlovchi. Sifatlovchili birikmada tobe a'zo (sifatlovchi) hokim uzvning biror xususiyatini aniqlab keladi va unga tobe aloqaning bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Sifatlovchining qo'llanishida ikki holatni farqlash lozim:

1) sifatlovchining sifatlanmish ma'nosini toraytirishi – muayyanlashtirishi: ***Oq*** *ilon,* ***oppoq*** *ilon, oydinda yotganing qani?* Bunda *oq* so'zi bilan ifodalangan sifatlovchi sifatlanmish zamiridagi tushunchani ajratish, farqlash vazifasini bajargan (*qora ilon, sariq ilon,oq ilon*);

2) sifatlovchining ta'kid vazifasini bajarishi. Bunda ajratish, muayyanlashtirish vazifasi kuzatilmaydi: ***oppoq*** *qor,* ***oq*** *sut bergan ona,* ***oq*** *paxta.* Bu holat nutqiy jihatdan me'yoriy bo'lsa-da, lisoniy nuqtayi nazardan ortiqlik sanaladi. Chunki *qor, sut, paxta* tabiatan oq bo'lganligi sababli uni yana aniqlovchi bilan takrorlab o'tirishga hojat bo'lmaydi.

Sifatlovchi vazifasida tabiatan tobe uzvlikka xoslangan so'z kelganligi bois, u sifatlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Sifatlovchi vazifasida kelgan ot ham «tobega xos»lardek xususiyat kasb etib, hokim uzvga bitishuv yo'li bilan birikadi.

Sifatlovchi qaratuvchili birikmaga kengaytiruvchi bo'lganda, ikki holat farqlanadi. Sifatlovchi bunda qaratuvchili birikmaga butunicha yoki undan faqat qaratuvchigagina kengaytiruvchi sifatida qo'llanilishi mumkin. Quyidagi gaplarda sifatlovchi kengaytiruvchining kengayuvchiga munosabatini qiyoslaymiz: *yangi xo'jalik rahbari — yangi xo'jalik rahbari.* Birinchi gapda *yangi* so'zi *xo'jalik* so'zining kengaytiruvchisi bo'lib, bu hokim so'zning qaratqich kelishigini olishini taqozo etadi. Keyingi birikuvda *yangi* sifatlovchisi — *xo'jalik rahbari* birikmasining kengaytiruvchisi.

Sifatlovchilar ketma-ket kelib sifatlovchi zanjirini tashkil etadi. Sifatlanmish uyushiq holatda bo'lganda, sifatlovchining barcha uyushgan birliklarga yoki ularning biriga tegishli ekanligi anglashilmay qoladi. Bunda belgining qaysi birlikka xos ekanligi matndan, biriktiruvning valentlik imkoniyati yoki boshqa nutqiy omillardan ayon bo'lib turadi.



Sifatlovchi va sifatlanmish izofa shaklida — sifatlanmish-sifatlovchi ko'rinishini olgan bo'lishi mumkin: *majnuni gumroh, devonai Mashrab, oynai jahon* va boshqalar. Bunday birikuv o'zbek nutqi nuqtayi nazaridan sifatlovchili birikma sifatida qaralmaydi.

Sifatlovchi va sifatlanmish tobelanishida sifatlovchining birikuv omillari **MJSh** tartibida bo'ladi. Chunki sifatlovchi maxsus ko'rsatkichlarsiz tobe a'zo maqomini egallaydi. Shu boisdan unda shakliy omil o'ta kuchsizlanadi. Sifatlovchi va sifatlanmish orasiga so'z kiritish, ularni bir-biridan uzish imkoniyati bo'lmaganligi, bog'lanishda sintaktik pozitsiya ustuvor ahamiyatga ega bo'lganligi bois joylashuv omili faollashadi. Birikuvda ma'noviy omil birinchi

o'rinda bo'ladi. Uning joylashuv omilidan ustunligi birikuvchi unsurlarning ma'noviy muvofiqligi har doim ham ahamiyatli bo'lib qolishi bilan belgilanadi.

Qaratuvchi aniqlovchi. Qaratuvchili birikmada qaralmishdan anglashilayotgan predmet yoki predmet tasavvuridagi narsaning qaratuvchidan anglashilgan narsa/shaxsga mansublik, tegishlilik kabi daxldorligi anglashiladi. Qaralmish vazifasidagi so'zning lisoniy valentligida qaratuvchi to'ldiradigan qaram bo'lgan bo'sh o'rin fakultativ, nozaruriy. Shu boisdan qaralmish egalik qo'shimchalari bilan shakllanib, bu lisoniy nozarurlikni zaruriyatga aylantiradi.

Qaratuvchi va qaralmish munosabati ikki tomonlama. Birinchi a'zo (qaratuvchi) qaratqich kelishigi yoki bosh kelishik bilan, hokim a'zo esa egalik qo'shimchasi bilan yoki usiz shakllanadi.

1.Qaratuvchining qaratqich kelishigi bilan shakllanishi: *olmaning shoxi, ammamning daftari, Halimning kitobi.*

*2.*Qaratuvchining bosh kelishikda bo'lishi*: mart oyi, bozor kuni, nafrat hissi.*

3.Qaralmishning egalik qo'shimchasisiz shakllanishi: *bizning uy, sizning ayvon, Bizning yorni ko'rgan bormi?*

Qaratuvchili birikmadagi so'zlarning o'zaro munosabatidan turli ma'no anglashilishi mumkin:

1) qarashlilik: *Azizaning kitobi, mening onam*;

2) xoslik*: olmaning bargi, piyozning po'sti*;

3) butun-bo'lak: *stolning oyog'i, uyning eshigi;*

4) tur-jins: *olmaning yaxshisi, odamning aqllisi;*

5) bajaruvchi va harakat munosabati: *bolaning yig'isi, itning hurishi.*

Bu ma'nolarning barchasi **[Ism$^{\text{qaratqich kelishigi}}$ + Ism$^{\text{egalik qo'shimchasi}}$ = qaratuvchi va qaralmish]** qolipi emas, balki so'zlarning ma'noviy munosabati hosilasi.

Qaralmishdagi egalik affiksi qaratuvchining qaysi shaxsda ekanligini bildirib turadi. Shu boisdan ko'p hollarda qaratuvchi qo'llanilmasligi ham mumkin: *ukang, kitobing* kabi. Bunda ta'kid muhim rol o'ynaydi. Qaratuvchini ta'kidlash lozim bo'lganda, u, albatta, qo'llanadi. Boshqa hollarda qaratuvchining qo'llanishi nutqiy ortiqchalikni keltirib chiqaradi.

Umuman, qaratuvchining qo'llanmasligi quyidagi hollarda yuz beradi:

1) qaratuvchi vazifasida o'zlik olmoshi qo'llanishi lozim bo'lganda: *Halim o'rtoqlariga xat jo'natdi;*

2) qaratuvchidan anglashilgan ma'no oldingi gaplardan ma'lum bo'lib turgan bo'lsa, uslubiy ortiqchalikdan qochish maqsadida: *1.Men (mening) sevgan qizimga uylandim. (Mening)* ***Xotinimning*** *otasi savdogar edi;*

3) ta'kidlash lozim ko'rilmaganda: *Bog'imda anorim bor.*

So'z va gap kengaytiruvchilarining muvofiqlashuvi va farqlanishi

So'z kengaytiruvchisi – so'z semantik imkoniyatidagi bo'sh o'rinni to'ldiruvchi aktant. Aktant nutqiy gaplar tarkibida so'z birikmasini hosil qiladi. Bu birikuvlarda bo'sh o'rni to'ldirilayotgan (biriktiruvchi) so'z hokim so'z, bo'sh o'rinni to'ldirayotgan so'z tobe so'z sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, *qizil olma* birikuvida *qizil* so'zi *olma* so'zi zamiridagi ma'noviy mohiyatning «belgi» ma'no bo'lakchasini muayyanlashtiruvchi aktant bo'lib, *olma* so'ziga «xizmat qilayotganligi» bois unga tobe unsur maqomida bo'ladi. Demak, biror so'zga tobelanib kelayotgan so'z *bo'sh o'rinni to'ldiruvchi, aktant* atamalari bilan yuritiladi. Aktantlar nutqda, an'anaviy tahlil usullari asosida aytganda, *ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi* atamasi bilan nomlanadi. Biroq bu atamalar ostida tushuniluvchi hodisalar so'z va gap kengaytiruvchisi farqlanishi nuqtayi nazaridan baholansa, butunlay boshqa holat vujudga keladi. Kengayuvchi so'z gapning kesimi mavqeida kelganda, gap kengaytiruvchisi gap lisoniy strukturasiga bevosita daxldor bo'ladi. Masalan, *Jahongir kitobni tez o'qidi* gapining lisoniy struktur sxemasi quyidagicha (48-jadval):

48-jadval

E	H	W	Pm
		o'qi ↑ *kitobni*	*-di*
Jahongir	*tez*		

Bundagi uchta so'z – bevosita konstruktiv bo'lak voqelantiruvchisi. Bular: *Jahongir, tez, o'qidi.* Faqat *kitobni* so'zi bevosita *o'qi* so'zi orqaligina lisoniy strukturaga daxldor bo'ladi. Bular *Jahongir tez o'qigan kitobni men olaman* tarzida o'zgartirilsa,

oldingi gapda gap kengaytiruvchisi va gapning konstruktiv bo'laklari ifodalovchici bo'lgan *Jahongir, tez* so'zlari endi avvalgi mavqeidan mahrum bo'ladi. Ulardagi konstruktiv bo'laklarga bevosita daxldorlik bilvositalikka, gap kengaytiruvchilik so'z kengaytiruvchilikka aylanadi. Bu gapning struktur sxemasiga diqqat qiling (49-jadval):

49-jadval

E	H	W	Pm
		O'qi ↑ *Kitobni*	*-di*
Jahongir	*tez*		

Oldingi gapda bevosita gap kesimidagi (P_m)ga daxldorlik kasb etib turgan *Jahongir* va *tez* so'zlari kesimdagi atov birligi (**W**) kengaytiruvchisi bo'lgan *kitobni* so'zshaklining aktanti hisoblangan *o'qigan* so'zining kengaytiruvchilaridir.

Ko'rinadiki, gapning konstruktiv tizimidan faqat ($\mathbf{P_m}$)ga bog'langan hokim a'zo o'rin oladi. Hokim uzvga tobelangan, ergashib kelayotgan aktant nutqiy gap tarkibidagina bo'ladi. Nutqiy gap qanchalik kengaymasin, u, kengaymagan ko'rinishida bo'lgani kabi, lisoniy strukturaga bir xil daxldor bo'ladi. Misolga murojaat qilamiz: *Shavkat tayyorlanayotganda bexabar edi.* Bu gapning struktur sxemasi quyidagicha (50-jadval):

50-jadval

E	H	W	P_m
Shavkat	*tayyorlanayotganda*	*bexabar*	*edi*

Bunda bo'laklarning barchasi bir so'z bilan ifodalangan. So'zning har biri qanchalik kengaysa ham, gapning lisoniy strukturaga munosabati o'zgarmaydi. Gapning *Olimlikni orzu qilgan Shavkat pedagogika universitetini imtiyozli diplom bilan tamomlab, magistraturaga kirish uchun tayyorlanayotganda o'z faoliyatiga daxldor bu gaplardan bexabar edi* tarzidagi kengaygan ko'rinishi struktur sxemasiga diqqat qilaylik (51-jadval):

51-jadval

E	H	W	Pm
Shavkat	*Tayyorlanayotganda*	*bexabar*	*edi*
orzu qilgan *olimlikni*	*kirish uchun* *magistraturaga* *tamomlab* *diplom bilan* *imtiyozli* *universitetini* *pedagogika*	*gaplardan* *daxldor* *bu* *faoliyatiga* *o'z*	

Ko'rinadiki, bu gap qanchalik keng bo'lmasin, uning struktur qolipi o'ta sodda va oldingi nutqiy gap qolipidan mutlaqo farqlanmaydi.

So'zlarning nutqiy voqelanishi ular bevosita konstruktiv bo'lakka bog'langanda yuz beradi. Konstruktiv bo'lak bo'lishi uchun kesimlik shakllanishi zarur bo'ladi. Chunki kesim mavjud bo'lsagina, unga bog'langan ayrim so'zlar konstruktiv bo'lak tabiatiga ega bo'ladi. Masalan, *Qizim Muniraning yosh rassomlar ijodiy festivali butun jahon bosqichi mintaqa tanlovida yuqori o'rinni egallashi* nutqiy hosilasi xabar ifodalash xususiyatiga ega emas. Chunki unda kesim yo'q. Demak, bu hosila gap emas va unda gap bo'laklari ham mavjud emas. Bu hosila gap qolipiga daxldor qilinsa, qolip to'ldiruvchisi maqomini olsa, so'zlardan mutlaq hokimlarining mavqei o'zgaradi va boshqalari ham shu hokim unsur orqali gap qolipiga kiradi. Bu yoyiq unsur gapda kesim, ega, hol mavqeini egallashi mumkin:

kesim: *Mening orzum — qizim Muniraning yosh rassomlar ijodiy festivali butun jahon bosqichi mintaqa tanlovida yuqori o'rinni egallashi;* ega: *Qizim Muniraning yosh rassomlar ijodiy festivali butun jahon bosqichi mintaqa tanlovida yuqori o'rinni egallashi — mening orzum;* hol: *Qizim Muniraning yosh rassomlar ijodiy festivali butun*

jahon bosqichi mintaqa tanlovida yuqori o'rinni egallaganligidan biz behad ruhlandik.

Demak, dastlabki nutqiy hosila gap tarkibiga kiritilsa, undagi asosiy kengayuvchi unsur (*egallashi*) gapning konstruktiv bo'lagiga aylanadi, sifat o'zgarishiga uchraydi, gap qolipiga bevosita daxldorlik kasb etadi. Lekin uning kengaytiruvchilari u orqali — gap qolipiga bilvosita aloqador bo'ladi, ular mavqeidagi o'zgarish sifat o'zgarishi darajasida bo'lmaydi.

So'z va gap kengaytiruvchilari bir-biriga aylanib turadigan hodisa. Masalan, *Kecha kelgan bolani tanimadim* gapida *kecha* so'zi *kelgan* so'zining kengaytiruvchisi. Lekin *Bola kecha keldi?* gapida u gap kengaytiruvchisi maqomini olgan. Birinchi birikuvda u *kelgan* so'zshaklidagi zamon ma'nosiga bog'langan. Ikkinchi gapda esa so'zshakl kesimlik kategoriyasi tarkibidagi zamon ma'nosiga daxldor. *Kecha kelgan bola* birikuvidagi *kelgan* so'zshakli zamon ma'nosi bilan *keldi* so'zshaklidagi zamon ma'nosi farqlanadi. Birinchi so'zshakldagi zamon sifatdosh shaklining ma'nosi bo'lsa, *keldi* gap markazida tasdiq-inkor, modallik, shaxs-son va kesimlik pozitsiyasi unsurlari sistemasidan iborat butunlikning tarkibiy qismi. To'g'ri chiziq uchburchakning tomoni sifatida boshqa mohiyatga, kvadratning tomoni sifatida boshqa mohiyatga ega bo'lgani kabi, zamon ham *Kecha kelgan bola* birikuvida boshqa, *Bola kecha keldi* birikuvida boshqa butunlikning tarkibiy qismi. Harakatning bajaruvchisi ham goh so'z kengaytiruvchisi, goh gap kengaytiruvchisi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. *Halim kecha kelgan. Halim kecha kelganda men yo'q edim* juftligining birinchisida *Halim* gap kengaytiruvchisi (ega), konstruktiv bo'lak, ikkinchi gapda esa so'z kengaytiruvchisi, ya'ni konstruktiv bo'lak emas. Shuningdek, keltirilgan misoldagi *mintaqa bosqichida* unsuri *egallashi* so'zi kesim mavqeida kelganda konstruktiv bo'lak, boshqa hollarda (hol va ega bog'langanda) esa so'z kengaytiruvchisi.

Demak, ma'lum bo'ladiki, muayyan aktant birlikning gap yoki so'z kengaytiruvchisi mavqeyida bo'lishi kengayuvchi so'zning sintaktik mavqei bilan belgilanadi.

Gap bo'lagi maqomida so'z ham, so'z birikmasi ham kelishi mumkin. Gap bo'lagi vazifasida kelgan so'z o'z kengaytiruvchisi bilan bir butun holda bitta gap bo'lagi (yoki bo'lakning bo'lagi) sanaladi.

Gapni bo'laklarga va so'z birikmasiga ajratish — sintaktik tahlilning ikki xil ko'rinishi. Gapni bo'laklarga ajratish kommunikativ birlik tahlili bo'lsa, so'z birikmalariga ajratish

nominativ birlik tahlili. Masalan, *Gulnora o'qigan kitobni men kecha tugatgan edim* gapining gap bo'laklari bo'yicha tahlili quyidagicha bo'ladi: *1) tugatgan edim* — kesim; *2) men* — ega; *3) kecha* — hol. *Gulnora o'qigan kitobni* birikuvi gap bo'lagi emas va u bo'laklar tahlilida e'tiborga olinmaydi.

Demak, to'ldiruvchi va aniqlovchi so'z kengaytiruvchisi bo'lganligi bois gap bo'laklari tahlilida nazardan chetda qoladi. Gapni so'z birikmalariga ajratishda esa kengayuvchi so'z kengaytiruvchi so'z bilan birikma sifatida olinadi. Gap kengaytiruvchisi biror so'z (atov birligi) ma'nosini emas, balki kesimlik qo'shimchasi ma'nosini muayyanlashtirganligi bois, so'z birikmalari sifatida olinmaydi. Shunday qilib, yuqoridagi gapdan kommunikativ sathga daxldor, ya'ni ($\mathbf{P_m}$)ga bog'lanuvchi so'zlarni chiqarib tashlasak:

a) *Gulnora o'qigan;*
b) *o'qigan kitob;*
d) *kitobni tugatmoq*

kabi uchta so'z birikmasi mavjudligi ayon bo'ladi. Chunki gap tarkibidagi *Gulnora, o'qigan, kitobni* birliklari so'z kengaytiruvchisi.

Demak, xulosa qilish mumkinki, so'z kengaytiruvchisi va gap kengaytiruvchisi munosabatidan kelib chiqqan holda so'z birikmalari tahlilini gap bo'laklari tahlili bilan qorishtirmaslik kerak.

Gapda ajratilgan so'zshakllar

Gapda ishtirok etayotgan atov birliklarining ma'nosi so'zlovchi uchun yetarli darajada ochilmagan bo'lishi mumkin. Shunda ularning ma'nolarini muayyanlashtirish maqsadida alohida, ta'kid ohangiga ega bo'lgan atov birliklari nutqqa kiritiladi. Quyidagi gaplarga e'tibor bering: 1. *Shavkat she'r o'qidi.* 2. *Yurtim — Nurota.* 3. *Uning kafolati kerak bo'ladi.* 4. *Soy buyida uzoq turdi.* 5. *Seni sog'indim.* Tinglovchi uchun ushbu gaplardagi ma'lum bir so'zlar ma'nolari izohlarsiz noaniq bo'lishi mumkin. Buni e'tiborga olgan holda so'zlovchi ularni muayyanlashtiruvchi so'zlar bilan qo'llaydi: 1. *Shavkat, shoir, she'r o'qidi.* 2. *Yurtim — Nurota, tog'lar orasi.* 3. *Uning, Ikrom Imomzodaning, kafolati kerak bo'ladi.* 4. *Soy bo'yida, qo'sh yong'oqning tagida, uzoq turdi.* 5. *Seni, vafodorimni, sog'indim.* Birinchi gapda ega *(Shavkat)*ning ma'nosini *shoir* so'zi, ikkinchi gapda kesim *(Nurota)*ning ma'nosini *tog'lar orasi*, uchinchi gapda aniqlovchi *(uning)*ning ma'nosini *Ikrom Imomzodaning*

so'zshakli, to'rtinchi gapda hol (*soy bo'yida*) ning ma'nosini *qo'sh yong'oqning tagida* so'zshakli, beshinchi gapda to'ldiruvchi (*seni*) ning ma'nosini *vafodorimni* so'zshakli izohlagan, to'ldirgan, muayyanlashtirgan. Bu so'zlar o'zi izohlayotgan so'zlar bilan bir hokim so'zga tobelanadi. Undan faqat nisbatan tor ma'noga egaligi va ta'kid ohangi bilan ajralib turadi. Bunday atov birliklari *gapning ajratilgan kengaytiruvchisi* deyiladi. Gapning so'z kengaytiruvchisi ham, gap kengaytiruvchisi ham ajratilishi mumkin. Yuqoridagi birinchi va ikkinchi gaplarda gap kengaytiruvchisi, 3-, 4-, 5-gaplarda esa so'z kengaytiruvchisi ajratilgan. Shu boisdan ajratilgan kengaytiruvchilarni:

a) ajratilgan gap kengaytiruvchilari;

b) ajratilgan so'z kengaytiruvchilari

ko'rinishida ikkiga bo'lib o'rganish mumkin.

Gap ajratilgan kengaytiruvchilari bilan *ajratilgan bo'laklar* muqobil atamalar emas. Chunki ajratilgan bo'laklar deganda, gap konstruktiv bo'laklarining ajratilishi tushuniladi. *Ajratilgan kengaytiruvchilar* atamasi esa bo'lak mavqeiga ega bo'lmagan atov birliklarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, *Men seni, vafodorimni, sog'inganimni ayta olmayman* gapida *vafodorimni* so'zshakli ajratilgan kengaytiruvchi, lekin gap bo'lagi emas.

Ajratilgan kengaytiruvchining gap struktur sxemasiga munosabati ular izohlayotgan atov birliklariniki kabi. Ajratilgan kengaytiruvchi ajralmish (muayyanlashtirilayotgan) atov birliklarining «soyasi» bo'lganligi bois, ular bilan bir butun holda bevosita yoki bilvosita gap struktur qolipiga daxldor bo'ladi. Yuqoridagi gapning struktur qolipga munosabatini kuzating (52-jadval):

52-jadval

E	H	W	Pm
Men		*ayta ol* *sog'inganimni* *vafodorimni,* *seni,*	*mayman*

Yoki *Shavkat, shoir, she'r o'qidi* gapining struktur sxemasi quyidagicha (53-jadval):

53-jadval

E	H	W	Pm
shoir, Shavkat,		*o'qi* ↑ *she'r*	*di*

Ajratilgan kengaytiruvchi muayyanlashtirilayotgan bo'lakning «soyasi» bo'lganligi bois, sof nutqiy hodisa. Shuning uchun uning mavjudligi va o'ziga xosligi sof nutqiy omil — ohang bilan ham bog'liq. O'ziga xos ohangdan mahrum qilinsa, u boshqa nutqiy hodisa — undalmaga monand bo'lib qoladi. Masalan, *Erkin, ukam, injener bo'ldi* gapida *ukam* atov birligi ajratilgan kengaytiruvchiga xos ohangdan mahrum etilsa *(ukam* birligidan keyin ajratish pauzasi qo'llansa*)*, u egaga va eganing atov birligi esa undalmaga aylanib qoladi.

Gap va so'z kengaytiruvchilarining ajratilishida o'ziga xosliklar bor.

Gapda izohlovchining ajratilishi boshqa kengaytiruvchilarga nisbatan o'ziga xos. Izohlovchi odatda izohlanmishdan oldin keladi: *traktorchi Toshpo'lat, oshpaz Mamatqulov, professor Jo'rayev* kabi. Izohlovchi ajratilganda, izohlanmish qanday mavqeda bo'lsa, u ham shunday mavqega ega bo'ladi. Masalan, *Traktorchi Toshpo'lat aka smenani topshirdi* gapida izohlovchi (*traktorchi*) ega (*Toshpo'lat aka*) ga tobe. Biroq u ajratilsa, gap egasiga tobeligi yo'qoladi va o'zi ham egaga aylanadi. *Toshpo'lat aka, traktorchi, smenani topshirdi.* Bu gapda *traktorchi* so'zshakli o'rni o'zgargan izohlovchi emas, balki tamoman yangi mavqe (gapning konsruktiv bo'lagi — ega) olganligini izohlanmish (*Toshpo'lat aka*)ni gapning boshqa konstruktiv yoki nokonstruktiv bo'laklari vazifasiga qo'yish bilan amin bo'lish mumkin:

1) *Bu kishi — Toshpo'lat aka, traktorchi;*

2) *Toshpo'lat akani, traktorchini, taniyman*;

3) *Toshpo'latning, traktorchining, obro'yi baland, hurmati joyida.*

Birinchi gapda «sobiq» izohlovchi bo'lmish *traktorchi* kesim, ikkinchi gapda to'ldiruvchi, uchinchi gapda qaratuvchi aniqlovchi vazifasida kelgan. Demak, bunday holda ajratilish natijasida izohlovchi o'z sifatini o'zgartiradi.

Ajratilgan sifatlovchi. Sifatlovchi aniqlovchi ajratilganda ham aniqlanmishdan keyinga o'tadi: 1. *Ipaklari tillodan do'ppi tikdim – Do'ppi tikdim, ipaklari tillodan.* 2. *Yalang oyoq Qobil bobo dag'-dag' titraydi – Qobil bobo, yalang oyoq, dag'-dag' titraydi.*

Gapning boshqa turdagi kengaytiruvchilari ajratilganda, ajralmish va ajratilgan kengaytiruvchilar grammatik shakl va sintaktik mavqe jihatidan sifat o'zgarishi kasb etmaydi.

Ajratilgan ega. Izohlovchi ta'kidlanganda, ajratilgan egaga aylanadi: 1. *Dotsent Jumayev Tursunali ilmiy safarga jo'nadi – Jumayev Tursunali, dotsent, ilmiy safarga jo'nadi. 2. Kapitan Xudoynazarov so'z oldi – Xudoynazarov, kapitan, so'z oldi.*

Quyidagi gaplarda eganing o'zi ajratilgan: *Siz, yoshlar – bizning umidimizsiz.* Bunda *yoshlar* so'zshaklini ajralmish egadan oldinga o'tkazib bo'lmaydi. Ajratilgan ega izohlovchidan oldin bo'lganda uning o'rnini almashtirish mumkin: *Jumayev domla – domla Jumayev* kabi.

Ajratilgan hol. Bunda gapning bo'lagi ma'nosi juda ham aniq bo'lmagan, umumiy so'zshakl bilan ifodalanadi. Ajratilgan holning ma'nosi nisbatan muayyan va tor bo'ladi: *Qishda, chillada, bo'rilar odamga ham hamla qiladi.*

Ajralmish holsiz ajratilgan hol bo'lishi mumkin: *Ikrom aka, xayolga cho'mib, bozorga qarab ketmoqda edi.* Bundagi ajratilmishni ajratish-ta'kid deb atash mumkin.

Ajratilgan to'ldiruvchi. Ajratilgan to'ldiruvchi odatdagi to'ldiruvchining – olmoshning ma'nosini izohlaydi: *Kecha kunduz seni, vafodorimni, o'ylayman.*

Ajratilgan bo'laklar tahlilida yana quyidagiga e'tibor berish lozim:

1) uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z yoki uyushiq so'zlar ajratilgan bo'lishi mumkin: 1. *Ikrom va Otabek – sinfdoshlar, yo'lga tushishdi. 2. Sinfdoshlar – Ikrom va Otabek yo'lga tushishdi.* Birinchi gapda *sinfdoshlar*, ikkinchi gapda *Ikrom* va *Otabek* uyushiq so'zlari ajratilgan kengaytiruvchidir;

2) ajratilgan bo'laklarni aniqlashda tartib muhim rol o'ynaydi. Ajratilgan kengaytiruvchi keyin, ajralmish kengaytiruvchi oldin keladi: 1. *U shaharga, Qarshiga, ketdi.* 2. *U Qarshiga, shaharga, ketdi.* Birinchi gapda *Qarshiga*, ikkinchi gapda *shaharga* so'zshakli–ajratilgan birlik.

Ajratilgan aniqlovchi bilan aniqlanmish distant holatda bo'lganda, ularning aloqasi kuchsizlanib, aniqlovchining nisbiy

mustaqillik holati kuchayadi: *Haligi yigit, qo'lida tuguni bor edi-ku, sartarosh, ertaga ta'tilga chiqar ekan.*

Sodda gapda teng bog'lanish

Gap o'zaro teng bog'lanishga ega so'zlar bilan ham kengayishi mumkin: *Bodomlar, shaftolilar va o'riklar gulladi.* Bu gapdagi *bodomlar, o'riklar, shaftolilar* so'zshakllari sintaktik mazmun jihatdan biri ikkinchisiga tobe bo'lmasdan, teng aloqaga kirishgan va bu aloqa teng bog'lovchilar yoki ohang vositasida amalga oshirilgan. Bunday tenglanish qatorini hosil qilgan so'zshakllar bir kengayuvchi so'zshaklga tobelanib, sintaktik jihatdan bir xil mavqega ega bo'ladi. Bunday so'zshakl uyushiq so'zshakl deyiladi. Tenglanish qatori gapda har qanday sintaktik mavqeni egallashi mumkin:

kesim: *Siz aqlli va tadbirkorsiz.*
ega: *Go'yo Navoiy va Boyqaro qarshimda edi.*
hol: *Suv o'ynoqlab, ko'piklanib oqardi.*
to'ldiruvchi: *U qalam, daftar, ruchka oldi.*
aniqlovchi: *Nasibaning va Karimaning opalari keldi.*
undalma: *Aziz do'stlar, yurtdoshlar, sizlarni sog'inib yashadim.*

Ko'rinadiki, gapning konstruktiv bo'laklari ham, nokonstruktiv bo'laklari ham uyushishi mumkin.

Uyushiq so'zshakllar bir butun holda, yaxlit a'zo sifatida gap struktur qolipiga bevosita (uyushiq kesim, ega, hol) yoki bilvosita (to'ldiruvchi, aniqlovchi va boshqa so'z kengaytiruvchisi) daxldor bo'ladi. Tenglanish qatoridagi so'zshakllar sintaktik jihatdan bir xil mavqega ega bo'lmasligi ham mumkin. Ya'ni ular bir hokim uzvga tobelanishsa va o'zaro teng aloqaga kirishishsa-da, sintaktik vazifa jihatdan farqlanadi. Masalan: *Har joyda va har kimga sen haqingda gapirdim.* Bundagi *har joyda va har kimga* so'zshakllari o'zaro teng aloqaga kirishgan, lekin biri gap kengaytiruvchisi *(har joyda)*, ikkinchisi esa so'z kengaytiruvchisi (*har kimga*). Bunday tenglanish qatori *uyushmagan tenglanish qatori* deyiladi. Uyushmagan tenglanish qatori a'zosining har biri har xil lisoniy-sintaktik o'rinlarning to'ldiruvchisi bo'ladi. Xususan, mazkur gapdagi *har joyda* so'zshakli gap lisoniy strukturasidagi hol o'rnini to'ldirsa, *har kimga* so'zshakli gap markazidagi atov birligi (**W**)ning kengaytiruvchisi, gap lisoniy strukturasiga bevosita daxldor bo'lmagan a'zo.

Tenglangan so'zshakllarining har biri kengaygan bo'lishi ham mumkin: 1. *U dengiz qiyofasini kasb etgan keng paxtazorga va undagi marra uchun kuyib-pishayotgan terimchilarga uzoq tikildi.* 2. *Sho'x yigitlar, erka qizlar quvnashar.*

Uyushgan so'zshakl. Uyushgan so'zshakl har doim sintaktik mavqe va morfologik shakllanish jihatidan bir xil bo'ladi. Ular boshqa so'z bilan bog'lanishda tenglik saqlaydi. Ammo ularning qanday so'z bilan ifodalanishi — so'z turkumi jihatdan bir xil bo'lishi va, demak, bir xil so'roqqa javob bo'lishi shart emas: *Seni* (olmosh) *va Salomatning ukasini* (ot) *taqdirlashadi.*

Uyushgan so'zshaklning oxirgisi tegishli grammatik shaklni olib, oldingilari olmagan bo'lishi ham mumkin: *Maydonni begona o't, tosh va har xil chiqindilardan tozaladik.* Bunda uyushgan so'zshaklning oxirgisi (*chiqindilardan*) chiqish kelishigi bilan shakllangan. Bu uyushgan so'zshaklning grammatik shakllanishi har xil bo'lishi ham mumkin degani emas. Chunki oxirgi so'zshakldagi chiqish kelishigi uyushgan so'zlarning boshqalariga ham tegishli. Faqat nutqiy tejam grammatik ko'rsatkichning barcha so'zshaklda takrorlanishiga monelik qiladi.

Uyushiq so'zshaklning muhim nutqiy belgisidan biri sanash ohangi bilan aytilishi. Sanash ohangi bo'lmasa, sintaktik mavqe, grammatik shakl va ifodalanish jihatlari bir xilligiga qaramasdan so'zshakllar uyushiq sanalmaydi. Masalan, *Mening diqqatimni dumaloq oppoq toshlar tortdi* gapidagi *dumaloq* va *oppoq* so'zshakli *toshlar* so'zshakliga tobelanib, ifodalanish va grammatik shakl jihatdan bir xil. Biroq ular uyushtiruvchi (sanash) ohangsiz uyushmagan kengaytiruvchi hisoblanadi.

Demak, sintaktik mavqe, grammatik shakl bir xilligi va uyushtiruvchi ohangga egalik uyushgan tenglanish qatorining zaruriy belgisidir.

Uyushiq kesimning o'ziga xos xususiyati. Uyushgan ega, hol, to'ldiruvchi va aniqlovchida tegishli grammatik shakl har bir so'zshaklda alohida-alohida mavjud bo'lishi ham, faqat oxirgisida bo'lib, oldingilarida bo'lmasligi ham mumkin. Biroq uyushgan kesimlarda kesimlik shakllari bilan faqat oxirgi kesim shakllangan, boshqalari esa bu qo'shimchani olmagan bo'ladi: 1. *Bizning yoshlar dono va zukkodirlar.* 2. *Do'kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turardilar.* 3. *Voqea sodir bo'lgan joyga zudlik bilan borishimiz va masalaga oydinlik kiritishimiz lozim.*

So'z kesimlik ko'rsatkichi bilan shakllangan va kesimlik sintaktik pozitsiyasini egallagan bo'lsa, u alohida hukm va tugal

ma'no ifodalaydi hamda gap hosil qiladi. Yuqorida keltirilgan gapda ham uyushgan kesimning barchasi ($\mathbf{P_m}$) ko'rsatkichi bilan shakllantirilganda, ularning har biri alohida-alohida gapni hosil qiladi va natijada qo'shma gap vujudga keladi. Qiyoslang: 1. *Siz a'lochi va jamoatchi kishisiz* (uyushiq kesimli gap) — *Siz a'lochisiz va jamoatchisiz* (qo'shma gap). 2. *U vaqtlarda otam kosib, onam tikuvchi edi* (uyushgan sodda gap) — *U vaqtlarda otam kosib edi va onasi tikuvchi edi* (qo'shma gap).

Ikkinchi gapning har bir kesimini ($\mathbf{P_m}$) bilan to'la shakllantirib, qo'shma gap tarzida qo'llash uslubiy g'alizlikni keltirib chiqaradi. Shu bois ushbu o'rinda qo'shma gap emas, balki uyushiq kesimli sodda gapni ishlatish o'ng'ay.

Uyushiq kesimning har xil so'z turkumi bilan ifodalanishi ham uchraydigan hodisa. Bu ot va olmoshda mavjud: *Taniganim, bilganim sen va Halimdir.* Biroq fe'l va boshqa turkum so'zi uyushiq kesim hosil qila olmaydi. Chunki ot va fe'l boshqacha va qolgan turkumlar boshqacha tuslanishga ega bo'ladi: *Itingdurman va bo'zlagaydirman.* Bu gapda kesimlik ko'rsatkichlarini ikkala so'zshakl uchun bitta qilib bo'lmaydi: *Itingdur va bo'zlagaydirman* kabi.

Uyushiq kesimlarning oldin turgani [*-i(b)*] shaklli ravishdosh bilan ifodalanganda, hol bilan monand bo'lib qoladi: 1. *U ko'rqib baqirib yubordi.* 2. *U tanib, bilib, so'ray boshladi.* Har ikkala qo'llanishda ham fe'l so'zshakllar bir-biriga o'xshaydi. Biroq gaplardan birinchisida fe'l hol (*ko'rib*) va kesim (*baqirib yubordi*) vazifasida. Keyingi gapda esa uyushiq kesim mavjud. Biroq birinchi gapda uyushiqlikning zaruriy belgisi — uyushtiruvchi ohang mavjud emas.

Tenglanish qatorida bog'lovchi. Tenglanish qatori bog'lovchili yoki bog'lovchisiz bo'lishi mumkin. Bog'lovchisiz qator faqat ohang yordamida hosil qilinadi: 1. *Karima, Gulnora, Halima boqqa jo'nadilar.* 2. *U tanib, bilib, so'ray boshladi.*

Bog'lovchili qator bog'lovchi vosita yordamida hosil qilinadi: 1. *Eshikdan yosh yigit va chol kirib keldi.* 2. *Farzandlarimiz dono va baxtiyordir.*

Tenglanish qatori nisbatan cheklanmagan yoki cheklangan a'zodan tashkil topishi mumkin. Bu a'zolararo munosabatning turi bilan bog'liq. Shunday tenglanish qatori mavjudki, bunda bemalol qatorni to'ldirish, yangi a'zo bilan davom ettirish mumkin bo'ladi: *U ko'k, qora, qizil qalamlar oldi.* Bunday tenglanish qatori ***ochiq qator*** deyiladi. Ochiq qator shunday a'zolardan tuziladiki, bunda

bir a'zo boshqalariga qanday munosabatda bo'lsa, boshqa a'zo ham unga shunday munosabatda bo'ladi. Yopiq qator esa shunday a'zolardan tashkil topadiki, ularda qatordagi a'zolarning munosabati taqsimlangan bo'ladi: bir a'zo ikkinchisiga boshqacha, ikkinchisi birinchisiga boshqacha munosabatda bo'ladi: *Bog'da nafaqat olma, balki nok ham o'sadi.* Ochiq tenglanish qatorida tartib, asosan, erkin: *Bog'da o'rik, olma, shaftoli o'sadi* gapi *Bog'da o'rik, olma, shaftoli, balki nok ham o'sadi* shaklida berilsa ham, mazmunga putur etmaydi. Yopiq tenglanish qatorida tartib, ko'pincha, qat'iy bo'ladi. *Bog'da shaftoli, olma, balki nok ham o'sadi* gapi *Bog'da nafaqat nok, balki olma ham o'sadi* ko'rinishini olsa, avvalgi mazmunni bermaydi (Qiyoslang: *pishirib, yedi — yeb pishirdi, to'y va tomosha — tomosha va to'y).*

Ba'zi bog'lovchi faqat ochiq qatorni, ba'zilari esa faqat yopiq qatorni tashkil etadi.

Ayiruv bog'lovchilari ochiq qatorni tashkil qiladi: 1. *Biz uchun maktab yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat ishi bo'lmog'i lozim.* 2. *Bunda bor na ofat, na g'urbat, na g'am.*

Biriktiruv va zidlov bog'lovchilari yo yopiq qatorni tashkil etadi, yoki qatorni yopadi: 1) yopiq qatorni tashkil etish: *Gullar va maysalar ajib bir go'zallik baxsh etardi;* 2) qatorni yopish: *Gullar, rayhonlar va maysalar ajib bir go'zallik baxsh etardi.*

Tenglanish qatorining har ikkala turi — ochiq qator ham, yopiq qator ham bog'lovchisiz bo'lishi mumkin:

1. **Bog'lovchili ochiq qator**. Ayrim bog'lovchi tenglik munosabatiga kirishayotgan har bir so'zshakl uchun qo'llanib, qatorni bemalol davom ettirishi mumkin: *Halim ham o'qiydi, ham ishlaydi, ham davolanadi* gapida ochiq qatorni tashkil etuvchi bog'lovchi, aytilganidek, asosan, ayiruv bog'lovchilar va *ham* yuklamasi.

2. **Bog'lovchisiz ochiq qator.** Bog'lovchisiz ochiq qatorni tashkil etuvchi a'zolar o'zaro uyushtiruvchi ohang yordamida bog'lanadi:

Muhayyo, Surayyo, Dilshoda, Muqaddas,
Ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas.

2.1. Bog'lovchisiz ochiq qatorning ikki turi mavjud:

a) har xil predmet, belgi va shu kabilar nomi beriladi: *Nonsiz, tuzsiz, suvsiz uch kun qiynaldi.*

b) darajalanuvchi, ko'payuvchi, to'ldiruvchi a'zolar beriladi: *Tutab, burqsib, yonib, kuydi bechora.*

2.1.1. Yopiq bog'lovchili qator a'zolari orasida:

a) uyg'unlik (*Halim qattiqqo'l va jiddiy edi)*;
b) zidlik (*Sekin, ammo chiroyli yozadi)*
ma'nosi mavjud.

2.1.2. Bog'lovchisiz yopiq qatorda tenglanuvchi a'zolar juftlashadi: 1.*Erta-indin kelarman (erta yoki indin kelarman)*. Ba'zan ayrim vosita ham bog'lovchisiz qatorni tashkil qilishda qo'llanadi: *Senga emas, qizimga aytaman.*

Undalma

Gap undalma bilan ham kengayishi mumkin. Undalma gap tarkibidagi II shaxs kishilik olmoshi bo'lgan so'zshakl ma'nosini muayyanlashtiruvchi unsur bo'lib, u mantiqan so'z kengaytiruvchisi maqomida bo'ladi. Biroq u kengayayotgan so'z bilan bog'langanda, grammatik aloqaga ega emas. Undalma mazmunan bog'langan so'zshakl nutq yo'naltirilgan shaxs yoki narsa predmetni ifodalaydi. Undalma vazifasida, odatda, bosh kelishikdagi ot, ba'zan otlashgan so'zshakllar keladi.

Demak, undalma gap lisoniy strukturasiga bevosita daxldor bo'lmagan, gap tarkibidagi ifodalangan yoki ifodalanmagan ikkinchi shaxs olmoshining so'z kengaytiruvchisi hisoblanadi. Ajratilgan bo'lak ajralmish bo'lak bilan mazmunangina munosabatga kirishganligi kabi, undalma ham nutq yo'naltirilgan shaxs, predmet bilan mazmuniy bog'lanishga ega bo'ladi.

Undalma kengaytirgan olmosh so'zshakl gapning barcha bo'laklari, bo'lakning kengaytiruvchilari, qolaversa, bo'lak bo'laklarining kengaytiruvchilari bo'lishi mumkin:

kesim: *Do'stim, ishonganim **sensan**;*
ega: *Oybek, **sen** maktabga kechikyapsan;*
hol: *Halim, **sen tufayli** murodimga etdim;*
aniqlovchi: *Gulbadan, **sening** muhabbating dilingda pinhon;*
to'ldiruvchi: *Qarchig'ay changalim, **senga** yo'l bo'lsin.*

Undalma qo'llanganda u kengaytirgan so'z tushib qolishi ham mumkin. 1.*Ey Sharqning bo'stoni, dilimga payvand!* 2. *Kel, ey Furqat, suxanni muxtasar qil.*

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs/predmetni ifodalovchi so'zshakl gap tarkibida yo'q bo'lishi va uni tiklab ham bo'lmasligi mumkin: 1 .*Hoy qizlar, mana bo'ldi pora-pora paranji.* 2. *Yigitcha, mashina jo'nayapti.* Ammo baribir, undalma ifodalanmagan ikkinchi shaxs olmoshi mazmunining muayyanlashtiruvchisi ekanligi ma'lum bo'lib turadi.

Undalma vazifasida qo'llanadigan so'z:

ot: *Xola, bemahalda nima qilib yuribsiz?*

otlashgan so'z: 1. *Ko'rganlar, gapiring. 2. Tentagim, nima deysan? 3. Birinchi, men ikkinchi!*

Undalma kengayishi ham mumkin: 1. *Yaxshi yigit, sevganingdan ayrilma. 2. Oq ilon, oppoq ilon, oydinda yotganing qani?*

Undalma uyushishi ham mumkin. Bunda nutq turli narsalarga qaratiladi. *Daraxtlar, bo'stonlar, sizdan so'rayman.*

Undalma gapning barcha o'rinlarida kela oladi. Gap boshida kelganda uni ochadi, oxirida esa yopadi: 1. *Aziz do'stim, omonmisan?* 2. *Omonmisan, aziz do'stim.*

Undalma mustaqil gap maqomini ham olishi mumkin: *1. Opa! Sen ham odam edingmi? 2. Bola qichqirdi: «Dada!»*

Gapning kirish va kiritma kengaytiruvchilari

Kirish kengaytiruvchilar. Ma'lum bo'ladiki, gap ($\mathbf{P_m}$)i tarkibida mayl/modallik ma'nosi ham mavjud. Modallik gap kesimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslikda modallikning o'zigina gapni tashkil etadi degan qarash ham mavjud. Chunki gap ($\mathbf{P_m}$)ida mavjud va xilma-xil vosita bilan ifodalangan taxmin, gumon, shubha, ishonch, qat'iylik, shart, istak, tilak, buyruq, imkoniyat, zaruriyat, majburiylik kabi ma'no ifodalangan har qanday hukm, fikrda ustuvor qiymati bilan ajralib turadi. Shu boisdan gap tarkibida gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagan, so'z birikmasi hosil qilmagan bo'lsa-da, ($\mathbf{P_m}$) dagi mazkur ma'noga bevosita daxldor bo'lgan subyektiv modallik munosabatini ifodalaydigan atov birliklari ko'plab uchraydi: 1. *Aka, bugun ota-onalar yig'ilishiga dadam boradilarmi? — Dadam,* ***albatta,*** *boradilar, balki, onam ham borarlar.* 2. ***To'g'ri,*** *yomon odam jazosini tortishi kerak, — dedi Saida.* 3. *Bu chol,* ***qizining so'ziga qaraganda,*** *hali juda baquvvat ekan.* 4. *Siz,* ***o'ylab qarasam,*** *shu lavozimga loyiq nomzod ekansiz.*

Bunday atov birliklari va qurilmalar gap tarkibiga kirar ekan, ($\mathbf{P_m}$) tarkibidagi modal va tasdiq/inkor ma'nosini muayyanlashtiradi, ya'ni gapning kesimi bilan bog'lanadi. Shu boisdan ular *modal* yoki *kirish kengaytiruvchi* deb ataladi. Kirish kengaytiruvchilar gapning konstruktiv bo'laklari sanalmish ega va hol kabi faqat va to'g'ridan-to'g'ri gap markaziga munosabatda bo'ladi. Biroq kirish kengaytiruvchi ($\mathbf{P_m}$)ga grammatik jihatdan bog'lanmaganligi bois unga nisbatan ***konstruktiv*** sifatin qo'llab

bo'lmaydi. Biroq unga zich mazmuniy munosabatda bo'lganligini inobatga olib ularni bo'lak, gap bo'lagi, gap kengaytiruvchisi deyish mumkin. Demak, kirish kengaytiruvchi so'z va gap kengaytiruvchisi orasida «oraliq uchinchi» bo'lganligi bois ularni gapning *kōnstruktiv bo'lmagan bo'lagi* atamasi bilan nomlash mumkin. Atamaning *konstruktiv bo'lmagan* degan qismi hodisaning so'z kengaytiruvchisi sifatiga egaligini ko'rsatsa, *bo'lak* uzvi gap kengaytiruvchi sirasiga daxldorligini bildiradi.

Kirishlarning gap struktur qurilishidagi o'rnini quyidagicha berish mumkin (54-jadval):

54-jadval:

E	H	W	P_m	Kirish



Kirish kengaytiruvchi so'z, birikma va gap ko'rinishida bo'lishi mumkin: 1. *Farg'onada, **balki**, balqarsan.*(A.Orip.). 2. ***Tabibning ta'biricha,** shohning sog'ayishi uchun uch narsa zarur ekan.* (Ert.). 3. ***Men sizga aytsam,** bir kunda uch mahal shaharga qatnashning o'zi bo'lmaydi.* (S.Nur.). Shu sababli kirish kengaytiruvchi kirish so'z, kirish birikma, kirish gap kabi turga bo'lib o'rganiladi. Aslida barcha kirish kengaytiruvchisi nominativ birlik. Garchi ularning ayrim ko'rinishi gap xarakterida bo'lsa-da, ularni tom ma'nodagi gap deb bo'lmaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan, *men sizga aytsam* qurilmasi mazkur gap tarkibida shaklan gap ko'rinishida bo'lsa-da, uning zimmasiga fikr ifodalash, axborat uzatish vazifasi yuklatilmagan. Unda ($\mathbf{P_m}$) shakli mavjud bo'lsa-da, tegishli ma'nolar voqelanishi o'ta kuchsizlangan. Shu boisdan undagi ($\mathbf{P_m}$) shakllari va unga mos gap kengaytiruvchisi o'zgartirib ko'rilsa, uning kirishlik mohiyati butunlay yo'qoladi.

Kirish kengaytiruvchilarning umumiy va xos xususiyati quyidagilar:

1) kirish gap tarkibiga muayyan denotativ ma'nolari bilan kirmaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan *Men sizga aytsam* kirish gapidagi so'zlarda harakat, harakatni bajaruvchi shaxs, obyekt kabi

ma'no ifodalanmagan. Unda bir butun holda «ishontirish» modal ma'nosi mavjud;

2) kirishlar grammatik shakllanganlik nuqtayi nazaridan rang-barang. Unda tuslangan fe'l ham (*aytsam*), tuslanmagan fe'l ham (*shunday qilib*), ot ham (*chamasi*), olmosh ham (*menimcha*) kirish vazifasida keladi. Ammo ular, aytilganidek, ba'zan qisman, ba'zan butunlay o'z lug'aviy ma'nosini yo'qotib, paradigmasidan vaqtincha uzilgan bo'ladi;

3) kirish kengaytiruvchining barchasi o'ziga xos yagona «so'zlovchining o'z fikriga munosabatini bildirish» umumiy ma'nosi ostida birlashadi;

4) kirish kengaytiruvchilarning gapdagi o'rni qat'iy emas.

Bu belgilarning barchasi kirish kengaytiruvchilar o'ziga xos lug'aviy-sintaktik guruhni tashkil etishini ko'rsatadi.

Kirish kengaytiruvchi gapda quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) ta'kidlash, tinglovchining diqqatini bayon qilinayotgan fikrga tortish: *takrorlayman, muhimi, ishonsangiz, masalan, misol uchun, ta'kidlayman, aytish kerakki;*

2) subyektiv munosabat, his-tuyg'ularni ifodalash: b*axtimizga, baxtga qarshi, o'ylayman, umid qilaman, o'ylaymanki, shubhasiz, ehtimol, shu ma'noda, qaysidir ma'noda, afsuski, attang, essiz;*

3) fikrni bayon qilish usuliga munosabat: *to'g'risini aytganda, bir so'z bilan aytganda, sodda qilib aytganda, aniqrog'i, qisqasi, gapning indallosi;*

4) fikrning bog'lanishini, matn tarkibiy qismlari orasida munosabat, ichki aloqa kabilarga so'zlovchining qanday qarashini ifodalash: *demak, xulosa, sababi, shunday qilib, ko'rinadiki, ma'lum bo'ladiki, buning ustiga, odatda;*

5) aytilayotgan fikrning kimga tegishli ekanligini bildiruvchi so'z: *menimcha, fikrimcha, uning so'ziga qaraganda, aytishlaricha, xabar berishiga qaraganda;*

6) fikrning tartibini, izchilligini bildiradigan so'zlar: *birinchidan, avvalo, ikkinchidan.*

Kiritma qurilma. Kiritma qurilma gap holatida bo'lib, nutqda gapdan anglashilayotgan fikrga qo'shimcha tariqasidagi yangi fikrni bayon etish vositasi. Kiritma kirish gapdan o'zining gaplik mohiyatiga to'la egaligi (kirish gap garchi shaklan gap tarzida bo'lsa-da, ko'proq kirish so'z tabiatiga ega bo'ladi), asosiy gap bilan mazmuniy bog'liklikning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi: *Buvamga (hamma band bo'lganligi uchun) men qarashib turadigan bo'ldim.* Bu gapdagi *hamma band bo'lganligi uchun* qurilmasi

kiritma gap bo'lib, u asosiy gap bilan grammatik jihatdan bog'lanmasa-da, mazmunan undan anglashilgan voqea/hodisaning sababini bildirib, mazmunan qo'shma gapda bo'lgani kabi izohlash vazifasini o'tamoqda. Kiritma gapning nisbiy mustaqilligi gap ohangidan ham anglashilib turadi.

Kiritma gapning qo'shma gap tarkibidagi sodda gapdan farqi – uning ma'lum gapga nutq momentida tug'ilib qolgan ehtiyojga ko'ra kutilmagan tarzda birdan kiritilishi. Bu uni sof nutqiy hodisadek tasavvur qilishga olib keladi. Biroq so'zlovchi ongida kiritma qurilmalarni gapga kiritish ko'nikma va malakasi mavjud bo'lib, bu uning lisoniy hodisa tajallisi ekanligidan, lisonda uning nutqiy qo'llanish andozasi mavjudligidan dalolat beradi.

Kiritma qurilmaning o'rni ham gap tarkibida qat'iy. U asosiy fikrga qo'shimcha, ilova fikrni ifodalaganligi bois gap avvalida kela olmaydi. Chunki asosiy fikr boshlanmasdan ilova fikrni berish noo'rin. Shuningdek, kiritma, odatda, gap oxirida ham bo'lmaydi.

Kiritma gapning yana bir xususiyati uning yig'iq (kesimdangina iborat) bo'lmasligi: 1. *Yalpiz (cho'l yalpizini aytganim yo'q) oshga solinadi.* 2. *O'sha yosh bolani (u ota-onasiz qolgan edi) boyga qarol qilib berishdi.* Chunki, birinchidan, fikr qo'shimcha bo'lsa-da, u muhim, shu boisdan, odatda, uni faqat kesim bilan berishning imkoni yo'q. Ikkinchidan, kiritma bir so'z bilan berilsa, u ajratilgan bo'lakka aylanib qoladi: *Onam (o'gay) meni ko'p urishardi.* Bunday ko'rinishdagi ajratilgan bo'lak ba'zi darslik va qo'llanmada kiritma gap sifatida talqin qilinadi. Aslida *Otam (o'gay) qazo qildi* gapida *o'gay* birligi ajratilgan aniqlovchi (*Bayroq, havo rang, hilpiramoqda* gapidagi kabi).

Demak, kiritma qurilmali gap mohiyatan qo'shma gapga o'xshaydi. Biroq grammatik aloqa va intonatsion o'ziga xoslik ularni farqlovchi belgi. Misol sifatida *O'rmondan (u yerda yirtqich hayvonlar bor edi) bo'kirgan ovozlar eshitilardi* gapini olaylik. Gap mazmunini *O'rmonda yirtqich hayvonlar bor, shuning uchun u yerda bo'kirgan ovozlar eshitilardi* deya tushunish mumkin. Biroq uni *O'rmonda bo'kirgan ovozlar eshitilardi, u yerda yirtqich hayvonlar bor edi* tarzida o'zgartirilsa, gaplardagi grammatik mustaqillik kuchayib, qo'shma gaplik xususiyati susayadi, alohida sodda gaplarga intilish o'sadi.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Ifoda maqsadiga ko'ra gapning turlanishi sof nutqiy hodisa. So'zlovchi nutq jarayonida fikr ifodalash bilan birga, ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi ham. Gap so'zlovchining ko'zlagan maqsadiga ko'ra turli-tuman:

1) darak gap: *Uzoqdagi zalvorli tog'lar xayolimni keldilar bosib* (A.Orip.);

2) so'roq gap: *Sen bahorni sog'inmadingmi?* (A.Orip.);

3) buyruq gap: *Meni kutgil...* (K.Sim.).

Ammo bu turlar orasiga keskin chegara qo'yib bo'lmaydi. Bir tur ikkinchi tur vazifasini bajaraverishi mumkin. Deylik, shaklan darak gap so'roq mazmunini, so'roq gap esa darak mazmunini ifodalashi mumkin. Misollar: 1. *Onani kim sevmaydi?* (shaklan so'roq, mazmunan darak.). 2. *Dasturxonga qaramaysizmi?* (shaklan so'roq, mazmunan buyruq.). Qarzdor dehqonga boyning *«Kuz keldi»* deb qichqirgani oddiy darak emas, balki *«Qarzingni to'la!»* mazmunidagi buyruq gapdir. (A.G'ul.).

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gapda ifoda maqsadi o'ziga xos. Ergash gapli qo'shma gapda ifoda maqsadi bosh gapniki bilan bir butun holda bitta bo'ladi. Teng munosabatli qo'shma gapda esa oldin turgan gap, odatda, darak tabiatiga ega bo'ladi.

Darak gap. Darak gap xabar berish, biror hodisa yoki dalilni tasdiqlash xususiyatiga ega bo'ladi: 1. *Umrim bo'yi seni kutarman.* 2. *Sarvi gulro' kelmadi.*

Darak gap kesimlikdagi mayl ma'nosiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

1) aniq xabar: *Bola keldi*;

2) taxmin: *Ertaga majlis bo'lar*;

3) istak: *bugun bozorga chiqsam.*

Bu qatorni yana davom ettirish mumkin.

Darak gap istakni ifodalaganda, so'zlovchining taxmin-tilagi haqida xabar beradi. Istak qat'iylashsa, u buyruq gapga aylanib ketadi. Bu bilan darak va buyruq gap bir-biriga yaqinlashadi: *Sen borsang — Sen bor.*

Darak gapda so'z tartibi, odatda, buzilmagan, gap esa darak intonatsiyasiga ega bo'ladi. Shuningdek, darak gapning kesimi ham o'ziga xos. U so'roq yuklamasidan xoli va aniqlik mayli shaklida bo'ladi.

Atov gap va so'z-gap ham darak tabiatiga ega bo'ladi: 1. *Qish.* 2. *Ha.* 3. *Rahmat.*

Co'roq gap. So'roq gapda so'roq ma'nosiga boshqa ma'no ham qorishgan holda bo'lishi mumkin:

1) so'roqning o'zi: *Halim keldimi?*
2) so'roq-hayrat: *Halim keldimi?*
3) so'roq-taajjub: *Yozda ham shunday yomg'ir yog'adimi?*
4) so'roq-mamnunlik: *Halim tugatdimi-a?*
5) so'roq-gumon: *Olib chiqarmikin?*
6) so'roq-taxmin: *Sen Olim emasmisan?*
7) so'roq-darak: *Tugatdimi? (Ko'rdingmi, tugatdi* ma'nosida.)
8) so'roq-buyruq: *Tezroq jo'namaysizmi?*

So'roq gap kutilayotgan javobga munosabatiga ko'ra uch xil:

1) sof so'roq gaplar javob talab qiladi: *Bugun qayerga borasan?*

2) ritorik so'roq gap javob talab qilmaydi va mohiyatan darak, shaklan so'roq gap hisoblanadi: *Onani sevmaydigan odam odammi?*

3) so'roq-buyruq gap so'roq yo'li bilan buyurish ma'nosini ifodalaydi: *Tezroq kelmaysizmi?*

So'roq gap mazmun hajmiga ko'ra ikki xil:

1) umumiy so'roq. Bunda narsa yoki hodisa to'laligicha aniqlanadi: *Bu nima? Bu kitobmi?* Bunda javob kesimga tegishli bo'ladi.

2) xususiy so'roq. Bunda narsa yoki hodisaning bir tomoni aniqlanadi: *Bu qanday kitob? Kitobning varag'i qancha? Sen qayerdan kelding?* Bunda javob so'roq olmoshi bilan ifodalangan kesimdan boshqa har qanday bo'lak bo'ladi.

So'roq gapda so'roq ma'nosi quyidagi vositalarga tayanadi:

1) so'roq yuklamalari;
2) so'roq olmoshlari;
3) so'roq ohangi.

Buyruq gap. Buyruq gap tinglovchini biror predmetga biror ishni bajarishga undash, buyurish, qistash ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday ma'noviy ko'rinish turli-tumandir. Shunga ko'ra, buyruq gap o'z ichida har xil ko'rinishga ega bo'ladi.

1) sof buyruq: *Tez bor!*
2) buyruq-qistash: *Borsang-chi!*
3) buyruq-iltimos: *Menga ham bering.*
4) buyruq-maslahat: *Yaxshisi, uyda qola qol.*
5) buyruq-tilak: *Yashasin tinchlik.*
6) buyruq-chaqiriq: *Olg'a!*

Buyruq gapning bu turlari ohang jihatidan farqlanib turadi.

Buyruq gapning kesimi, odatda, buyruq maylining ikkinchi shaxs, ba'zan uchinchi shaxs shaklidagi fe'ldan bo'ladi: *Bor! Chekilmasin!* Kesim birinchi shaxs buyruq maylidagi fe'ldan bo'lganda, gap ohangidagi qat'iylik uni buyruq gapga aylantiradi: *Nomus uchun kurashaylik!*

Ba'zi hollarda aniqlik maylidagi yaqin o'tgan zamon fe'li ham buyruqni ifodalashi mumkin: *Qani, jo'nadik!*

Buyruq gap ko'pincha undalmali va undovli bo'ladi: 1. *Hoy, tezroq yuringlar.* 2. *Bozor, bu yoqqa kel!*

Gapda so'z tartibi. Aktual bo'linish

Nutq individual tabiatga ega bo'lganligi bois, gapda ishtirok etayotgan so'zlar tartibi ham erkin. Biroq bu «erkinlik» hech qachon umumiy lisoniy qonuniyat doirasidan tashqarida bo'lmaydi. So'zlovchining maqsadi, uslub talabi asosida so'zlar umumiy tartibga ega bo'ladi.

Har qanday nutqiy gap, o'zida ma'lum voqelikni ifodalash bilan birga, so'zlovchining axborot maqsadini ham namoyon qiladi. Masalan, *Jamshid maktabga ketdi* gapida, Jamshidning maktabga ketishi voqeligi qayd qilinishi bilan birga, so'zlovchining tinglovchiga Jamshidning qayerga ketganligi haqidagi ma'lumotni yetkazish niyati ham o'z aksini topgan. Shu boisdan gap *Jamshid qayerga ketdi?* so'rog'iga javob bo'ladi. Demak, ushbu gapdagi voqelik Jamshidning qayerga ketganligi emas, balki kimning qayerga ketganligi, so'zlovchining axborot maqsadi esa Jamshidning qayerga ketganligi haqidagi ma'lumotni tinglovchiga yetkazish. Gapni *Maktabga Jamshid ketdi* shaklida o'zgartirsak, voqelik oldingi gapdagi bilan bir xil, biroq so'zlovchining axborot maqsadi *Maktabga kim ketdi?* so'rog'i orqali muayyanlashadi. Birinchi gapda harakatning yo'nalishi, ikkinchi gapda harakatning bajaruvchisi – axborot mo'ljali. Gapning axborot vazifasi nuqtayi nazaridan tuzilishi ***aktual tuzilish*** deyiladi. Aktual tuzilmaning tarkibiy qismlari aktual bo'lak deyiladi.

Aktual vazifa nuqtayi nazaridan gapni tashkil etuvchi unsurlar tema (ma'lum) va rema (yangi) qismlarga bo'linadi. Gapning rema qismi kommunikativ (axborot) nuqtayi nazardan ahamiyatli bo'ladi. Savol ana shu remani aniqlash uchun beriladi. Gapning tema qismi ma'lum bo'lganligi so'roq gapda aynan takrorlanadi. Yuqoridagi gaplarda tema-rematik (aktual) bo'linish quyidagicha (55-jadval):

55-jadval

Tema	Rema
Halim	*maktabga ketdi*
Maktabga	*Halim ketdi*

Gapning aktual bo'linishi mantiqiy birlik bo'lgan hukmning bo'laklanishi (subyekt va predikatga bo'linish) ga o'xshaydi. Shu boisdan ayrim tilshunoslar aktual bo'linishni *mantiqiy-grammatik bo'linish* deb ham nomlaydi.

Aktual bo'linish – sof nutqiy hodisa. Lekin aktuallashish lisoniy strukturadan mutlaqo uzilgan deyish noto'g'ri. Har qanday hodisa muayyan mohiyatning namoyandasi bo'lganligi kabi aktuallashish ham konstruktiv-sintaktik sathdan butunlay uzilmagan. Aktuallashishda gapning lisoniy strukturasi unsurlari bo'lgan kesim, ega, hol o'rinlari to'ldiruvchilari yoki bu to'ldiruvchilar kengaytiruvchilarining kommunikativ ahamiyati aktual bo'linishni keltirib chiqaradi. Shu boisdan aktuallashishning lisoniy asosi konstruktiv-sintaktik lisoniy sath, aktuallashish jarayoni esa kommunikativ-sintaktik sath deb yuritiladi.

Aktual bo'linish talabi bilan gapda so'z tartibi har xil bo'ladi.

Gapning konstruktiv va nokonstruktiv bo'laklari turlicha joylashadi. Buning sintaktik qurilishga daxli yo'q. Tartib o'zgarishi bilan gap sintaktik qurilishiga putur etmaydi. Gapda so'z tartibi aktual bo'linish bilan chambarchas bog'liq.

Gapdagi so'zlar o'zlarining tema yoki remaga kirishiga ko'ra joylashadi.

Axborotning tinglovchiga ma'lum parchalarini ifodalovchi so'zlar gap boshida keladi.

Tema (ma'lum) haqida axborot beradi, rema esa gap oxirida, temadan so'ng keladi. Bu izchillikning buzilishi yo uslubiy bo'yoqdorlik uchun xizmat qiladi, yoki mantiqiy buzilishni keltirib chiqaradi.

Agar ega guruhi tema, kesim guruhi rema bo'lsa, aktual bo'linish sintaktik bo'linish bilan muvofiq keladi: *O'quvchilar shodlanishdi* (ega-kesim, tema-rema).

Quyidagi gaplarning tema-rematik bo'linishini qiyoslang (56-jadval):

56-jadval

Tema	Rema
Fermerlar	*bu yil paxtadan mo'l hosil oldilar*
Bu yil	*fermerlar paxtadan mo'l hosil oldilar*
Paxtadan	*fermerlar bu yil mo'l hosil oldilar*

Birinchi jumlada tema gapning egasi bilan muvofiq keladi. Keyingi gaplarda aktual va sintaktik bo'linish nomuvofiqligi yuz bergan. Demak, ma'lum bo'ladiki, gapdagi so'zlar o'rni o'zgargani bilan sintaktik strukturada o'zgarish yuz bermaydi. Aktual bo'linishda esa u muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Aktuallashtiruvchilar qatorida, tartibdan tashqari, boshqa vositalar ham bo'lishi mumkin. Ular ustuvor qiymat kasb etganda, tartibning roli susayadi. Muhim aktuallashtiruvchilar qatoriga fonetik, leksik va grammatik aktuallashtiruvchilarni kiritish mumkin:

1) **prosodik aktuallashtiruvchi vosita.** Bunday aktuallashtiruvchi vosita sirasiga mantiqiy urg'u va u bilan bog'liq bo'lgan nutq tempi hamda pauza kiradi.

Gapda nechta mustaqil so'z bo'lsa, shuncha miqdorda so'z urg'usi bo'ladi. Biroq gap qanchalik darajada yoyiq yoki yig'iq bo'lishidan qat'i nazar, unda mantiqiy urg'u bitta bo'ladi. Qaysi so'z mantiqiy urg'u olsa, shu so'z rema, gapning qolgan qismi esa tema hisoblanadi. Faqat ega va kesimdan iborat gaplarda qaysi bo'lak mantiqiy urg'u olsa, u rema maqomini oladi: 1. *Guli **keldi**: Guli* – tema, *keldi* – rema. *2. **Guli** keldi: Guli* – rema, *keldi* – tema.

Emfatik emotsional urg'u. Emfatik urg'u ham gapdagi ma'lum bir so'zni ajratib ko'rsatadi. Bu bilan u mantiqiy urg'uga o'xshab ketadi. Biroq, mantiqiy urg'udan farqli o'laroq, emfatik urg'uda hissiylik kuchli bo'ladi. O'zbek tilida emfatik urg'u ostidagi so'z tarkibidagi unli yoki undosh cho'ziladi. Masalan: *Havo **t-o-za** ekan. **Ch-i-royli** qiz keldi.* So'zlarni takrorlash natijasida ham emfatiklik ifodalanadi: ***Men** borsam, **men**.*

Mantiqiy va emfatik urg'u ostidagi so'zda pauza ham ko'maklashuvchi vosita sifatida qatnashadi. Urg'uni olgan so'zdan oldin ko'p holda pauza paydo bo'ladi.

2) **leksik va grammatik aktuallashtiruvchi vosita.** Ma'lum bir so'zning aktuallashishida o'zbek tilidagi turli lug'aviy va grammatik shakl ham ishtirok etadi. Bu vositalar mantiqiy urg'uli so'z bilan

kelib, yordamchi aktuallashtiruvchi vosita hisoblanadi. Bularga *faqat, yolg'iz, hatto, o'zi* so'zlari va [*-gina*], [*-oq*] , [*-yoq*] qo'shimchasi kiradi:

1) ***Hatto** Javohir o'qidi.*
2) *Sarvar **ham** keldi.*
3) *Asliddin **ham** o'qidi, **ham** yozdi.*
4) *Men **o'zim** aytaman.*
5) *Sherzodning o'z**igina** tushunadi.*

Bu lug'aviy-grammatik vosita bilan kelgan bo'lak mantiqiy urg'u olib aktuallashadi – remaga aylanadi.

Kommunikativ bo'linmas gap. Har qanday gap ham tema-rematik bo'linishga ega bo'lavermaydi. Shunday ko'rinishdagi gaplar ham borki, ularni kommunikativ bo'linmas gap deyish mumkin. Bunday gaplarda tema (ma'lum axborot) bo'lmaydi. Gap butunicha remadangina iborat bo'ladi. Bunday gaplarning axborot vazifasi biror voqea-hodisaning mavjudligi yoki vujudga kelganligini ifodalashdan iborat bo'ladi: 1. *Bugun stadionga boriladi.* 2. *Bahor.* 3. *Issiq boshlandi.* 4. *Tez tong otdi.* 5. *Rahmat.* Kommunikativ yaxlitlik gaplarning ko'proq bir tarkibliligi bilan aloqador bo'ladi. Ikki tarkibli fe'l kesimli gaplarda bu gap semantikasi bilan bog'langan bo'ladi: 1. *Tong otdi.* 2. *Shom tushdi.* Bunday gaplarning semantik strukturasi deyarli bir tarkibli gaplarga yaqinlashib qoladi.

Nutqiy gapning emotsionallikka ko'ra turi

Nutqiy gap emotsionallikka munosabat nuqtayi nazaridan ikkiga bo'linadi:

1) his- hayajonli gap;
2) his- hayajonsiz gap.

Gap, ifoda maqsadidan qat'i nazar, his-hayajonli yoki his-hayajonsiz bo'ladi. Qiyoslang: 1. *Men keltiraman* – ifoda maqsadiga ko'ra darak gap, emotsionallikka ko'ra his-hayajonsiz gap. 2. *Men keltiraman!* – ifoda maqsadiga ko'ra darak gap, emotsionallikka ko'ra his-hayajon gap.

His-hayajonli gapda, fikr bilan birgalikda, so'zlovchining kuchli his-tuyg'ulari ham namoyon bo'ladi. Demak, darak, so'roq, buyruq gapga maxsus ohang berilishi natijasida his-hayajonsiz gap his-hayajonli gaplarga aylanadi: 1. *Futbol boshlandi! 2. Otam keldimi?! 3. Hayda!* Darak gap, ko'pincha, his-hayajonsiz, buyruq gaplar esa his-hayajonli bo'ladi.

His-hayajonli gap his-hayajon darajasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) fikrni his-hayajon bilan ifodalovchi gap: *Futbol boshlandi! Men keltiraman!*

2) so'zlovchining emotsional tuyg'usini ifodalovchi gap: *Oh! To'y muborak! Ura!*

His-hayajon gapning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik belgisi bor:

1) maxsus ohangga egalik;

2) gap tarkibida his-hayajon ifodalovchi so'zlarning bo'lishi: *eh, oh, naqadar, qaniydi va hokazo;*

3) gap bo'laklari tartibining o'zgarishi: *Oltin bu vodiylar, jon O'zbekiston!;*

4) emfatik urg'u olgan so'zni takrorlash: *Sizdan so'radim, sizdan;*

5) his-hayajon gap ko'pincha bir tarkibli bo'ladi: *Ura! Dunay! Dunay!*

UYUSHGAN GAP

O'zbek tilshunosligida uyushish hodisasi bilan bog'liq uchta hodisa mavjud:

1) gapda uyushgan so'zlar (Bu haqda yuqorida aytildi);

2) qo'shma gapdagi uyushiq gaplar (Bu haqda quyida — «Qo'shma gap» bahsida so'z yuritiladi);

3) uyushgan gaplar.

Uyushiqlik umumiy holat bo'lib, sodda gapga ham, qo'shma gapga ham xos. Sodda gapda so'zlar uyushib kelsa, qo'shma gapda so'z, sodda gap uyushib keladi.

Aytilganidek, uyushiqlik kamida ikki birlik (unsur)dan iborat bo'ladi:

1) uyushtiruvchi unsur;

2) uyushuvchi unsur.

Bu ikki unsur barcha uyushish hodisasida mavjud.

Xo'sh, uyushgan gap nima va u uyushiq gapdan nimasi bilan farqlanadi?

Ma'lumki, har qanday gap grammatik yoki semantik-funksional shakllangan bo'lishi lozim. Shu bois u kesimga ega bo'lib, bu kesim **[WP_m]** (kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi) yoki **[WP]** (semantik-funksional shakllangan gap) tarzida bo'lishi lozim. **[WP_m]** sodda gapda bitta, qo'shma gapda esa birdan ortiq bo'ladi.

Quyidagi gaplarni qiyoslaylik:

1. *Ukang rasm chizar edi.* Bu gapning lisoniy qolipi quyidagicha:



2. *Ukam rasm chizar edi va singlim televizor ko'rar edi* gapining qolipi esa quyidagicha:



Ko'rinadiki, birinchi gapda **[WP_m]** va uning kengaytiruvchilari majmui bitta, ikkinchi gapda ikkita va ular o'zaro teng bog'lovchi yordamida bog'langan. Endi uchinchi gapga diqqat qilaylik: *3. Ukam rasm chizar va singlim televizor ko'rar edi.* Bu oldingi gapimizdagi kesimlarning **[W]** qismlari o'zgarmasdan saqlanganligi va **[P_m]** qismi bittaga qisqarganligi bilan undan farqlanadi. Demak, gapda **(W)** lar ikkita va **[P_m]** bitta bo'lib, u ikkita **(W)** uchun ham umumiydir. Shu boisdan uni qavsdan tashqariga chiqarish mumkin. Bu gapning qolipi quyidagicha:



Ko'rinadiki, bitta umumiy **(P_m)**ga ega bo'lgan birdan ortiq **(W)**dan tashkil topgan gap ham tilimizda mavjud. Bunday gap *uyushgan gap* deyiladi.

Yo'l-yo'lakay shuni aytib o'tish kerakki, uyushgan gaplar uyushiq qismli qo'shma gaplardan farqlanadi. Buning uchun quyidagilarni qiyoslaymiz: 1. *Bahor kelsa, bog'lar yashnasa, sayilga chiqamiz.* Gapning qolipi: **[E_1-W_1P_m** (-sa) **E_2-W_2P_m** (-sa), **W_3-P_m]**. 2. *Bahor kelsa, bog'lar yashnaydi va sayilga chiqamiz.* Qolipi: **[(E_1 - WP_{m1}) ((E_2 - W_2P_m) va ⟶ (W_3P_m))]**. Bu ikkala gap uyushiq qismli qo'shma gap. Birinchi gapda ergash gap (*Bahor kelsa, bog'lar yashnasa*) uyushib, bosh gapga tobelanib kelgan. Ikkinchi gapda esa bosh (*bog'lar yashnaydi va sayilga chiqamiz*) uyushib kelgan va ergash gap (*bahor kelsa*) ularga bab-baravar tegishli. Bular uyushiq gapdir.

Ma'lum bo'ladiki, uyushiq gap qo'shma gaplar tarkibida bo'ladi. Uyushgan gap esa o'zbek tilida sodda va qo'shma gaplar orasidagi alohida sintaktik qurilmadir. U kesimdagi (W)si birdan ortiqligi bilan qo'shma gapga, (P_m)ning bittaligi bilan esa sodda gapga yaqinlashadi. Shuning uchun ham u o'z mavqei bilan «oraliq uchinchi»dir, ya'ni codda va qo'shma gaplar orasidagi hodisadir.

Sodda va qo'shma gapni belgilashda asosiy omil gapda nechta shakllangan kesimning mavjudligi. Eganing bor-yo'qligi, ifodalangan-ifodalanmaganligi ahamiyatsiz. Uyushgan gapni belgilashda esa bosh omil ikkita:

1) bitta shakllangan kesimning mavjudligi;
2) birdan ortiq uyushgan eganing mavjudligi.

Bu xususiyati bilan uyushgan gap egali sodda gapdan ham (*Jahongir, Jamshid, Isroil o'qidi*), uyushiq kesimli sodda gapdan ham (egasi yo'q yoki bor bo'lsa, bitta, kesimning lug'aviy qismi birdan ortiq, (P_m) qismi bitta – (*Ular borgan va ko'rgan edilar,* qolipi **[W_1-W_2] P_m]**) farqlanadi.

Nazariy talqinda uyushiq kesimli sodda gapda, demak, ega bitta, (P_m) qismlari umumiy bo'lgan kesim birdan ortiq bo'ladi. Aytilganlar asosida sodda gap, uyushiq kesimli sodda gap, qo'shma gap, uyushiq kesimli qo'shma gap va uyushgan gapning eng kichik struktur sxemasini beramiz: (Qulaylik uchun eng kichik qurilish qoliplarini berish ma'qul. Chunki, **[WP_m]**da ular (W va P_m)ning kengaytiruvchilari ham mujassamlangan.

1) sodda gap: **[WP_m];**
2) uyushiq kesimli sodda gap: **[(W_1 -W_2)P_m]**;
3) qo'shma gap: **[WP_m -WP_m]**;
4) uyushgan qismli qo'shma gap: **[([WP_m]-[WP_m])-[WP_m]]** yoki **[(WP_m] - ([WP_m]-[WP_m])]**;
5) uyushgan gap: **[((E_1-W_2)-(E_2-W_2)) P_m]**.

Uyushgan gapga misol: 1. *Otam rais, onam brigadir bo'lgan edi.* 2. *Do'kondorlarning ba'zilari kitob o'qib, ba'zilari tasbeh o'girib, ba'zilari esnab o'tirishardi.* 3. *Uning qo'llari ishda, ko'zi shudgorda, ammo xayoli Zebixonda edi.* 4. *Chakkasi tirishib, ko'zi qizarib ketdi.*

Uyushgan gapdagi umumiy bo'lak **[P_m]**ni har bir shakllanmagan [W]ga alohida-alohida qo'shish bilan osongina qo'shma gap hosil qilish mumkin: Qiyoslang: 1.*Chakkasi tirishib, ko'zi qizarib ketdi* – uyushgan gap. *Chakkasi tirishib ketdi va ko'zi qizarib ketdi* – qo'shma gap.

Ayrim holda uyushgan gapda ham (P_m) nol shaklda bo'lishi mumkin: *U baroqqosh, ko'zi chaqchaygan, afti ishshaygan.* Gap

mazmunidan nol shakl oxirgi so'zda ekanligi sezilib turibdi. Bunga gapni o'tgan zamonga aylantirish bilan amin bo'lish mumkin: *U baroqqosh, ko'zi chaqchaygan, afti burishgan edi.*

Uyushgan gaplar tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro umumiyligi (va, shu asosda, umumlashtiruvchi bo'lagi) turli xil bo'ladi:

1) hamma qismlari xususiy (farqli) bo'lib, faqat ($\mathbf{P_m}$) qismi umumiy bo'lgan uyushgan gap: *Jamshid yozar, Isroil o'qir edi;*

2) hamma qismlari xususiy bo'lib, faqat kesimning lug'aviy qismi va kesimlik qo'shimchasi umumiy bo'lgan uyushgan gap: *Jamshid tez, Isroil sekin yozar edi;*

3) **[$\mathbf{WP_m}$]** va uning kengaytiruvchi bo'laklari umumiy bo'lib, faqat ega va **[$\mathbf{WP_m}$]** kengaytiruvchisining kengaytiruvchisi bilan farqlanuvchi uyushgan gap: *Jamshid oq, Isroil qizil gul oldi.*

($\mathbf{P_m}$) uyushtiruvchisi vosita sifatida: 1. *Kun qaytgan va bahor kunlarining uchdan ikki qismi o'tgan edi.* (S.Ahm.). 2. *Erta yog'ib o'tgan yomg'ir chang va g'uborni yuvib ketgan, daraxtlarning yaproqlari tiniq va toza edi.* 3. *Paxta dalalarida endi salqin kuchaygan, tungi yellar esar... edi.* (Oyb.). 4. *Siddiqjon o'ziga bundoq savol bermas va bundoq savol xayoliga ham kelmas edi.* (A.Qah.). 5. *Sayyora birinchi, ukam ikkinchi ekan. («*Tong yuld.*»).* 6. *Ahmad tikuvchi, Halim bog'da qorovul emishmi?* 7. *Alpomishu Rustamlar sizga yor, Ravshanbek va Avazxonlar madadkor bo'lsin.* 8. *Doklad ishning borishi, munozara esa butunlay boshqa masala haqida.*

($\mathbf{WP_m}$) uyushtiruvchi vosita sifatida: 1. *Yaxshi topib, yomon qopib so'zlar.* (Maq.). 2. *Onasi o'qisin, opasi ishlasin dedi.* (M.Ism.). 3. *Savr oyining bulutlari havoda o'kirib, sellar quyib o'tdi. (*Oyb.*).* 4. *Jamshid bittalab, Jahongir juftlab sanay boshladi.* 5. *Nilufar kitob, Feruza jurnal o'qib o'tirardi.* 6. *Mehnatdan do'st, g'iybatdan dushman ortar.* 7. *Qiziq, Irodani Akbar, Akbarjonni Gulchehra sevadi.* 8. *Seni endi Azroil ham uradi, shayton ham.* 9. *Uning kelganini na Qurbon ota payqadi, na Siddiqjon (*A.Qah.).

(W) yoki (Pm) kengaytiruvchisi bilan farqlanuvchi uyushgan gap: 1. *Erta yog'ib o'tgan yomg'ir chang va yomg'irni yuvib ketgan, daraxtlarning yaproqlari tiniq va toza edi.* 2. *Uyg'onganda suyaklari zirqirar, u o'zini lanj tuyardi.* 3. *Ahmoq horiganini bilmas, ko'sa qariganini.* 4. *Ahmoq qizini maqtar, tentak o'zini (*Maq.) 5. *Baland simyog'ochlardagi lampochkalar nuri ham tarvaqaylab ketgan, soyasi hovliga tushib turar edi.* (S.Zun.). *6. Yaxshidan ot qoladi, yomondan*

dod. (Maq.). 7. *Saodatxon jim qolgan, ko'nglida g'azab yonar edi.*(«Sharq yuld»). *8. Birniki mingga, mingniki tumanga. (*Maq.).

Ko'rinadiki, uyushgan gapni hosil qilishda uyushtiruvchi vosita muhim mavqega ega. Umumlashtirgan holda uyushgan gap kesimi quyidagi xossalarga ega bo'ladi:

1. Hamma kesimlar bir xil shaklda bo'ladi:

a) **(...[W_1] + - gan, ... [W_2] + - gan) edi;**

b) **(...[W_1] + -ganday, ... [W_2] + - ganday) emish.**

2. Kesimdagi (W) ning grammatik shakli har xil bo'ladi:

a) **{...[W_1] + - gan, ... [W_2] + - (a)r-) P_m};**

b) **{... [W_1] + -(i)b, ... [W_2]+ - mas) P_m}.**

3. Kesimdagi (W) ham, **(P_m)** ham bir xil, ularning kengaytiruvchisi har xil bo'ladi:

[.. [W_1]+ - gan .. [W_2] + -gan] P_m



T A kabi.

QO'SHMA GAP

Qo'shma gap sodda gap bilan mustahkam bog'langan, biroq undan ham struktur, ham uzatilayotgan axborot miqdori va sifati nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilma. Shu bois qo'shma gapning umumiy lisoniy mohiyati uning sodda gap bilan o'zaro munosabatida ochiladi. Lisoniy struktura jihatidan qo'shma gapning sodda gapdan farqi ma'lum darajada ravshan. Aniqrog'i, sodda gapda shakllangan kesim bitta bo'lsa, qo'shma gapda u birdan ortiq bo'ladi va birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi. Misollar: 1. *Men sizni bilaman, siz bunday qilmaysiz.* (Oyb.*).* 2. *Nima qilasan, qishloqqa qaytasanmi?* (Oyb*).* 3. *Dunyoda nima ko'p — kulgu ko'p.* (Oyb.*).* 4. *Bilamanki, sodda barmoqlaring tilla uzuk taqmagan.* (Uyg'.). 5. *Majlisda ko'riladigan masalalarning muhim tomoni shundaki, unda cho'l yerlarni suvga serob qilish masalasi muhokama qilinadi.*

Ko'rinadiki, 1-gapda *bilaman* va *qilmaysiz*, 2-gapda *qilasan* va *qaytasanmi*, 3-gapda *ko'p* va *ko'p*, 4-gapda *bilaman* va *taqmagan*, 5-gapda *shundaki* va *muhokama qilinadi* kabi har bir gapdagi birdan ortiq kesim sintaktik qurilmaning qo'shma gapligini ta'minlovchi

muhim asoslardan biri. Kesimlarning birdan ortiqligidan tashqari, har bir qo'shma gapda ifodalanayotgan birdan ortiq fikr, axborotning o'zaro zich munosabati, gaplararo grammatik taqozo etuvchilik hamda intonatsion yaxlitlik kabilar ham bu sintaktik qurilmalarning qo'shma gapligini ta'minlaydi.

Kommunikativ nuqtayi nazardan sodda gap bir fikrni, axborotni uzatish vazifasini bajarsa, qo'shma gapda birdan ortiq hukm o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shuningdek, bu alohida axborotlar asosidagi munosabat ham qo'shma gapda qaysidir darajada bo'rtib turadi. Masalan: *Jahongir keldi. Men shu ondayoq jo'nadim* gaplarida ifodalangan fikrlar bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lib, gaplarning biri ikkinchisini taqozo etadi. Bu jihatdan ular *Jahongir keldi va men shu ondayoq ketdim* gapidan ajralib turadi.

Demak, qo'shma gap grammatik shakllangan va birdan ortiq axborotni tashish uchun mo'ljallangan nisbiy mustaqil sodda gapning grammatik, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatdan yaxlitlangan butunligidir.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gap alohida olingan sodda gapdan nisbatan mustaqil emasligi bilan ajralib turadi. Avvalo, bu — grammatik va intonatsion nomustaqillik. *Bahor keldi, shuning uchun dala ishlari qizib ketdi* qurilmasiga ergash gapli qo'shma gap tusini bergan jihat mazmuniy va grammatik taqozo etish va birdan ortiq axborot mavjudligi. Birinchi gapdagi mazmun ikkinchi gapdagi mazmun uchun sabab maqomida. Biroq bunday mazmuniy zich bog'lanishsiz ham qo'shma gap hosil bo'lishi mumkin. *Osmonda turnalarning «qurey-qurey»i eshitilardi, uzoqlardan cho'ponlarning hay-haylagani quloqqa chalinardi.* Ikkinchidan, *shuning uchun* bog'lovchisi qo'shma gap a'zolarini grammatik jihatdan zich munosabatga kiritgan (Biroq bu bog'lovchisiz ham qo'shma gap hosil qilish mumkin: *Bahor keldi, dala ishlari qizib ketdi.*) Ammo sodda gaplar orasidagi intonatsion uzilish qo'shma gapni sodda gapga parchalab yuborishi mumkin: *Bahor keldi, shuning uchun dala ishlari qizib ketdi — Bahor keldi. Shuning uchun dala ishlari qizib ketdi.*

Demak, ma'lum bo'ladiki, qo'shma gap tarkibidagi sodda gapning o'zaro zichlashuvi mazmun, grammatik shakl va intonatsiya nuqtayi nazaridan bo'ladi. Ammo bu omillar darajali ziddiyatda turadi:

intonatsiya — grammatik shakl — mazmun

Chunki mazmuniy bog'liqlik va grammatik shakl mavjud bo'lsa ham, birlashtiruvchi intonatsiya bo'lmasa, ayrim gaplar qo'shma

gapni tashkil eta olmaydi. Ammo mazmuniy bog'liqlik va grammatik aloqa bo'lmasa ham, intonatsiya asosida qo'shma gap hosil qilish mumkin (bog'lovchisiz qo'shma gap). Sodda gaplar asosida ajratuvchi pauza bo'lganda, qo'shma gapning yaxlitligiga putur etadi. Masalan, *Men sen bilan bormoqchi edim. Biroq sen qarshilik qilmasliging kerak.* Gaplar orasida qo'shma gapning barcha belgilari mavjud. Birgina birlashtiruvchi ohangning yo'qligi sodda gaplarning mustaqil bo'lishiga olib kelgan.

Qo'shma gapni uyushiq kesimli sodda gapdan, sodda va qo'shma gap orasidagi uyushgan gapdan farqlash lozim. Uyushiq kesimli sodda gap egasi bitta, bitta umumiy ($\mathbf{P_m}$)ga ega bo'lgan birdan ortiq kesimdan tashkil topgan gap. Misollar: 1. *Jamshid o'qir, yozar va chizar edi.* 2. *Do'kondorlar do'konlarini ochib, mudrab o'tirishardi.* 3. *Qushlar tinimsiz chug'urlashar va charx urishar edi.* Uyushgan gap esa, aytilganidek, birdan ortiq egaga, shuningdek, bitta umumiy ($\mathbf{P_m}$)li birdan ortiq kesimga ega bo'lgan gap. Misollar: 1. *Bahor kelar, dala ishlari qizib ketar edi.* 2. *Jamshid o'qir, Jahongir yozar, Isroil esa chizar edi.* 3. *Do'kondorlar savdoga chorlab, attorlar esa mollarini maqtab o'tirishardi.*

Qo'shma gap esa har biri o'z ($\mathbf{P_m}$)ga ega bo'lgan birdan ortiq kesimdan tashkil topadi: 1. *Jamshid o'qirdi, Jahongir yozardi, Isroil esa chizardi.*

Substansial yondashuvda bir egali, lekin birdan ortiq kesimli gap ham qo'shma gap sifatida qaraladi. Chunki har bir kesimda shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modallik (kesimlik) ma'nolari birdan ortiq ifodalanadi. Bu esa semantik nuqtayi nazardan ularning har birida alohida axborot mavjudligidan dalolat beradi.

Qo'shma gap tarkibiga kiruvchi sodda gap orasida teng yoki tobe sintaktik aloqa mavjud bo'ladi. Agar u teng bog'lovchi yordamida amalga oshirilgan bo'lsa, tenglanish deyiladi: 1. *O'g'lim keldi va to'yni boshlab yubordik.* 2. *Bahor keldi va dala ishlari qizib ketdi.* To'g'ri, bu gaplar orasida sabab-oqibat aloqasi mavjud va ularni mazmunan tobe-hokim gaplarga kiritish mumkin. Biroq gaplarda mazmunan tobelik, shaklan tenglik mavjud bo'lganda, formal yondashuv gaplarni teng munosabatli qo'shma gap sifatida qaraydi. Shu boisdan bog'lovchili qo'shma gap bog'lovchining tabiatiga ko'ra, bog'langan qo'shma gap va ergash gapli qo'shma gapga ajraladi.

Sodda gapdagi tenglanish va tobelanish qo'shma gaplardagi tenglashish va tobelanishdan farq qiladi. Bu quyidagilarda qo'rinadi:

1) sodda gapda teng va tobe aloqa turli qurilmalarni vujudga keltiradi. Aniqrog'i, teng aloqa uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'laydi: 1. *Yashil o'rmonlar va qorli tog'lardan o'tdik.* 2. *Javohir o'qir va yozar edi.* So'z birikmalarini faqat tobe aloqa vujudga keltiradi: *kitobning varag'i, kitobni o'qimoq* kabi. Qo'shma gapda esa teng va tobe aloqa bitta lisoniy birlik — qo'shma gapning turli ko'rinishi uchun xizmat qiladi.

Tobe va teng bog'lovchi vosita bir xil semantik munosabatni ifoda etishi mumkin. Faqat ularda ushbu ma'no kuchli yoki kuchsizligi bilan farqlanadi: *Bahor keldi va dala ishlari qizib ketdi — Bahor keldi, shuning uchun dala ishlari qizib ketdi.* Har ikkala qo'shma gap a'zolari orasida ham sabab-oqibat munosabati mavjud. Gaplarning ikkinchisida u kuchli, birinchisida kuchsiz. Gaplarning propozitsiyasida bu munosabat bir xil, faqat *va* bog'lovchisi buni kuchsiz, *shuning uchun* bog'lovchisi kuchli namoyon qilgan;

2) sodda gapdagi teng bog'lanish qo'shma gapdagi teng bog'lanishga nisbatan mustaqil. Chunki sodda gapda teng bog'lanish uyushuvlik bilan «yo'ldosh». U sodda gapni kengaytirish vazifasini bajarsa, qo'shma gapda tarkibiy qismlarni bir yaxlitlikka birlashtirish vazifasini bajaradi;

3) tenglanish va tobelanish aloqasi ifodalaydigan ma'noviy munosabati jihatidan sodda va qo'shma gap farqlanadi. Sodda gapda bog'lovchisizlik, asosan, tenglanish munosabatini ifodalaydi va uyushiq bo'laklarda yuz beradi. So'z birikmasi tarkibidagi grammatik vositali tobelanishni bog'lovchisizlik, vositasizlikka almashtirib bo'lmaydi. Qo'shma gapda esa ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ham, bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ham bog'lovchisiz gapga aylantirish mumkin. Uning aloqa turi bog'lovchisiz aloqadir. *1. Botirlari kanal qazadi, shoirlari g'azal yozadi. (*H.Ol.). *2. Bor boricha, yo'q holicha.3. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi. (*Maqol*). 4. Yuragida qanday dard bor — mana bu menga sir. (*Oyb.*).*

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gap o'zaro tobe yoki teng bog'lovchi vositasiz birikadi. Ammo bu gapda mazmuniy va intonatsion yaxlitlik kuchayadi. Chunki bog'lovchi vosita, mazmuniy va intonatsion birikuvchanlik omili qo'shma gap tarkibida yaxlitlikni tashkil etib, ulardan biri kuchsizlansa, boshqalari buning evaziga kuchayadi. Demak, bog'lovchisiz

qo'shma gapda bog'lovchi vositaning hissasi mazmuniy va intonatsion birikuvchanlik omili zimmasiga yuklatiladi.

Ko'rinadiki, ikki yoki undan ortiq sodda gapning bir murakkab butunlikni tashkil etishi ularning shakliy (grammatik), mazmuniy va intonatsion muvofiqligi natijasida yuz beradi. Qo'shma gapni tashkil etayotgan sodda gap ohang jihatidan mutlaq tugallikka ega bo'lmaydi. Ammo mazmuniy va grammatik jihatdan nisbiy yakunlangan bo'ladi. Bu nisbiylik mustaqil sodda gapdagi tugallanganlikdan farqlanadi. Qo'shma gap tarkibida birikayotgan bir sodda gapning modal sifatlari ikkinchisiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Natijada yangi modal ma'no vujudga keladi. Bu masala kesimning MKSh va NKSh turi bilan ham zich aloqador hodisa. Shuningdek, qo'shma gap tarkibiy qismini bog'layotgan bog'lovchi vositadagi modal ma'no ham ana shu hosila modal ma'noga qorishadi.

Qo'shma gaplar tasnifi

Lisoniy birlik serqirra mohiyatli bo'lganligi bois kamida ikkita paradigmaga kiradi. Shu sababli biror butunlikka kiruvchi lisoniy birlikni kamida ikki tomondan tasniflash mumkin bo'ladi.

Qo'shma gap ham lisoniy birlik sifatida murakkab tabiatli bo'lib, bu murakkablik uning lisoniy sathda tutgan o'rni, tarkibidagi sodda gapning grammatik shakli va bog'lovchi vositalari hamda mazmuniy munosabatining rang-barangligi bilan belgilanadi. Shuningdek, qo'shma gap turlarini xilma-xil asoslarda turlicha tasniflash mumkin bo'ladi. Tasnif asosining aniqligi va izchil amalga oshirilishi masala mohiyatini oydinlashtirishda muhim.

Qo'shma gapning ma'noviy va struktur tasnifi ko'p holda o'zaro farqlanadi.

Formal sintaksis qo'shma gap tasnifida ko'p hollarda ularning nutqiy belgi-xususiyati, zohiriy alomatiga tayanadi. Substansial sintaksis tasnifi esa qo'shma gapning lisoniy mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Qo'shma gap, avvalo, sodda va uyushgan gapdan o'z qurilish usulining boshqachaligi bilan farqlanadi. Demak, umumiy lisoniy mohiyat sifatida gaplar qurilish qolipiga ko'ra dastlabki tasnifda uchga bo'linadi. (Tasnifda gaplarning eng kichik qurilish qolipiga tayanamiz).



Bunda, aytilganidek, sodda va qo'shma gap tasnifning chekka, uyushgan gap oraliq vaziyatini egallaydi.

Qo'shma gap ham o'z navbatida qolipning tur va ko'rinishiga ega bo'ladi.

[WPm-WPm] umumiy qolipining yuzaga chiqish turini, umumiy qolip bilan nutqiy ko'rinish orasidagi turli bosqichdagi oraliq qolipni aniqlash me'yori, belgi va mezonlarni muayyanlashtirmoq lozim bo'ladi.

Ma'lumki, qo'shma gapning tur va ko'rinishini o'rganishda sodda gapning eng kichik qolipi asos qilib olingan. Sodda gapning eng kichik qolipi **[WPm]**dan iborat bo'lsa, mantiqan qo'shma gapning qurilish qolipi

$$[W_1P_{m1}\text{-}W_2P_{m2}\text{-}W_3P_{m3}] \cdot n \text{ dir.}$$

Qo'shma gapning lisoniy qolipi $[W_1P_{m1}\text{-}W_2P_{m2}\text{-}W_3P_{m3}\cdot n]$ ekanligini nazarda tutgan holda qo'shma gapning eng kichik qolipi uchun $[WP_m\text{-}WP_m]$ ramzidan foydalaniladi.

Qo'shma gapning voqelanish usullarini belgilashda uch ko'rsatkichga tayaniladi:

1) $[WP_m]$larning egasi (**E**) bor-yo'qligiga, bir xil yoki boshqa xil ekanligiga;

2) $[WP_m]$ lar tarkibidagi (**W**)ning xususiyatiga (**W** larning bir xil yoki boshqa-boshqa bo'lishi, bir xil yoki har xil so'z turkumi bilan ifodalanishiga) ko'ra;

3) $[WP_m]$ tarkibidagi (P_m)larning bir xil yoki qisman bir xil ekanligiga ko'ra.

$[WP_m\text{-}WP_m]$ qolipining to nutqiy muayyan gaplargacha bo'linishlarini bundan boshqa o'lchov asosida ham berish mumkin. Masalan, ikkita $[WP_m]$ning bog'lanish usuli va yo'li, $[WP_m\text{-}WP_m]$ umumiy qolipining turli xil ko'rinishida tarkibiy qismlarining bog'lanish xususiyati va ularni bog'lovchi vositalar, qo'shma gap tarkibiga kirayotgan har bir $[WP_m]$da to'liq o'xshash, qisman o'xshash, yaqin va zich a'zoning bo'lish-bo'lmasligi, birinchi $[WP_m]$ tarkibida ikkinchi $[WP_m]$ga ishora qiluvchi

vositaning bor-yo'qligi, **[WP_m]** tarkibida nisbiy, bir-birini taqozo qiluvchi unsurning bor-yo'qligi kabilar shular jumlasidan.

Ega (E)ga ko'ra [WP_m-WP_m] turlari. Qo'shma gap bir umumiy egali va ikki xususiy egali qurilmaga bo'linadi:

a) bir egali qurilmaning qurilish qolipi **[E (WP_m-WP_m)]** ko'rinishida bo'ladi: *Men yanglishmayman, balki qanoatlanib so'zlayman.* (A.Qod.).

b) ikki egali qurilmaning qurilish qolipi **[(E_1- WP_{m1}) +(E_2-W_2P_{m2})]** ko'rinishida bo'ladi: *Bunda bulbul kitob o'qiydi, Bunda qurtlar ipak to'qiydi. (*H.Olim.*).*

(W)ga ko'ra [WP_m-WP_m] turlari: a) bir xil [W] li qurilmalar. [WP_m-WP_m]ning bu turi bir necha ko'rinishda bo'ladi:

1a) **(W)** lari bir xil so'zdan: *Siz so'zlamasangiz, men so'zlamoqchi edim. (*A.Qod.);

1b) **(W)** lari bir xil turkumdan: *Endi ortiq turma, tinch o'tir. (*A.Qod.*).*

2a) har xil **(W)** li qurilma. Bunda **(W)** lar turli turkumga oid so'z bilan ifodalanadi: 1.*Yoki mening ko'nglim hamma vaqt yosh, Yoki senga chiroy umrbod yo'ldosh. (*M. Bob.). 2. *Yana nima balo ismlari bor, tilim ham kelishmaydi. (*Oyb.).

(Pm)ga ko'ra [WPm + WPm] turlari:

a) bir xil **(P_m)** li qurilmalar: *Xotinim bordi, keldi.* («Mushtum»);

b) har xil **(P_m)** li qurilmalar: *Qaraysanmi, qaray qolgin.* («Mushtum»).

Demak, gap markazini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan **(P_m)** qo'shma gap tarkibidagi sodda gapda bir xil ham, har xil ham bo'lishi mumkin. Shunday hol ham bo'ladiki, **(P_m)** umumiy – bitta bo'lishi ham mumkin. Bunda endi qo'shma gap emas, balki uyushgan gap vujudga keladi. Ma'lumki, **[WP_m+WP_m]** qolipida **(P_m)** tarkibi har xil bo'lgan hollarda o'zbek tilining tabiati uni qavsdan chiqarish imkonini beradi. Chunki o'zbek, umuman, turkiy tillarda, bir necha so'zlar uyushganda umumiy shakl oxirgi so'z tarkibida kelishi qonuniyatiga tayansak, bunday gaplarning qolipi **[(W,W)P_m]** ko'rinishida bo'ladi. Misollar: 1. *Kelgan, ketgan edim.* 2. *Men o'qigan, yozgan edim.*

Kesimlarning har biriga ega qo'yilishi bilan ular uyushgan gapga aylanadi:1. *Men kelgan, Jamshid ketgan edi.* 2. *Men o'qigan, sen yozgan eding.*

Har bir kesimni shakllantirish bilan uyushgan gap qo'shma gapga aylanadi: 1. *Men kelgan edim, Jamshid ketgan edi.* 2. *Men o'qigan edim, sen yozgan eding.*

Susbtantsial tilshunoslik uqtirishicha, har bir lisoniy birlik ongimizda ma'lum bir shakl va mazmunning barqaror yaxlitligi sifatida yashaydi va xususiy hodisa sifatida nutqqa chiqadi. Bu nutqiy ko'rinish behisob miqdorga ega. Biroq ular bilan lisoniy birlik (umumiylik) orasida usullik ko'rinish mavjud bo'ladi. Yuqoridagi **[WP_m-WP_m]** usullik ko'rinish **[WP_m, WP_m]**, **[$WP_m \rightarrow WP_m$]** va **[$WP_m \leftrightarrow WP_m$]** oraliq ko'rinishlari orqali nutqiy gapga aylanadi.

Qo'shma gap tarkibiy qismlari o'zaro bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi so'z vositasida yoki mutlaqo ularsiz bog'lanadi. Bundan kelib chiqqan holda, qo'shma gaplarni bog'lovchili va bog'lovchisiz qo'shma gapga ajratish mumkin bo'ladi. Bog'lovchili qo'shma gap grammatik vosita bilan bog'langan qo'shma gap, leksik-grammatik vosita bilan bog'langan qo'shma gap va leksik vosita bilan birikkan qo'shma gapga ajraladi. Qo'shimchaning funksiyasiga ko'ra teng bog'lovchili va ergashtiruvchi bog'lovchili bog'langan qo'shma gap farqlanadi.

Qo'shma gap tarkibida sodda gapning o'zaro munosabati asosida ham qo'shma gapni tasniflash mumkin. Mazmun, grammatik va intonatsion munosabati nuqtayi nazaridan qo'shma gap quyidagi turlarga bo'linadi:

1) tarkibidagi sodda gap bir-birini mazmun va grammatik jihatdan taqozo etadigan qo'shma gap: 1. *Kunlar isidi va paxtalar yana qiyg'os ochildi.* 2. *Yovlariga osmon tutundir, shuning uchun bag'ri butundir.* (H.Ol.). 3. *Agar dunyoning narigi burchiga sizni opichlab borishga to'g'ri kelsaydi, men sevina-sevina bajarardim.* (Oyb.). 4. *Men shunday bir ish qildimki, o'lgunimcha bundan faxrlanaman;*

2) tarkibidagi gaplar bir-birini mazmuniy va intonatsion taqozo etadigan, biroq grammatik jihatdan talab qilmaydigan qo'shma gap: 1. *Biz yetib keldik, kutubxona ochildi.* 2. *Menga pul kerak, qayerdan olaman?* (Oyb.). 3. *Siz ishonmayapsiz, ishonmaysiz ham.* 4. *Endi men bir jumboq aytaman, sizdan javob kutaman.*

3) tarkibidagi gaplar bir-birini na mazmuniy, na grammatik taqozo etadigan, biroq intonatsion yaxlit bo'lgan gap: 1.*U otasini uyga tortdi, ukasi sekin qayrildi* (S.Nur). 2. *Bahor keldi, yoz ham kelib qoladi.* 3. *Sen o'z ishingni qil, men o'z ishimni.*

Xullas, qo‘shma gapning o‘zi kabi uning tasnifi ham turlituman. Quyida ulardan ayrimlarini keltiramiz (57-jadval):

57-jadval

1.Gapning lisoniy sintaktik qolipiga ko‘ra		
[WP_m, WP_m]	[WP_m WP_m] ⟶	[WP_m ⟷ WP_m]

2.Gap tarkibidagi bog‘lovchi vositalarga ko‘ra				
Ohang bilan bog‘langan [QG]	Teng bog‘lovchi bilan bog‘langan [QG]	Yuklamalar bilan bog‘langan [QG]	Nisbiy so‘zlar bilan bog‘langan [QG]	Tobe bog‘lovchilar bilan bog‘langan [QG]

3. Qo‘shma gap tarkibiy qismlari orasidagi ma’noviy munosabatning ifodalanishiga ko‘ra					
birin-ketinlik	sabab	o‘rin yoki payt	vazi-yat	izohlash yoki qiyoslash	ichki fikr

4. Qo‘shma gap qismlari orasidagi funksional munosabatlariga ko‘ra					
a) tenglik			b) tobelik		
biriktiruv	zid-lov	ayi-ruv	ega-kesim; aniqlov-chi aniq-lanmish	to‘ldiruv-chi to‘ldiril-mish	hol-hollan-mish

5. Qo‘shma gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra		
darak	so‘roq	buyruq

6. Qo‘shma gap tarkibiy qismlarining reallik va irrealligiga ko‘ra		
real gap	irreal gap	ritorik gap (irreal gapga yaqin turadi)

Qo'shma gapning qurilishiga ko'ra tasnifi

Qo'shma gapning umumiy lisoniy qolipi $[WP_m\text{-}WP_m]$ bo'lib, u quyidagi yana uchta oraliq ko'rinishga ajraladi:

$[WP_m, WP_m]$, $[WP_m \longrightarrow WP_m]$, $[WP_m \longleftrightarrow WP_m]$

Bu oraliq ko'rinishlar bir qarashda an'anaviy bog'lovchisiz, ergash gapli va bog'langan qo'shma gaplarning ramziy ko'rinishidek tasavvur uyg'otadi. (Masalan, *Bahor keldi va gullar ochildi* – $[WP_m, WP_m]$, *Bahor kelsa, gullar ochiladi* $[WP_m \longrightarrow WP_m]$ va *Bahor kelsa va gullar ochilsa* – $[WP_m \longleftrightarrow WP_m]$ kabi). Aslida bu qurilish qoliplari qo'shma gap tarkibidagi sodda gapni bog'lovchi vositaga ko'ra emas, balki qo'shma gap tarkibidan chiqarilganda mustaqil qo'llana olish-olmaslik belgisi asosida amalga oshirilgan. Bunda, albatta, asos sifatida kesimlik turlari – MKSh va NKSh ga tayaniladi.

Demak, qo'shma gaplarning lisoniy struktur turlarini belgilashda asosiy omil – qo'shma gap tarkibidagi to'liq shakllangan sodda gaplarning o'zaro munosabati va sodda gapning har birining nutqiy jarayonda qo'shma gap tarkibida voqelangan ma'nolari bilan qo'llana olish yoki qo'llana olmasligi belgisi.

$[WP_m, WP_m]$ usullik ko'rinishli qo'shma gap

$[WP_m, WP_m]$ qolipli qo'shma gapning mohiyati shundaki, uning tarkibiy qismi bo'lgan sodda gap kesimining har biri mustaqil shakllangan bo'lib, ularni osongina alohida sodda gapga aylantirib yuborish mumkin: 1. *Men seni o'ylayman, shuni bilasanmi?* (X.To'xt.). 2. *Borish kerak, borish kerak.* (X.To'xt.). 3. *Yigitni uchratish kerak, haytovur sovib qolgandir.*(N.Til.). 4. *Men seni deyman, lekin sen kimni deysan?* (S. Nur.).

$[WP_m, WP_m]$ usullik ko'rinishli gaplarda mustaqil kesimlik shakli (MKSh)dagi gaplar birlashtiriladi. Birlashish intonatsion va mazmuniy omil asosida, ko'p hollarda bog'lovchi vositasida amalga oshiriladi.

$[WP_m, WP_m]$ usullik ko'rinishli qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gap orasida turli ma'noviy munosabat mavjud bo'ladi. Masalan, mazkur qolip asosidagi *O'qituvchi keldi, dars boshlandi* gapida quyidagi rang-barang munosabatlar bor:

a) uzilishli birin-ketinlik;
b) uzilishsiz birin-ketinlik;
d) payt munosabati;

e) natija munosabati;

f) sabab munosabati va hokazo. Bu munosabat har bir gapning tarkibidagi (W) va (P_m) lar, qo'llangan bog'lovchi vositaning ma'no va vazifalari bilan bog'liq, bevosita sintaktik strukturaga daxldor emas. Chunki bir fikrni turli sintaktik shaklda, turli fikrni bir sintaktik shaklda berish mumkin bo'ladi.

Demak, **[WP_m,WP_m]** usullik ko'rinishining umumiy xususiyatini quyidagicha belgilab olamiz: **[WP_m,WP_m]** bu mustaqil sodda gap sifatida qo'llana oladigan birdan ortiq gapning nutqda ma'lum bir bog'lovchi vosita bilan o'zaro bog'lanishi va bitta tugal ohangga, bitta gap to'xtamiga ega bo'lishi. Ma'lum bo'ladiki, **[WP_m, WP_m] [WP_m-WP_m]** umumiy qolipining oraliq bir ko'rinishi sifatida lison va nutqqa daxldor bo'ladi. **[WP_m,WP_m]** usullik qurilishli gap (W) va (P_m), shuningdek, (S) xususiyatiga ko'ra farqlanadi.

[WP_m,WP_m] usullik ko'rinishli gapni ular kengaytiruvchilarining xususiyati (tuzilishi, ifodalanishi), bog'lovchi vositalarining xossalari asosida ham yanada kengroq va batafsilroq tavsiflash mumkin.

[WP_m ⟶ WP_m] usullik ko'rinishli qo'shma gap

[WP_m ⟶ WP_m] usullik ko'rinishli gapda har ikkala sodda gap ham shakllangan (P_m)ga ega bo'lsa-da, birinchi gapning markazi mustaqil sodda gap kesimi (MKSh) bo'la olmaydi. U hamisha tobe gap markazini shakllantiruvchi vosita sifatida o'z mazmunini namoyon qilish uchun o'zidan keyin mustaqil holda namoyon bo'la oladigan, voqelanishi uchun oldingi gapga ehtiyoj sezmaydigan gap bo'lishini taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, bu usullik ko'rinishli gap tarkibidagi oldingi sodda gapning kesimi NKSh bilan, keyingisi MKSh bilan shakllangan bo'ladi: 1. *Firuza toshli uzukni olar ekan, Saidaxonning ko'zlari quvonchdan yaltirab ketdi.* (S.Ahm.). 2. *Dilshoda guruchni endi tuzlagan ham ediki, ichkaridan Anvar chiqib keldi.* (A.Qod.). 3. *Botirjon telefonda endi gaplashib bo'luvdiyam, choy ko'tarib Qirmizxon kirib keldi.* (N.Amin.). 4. *Havo ochilsa, aylanishga boramiz.* (S.Nur.). 5. *Unga ustozi chin dildan «barakalla», «barakalla» desa, Aziz ko'nglida to'lib turgan niyatini ham aytadi.* (S.Ahm.).

Bu gaplarning barchasidagi birinchi sodda gap mustaqil qo'llana olmaydi, qo'llanganda ham ushbu qo'shma gap tarkibidagi ma'noni bera olmaydi. Keyin turgan sodda gap esa bunday emas.

[$WP_m \longrightarrow WP_m$] turli qo'shma gap tarkibidagi nomustaqil kesimni hosil qiluvchi turli-tuman vosita bor. Nomustaqil kesim shaklining o'zbek tilidagi usullik vakili shart mayli qo'shimchasi [*-sa*] dir. Masalan, *Men o'qisam, u eshitadi* gapida *U eshitadi* gapi o'z holicha mustaqil sodda gap bo'lib kela oladi, *Men o'qisam* qismi esa qo'shma gap tarkibidan tashqarida shu holicha mazkur mazmunni bera olmaydi.

[*-sa*] qo'shimchasi bilan shakllangan kesimli gap mustaqil qo'llanaverishi ham mumkin. Masalan: 1. *Avra-astarini ag'darib mohiyatiga nazar tashlasangiz.* (S.Az.). 2. *Qishloqqa borsam.* (A.Qah.). 3. *Vatangadolikning men tortmagan azob-uqubati, ozori bo'lmasa kerak.* (S.Az.). 4. *Nahotki, o'ldirsalar.* 5. *Menga, Iskandariyadagi mashhur devonaga, Berlindan telegramma kelsa bo'ladimi?* (S.Az.). 6. *Qani, hey Mamadali, gapirsang-chi..* (A.Qah.). *U*shbu gaplarda [*-sa*] shart mayli qo'shimchasi istak, achinish, sevinch, qistash kabi ma'noviy bo'yoqlarga ega. Bu gaplar o'zidan keyin keluvchi gaplar bilan mazmunan bog'lanib, matn yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu kabi gaplar qanchalik mustaqil qo'llana olmasin, baribir o'zidan keyin qandaydir qurilmalarning bo'lishini taqozo qiladi. Masalan, — *Uyga qaytsam. Nima deysiz?* — *Yaxshi bo'lardi* kabi.

[*-sa*] biriktiruvchi unsur sifatida quyidagi mazmunning ifodalanishiga sabab bo'ladi:

a) payt: *Borsam, joyi gulzor ekan, ko'rsam o'zi jonon ekan.* (Qo'shiqdan);

b) to'siqsizlik: *Alisher Navoiy dunyodan o'tgan bo'lsa, uning asarlari tirik;*

d) shart: *Sen bo'lmasang, gullar kulmaydi, sen bo'lmasang, bo'lmaydi bahor.*

[*-sa*] unsuri tobelik vositasi sifatida ko'p hollarda ergash gapning kesimini shakllantiradi (yuqoridagi misollar). *Mehmonlarni jo'natdik, endi tarqalsak* gapidagi bosh gapni, *Mehmonlar kelsa, men ketsam* gapida ergash gapni ham, bosh gapni ham shakllantirgan.

[*-sa*] unsurining qo'shma gap tarkibida shart mazmunini ifodalashi bir xil emas. [*-sa*] shaklli ba'zi gapda shart mazmuni kuchli bo'lsa, ba'zilarida kuchsiz namoyon bo'ladi. Shart ergash gapli qo'shma gapda shart ma'nosi o'ta kuchli bo'ladi: *Siz bo'lmasangiz, men yashay olmayman.* Boshqa ergash gapli qo'shma gaplarda shart ma'nosi boshqa ma'nolar «soya»sida juda kuchsizlanadi: 1. *Aytsam, ko'nmadi.* 2. *Chaqirsam, eshitmadi.*

3. *Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.* 4. *Kim gapirsa, o'sha aybdor sanaladi.*

Ko'rinadiki, [*-sa*] shart mayli shakli faqat shart ergash gapli qo'shma gap uchungina xizmat qilmaydi.

[*-(a)r+di*] shakli ham **[WP_m ⟶ WP_m]** usullik ko'rinishidagi gapni hosil qiladi. Bu shakl ko'p hollarda [*-ar edi*] ko'rinishida keladi.

[*-(a)r+di*] shakli qo'shma gap tarkibidagi sodda gap kesimini shakllantirganda ikki xil vazifa bajaradi: *Halim o'qirdi* gapida fe'lning zamon shakli vazifasida kelgan. *Halim o'qirdi, ukasi qo'ymadi* gapida esa [*-(a)rdi*] «o'qigan bo'lardi» ma'nosini voqelantirishi uchun keyingi gap zarur. Demak, bunday holda [*-(a)rdi*] bog'lash, tobelash vazifasini bajarmoqda. Ko'rinadiki, *Halim o'qirdi, ukasi qo'ymadi* gapi omonimlik tabiatiga ega. Ya'ni:

Halim o'qirdi, ukasi qo'ymadi.

- *Halim har kuni o'qir edi, bugun esa ukasi qo'ymadi.* **([WP_m, WP_m])**
- *Halim o'qigan bo'lur edi, ukasi o'qigani qo'ymadi.* **([WP_m ⟶ WP_m])**

[*-(a)r ekan*] shakli qo'shma gapning **[WP_m⟶WP_m]** usullik ko'rinishining ham nomustaqil kesimini shakllantiradi. Misol: *Davron papirosini og'ziga keltirar ekan, qo'li hayajondan qaltirardi.* **[*-(a)r ekan*]** shakli **[WP_m,WP_m]** qolipli gaplar uchun ham xizmat qiladi: *U kelar ekan, demak, mening bormaganim ma'qul.*

[*-(a)r*] shakli qo'shma gapning **[WP_m ⟶ WP_m]** usullik ko'rinishi hosilalari tarkibida kelganda quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

a) shart: *Agar ana shu ishga munosib hissa qo'shar ekanman, xalq ishonchini oqlagan bo'laman.*(Sh.Rash.);

b) payt: *Jannat xola begona betob bola tepasida o'tirib, o'z bolasini o'ylarkan, ko'zlaridan dumalab tushayotgan achchiq yoshlari ajinli yuzlarini kuydirardi.* (S.Ahm.);

d) sabab: *Kechani kecha, kunduzni kunduz demay ter to'kar ekanmiz, turmushimiz ham farovon bo'lishi shart. (*Sh.Rash.*).*

[*-gan edi*] shakli, odatda, **[WP_m, WP_m]** qolipli gaplarni ham hosil qiladi. Chunki bu ham omonimik tabiatli shakl. Lekin uning

tarkibiga boshqa birlik kiritilishi bilan qo'shma gap a'zolari orasidagi tenglik munosabati so'nib, tobelik munosabati vujudga keladi. Masalan, *Qopqon tomonga burilgan edi, baqiriq-chaqiriq boshlandi* gapi **[WP_m, WP_m]** va **[WP_m WP_m]** qolipiga tushadi.

[*-gan ham edi*]: *Ergash ko'ringan ham edi, bolalar yugurishdi.* (S.Nur.).

[*-gan edi hamki*]: *Arz qilishga og'iz juftlagan edi hamki, kulimsirab turgan Burgut polvonga ko'zi tushdi.* (S.Ahm.).

[*-ganda edi*]: *Bizning duomiz ijobat bo'lganda edi, hammamiz sevinardik.* (A.Shorah.).

Keltirilgan misollarning barchasida gaplarning birinchi qismlari ikkinchi qismlarining kelishini talab qiladi.

[*-(i)b edi*] shakli ham ayrim hollarda **[WP_m ⟶ WP_m]** tipini vujudga keltirishda ishtirok etadi: *Shu kuni endi ko'chaga chiqib edi, Zunnun boshliq besh nafar bola poylab turgan ekan.* (M.Ism.).

[*deb*] vositasi: 1. *Xolmurod Gulsunning o'qituvchisini ko'rsam deb, deraza orqasidan sekin qaradi.* (P.Turs.). 2. *Bolalar ovqatlanamiz deb, birdan shiypon tomon yo'l oldilar.* (H.Naz.).

Qo'shma gapning **[WP_m ⟶ WP_m]** usullik ko'rinishi hosilalari tarkibiy qismlari uchun nafaqat qo'shimcha, balki ularga ko'makchi maqomidagi nisbiy so'zlar ham muhim: 1. *Kim ko'p ishlasa, ko'p haq oladi.* 2. *Kimki chindan sevsa yorini, umri hamisha bahor.* 3. *Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir, Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.* (Bob.). 4. *Gulnora qachon kelsa, Jahongir hozir-u nozir.*

Ko'rinadiki, qo'shma gap tarkibiy qismlarining hokim-tobelik munosabatini namoyon qilishda nisbiy so'z nomustaqil kesimlik shakliga qo'shimcha vositadir.

Qo'shma gap tarkibiy qismlari inversiya holatida ham bo'ladi: 1. *Borishim kerak, aytmasa ham.* Bunday gaplar qo'shma gapning **[WP_m ⟵ WP_m]** qolipi ham mavjudligidan dalolat bermaydi, balki ular **[WP_m ⟶ WP_m]** usullik ko'rinishining nutqiy xoslangan mahsuli. Demak, qo'shma gapning ko'p hosila beruvchi usullik qolipidan biri **[WP_m ⟶ WP_m]** dir. Bunda birinchi gap kesimi shaklan va mazmunan ikkinchi bir gapga ehtiyoj sezadi, lekin aksincha emas.

Tobelik munosabatini ta'minlashda sof nomustaqil kesimlik shakli ham, omonimlik kesimlik shakllari ham xizmat qiladi.

Nisbiy so'zlar nomustaqil kesimlik shakllarining vazifasini mustahkamlovchi vositadir.

[$WP_m \leftrightarrow WP_m$] usullik ko'rinishli qo'shma gap

[$WP_m \leftrightarrow WP_m$] umumiy ko'rinishli qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gap kesimining biri ikkinchisini, ikkinchisi birinchisini taqozo qiladi. Ikkalasining ham kesimi NKSh hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bu sodda gap qo'shma gapdan anglashilgan mazmunni ifodalash uchun bir-biriga ehtiyoj sezadi: 1. *O'zi so'rasa ekan, men aytsam.* (P.Tur.). 2. *Agar suv bo'lsami, hosilga hosil qo'shilardi.* (Sh.Rash.). 3. *Agar Bozor o'qiganda edi, momosining orzusi ushalgan bo'lur edi.*(N.Ilh.). Bunday qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni mustaqil qo'llash mumkin. Lekin ular mustaqil qo'llanganda, butunlay boshqa ma'no yuzaga chiqadi: 1. *Halim biznikiga kelardi* (o'tgan zamon davom fe'li – *Tez-tez kelib turar edi* ma'nosida). 2. *Biz birga borardik* (o'tgan zamon davom fe'li – *Birga borib turar edik* ma'nosida). Ammo gaplar ushbu kesimlik shakllarini o'zgartirmasdan birlashtirilib, qo'shma gap hosil qilinsa, *Halim biznikiga kelardi, biz birga borardik* (Mazmuni: *Halim biznikiga kelsa edi, biz birga borgan bo'lur edik*) va gap kesimlari **[$WP_m \leftrightarrow WP_m$]** ko'rinishidagi birikuvni hosil qiladi.

[$WP_m \leftrightarrow WP_m$] usullik ko'rinishli qo'shma gaplarning kesimlarini shakllantiruvchi vositalar kam miqdorni tashkil etadi:

I. a) birinchi qismda [*-sa*], ikkinchi gap kesimida [*-(a)rdi*] shakli keladi: 1. *Oyi, havo ochilib ketsa, birga daryo bo'yiga borar edik.* (M.Saf.). 2. *Yoz kelsa, bitta asbobni olib, boshqa yurtlarga ish qidirib ketardi.* (P.Turs.);

b) birinchi gap kesimida [*-sa ekan*], ikkinchi gap kesimida [*-sa*] shakli keladi: 1.*Otam bo'lsa ekan, men endi yursam.* (F.Yo'ldosh.) 2. *Yoz bo'lsa ekan, daryoda cho'milsang.* (S.Nur.);

d) birinchi gap kesimida [*-sa+mi*], ikkinchi gap kesimida [*-ardi*] shakli keladi: 1. *Bo'z o'tlarning ming-ming yillardan buyon chirib yotgan ildizlari bu yerlarni o'g'itlab, semirtirib yuborgan, agar suv bo'lsami, tog'-tog' hosil bitardi.* (Sh.Rash.). Ba'zan [*-mi*] yuklamasi [*-sa*] shakliga bevosita qo'shiladi: 1. *Mabodo uning qo'lidan yetaklasa bormi, mushkuli osonlashib, ahvoli yengillashardi.* (A.Qah.). 2. *G'ing desa bormi, jonini sug'urib olardi.* (S.Nur.).

e) birinchi gap kesimida [*-sa edi*], ikkinchi gap kesimida [*-(a)rdi*] shakllari keladi: 1.*Onam bo'lsa edi, qishlog'imga ketardim.* (Oyb.). 2. *Agar Bozorning aqli bo'lsa edi, menga, senga o'xshash kambag'allar bilan maslahat qilar edi.* (S.Ayn.).

f) birinchi qismi [*-sa*] va ikkinchi qismi [*-ma+sin ekan*] shakli bilan keladi: 1. *Yetim qoladigan bo'lsa, onadan tug'ilmasin*

ekan. (P.Tolib.) Bu shakllar bilan qo'llangan gap, asosan, shart, istak, ishonchsizlik, shart-istak kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Yuklamalar gap tarkibiga kirib qo'shma ma'no berish bilan birga, kesimlarning nomustaqilligini yanada kuchaytiradi:

a) [*-u/yu*] yuklamasi: *Ko'zim tezroq ochilsa-yu, bog'larni maysalarni ko'rsam.* (Sh. Rash.).

b) [*-da*] yuklamasi: *Quvonchi ko'ksiga sig'masa-da, odob yuzasidan o'zini hazin tutishga tirishar edi.* (Oyb.).

d) axir, nahotki yuklamalari: 1. *Axir xotinim deb, bola-chaqam deb olov ichidan kelsa-yu, bu tantiq undan yuz o'girsa.* (S. Ahm.). 2. *O'g'li qahramon bo'lsa-yu, nahotki, undan shunday ish kelib chiqsa.* (S.Ahm.).

Yuklamalar qo'shma gapdan anglashilgan yuqoridagi shakllar ma'nosida taajjub, ta'kid kabi bo'yoqlarini orttiradi.

II. a) birinchi gap kesimida [*-sin edi*], ikkinchi gap kesimi tarkibida –[*(a)rdi*] birliklari qo'llanadi: 1.*O'zi kelsin edi, aytardi.* (N.Til.). *2.Keksa ovora bo'lmasin edi, o'zi berib kelardi.* (N.Til.).

b) birinchi qism kesimi tarkibida [*-sin edi*], ikkinchi gap kesimi tarkibida [*-sa*] shakli keladi: 1. *Oltin-kumush qurib ketsin edi, hammaning oyog'iga to'kilaversa.* (Oyb.). *2. O'zi borsin edi, ko'ngli to'lmasa.* (S.Nur.).

III. Birinchi gap kesimida boshqa shakllar, ikkinchi gap kesimida [*-(a)rdi/-(a)r edi*] shakli keladi: 1. *Men bo'lmasam, qo'yning yarmi yo'qolar edi.* (G'.G'ul.). 2. *Lekin hozir Gulnorning gavdasini parchalab tashlasalar ham, og'riq sezmagan bo'lur edi.* (Oyb.).

IV. Birinchi gap kesimi [*-gan edi*] birligi bilan, keyingisi boshqa birliklar bilan keladi: 1. *Agar bu ikki batalon bu yerdan ketmaganda edi, to'plar himoyasiz qolgan bo'lur edi.* (L. Tolc.).

Qo'shma gap tarkibida nisbiy so'z ishtirok etganda, sodda gaplar nomustaqillik kasb etgandek tasavvur uyg'otadi: 1. *Kim devorning narigi tomonida bo'lsa, u omon qoldi.* (R.Fay.). 2. *Qayer obod bo'lsa, o'sha yer mehrni tortadi.* 3.*Qo'shning tilini nechog'lik yaxshi bilsang, uni tutish shunchalik oson bo'ladi.*(Hamz.) Biroq bunda mazmuniy va shakliy nomustaqillik-mustaqillikni farqlash lozim bo'ladi. *Halim kelsa, u voqeani aytib beradi* qo'shma gapi shakliy jihatdan $[WP_m \rightarrow WP_m]$ usullik ko'rinishi hosilasi. Chunki birinchi gapni ikkinchisisiz qo'llab bo'lmaydi. *Kim kelsa, u voqeani aytib beradi* gapining har ikkala qismi mazmunan bir-birini taqozo etadi, shaklan esa $[WP_m \leftrightarrow WP_m]$ qolipi mahsulida ham, $[WP_m \rightarrow WP_m]$ mahsulida ham nisbiy so'zlar ishtirok etadi.

Ammo $[WP_m \rightarrow WP_m]$ qolipli gaplarda u mutanosiblikni kuchaytiradi, ammo uni hosil qilmaydi.

Demak, $[WP_m\text{-}WP_m]$ umumiy qolipining ko'rinishidan bo'lgan $[WP_m \leftrightarrow WP_m]$ qolipi har ikkala uzvi kesimlarining ham nomustaqilligi bilan xarakterlanadi.

Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra tasnifi

Bu tasnif sof shakliy bo'lib, gap orasidagi ma'noviy bog'lanish qanday qo'shimcha (shakliy) vosita bilan ta'minlanishiga tayanadi. Bu asosga ko'ra qo'shma gapning quyidagi turlari ajratiladi:

a) faqat ohang bilan bog'langan qo'shma gap;

b) yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gap;

d) teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap;

e) ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap;

f) nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gap.

Bog'lovchi vositalarning ma'nodoshligi va vazifadoshligi

Qo'shma gaplarning bog'lovchi vositalarga ko'ra yuqorida berilgan 5 turi asosida ma'nodoshlik munosabati juda kuchli. Xususan, faqat ohang bilan bog'langan qo'shma gapda ifodalangan ma'noviy munosabat qo'shma gapning boshqa turi bilan ham berilishi mumkin. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap va faqat ohang bilan bog'langan qo'shma gap sinonimiyasi juda keng. Qiyoslang: 1. *Bahor boshlandi, dalada ishlar qizidi.* 2. *Bahor boshlandi va dalada ishlar qizidi.*

Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari

Bu tasnifda qo'shma gap tarkibidagi qism (gap)lar o'rtasidagi ma'noviy munosabatga asoslaniladi va ikkita muhim nuqtaga e'tibor qaratiladi:

1) qo'shma gap tarkibiy qismlari orasida qanday ma'noviy munosabat (masalan, payt, o'rin, sabab, birin-ketinlik, bir vaqtdalik, izohlash, qiyoslash va h.) ifodalanganligi;

2) aynan bir ma'noning turli yo'llar bilan ifodalanishi mumkinligi (yoki aksincha).

Shakl va mazmun munosabati nisbiy mutanosiblikda (ya'ni asimmetrik) bo'lganligi sababli qo'shma gapda polisemiya va omonimiya hodisalari kuzatiladi.

Jumladan, payt munosabatini ifodalashda quyidagicha sinonimiya hodisasini kuzatishimiz mumkin:

1. *O'qituvchi keldi, dars boshlandi.*
2. *O'qituvchi kelsa, dars boshlanadi.*
3. *O'qituvchi keldi-yu, dars boshlandi.*
4. *O'qituvchi keldi, shu zahoti dars boshlandi* va h.k.

Yoki shart shaklida bir nechta semantik munosabat ifodalanishi natijasida sintaktik polisemiya hodisasi kuzatilishi mumkin:

a) payt ma'nosi – *Borsam, ukam yo'q ekan;*

b) shart ma'nosi – *Ozodaxon kelsa, aytaman;*

d) to'siqsizlik ma'nosi – *Aqidaxon kelsa ham, aytaman* va h.k.

Qo'shma gap tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra tasnifi bilan qo'shma gap qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra tasnifi o'zaro bog'liq. Tom ma'noda bu tasnif tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi bog'lovchining o'z ma'nolari bilan aloqador. Masalan, *agar* shart va payt ma'nolarini beradi.

Bog'lovchilar ma'nosi va gap semantikasi, juda ko'p holatda bog'lovchilarning o'zgarishi gaplararo o'zaro munosabatlarning qisman yoki butunlay buzilishiga olib keladi. Masalan, *O'qituvchi keldi, dars boshlandi* qo'shma gapi turli bog'lovchi bilan bog'langanda har xil munosabatni yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan:

1. *O'qituvchi keldi, dars boshlandi.*
2. *O'qituvchi keldi, chunki dars boshlandi.*
3. *O'qituvchi keldi, shu sababli dars boshlandi.*
4. *O'qituvchi keldi, natijada dars boshlandi* va h.k.

Qo'shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra turlari

Bu tasnifda qo'shma gap tarkibidagi gaplar bir-biriga qanday sintaktik munosabatda ekanligi nazarda tutiladi. Qismlari orasida funksional munosabatiga ko'ra qo'shma gap har xil bo'ladi. So'z qo'shilmasida, uyushiq bo'lakda bo'lgani kabi, gap orasidagi munosabat tenglik (birikish, zidlanish, ayirish) yoki tobelik tabiatida bo'lishi mumkin. Tenglik munosabati ko'p holatda faqat ohang bilan bog'langan qo'shma gap, yuklama bilan bog'langan

qo'shma gap esa teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap orasida ko'riladi. Bog'lovchi va yuklamaning ma'nosiga ko'ra qo'shma gap tarkibiy qismlari orasidagi munosabat:

a) mo'tadil birin-ketinlik: *Bahor boshlandi, dalada ishlar qizidi. Bahor boshlandi va dalada ishlar qizidi;*

b) uzilmas birin-ketinlik: *Bahor boshlandi-yu, dalada ishlar qizidi;*

d) ayiruv: *Goh yig'ladi, goh kuldi;*

e) zidlov: *Keldi, lekin gapirmadi. Tortindi, lekin kirdi.*

Qo'shma gap tarkibiy qismlari orasida tobelik aloqasi mohiyatan so'z birikmasi tarkibiy qismlari orasidagi hokim-tobelik munosabati bilan o'xshash. Farq shundaki, bunda tobe qism ham, hokim qism ham alohida gap bilan ifodalanadi. Bu masala tilshunosligimizda «Ergash gapli qo'shma gaplar» mavzusi doirasida chuqur va atroflicha o'rganilgan.

Gap bo'laklariga muvofiq ravishda bunday qo'shma gaplar 5 turga ajratiladi.

1. Kesim tobe gapli qo'shma gap: *Meni hayratda qoldirgan narsa shuki, qiz juda og'ir yarador bo'lishiga qaramay jilmayar edi.* (Oyd.).

2. Ega tobe gapli qo'shma gap: *Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi.* (Maq.).

3. Hol tobe gapli qo'shma gap: *Yomg'ir aralash qor yog'ib turgan bo'lsa ham, u negadir shoshilmas, xayol bilan band edi.* (O.Yoq.).

4. To'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap: *Shunga erishishimiz kerakki, ayollar hayotning har bir sohasida yerlar bilan teng bo'lsin.* (A.Qah.).

5. Aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap: *Umrlar bo'ladiki, tirigida o'likdir. Umrlar bo'ladiki, mangulikka tirikdir.* (M.Shayx.).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu tasnif ma'no bilan bog'liq bo'lganligi sababli bir qo'shma gapning o'zi xilma-xil tasnif etilishi mumkin.

Qo'shma gap tarkibiy qismlarining ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Qo'shma gapning o'zi yaxlitlikda ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq ma'nolarini ifodalaydi.

1. *Bordik, ko'rdik.*
2. *Bordimi, ko'rdimi?*
3. *Borsin, ko'rsin!*

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'zi ham ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq ma'nosiga ega bo'lishi mumkin. Bu quyidagi turlarni beradi:

1) darak gap + darak gap. *Bordik, ko'rdik.*
2) darak gap + so'roq gap. *Bordik, ko'rdingmi?*

3) darak gap + buyruq gap. *Boramiz, sen ham kel.*
4) so'roq gap + so'roq gap. *Kecha bordingmi, uni ko'rdingmi?*
5) so'roq gap+darak gap. *Borasanmi, u keldi*
6) so'roq gap+buyruq gap. *Keldingmi, kir!*
7) buyruq gap+buyruq gap. *Bor, ko'r!*
8) buyruq gap+so'roq gap. *Unga ayt, borasanmi?*
9) buyruq gap+darak gap. *Kelsin, unga aytamiz.*

Qo'shma gap tarkibiy qismlarining irreallikka munosabatiga ko'ra tasnifi

Nutqdagi qo'shma gaplar tarkibiy qismi kesimlari shakllarining erkinligi yoki o'zaro mutanosibligi, bog'liqligi jihatidan tasnif etilishi mumkin. Bu belgiga ko'ra qo'shma gap ikki turga ajratiladi. Birinchi juda katta guruhni **[WP_m, WP_m]** LSQ hosilalari tashkil etadi. Bunday gaplarda qo'shma gap tarkibiy qismlari kesimlari rang–barang ko'rinish va shaklda bo'ladi. Chunonchi, xabar mayli+xabar mayli (*Yozibdi, keladi* yoki *U keldi, biz yozamiz*), xabar mayli + buyruq mayli (*Yozibdi, boraylik*), buyruq mayli + buyruq mayli (*Boring, ko'rishsin*), buyruq mayli + xabar mayli (*Keling, boramiz*). Bu bo'linishda ikkinchi guruhni **[$WP_m \rightarrow WP_m$]**, **[$WP_m \leftrightarrow WP_m$]** LSQ hosilalari – tobe va mutanosib tarkibli qo'shma gaplar tashkil qiladi. Bu turdagi qo'shma gaplarda tobe tarkib (odatda qo'shma gapning birinchi gapi) kesimi nomustaqil kesim shaklida bo'ladi. Bunda o'ziga xos qonuniyat mavjud. Tobe gapning kesimi irreal (ya'ni kelasi zamondagi hali sodir bo'lmagan, sodir bo'ladigan) xarakat holatini atab kelsa, ikkinchi gap kesimi ham shunday ma'noga ega bo'ladi va odatda hozirgi – hozirgi-kelasi, kelasi zamon yoki buyruq mayli shakllarida bo'ladi. Masalan: *Kelsa, boradi.*

Bu holatda qo'shma gap tarkibiy qismlari kesimi o'zaro muvofiqlashadi. Agar ikkinchi gap kesimi o'tgan zamon shakllaridan birida bo'lsa, kuchli ifodaviylik voqelanadi: *Kelsa, ish bitdi!* yoki *So'rab qolsa, tamom deyavering!*

Bunda qo'shma gap kesimlari o'tgan zamon shakllarida kelganda, to'siqsizlik (irreallik) ma'nosi voqelanadi: *Kelsaydi, ko'rardik* yoki *Ukam bo'lsangiz edi, baxtiyor bo'lardik.*

MUNDARIJA

MAS'UL MUHARRIRDAN.....3
KIRISH.....8
I QISM. O'ZBEK XALQI VA TILI TARIXIDAN
O'zbek xalqining shakllanish va nomlanish tarixidan.....9
O'zbek tili tarixini davrlashtirish.....15
Hozirgi o'zbek tili va uning shevalarda munosabati.....16
O'zbek tilining o'rganilish tarixi va bosqichlari.....18
II QISM. TIL, LISON, ME'YOR VA NUTQ MUNOSABATI. TIL SATHLARI VA BIRLIKLARI
Ilmiy bilish va uning bosqichlari.....26
Falsafiy UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi.....28
Til, lison, me'yor va nutq munosabati.....31
Lisoniy va nutqiy birlik.....36
Lisoniy paradigma va uning turlari.....41
Lisoniy munosabat va uning turlari.....43
Lisoniy ziddiyat va uning turlari.....45
Lisoniy tasnif va uning turlari haqida tushuncha.....49
FONETIKA-FONOLOGIYA
Fonetika va fonologiyaning o'rganish manbai, predmeti, maqsad va vazifalari.....53
Unli fonemalar paradigmasi.....57
Undosh fonemalar paradigmasi.....58
Fonemaning variantlashuvi.....62
Fonetik jarayon.....65
Morfonologiya.....68
O'zbekcha talaffuz me'yori.....72
GRAFIKA
Grafika haqida tushuncha.....74
Yozuvning tarixiy ahamiyati.....77
O'zbek yozuvi tarixidan qisqacha ma'lumot.....77
IMLO
O'zbek imlosining asosiy tamoyillari.....81
LEKSIKOLOGIYA
Leksikologiya haqida tushuncha.....83
Leksema va so'z.....85
Bir sememali va ko'p sememali leksemalar.....90

Yasama so'zning leksemalashuvi.....93
Semema va uning tarkibiy qismlari.....95
Semema va nutqiy ma'no.....104
Sememaning nutqqa xoslanishi.....107
Hosila sememaning vujudga kelish yo'llari.....108
Leksik-semantik munosabat.....112
Qo'llanilishi chegaralanmagan va chegaralangan leksika.....119
Qo'llanilish davri chegaralangan leksika.....120
Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika.....122
Ifodaviylik va uslubiy xoslanganlik jihatidan o'zbek tili leksikasi.....126
Uslubiy xoslanganlik.....127
Frazeologiya.....128
Frazeologizmning semantik strukturasi.....131
Leksikografiya.....133
MORFEMIKA
DERIVATSIYA
GRAMMATIKA. MORFOLOGIYA
Grammatik ma'no va grammatik shakl.....148
Grammatik kategoriya.....148
Aloqa-munosabat kategoriyalari.....169
SO'Z TURKUMLARI
So'z turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari.....177
So'z turkumlari transpozitsiyasi.....183
Fe'l.....185
Fe'l derivatsiyasi.....190
Fe'lning tasniflovchi grammatik kategoriyalari.....192
Nisbat kategoriyasi.....193
Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi.....197
Harakat tarzi kategoriyasi.....199
O'zgalovchi kategoriyasi.....202
Fe'lning harakat tabiatini ko'rsatuvchi shakllari.....210
Fe'llarda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi.....211
Ot.....221
Ot derivatsiyasi.....225
Son otning tasniflovchi grammatik kategoriyasi sifatida.....229
Otda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi.....232
Sifat.....237

Sifat derivatsiyasi.....239
Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida.....242
Sifatda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi.....243
Son.....246
Ravish.....254
Taqlid.....257
Olmosh.....259
Yordamchi so'z.....264
Ko'makchi.....268
Bog'lovchi.....274
Yuklama.....277
So'z–gap.....280
SINTAKSIS
Sintaksis haqida umumiy ma'lumot.....284
LSQ ni ajratish usullari. LSQni tiklash.....291
Valentlik.....294
SO'Z BIRIKMASI
So'z birikmasi nutq birligi sifatida.....305
So'z birikmasi lisoniy sathda.....318
GAP HAQIDA MA'LUMOT
Gap kommunikativ nutqiy birlik sifatida.....324
Gapda shakl va mazmun munosabati.....329
GAP LISONIY SATHDA
Gap LSQsi va uning tiklanishi.....331
Sodda gapning tarkibiy qismlari.....335
Lisoniy sathda gap bo'laklari.....338
Kesimlik kategoriyasi.....340
Kesim.....345
Ega.....347
Hol.....353
To'ldiruvchi.....357
Aniqlovchi.....360
So'z va gap kengaytiruvchilarining muvofiqlashuvi va farqlanishi.....364
Gapda ajratilgan so'zshakllar.....368
Sodda gaplarda teng bog'lanish.....372
Undalma.....376
Gapning kirish va kiritma kengaytiruvchilari.....377

Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.....381
Gapda so‘z tartibi. Aktual bo‘linish.....383
Nutqiy gapning emotsionallikka ko‘ra turi.....386
Uyushgan gap.....387
Qo‘shma gap.....391
Qo‘shma gaplar tasnifi.....395
Qo‘shma gapning qurilishiga ko‘ra tasnifi.....400
[WP_m, WP_m] usullik ko‘rinishli qo‘shma gap.....400
[$WP_m \rightarrow WP_m$] usullik ko‘rinishli qo‘shma gap.....401
[$WP_m \leftrightarrow WP_m$] usullik ko‘rinishli qo‘shma gap.....405
Qo‘shma gapning tarkibidagi bog‘lovchi vositalariga ko‘ra tasnifi.....407
Bog‘lovchi vositalarning ma’nodoshligi va vazifadoshligi....407
Qo‘shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma’noviy munosabatga ko‘ra turlari.....407
Qo‘shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko‘ra turlari.....407
Qo‘shma gap tarkibiy qismlarining ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.....409
Qo‘shma gap tarkibiy qismlarining irreallikka munosabatiga ko‘ra tasnifi.....410

R.SAYFULLAYEVA, B.MENGLIYEV, G.BOQIYEVA,
M.QURBONOVA, Z.YUNUSOVA, M.ABUZALOVA

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2009

Muharrir:	M.Mirkomilov
Texnik muharrir:	A.Moydinov
Musahhih:	G.Doniyorova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Hasanova

Bosishga ruxsat etildi 26.08.2009. Bichimi 60x84 $^1/_{16}$.
«Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 24,5 . Nashriyot bosma tabog'i 24,0.
Tiraji 1000. Buyurtma № 108.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.
100003, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.

